



# O'ZBEKISTON MADANIYATI VA SAN'ATI

ILMIY-USLUBIY, NAZARIY-AMALIY  
ELEKTRON JURNALI



2026 / 2 (4)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON MADANIYATI  
VA SAN‘ATI**  
***ILMIY-USLUBIY, NAZARIY-AMALIY JURNALI***

**Ushbu elektron jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 31-oktyabrdagi 376/5-son qarori bilan  
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar natijalarini chop etishga tavsiya etilgan  
ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.**

**2026 / 2 (4)**

**Toshkent – 2026**

# “O‘zbekiston madaniyati va san‘ati” ilmiy-uslubiy, nazariy-amaliy elektron jurnali

**Bosh muharrir:**  
Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich

Tarix fanlari nomzodi, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

Yakubov Baxtiyor Choriyevich

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ma‘sul kotib:**

Xolmuminova Nigora Xankulovna

**Texnik muharrir:**

Abdulg‘oziyeva Ro‘zigul Normurod qizi

## Jamoatchilik kengashi

**Ozodbek NAZARBEKOV**

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti

**Shuhratilla RIZAYEV**

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori, filologiya fanlari nomzodi, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

**Otabek XASANOV**

Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi direktori, siyosiy fanlari doktori (DSc)

**Yodgor SA‘DIYEV**

O‘zbek Milliy akademik drama teatri direktori, O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti

**Nodira MUSTAFOYEVA**

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi boshlig‘i, tarix fanlari doktori, professor

**Kamola AKILOVA**

O‘zbekiston tasviriy san‘at galereyasi direktori, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, san‘atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor

**Jannat ISMOILOVA**

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor

**Umida TESHABOYEVA**

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi direktori, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Sirojiddin SAYYID**

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri

**Rustam ABDULLAYEV**

O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi, O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi

## Tahrir hay‘ati

**Muhabbat TULYAXODJAYEVA**

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**Sarvinoz QODIROVA**

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**Oltinoy TOJIBOYEVA**

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**Guzal XALIKULOVA**

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**Rustambek ABDULLAYEV**

O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**Ravshan YUNUSOV**

O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, san‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor

**Akbar XAKIMOV**

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**Nigora AXMEDOVA**

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**Abduxalil MAVRULOV**

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, tarix fanlari doktori, professor

**Sayyora TUYCHIYEVA**

Falsafa fanlari doktori, professor

**Viktor ALEMASOV**

Falsafa fanlari doktori, professor

**Marfua XAMIDOVA**

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**Dilafuz QODIROVA**

San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

**Ma‘rufjon YULDOSHEV**

Filologiya fanlari doktori, professor

**Guzalxon ISAKOVA**

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Muhammadjon QURONOV**

Pedagogika fanlari doktori, professor

**Absalom UMAROV**

Sotsiologiya fanlari doktori, professor

**Aziza KURBONOVA**

Pedagogika fanlari doktori, dotsent (DSc)

**O‘ktam NOSIROV**

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Zumriniso KOZIMOVA**

Dotsent

**Shoira ASADOVA**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Zoya ARISLANBOYEVA**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Nasiba TURG‘UNOVA**

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Robiya TURSUNMETOVA**

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Muhayyo MUXTOROVA**

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Shahlo HAMIDOVA**

San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Gulnoza BOBONAZAROVA**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

# Scientific-methodological, theoretical-practical electronic journal “Culture and Art of Uzbekistan”

**Editor-in-Chief:**

Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich  
Candidate of Historical Sciences, Professor

**Deputy Editor-in-Chief:**

Yakubov Baxtiyor Choriyevich  
PhD in Art Studies, Associate Professor

**Executive Secretary:**

Xolmuminova Nigora Xankulovna

**Technical Editor:**

Abdulg‘oziyeva Ro‘zigul Normurod qizi

## Public Council

**Ozodbek NAZARBEKOV**

Minister of Culture of the Republic of Uzbekistan,  
People’s Artist of the Republic of Uzbekistan

**Shuhratilla RIZAYEV**

Director of the Cinematography Agency under the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences, Professor, Honored Mentor of Youth of Uzbekistan

**Otabek KHASANOV**

Director of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment,  
Doctor of Political Sciences (DSc)

**Yodgor SA‘DIYEV**

Director of the Uzbek National Academic Drama Theatre,  
People’s Artist of the Republic of Uzbekistan

**Nodira MUSTAFOYEVA**

Head of the Department of Social and Humanitarian Sciences at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of History, Professor

**Kamola AKILOVA**

Director of the Gallery of Fine Arts of Uzbekistan, Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, Honored Cultural Worker of Uzbekistan, Doctor of Art Studies (DSc), Professor

**Jannat ISMOILOVA**

Director of the State Museum of History of Uzbekistan, Doctor of History, Professor

**Umida TESHABOYEVA**

Director of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi,  
Doctor of Philosophy (PhD) in History

**Sirojiddin SAYYID**

Chairman of the Writers’ Union of Uzbekistan, People’s Poet of Uzbekistan

**Rustam ABDULLAYEV**

Chairman of the Composers’ Union of Uzbekistan, Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan

## Editorial Board

**Muhabbat TULYAKHODZHAYEVA**

Doctor of Art Studies, Professor

**Sarvinoz QODIROVA**

Doctor of Art Studies, Professor

**Oltinoy TOJIBOYEVA**

Doctor of Art Studies, Professor

**Guzal KHALIKULOVA**

Doctor of Art Studies, Professor

**Rustambek ABDULLAYEV**

Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Art Studies, Professor

**Ravshan YUNUSOV**

Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Sciences in Art Studies,  
Professor

**Akbar KHAKIMOV**

Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, Honored Mentor of Youth of Uzbekistan, Doctor of Art Studies, Professor

**Nigora AKHMEDOVA**

Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of Art Studies, Professor

**Abduxalil MAVRULOV**

Honored Mentor of Youth of Uzbekistan, Doctor of History, Professor

**Sayyora TUYCHIYEVA**

Doctor of Philosophy, Professor

**Viktor ALEMASOV**

Doctor of Philosophy, Professor

**Marfua KHAMIDOVA**

Doctor of Art Studies, Professor

**Dilafuz QODIROVA**

Doctor of Art Studies, Professor

**Ma‘rufjon YULDOSHEV**

Doctor of Philological Sciences, Professor

**Guzalxon ISAKOVA**

Philological Sciences (DSc), Associate Professor

**Muhammadjon QURONOV**

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Absalom UMAROV**

Sociology Sciences, Professor

**Aziza KURBONOVA**

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**O‘ktam NOSIROV**

Candidate of Sciences Philosophical, Associate Professor

**Zumriniso KOZIMOVA**

Associate Professor

**Shoira ASADOVA**

Candidate of Sciences Historical, Associate Professor

**Zoya ARISLANBOYEVA**

Candidate of Sciences Historical, Associate Professor

**Nasiba TURG‘UNOVA**

Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies, Associate Professor

**Robiya TURSUNMETOVA**

Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies

**Muhayyo MUXTOROVA**

Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies

**Shahlo HAMIDOVA**

Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies

**Gulnoza BOBONAZAROVA**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

## I. TEATR VA KINO SAN'ATI

Farruh	<i>OMMAVIY BAYRAMLAR REJISSYORI SHAXSI HAMDA UNING KASBIY</i>	7
Egamberdiyev	<i>FAOLIYATI ZAMONAVIY MADANIY HAYOT KONTEKSTIDA</i>	
Aybek	<i>TOTALITARIZM DAVRI O'ZBEK KINEMATOGRAFIYASIDA</i>	15
Kopadze	<i>TARIXIY HAQIQAT TALQININING METAMORFOZALARI</i>	
Sardor	<i>PANTOMIMA SAN'ATI: SYUJET VA DRAMATURGIK</i>	23
Mannonov	<i>MUAMMOLAR</i>	
Otajon	<i>O'ZBEKISTON KINEMATOGRAFIYASINING BARQAROR</i>	29
Dostonov	<i>TARAQQIYOTIDA KINO MUALLIFLARI TA'LIMINING O'RNI</i>	
Farhod	<i>MUSIQALI TEATR AKTYORINI TARBİYALASHDA MATNNING</i>	37
Farmonov	<i>BADIIY VA MUSIQIY INTEGRATSIYASI</i>	
Gavhar	<i>SHE'RG'A YANGI "CHOPON" KIYGIZGAN CHO'LPON</i>	43
Nazarova	<i>("ARMON " HUIJATLI FILMI TALQINIDA)</i>	
Gulchehra	<i>TEATR SAN'ATIDA RAMZLAR VA ULARNING SHAXS</i>	52
Mufti-zade	<i>TARBIYASIDAGI O'RNI</i>	
Mohigul	<i>TEATR AKTYORINI TARBİYALASHDA STANISLAVSKIY</i>	57
Hamrayeva	<i>SISTEMASINING AHAMIYATI</i>	
Zaynab	<i>"HALIMA" SPEKTAKLI SAHNA</i>	62
Xudayarova	<i>TALQINIDA</i>	
Умид	<i>МЕТАФОРЫ В ФИЛЬМАХ РЕЖИССЕРА</i>	69
Маликов	<i>АЛИ ХАМРАЕВА</i>	
Mohina	<i>O'ZBEKISTON DRAMA TEATRINING SHAKLLANISH</i>	78
Isroilova	<i>BOSQICHLARI</i>	
Xusan	<i>ZAMONAVIY HIND VA O'ZBEK HAMKORLIK KINOLARIDA ESTETIKA</i>	86
Alijonov	<i>VA BADIIY EVOLYUTSIYA</i>	
Kamolaxon	<i>ZAMONAVIY O'ZBEK TEATRIDA YOSHLAR MAVZUSI</i>	95
Rahmonova	<i>KONTEKSTIDA UMUMINSONIY MUAMMOLAR TALQINI</i>	
Nazokat	<i>"SEHRLANGAN SHAHZODA" BADIIY-DRAMATURGIK</i>	107
Aliyeva	<i>XUSUSIYATLARI VA UNING SAHNAVIY TALQINI</i>	
Dinara	<i>(QORAQALPOQ QO'G'IRCHOQ TEATRI MISOLIDA)</i>	
Odilova	<i>TURK, KOREYS VA O'ZBEK SERIALLARI: O'XSHASHLIKLAR VA</i>	114
Shaxboz	<i>IJODIY TAFOVUTLAR TAHLILI</i>	
Aliyev	<i>SUN'IY INTELEKT ASRIDA QOG'IRCHOQ</i>	121
Rasuljon	<i>TEATRI</i>	
Tog'oykulov	<i>TEATR SAN'ATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN</i>	125
	<i>FOYDALANISH: EVOLYUTSIYA, ESTETIKA VA PERSPEKTIVALAR</i>	

## II. MUSIQA, RAQS, TASVIRIY SAN'AT

Orolmirzo	<i>MILLIY MUSIQA SAN'ATINING MA'NAVIY-TARBIYAVIY</i>	137
Safarov	<i>XUSUSIYATLARI</i>	
Komiljon	<i>RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA YOSH SOZANDALARNING</i>	143
Mirzayev	<i>IJROCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH</i>	
Yusufjon	<i>NAYIJROCHILIGIDA MILLIYLIK VA GLOBALIZATSIYA</i>	155
Vohidov	<i>JARAYONLARI</i>	
Davlat		
Mullajonov	<i>SAODAT QOBULOVA IJODI VA O'ZBEK VOKAL MAKTABINING</i>	164
Shirin	<i>SHAKLLANISHI</i>	
Umarqulova		

Dilbar Xayitbayeva	<i>SULTON HAYITBOYEV IJODIDA XORAZM XALQ OHANGLARINING TALQINI</i>	170
Laziz Pirnazarov	<i>MUSIQANI IDROK ETISHNING FALSAFIY ASOSLARI</i>	177
Oydin Alimbekova	<i>MUSIQIY ESHITISH VOKAL-XOR FAOLIYATIDA MUSIQIY ISTE'DODNING MUHIM OMILI SIFATIDA</i>	187
Sharofat Tojiboyeva	<i>YOSH XONANDALARDA INDIVIDUAL IJROCHILIK USLUBINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI</i>	195
Husniddin Husanov	<i>O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATIDA AN'ANAVIYLIK</i>	206
Shahloxon Davlatova	<i>MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MILLIY QADRIYATLARNI O'ZLASHTIRISH TENDENSIYALARI</i>	213
Turgunpulat Davlatov	<i>O'ZBEK XALQ MUSIQA SAN'ATI RIVOJIDA MAHALLIY USLUBLARNING ROLI</i>	222
Shokirjon Otabekov	<i>AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MUSIQA MADANIYATI RIVOJI</i>	233
Bahtiyorjon G'iyosov	<i>SOZ YASASH AN'ANALARI VA UNING ZAMONAVIY TRANSFORMATSION JARAYONLARI</i>	239
Golibjon Isroilov		
Madina Rajabova		
Bashorat Turaboyeva	<i>AHMADJON DADAYEV IJODIDA BASTAKORLIK AN'ANALARI</i>	247
Zuxra Arzibayeva	<i>UYG'ONISH DAVRI KOMPOZITORLARI VA YEVROPA PROFESSIONAL MUSIQASINING SHAKLLANISHI</i>	253
Sevara Mirsidikova	<i>VIZUAL DEPRIVATSIYA SHAROITIDA MUSIQIY TAFAKKUR TUZILMASIDA INTONATSION-ESHITISH TAHLILI</i>	260
Luza Normatova	<i>CHOLG'U IJROCHILIGIDA INDIVIDUAL ISHLASH PRAGMATIKASI</i>	268
Moxigul Sayidova	<i>BOLALAR TEATRI AKTYORI UCHUN VOKAL TA'LIMINING NAZARIY ASOSLARI</i>	274
Faxriyor Qosimov	<i>DO'MBIRA CHOLG'USINING TARIXI, YASALISHI VA IJRO USLUBLARI</i>	280
	<b>III. MADANIYATSHUNOSLIK, SOTSIOLOGIYA, SIYOSATSHUNOSLIK</b>	
Baxromjon Inatullayev	<i>MA'NAVY EHTIYOJLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</i>	285
Sherali Qo'ldashev	<i>G'URUMSAROY KULOLCHILIK SAN'ATIDAGI O'ZIGA XOS AN'ANALAR</i>	296
Qunduz Nishanbayeva	<i>MA'RIFAT QALDIRG'OCHLARI</i>	304
To'rabek Fayziyev	<i>MADANIYAT SOHASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISH</i>	319
Rahima Yusupova	<i>XOTIN-QIZLARNING MADANIYAT VA SAN'ATDA ILMIY HAMDA IJODIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	331
Zarina Nurullayeva		
Munisa Mavrulova	<i>YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA MA'NAVY BOYLIK VA KOMIL INSON TARBİYASI</i>	337

Xafiza Abdullayeva	<b><i>YANGI O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI VA INFRATUZILMA RIVOJI</i></b>	349
Nodira Abdunazarova	<b><i>JADID MA'RIFATPARVARLARINING MADANIYATGA OID QARASHLARI</i></b>	355
Komiljon Raximov	<b><i>MADANIYAT VA SAN'AT MENEJMENTINING RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR</i></b>	361
Jalol Abduxamidov	<b><i>YETTISHAHAR DAVLATIDA MADANIY HAYOT</i></b>	369
Dilnoza Qurbonova	<b><i>O'ZBEK OILALARIDA ETNOMADANIY QADRIYATLAR</i></b>	380
Oqila Ortiqboyeva	<b><i>O'QUV JARAYONIDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI TALABALAR KASBIY BILIMLARINI OSHIRISH YO'LLARI</i></b>	387
Fayziya Qarshiyeva	<b><i>YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA IJTIMOY MAKON VA YOSHLAR MADANIYATI</i></b>	393
Javohir Nuraliyev	<b><i>JADID TEATRINING SHAKLLANISHI VA XALQNING MA'NAVIY UYG'ONISHIDAGI AHAMIYATI</i></b>	399

#### **IV. FILOLOGIYA, TARIX, FALSAFA**

Zumriniso Kozimova	<b><i>O'ZBEK TILI TEATR TERMINOLOGIYASINING MAVZUVIY GURUHLARI</i></b>	409
Mamura Umarxodjayeva	<b><i>QO'G'IRCHOQ SAN'ATIDA INDIVIDUAL IJOD: QOZOG'ISTONLIK JANNA DJANAYEVA ASARLARI TAHLILI MISOLIDA</i></b>	419
Nigora Xolmuminova	<b><i>NAVOIY IJODIDA KOMIL SHAXS TARBIYASI</i></b>	427
Mohigul Jabborova	<b><i>MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA MILLIY DETALLARNING GERMENEVTIK TALQINI</i></b>	432

#### **V. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, KUTUBXONASHUNOSLIK**

Dilbar Malikova	<b><i>DIRIJJOR VA XORMEYSTERLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARI AHAMIYATI</i></b>	439
Saxobiddin Xudayberdiyev	<b><i>MS ACCESS PLATFORMASIDA KUTUBXONA-ABOROT FAOLIYATI JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH: KICHIK VA O'RTA FONDLAR UCHUN BYUDJETLI YECHIM</i></b>	446
Shakir Yusupov	<b><i>SAHNA NUTQI FANINING SAN'AT TA'LIMIDAGI O'RNI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI</i></b>	459
Zair Zufarov	<b><i>ILMIY MAQOLA YOZISH UCHUN ENG YAXSHI SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TAHLILI VA SHARHI</i></b>	465
Ziyodullo Isokov	<b><i>MIXXAT YOZUVLI LOY TAXTACHADAN – "BOOKLAB" GACHA: KITOBAT MADANIYATI EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYALAR</i></b>	476
Gulandom Samigova	<b><i>SAN'AT TA'LIMIDA INTERAKTIV PLATFORMALAR ASOSIDA IJODIY NATIJALARNI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i></b>	493
Maxsuda Tillashayxova	<b><i>SUN'IY INTELLEKT VA INSON OMILI: MASOFAVIY TA'LIMDA MUVOZANATLI YONDASHUV</i></b>	502
Muxtorali Axmedov	<b><i>SAN'AT TO'GARAKLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI</i></b>	513

**Farruh Egamberdiyev**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Teatr san'ati" fakulteti dekani, dotsent  
E-mail: farruh1978@gmail.com*

## **OMMAVIY BAYRAMLAR REJISSYORI SHAXSI HAMDA UNING KASBIY FAOLIYATI ZAMONAVIY MADANIY HAYOT KONTEKSTIDA**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada teatrlashtirilgan tomoshalar va bayramlar rejissurasi masalasi O'zbek rejissyorlik maktabi an'analari bilan bog'liq holda tahlil etiladi. O'zbek rejissyorlik maktabi milliy qadriyatlar, tarixiy meros va zamonaviy badiiy izlanishlar sintezi asosida shakllangan bo'lib, unda rejissyor shaxsi ijodkor, tarbiyachi va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ma'naviy yetakchi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ommaviy bayramlar, mustaqillik tantanalari, tarixiy sana va madaniy festivallar rejissurasida milliy g'oya, fuqarolik pozitsiyasi va estetik didning uyg'unligi muhim o'rin tutadi.*

***Kalit so'zlar:** rejissyor, ramziylik, obraz, pafos, pedagog, plastika, intonatsiya, mantiq, badiiy rahbar, konsepsiya, potensial, individual.*

## **THE PERSONALITY OF A MASS EVENTS DIRECTOR AND THEIR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE CONTEXT OF CONTEMPORARY CULTURAL LIFE**

***Abstract.** In this article, the issue of directing theatrical performances and festivities is analyzed in connection with the traditions of the Uzbek school of directing. The Uzbek school of directing has been formed on the basis of a synthesis of national values, historical heritage, and modern artistic pursuits. Within this school, the director's personality manifests as a creator, educator, and spiritual leader who shapes public opinion. Particularly in the direction of mass celebrations, independence festivities, historical anniversaries, and cultural festivals, the harmony of national ideas, civic position, and aesthetic taste plays a crucial role.*

**Keywords:** *director, symbolism, image, pathos, pedagogue, plasticity, intonation, logic, artistic director, concept, potential, individual.*

Teatrlashtirilgan tomoshalar va bayramlar rejissyori zamonaviy madaniy hayot tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan mutaxassisdir. Uning faoliyati faqat sahnaviy asar yaratish bilan cheklanib qolmay, balki keng ijtimoiy-madaniy makonda g'oyaviy, estetik va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Shu bois mazkur yo'nalishda rejissyor shaxsini kasbiy va shaxsiy jihatlar uyg'unligida o'rganish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbek rejissyorlik maktabida shakllangan badiiy tamoyillar – obrazli tafakkur, milliy an'analarga tayanish, sahnaviy ifodada ramziylik va musiqiy-plastik yechimlardan foydalanish – teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlar rejissurasining kasbiy-shaxsiy modelini belgilab beradi. Shu jihatdan rejissyor nafaqat sahna asari muallifi, balki milliy madaniy merosni zamonaviy talqinda jamoatchilikka yetkazuvchi ijodiy shaxs sifatida qaraladi.

Teatrlashtirilgan tomoshalar rejissyori, avvalo, ijodkor-muallif sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda bunday tadbirlar tayyor dramaturgik matnga emas, balki rejissyorning shaxsiy g'oyasi va konsepsiyasiga tayanadi. U zamonaviy ijtimoiy muammolar, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va madaniy meros asosida sahnaviy voqelikni yaratadi. Shu jihatdan rejissyor nafaqat talqinchi, balki bevosita g'oya muallifi hisoblanadi.

Teatrlashtirilgan tomoshalar va ommaviy bayramlar rejissyori shaxsi hamda uning kasbiy faoliyati zamonaviy san'atshunoslik va madaniyatshunoslik tadqiqotlari doirasida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu avvalo, rejissyorlik kasbining murakkabligi, uning ko'p qirrali ijodiy va tashkiliy xususiyatlari, shuningdek, oliy ta'lim jarayonidagi tayyorgarlik tizimi hamda bitiruvdan keyingi kasbiy faoliyatning yuqori darajada mas'uliyatli va kompleks tabiati bilan izohlanadi.

Rejissura badiiy madaniyat sohasida insonning ijodiy tafakkuri va amaliy faoliyati uyg'unlashgan murakkab jarayon sifatida teatr nazariyotchilari va amaliyotchilari tomonidan keng o'rganilgan. Shu bilan birga, tarixiy nuqtai nazardan qaralganda, rejissyorning teatrdagi o'rni hamisha ham birdek tan olinmagan. Xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida teatr jamoatchiligida rejissyorning mustaqil ijodiy subyekt sifatida zarurligi xususida keskin bahs-munozaralar yuzaga kelgan.

Bu masalaga munosabat sifatida A.Blok 1908-yilda yozgan “Teatr haqida” nomli ocherkida “Balaganchik” dramasi V.Meyerxold tomonidan sahnalashtirilishi munosabati bilan rejissyor institutining mustahkamlanish jarayonini tahlil qiladi. U rejissyorning ahamiyati ortishi muayyan ijtimoiy-badiiy omillar bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Birinchidan, dramaturglar teatrdan ma'lum ma'noda uzoqlashib, o'z asarlarining sahnaviy ifodasiga bo'lgan mas'uliyatni susaytirdilar. Ikkinchidan, aktyorlik ijrosida tabiiylik va ruhiy hayotiylik pasayib, sahnada sun'iy pafos kuchaya boshladi. Ana shunday sharoitda spektaklning badiiy yaxlitligini ta'minlay oladigan markazlashtiruvchi kuch sifatida rejissyorning roli kuchaydi.

XX asr boshlarida Rossiyada rejissyorlik teatrining shakllanishi va taraqqiy etishi ushbu kasbiy institutsional o'zgarishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Bu jarayon, eng avvalo, Moskva Badiiy teatri (MXT)ning tashkil topishi va uning asoschilari K.S.Stanislavskiy hamda V.I.Nemirovich-Danchenko faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Teatrshunoslik sohasidagi tadqiqotchilarning fikricha, MXT Rossiya tarixidagi birinchi to'laqonli rejissyorlik teatri sifatida e'tirof etiladi. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat edi: spektaklning g'oyaviy-badiiy yaxlitligi; barcha ijodiy jarayonning yagona rejissyorlik konsepsiyasiga bo'ysundirilishi; aniq repertuar siyosatining shakllanishi; truppaning yagona ijro maktabi asosida tarbiyalanishi; aktyorlik ansamblining tamoyil sifatida qaror topishi. Mazkur xususiyatlar teatni tashkil etish va boshqarishning mutlaqo yangi modelini

namoyon etgan. Shu tariqa, rejissyor shaxsining mustaqil ijodiy subyekt sifatida shakllanishi teatr san'atining taraqqiyotida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Bu jarayon keyinchalik nafaqat dramatik teatr, balki ommaviy madaniy tadbirlar va teatrlashtirilgan bayramlar rejissurasi rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Shu tariqa, "aktyorlik teatri" davrini "rejissyorlik teatri" davri almashtirdi. Bu o'zgarish sahna san'ati nazariyasi va amaliyotida tub burilish yasab, rejissyor shaxsini shakllantirish muammosini dolzarb ilmiy masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Endi rejissyor nafaqat ijodiy ishtirokchi, balki butun sahnaviy jarayonni konseptual jihatdan boshqaruvchi markaziy shaxs sifatida qarala boshlandi. Shu munosabat bilan quyidagi savollar ilmiy ahamiyat kasb etdi: rejissyor qanday shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak? Uning kasbiy funksiyalari nimalardan iborat? Ushbu kasbga tabiiy iqtidor bilangina erishiladimi yoki uni maqsadli ta'lim orqali shakllantirish mumkinmi?

V.I.Nemirovich-Danchenko tomonidan berilgan klassik ta'rifga ko'ra, rejissyor kasbi uch asosiy qirra – tamoyili asosida talqin etiladi. Ushbu yondashuv rejissyor shaxsini quyidagi uch vazifaviy jihatda ko'radi:

1. Rejissyor – pedagog.
2. Rejissyor – ko'zgu.
3. Rejissyor – tashkilotchi.

**Rejissyor** – pedagog dramaturgik asar mazmunini chuqur tahlil qiladi, muallif g'oyasini ochib beradi va uni sahnaviy harakat, plastika, intonatsiya va obraz tizimi orqali ifodalaydi. U aktyorlarga ijro uslubini ko'rsatadi, sahnaviy maqsad va ichki mantiqni belgilaydi. Bu jihatdan rejissyor nafaqat badiiy rahbar, balki pedagog va ijro uslubini shakllantiruvchi murabbiy vazifasini ham bajaradi.

**Rejissyor – ko'zgu** esa aktyorning ijodiy individualligini ehtiyotkorlik bilan aks ettiradi. U aktyor shaxsini bosib qo'ymasdan, uning tabiiy imkoniyatlarini ochishga yordam beradi. Maslahat va yo'naltirish orqali aktyorning ichki potensialini namoyon qilishga sharoit yaratadi. Bunday rejissyor yuqori darajadagi

psixologik sezgirlik, insoniy mulohazalilik va pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Chunki har bir aktyorning ijodiy tabiati o'ziga xos bo'lib, uning imkoniyatlarini ochish individual yondashuvni talab qiladi.

**Rejissyor – tashkilotchi** esa spektakl yoki teatrlashtirilgan tadbirning barcha komponentlarini yagona konsepsiya asosida birlashtiradi. Sahna bezagi, yoritish, musiqa, kostyum, ommaviy sahnalar harakati – barchasi rejissyorning umumiy badiiy g'oyasiga bo'ysundiriladi. U ijodiy jamoa faoliyatini muvofiqlashtiradi, vaqt va resurslarni boshqaradi, natijada sahnaviy asarning yaxlitligi ta'minlanadi.

Mazkur uchlik modeli zamonaviy teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlar rejissurasi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bayramlar, madaniy festivallar, davlat marosimlari va ommaviy sahnaviy loyihalarni yaratish jarayonida rejissyor nafaqat badiiy rahbar, balki strategik rejalashtiruvchi, psixolog va ijtimoiy muhitni his qila oladigan mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.

Ommaviy tadbirlarda ishtirokchilar sonining ko'pligi, sahnaviy maydonning kengligi va texnik vositalarning xilma-xilligi rejissyordan yuqori darajadagi tashkiliy qobiliyat va tizimli fikrlashni talab etadi. Bunday sharoitda rejissyor – tashkilotchi funksiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ishtirokchilar va ijrochilar bilan ishlash jarayonida rejissyor – ko'zgu sifati ham o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

Demak, rejissyor shaxsi ko'p qirrali kasbiy fenomen bo'lib, unda ijodiy tafakkur, pedagogik mahorat, psixologik sezgirlik va tashkiliy qobiliyat uyg'unlashgan bo'lishi lozim. Zamonaviy teatrlashtirilgan tomoshalar rejissurasi aynan shu kompleks sifatlar negizida shakllanadi va rivojlanadi.

**Rejissyor – tashkilotchi** – rejissyor faoliyatining eng muhim funksiyasidir. U teatr tomoshasini yaratishga qaratilgan butun ijodiy jarayonni tashkil etuvchi markaziy shaxs hisoblanadi. Aynan u barcha bosqichlarni yagona yo'nalishga soladi, ularni rejissyorlik g'oyasiga bo'ysundirib, har bir ijrochining irodasini belgilangan maqsadga safarbar etadi. Bu maqsad – badiiy materialni obrazli va

emotsional jihatdan ochib berish, uni rejissyor-postanovshikning konsepsiyasiga muvofiq ravishda sahnaviy ifodaga aylantirishdan iborat.

M.To'laxo'jayeva "Kulgi ortidagi dard" maqolasida rejissyorni quyidagicha ta'riflaydi: "Rejissyor – pyesaning asosiy g'oyasini imkon qadar chuqurroq, aniqroq ifodalashga, uning bugungi ijtimoiy hayot, davr uchun nechog'lik zarur ekanini ko'rsatishga harakat qiladi. Rejissyor pyesani birinchi bo'lib talqin qiladi va o'z qarashini ijrochilar jamoasiga yetkazadi, ularni boshqargan holda tomoshaning o'ziga xos uslubini yaratadi" [1, 60–72-b].

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, rejissyor asar mazmunini o'zining shaxsiy dunyoqarashi prizmasi orqali ochib berishi, biroq bu jarayonda ijrochilarning individual imkoniyatlarini ham hisobga olishi shart.

Olimjon Salimov "Kasbim rejissyor" kitobida, chet ellik rejissyorning xonasidagi diagrammada o'rgimchak uyasiga o'xshash suratni ko'rib, undan bu nima, deb so'raganida u shunday deb javob bergan edi deb eslaydi.

Bu men bilan mening aktyorlarim o'rtasidagi munosabatlarimiz. Mana bu o'rtadan har tomonga tortilgan chiziqlar aktyorlar. Ular doim markazdan qochuvchi, individual kuchlar. Ularning har biri bir dunyo. Mana bu qalqonsimon chiziqlar bu men bilan sen, ya'ni rejissyor. Biz ularni doim markazga tortuvchi va birlashtiruvchi kuchmiz, deb javob bergan edi [2].

Ommaviy tomoshalar va bayramlar rejissyorlik konsepsiyasi, odatda, zamonaviy hayot muammolari, tarixiy-madaniy voqealar, milliy qadriyatlar, rejissyor shaxsining fuqarolik pozitsiyasi, uning vatan taqdiri bilan o'zini identifikatsiya qilishi kabi omillar ta'sirida shakllanadi. Shu ma'noda rejissyor nafaqat ijodkor, balki muayyan ijtimoiy va ma'naviy pozitsiyani ifoda etuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Ommaviy tomoshalar va bayramlar rejissyori avvalo g'oyani ishlab chiqadi. Ana shu g'oya asosida tomoshaning dramaturgiyasi, uning kompozitsion tuzilishi va ichki mantig'i yaratiladi. K.S.Stanislavskiy ta'biri bilan aytganda, rejissyor

tomoshaning “yetakchi xatti-harakat”, ya'ni butun spektakl davomida harakatlanuvchi asosiy g'oyaviy-harakat chizig'ini belgilaydi [3].

Shu tarzda, teatrlashtirilgan ommaviy tadbir rejissurasida rejissyor g'oya muallifi, dramaturgiya yaratuvchisi va ijodiy jarayon tashkilotchisi sifatida uchala vazifani ham o'zida mujassam etadi. Bu esa mazkur sohada rejissyor shaxsining alohida ijodiy mustaqillik va yuqori darajadagi mas'uliyat talab etuvchi kasbiy maqomga ega ekanini ko'rsatadi.

Shu tariqa, postanovkachi-rejissyor o'zining shaxsiy ijodiy g'oyasi asosida, dramaturgik materialni o'ziga xos tarzda talqin etgan holda, qo'yilma ishtirokchilarini estetik jihatdan birlashtiradi. U spektaklning g'oyaviy mazmunini ochib beradi, uning janri va tashqi shaklini, ritmini va mizanssenalar tizimini belgilaydi. Shuningdek, u tomoshaning barcha komponentlarini – aktyorlar ijrosini, kostyumlarni, dekoratsiyani, musiqani, yoritishni – o'zaro muvofiqlashtirib, badiiy yaxlitlikka ega bo'lgan garmonik sahnaviy asarni yaratadi.

Rejissyor zimmasiga yuklatilgan ijodiy funksiyalar qanchalik ko'p qirrali bo'lsa, undan talab etiladigan ijodiy qobiliyatlar ham shunchalik boy va serqirra bo'lishi lozim. Rejissyorlik kasbidan ko'ra keng qamrovli iste'dodni talab qiladigan boshqa bir kasbni tasavvur qilish qiyin. Rejissura teatr san'atidagi eng murakkab kasb sifatida e'tirof etilgan. B.G.Golubovskiy rejissurani “kasblar kasbi” deb ta'riflagan bo'lsa, M.Zaxarov uni “superkasb” deb atagan [4].

Bunday murakkab va mas'uliyatli faoliyatga o'zini bag'ishlash uchun inson tegishli tabiiy qobiliyatlar, keng dunyoqarash va yuksak ma'naviy-ijodiy salohiyatga ega bo'lishi shart.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, rejissyorlik qobiliyatlarini shakllantirish masalasi haqiqiy ijodkor – rejissyor-san'atkor shaxsini tarbiyalash va kamol toptirish jarayonidagi eng murakkab vazifalardan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, san'atkor-tafakkur sohibini shakllantirish, rahbarni tarbiyalash, ijodiy tashkilotchini voyaga yetkazish masalalari juda murakkab bo'lib, ilk qarashda ularni hal etish qiyin tuyuladi. Shuning uchun ham bu

masalalarni dasturiy ravishda bayon etish va rejissyorlik kasbini o'rgatish jarayoniga tizimli yondashib, rejissyorga nafaqat ijodkor balki boshqaruvchi hamda pedagog sifatida qarab, ta'lim jarayonlarida shu unsurlarga chuqur e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. To'laxo'jaeva M. *Rejissyor Olimjon Salimov, Kulgi ortidagi og'riq. Ilmiy maqola*, 2020. – B. 18–20.
2. Salimov O. *Mening kasbim rejissyor*. – Toshkent: Fan, 1997. – 120 b.
3. Egamberdiev F. *Estrada va ommaviy tomoshalar yo'nalishi. Darslik*. – Toshkent: 2019. – 300 b.
4. Ромм М. *Беседы о кино*. – Москва: Искусство, 1980. – 368 с.
5. Станиславский К. *Собрание сочинений в 9 томах. Т. 2*. – Москва: Искусство, 1989. – 500 с.
6. Golubovskiy V. *Kasbga qadam*. – Moskva: GITIS, 2002. – 250 b.
7. Дёмин В. *Формирование личности режиссёра*. – Саратов, 1983. – 136 с.
8. Шароев И. *Режиссура эстрады и массовых представлений*. – Москва: Искусство, 1986. – 360 с.
9. Захава Б. *Навыки актёра и режиссёра*. – Москва: ГИТИС, 2008. – 480 с.

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida dotsenti,  
san'atshunoslik fanlari nomzodi  
E-mail: aybekveysaloglu@mail.ru*

## **TOTALITARIZM DAVRI O'ZBEK KINEMATOGRAFIYASIDA TARIXIY HAQIQAT TALQININING METAMORFOZALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada totalitar tuzum davrida o'zbek kinematografiyasida tarixiy haqiqatning badiiy talqini va uning mafkuraviy ta'sir ostida o'zgarish jarayonlari kinoshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Sovet davrida yaratilgan tarixiy va tarixiy-biografik filmlar misolida ekranda aks ettirilgan voqelikning mafkuraviy talablar asosida qayta shakllantirilishi, senzura ta'siri hamda ijodiy erkinlikning cheklanishi kabi omillar o'rganiladi. Tadqiqotda tarixiy shaxslar obrazi, milliy o'tmishning ekran talqini, dramaturgik yechim va badiiy konsepsiyadagi o'zgarishlar tahlil qilinib, ularning totalitar mafkura bilan bog'liq jihatlari ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** totalitarizm, o'zbek kinematografiyasi, tarixiy film, tarixiy haqiqat, badiiy talqin, mafkura, senzura, sovet kinosi, kinoshunoslik, ekran interpretatsiyasi.*

## **METAMORPHOSES IN THE INTERPRETATION OF HISTORICAL TRUTH IN UZBEK CINEMATOGRAPHY DURING THE TOTALITARIAN ERA**

***Abstract.** This article examines the metamorphoses of the interpretation of historical truth in Uzbek cinematography during the totalitarian period. Using examples of historical and biographical films created in the Soviet era, the study analyzes the transformation of historical reality under the influence of ideology, censorship, and restrictions on artistic freedom. The research focuses on the screen representation of historical figures, the interpretation of national history, and*

*changes in dramaturgy and artistic concepts shaped by the requirements of the totalitarian cultural policy.*

**Keywords:** *totalitarianism, Uzbek cinematography, historical film, historical truth, ideology, censorship, Soviet cinema, film studies, artistic interpretation.*

XX asrda shakllangan totalitar tuzum sharoitida san'atning barcha turlari qatori kinematografiya ham qat'iy mafkuraviy nazorat ostida rivojlandi. Ayniqsa, tarixiy mavzudagi filmlar davlat mafkurasini targ'ib qilish, muayyan siyosiy g'oyalarni mustahkamlash va jamiyat ongida kerakli tarixiy tasavvurni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qildi. Shu sababli totalitar davr kinematografiyasida tarixiy voqelikni aks ettirish jarayoni ko'p hollarda badiiy izlanishlar mantig'idan emas, balki mafkuraviy talablar asosida amalga oshirildi.

O'zbek kinematografiyasi ham sovet davrida umumittifoq kino siyosati doirasida rivojlangan bo'lib, tarixiy mavzudagi filmlar yaratishda yagona ideologik mezonlarga bo'ysundirildi. Natijada ekranda aks ettirilgan tarixiy haqiqat ko'pincha qayta talqin qilindi, ayrim hollarda esa mutlaqo o'zgartirildi. Bu holat ayniqsa milliy tarix, tarixiy shaxslar va o'tmish voqealarini tasvirlashda yaqqol namoyon bo'ldi.

Totalitar mafkura sharoitida yaratilgan filmlarda tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat o'rtasidagi muvozanat buzilib, ekran asarlarida tarixiy voqelikning o'ziga xos metamorfozalari yuzaga keldi. Bu metamorfozalar senzura, siyosiy buyurtma, sotsialistik realizm estetikasi hamda rasmiy tarix konsepsiyasi ta'sirida shakllandi.

Mazkur maqolaning maqsadi – totalitarizm davrida o'zbek kinematografiyasida tarixiy haqiqat talqini qanday o'zgarganini kinoshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, tarixiy filmlardagi badiiy interpretatsiyaning mafkuraviy omillar bilan bog'liq jihatlarini ochib berishdan iborat. Shuningdek, tadqiqotda sovet davrida suratga olingan ayrim tarixiy filmlar misolida ekran talqini va tarixiy manba o'rtasidagi farqlar ko'rib chiqiladi.

So'ngi yillar O'zbekiston kinematografiyasida keng qamrovli islohotlar olib borilishi natijasida, filmlar ishlab chiqarish imkoniyatlari kengaydi, jahon andozalariga xos kinotexnikalar bilan "O'zbekfilm" kinokonsereni sexlari, bo'limlari takomillashdi. O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror (PQ-209-son, 05.06.2024 y.) qabul qilindi. Bu qarorga asosan, "Tirik tarix" nomini olgan katta loyihaning ilk filmlar premyeralari muvaffaqiyatli o'tkazildi. Bu "tirik tarix" kino loyihasining asosiy vazifasi XX asrda shakllangan totalitar tuzum davrida suratga olingan filmlarda tarixiy haqiqat va badiiy haqiqat o'rtasidagi muvozanat buzilib, tarixiy filmlardagi badiiy interpretatsiyaning mafkuraviy omillar bilan bog'liq jihatlarini qayta ko'rib chiqish, "Yangi O'zbekiston" g'oyasiga xizmat qiladigan kino asarlarni yaratishdan iboratdir.

O'zbek kinosining rivojlanishi va har tomonlama yuksalishi yo'lida ushbu qarorda kino ijodkorlar oldiga bir qator vazifalar belgilandi. Jumladan: "Kinematografiya sohasini yangi bosqichga ko'tarish, milliy davlatchiligimizning uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini aks ettiruvchi filmlar turkumini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida" [1].

Ushbu tadqiqot natijalari totalitar davr o'zbek kinosida tarixiy mavzularning yoritilishi, milliy o'tmish obrazi shakllanishi hamda badiiy talqinning mafkuraviy shartlanganligi kabi masalalarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shuningdek, bu muhim mavzuni o'rganish jarayonida, o'zbek kinematografiyasida tarixiy mavzudagi filmlarni yaratishda badiiy haqiqat va tarixiy haqiqat o'rtasidagi munosabat hamda ularning mafkuraviy talqin orqali transformatsiyaga uchrashi ilmiy jihatdan asoslangani aniqlandi.

"Ijtimoiy jabhalardagi o'zgarishlar ta'sirida tarixga tanqidiy qarash yetakchilik qildi. Bu holat tarixiy dramaning ham davr talablariga bo'ysunishiga sabab bo'lganini isbotlaydi. Natijada qator asarlarda, xonlik tuzumi tanqid ostiga

olindi, bu tuzumning illatlari, hukumron toifa tabiyatidagi salbiy xislatlar aksar bo'rttirilib qoralandi" [2, 97-b].

O'zbek kinematografiyasida tarixiy mavzudagi filmlarni yaratishda badiiy haqiqat va tarixiy haqiqat o'rtasidagi tafovut nafaqat uzoq o'tmish shaxslari, voqealariga nisbatan qo'llanilgan, balki yaqin o'tmishda yashab, ijod etgan xalqimizning ziyolilari, jadidlarini qoralash, xalq dushmaniga aylantirish tendensiyasi avj olgan. Bunday adolatsizlik, nafaqat filmlarda, balkim spektakllarda, boshqa sanat turlarida ham o'z rivojini topadi.

"Ushbu davrda madaniyatga xos, uning rivojlanishi uchun muhim omil bo'lgan erkinlik, demokratiya batamom yo'q qilindi. Madaniyat, ayniqsa, milliy madaniyatning "rivoji" maxsus qolipga solindi. Siyosiy o'lchovlarga, kommunistik mezonga javob bermagan har qanday asar yo'qqa chiqarildi, uning muallifi esa jamiyatga yaroqsiz shaxs sifatida "chetga surib" qo'yildi" [3, 571-b].

Totalitar tuzum sharoitida kino ijodkorlari qat'iy senzura va mafkuraviy talablar asosida faoliyat yuritdilar. Bu esa tarixiy voqelikni tanlab yoritish, ayrim jihatlarni bo'rttirish yoki aksincha, ularni chetlab o'tishga olib keldi. Natijada tarixiy haqiqatning ko'p qirrali tabiati cheklanib, uning biryoqlama talqini shakllandi.

O'zbek kinematografiyasida tarixiy mavzularni yoritishda, avvalo, sinfiy kurash, xalqparvarlik va sotsialistik qadriyatlar ustuvor o'rin egalladi. Bu esa tarixiy shaxslarning obrazlarini qayta shakllantirishga sabab bo'ldi. Ular ko'p hollarda real shaxs sifatida emas, balki ideologik ramz sifatida namoyon bo'ldi.

Bu jarayon O'zbek kinosi tarixi XX asrning ikkinchi choragidan boshlab rus kinoijodkorlari faoliyati bilan bog'liq holda shakllangan bo'lsa-da, milliy kinoijodkorlar ishtirokidagi ilk to'laqonli filmlar Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga to'g'ri keladi. Xususan, "Tohir va Zuhra" (rej. N.G'aniyev, 1945), "Nasriddin sarguzashtlari" (rej. N.G'aniyev, 1946), "Alisher Navoiy" (rej. K.Yormatov, 1947) kabi filmlarning aynan tarixiy-biografik janrda yaratilgani e'tiborga loyiqdir.

XX asrning 1950–1960-yillarida o'zbek kinematografiyasida tarixiy-biografik yo'nalish izchil rivojlandi va qator filmlar yaratildi. Jumladan, “Ibn Sino” (rej. K.Yormatov, 1956), “Furqat” (rej. Y.Agzamov, 1959), “Hamza” (rej. Z.Sobitov, 1960), “Ulug'bek yulduzi” (rej. L.Fayziyev, 1965), “General Rahimov” (rej. Z.Sobitov, 1967) kabi asarlar mazkur davr mahsuli hisoblanadi. Mazkur filmlarning aksariyatida sho'rolar mafkurasi ustuvor bo'lib, ular orqali kommunistik g'oyalarni targ'ib etish, xonliklar davrini salbiy talqin qilish, ilm-fan rivojiga to'sqinlik qilingan degan qarashlarni ilgari surish kuzatiladi.

Masalan, “Abu Rayhon Beruniy” (rej. Sh.Abbosov, 1974) filmida Mahmud G'aznaviy obrazi keskin salbiy talqinda berilib, u qonxo'r, ma'rifatga qarshi, ilm ahliga dushman, kutubxonalarni yo'q qiluvchi va adolatsiz hukmdor sifatida tasvirlanadi. Bunday yondashuv tarixiy haqiqatning biryoqlama va mafkuraviy asosda talqin qilinganligini ko'rsatadi.

Mustaqillik davriga kelib, tarixga munosabat tubdan qayta ko'rib chiqildi. Ilmiy tadqiqotlarda o'tmishni xolisona baholash, tarixiy haqiqatni imkon qadar obyektiv aks ettirish tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Natijada, ilgari biryoqlama talqin qilingan ko'plab tarixiy shaxslar faoliyati qayta baholandi.

Xususan, “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da Mahmud G'aznaviy haqida berilgan ma'lumotlar uning shaxsigacha nisbatan ancha muvozanatli va ilmiy asoslangan yondashuvni namoyon etadi. Unda qayd etilishicha: “Mahmud G'aznaviy arab va pahlaviy (fors) tillarini mukammal bilgan, turkiy tilda ham ijod qilgan, G'azna shahrida boy kutubxona tashkil etgan hamda o'z saroyida yuzlab olimlar, shoirlar va san'atkorlarni jamlab, ularga homiylik qilgan. Sharq manbalarida u adolatli va fuqaroparvar hukmdor, shu bilan birga, harbiy yurishlarda qat'iyatli sarkarda sifatida tavsiflanadi” [4, 235-b].

Umuman olganda, totalitarizm davrida yaratilgan tarixiy-biografik filmlarning deyarli barchasida mafkuraviy yo'naltirilganlik ustunlik qiladi. Bu jarayonda ayrim tarixiy voqealar sun'iy ravishda to'qib chiqarilgan, boshqalari esa ongli ravishda

chetlab o'tilgan. Shu tariqa, tarixiy haqiqat kino san'atida qayta ishlangan va muayyan g'oyaviy maqsadlarga xizmat qildirilgan.

Masalan, "Alisher Navoiy" filmida buyuk mutafakkir obrazi xalqparvar va adolatparvar shaxs sifatida talqin qilinib, uning ijtimoiy faoliyatiga alohida urg'u beriladi. Lekin o'z davrining adolatli xoni, mutafakkir shoir bo'lgan Husayin Boyqaro obrazi qoralangan. Bu esa obrazning ideologik jihatdan qayta ishlanganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, Husayn Boyqaro davrida Hirot Sharqning fan, madaniyat va hunarmandchilik rivojlangan yirik markaziga aylangan. Bu davrda turli mamlakatlardan iste'dod egalari Hirotga panoh izlab kelganlar va bu yerda samarali ijod qilganlar. Natijada, ilm-fan va madaniyatning turli sohalari – til va adabiyot, tarix, tasviriy san'at, xattotlik, kitobat san'ati, tabobat, musiqa, qog'oz ishlab chiqarish hamda tomosha san'ati yuksak darajada rivoj topgan.

"Hirot, Mashhad, Marv va Nishopur kabi yirik shaharlarda ko'plab noyob me'moriy obidalar bunyod etilgan. Mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar nafaqat Xuroson hududida, balki undan tashqarida ham keng shuhrat qozongan. Bu esa mintaqaning iqtisodiy va madaniy salohiyati yuksak darajada bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur davr Sharq Uyg'onish davrining muhim bosqichlaridan biri sifatida baholanishi mumkin" [5, 265-b].

Shuningdek, Husayn Boyqaro turkiy tilda ijod qilishni rag'batlantirgan hamda bu yo'nalishda faol siyosat olib borgan. Bu esa turkiy adabiyotning rivojlanishiga va uning nufuzi oshishiga muhim ta'sir ko'rsatgan. Afsus, bunday muhim faktorlar filmida o'z aksini topmagan.

Ta'kidlash kerak, kino tili orqali ham tarixiy haqiqatni qayta shakllantirish kuzatiladi. Montaj, kadr kompozitsiyasi, musiqa va obrazlar tizimi orqali tomoshabinga muayyan g'oya singdiriladi. Bu esa kinoni nafaqat badiiy, balki mafkuraviy instrument sifatida ham namoyon etadi. Shu bilan birga, ayrim ijodkorlar ramziy ifoda, metafora va badiiy shartlilik orqali rasmiy mafkura doirasidan chiqishga urinishgan. Bu holat kinoasarlarida ikki qatlamli ma'no – ochiq va yashirin ma'no mavjudligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, totalitarizm davri o'zbek kinematografiyasida tarixiy haqiqat talqini murakkab va ko'p bosqichli metamorfazalarni boshdan kechirdi. Bu jarayonda tarixiy voqelik ko'p hollarda mafkuraviy talablar asosida qayta shakllantirildi. Shu bilan birga, ayrim kinoasarlarda badiiy izlanishlar orqali haqiqatga yaqinlashishga intilish kuzatiladi. Bu esa o'zbek kinematografiyasining nafaqat mafkuraviy, balki badiiy rivojlanish xususiyatlarini ham ochib beradi. Maqola natijalari totalitar davr o'zbek kinosida tarixiy voqelikni tasvirlash tamoyillarini qayta ko'rib chiqish, milliy kinematografiya merosini kinoshunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega.

Demak, mazkur davr kinoasallarini tahlil qilish orqali nafaqat san'at tarixi, balki jamiyatning mafkuraviy va madaniy taraqqiyotini ham chuqur anglash mumkin.

Prezident qarorida "Tirik tarix" filmlar turkumini yaratish dasturi orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilangan:

"Xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyati, azaliy qadriyat va an'analari, ezgu orzu-intilishlarini chuqur ilmiy asoslarga tayanib, to'laqonli aks ettirish;

Vatan ozodligi va ravnaqi yo'lida kurash olib borgan buyuk sarkarda va davlat arboblarning murakkab hayoti va davlatchilik faoliyatini xolis va haqqoniy ko'rsatib berish;

Tariximizda yorqin iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, alloma va mutafakkirlar, shoir va adiblar, ma'rifatparvar jadid bobolarimiz, atoqli san'atkorlarning ilmiy-ijodiy merosi, ularning umumbashariy tamaddun rivojiga qo'shgan munosib hissasini yuksak g'oyaviy-badiiy saviyada namoyish etish" [1].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbek kinematografiyasi – kino san'atini jamiyatning ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy hayotida, jumladan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim strategik vosita sifatida shakllantirishdir.

---

***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-209-son qarori.*
2. *Rahmatullayeva D. Tarix va teatr. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 364 b.*
3. *Jurayev N. O'zbekistonning yangi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2022. – 607 b.*
4. *O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 11 tom. – 608 b.*
5. *O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 12 tom. – 712 b.*

**Sardor Mannonov**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrası dotsent (v.b.),  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: mannonovsardor718@gmail.com*

## **PANTOMIMA SAN'ATI: SYUJET VA DRAMATURGIK MUAMMOLAR**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy pantomima teatrlarining shakllanish bosqichlari, tarixiy evolyutsiyasi hamda bugungi kundagi dramaturgik va metodologik muammolari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilindi. Pantomimaning qadimgi marosimiy ko'rinishlardan boshlab professional sahna san'ati darajasigacha rivojlanish jarayoni yoritildi. Shuningdek, pantomima dramaturgiyasi, aktyor tayyorlash tizimi va vizual ifoda vositalarining zamonaviy teatr kontekstidagi o'rni ochib berildi.*

***Kalit so'zlar:** pantomima, teatr, dramaturgiya, mimika, plastika, sahna ifodasi, aktyorlik mahorati, vizual teatr.*

## **THE ART OF PANTOMIME: PLOT AND DRAMATURGICAL ISSUES**

***Abstract.** This article provides a scientific and theoretical analysis of the stages in the formation of modern pantomime theatre, its historical evolution, as well as its current dramaturgical and methodological challenges. The study examines the development of pantomime from its ancient ritual origins to the level of a professional performing art. It also explores the role of pantomime dramaturgy, actor training systems, and visual expressive means within the context of contemporary theatre.*

***Keywords:** pantomime, theatre, dramaturgy, mime, plasticity, stage expression, acting skills, visual theatre.*

Pantomima insoniyatning eng qadimiy kommunikativ shakllaridan biri sifatida nutq shakllanmagan davrlardayoq paydo bo'lgan. Dastlab u mimika, imo-ishora va tana harakatlari orqali axborot uzatish vositasi sifatida namoyon bo'lgan.

Ibtidoiy jamiyatda marosimiy va mifologik tasavvurlarni ifodalashda pantomimik harakatlar muhim o'rin tutgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, pantomima qadimgi Hindiston va Yunonistonda sahnaviy shaklga ega bo'lib, keyinchalik Rim teatrida mustaqil janr sifatida rivojlangan. Aynan Rim davrida pantomima professional ijrochilik maktabiga aylangan va sahnaviy kompozitsiya, dramatik tuzilma elementlari bilan boyigan.

O'rta asrlarda pantomima dramatik va folklor janrlar tarkibida yashab qolgan bo'lsa-da, uyg'onish davridan boshlab u sahna san'atining muhim tarkibiy qismiga aylandi. XIX–XX asrlarda esa Yevropa teatr maktablari, xususan fransuz pantomima san'ati vakillari so'zsiz dramani mustaqil estetik tizim darajasiga olib chiqdi [1].

Zamonaviy pantomima vizual teatr konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda so'z ikkilamchi, tana plastikasiga asoslangan semantik tizim esa asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Bu jarayonda aktyorning jismoniy tayyorgarligi, ichki psixofizik uyg'unligi va obrazli tafakkuri muhim omilga aylanadi.

Biroq, hozirgi davrga kelib pantomima san'atining rivojlanishi, uning ommalashishida ba'zi omillarning yetishmasligi qadimiy san'atning kamyoblashib borishiga sabab bo'moqda. Xususan, bugungi pantomima san'atining eng dolzarb muammolaridan biri – dramaturgik asosning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir. An'anaviy dramatik matndan farqli ravishda, pantomima dramaturgiyasi vizual-kompozitsion struktura asosida quriladi. Bunda harakat, ritm, pauza va plastika dramatik rivojlanishning asosiy komponentlari sifatida namoyon bo'ladi [2].

Pantomima spektaklida konflikt verbal dialog orqali emas, balki so'zsiz kompozitsiya va harakat dinamikasi orqali ochiladi. Shu sababli mazkur san'at uchun alohida dramaturgik metodologiya zarur. Vizual metafora, jismoniy partitura va sahnaviy plastika tizimlashtirilgan ilmiy yondashuv asosida ishlab chiqilishi lozim.

Pantomima aktyorini tayyorlash jarayoni klassik dramatik aktyor tayyorgarligidan farq qiladi. Bu yo'nalishda quyidagi komponentlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- plastika va jismoniy erkinlik;
- ritm va musiqiylik;
- mimik ifoda aniqligi;
- tasavvur;
- obrazli tafakkur va ichki motivatsiya;
- ta'sirchan tana va his qilish qobiliyati [3].

Stanislavskiy tizimi, Meyerxold biomexanikasi va zamonaviy jismoniy teatr metodlari pantomima aktyorini shakllantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsada, bugungi kunda pantomima ta'limi uchun maxsus o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish zarurati sezilmoqda.

Raqamli texnologiyalar, multimediya va vizual effektlar keng qo'llanilayotgan zamonaviy teatr muhitida pantomima yangi estetik imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. So'zdan voz kechish yoki uni minimal darajaga tushirish orqali sahnaviy ifoda universallasadi va turli madaniy kontekstlarda tushunarli bo'lib qoladi.

Pantomima bugungi global teatr jarayonida intermedial va performativ yo'nalishlar bilan integratsiyalashib, yangi sintez shakllarini yaratmoqda. Bu esa uning estetik va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pantomima qadimiy marosimiy shakldan zamonaviy vizual teatr tizimigacha murakkab evolyutsion jarayonni bosib o'tgan. Bugungi kunda uning asosiy muammolari dramaturgik metodologiyaning yetarli ishlab chiqilmaganligi va maxsus ta'lim tizimining to'liq shakllanmaganligidadir.

Pantomimani zamonaviy teatr nazariyasi doirasida alohida ilmiy obyekt sifatida o'rganish, uning dramaturgik modelini ishlab chiqish hamda aktyor tayyorlashning maxsus metodikasini yaratish ushbu yo'nalishning istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi.

Pantomima san'atining rivojlanishida dramaturgiya masalasi eng murakkab va bahsli bosqichlardan biri hisoblanadi. Har qanday sahna asarining mustahkamligi uning dramaturgik asosiga bog'liq bo'lganidek, pantomima spektaklining badiiy qiymati ham avvalo uning ichki kompozitsion tuzilmasi va g'oyaviy yaxlitligi bilan belgilanadi. Teatrshunoslar tomonidan e'tirof etilganidek, aynan dramaturgik poydevor spektaklning mantiqiy rivoji, obrazlar tizimi va tomoshabinga ta'sir kuchini belgilaydi.

Dramatik teatr repertuari asrlar davomida shakllangan boy adabiy manbalarga tayangan holda rivojlanib kelgan. Pantomima sohasida esa bu jarayon ancha murakkab kechgan. So'zsiz teatr xususiyati sababli pantomima uchun maxsus yozilgan librettolar va dramatik materiallar son jihatidan kam. Natijada aksariyat pantomima jamoalari mustaqil ravishda syujet yaratishga yoki mavjud adabiy asarlarni moslashtirishga majbur bo'ladi. Bunday holat ko'pincha g'oyaviy noaniqlik, kompozitsion tarqoqlik va dramatik ziddiyatning yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi [4].

Pantomima dramaturgiyasi ham umumiy dramaturgiya qonuniyatlariga bo'ysunadi. Har qanday sahna asari singari, unda ham aniq g'oya, izchil voqealar rivoji, tugun, kulminatsiya va yechim mavjud bo'lishi zarur. Dramaturgik kompozitsiyaning uchburchak modeli – boshlanish, rivojlanish, cho'qqi nuqta va yakun – pantomima uchun ham amal qiladi. Pantomima librettosining o'ziga xosligi shundaki, unda barcha mazmun ko'rinadigan harakatlar orqali ifodalanadi. Drama janridan farqli ravishda, bu yerda voqeani personaj tilidan hikoya qilish imkoniyati mavjud emas. Har bir dramatik vaziyat tomoshabin ko'z o'ngida harakat orqali tug'iladi, rivojlanadi va yakun topadi. Shu bois pantomima dramaturgi muallifi harakatning imkoniyatlarini chuqur bilishi, sahnaviy plastika vositalarini ongli ravishda tanlashi zarur.

Pantomima asarining g'oyaviy markazi alohida ahamiyatga ega. Asarning mavzusi insoniyat uchun dolzarb, ma'naviy yoki ijtimoiy mazmunga ega bo'lishi lozim. Yuksak darajadagi pantomima harakati orqali ifodalangan aniq maqsad

tomoshabinda kuchli hissiy aks-sado uyg'otadi. Tarixda Charli Chaplin tomonidan yaratilgan sahnaviy obrazlar bunga yorqin misol bo'la oladi. Chaplin ijodida harakat va vizual metafora vositasida global mazmundagi g'oya ifodalangan bo'lib, minimal vositalar orqali kuchli dramaturgik ta'sirga erishilgan [5].

Dramaturgik tuzilmaning muhim elementi – tugun va to'siqlar tizimidir. Pantomimada qahramonning maqsad sari harakatida uchraydigan to'siqlar obrazning ichki va tashqi rivojini ta'minlaydi. To'siq qanchalik murakkab va dramatik bo'lsa, harakat shunchalik faol va ta'sirchan bo'ladi. Faol harakat esa tomoshabin idrokini jonlantiradi. Masalan, Chaplinning boks etyudida qahramon bir nechta jiddiy to'siqlarga duch keladi: jismoniy kuch jihatidan ustun raqib, tor makon, ijtimoiy vaziyat. Aynan ushbu to'siqlar obrazni yorqinlashtiradi va dramaturgik dinamikani kuchaytiradi. Pantomima dramaturgi uchun yana bir muhim shart – ifoda vositalarini chuqur egallashdir. Har qanday sahnaviy harakat pantomima bo'la olmaydi. Harakat ichki mazmunni ochib berishi, g'oyaga xizmat qilishi shart. Ortiqcha yoki majburiy harakat sahnaviy ta'sirni susaytiradi. Xuddi dramatik matnda ortiqcha so'z bo'lmaganidek, pantomimada ham maqsadsiz imo-ishora yoki plastika bo'lmashligi kerak.

Zamonaviy pantomima amaliyotida esa ko'plab spektakllar va etyudlar dramaturgik yetuklikdan yiroq holda namoyon bo'lmoqda. Syujetning mayda detallarga ajratilmaganligi, konfliktning aniq belgilanmaganligi, g'oyaning yetarli darajada shakllanmaganligi sahnaviy asarning badiiy qiymatini pasaytiradi. Ayrim hollarda pantomima oddiy jismoniy harakatlar ketma-ketligiga aylanib qolmoqda. Xulosa qilib aytganda, pantomima dramaturgiyasi bugungi kunda nazariy jihatdan chuqur tadqiq etilishi zarur bo'lgan yo'nalishdir. Uning rivoji maxsus librettolar yaratish, dramaturgik metodologiyani ishlab chiqish va so'zsiz teatrning estetik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish bilan bevosita bog'liq. Pantomima dramaturgiyasining takomillashuvi ushbu san'at turining mustaqil va yuksak badiiy tizim sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

---

*Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Славский Р. *Искусство пантомими.* – Москва: Искусство, 1962. – 230 с.
2. Румнеев А. *Пантомима и её возможности.* – Москва: Искусство, 1966.  
– 160 с.
3. Aubert Ch. *World of Pantomime.* – London: Allen Unwin, 1927. – 200 p.
4. Маркова Е. *Современная зарубежная пантомима.* – Москва:  
Искусство, 1985. – 210 с.
5. Mannonov S. *Pantomima.* – Toshkent: Ilmiy texnika axboroti-press, 2020.  
– 116 b.

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida dotsenti (v.b.),  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: dostonov0091@gmail.com*

## **O'ZBEKISTON KINEMATOGRAFIYASINING BARQAROR TARAQQIYOTIDA KINO MUALLIFLARI TA'LIMINING O'RNI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston kinematografiyasining barqaror rivojida kino mualliflari ta'limining o'rni yoritiladi. Milliy kino ta'limidagi ilmiy-nazariy, texnik va tashkiliy uzilishlar tahlil qilinib, VGIK, La Femis va AFI kabi xorijiy kino maktablari tajribasi bilan taqqoslanib, yagona integratsiyalashgan ta'lim tizimini joriy etish zarurati asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:** kino ta'limi, kino mualliflari, integratsiyalashgan ta'lim, tarjima-markaz, moddiy-texnik baza, kinematografiya.*

## **THE ROLE OF FILM AUTHORS' EDUCATION IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEK CINEMATOGRAPHY**

***Abstract.** The article highlights the role of film directing education in the sustainable development of Uzbek cinematography. It analyzes the scientific-theoretical, technical, and organizational gaps in national film education, compares them with the experiences of foreign film schools such as VGIK, La Fémis, and AFI, and substantiates the need to implement a unified integrated education system.*

***Keywords:** film education, film directors, integrated education, translation center, material and technical base, cinematography.*

Kinematografiya barqaror taraqqiyotida ssenarist, rejissyor, operator, rassom, bastakor kabi mualliflar ta'limining o'rni jahon miqyosidagi ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarda ham alohida e'tibor markazida turadi. Jorj Sadul [1],

Sergey Eyzenshteyn [2], Vladimir Nilzen [3, 225-c], Bela Balash [4, 328-c], Andrey Bazen [5, 382-c], Syd Field [6, 272-p] kabi yetakchi kinomaktab mutaxassis olimlari ta'kidlaganidek, mualliflik tafakkuri, estetik did va texnik bilim uyg'unligi orqali shakllanadigan professional ta'lim tizimi har qanday kinematografiyaning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omildir. Masalan, Rossiyadagi VGIK, Fransiyadagi La Femis yoki AQSHdagi AFI kabi kino akademiyalarida besh asosiy muallif bir tizimda, yagona loyihaviy metod asosida tayyorlanadi. Bu integratsiyalashgan model kinematografiyaning barqarorligini ta'minlovchi xalqaro tajriba sifatida e'tirof etish mumkin.

So'nggi yillarda milliy kino san'atining saviyasi sezilarli darajada pasaygani kuzatilmoqda. Bunga avvalo, ijodiy yondashuvning yuzakilashuvi, tijorat manfaatining badiiy maqsaddan ustun qo'yilishi va ilmiy-nazariy tayyorgarlikka ega mualliflarning kamayib borishi sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, bu tanqid katta avlod mutaxassislari ustaxonasiga sodiq qolgan, ularga munosib izdosh bo'lgan usta ijodkorlardan tashqari soha vakillariga nisbatan aytiladi. Ana shu tajribali avlod an'analarini davom ettirayotgan ijodkorlar hali ham san'atning badiiy saviyasini saqlab qolish yo'lida fidokorona mehnat qilmoqdalar. Afsuski, qolgan ko'plab filmlar esa o'sha yuksak mahorat, mas'uliyat va estetik mezonlardan uzoqlashib bormoqda.

Ijodiy ustaxonalar o'rtasidagi uzilish mazmunidagi jihatlar O'zbekiston hududida kino mualliflarini tayyorlash masalasini jiddiy kun tartibiga qo'yadi. Ustoz-shogird tizimining zaiflashuvi, ishlab chiqarish muhitidan uzilish, amaliy loyihalarning kamayishi va o'zaro hamkorlik madaniyatining sustligi asosiy sabablardir. Kun sayin "Ertangi kinematografiya kimga qoladi?" degan savol faqat nazariy emas, amaliy zaruratga aylanib bormoqda. Bugun yetarli darajada puxta tayyorgarlikka ega, badiiy va g'oyaviy mas'uliyatni his qiladigan yangi avlod mualliflarini shakllantirish milliy kinematografiyaning ertangi taqdirini belgilaydigan eng muhim masalalardan biridir.

Ma'lumki, mazkur tizimning ildizlari 1945-yilda tashkil etilgan A.N.Ostrovskiy nomidagi O'rta Osiyo davlat teatr san'ati instituti faoliyatiga borib taqaladi [7, 165-b]. Aynan shu muassasa negizida teatr va tasviriy san'at bilan bir qatorda 1987-yildan kino sohasida ham pedagogik va ijodiy maktab shakllandi. Mustaqillik yillarida institut Mannon Uyg'ur nomini olib, sahna va ekran san'ati uchun ilmiy-ma'rifiy tayanch markazga aylandi. Bugungi kunda ham O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti deb nomlanib, kino ta'limi jarayonida ijodiy tafakkur va texnik savodxonlikni uyg'unlashtiruvchi yagona ilmiy-metodik markaz sifatida faoliyat yuritmoqda.

2017-yil 7-avgustdagi PQ-3176-son [8], 2024-yil 5-iyundagi PQ-209-son [9] li Prezident qarorlari kino va televideniye sohasini alohida akademiya sifatida ajralib chiqib, uzluksiz zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishni strategik vazifa sifatida belgilab berdi. Biroq ushbu qarorlarning amaliy ijrosida moliyaviy va texnologik bazaning cheklanganligi, ta'lim va ishlab chiqarish muhitining uzviy bog'lanmaganligi, hamda ilmiy-nazariy tadqiqotlar bilan amaliy jarayon o'rtasidagi uzilish kabi muammolar sabab amalga oshmadi.

Ushbu tarixiy, idoraviy tizim va ijodiy jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi muammolar faqat tashkiliy omillar bilan cheklanmay, tarjima qilinmagan ilmiy manbalar, PhD-DSc dissertatsiyalarning ijodiy ustaxonalarga deyarli amaliy foyda keltirmasligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi hamda besh asosiy kino muallifining yagona ta'lim muhitida birgalikda tayyorlanmayotgani bilan ham bevosita bog'liqdir.

**Tarjima qilinmagan ilmiy manbalar.** Zamonaviy kino ta'limining poydevori asosan XX-XXI asrlarda dunyodagi ilg'or kino maktablarida shakllangan nazariy bilimlar, metodologik yondashuvlar va estetik tamoyillarga asoslanadi. Biroq ayni paytda O'zbekiston oliy ta'lim tizimi bu ilmiy manbalarni mahalliy kontekstda joriy etish va moslashtirish borasida jiddiy bo'shliq bilan yuzma-yuz turibdi. Bugungi kunda kinematograf yaratilganidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda ishlab chiqilgan asosiy xorijiy adabiyotlarning

nechta muhim asari o'zbek tiliga tarjima qilingan? Asosiy, lekin bevosita dolzarb savolga na aniqlik, na ishonchli statistik javob berish mumkin. Sababi, ushbu sohada na davlat tomonidan yuritiladigan rasmiy tarjimalar reyestri mavjud, na tarjimalarning sifatini ilmiy mezonlar asosida baholaydigan ekspert kengashlari faoliyat yuritmoqda. Tarjimalarning aksariyati alohida mustaqil tashabbuslar asosida amalga oshirilgan bo'lib, ular ilmiy-metodik muvofiqlashtirishdan chetda qolgan, parokanda va fragmentar holatda mavjud. Bu esa, ushbu sohani tizimli rivojlantirish o'rniga, uzviylikdan holi va epizodik yondashuvga asoslangan faoliyatga olib kelmoqda. Shu bois, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzurida "Kino manbalarini tarjima va adaptatsiya markazi" tashkil etish, xorijiy kino adabiyotlarini tizimli tarjima qilish va ularni o'quv dasturlariga kiritish strategik zaruratdir.

**PhD-DSc dissertatsiyalarning ijodiy ustaxonalarga amaliy foyda keltirmasligi.** O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan 17.00.03 – "Kino san'ati. Televideniye" ixtisosligi pasporti [10, 2-b] da "kinematografik kasblar va mutaxassislarning badiiy hamda ishlab chiqarish spetsifikasini o'rganish" yo'nalishi alohida e'tirof etilgan bo'lsa-da, ushbu sohaga oid ilmiy izlanishlarning amaliy natijalari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Amaldagi holat shundan dalolat beradiki, bu sohadagi ilmiy izlanishlar fragmentar, parchalanib ketgan holatda mavjud bo'lib, ularning aksariyati institutlar ichki arxivida yoki yopiq muhitda qolib ketgan. Natijada, kino mualliflari faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy izlanmalarni tizimli identifikatsiya qilish, ularni tahlil qilish va kelajak tadqiqotlar uchun ilmiy asos sifatida foydalanish imkoniyati deyarli mavjud emas. Bu esa akademik uzviylik, milliy kino ilm-fanining mustahkam rivojlanishini ham jiddiy to'xtatib turadi.

Shu bois, bugungi kunda kino mualliflari faoliyatini tadqiq qilgan va nazariy ishlanma sifatida tan olingan PhD yoki DSc dissertatsiyalar mavjudmi? bu savolga ilmiy dalil va rasmiy manbalar asosida aniq va inkor etib bo'lmaz javob berishning imkoni yo'q. Bu holat esa ilmiy sohaga oid ochiqlik, izchillik va shaffoflik

yetishmasligining jiddiy belgisi sifatida baholanishi lozim. Demak, kino ta'limi va ilm-fanida muvofiqlashtirilgan markaz, ochiq dissertatsion baza, metodik yondashuvlar va institutsional barqarorlik bu sohaning hozirgi, istiqboldagi taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omillardandir. Har bir ilmiy dissertatsiya natijalari asosida amaliy laboratoriya yoki ustaxona jarayoniga integratsiyalanishini ta'minlaydi.

**Moddiy-texnik bazaning zaifligi.** Amaliy-texnik vositalar bosqichma-bosqich rivojlangan bo'lsa-da, ularning darajasi jahon kino industriyasidan ancha orqada qolgan. Xususan, 1987–2005-yillar oralig'ida VHS formatdagi analog videokameralar asosiy o'quv texnikasi sifatida qo'llanilgan. Bu texnologiya allaqachon eskirgan bo'lsa-da, o'sha yillarda undan voz kechishning imkoniyati bo'lmagan. Keyinchalik, 2005–2012-yillarda Sony Mini DV formatidagi kameralar bilan ishlash davom ettirildi. Bu bosqich ham texnologik jihatdan sezilarli yutuq bo'lsa-da, global kino maktablarida ayni vaqtda raqamli kinematografiyaning kuchli to'liqini boshlangan edi. 2013-yildan boshlab Canon Mark II, III, IV kabi DSLR kameralar ta'lim jarayonida asosiy amaliy vosita sifatida joriy qilindi. Ammo ular professional kinematografik tasvir yaratish nuqtayi nazaridan ARRI Alexa, RED, Blackmagic kabi xalqaro sanoat standartlariga javob bera olmaydi. Bundan-da achinarli tomoni shundaki, mavjud texnik vositalar va pavilonlar o'z imkoniyatiga qaramasdan, talabalar sonining atigi 10–15 foizinigina qamrab ololmoqda. Bu oddiy statistik emas, strategik muammolarning ochiq ko'rsatkichidir. Ushbu vaziyatni bartaraf etish uchun xalqaro kino texnologiyalari ishlab chiqaruvchilari bilan hamkorlik bitimlari tuzish, texnik bazani bosqichma-bosqich yangilash va davlat grantlari asosida amaliy studiyalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki har bir kino muallifi zamonaviy suratga olish texnikasida mustaqil ishlay olmasa, u global talablarga mos mahsulot yaratishi, sahnaviy fikrni vizual tilga aylantirishi, rang, yorug'lik va kompozitsiya orqali dramatik yechim berishi mutlaqo mumkin emas.

**Besh asosiy kino muallifining yagona ta'lim muhitida birgalikda tayyorlanmayotgani.** Natijada kino loyihalarida estetik uyg'unlik, dramatik ritm va g'oyaviy yaxlitlik buzilmoqda. 2025/2026-o'quv yillari uchun O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy qabul parametrlarining ta'lim yo'nalishlari va o'qitish tillari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan [11]:

1. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti.

- 60211000 – San'atshunoslik: sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi (10 nafar);

- 60211200 – Rejissyorlik: kino va televideniye rejissyorligi (15 nafar o'zbek, 5 nafar rus);

- 60210200 – Kino-teleoperatorlik (15 nafar). Institutning Nukus filiali;

- 60211000 – San'atshunoslik: sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi (12 nafar o'zbek, 8 nafar qoraqalpoq);

- 60211200 – Rejissyorlik: kino va televideniye rejissyorligi (5 nafar o'zbek, 5 nafar qoraqalpoq).

2. Kamoliddin Begzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

- 60210500 – Rangtasvir: filmning tasviriy yechimi (8 nafar).

3. Konservatoriya.

- 60210900 – Bastakorlik san'ati (11 nafar o'zbek, 4 nafar rus).

4. Milliy estrada san'ati instituti.

- 60210900 – Bastakorlik san'ati (9 nafar o'zbek, 3 nafar rus).

5. O'zbek milliy musiqa san'ati instituti.

- 60210900 – Bastakorlik san'ati (13 nafar).

Ushbu ro'yxat O'zbekiston bo'yicha kino mualliflarini tayyorlayotgan oliy ta'lim yo'nalishlarining parchalanib ketganligini aniq ifodalaydi. Barcha asosiy ijodiy kasblar turli muassasalarda alohida tayyorlanmoqda. Quyida tizimdagi bir nechta asosiy muammolarni ilmiy va tizimli shaklini ko'rib chiqamiz:

A. Yo'nalishlarning parchalanib ketganligi. Kino san'atining barcha jarayonlari (ssenariy, rejissura, operatorlik, rassomlik, bastakor) o'zaro bir-birini to'ldiradigan yagona ijodiy tizim sifatida ishlashi kerak. Ammo, bu yo'nalishlarda bu mutaxassisliklar turli institutlarda ajratilgan: dramaturg, rejissyor, operator O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida, tasviriy yechim rassomlik institutida, bastakorlik konservatoriya va estrada institutida. Natijada bitiruvchilar o'z sohasida yetuk bo'lishi mumkin, lekin bir-biri bilan ijodiy muhitda ishlash madaniyatini o'rganmaydi. Bu esa kino loyihalarida yagona estetik va dramatik uyg'unlikni yo'qotadi.

B. Ssenarist (screenwriting) mustaqil yo'nalish sifatida shakllanmagan. San'atshunoslik: sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi yo'nalishi mavjud, ammo u senarist tayyorlash uchun to'liq ixtisoslashgan dastur emas. U asosan nazariy san'atshunoslik va dramaturgiya tahliliga qaratilgan, amaliy ssenariy yozish, kino strukturasi, kadr tilini o'qitish ko'lami tor. Bu esa kelgusida kinossenaristlar soni kam, sifati esa notekis bo'lishiga olib keladi.

D. Ijodiy guruh tamoyili ta'limda yo'q. Kino ijodiy guruh mualliflari tomonidan birgalikda loyiha shaklida yaratiladi. Ammo, hozirgi o'quv tizimi ularni alohida o'rgatadi, bir-biri bilan ishlash, loyiha ishlab chiqarish, pitching va production jarayonlarini o'rganmaydi. Natijada bitiruvchilar o'zaro tanish emas, ijodiy tarmoq hosil bo'lmaydi. Yangi loyiha yaratish uchun tabiiy guruh shakllanmaydi.

E. Yangi ijodiy loyihalar uchun integratsiyalashgan muhit yo'q. Kelajakda kino sanoatining o'sishi uchun "mualliflar guruhi" ssenarist, rejissyor, operator, rassom va bastakordan iborat mustaqil studiyalar shakllanishi zarur. Ammo, o'zaro hamkorlik loyihalari kamligi, beshlik birgalikda ishlab chiqqan pitching jarayoni yo'q, mualliflarni bir OTMda o'qitish model tajribasi joriy etilmaganligiga ko'ra hozirgi ta'lim tizimi bunga asos yaratmayapti.

O'zbekiston kinematografiyasining barqaror taraqqiyoti, avvalo, ssenarist, rejissyor, operator, rassom va bastakor kabi besh asosiy kino muallifining yagona

ta'lim muhitida uzviy va tizimli tayyorlanishiga bog'liqdir. Bugungi ta'lim tizimida ushbu yo'nalishlarning turli oliy o'quv yurtlarida parchalanib ketgani, amaliy ishlab chiqarish jarayonidan uzilganligi va ilmiy tadqiqotlarning (PhD, DSc) ustaxonalarga foyda keltirmayotganligi milliy kino rivojiga sun'iy to'siq bo'lib turibdi.

Shu bois, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti negizida barcha mualliflik yo'nalishlarini yagona ilmiy-ijodiy markaz sifatida birlashtirish, 2026–2027-o'quv yilidan boshlab ssenarist, rassom va bastakor ixtisosliklari bo'yicha qabulni yo'lga qo'yish zarur. Besh mutaxassislikning asosiy fanlari doirasida jahon kino adabiyotlari va zamonaviy metodologiyalarni o'zbek tiliga tarjima qilish, moddiy-texnik bazani xalqaro standartlarga moslashtirish hamda jamg'arma mablag'lari hisobidan zarur uskunalarni xarid qilish bo'yicha kompleks "yo'l xaritasi" ishlab chiqilishi lozim.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Садуль Ж. *Всеобщая история кино*. – Москва: Искусство, 1958–1963. – 700 с.
2. Эйзенштейн С. *Избранные произведения*. – Москва: Искусство, 1964–1971. – 518 в.
3. Нильсен В. *Изобразительное построение фильма*. – Москва: Кинофотоиздат, 1936. – 225 с.
4. Балаш Б. *Кино: Становление и сущность нового искусства*. Пер.с нем. – Москва: Прогресс, 1968. – 328 с.
5. Базен А. *Что такое кино? Сборник статей*. Пер.с.франц. – Москва: Искусство, 1972. – 382 с.
6. Field S. *Screenplay The Foundations of Screenwriting*. – USA: Random House Publishing group, 1984. – 272 p.

**Farhod Farmonov**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Musiqali teatr san'ati" kafedrası dotsenti (v.b.)  
E-mail: farmonovf919@gmail.com*

## **MUSIQALI TEATR AKTYORINI TARBIYALASHDA MATNNING BADIY VA MUSIQIY INTEGRATSIYASI**

***Annotatsiya.** Maqolada musiqali teatr aktyorining so'z va ariya matni bilan ishlash jarayoni, aktyor ijrosida matnning psixologik, dramatik va emotsional mazmunini musiqiy ifoda bilan uyg'unlashtirishning ahamiyati ta'kidlangan. Shuningdek, musiqali teatr aktyorining ijodiy va professional rivojlanishi uchun matn bilan ishlashning g'oyaviy, estetik va metodologik ahamiyati yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** musiqali teatr, aktyor, ariya, matn, vokal, dramatik ijro, konsertmeyster, xormeyster, musiqa, dramaturgiya, badiiy interpretatsiya.*

## **INTEGRATION OF THE ARTISTIC AND MUSICAL ASPECTS OF TEXT IN THE TRAINING OF A MUSICAL THEATRE ACTOR**

***Abstract.** The article emphasizes the process of a musical theatre actor working with spoken text and aria lyrics, highlighting the importance of harmonizing the psychological, dramatic, and emotional content of the text with musical expression in the actor's performance. It also explores the ideological, aesthetic, and methodological significance of working with text for the creative and professional development of a musical theatre actor.*

***Keywords:** musical theatre, actor, aria, text, vocal, dramatic performance, concertmaster, choirmaster, music, dramaturgy, artistic interpretation.*

Musiqali teatr aktyori oddiy ijrochidan ko'ra o'zida ko'proq jabhalarni qamrab olgan – sintez san'atkordir. U ijro jarayonida bir vaqtning o'zida vokal mahorati, dramatik aktyorlik qobiliyati, sahna harakati estetikasi va xoreografik ifodani yagona, badiiy yaxlitlikka uyg'unlashtira olishi shart. Ushbu ko'p qirrali murakkab jarayonda, so'z va ariya matni bilan ilmiy-metodik ishlash markaziy

o'rin egallaydi. Aktyorga bu jarayon obrazni chuqur anglashga, matnni musiqiy ifoda bilan organik birlashtirishga yordam bergan holda undan konsertmeyster va xormeyster bilan uzviy amaliy-nazariy hamkorlikni talab etadi. Musiqali teatr aktyorini tarbiyalashda bu mavzuning g'oyaviy-estetik va metodologik ahamiyati beqiyosdir, chunki matn ijroning semantik o'zagini tashkil etadi [1, 122-b].

Aktyorning asar matni ustida ishlashidagi dastlabki bosqichi matndagi har bir so'zning, jumlaning lug'aviy ma'nosini, majoziy, hissiy-assotsiativ mazmunini, ayniqsa, yashirin, yuzaki qatlam ostidagi ma'noni chuqur o'rganadi. Musiqiy teatrning juda muhim shartlaridan biri bo'lgan ariya matnda ko'pincha qahramonning ichki monologini, uning psixologik ziddiyatlarini, intilishlarini va konfliktlarini bilvosita yoki ramziy tarzda ifodalaydi.

Aktyor matndagi eskirgan so'zlar, tarixiy atamalar ma'nosini tahlil qiladi, ularning asardagi davr ruhini aks ettirishdagi funksiyasini anglaydi. So'zlarning ko'p ma'noliligini va ikkiyoqlama talqin ehtimolini o'rganish orqali aktyor matnning ko'p qirrali semantik qatlamlarini ochadi. Bu ijrochiga matnni ko'p planli interpretatsiya qilish imkonini beradi.

Matnning aktyor ijrosidagi asosiy pragmatik maqsadini aniqlash – masalan, ishontirish, ma'lumot berish, hissiyot uyg'otish – aktyorga matnni qanday intonatsiya va dinamika bilan ijro etishni belgilashda yordam beradi. Aktyor qahramonining ichki kechinmalari, maqsadlari va munosabatlarini belgilovchi, matnda to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan, ammo yashirin ma'nolarni topishi va ularni vokal-dramatik vositalar orqali namoyon etishi kerak. Bu aktyorga obrazning psixologik chuqurligini ochishdagi fundament hisoblanadi [2, 18-b].

Bu tahlillar aktyorga nafaqat matnni mexanik yodlash, balki uni intellektual va emotsional jihatdan chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. Konsertmeyster ushbu bosqichda matnning musiqiy ritm va urg'ular bilan akustik bog'liqligini tushuntiradi, xormeyster esa xor partiyalarida so'zning qanday kollektiv ifoda topishini va umumiy fonetik uyg'unlikni ta'minlash kerakligini ko'rsatadi.

Musiqali teatrda soʻzning aniqligi, toʻgʻriligi va diksiyon ravonligi vokal ijro sifati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aktyor musiqiy matni ijro etishda har bir unli va undosh tovushning artikulyatsiyaviy parametrlarini aniq talaffuz qilishni oʻrganadi [3, 46-b].

Oʻzbek tilining oʻziga xos fonetik xususiyatlari (masalan, unli tovushlarning choʻziqligi, undoshlarning jarangdorligi, lablangan va lablanmagan unlilar farqi, choʻziq va qisqa unlilar) vokal ijroda toʻgʻri aks etishi kerak. Bu har bir tovushning musiqiy ifodadagi vazifasini belgilaydi. Ayniqsa, vokalizatsiya paytida tovushning shakllanishida ishtirok etuvchi artikulyatsion organlarning (til, lablar, jagʻ, yumshoq tanglay) aniq harakati va koordinatsiyasi muhimdir. Bu fonetik realizatsiya nazariyasining asosidir.

Diksikaning rovonligi tomoshabinga matni tushunarli yetkazishni taʼminlaydi. Intonatsiya esa soʻzning hissiy rangini kuchaytiradi va musiqiy ibora bilan birga obrazning ruhiy-psixologik holatini aks ettiruvchi intonatsion paradigmalarni yaratadi. Ijrochining nutq tempi, pauzalari va urgʻulari matnning maʼnosini yanada chuqurlashtiradi.

Asar matnidagi soʻzlarning ritmik joylashuvi musiqiy ritm bilan uygʻunlashishi spektaklning asosiy shartlaridan biridir. Spektakl jarayonidagi pauzalar nafaqat fiziologik nafas olish uchun, balki matnning semantik mazmunini kuchaytirish va dramatik taranglikni yaratish uchun ham xizmat qiladi. Bu prozodik ritmikani oʻzlashtirishni talab etadi, bunda soʻzning tabiiy urgʻulari musiqiy urgʻular bilan mos kelishi muhim.

Konsertmeyster aktyorga nafas olish texnikasini (diafragmatik-qovurgʻa nafas), vokal apparatini toʻgʻri boshqarishni (rezonatorlardan foydalanish) va tovushlarning matn bilan organik bogʻliqligini oʻrgatadi. U fortepiano joʻrligida aktyorning har bir soʻzni qanday ijro etishini akustik monitoring ostida nazorat qiladi. Xormeyster esa xor partiyalarida diksiyaning guruh ichidagi bir xilligini va intonatsiyaning umumiy gʻoyaviy-estetik konsepsiyaga xizmat qilishini taʼminlaydi, bu kollektiv artikulyatsiya madaniyatini shakllantiradi [4, 25-b].

Matnni musiqiy dramaturgiya va badiiy interpretatsiya bilan integratsiyalashda musiqali teatr aktyori uchun soʻz va ariya matnini musiqa bilan uzviy bogʻlash eng murakkab, ammo eng muhim bosqichdir. Bunda aktyor matnning hissiy mazmunini vokal intonatsiya, tembr nyuanslari va dinamik diapazon orqali kuchaytiradi.

Qahramonning ichki kechinmalari (quvonch, qaygʻu, gʻazab, umidsizlik, ekstaz) musiqaning ohangdorligi, ritmik pulsi va garmonik strukturalari bilan bir xil emotsional vibratsiyada boʻlishi kerak. Bu orqali emotsional rezonans va badiiy katarsis hosil qilinadi. Agar asarda maʼlum bir personajga, gʻoyaga yoki his-tuygʻuga bogʻlangan musiqiy leytmotivlar mavjud boʻlsa, aktyor matnni ijro etishda bu leytmotivlar bilan oʻzining vokal ifodasini semantik jihatdan bogʻlaydi, matn va musiqa oʻrtasida semantik koʻpriklarni yaratadi.

Matnning musiqiy jumlar (frazalar) bilan birga yagona nafasda ijro etilishi matnning maʼnosi musiqiy shakl bilan organik uygʻunlashishini taʼminlaydi. Frazalash nafaqat texnik, balki badiiy-semantik ahamiyatga ega. Soʻzning maʼnosini kuchaytirish uchun vokal dinamika (forte, piano, kreshendo, diminuendo) va agogika (rubato, accelerando, ritardando) dan mahorat bilan foydalanish matnning har bir nyuansini musiqiy vositalar orqali ifodalash imkonini beradi.

Konsertmeyster bu bosqichda aktyorga musiqaning har bir notasi va ritmik figurasining matndagi maʼno bilan organik bogʻliqligini koʻrsatadi, u aktyorning matnni musiqa bilan toʻgʻri “oʻqishiga” va badiiy interpretatsiya qilishiga yordam beradi. Xormeyster esa xor sahnalarida har bir xor aʼzosining shaxsiy matn ijrosini umumiy musiqiy dinamika va frazalash bilan birlashtiradi, kollektiv diksiya va ansamblning ohangdorlik muvozanatini taʼminlaydi.

**Konsertmeyster va xormeysterning roli.** Konsertmeyster (coach accompanist, repetitor) musiqali teatr aktyorini tarbiyalashda asosiy pedagogik va ilmiy-metodologik figuralardan biridir. Uning faoliyati quyidagi yoʻnalishlarni qamrab oladi:

aktyorning vokal diapazoni, ovoz tembri, intonatsion tozaligi, vibrato nazorati va nafas olish texnikasi ustida tizimli ishlash;

murakkab ariyalar va musiqiy iboralarni texnik mukammallik bilan o'zlashtirishda yordam berish;

spektakl bastakorining musiqiy uslubini, janr xususiyatlarini (musiqali drama, operetta, milliy maqom uslubi) aktyorga nazariy va amaliy jihatdan o'rgatish;

rolning har bir musiqiy parchasini (ariya, ansambl, kavatina) uning dramatik vazifasi, psixologik ziddiyati va g'oyaviy mazmuni nuqtayi nazaridan tahlil qilish;

har bir aktyorning individual ovoz xususiyatlari, texnik imkoniyatlari va psixologik tipini hisobga olgan holda mashg'ulotlar olib borish.

Xormeysterning kollektiv-ijrochilikdagi artistik-ilmiy vazifasi:

spektakldagi barcha xor partiyalarini xor jamoasiga o'rgatish, vokal aniqlik, intonatsion tozalik va musiqiy frazalashni ta'minlash;

xor tovushlarining dinamik jihatdan muvozanatini saqlash, turli ovoz guruhlari o'rtasidagi tembr uyg'unligini ta'minlash;

xorning sahna harakatlarini rejissyor konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqish, xorning sahnadagi makoniy o'rnini va dramatik vazifasini belgilash;

xorning matndagi g'oyaviy-hissiy mazmuni yagona badiiy maqsadga xizmat qiladigan tarzda, kollektiv emotsional birlik asosida ijro etishini ta'minlash.

Xormeyster musiqali teatr aktyorini tarbiyalashda bevosita aktyor bilan ishlamas-da, uning xor a'zolari bilan ishlashi aktyorning umumiy ijro muhitida o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Ansambl sahnalarida aktyorlar xor bilan organik hamkorlikda ishlashadi va xormeysterning talablari ularning ijrosiga bilvosita ta'sir qiladi, kollektiv ijro madaniyatini shakllantiradi [5, 72-b].

Xulosa qilib aytganda, musiqali teatr aktyorini tarbiyalashda so'z va ariya matni ustida ishlash – bu oddiygina vokal texnikasini o'rgatish emas, balki murakkab psixofizik, badiiy-estetik va nazariy-metodologik jarayondir. Bu jarayonda aktyor matnning chuqur semantik ma'nosini anglaydi, uni musiqiy ifoda

bilan organik ravishda bog'laydi va o'z ijrosi orqali tomoshabin qalbida chuqur emotsional aks-sado beruvchi ko'p qirrali obrazni yaratadi.

Konsertmeysterning xormeyster bilan professional hamkorligi musiqali teatr aktyorining kompleks rivojlanishi uchun optimallashtirilgan sharoit yaratadi. Konsertmeyster individual vokal-texnik mahoratni sayqallashga, xormeyster esa kollektiv ijroning mukammalligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, so'z va musiqa birlashib, semantik va akustik yaxlitlikni hosil qiladi, bu esa musiqali spektaklning g'oyaviy-badiiy qiymatini va kommunikativ ta'sirini oshiradi.

Musiqali teatr aktyori uchun so'z nafaqat ma'lumot tashuvchi, balki hissiyot, ma'no va estetik ta'sirning kuchli universal vositasidir. U musiqiy asarning kommunikativ funksiyasini amalga oshiradi va uning badiiy rezonansini ta'minlaydi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Stanislavskiy K. *Aktyorning o'z ustida ishlashi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 468 b.
2. Usmanov R. *Rejissura*. – Toshkent: Fan, 1997. – 176 b.
3. Qobilov N., Dadamirzayev O. *Aktyorlik mahorati. Darslik*. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 220 b.
4. Muxammedova G. *Musiqiy tetr aktyorini tarbiyalashning asoslari. 1-2 qism*. – Toshkent: TDSI, 1991. – 250 b.
5. Xolmirzayev B. *Musiqali drama yaratishning nozik jihatlari*. – Toshkent: Yangi avlod, 2005. – 128 b.

Gavhar Nazarova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi dotsenti (v.b.),  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: gavhar2190@mail.ru*

## **SHE'RGGA YANGI "CHOPON" KIYGIZGAN CHO'LPON ("ARMON" HUJJATLI FILMI TALQINIDA)**

***Annotatsiya.** Maqolada o'zbek hujjatli kinosining zamonaviy jarayonlari hamda rejissyor Ruslan Saliyevning "Armon" hujjatli filmida ilgari surilgan ma'rifatparvar jadidlarning ijodiy faoliyati, boshidan kechirgan murakkab jarayonlar, erishgan yutuqlari bilan bir qatorda, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotishlar xususida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** tarixiy hujjatli filmlar, xronika, kategoriya, xususiyat, jadidlar.*

## **CHO'LPON: THE POET WHO CLOTHED POETRY IN A NEW "CLOAK" (AS INTERPRETED IN THE DOCUMENTARY FILM "ARMON")**

***Abstract.** This article discusses contemporary trends in Uzbek documentary cinema and examines the creative activity of the Jadid enlighteners, their complex life experiences, achievements, and tragic losses as presented in director Ruslan Saliyev's documentary film "Armon."*

***Keywords:** historical documentary films, documentary chronicle, genre, artistic features, jadids.*

Kino inson dunyoqarashini shakllantiruvchi, yuksak axloq normalari va estetik didni tarbiyalovchi vosita sifatida xalq hayotiga singib ketgan. U odamlarni, xususan yosh avlodni insonparvarlik, vatanparvarlik, soflik, oliyjanoblik, vijdoniylik, kattalarga hurmat, mehnatga muhabbat, kelajakka umid va ishonch ruhida tarbiyalashda ulkan rol o'ynamoqda. Bir asrlik taraqqiyot pillapoyasini ortda qoldirgan o'zbek milliy kino san'ati, bugun jahon kino ijodkorlarining

e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Badiiy film, ilmiy-ommabop, hujjatli va multiplikatsion kino turlari bo'yicha uzoq o'tmishli mahorat maktabining mavjudligi buning isbotidir. Hujjatli kino kinematografiya tarixida alohida o'rin egallaydi. U nafaqat eng qadimgi janrlardan biri sifatida shakllangan, balki kino tilining rivoji, tasviriy ifoda vositalari va texnologik yutuqlarning takomillashuvida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Hujjatli filmlar tomoshabinga o'zining bevosita tajribasidan tashqaridagi ijtimoiy, madaniy va tarixiy jarayonlarni kuzatish imkonini berib, go'yoki "haqiqat oynasi" vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, mazkur janr jamoatchilik ongini shakllantirish, ijtimoiy fikrni yo'naltirish hamda muayyan g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek hujjatli bugungi kunda kinosi yangi ijodiy bosqichga qadam qo'ydi. Texnologik taraqqiyot natijasida tasvirga olish, montaj va postproduksiya jarayonlarida yangicha yondashuvlar yuzaga kelib, janrning estetik imkoniyatlari kengaymoqda. Milliy tarix, madaniy meros, an'analar, tarixiy shaxslar hamda mustaqillik davri islohotlari zamonaviy hujjatli filmlarning asosiy mavzularidan biriga aylangan.

Xususan, film-portret janrining rivojida sezilarli jonlanish kuzatiladi. Kinoshunos J.Teshaboyev ta'kidlaganidek, mustaqillik davrida ushbu janr o'zining "ikkinchi hayoti"ni boshladi. Endilikda kinohujjatlar mavzu tanlashda erkinlikka ega bo'lib, inson va zamon o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq yoritishga intilmoqda. Bunday filmlarda faktografik materiallar va biografik ma'lumotlar bilan bir qatorda ichki obrazli qatlamning mavjudligi muhim badiiy-estetik xususiyat sifatida namoyon bo'ladi [1].

Shuningdek, tarixiy-madaniy mavzularni yoritishda jadidchilik harakati alohida e'tibor markazida turadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan ushbu ma'rifatparvarlik harakati vakillari ta'lim tizimini isloh qilish, milliy madaniyat va adabiyotni rivojlantirish, teatr va dramaturgiya asoslarini yaratishda

muhim rol o'ynagan. Ularning faoliyati hujjatli kino orqali qayta talqin qilinib, zamonaviy tomoshabinga yetkazilmoqda.

Zamonaviy hujjatli kino taraqqiyotida janrlar sintezi ham muhim o'rin tutadi. Innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi natijasida hujjatli filmlarda badiiy elementlardan, jumladan, aktyorlik ijrosi va rekonstruksiya usullaridan foydalanish kengaymoqda. Bu esa hujjatli va badiiy kinematografiya o'rtasidagi chegaralarning nisbatan yumshashiga olib kelmoqda.

Xalqaro hamkorlik doirasida yaratilayotgan loyihalar, ilmiy-ommabop, tarixiy-hujjatli, badiiy-publisistik va film-portret yo'nalishidagi asarlar jahon kinosidagi ilg'or tendensiyalar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. B.Odilov, M.Odilov, M.Qoraboyev, D.Shokirov, M.Erkinov, B.Yuldashev, R.Saliyev, F.Usmonov, H.Rashidov kabi ijodkorlarning ishlarida ushbu jarayonlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu tariqa, hujjatli kino bugungi kunda nafaqat tarixiy xotirani saqlash va aks ettirish vositasi, balki zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarni tahlil etuvchi, estetik va g'oyaviy jihatdan boy kinematografik makon sifatida rivojlanib bormoqda.

Rejissyor Ruslan Soliyev tomonidan suratga olingan "Armon" hujjatli filmi jadidchilik harakati tarixini yoritishga bag'ishlangan yirik kinematografik loyiha sifatida e'tiborga loyiqdir. Mazkur film keng ko'lamlı ijodiy jarayon mahsuli bo'lib, ikki yil davomida, ko'plab mutaxassis va ijodkorlar ishtirokida amalga oshirilgan. Tasvirga olish ishlari nafaqat O'zbekiston hududida, balki Rossiya, Turkiya hamda boshqa qo'shni mamlakatlarda olib borilgani filmning makon va tarixiy kontekst jihatidan keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi [2, 14-b].

Filmning dramaturgik asosini jadidchilik harakatining shakllanish jarayoni, uning yetakchi namoyandalari taqdiri hamda 1917-yilgi siyosiy o'zgarishlarning ushbu ma'rifatparvarlik oqimiga ko'rsatgan ta'siri tashkil etadi. Shu bilan birga, kartinada jadidlarning O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni va merosi kompleks tarzda talqin etilgan. Filmda mintaqaning boshqa hududlaridagi

ma'rifatparvarlik harakatlariga murojaat qilinishi esa tadqiqot doirasining kengaytirilganini anglatadi.

Asarda tarixiy materialning ishonchliligini ta'minlash maqsadida jadidlarni o'rganuvchi yetakchi tadqiqotchilar hamda ma'rifatparvarlar avlodlarining fikr-mulohazalari keng jalb etilgan. Intervyu shaklidagi ushbu chiqishlar filmning ilmiy-hujjatli asosini mustahkamlab, unda bayon etilayotgan tarixiy jarayonlarning ko'p qirrali talqinini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan, "Armon" an'anaviy "gapiruvchi boshlar" (talking heads) uslubidan foydalanish bilan birga, uni badiiy ifoda vositalari orqali boyitishga intilgan. Filmning muhim xususiyatlaridan biri – rekonstruksiya va art-postanovka elementlarining faol qo'llanilishidir. Ushbu usullar tarixiy voqelikni to'g'ridan-to'g'ri qayta tiklash emas, balki uning badiiy interpretatsiyasini yaratishga xizmat qiladi. Natijada ekran matnida tarixiy muhit, davr ruhiyati, ramziy qatlam va vizual metaforalar uyg'unligi yuzaga keladi. Bu esa tomoshabinning nafaqat intellektual, balki emotsional qabul qilish mexanizmlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

"Armon" filmida janrlar sintezi yaqqol namoyon bo'ladi. Hujjatli asos ustiga badiiy sahnalar, aktyorlik ijrosi va sahnalashtirilgan epizodlarning qo'shilishi ekran ifodasining polifonik tuzilishini shakllantiradi. Bu holat zamonaviy hujjatli kinematografiyada keng tarqalgan "docudrama" yoki "hybrid documentary" tendensiyalariga mos keladi [3, 62-b].

Filmning audiovizual yechimi ham alohida e'tiborga loyiq. Xronikal materiallar, rekonstruksiya sahnalari va musiqiy bezak o'rtasidagi uyg'unlik umumiy ritm va temporitmni belgilaydi. Milliy cholg'u asboblarning zamonaviy aranjirovkada qo'llanilishi esa nafaqat estetik funksiyani bajaradi, balki tarixiy va zamonaviy qatlamlar o'rtasida semantik ko'prik vazifasini ham o'taydi. Har bir epizodning musiqiy yechimi uning ichki dramatzimini kuchaytirib, voqelik rivojini oldindan sezdiruvchi funksiyani bajaradi.

Mazkur filmning yana bir muhim jihati – u an'anaviy tarixiy-biografik hujjatli filmlarga xos bo'lgan shtamlardan qochishga intilganidir. Vizual dinamika,

montajning ritmik xilma-xilligi va obrazli ifoda vositalarining boyligi filmni informatsion yuklamasi yuqori bo'lishiga qaramay, tomoshabin uchun qiziqarli va ta'sirchan qiladi. Bu esa hujjatli kino uchun dolzarb muammolardan biri – monotoniya va statiklikni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Filmda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Nozimaxonim, Anbar Otin, Usmon Nosir kabi tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati orqali jadidchilik g'oyalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi. Xususan, jadidlar va "qadimchilar" o'rtasidagi g'oyaviy qarama-qarshiliklar dramatik konflikt sifatida talqin etilib, ijtimoiy tafakkurdagi ziddiyatlar ekran vositalari orqali ifodalanadi. Shu tariqa, "Armon" hujjatli filmi nafaqat tarixiy voqelikni aks ettiruvchi manba, balki zamonaviy hujjatli kinematografiyaning estetik va nazariy tendensiyalarini o'zida mujassam etgan kompleks audiovizual asar sifatida baholanishi mumkin.

"Armon" hujjatli filmida mualliflik pozitsiyasi, kadr orti ovozi muhim badiiy-kompozitsion vosita sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, Afzal Rafiqovning ovozi filmning voqealarini birlashtiruvchi, tarixiy materialni izchil talqin etuvchi asosiy omillardan biri vazifasini bajaradi. Uning ohangdor va emotsional nutqi orqali tomoshabinga yetkazilayotgan fikrlar tarixiy faktlar bilan badiiy umumlashma o'rtasida muvozanat hosil qiladi. Masalan, jadidlarning "tizim qurbonlari" sifatida talqin etilishi nafaqat tarixiy haqiqatni, balki muallifning g'oyaviy-estetik munosabatini ham ifodalaydi.

Filmda qo'llanilgan audiovizual yechimlar, xususan, sharqona uslubdagi liboslar, g'azal janriga mansub matnlar, milliy musiqa va vokal kompozitsiyalar tarixiy muhitni rekonstruksiya qilish bilan birga, ramziy ma'no yuklaydi. Ayollar ovozida yangraydigan "Men ham sening kabi, bir ayoldurmen" mazmunidagi qo'shiq esa gender masalasini ochib beruvchi muhim poetik detal sifatida xizmat qiladi. Bu element orqali XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ayollar erkinligi masalasining keskinligi va drammatizmi badiiy shaklda ifodalanadi. Shu jihatdan,

filmda ayol obrazining talqini nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega.

Kartinada arxiv materiallari va noyob audioyozuvlardan foydalanish hujjatli kino uchun xos bo'lgan autentiklik prinsipini kuchaytiradi. Xususan, jurnalist Furqatbek Yakvalhojiyev tomonidan taqdim etilgan, Abdulhamid Cho'lponning yaqinlari xotiralari aks etgan audioyozuv filmning faktologik bazasini boyitib, unda tarixiy shaxs obrazining yanada jonli va ishonchli yaratilishiga xizmat qiladi. Bu usul hujjatli narrativda "tirik xotira" effektini yuzaga keltirib, tomoshabinning voqelikni bevosita idrok etish hissini kuchaytiradi [4].

Filmda Cho'lpon shaxsiyati va uning dunyoqarashining shakllanishi bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, xususan, ruslashtirish jarayonlari va madaniy bosim omillari uning tafakkuriga ta'sir ko'rsatgan muhim tarixiy fon sifatida ochib beriladi. Shu bilan birga, jadidchilik g'oyalarining shakllanishida xalqaro ijtimoiy-siyosiy jarayonlar – 1905-yilgi inqilob, Eron va Usmoniylar imperiyasidagi islohotlar – ham ko'rsatiladi.

Filmda biografik narrativ va tarixiy jarayonlar o'zaro sintez holatida berilgan. Cho'lpon hayot yo'li orqali butun bir davrning ijtimoiy-madaniy manzarasi rekonstruksiya qilinadi. Uning matbuotdagi faoliyati, turli taxalluslar ostida ijod qilishi, jadid matbuoti bilan hamkorligi ekran matnida publitsistik diskursning shakllanishini ko'rsatadi. Bu esa hujjatli filmda shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatni ochib berishga xizmat qiladi.

Filmda Abdurauf Fitratning g'oyaviy ta'siri alohida urg'u bilan yoritilib, u jadid harakatining ideologik markazlaridan biri sifatida talqin etiladi. Cho'lponning Fitrat haqidagi fikrlari orqali adabiy islohotlar, til va uslub yangilanishi jarayonlari ochib beriladi. Bu esa filmda nafaqat tarixiy-biografik, balki adabiy muammolar ham ko'tarilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, filmda Cho'lponning keyingi faoliyati – Orenburg, Buxoro, Toshkent va Moskva davrlari – izchil dramaturgik chiziq asosida berilgan. Ushbu

epizodlar orqali jadid ziyolilarining keng geografik va madaniy makondagi faoliyati, ularning milliy istiqlol g'oyalari yo'lidagi sa'y-harakatlari ochib beriladi. Xususan, tarjimonlik faoliyati, xorijiy tillarni o'rganishga intilishi va xalqaro madaniy aloqalarga qiziqishi uning shaxsini ko'p qirrali intellektual obraz sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, mazkur filmda hujjatli kino uchun muhim bo'lgan bir qator nazariy tamoyillar – autentiklik, narrativ yaxlitlik, badiiy rekonstruksiya va tarixiylik – o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. "Armon" filmi shu jihatlari bilan nafaqat tarixiy materialni yetkazuvchi vosita, balki murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlarni badiiy tahlil etuvchi zamonaviy hujjatli asar sifatida baholanishi mumkin.

Cho'lpon (Abdulhamid Sulaymon o'g'li) o'zining serqirra ijodiy faoliyati davomida o'zbek adabiyoti va publitsistikasida muhim o'rin egallagan asarlar yaratdi. Uning Turkiston matbuotida e'lon qilingan "Vatanimiz Turkistonda zirotat va dehqonchilik", "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar", "Adabiyot nadir?", "Ruhimiz o'lmasin!", "Chetdagi talabalarga yordam", "Gullaysan maorif!", "Ko'mak", "Moskvadagi dram studiya", "Mirxo'ld teatri", "Abo Muslim", "Sharq uyg'ongan", "Quturgan mustamlakachilar", "Yo'l esdaligi" kabi maqolalari uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarga faol munosabatini aks ettiradi [5].

Adibning "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadiyor" kabi hikoyalari jamiyatdagi illatlarni fosh etishga qaratilgan bo'lsa, "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola" singari asarlari badiiy-estetik izlanishlarning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. 1920-yillar davomida yaratilgan "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926) she'riy to'plamlari esa milliy uyg'onish g'oyalari poetik ifoda etgan muhim adabiy hodisalardir. Uning "Kecha va kunduz" romani o'zbek realizm an'analari yangi bosqichga olib chiqqan asar bo'lib, unda ayniqsa xotin-qizlar taqdiri orqali ijtimoiy adolatsizlik va tarixiy ziddiyatlar badiiy talqin etiladi.

XX asrning 30-yillariga kelib, sovet mafkuraviy tizimi doirasida ziyolilar faoliyatini siyosiy nazorat ostiga olish kuchaydi. Milliy taraqqiyot g'oyalarini ilgari surgan ijodkorlar “millatchi”, “panturkist” va “panislomist” kabi ayblovlar bilan ta'qib qilindi. Cho'lpon ham bu jarayondan chetda qolmadi: 1931-yildan boshlab uning ijodiga bosim kuchayib, 1932-yilda Moskvaga ketishga majbur bo'ldi. Moskvadagi faoliyati davomida u tarjimonlik va adabiy ishlar bilan shug'ullandi, jumladan, Maksim Gorkiyning “Ona” asari, “Egor Bulichev”, Aleksandr Pushkinning “Dubrovskiy” va “Boris Godunov” asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi [6]. Biroq Toshkentga qaytgach, uning ijodiy faoliyati yana cheklovlarga duch keldi. Asarlarining chop etilmasligi, Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinmasligi va doimiy mafkuraviy bosim Cho'lponni ijodiy inqirozga olib keldi. Shunga qaramay, u zamonaviy ruhdagi she'rlar yaratishda davom etdi. 1938-yil 4-oktabrda esa u qatag'on siyosatining qurboni sifatida qatl etildi. Mazkur tarixiy-biografik material asosida yaratilgan hujjatli filmda Cho'lpon shaxsiyati va jadidchilik harakati talqin etiladi. Filmning dramaturgik tuzilishi, tarixiy voqealar va shaxsiy taqdirni parallel ravishda ochib beradi. Intervyu janridan keng foydalanilishi ya'ni turli tadqiqotchilar va mutaxassislarning fikrlari orqali tarixiy haqiqat ko'p qirrali yoritiladi.

Filmda ishtirok etgan tadqiqotchilar – Hamidulla Boltaboyev, Qahramon Rajabov, Dilorom Alimova, Baxtiyor Hasanov, Timur Xo'jao'g'li, Nuriddin Holiqnazarov va boshqalar – XIX–XX asrlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini sharhlash orqali filmning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Bu esa hujjatli kino uchun muhim bo'lgan tamoyillarining uyg'unligini ko'rsatadi.

Kinematografik jihatdan filmda vizual rekonstruksiya, arxiv materiallari va zamonaviy intervyular sintezi qo'llanilgan. Bu uslub hujjatli kino tilida tarixiy xotirani qayta tiklashning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Montaj ritmi va kompozitsion yechimlar esa tomoshabinni voqealar rivojiga emotsional jihatdan jalb etadi. Filmning muvaffaqiyati uning nafaqat mazmuniy, balki shakliy mukammalligiga ham bog'liqdir. Xususan, unda jahon hujjatli kino maktabi

an'analari – fakt va talqinning uyg'unligi, muallif pozitsiyasining bilvosita ifodasi, hamda tarixiy materialni dramatik struktura asosida taqdim etish kabi tamoyillar muvaffaqiyatli qo'llanilgan.

Mazkur kinoasar 2017-yilda o'tkazilgan 74-Xalqaro Venetsiya kinofestivalida “Eng yaxshi xorijiy hujjatli film” nominatsiyasida “Kino” mukofotiga sazovor bo'lgani, shuningdek, Italiyaning Iskya orolidagi xalqaro kinofestivalda g'oliblikni qo'lga kiritgani uning xalqaro miqyosda e'tirof etilganini tasdiqlaydi. Bu esa filmning nafaqat milliy, balki global kinematografik kontekstda ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Teshabayev J. *Film-portretlar // O'zbekiston hujjatli kinosi: Mustaqillik davri.*

1991–2007-yillar. Tuzuvchi S. Haytmatova. – Toshkent: ART FLEX, 2008. – 116 b.

2. Haytmatova S., Tursunmetova R. *Kinoshunoslik: kino sanati tahlili va tanqidi.*

O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 150 b.

3. Hasanov B. *O'zbek hujjatli kinosi. Tinch hayot jilvalari.* – Toshkent: G'afur G'ulom, 2012. – 160 b.

4. Nazarova G. *The significance and value of portrait filmmaking today // Art and Design: Social Science.* – 2023. – T. 3. – №. 04. – P. 27–30.

5. Nazarova G. *New experiences in creating artistic-publicist films. Social science and innovation,* 2023. – №1(4). – P. 66–71.

6. Akbarov H. *Kino-teleportret: xislati, tarkibi, va g'oyaviy-badiiy xizmati // Kinoning estetik mustaqilligi, tomoshabinning estetik tayyorgarligi.* – Toshkent: M.Ulug'bek nomidagi O'zMU, 2010. – 168 b.

**Gulchehra Mufti-zade**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası  
katta o'qituvchisi  
E-mail: gulchehra19820929@gmail.com*

## **TEATR SAN'ATIDA RAMZLAR VA ULARNING SHAXS**

### **TARBIYASIDAGI O'RNI**

***Annotatsiya.** Maqolada teatr san'atidagi ramzlarning tarbiyaviy imkoniyatlari alohida e'tibor markaziga olinib, ular orqali axloqiy qadriyatlar, estetik did va madaniy identifikatsiya jarayonining shakllanish mexanizmlari tahlil etiladi. Shu bilan birga, maqolada teatr va ta'lim integratsiyasi, ramzlardan pedagogik vosita sifatida samarali foydalanish usullari hamda ramziy savodxonlikni rivojlantirish zarurati ilmiy asosda yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** san'at, ramz, simbolika, shaxs tarbiyasi, estetik ong, talabalar, madaniyat, tafakkur.*

## **SYMBOLS IN THEATRE ART AND THEIR ROLE IN PERSONAL DEVELOPMENT**

***Abstract.** The article focuses on the educational potential of symbols in theatre art, analyzing the mechanisms through which they contribute to the formation of moral values, aesthetic taste, and cultural identity. At the same time, the study scientifically examines the integration of theatre and education, effective methods of using symbols as a pedagogical tool, and the necessity of developing symbolic literacy.*

***Keywords:** art, symbol, symbolism, personal development, aesthetic consciousness, students, culture, thinking.*

Bugungi globallashuv va raqamli madaniyat sharoitida yoshlar ongida vizual va obrazli tafakkur shakllari tobora ustunlik kasb etmoqda. Shu bois teatr san'atidagi ramzlarning nafaqat sahnaviy ifoda vositasi, balki kuchli pedagogik va

tarbiyaviy omil sifatidagi ahamiyatini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Teatr san'ati o'zining jonli, bevosita va emotsional ta'sir kuchi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi, ayniqsa undagi ramzlar tomoshabin ongiga kuchli psixologik ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega.

Teatr san'atida ramz tushunchasi sahna tilining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Ramz bu yerda nafaqat predmet yoki obraz orqali, balki aktyor harakati, sahna bezagi, yorug'lik, musiqa va hatto sukut orqali ham ifodalanadi. Shu jihatdan teatr ramzlari ko'p qatlamli va sintezlangan xarakterga ega bo'lib, ular tomoshabinning sezgi va tafakkuriga bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadi. Teatr sahnasidagi oddiy bir detal – masalan, bo'sh stul yoki yopiq eshik – chuqur ijtimoiy yoki psixologik ma'noni ifodalovchi ramzga aylanishi mumkin. Bu esa teatr san'atining semantik imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligini ko'rsatadi.

Teatrda ramzlarning qo'llanilishi tarixiy taraqqiyot jarayonida turli shakllarda namoyon bo'lgan. Antik teatrda niqoblar inson xarakteri va ijtimoiy rolini ifodalovchi asosiy ramzlardan biri bo'lgan bo'lsa, zamonaviy teatrda ramziy ifoda yanada murakkablashib, ko'pincha abstrakt shakllarga ega bo'lib bormoqda. Rejissura va dramaturgiya rivoji bilan birga sahna ramzlari ham boyib, yangi ma'no qatlamlari bilan to'ldirilmoqda. Bu jarayon teatrni nafaqat ko'ngilochar vosita, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy fikrlarni ifodalovchi san'at darajasiga ko'tardi. Rus faylasufi A.F.Losevning yozishicha: “Hatto quyosh nurining oynada yarq etishidan ham oddiy inson emas, balki ijodkor insongina ilhomlanishi va shundan ham ramziy obraz topa olishi mumkin” [1, 78-b].

Teatr san'atidagi ramzlarning psixologik ta'siri ayniqsa kuchli hisoblanadi, chunki ular jonli ijro orqali bevosita tomoshabinga yetkaziladi. Tomoshabin sahnada sodir bo'layotgan voqealarni nafaqat kuzatadi, balki ularni ichdan his qiladi, o'z hayotiy tajribasi bilan bog'laydi. Bu jarayonda ramzlar muhim vosita sifatida xizmat qilib, tomoshabinning hissiy holatini boshqaradi, unda muayyan fikr va xulosalarni shakllantiradi. Ayniqsa talabalar auditoriyasi uchun teatr

ramzlari kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki ular yoshlarning hissiy sezgirligi va tafakkur faolligi yuqori bo'lgan davrda ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs tarbiyasida teatr san'atining o'rnini beqiyos bo'lib, undagi ramzlar orqali murakkab hayotiy masalalar chuqur va ta'sirchan tarzda yoritiladi. Teatr sahnasida ifodalangan ramzlar orqali ezgulik va yovuzlik, adolat va nohaqlik, erkinlik va qaramlik kabi ijtimoiy va axloqiy kategoriyalar talqin qilinadi. Bu esa tomoshabinda, xususan talabalar ongida muayyan qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Teatr tomoshasi jarayonida talaba nafaqat voqeani kuzatadi, balki o'zini qahramon o'rniga qo'yib ko'radi, bu esa unda empatiya, ya'ni boshqalarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi [2].

Zamonaviy talabalar hayotida teatr san'atining o'rnini yangi mazmun kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari ta'sirida yoshlarning estetik didi va qabul qilish uslubi o'zgarib bormoqda. Shu sababli teatr san'ati ham yangi shakl va uslublarni o'zlashtirib, tomoshabinga yanada yaqinlashmoqda. Bunda ramzlar asosiy kommunikativ vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Minimalistik sahna yechimlari, yorug'lik va ranglar orqali berilgan ramziy ifodalar zamonaviy talabalarning tezkor va obrazli tafakkuriga mos keladi. Bu esa teatrning ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Globallashuv jarayonida teatr ramzlari ham transformatsiyaga uchramoqda. Turli madaniyatlar o'zaro ta'sirga kirishar ekan, sahna ramzlari ham yangi ma'no va shakllarga ega bo'lmoqda. Biroq bu jarayonda milliy teatr an'alarini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega. Milliy teatr san'atida qo'llaniladigan ramzlar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini o'zida aks ettiradi. Talabalar ushbu ramzlarni o'rganish orqali o'z milliy o'zligini anglaydi va uni qadrlashni o'rganadi [3].

Ta'lim jarayonida teatr san'ati va uning ramziy imkoniyatlaridan samarali foydalanish katta pedagogik ahamiyatga ega. Teatr elementlarini o'quv jarayoniga kiritish, sahnalashtirish, rolli o'yinlar va drammatizatsiya usullaridan foydalanish talabalarning faolligini oshiradi. Ayniqsa, ramzlar asosida qurilgan sahna

ko'rinishlari talabalarni chuqur fikrlashga, obrazlarni tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Bu esa ularning nafaqat bilim darajasini, balki shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlaydi [4].

Shu bilan birga, zamonaviy axborot makonida ramzlarning noto'g'ri yoki yuzaki talqin qilinishi xavfi ham mavjud. Ayrim hollarda teatrda qo'llanilayotgan murakkab ramzlar yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmagan tomoshabin tomonidan noto'g'ri tushunilishi mumkin. Bu esa ta'lim tizimida estetik va madaniy savodxonlikni oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Talabalarga ramzlarni tahlil qilish, ularning yashirin ma'nolarini anglash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, teatr san'atidagi ramzlar shaxs tarbiyasining muhim vositasi hisoblanadi. Ular orqali insonning estetik didi, hissiy olami va tafakkuri rivojlanadi. Zamonaviy talabalar uchun teatr ramzlarini anglash nafaqat madaniy ehtiyoj, balki intellektual rivojlanishning ham muhim omilidir. Teatr san'ati orqali beriladigan ramziy ifodalar yosh avlodni ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlovchi va estetik jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois teatr va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish, ramziy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodikalarni keng joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *Ochildiyev A. Madaniyat falsafasi. – Toshkent: Muharrir, 2010. – 112 b.*
2. *Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi. – Toshkent: Art Press, 2010. – 414 b.*
3. *Лосев А. Логика символа. Философия, Мифология, Культура. – Москва: Мысль, 1991. – 258 с.*
4. *Лотман Ю. Семиосфера. – Санкт-Петербург: Искусство-СПб, 2001. – 704 с.*

- 
5. Mavrulov A., Mavrulova M. *Madaniyat nazariyasi*. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 352 b.
  6. Muftizade G. *Interpretation of world dramatic art in uzbek theatre // Theoretical & Applied Science*. – 2020. – №(11). – P. 555–559.
  7. Mufti-zade G. *The Peculiarities of Symbols and Symbolism in Theatrical Art // Journal of intellectual prperty and human rights*. – 2024. – № 3(11). – P. 202–205.

Mohigul Hamrayeva

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrası katta o'qituvchisi  
E-mail: khamrayeva.mohigul@gmail.com*

## TEATR AKTYORINI TARBIYALASHDA STANISLAVSKIY SISTEMASINING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada K.S.Stanislavskiy ishlab chiqqan aktyorlik san'ati sistemasining zamonaviy teatr san'ati va aktyor tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, sehrlı "agarda men", "berilgan shart-sharoit", "hissiy xotira" kabi muhim tushunchalarning aktyorlik mahoratini shakllantirishdagi roli hamda ularning bugungi kun teatr ta'limidagi qo'llanilishi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** sistema, aktyor, sahna, holat, "hissiy xotira", "agarda men", ichki monolog, teatr, pedagogika, sahna harakati, aktyorlik tarbiyasi.

## THE IMPORTANCE OF STANISLAVSKI'S SYSTEM IN TRAINING A THEATRE ACTOR

**Abstract.** This article analyzes the significance of the acting system developed by K. S. Stanislavski in modern theatre and actor training. It examines the role of key concepts such as the "magic if", "given circumstances", and "emotional memory" in shaping acting skills, as well as their application in contemporary theatre education.

**Keywords:** Stanislavski system, actor, stage, psychological state, "emotional memory", "magic if", inner monologue, theatre, pedagogy, stage movement, actor training.

Teatr san'ati insoniyat madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida asrlar davomida rivojlanib kelmoqda. XX asr boshlarida rus rejissyori va teatr nazariyotchisi Konstantin Sergeevich Stanislavskiy tomonidan yaratilgan aktyorlik sistemasi, teatr san'atining nazariy va amaliy asoslarini tubdan o'zgartirdi. Stanislavskiy sistemasi aktyorlik mahoratini rivojlantirish, sahna obrazlarini

yaratish va teatr pedagogikasi sohasida inqilobiy yangilik bo'lib, bugungi kunda ham jahon teatr san'atida muhim o'rin tutadi.

Aktyorlik san'ati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Stanislavskiyga qadar aktyorlik ko'nikmalari ko'pincha an'anaviy usullarda, ustozdan shogirdga o'tkazish orqali yoki imitatsiya usulida o'rgatilgan. Stanislavskiy esa aktyorlik san'atini tizimli, ilmiy asoslangan pedagogik jarayonga aylantirdi. Uning "San'atdagi hayotim", (1965) va "Aktyorning o'z ustida ishlashi" (1965) kabi asarlari teatr pedagogikasining fundamental qo'llanmalariga aylandi. Bugungi kunga kelib ham teatr aktyorini tarbiyalashda Stanislavskiy sistemasidan o'quv jarayonida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Stanislavskiy sistemasi aktyorning sahnada haqiqiy, tabiiy va ishonchli ijrosini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Sistema bir necha asosiy tamoyillarga tayanadi:

M.Umarov Stanislavskiy sistemasi haqida o'z maqolasida shunday deydi: "Stanislavskiy sistemasi" – teatr san'atining aktyorlik mahorati, rejissyorlik va pedagogika bilan bog'liq jarayonlarni yuksak badiiy saviyada ifodalagan "kechinma san'ati" tizimining nazariy asoslaridir. Bu nazariy asoslar teatr san'atiga bag'ishlangan barcha sistemalarning, ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dialektik rivoji edi. Natijada ungacha bo'lgan teatr san'ati bilan bog'liq barcha nazariy va amaliy qarashlarni yaxlit bir tizimga solish masalasi ilmiy hal qilindi. "Namoyish etish san'ati" talablari bilan "kechinma san'ati" estetikasi farqini Stanislavskiy qiyoslash uslubi bilan ochib berdi. Buning uchun u dastavval "namoyish etish san'ati" talablarini, o'zi o'ynagan rollari misolida yorqin ifodalay oldi" [1, 175-b]. Shundan kelib chiqib aytamizki, Stanislavskiy sistemasining eng muhim tamoyillaridan biri sahnada hayotiy haqiqatni yaratishdir. Bu haqiqat harakatlarning aniqligidan tortib, to ichki kechinmalarning haqqoniyligiga qadar bo'lgan barcha jihatlarni qamrab oladi. Stanislavskiy aktyor o'z rolini ijro etishda "berilgan shart-sharoitda men" degan tamoyilga tayanishi kerakligini ta'kidlaydi. Ya'ni, aktyor o'zini personaj

holatini his qilishi, makon va zamonni aniqlashi va shu personaj kabi fikrlashi va harakat qilishi lozim.

Stanislavskiy o'z sistemasida aktyorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar va treninglar ishlab chiqqan. Bu mashqlar talaffuz, plastika, ritmik sezgirlik, diqqatni jamlash va boshqa ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi. Stanislavskiyning aktyorlik ko'nikmalarini alohida qobiliyat emas, balki tizimli ravishda rivojlantirib borish mumkin bo'lgan bo'lajak aktyorlardagi malakalar deb hisoblagan. Bu yondashuv teatr san'ati pedagogikasida inqilobiy o'zgarishga olib keldi va aktyorlik ta'limini tizimlashtirdi. Ko'plab teatr san'ati oliygohlarida aktyor tarbiyalashda Stanislavskiy sistemasidan bugungi kungacha foydalanib o'qitib kelishmoqda.

Stanislavskiy sistemasida etyudlar, ya'ni qisqa improvizatsion sahnalar aktyor tarbiyasining muhim qismiga aylandi. Etyudlar orqali talabalar personaj xarakterini o'rganish, vaziyatga mos harakatlarni topish va partnyor bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Etyud metodi aktyorga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Bu metod orqali talabalar sistemaning barcha elementlarini – ichki monolog, berilgan shart-sharoitlar, sehrli “agarda” kabi tushunchalarni – amalda qo'llab ko'rishi mumkin.

Stanislavskiy o'z sistemasini hayoti davomida doimiy ravishda takomillashtirib borgan. Bugungi kunda sistemaning turli talqinlari va shakllari mavjud. Stanislavskiy sistemasi faqat teatr emas, balki kino, televideniye va boshqa zamonaviy media-san'at turlarida ham keng qo'llaniladi. Bugungi kunda aktyorlik mahoratini o'rgatuvchi ko'plab maktablar va kurslar Stanislavskiy sistemasining elementlaridan foydalanadi. Bu esa sistemaning zamonaviy san'atda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ko'rsatadi.

“Stanislavskiy “Aktyorning o'z ustida ishlashi” asarida aktyordagi tug'ma qobiliyat va uni sayqallash yo'llarini nazariy jihatdan isbotlashga harakat qiladi. Kitobda, tabiiy hissiyot, psixotexnika, ruhiyat, tuyg'u hamda “agarda men shunday sharoitga tushib qolsam nima qilgan bo'lar edim?” tarzidagi savol orqali

ko'zlangan maqsadga erishish mumkin degan tavsiya beriladi. Kitobda shuningdek, maqsad, oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat bir-biri bilan uzviy bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan isbotlanadi. Mazkur "sistema" bo'yicha aktyor berilgan rol ustida o'zining ichki his-tuyg'ularini holatga va ayni paytda harakatga keltira bilishi, buning uchun ishni o'zidan, ichki imkoniyatlarini ishga solishdan boshlashi lozim. Stanislavskiy sistemasining asosiy mohiyati "Kechinma" va "Taqlid" bo'lib, "Mening san'atdagi hayotim" hamda "Aktyorning o'z ustida ishlashi" kitoblari ayni shu masalaga bag'ishlangan" [2, 136-b], – deydi teatr rejissyori, professor Jo'ra Mahmudov.

Stanislavskiy sistemasida aktyorning muntazam ravishda o'z ustida ishlashi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat fizik mashqlarni, balki intellektual va ma'naviy rivojlanishni ham o'z ichiga oladi. Stanislavskiy aktyor keng dunyoqarashga ega bo'lishi, adabiyot, san'at, tarix va psixologiyani o'rganishi kerakligini ta'kidlagan. Bu yondashuv aktyorlik san'atini faqat texnik ko'nikmalar majmuasi emas, balki keng ma'noda shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida qaraydi. Stanislavskiy ta'limotiga ko'ra, aktyor avvalo inson sifatida rivojlanishi kerak, shundagina u boshqa insonlarning ichki dunyosini – personajlarni – to'g'ri anglashi va tasvirlashi mumkin.

Stanislavskiy sistemasining muhim pedagogik qiymatlaridan biri – har bir aktyorning o'ziga xos ijodiy individualligini rivojlantirishga qaratilganligidir. Bu xususiyat sistemani turli madaniy kontekstlarda, turli teatr maktablari va an'analarda moslashuvchan qiladi. Shuning uchun ham Stanislavskiy g'oyalari ham G'arb ham Sharq teatr san'atiga muvaffaqiyatli integratsiya qilingan.

Konstantin Stanislavskiy yaratgan aktyorlik sistemasi XX asrning eng muhim teatr kashfiyotlaridan biri bo'lib, bugungi kunda ham aktyor tarbiyasida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sistema aktyorga rolni tushunish, his qilish va haqqoniy ijro etishning ilmiy asoslangan metodologiyasini taklif etadi. Sistemaning "sehrli agarda", "berilgan shart-sharoit", "hissiy xotira" kabi tushunchalari aktyorning rolni o'zlashtirish jarayonini tizimlashtiradi va samarali qiladi. Stanislavskiyning

pedagogik tamoyillari aktyorning nafaqat texnik mahoratini, balki ijodiy individualligini ham rivojlantirishga qaratilgan.

Xulosa shuki, zamonaviy teatr ta'limi sistemaning asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda, uni yangi kontekstlarga moslashtirmoqda. Stanislavskiy sistemasi turli madaniy an'analarda, jumladan o'zbek teatr maktabida ham, aktyorlik mahoratini shakllantirishning poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday qilib, Stanislavskiy sistemasi nafaqat teatr san'atining tarixi, balki uning bugungi kuni va kelajagi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Sistema aktyorlik san'atini ilmiy asoslangan, tizimli jarayonga aylantirdi va teatr pedagogikasida inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Umarov M. *Teatr san'ati qoidalari // Jahon adabiyoti.* – Toshkent, 2014. – №11. – B. 3–10.
2. Mahmudov J. *Stanislavskiy va Chexov // Jahon adabiyoti.* – Toshkent, 2015. – №12. – B. 3–8.
3. Stanislavskiy K. *Aktyorning o'z ustida ishlashi.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 468 b.
4. Umarov E. *Teatrda badiiy obraz yaratishning estetik tamoyillari.* – Toshkent: Star poligraf, 2011. – 120 b.
5. Abdusamatov X. *Drama nazariyasi.* – Toshkent: G'afur G'ulom, 2000. – 288 b.
6. Umurov H. *Adabiyot nazariyasi.* – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1981. – 256 b.
7. Salimov O. *Kasbim rejissyor.* – Toshkent: G'afur G'ulom, 2009. – 160 b.
8. To'laxo'jayeva M. *Bahodir Yo'ldoshev makon va zamonda.* – Toshkent: San'at, 2015. – 144 b.

**Zaynab Xudayarova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida katta o'qituvchisi,  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: zaynabxudayarova@gmail.com*

### **"HALIMA" SPEKTAKLI SAHNA TALQINIDA**

***Annotatsiya.** Musiqali drama aktyorligida badiiy an'analarga vorisiylik borasida so'z ketarkan, bo'lajak ijrochilar tarbiyasidagi yangicha izlanishlar, uslubiy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada 2013-yilda B.Yo'ldoshev tomonidan mazkur teatr-studiya bitiruvchi talabalari bilan sahnalashtirilgan "Halima" spektaklining tahlili haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** mizansahna, dutor, xalifa, dirijyor, ansambl, ariya, duet.*

### **A STAGE INTERPRETATION OF THE PLAY "HALIMA"**

***Abstract.** This article examines the inheritance of artistic traditions in contemporary musical drama acting and highlights the importance of new research and methodological approaches in the training of future performers. It analyzes the play "Halima," staged in 2013 by B. Yuldashev with graduating students of a theatre studio.*

***Keywords:** mise-en-scène, dutar, khalfa, conductor, ensemble, aria, duet.*

So'nggi yillarda zamonaviy musiqali drama aktyorligida badiiy an'analarga vorisiylik borasida so'z ketarkan, bo'lajak ijrochilar tarbiyasidagi yangicha izlanishlar, uslubiy yondashuvlar muhim o'rin tutdi. Bu borada rejissyor Bahodir Yo'ldoshevning "Diydor" teatr-studiyasida amalga oshirgan ijodiy eksperimentlari alohida ahamiyat kasb etadi. 2013-yilda B.Yo'ldoshev mazkur teatr-studiya bitiruvchi talabalari bilan G'ulom Zafariyning "Halima" asarini sahnalashtirdi. Ayniqsa, asarlarga yangicha yondashuv, noan'anaviy talqin, estetik vositalar topish, ilgari sahnalashtirilgan pyesalar borasida yangi tajribalar o'tkazish bo'lajak aktyorlarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bahodir Yo'ldoshev "Halima" asarida barcha mizansahna, liboslarni shartlilikka qurgan. Yosh ijrochining grim qilib, yoshi, holati, tabaqalarini ko'rsatish uchun soqol-mo'ylov, hassa kabi ashyolar shart emas deb bilgan. Bu haqda professor M.Qodirov yozganidek, "Ijrochi aktyorlar ustida qahramonning ijtimoiy mavqeiga yarasha chopon, kamzul, ko'ylak, oyoqlarida shippak, etik, kavush-maxsi, boshlarida do'ppi, salla, ro'mol bor-u, biroq xususan erkaklarda grim, soqol-mo'ylov ishlatilmagan. Ammo tashqi ko'rinishidan boy yoki kambag'al ekanini ajratsa bo'ladi. Garchi dasturda N.Halilov musiqasi deb yozilgan bo'lsa-da, spektaklda orkestr fonogrammasi yoki bo'lmasa, cholg'u ansambli ishlatilmaydi" [1]. Mazkur noan'anaviy spektaklni dutorchi boshlab beradi. Bodombeka (Zaynab Xudayarova) chertgan dutorning xonishin navosida "Qo'qoncha" kuyi yangraydi. Bu kuy olis tarix voqealarini ifoda etib, asarga muqaddima vazifasini bajargan. Ushbu shartlilikda Ortiqboyning birinchi xotini Bodombeka voqealarni kishilarga yetkazuvchi boshlovchi tarzida aks etadi. Bodombeka zimmasiga qo'yilgan yuk pyesa voqealariga hamohang bo'lib, u o'zi kabi ayollar o'tmishi va og'ir qismatidan hikoya qiladi. Bu yerda rejissyor xalq badiiy madaniyatiga xos "Ichkari san'ati"ni asarga payvand qilgan. Zero, mazkur san'atga ko'ra dutorchi, xalfa, laparchi ayollar uy ichkarisida ko'ngil dardlarini ifoda etganlari ma'lum. Bu jihat Bodombeka libosi, holati, xatti-harakatida o'z aksini topgan. U chertgan dutor taronalari leytmotiv tarzida butun spektakl voqealariga munosabat berib, yangrab turadi. Bodombeka – Z.Xudoyorovanning nafaqat boshlovchi, balki ashulalarga jo'rnavoz tarzida namoyon bo'lishi orqali voqea ishtirokchilariga qismatdosh ekanligi ta'kidlanadi. Dutor Halima va Ne'mat ariyalari va duetlariga, Roqiya xola, Xoljon xola, Bodombeka, Suxsurxon, La'lixon ashulalariga jo'r bo'ladi.

Butun spektakl davomida boshqa musiqa cholg'usi qo'llanilmagan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, birgina dutor bilan ariya va duetlarni ijro qilish aktyordan juda katta mahorat va mehnat talab qiladi. Zero, dutor sozining ovozi juda mayin va yumshoq bo'lib, xonandaning asl tonallikni topishida qiyinchiliklar keltirib

chiqaradi. Ayniqsa, musiqiy savodxonlikka ega bo'lmagan talabalar uchun bu vazifani bajarish murakkab. Nihoyatda qiyinchilik bilan o'tgan repititsiyalar aktyorlarni dutor sozi bilan kuylashga tayyorlagan. Bu yerda yaratilgan murakkabliklardan yana biri odatiy musiqali dramalardagi dirijorning mavjud emasligi bo'lgan. Zero, dutorchining o'zi ham sozanda, ham dirijyor vazifasini bajaradi. Ijrochi diqqatini yanada jamlab, bor vujudi bilan dutorni eshitishga va unga hamohang bo'la olishga harakat qiladi. Mazkur spektakl shu ma'noda ham musiqali teatr aktyoriga mahorat maktabi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Dekoratsiya ham shartli tarzda bo'lib, Sergey Seduxin o'tgan asrning 20-yillari muhitini yaratib bergan. Asosiy voqealar tomosha markaziga o'rnatilgan supa ustida va uning atrofida bo'lib o'tadi. Halima bilan Ne'matning uchrashuv va visol damlari, quvonch va tashvishlari, baxti-yu baxtsizligi ana shu supa oldida yuz beradi. Asarning boshqa personajlari holatlari, vaziyatlari ham supa tevaragida kechadi. Barcha voqealarga guvoh bo'lgan supa sevgisi sarobga aylangan Ne'mat va Halima uchun finalda tobutga aylanadi. S.Seduxin dekoratsiyasidagi muhim elementlardan yana biri oq so'zanadir. Ma'lumki, so'zana azaldan to'y, oila, mehr-muhabbat timsoli. Shuning uchun ham yangi kelinchaklar xonasi so'zana bilan bezatiladi. Spektaklda so'zana dastlab yigit va qizning ko'ngil izhori chog'ida ko'tariladi. Oq rangda qizil gullar bilan bezatilgan bu so'zana orqali ikki yoshning sof muhabbati, pok kechinmalari ifoda etilgan. Ikkinchi gal so'zana to'y ramzi sifatida ishlatiladi. Bunda Ortiqboy qizga o'zi uchun sovchilikka kelganida to'yga ishora sifatida so'zana ko'tariladi. Bu galgi ko'rinishda ilgarigidan farqli o'laroq, oq so'zana chiroqlar orqali xira yoritilgan holatda berilgan. So'zananing finalda qo'llanishi ham obrazlilik kasb etgan. Ne'mat va Halimaning supada – tobutda yotgan jasadi ustiga oq so'zana yopiladi. Bu yerda so'zana ikkita vazifani bajaradi. Birinchisi azaldan kelin-kuyov ustiga yopilishi bo'lsa, ikkinchisi poymol bo'lgan pok tuyg'ularning ko'milishi holatini ifoda etadi. Spektaklda chiroqlardan nihoyatda o'rinli foydalanilgan bo'lib, katta oq so'zanaga qo'yilgan yuk har galgi ko'rinishda yorug'lik darajasi orqali ta'kidlab ko'rsatiladi. Qahramonlar

taqdirining oydin damlarida u yorug', yorqin bo'lsa, fojeali kechmishlarda xira, baxtsizlikda nihoyatda tussiz aks etadi.

“Garchi sahna kichik, voqealar o'rni, vaqti shartli ifoda qilingan, qarama-qarshi qutbdagi kuchlarning voqealarga bo'lgan va o'zaro munosabatlari ham shartli ko'rsatilgan bo'lsa-da, tomoshabinlarga ta'siri nihoyat darajada kuchlidir. Aktyorlarning xatti-harakatlarida tragik pafos, kuchli dramatism, iztirob yetakchilik qildi. Mana shunda nutq, ovoz, qo'shiq, ariya va duet shaklidagi musiqalar katta ahamiyat kasb etdi. Masalan, Ortiqboyning kundoshchilik qismatidan to'ygan xotinlarining qo'shiqlari ham yuksak dramatik ohanglarda ijro etiladiki, bundan ta'sirlanmagan odam qolmadi” [2]. Rejissyor B.Yo'ldoshev spektaklda an'anaviy teatr vositalaridan foydalangan holda tomoshabinni ham bevosita spektakl ishtirokchisiga aylantiradi. Jumladan, sovchi Xoljon xola to'y taraddudiga tusharkan, quvonchdan tomoshabinlarga qand-qurslar ulashadi, hammani to'yga chorlaydi.

“Halima” muvaffaqiyatida bosh rol ijrochilarining mahorati alohida diqqatga molik. Halimani yosh aktrisa Shohista Pirnazarova, Ne'mat rolini Ilyos Arabov ijro qiladi. Ikkala aktyor ham ovoz hamda dramatik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda jaholat, qabohat, razillik hukmron bo'lgan zamonda ikki sevishganning murodlariga yetolmay halok bo'lishi, his-xayajon va qayg'ularini mahorat bilan aks ettirganlar. Halima – Sh.Pirnazarova go'zal, sodda, beg'ubor, xatti-harakatlaridagi o'ziga xos nafislik, nazokat bilan tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Aktrisa Halimaning sevgilisi Ne'matga bo'lgan muhabbati, sadoqatini, jonidan ortiq ko'ruvchi jigargo'shalari onasi Roqiya xola, akasi Zokirjonga, otasi Muslim akaga bo'lgan mehrini ta'sirli ijro etadi. Sh.Pirnazarova dramatik talqin vositalari bilan birga ovoz imkoniyatlarini ham to'la namoyon etgan. Uning ovozidagi yoqimlilik, joziba, shirin nolalar tomoshabinni butunlay o'ziga rom qiladi. Ayniqsa, aktrisa ovozidagi o'zbek milliy ohangiga mos nola-yu-qochirimlar sahnada yanada o'ziga xos jilolandi.Asarning bosh qahramonlaridan yana biri bu Ne'mat obrazidir. Aktyor Ne'matning Halimaga bo'lgan kuchli

muhabbati, sadoqatini, yomonlarga bo'lgan kuchli nafratini mahorat bilan ijro qiladi. Bu obraz rejissyor B.Yo'ldoshev tomonidan aktyor Ilyos Arabovga topshirildi. Aktyorning ovoz imkoniyati katta, diapazoni keng, u kuylagan ariyalar tomoshabin ko'ngliga yetib boradi. Ovoz imkoniyatlarini dramatik holatlarga mahorat bilan bog'lashi har bir qo'shiq va so'z ta'sirchanligini oshirishga yordam bergan. Bir so'z bilan aytganda aktyor bosh qahramonning ichki dunyosi va beg'ubor qalbini mahorat bilan talqin qilgan. Ayniqsa, Ne'matning "Sayra bulbul", "Aylading", "Ko'rgali keldingmu yor", "Ey gullar" ashulasi Halimadan umidini uzgan bechora yigitning qayg'u – hasratini, nola-faryodini ifoda etishda katta ahamiyat kasb etgan. Aktyor ushbu ariyani ijro qilganida his-hayajon, kechinma, dard, ovozida mung ufurib turganligi yaqqol seziladi.

Ortiqboy obrazini yaratishda Nurillo Eminov talqini alohida o'rin tutadi. Aktyor ijroda ko'proq sahna nutqiga e'tibor qaratgan. Asarning salbiy qahramoniga kiruvchi Ortiqboy obrazi birovlarni ishlatib, haqini bermaydigan, o'zini do'st qilib ko'rsatib, butun oilani bola-chaqasi bilan o'ziga qaram qilib olmoqchi bo'lgan boydir. Ushbu obraz to'g'ri tanlangan bo'lib, aktyor so'zlashidagi shiddat, harakatlaridagi shijoatkorlik bilan Ortiqboyning qattiqqo'l, bir so'zli, qat'iyatli, ayyor, mug'ombirligini alohida ta'kidlagan. Uning yuragiga in qurgan yovuzlik va razolatni aktyor N.Eminov ko'zlari, harakatlari, so'zlashdagi achchiq va keskir ma'nodorlik orqali ham ifodalagan. Ortiqboyning ishqiqi beg'ubor, tuyg'ulari sof Halimaga tushgan. Uchta xotini qo'yib bo'lsa-da, unga yetishishni ko'ngliga tukkan. Buning boisi garchi uch xotin chiroyda bir-biridan o'tsa-da, uning fikricha har uchchalasining ko'ngli qora, niyatlari yomon. Ortiqboy halovatini yo'qotgan, xotinlari uning joniga qasd qilishlaridan hadikda yashaydi. Halima esa beg'ubor, beozor. Nimaiki qilib bo'lmasin, uni qo'lga kiritish lozim.

Rejissyor B.Yo'ldoshev Ortiqboy obrazida ko'rkam, qaddi-qomati kelishgan, hattoki Ne'matdan chiroyda o'tadigan aktyorlarni tanlagan. Bu tasodif emas. Halima Ortiqboyning na boyligi, na go'zalligiga e'tibor qilmaydi, uning

ko'ngli birgina Ne'matda. Bu bilan rejissyor haqiqiy sevgi chiroy va boylik tanlamasligiga urg'u bergan.

Ortiqboyning uch xotini Bodombeka, Suxsurxon, La'lixon qiyofasida ayollarning bir-biriga o'xshamagan tabiati aks etgan. Katta xotin Bodombeka – eshonning qizi, oilada doimo uning aytgani aytgan bo'lib kelgan. Zaynab Xudayarova ijrosida bu rol o'ziga o'ta ishongan, kalondimog', zebu-ziynatga burkangan ayol qilib talqin qilingan. Bodombekaning ichki olami va hissiyotlari "Intizor" ashulasini kuylaganida namoyon bo'ladi. Ariya-ashula shunday ijro etilganki, unda tashqi ko'rinishidan o'ziga bino qo'ygan ayolning ko'ngil olami aks etgan. Mazkur ariya o'ziga xos monolog bo'lib, qahramon portretini talqin etishga qaratilgan. Bodombeka portretida kalondimog' bu ayol, aslida ko'ngli yarim, mehrga zor, alamzada ekanligi ochib berilgan.

Spektaklning muvaffaqiyatli obrazlaridan yana biri Xoljon xola bo'lib, u sovchilik qilib, boylarga xizmat qilishi orqasidan kun ko'radigan kampir. Ushbu obrazni aktrisa Ruhshona Abdullayeva maromiga yetkazib ijro qilgan. U ko'rinish jihatidan ham rolga mos tushgan. Aktrisa nihoyatda erkin, ijroda qahramonining faqat tashqi xatti-harakatlarini emas, ichki hissiyotlarni berishga ham jiddiy e'tibor qaratgan. R. Abdullayeva Xoljon xola timsolida o'ziga yetgan ayyor, mug'ombir, ishini bitkazish uchun har qanday yolg'ondan qaytmaydigan sovchi xotinni ko'rsata bilgan. U ariyalarni kuylashda ham ovozdagi ayyorlik, kesatqlik holatlarini alohida ta'kid etadi.

Roqiya xola rolini o'ynagan Nazokat Narziyeva ijrosi haqida ham to'xtalib o'tish joiz. Halimaning onasi mushfiq Roqiya erining yuziga tik boqa olmaydigan, mute, boriga ko'nib yashaydigan sodda ayol obrazi. U 20-yillardagi mushtipar, o'z so'zi, fikri, qarashiga ega bo'lmagan o'zbek ayollarining umumlashma tipini yaratishga harakat qilgan. Jondan aziz ko'rgan qizining boshiga tushayotgan balolarni ko'ra-bila turib, isyon qilishga yoki bir og'iz eriga qarshi borishga jur'ati ham yetmaydi. Ta'sirchan ovozga va katta diapazonga ega bo'lgan N.Narziyeva "Topolmasman" ashulasini kuylaganida ona ko'nglining tub-tubidan otilib

kelayotgan vulqon namoyon bo'ladi. Ta'kidlash joizki, mazkur ariya o'ziga xos monolog bo'lib, Ona kechinmasini yuksak pardalarda ifodalagan.

“Halima” spektakli musiqali drama qonuniyatlarini o'rganish, dramatik holatdan ariyaga o'tilganida ichki dinamikaning o'sib borishi, musiqa jo'rligisiz va orkestr ishtirokisiz kuylashdek murakkab ijro yo'llarini o'zlashtirish borasida aktyor-talabalarga o'ziga xos maktab bo'ldi. Mazkur spektakl musiqali drama aktyorligi ijrochi mahoratini ko'rsatuvchi o'ziga xos barometr ekanligiga amin qiladi. Zero, ushbu turning sinkretiklik tabiati aktyorga ulkan dramatik qobiliyat bilan birga vokal imkoniyati katta bo'lishi va plastikani puxta egallashni talab etadi. Yaxshi xonanda yoki mahoratli dramatik aktyor bo'lishi mumkin, lekin har ikkalasini bir shaxsda uyg'unlashuviga erishish nihoyatda murakkab.

“Halima”da yosh aktyorlarning ariya va duetlari dutor jo'rligida – murakkab shart-sharoitli vaziyatda ijro etilishiga alohida e'tibor qilingan. Zero, ariya va duet eng avvalo puxta, mustahkam chuqur nafasga e'tibor berishni talab etadi. Musiqali dramada ariya va duet qahramonlar ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini ifoda etuvchi asosiy tarkibiy qismidir. Bunda ijrochining o'ziga xosligi vokal qobiliyatini dramatik harakatga mahorat bilan bog'lashida ko'rinadi. Duet davomida har bir ijrochi nafaqat o'zi, balki duetdosh partnyori holati, ovozi, intervallar sofligini his qilib, hamnafas bo'lishi ularning organik birligini vujudga keltiradi va shu tariqa yaxlit manzara, ansambl yaratiladi. Rejissyor B.Yo'ldoshevning “Halima” musiqali dramasi shu ma'noda yosh aktyorlarning janr xususiyatlarini puxta o'zlashtirishi borasida ham o'ziga xos ijodiy maktab bo'ldi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Qodirov M. “Halima” “Diydor”da // “Teatr” jurnali. – Toshkent, 2014. – № 1 – B. 16-17.
2. To'lqin. “Halima” / “Qizil O'zbekiston” gazetasi, 1925-yil, 4-mart.

Государственный институт искусств и культуры Узбекистана  
докторант кафедры «Операторского  
мастерства и звукорежиссуры»  
E-mail: malikov.u@gmail.com

## МЕТАФОРЫ В ФИЛЬМАХ РЕЖИССЕРА АЛИ ХАМРАЕВА

*Аннотация.* В статье анализируется метафорический язык в фильмографии выдающегося режиссёра Али Хамраева. Метафора в его творчестве – не просто художественный приём, а мировоззренческая основа режиссёрского метода. В фильмах А.Хамраева природные стихии (вода, пустыня, огонь, небо), предметы, цвет и звук становятся структурообразующими элементами драматургии, создавая многослойные философские нарративы. Подчёркивается укоренённость метафор Хамраева в узбекской культурной традиции (поэтика Навои, символика традиционного быта) и одновременно их универсальность, позволяющая вести диалог с мировым кинематографом

**Ключевые слова:** Али Хамраев, метафора, узбекское кино, визуальный язык, цвет, драматургия, национальная идентичность, культурный код, восточная поэтика.

## METAPHORS IN THE FILMS OF DIRECTOR ALI KHAMRAEV

*Abstract.* The article analyzes the metaphorical language in the filmography of director Ali Khamraev. Metaphor in his work is not merely an artistic device but a worldview foundation of the director's method. In A. Khamraev's films, natural elements (water, desert, fire, sky), objects, color, and sound become structure-forming elements of dramaturgy, creating multi-layered philosophical narratives. Special attention is paid to recurring motifs (birds as a symbol of freedom, water as a boundary and purification, desert as a trial), as well as the evolution of the metaphorical system from early to late works. The article emphasizes the rootedness of Khamraev's metaphors in Uzbek cultural tradition

*(the poetics of Navoi, the symbolism of traditional life) and their universality, which allows for a dialogue with world cinema.*

**Keywords:** *Ali Khamraev, metaphor, Uzbek cinema, visual language, color, dramaturgy, national identity, cultural code, Eastern poetics.*

В исследованиях природы кинематографической метафоры в зарубежной литературе приводится типология экранных метафор (статичные, динамичные, простые, концептуальные, ориентационные) [1, 35–38-с]. В этой связи вопрос о систематизации основных направлений изучения кинометафоры, как наиболее актуальных и перспективных, состоявшихся в уже проведенных исследованиях, представляется целесообразным [2, 334-с].

Учеными-семиотиками неоднократно предпринимались попытки раскрыть механизм создания и восприятия (кодирования и декодирования) метафор. Например, Р.Якобсон проводил аналогию механизма создания словесных метафор с явлениями, наблюдаемыми у людей при расстройстве речи (афазии), в частности, в результате возникающей при этом дискретности мышления, нарушении связи между близкими понятиями и, наоборот, неожиданной ассоциативной связи между категориально далекими друг от друга объектами [3, 110–132-с]. Анализ фильмографии А.Хамраева с точки зрения метафоричности, позволяет утверждать, что метафора в его творчестве представляет собой не просто художественный приём, а целостное мировоззрение, фундаментальную основу режиссёрского метода, способ видения и организации реальности. Его фильмы образуют сложную, многослойную систему метафор, через которую раскрываются ключевые темы: любовь, свобода, судьба, внутренний конфликт человека и его связь с национальной идентичностью. Метафоричность является стержнем его режиссёрского стиля, и в отличие от многих других кинематографистов, использующих метафору эпизодически, А.Хамраев превращает природные стихии и бытовые детали в мощные метафоры, создавая философски

глубокие и эмоционально насыщенные многослойные повествования, где метафора становится не просто выразительным средством, а структурообразующим принципом драматургии.

К трактовке механизма воздействия кинометафоры определенное отношение имеет используемый Р. Бартом принцип анализа фотографического изображения, в основе которого лежит соотношение понятий *studium* и *punctum* [4, 464-с]. Экранная метафорика вольно или невольно опирается на культурный опыт, то есть на хранящуюся в долговременной памяти зрителя информацию (языковой запас, знание истории, религии, литературы, искусства) [5, 202–251-р].

Визуальный язык А.Хамраева, основанный на метафорах и символах, остаётся понятным и актуальным для зрителя даже спустя десятилетия, а сами метафоры в его фильмах выполняют функцию культурного кода, отражающего менталитет и исторический путь узбекского народа. Материал статьи выделяет ряд сквозных природных образов, которые в фильмографии режиссёра обретают устойчивое метафорическое значение, формируя многослойные образы, где каждый элемент несёт не только изобразительную, но и смысловую нагрузку. Центральное место среди них занимают птицы, которые в таких фильмах, как «Человек уходит за птицами» и «Белые, белые аисты», символизируют свободу и стремление к независимости, духовный поиск и недостижимый идеал, а также чистоту и надежду. Герои Хамраева, наблюдая за полётом птиц, видят в нём отражение собственного желания вырваться за пределы социальных и культурных ограничений, однако этот полёт часто остаётся для них недостижимым, что создаёт трагическое напряжение между стремлением и его реализацией. В «Белых, белых аистах» белый аист становится метафорой чистоты чувств и надежды на лучшее будущее, противопоставленной жёсткости социальных структур, тогда как в «Человеке уходит за птицами» полёт птиц выступает метафорой стремления к высшим целям, которое, несмотря на все усилия героя, остаётся

нереализованным. Особого внимания заслуживает то, как А.Хамраев выстраивает драматургию своих фильмов на основе метафоры, используя её не как декоративный элемент, а как структурообразующий принцип. В «Белых, белых аистах» центральный конфликт между традицией и современностью, личным чувством и общественным долгом раскрывается не столько через прямые диалоги, сколько через метафорическое противопоставление образов аистов, символизирующих свободу и чистоту, и традиционных социальных структур, воплощённых в замкнутом пространстве дома и махалли. Аисты и дом вступают в визуальный и смысловой конфликт, который и составляет основную драматургическую пружину фильма. В «Человеке уходит за птицами» путь главного героя Фарруха – это не просто географическое путешествие, а развёрнутая метафора духовного поиска и внутренней трансформации, где каждый этап его движения в пространстве, от деревни к пустыне, от пустыни к горам, соответствует определённому этапу осознания себя и своего места в мире. Режиссёр не объясняет словами, что происходит с героем, он показывает это через изменение ландшафта, который становится визуальной метафорой внутреннего состояния, превращая внешнее пространство в проекцию души.

В «Триптихе» основная кино аллегория засохшей травы, появляющаяся на 29-й минуте фильма, является ключом к пониманию всего повествования, и режиссёр использует этот образ не как единичный акцент, а как лейтмотив, возвращаясь к нему в разных вариациях. Визуальный ряд, включающий увядающие растения, пустые поля и остановившееся время, создаёт метафорическое пространство, где прошлое, настоящее и будущее сжимаются в одну точку неразрешимого сожаления, а произнесённая героиней с горечью фраза «Ты многое в молодости мне обещал», звучащая в пустоте, воспринимается как олицетворение ключевой мысли фильма, воплощающей неисполненные надежды и невозполнимую утрату. В «Телохранителе» метафора достигает философской глубины, сопоставимой с

работами Тарковского, и здесь река становится визуальным иносказанием границы между жизнью и смертью, переход между берегами – метафорой экзистенциального выбора, который невозможно совершить окончательно, а пустота пространства – метафорой свободы, пугающей своей безграничностью и требующей от человека самостоятельного выбора и ответственности. Цветовая палитра в фильмах А.Хамраева выступает как самостоятельная метафорическая система, где цвет не просто создаёт настроение, но становится носителем смысла. Белый цвет в «Белых, белых аистах» – это метафора чистоты, невинности, идеала, но этот белый цвет не статичен: он вступает в конфликт с окружающей реальностью, подчёркивая недостижимость идеала в мире социальных условностей, где белое оперение аистов контрастирует с пыльными дорогами, тёмными интерьерами домов и серыми одеждами старших поколений. Красный цвет появляется в моменты эмоциональной напряжённости, опасности или кульминации, становясь метафорой страсти, борьбы, жертвы, и А.Хамраев использует его дозированно, но всегда в ключевых точках нарратива, где герои вынуждены принимать судьбоносные решения, подчёркивая драматизм ситуации и указывая на важные перемены в жизни персонажей.

Метафорический язык А.Хамраева эволюционирует на протяжении его творческого пути, отражая изменения в общественном сознании и личную художественную эволюцию режиссёра. Ранние фильмы 1960-х годов, такие как «Где же ты, моя Зульфия?» и «Белые, белые аисты», демонстрируют формирование основного метафорического словаря, где ключевые образы уже присутствуют, но метафоры носят более прямой, узнаваемый характер, скорее подчёркивая и усиливая эмоциональный посыл, чем создавая самостоятельную философскую плоскость. В 1970-е годы, включающие «Седьмую пулю», «Человека, который уходит за птицами», «Телохранителя» и «Триптих», наступает расцвет и усложнение метафорической системы: метафоры приобретают многослойность и философскую глубину, становятся

менее локальными и более универсальными, сохраняя при этом культурную укоренённость. В 1980-е годы, в таких фильмах, как «Жаркое лето в Кабуле» и «Невеста из Вуадила», метафоры начинают работать в более конкретном социальном и историческом контексте, где традиционные устои изображаются не просто как фон, а как живая, действующая сила, вступающая в метафорическое противостояние с внутренним миром героини, а замкнутое пространство дома и традиционная одежда становятся визуальными знаками принадлежности к укладу, ограничивающему личную свободу. Постсоветский фильм «Бо, Ба, Бу» 2000 года знаменует новый этап, где пустые города, заброшенные места и ненадёжные отношения становятся визуальной метафорой морального и интеллектуального вакуума, в котором оказывается человек, лишённый прежних идеологических ориентиров, а метафорический язык становится более аскетичным, но при этом не менее выразительным.

Важнейшей особенностью метафорического метода А.Хамраева является его глубокая приверженность к национальной культурной традиции и способность синтезировать локальные культурные коды с универсальной философской проблематикой. Метафоры режиссёра не являются абстрактными или заимствованными из общеевропейского символического словаря – они вырастают из культурного кода узбекского народа, где традиционная архитектура, одежда, музыка и природные ландшафты Средней Азии становятся не просто фоном или этнографическим элементом, а носителями глубокого символического значения. Стены старого города в его фильмах символизируют незыблемость традиций, узкие улочки – ограниченность выбора, открытые внутренние дворы – пространство семейной близости и одновременно подчинённость общему взгляду. Традиционная одежда, особенно в «Невесте из Вуадила», выступает метафорой социальной роли, навязанной героине, где покрывало и платье становятся знаками принадлежности к традиционному укладу, границами,

которые героиня может пытаться преодолеть или, напротив, принять как часть своей идентичности. Использование традиционной узбекской музыки – это не просто создание аутентичной атмосферы, но метафора культурной памяти, связи поколений, непрерывности традиции, которая звучит в фильме даже тогда, когда герои находятся в конфликте с этой традицией. А.Хамраев наследует традицию восточной поэтики, восходящую к Рудаки, Низами и Алишеру Навои, где внешнее повествование неизбежно отсылает к внутреннему, философскому смыслу, и переносит эту традицию на язык кино, создавая многослойные образы, где птицы становятся метафорой душ, стремящихся к высшему предназначению, вода – символом мудрости и очищения, а пустыня – пространством откровения, где человек остаётся наедине с собой и с истиной. Метафоричность у А.Хамраева строится также на сложных оппозициях и взаимодействиях образов, создающих драматургическое напряжение. Вертикаль и горизонталь, где вертикаль неба и полёта птиц символизирует духовное устремление, а горизонталь земли и пустыни – земное существование и ограниченность, создают экзистенциальное напряжение, в котором герои находятся между двумя измерениями, не имея возможности окончательно выбрать одно из них. Дом и дорога образуют другую важную оппозицию: дом – метафора стабильности, традиции, принадлежности, но также и ограничения; дорога – метафора свободы, поиска, изменения, но также и утраты корней. В «Белых, белых аистах» герои не могут покинуть дом, чтобы быть вместе; в «Человеке уходит за птицами» герой покидает дом, но не находит окончательной свободы, оставаясь между этими двумя полюсами. Свет и тень, используемые А.Хамраевым с мастерством, заимствованным из западного кино, приобретают самостоятельное метафорическое значение: свет ассоциируется с истиной, откровением, надеждой; тень – с сомнением, страхом, скрытыми сторонами души, а в сценах внутреннего конфликта режиссёр создаёт сложные светотеневые рисунки, где герой буквально находится между светом

и тьмой. Особое место в метафорической системе А.Хамраева занимает образ времени и памяти. Время в его фильмах не просто течёт – оно разрушает, уносит, превращает живое в мёртвое. Режиссёр использует повторы: одни и те же места, одни и те же ракурсы снимаются в разное режимы, показывая, как время меняет пространство и людей, создавая иносказание времени как истребляющей силы, которая придаёт его работам глубокое трагическое звучание. Вода в его фильмах не только символизирует очищение и перемены, но и выступает метафорой течения жизни, где реки, дождь и арыки становятся визуальными образами неостановимого движения, которое уносит прошлое, но одновременно несёт в себе память о нём. В поздних работах, таких как «Бо, Ба, Бу», пространство пустых городов и заброшенных мест становится метафорой утраченной памяти, разрыва между прошлым и настоящим, где герои бродят по этим пространствам, пытаются восстановить связь времён, но сталкиваются с невозможностью вернуть утраченное.

Влияние западного кино на работы А.Хамраева, проявляется в интеграции западных визуальных и фабульных приёмов, которые режиссёр адаптирует к своему национальному культурному контексту. Он заимствует сложные композиционные приёмы, нестандартные нарративные структуры, нелинейное повествование и перекрёстные сюжетные линии, используя их для создания более сложных и интригующих историй, где символизм и темы раскрываются через неоднозначные сюжетные ходы и перемещения во времени. Однако этот западный символизм и художественные приёмы не вытесняют традиционные элементы, а обогащают их, создавая уникальный художественный язык, который отражает как глобальные тенденции, так и локальные культурные реалии. А.Хамраев успешно синтезирует западный символизм с традиционными элементами своей национальной культуры, в сочетании с национальными символами и культурными традициями, что позволяет ему достичь более широкого зрительского круга и создать универсальные образы и темы, которые могут быть поняты и оценены

зрителями из разных стран, сохраняя при этом уникальность и локальное значение его фильмов. Фильмография А.Хамраева представляет собой уникальное художественное явление в истории кино, где метафора становится не просто приёмом, а способом его повествования, позволяющим говорить о самом важном – о любви, о судьбе, о свободе, о времени, о человеке и его месте в мире – на языке, который не нуждается в переводе, потому что обращён к тому, что есть в каждом человеке независимо от культуры, времени и места. Метафора для А.Хамраева – это кинематографический приём, метод диалога с со зрителем, способ преодоления границ между прошлым и настоящим, между Востоком и Западом, между индивидуальным и универсальным, между видимым и невидимым. Это делает его фильмы актуальными и значимыми для зрителей разных поколений и культур, сохраняя свою художественную ценность и глубину спустя десятилетия после их создания.

### *Использованная литература*

1. Познин В. Особенности создания и восприятия кинометафоры. – Вестник ВГИК. – 2017. – №4(34). – С. 35–38.
2. Метц К. Воображаемое означающее. Психоанализ и кино // Кристиан Метц; пер. с фр. Д.Калугина, Н.Мовниной; изд. 2-е. – СПб.: Издательство Европейского университета в Санкт-Петербурге, 2013. – 334 с.
3. Якобсон Р. Два аспекта языка и два типа афатических нарушений // Теория метафоры. Сб. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 110–132.
4. Ямпольский М. Память Тиресия. Интертекстуальность и кинематограф. – Москва: РИК Культура (Ad Marginem), 1993. – 464 с.
5. Lakoff G. The contemporary theory of metaphor. In A.Ortony (Ed.) // Metaphor and Thought (second edition) Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – P. 202–251.

**Mohina Isroilova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi  
o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi  
E-mail: Isroilovamohina360@gmail.com*

## **O'ZBEKISTON DRAMA TEATRINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalqlar ma'naviyatini shakllantirish ilojsiz ekanligini tushungan ma'rifatparvar jadidlarning islom ma'naviyatini yangi bilimlar bilan boyitib, tarixiy jarayonda odamlar imon-e'tiqodi, ma'naviyati, dunyoqarashini shakllantirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganliklari, shuningdek, ilm-u ma'rifat, ma'naviyat inson kamoloti uchun nechog'lik muhim ekanligini yoshlar ongiga singdirishda kerak bo'lsa, o'z jonlarini fido qilganliklari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ilm, bilim, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, adabiyot, dramaturgiya, teatr.

### **STAGES IN THE FORMATION OF UZBEK DRAMA THEATRE**

**Abstract.** This article discusses how the Jadid enlighteners, recognizing that it is impossible to shape the spirituality of a nation without knowledge, enriched Islamic spirituality with new ideas and made a significant contribution to the formation of people's faith, spirituality, and worldview in the historical process. It also highlights that, in instilling in the younger generation an understanding of the importance of science, education, and spirituality for human development, they were ready, if necessary, to sacrifice their lives.

**Keywords:** science, knowledge, spirituality, culture, enlightenment, literature, dramaturgy, theatre.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab madaniy hayotimizda tubdan o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu avvalo teatr san'ati rivojlanishida yaqqol sezila boshlandi, yangi-yangi teatr dargohlari ishga tushirildi. 1991-yilda Farg'onada va

1993-yil Xivada davlat qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi, 1994-yilda Qashqadaryo viloyat teatri qoshida qo'g'irchoq guruhi ochildi. Andijonda jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, u 1994-yilda Abbos Bakirov nomidagi Andijon shahar Yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

O'zbek teatrlari va san'atkorlarining dunyo sahnasiga chiqishi uchun keng yo'l ochildi. A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrining Malayziya va Tailandga, O'zbekiston davlat drama teatri jamoasining Angliya, Shotlandiya va Germaniyaga safarlari shular jumlasidandir.

Shunday ekan, mustaqillik davri teatr san'ati o'z qiyofasini yaratishga intildi va intilib kelmoqda. Teatr san'atining boshqa san'at turlaridan yaqqol ajralib turadigan tomoni uning kuchli ta'sir kuchiga ega ekanidadir. Chunki, sahnada yuz berayotgan voqealarni tomoshabinga jonli tarzda ko'rsatib beradi.

O'zbekiston davlat drama teatrining tashkil etilganiga ham qariyib qirq yildan oshdi. Mana shu qisqa vaqt oralig'ida teatr juda katta ijodiy jarayonlarni bosib o'tdi. Ayniqsa mustaqillik davrida teatrning ijodiy faolligi yanada oshdi. Shu sababli ushbu teatrning yigirma yil ichida bosib o'tgan yo'lini sarhisob qiladigan vaqt yetib keldi, deyishga asos bor. Mustaqillikning ilk kunlari va bugungi kundagi spektakllar mezonini taqqoslash teatr san'atining ertangi istiqboliga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Teatr 1968-yil 26-oktyabr kuni Maksim Karimovning "Diydor" spektakli bilan teatr ochilgan. "M.Karimovning "Diydor" pyesasi zamon yoshlarining ezgu orzu va rejalar bilan to'lib toshgan qaynoq hayoti, shijoatli mehnati, sadoqat va xiyonat oralagan turmush tarzidan bahs yurituvchi jo'shqin ehtiros bilan bitilgan badiiy asar edi". Teatrning tashkil etilishida jonbozlik ko'rsatgan rejissyor Ergash Masafoyev pyesani sahnalashtirishda zamon yoshlarining chuqur psixologiyasini ochib berishga e'tibor qaratgan. Spektakl voqealari xalqning ikkinchi jahon urushidan keyin tumush-tarzi haqida hikoya qiladi. Rejissyor urushning mudhish oqibatlarini ochishga intilarkan, spektakl zamiriga vatanparvarlik his-tuyg'ulari, odamlarning iymon butunligi, sadoqat va xiyonatga

sabab zamon tarozusi, otalik va farzandlik burchlari kabi tushunchalarni teran va ta'sirchan sahnalar orqali hal etgan.

Shundan so'ng birin-ketin turli mavzulardagi asarlar sahna yuzini ko'ra boshlagan. Jumladan, O'.Umarbekovning "Oqar suvlar", A.Ibrohimovning "Birinchi bo'sa", Shuhratning "Besh kunlik kuyov", T.Tursunovning "Darbadar" kabi pyesalarini sahnalashtirildi. "Birinchi bo'sa" spektaklni teatrning bosh rejissyori E.Masafojevning o'zi sahnalashtirgan bo'lsa, "Oqar suvlar" va "Besh kunlik kuyov" asarlarini U.Baqoyev, "Darbadar" pyesasini V.S.Iogelson kabi rejissyorlar sahnalashtirgan. Bu orada teatr jamoasi qardosh mamlakatlar hamda jahon dramaturgiyasiga murojaat qildi. Natijada M.Bayjiyevning "Bahs" ("Duel"), V.Blajekning "Uchinchi orzu", P.Vaysning "Osvensum jallodlari" nomli spektakllari dunyoga keldi. Bu esa teatr repertuarini yanada mustahkamlanishiga olib keldi.

"E.Masafojev boshliq teatr jamoasi vatan va vatanparvarlik, urush va tinchlik, sadoqat va xiyonat, halol mehnat va tekinxo'rlik, chin muhabbat va xavoyi ishqibozlik muammolarini yechimida yosh avlod alohida mas'ul ekanini ta'kidlovchi spektakllar yaratishni teatrning bosh yetakchi vazifasi qilib belgilandi" [1, 387-b].

Yuqorida nomlari keltirilgan pyesalar yangicha ruhda, zamon talablariga mos ravishda sahnalashtirilib, o'zining munosib bahosini olgan. Tabiiyki, bu spektakllarning asosiy qahramonlari yoshlar edi.

Ish bor joyda harakat yuzaga keladi, o'sish, yuksalish bo'ladi. Biroq ish bor joyda kelishmovchiliklar, xatolar ham bo'lib turadi. "Yosh gvardiya" teatrini yo'rgaklab katta qilib, endigina yurishni o'rgatayotgan yo'l boshchisi E.Masafojev bilan teatr jamoasi o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi. Natijada iste'dodli rejissyor teatrdan ketdi. Shundan so'ng teatrga bosh rejissyor sifatida B.Ixtiyorov tayinlanib, 1976-yildan 1980-yilga qadar shu lavozimda ishlagan. Shu yillar mobaynida rejissyor Nushichning "Aql sotilmaydi", H.H.Niyoziyning "Zaharli hayot yohud ishq

qurbonlari”, M.Bayjiyevning “Kelin va kuyov”, G.Figureydoning “Ezop”, O‘.Umarbekovning “Otilmagan o‘q”, M.Boboyevning “O‘ttiz yoshlilar”, Isfandiyorning “Otasining qizi” kabi bir qator spektakllarni sahnalashtirgan. Shular ichidan Hamzaning “Zaharli hayot yohud Ishq qurbonari” spektakli rejissyorga shuxrat keltirgan.

B.Ixtiyorov bilan barobar rejissyor R.Boboxonov O‘.Hoshimovning “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat”, Sh.Boshbekovning “Tikansiz tipratikanlar”, M.Boboyevning “Yer tomiri”, D.Valeyevning “Muqaddima” (1981, 1982); yosh rejissyor N.Abdurahmonov, M.Vorfolomeyevning “Yosh gvardiya” (1982) pyesalarini sahnalashtirdilar.

1982-yili teatrga bosh rejissyorlik lavozimiga Habibulla Fayziyev tayinlandi. Rejissyor o‘z faoliyatini Maksim Karimovning “Raykom sekretari”, B.Vasilyevning “Bu yerning tonglari sokin”, Sh.Boshbekovning “Taqdir eshigi” spektakllari bilan boshlaydi. H.Fayziyev E.Masafoyev kabi teatr repertuarini yoshlar hayoti aks ettirgan spektakllar bilan to‘ldirishgan intilgan.

1984-yili teatrdagi jiddiy o‘zgarish yuz beradi. Hamza (hozirgi Milliy) teatrini tark etgan iste’dodli rejissyor B.Yo‘ldoshev bilan birgalikda rassom G.Brimm, shuningdek, yigirma besh kishidan iborat aktyor va aktrissalar guruhi “Yosh gvardiya” teatriga o‘tadi.

“1984–1990-yillar orasida B.Yo‘ldoshev o‘zi rahbarlik qila boshlagan yangi jamoada N.Miroshnichenko va L.Gerchikovning “Shayton farishtalar”, A.Gelmanning “Zinulya” (1985), H.Rasulning “Uzoq qishloq” (1988), Sh.Xolmirzayevning “Ziyofat”, “Qora kamar” (1989) pyesalarini sahnalashtirdi” [2, 394-b]. Kattagina tajribaga ega bo‘lgan B.Yo‘ldoshevning mazkur teatrdagi sahnalashtirgan ilk spektakllari “Yosh gvardiya” teatrining yangi ijodiy mezonini belgilab berdi. Yuqorida nomi keltirilganlardan Sh.Xolmirzayevning “Qora kamar” spektaklining jaranglashi qaysidir ma’noda mustaqillik odimlarining yaqinlashib kelayotganidan darak berdi. Ushbu “Qora kamar” pyesasi inson taqdiri butun fojiviy ko‘lami bilan aks ettirilganligi uchun adabiyotimizda muhim o‘rin tutadi.

Asarda yolg'on e'tiqod insonlarni qay kunlarga solishi va e'tiqodsizlik millatni qanchalar tubanlashtirishi mumkinligi yorqin obrazlar orqali haqqoniy aks ettirilgan.

Mustaqillikning dastlab yilida "Farmonbibi arazladi" (S.Ahmad), "Maysaraning ishi" (H.Niyoziy), "Malikai Turandot" (K.Gotssi), "Go'zallar va Mirshablar", (T.Uzoqmand) kabi asarlar rejissyor B.Yo'ldoshev, Y.Ergenlar tomonidan sahnalashtirildi.

"Farmonbibi arazladi" spektakli rejissyor B.Yo'ldoshevning taklifi bilan yozilgan bo'lib "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasining mantiqiy davomi edi. Spektakl "Kelinlar qo'zg'oloni"dek shuhrat qozonmagan bo'lsa ham u tomoshabinlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

"Maysaraning ishi" komediyasining sahnalashtirilishi esa teatrga juda katta muvaffaqiyat olib keldi. Chunki, B.Yo'ldoshev pyesani yangicha talqinda, zamonga mos ravishda sahnaga olib chiqdi. Rejissyor rassom G.Brim bilan birgalikda sahnada maydon teatr unsurlaridan foydalanib, mashrabozlik guruhi tomoshasini ko'rsatishgan.

"N.Toshkenboyeva ijrosidagi bosh qahramon Maysara o'zining aql-farosati, jasorati, topqirligi, qat'iyligi bilan ajralib turadi. Biroq rejissyor tomonidan topilgan ijro uslubiga zid kelmagan holda o'z ijrosida hazil-mutoyibaga, kinoyaga, tagdor so'zlarga urg'u beradi. Spektalda dekoratsiyadan tortib kiyim-kechak, ijrogacha bari shartli. Xuddi o'tmishdagi qiziqchi va masxarabozlarga o'xshab sahnada o'yin hukmron. Ijrochilar o'yinga o'ta berilib ketadilar" [3, 147-b].

Abror Hidoyatov nomidagi O'zbek davlat teatri mana shu zayl mustaqillikning dastlabki yilgi mavsumni yakunlanadi. Ikkinchi mavsumga yangicha tayyorgarlik, teatrning ijodiy guruhi uchun ham, teatr muxlislari uchun katta o'zgarishlar va yangi sahna asarlari bilan kirib borishdi. Ikkinchi mavsumda teatr sahnasida "Aldagani xotin yaxshi" (Puare), "Arshin mololon" (U. Xojibekov), "Besh so'm" (Urdibodi) kabi spektakllari rejissyor Ye.Volobuyev, B.Yo'ldoshev, X.Qosimovlar tomonidan sahnalashtirildi.

Sahnalashtirilgan barcha spektakllar komediya janridadir. Biroq, bu spektakllar zamirida zamonamiz kishilarining qusuri va fazilatlari aniq ko'rsatilgandi.

Agar keyingi yil mavsumidagi spektakllarga nazar tashlaydigan bo'lsak, teatr jamoasi anchagina jiddiy mavzularga qo'l urganligiga guvoh bo'lamiz. Xususan rejissyor B.Yo'ldoshevning ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiyning "Xamsa" asari ohanglari asosida Sh.Rizayev qalamiga mansub "Iskandar" asarining sahnalashtirilishi yangicha uslubi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ikki pardali fojia deya e'tirof etilgan mazkur pyesa tarixiy shaxslarning qorishmasidan iborat bo'lsada, uning badiiy quvvati, falsafasi, voqealarning mantiqiy bog'liqligi mahorat bilan ochib berilgan. Pyesa kamtarin kulbada Jomiy, Navoiy hazratlarining shatranj o'ynash chog'idagi suhbat bilan boshlanadi. Navoiy Abdurahmon Jomiyga "Xamsa"ning to'tr dostonini tugallaganligini, endi shoh Iskandar haqida yozmoqlik tinchlik bermayotganligini bayon qiladi. Jomiy bu fikrni ma'qullaydi. Birinchi ko'rinish Navoiyning Iskandar haqida yozish niyatiga chog'lanib aytgan so'zlari bilan yakunlanadi. Ikkinchi ko'rinish qo'rg'on shaklida saroyda Iskandar va Faylaqus o'rtasidagi suhbat bilan boshlanadi. Navoiy voqea hikoyachisiga va gohida sahna chetida ularni kuzatuvchisiga aylanadi.

A.Navoiyning "Xamsa" dostonining beshinchisi sanalgan "Saddi Iskandariy" (Iskandar devori) Husayn Boyqaro o'g'illaridan bir Badiuzzamonga bag'ishlangan. Navoiy Iskandar qiyofasida haqiqiy adolat shoh timsolini yaratishga intilgan. Pyesada "Saddi Iskandariy" asarining yozilishi jarayoni ko'rsatilgan. Deyarli barcha ko'rinishlarda voqealari Navoiyning kuzatuvida ostida ro'y berar ekan, go'yo voqealar yozuvchining xayolida ro'y berayotganga o'xshaydi. Pyesa oxirida adolatli hukmdor Iskandar taxtga o'tirganda, parda yopilgandan so'ng Navoiy paydo bo'lib tomoshabinlarga murojaat qiladi.

1992-yilgi teatr mavsumdagi barcha spektakllarga B.Yo'ldoshevning o'zi rejissyorlik qiladi. "Ma'mura kampir" (J.Saran), "Malika" (F.Galer), "Dardimni kimga aytaman" (Shushkin) kabi spektakllar shular jumlasidandir.

Sahnalashtirilgan barcha spektakllar ko'tarilgan g'oyaning puxtaligi, har biri obraz badiiyatining takrorlanmasligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Mana shu davrda rejissyor B.Yo'ldoshev O'zbekiston davlat drama teatri jamosiga yangi sahifalarni tuhfa etdi. Teatr yangi nafas, yangi ruhiyat bilan jahon teatr andozalari talablariga mos keladigan bir qator spektakllarni sahnalashtirdi. Sahnalashtirilgan spektakllar o'zbek teatri tarixiga muhrlanib qoldi.

“Bir eshak hangomasi” (Dyurenmant), “Qitmir” (B.Muxammadxujayev 1995-yil), “Buyuk ipak yo'li” (M.Boboyev 1997-yil), “Checha” (M.Yusuf), “Navruza” (Antakolskiy 1998-yil), “Tog'a va jiyanlar” (R.Bobojon), “Sehrii hassa”, “Qayerdasi Navro'z” (M.Ashurova 1999-yil), “Assalomu alaykum qizlar” (Sagareli, 2000-yil), “97-xona” (Nil Saymon, 2005-yil) kabi spektakllar shular jumlasidandir.

Umuman olganda, O'zbek drama teatrining shakllanishi jadid ma'rifatparvarlari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular teatr orqali xalqni ilm-ma'rifatga, ma'naviy yuksalishga chaqirgan. Teatr san'ati jamiyatda inson dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviyatni boyitish va yoshlarni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 37 b.*
2. *Karimov I. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. –Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 580 b.*
3. *Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 1998. – 180 b.*
4. *Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi I-II. – Toshkent: Alisher Navoiy, 1968. – 690 b.*

- 
5. *Rahmonov M. Hamza (1914-1960). (O'zbek milliy akadamek drama teatri). – Toshkent: G'.G'ulom, 2001. – 248 b.*
  6. *Rizayev O. Nabi Rahimov. – Toshkent: G'.G'ulom, 1997. – 160 b.*
  7. *Rizayev Sh. Sahna ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 128 b.*
  8. *Tursunov T. Sahna va Zamon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 192 b.*
  9. *Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi. – Toshkent: Mehridaryo, 2010. – 328 b.*
  10. *“O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi. – 2011-yili 6-soni 5-bet.*

**Xusan Alijonov**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
“Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrası  
o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi  
E-mail: [xusan404aliyev@gmail.com](mailto:xusan404aliyev@gmail.com)

## ZAMONAVIY HIND VA O'ZBEK HAMKORLIK KINOLARIDA ESTETIKA VA BADIY EVOLYUTSIYA

**Annotatsiya.** Maqola zamonaviy hind va o'zbek hamkorlik kinolarida estetika va badiiy evolyutsiyaning shakllanish jarayonini tahlil qiladi hamda ikki kino maktabi o'rtasidagi stilistik o'zaro ta'sirni ilmiy asosda tadqiq etadi. Tadqiqotda transmilliy kino loyihalarida obraz qurilishi, vizual poetika, rang-korreksiya, kamera plastika va dramaturgik yondashuvlarning transformatsiyasi aniqlanib, ular zamonaviy kinematografiyaning estetik me'yorlari bilan qiyoslanadi.

**Kalit so'zlar:** hamkorlik kinematografiyasi, transmilliy estetika, badiiy evolyutsiya, vizual poetika, operatorlik texnikasi, rejissyorlik konsepsiyasi, kino tilining transformatsiyasi, madaniy dialog, kinematografik sintez, zamonaviy kino tendensiyalari.

## AESTHETIC AND ARTISTIC EVOLUTION IN CONTEMPORARY INDIAN-UZBEK CO-PRODUCTION FILMS

**Abstract.** This article analyzes the process of formation of aesthetics and artistic evolution in contemporary Indian-Uzbek co-production films and scientifically examines the stylistic interaction between the two cinematic schools. The study identifies transformations in character construction, visual poetics, color grading, camera movement, and dramaturgical approaches within transnational film projects, and compares them with the aesthetic norms of modern cinematography.

**Keywords:** co-production cinematography, transnational aesthetics, artistic evolution, visual poetics, cinematography techniques, directing concept,

*transformation of film language, cultural dialogue, cinematic synthesis, contemporary film trends.*

Hind va o'zbek kinolari o'rtasidagi hamkorlik jarayonlari XX asr oxiridan boshlab izchil shakllangan bo'lib, bu jarayon madaniy aloqalar, tarixiy zamin va ikki xalq o'rtasidagi badiiy yaqinlik bilan mustahkamlanadi. Zamonaviy davrda mazkur hamkorlik filmlarida yangi estetik yondashuvlar, o'zaro g'oyalashuv va vizual tajriba almashinuvi kuchayib, milliy kino maktablarining uslubiy o'zgarishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, montaj ritmining yangilanishi, kamera plastikasining o'zgarishi va sahna qurilishidagi modernizatsiya hamkorlik kino loyihalarini alohida ilmiy tahlil obyekti sifatida ko'rsatadi.

Maqolada zamonaviy kino estetikasining badiiy evolyutsiyadagi o'rni, operatorlik va rejissyorlik yondashuvlarining ilmiy talqini hamda vizual poetikaning yangi kombinatsiyalari tizimli ravishda o'rganiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda o'zbek–hind hamkorlik kinolari ilk bor kompleks tarzda tarixiy asos, estetik transformatsiya va vizual tilning konseptual o'zgarishlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqola zamonaviy hamkorlik filmlarining badiiy modellarini aniqlash, ularning madaniy kodlar sintezi va kino tilining global kontekstga moslashuv jarayonlarini yoritish vazifalarini belgilaydi.



Ushbu tadqiqot zamonaviy hind va o'zbek hamkorlik kinolarining estetik va badiiy evolyutsiyasini tahlil qilishda bir nechta ilmiy yondashuvlarning integrativ qo'llanishiga asoslanadi. Avvalo, komparativ metod orqali ikki milliy kino maktabi hamda ular yaratgan hamkorlik filmlari o'zaro taqqoslanib, ularning umumiy va farqli badiiy tamoyillari aniqlanadi. Semio-estetik tahlil esa vizual kodlar, ranglar tizimi, yorug'lik yechimlari, mizansahna va ekran metaforalarining ma'no qatlamlarini ochish imkonini beradi.

Zamonaviy hind-o'zbek hamkorlik kinolari o'zaro madaniy almashinuv, uslubiy uyg'unlik va transmilliy estetik qarashlar bilan ajralib turadi. Ushbu filmlarda hind kinosining emotsional ifoda kuchi hamda o'zbek kinematografiyasining realistik va lirik tasvir tamoyillari sintezlanib, yangi badiiy model shakllanadi. Operatorlik va rejissyorlik poetikasida dinamik kamera harakati, ranglarning dramaturgik qo'llanilishi, keng planlarda kompozitsion uyg'unlik, syujetni his-tuyg'u orqali yetkazishga qaratilgan yo'nalishlar ustuvor bo'lib bormoqda. Vizual estetika esa badiiy evolyutsiyaning asosiy ko'rsatkichi sifatida emotsional tasvir, metaforik mizansahna, yorug'lik drammatizmi va ekran poetikasining zamonaviy talqinini yoritadi. Shu tariqa, ikki kino maktabining ijodiy integratsiyasi tasvir texnologiyasi va badiiy uslubda sezilarli yangilanishlarni taqdim etadi.

“Sanju” filmi biografik drama sifatida nafaqat Sanjay Duttning hayotiy voqealarini qayta hikoya qiladi, balki Hindiston kino industriyasi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy stereotiplarga munosabat kabi murakkab madaniy jarayonlar bilan ham o'zaro bog'liq holda talqin etadi. Film dramaturgiyasi chiziqli emas, balki epizodik retrospektiv montajga asoslanadi, bu esa qahramonning ruhiy bosqichlarini oshkoralik, qulash, ichki kurash va ruhiy tiklanish uzviy ravishda ochib berish imkonini yaratadi. Dramatik ziddiyatlar asosan ikki qutb “real shaxsiyat” va “ommaviy obraz” o'rtasidagi tafovut orqali kuchaytiriladi. Shu tariqa film biografik janrning an'anaviy xronologik talqinidan chekinib, shaxsning psixologik portreti va uning ijtimoiy-siyosiy kontekstdagi pozitsiyasini


ko'rsatishga xizmat qiladi. Natijada "Sanju" individual tragediya, ijtimoiy bosim va ommaviy madaniyatning shaxsni shakllantirish mexanizmlarini bir vaqtning o'zida yorituvchi murakkab dramatik konstruksiyaga aylanadi.



*Film kadrlaridan lavhalar*

Film operatori Ravi Varmanning vizual yondashuvi syujetning biografik tabiatiga mos tarzda realizm–stilizatsiya dualizmi asosida qurilgan. Kamera harakatlari ko'pincha psixologik motivatsiyaga bo'ysunadi: qo'l kamerasi bilan olingan bo'limlar qahramonning ichki beqarorligini, dinamik treking kadrlari esa uning hayotidagi keskin burilish nuqtalarini aks ettiradi. Vizual narrativning asosiy konsepti "voqeani emas, holatni ko'rsatish", ya'ni dramatismni kadrning ichki ritmi, rakurs, yaqin planlar va semantik markazlashuv orqali berishdir. Shu bois film bir tomondan hujjatli estetika elementlarini eslatadi, ikkinchi tomondan esa badiiy tasvirning yuqori darajada stilizatsiyalangan qatlamlari orqali qahramonning subyektiv dunyosini maksimal darajada ifodalaydi. Operatorlik plastikasining bu sintezi narrativning emotsional og'irlik markazini shakllantiradi va tomoshabinning qahramon bilan bevosita identifikatsiya jarayonini kuchaytiradi. Filmning rang tizimi ham dramaturgik ritmga mos tarzda o'zgarib boradi: qahramonning beparvo yoshlik davrlari iliq, yuqori to'yingan palitralarda berilgan bo'lsa, narkotik krizis, sud jarayonlari va jamiyat tanqidi ko'rsatilgan bo'limlarda sovuq ranglar, past kontrast va noaniq soyalar ustuvorlik qiladi. Yorug'lik dizayni psixologik ma'no yuklovchi vosita sifatida ishlatiladi qattiq yon yorug'lik (hard-light) qahramonning

ichki ziddiyatlarini, diffuz yumshoq yorug'lik esa uning ruhiy poklanish bosqichlarini emotsional jihatdan mustahkamlaydi. Kadr plastikasida esa kompozitsiyaning markazdan surilishi



### *Film kadrlaridan lavhalar*

(decentering), tor makonlar, vizual bosim elementlari qahramonning ijtimoiy va ruhiy bosim ostida qolgan davrlarini ifoda etadi. Yakunda rang, yorug'lik va plastika uyg'unligi filmning umumiy poetikasida "inson ruhiyatidagi murakkablik" mavzusini nafaqat dramatik, balki vizual darajada ta'kidlaydi.

"Sanju"ning dramatik yakunida tomoshabin insonning ruhiy poklanishi, shaxsiy mas'uliyat va hayotning og'ir tanlovlari haqida o'ziga toldiriladi. Bu yerda kino biografik-realist uslub orqali insonning ichki kurashini aks ettiradi. Shundan so'ng

"Cheksiz quvonch" kabi yengil komedik sarguzasht filmga o'tish tomoshabinda katarsisdan keyingi emotsional yumshash, dramatik zo'riqishni yechish imkonini yaratadi. Bir film inson ruhiyatidagi og'ir qatlamlarni ochsa,

ikkinchi film voqeaviy yengillik, kulgi orqali reabilitatsiya mexanizmini ishga soladi. Shu tarzda perekhod san'atning ikki qarama-qarshi, ammo bir-birini to'ldiruvchi funksiyasini ko'rsatadi:

- biri – haqiqatni anglash va ichki poklanish;
- ikkinchisi – hayotni kulgi bilan qabul qilish.

Bu o'tish tomoshabinda "inson hayoti fojia va quvonch orasidagi muvozanatdir" degan g'oyani uyg'otadi. "Cheksiz quvonch" (Hoichoi Unlimited, 2018) komediya janriga mansub bo'lsa-da, filmning dramatik motivlari ham syujetning ichki tuzilmasida muhim o'rin egallaydi. Asarda kundalik hayotdagi ijtimoiy-psixologik bosimlar, erkaklik stereotiplari, oilaviy mas'uliyat va shaxsiy istaklar to'qnashuvi kulgili vaziyatlar orqali badiiylashtiriladi.



Komedik sarguzashtlar fonida qahramonlarning o'zini oqlashga urinishi, yolg'on va tasodiflar orqali yuzaga kelgan murakkab holatlar dramatik ziddiyatni kuchaytiradi. Natijada film nafaqat yengil kulgi, balki insoniy munosabatlardagi nozik ijtimoiy signallarni ham aks ettiradi. Filmning vizual poetikasida yorqin rang palitrasi, dinamik mizansahna va tez ritmli kamera harakati ustunlik qiladi. Komedik janrga mos ravishda sahnalar keng yoritilgan, ranglar palitrasi esa ekspressiv kayfiyat yaratishga qaratilgan. Montajning keskin ritmi, epizodlar orasidagi tez almashinuvlar, vizual gags va sahna kompozitsiyasidagi ortiqcha plastik ifodalar komediyaning vizual dramatzimini kuchaytiradi.

Mizansahnada esa ko'pincha ortiqchalik, ko'p qatlamli sahna joylashuvi, qahramonlarning harakat orqali xarakter ochilishi kabi usullar qo'llanib, umumiy poetik muhitga teatrona grotesk ohangini beradi.

Film Hindiston va Bangladesh o'rtasidagi kinematografik hamkorlik mahsuli sifatida shakllangan bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida ikki maktabning vizual, dramaturgik va musiqiy yondashuvlari uyg'unlashgan. Rejissyor Aniket Chattopadhyay hind komediya an'analari tezkor ritm, sarguzasht, slapstick elementlarini o'z ichiga olgan, bengal kinosining yumor va ijtimoiy kulgi tamoyillarini birlashtiradi. Operatorlikda esa rang-barang kadrlash, kadr ichida ko'p harakat va keng planli dinamik mizansahna orqali transmilliy ko'rish estetikasini yaratadi. Shu tariqa hamkorlik ijodkorlari filmga nafaqat bozor kino modeli xos yengillik, balki madaniyati ikki maktabning sintezidan kelib chiqqan badiiy o'ziga xoslik bag'ishlaydi.

“Sanju” filmida operatorlik va rejissyorlik uslubi biografik dramatismga xizmat qilib, kamera harakatlari ko'proq psixologik portret yaratishga qaratilgan: yaqin planlar, statik rakurslar va tabiiy yorug'lik orqali qahramon ruhiy holati chuqurlashtiriladi. Aksincha, “Cheksiz quvonch” filmida operatorlik yechimlari dinamik, ko'p kamerali, harakatga yo'naltirilgan bo'lib, komedik vaziyatning ritmini tezlashtiradigan panoramalar, keng rakurslar va yorqin koloristik palitra ustuvorlik qiladi. Rejissyorlik yondashuvi ham farqlanadi: Rajkumar Hirani “Sanju”da voqeani vaqt oralig'ida uzluksiz dramaturgiya bilan bog'lab, real faktlar va hissiy intensivitetni uyg'unlashtirsa, Aniket Chattopadhyayning komedik rejissyorligi voqeani g'ayrioddiy tasodiflar, ortiqcha giperbolalar va slapstick dinamika asosida quradi. Bu farqlar vizual poetika jihatidan biri psixologik realizm, ikkinchisi komedik sarguzasht estetikasini taklif etishini ko'rsatadi.

“Sanju” filmida vizual poetika elementlari rangning yengil pasaytirilgan gammasi, sokin montaj ritmi va dramatik kompozitsiya kadr ichidagi ma'naviy iztirob, aybsizlikni isbotlash va ota-bola munosabatlari kabi mavzularni badiiy kuchaytiradi. “Cheksiz quvonch” filmida esa vizual poetika kulgi yaratish

mexanizmlariga yo'naltirilgan: yorqin ranglar, tezkor montaj, karikaturaga yaqin ifodalar va makonning teatrona ishlatilishi komediyaning grotesk tabiatini mustahkamlaydi. Shu tariqa ikki film milliy kino maktablari G'arb ta'siridagi hind biografik-drama an'analari va Bengal komediya maktabi o'rtasidagi estetik integratsiyani namoyish qiladi: biri dramatik realizm evolyutsiyasiga hissa qo'sha olsa, ikkinchisi zamonaviy komedik kinematografiyaning ritmik va jozibali modelini taklif qiladi. Integratsiya nuqtai nazaridan bu ikki film turli madaniy ko'lamlarga mansub bo'lsa ham, ikkida ham emotsional tajribani shakllantirish va tomoshabinni o'ziga tortish bo'yicha umumiy kommunikativ maqsad mavjud biri yurakni og'ritib tozalash, ikkinchisi kulgi orqali yengillik baxsh etish.

Zamonaviy hind-o'zbek hamkorlik filmlarida badiiy va vizual evolyutsiya jarayoni ikki milliy kinematografiyaning tajribasi, estetik qarashlari va texnologik imkoniyatlarining uyg'unlashuvi asosida shakllanmoqda. Xususan, rang yechimlari kadr plastikasining dinamik o'zgarishi, mizanssena qurilishidagi multifunksional yondashuv va kmaera harakatining dramatik vazifasi har ikki maktabga xos tasviriy ifodaning yangi qatlamlarini yuzaga keltirmoqda. Hind kinosiga xos yorqin kolorit, musiqiy ritmga moslangan kamera dinamikasi o'zbek kinosidagi lirik-psixologik tasvir talqini bilan qo'shib, syujetning emotsional talqinini kuchaytiradi. Natijada badiiy yaxlitlik, milliylik va zamonaviylik uyg'unligiga asoslangan vizual konsepsiya shakllanmoqda. Ushbu hamkorlik asosida yaratilgan filmlarda rang, yorug'lik, mizanssena va kamera harakati tizimli ilmiy tahlil qilinishi tasvirning semantik yukini, obrazlararo muloqot va dramatik rivojlanish mexanizmlarini chuqur anglash imkonini beradi.



### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Madhava M. *Ideology of the Hindi Film a historical construction*. – New Delhi: First published, 1998. – 253 p.
2. Dwyer R. *Bollywood's India: Hindi cinema as a guide to modern India*. – London: Reaktion books, 2014. – 296 p.
3. Mishra V. *Bollywood Cinema: Temples of desire*. – London: Psychology press. – 320 p.
4. Adams P. *Visionary Film: The American Avant-Garde, 1943-200*. – New York: Oxford university press, 2002. – 446 p.
5. Bordwell D. *Narration in the Fiction Film*. – New York: The University of Wisconsin press, 1985. – 359 p.
6. Lotman J. *Semiotics of Cinema*. – New York: University of Michigan, 1981. – 106 p.
7. Mulvey L. *Visual Pleasure and Narrative Cinema*. – New York: Oxford university press, 1975. – 816 p.
8. Базен А. *Что такое кино? Сборник статей*. – Москва: Искусство, 1972. – 382 с.
9. Эйзенштейн С. *Избранные произведения. В 6-и томах*. – Москва: Искусство, 1964–1971. – 700 с.
10. Балаш Б. *Кино: Становление и сущность нового искусства. Пер.с нем.* – Москва: Прогресс, 1968. – 328 с.

**Kamolaxon Raxmonova**

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
San'atshunoslik instituti  
"Teatr va xoreografiya" bo'limi mustaqil tadqiqotchisi  
Email:rahmonovakomola91@gmail.com*

## ZAMONAVIY O'ZBEK TEATRIDA YOSHLAR MAVZUSI

### KONTEKSTIDA UMUMINSONIY MUAMMOLAR TALQINI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek teatrida yoshlar mavzusi kontekstida umuminsoniy muammolarni sahna vositasida ifodalash masalalari yoritiladi. "Buzilishga mo'ljallangan uy", "Falsafa doktori", "Oq kema", "Romeo va Julyetta" spektakllari asosida yoshlardagi ichki kolliziyasi, umuminsoniy muammolar jarayonida yosh qahramon xatti-harakati tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida teatr san'atining yoshlar ma'naviy immunitetini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirishdagi muhim estetik va ijtimoiy ahamiyati asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:** yoshlar mavzusi, ma'naviy inqiroz, umuminsoniy muammolar, ichki konflikt, sahna talqini, teatr san'ati, badiiy interpretatsiya.*

### INTERPRETATION OF UNIVERSAL ISSUES IN THE CONTEXT OF YOUTH THEMES IN CONTEMPORARY UZBEK THEATRE

***Abstract.** This article examines the representation of universal human problems in the context of the youth theme in contemporary Uzbek theatre, with particular emphasis on their expression through stage means. Based on the performances "A house not meant to stand", "Doctor of Philosophy", "The White Ship" and "Romeo and Juliet", the study analyzes the internal collisions within young people as well as the behavior of young protagonists in the context of universal human issues. The findings substantiate that theatre art serves as an important aesthetic and social instrument in shaping the spiritual resilience of youth and broadening their worldview.*

***Keywords:** youth theme, moral crisis, universal human problems, internal conflict, stage interpretation, theatre art, artistic interpretation.*

Zamonaviy o'zbek teatrida yoshlar muammolarini aks ettiruvchi sahna asarlari alohida o'rin egallaydi. Bunday asarlar nafaqat ijtimoiy muammolarni yoritadi, balki yosh avlodning ma'naviy kamoloti, hayotiy sinovlarga nisbatan ruhiy barqarorligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yoshlik inson umrining eng nozik, hissiyotlarga va qarama-qarshiliklarga to'la davri. "Yoshlik" so'zi qaram bolalikdan mustaqil va mas'uliyatli yetuklikka o'tish bosqichini bildiradi, bu bir tomondan jismoniy kamolotga erishishni, ikkinchidan, ijtimoiy yetuklikka erishishni nazarda tutadi. Ammo, turli jamiyatlarda bu turli yo'llar bilan sodir bo'ladi" [1, 6-b]. Ya'ni, davr, atrof-muhit, mentalitet, urf-odat va an'analar kabi tashqi va ichki ta'sir kuchlari har xil millat yoshlarida o'tish davri turlicha kechishiga sabab bo'ladi. Sahna san'ati esa yoshlarga o'tish davrida yuzaga kelgan muammolarini hal etishda yo'l ko'rsatish bilan birga, o'zga millat yoshlarining o'y-xayollari, intilishlari, kechinmalari, muammo va yutuqlari bilan o'rtoqlashishga bevosita imkon yaratadi.

Mustaqillikning dastlabki yigirma yilligi davomida respublika teatrlarida repertuar siyosatining maishiy-estetik yo'nalishga og'ishi, tomoshabin didiga moslashish tendensiyasining kuchayishi kuzatilgan bo'lsa, keyingi davrda klassik dramaturgiyaga qaytish jarayoni faollashdi. Ushbu tendensiya teatr jamoalarining ijodiy strategiyasida badiiy mezonlarni qayta ko'rib chiqish, aktyorlik mahoratini murakkab psixologik va falsafiy material asosida takomillashtirish hamda repertuarni umuminsoniy mazmun va estetik barqarorlikka ega asarlar bilan boyitishga intilish bilan izohlanadi. Jumladan, "Buzilishga mo'ljallangan uy" spektaklida nafaqat aktyor psixofizikasi bilan professional ishlanishini, balki turli zamonaviy texnik qurilmalar, ovoz, musiqa va dekorativ vositalar bilan mahoratli ishlash, teatrning sintez san'at sifatidagi yorqin namunasini ko'ramiz. Tennessee Uilyams qalamiga mansub, "Buzilishga mo'ljallangan uy" ("Предназначено на слом") [2] nomi bilan sahnalashtirilgan asar yoshlar ongidagi ichki bo'shliq, ijtimoiy begonalashuv hamda oilaviy muhitning shaxs kamolotiga ta'sirini yoritadi. Asarda Buyuk depressiya fonida shakllangan ruhiy tushkunlik kayfiyati ikki o'smir

dialogi orqali ifodalanib, “yo‘qotilgan avlod” fenomeni bilan uzviy bog‘lanadi. “Bu tushkunlik, bu yo‘qlikdan chiqish mumkinmi yo‘qmi?”, – asarda ikki o‘smir dialogi yordamida ana shu savolga javob izlanadi. Asar so‘nggida bu achchiq haqiqatni o‘zgartirishni iloji yo‘qligi, passiv ruhiyatdan ko‘rinsa-da, qahramonlarda harakatdan to‘xtamaslikka undov, faollikka chaqiruv bor. Pyesa yozilgan davrdagi Amerikada inqirozli vaziyat va Uilyams ana shu jarayondagi og‘ir oilaviy holatdan o‘z qahramonlari kabi yorib chiqishni istagan bir inson edi. Oilasidan ajralib yolg‘iz qolgan, hayoti bo‘shliqqa aylangan va yopiq, bo‘g‘iq ijtimoiy muhitdan yorug‘lik, erkinlikka intilgan Uilli orqali muallif o‘z ichki holatini tasvirlaydi.

Asosiy qahramon Uillining ma‘naviy va moddiy yo‘qotishlardagi holatiga uning oilaviy muhiti sabab bo‘lib, bu haqida qizcha o‘qituvchisining aytgan so‘zlarini ta‘kidlaydi: “Maktab direktori aytdiki, mening uyimdagi muhit yaroqsiz ekan. U temiryo‘lchilarning biznikiga tashrif buyurgani va ularning ba‘zilari tunab qolgani haqida gapiryapti” [3]. Hajman ixcham bo‘lishiga qaramay, mazmunan murakkab va og‘ir g‘oyaviy yuklamaga ega, hatto kattalar uchun ham idrok etilishi mushkul bo‘lgan pyesa sahnalashtirgan jamoa yosh ijodkor – debyutantlardan iborat. Spektakl rejissyori Kamilla Abdurahmanova, rassom Mariya Lukyanova, kompozitor Vitaliy Aminov, ovoz rejissyori Vasiliy Davidov, operator Shavkat Yo‘ldoshev kabi yoshlardan iborat katta jamoaning birinchi jiddiy ijodiy ishlari edi.

Uillining barcha dard-u hasrati uning chuqur ko‘zlari, sho‘x kulishlari, epchil harakatlari ortiga yashiringanini ko‘ramiz. Asar davomida Uilli (Leyla Seyd Ogli) Tomni o‘zining baxtli va hayotidan mamnun ekaniga ishontirishga harakat qiladi. Ammo, uning hazilomuz, biroq o‘ta jiddiy hayotiy mulohazalari, taqdiri haqidagi fikrlari, to‘pori harakatlari, sinchiklab qarashlari-yu, zardali ohanglari ortida singan qalbi yotadi. Uillining serqirra xarakterini ochib berishda aktrisa Leyla Seyd Oglining aktyorlik mahorati – plastika, so‘zlash, mimikalar, partnyor bilan ishlash texnikalari, aktyor sifatida sahnada “yonib turishi” tomoshabinni ham

uning obraz olamiga olib kirib ketadi. Uning yorqin harakatlari, shiddatli organikasi spektakl tempo-ritmini yuqori ko'targan. U optimistik ijro orqali, Uillining orzuga to'la beg'ubor qalbini, qizchanning hayot uchun qanday bo'lmasin kurashayotganini ko'rsata olgan. Uilli tashlandiq joyda yo'qolib qolmaydi. Hayotning beshafqat qonunlariga bo'ysunsa-da, yashab qolish uchun kurashadi. Kichkinagina qizcha butun dunyo va uning haqiqati bilan konfliktga kirishadi.

Spektakldagi har bir sahna va undagi bosh qahramonning kayfiyati-yu, so'zining quvvatiga mos chiroq bilan ishlash texnikasi asar g'oyasini ochishga xizmat qilgan. Go'yo chiroq Uilli va uning ruhiyati bilan hamoxang harakat qilayotgandek tasavvur uyg'otadi. Masalan, maktab haqida to'lib-toshib gapirayotganda nur sahnaga to'liq berilsa, opasi va uning vafoti haqida gapirarkan, sahna sekin-asta qorong'ulashadi. Romantik raqslarni namoyish qilarkan, sahna qorong'u bo'lgani holda, faqatgina Uillining o'ziga yorug'lik – urg'u beriladi. Alohida hissiy sahnalarda (jaz tasavvuri, eski uy xotiralari, opa obrazi bilan bog'liq lavhalar) oq-qora tarixiy tasmalarning did bilan tanlanib, depressiv ritmdagi videolarning qahramon harakatiga mos tezkor almashinuvi orqali berilishi operator mahoratini namoyon etadi. Xuddi ana shu video va jarayonlarga mos Amerika musiqalari qahramonlarning ichki tug'yonlarini yorqin namoyon qilishda katta xizmat qilgan.

2010-yilda "Buziladigan uy" asari "Debyut 2010" festivali doirasida sahnaga olib chiqilgan bo'lsa, 2012-yilda yana bir yosh rejissyor Obid Abdurahmonov tomonidan Andrey Makayonok qalamiga mansub "Zada bo'lgan avliyo" asari O'zbekiston Yoshlari teatrida sahnaga qo'yildi. Bir bola misolida umuminsoniy masalalarni birlashtirgan ikki asar ikki pardali butun spektaklga aylantirildi va "Yolg'on o'rqoni" ("Над бездною во лжи...") nomi bilan repertuarga kiritildi. Bu ikki asarni o'zaro birlashtirib turuvchi mavzuning biri umuminsoniy g'oyalar bo'lsa, ikkinchisi voyaga yetmagan kichik shaxslarning katta qalbidagi murakkab masalalaridir. "Ikkala spektakl bir-biriga bog'liq. Sababi, ularda murg'ak qalb egalarining katta hayot bilan to'qnashuvi ifoda etilgan bo'lib,

bolalarning haqiqat va yolg'ondan iborat murakkab dunyoda o'z yo'lini topishdagi murakkabliklar haqida so'z boradi" [4, 9-b]. Shuningdek, ikkala spektaklda bosh qahramonni yosh va iqtidorli aktrisa Leyla Seyd-Ogli mahorat bilan ijro etdi. Kichik, ixchamgina asarlar bo'lsa-da, umuminsoniy masalalarni olib chiqqan bu ikki asar o'zaro uyg'unlikda yanada qiymatli ega bo'ldi. "Notanish odamlar orasida shartli ravishda Uillining tashqi olamiga xos qirralari: o'g'il bolalardek to'poriligi, mardligi, sovuqqonligi, jizzakiligi namoyon bo'lsa, ota-onasi, oilasi, opasi haqida so'z ketganda uning bolalarcha soflikka yo'g'rilgan ichki dunyosi aks etadi" [5, 29-b]. U o'z rolida yashagani, bolalikni yaxshi his qila olgani uchun, boshqalarni ham bunga ishontira oladi. Yana bir jihatni nazarda tutish lozimki, aktrisa spektakldagi ikki rolida ham ayni bir xil jestlar, mimikalar, xatti-harakatlardan foydalangani tufayli spektakl ikki turli asardan iborat ekanligi sezilmagan, ya'ni ular bir-birini davom ettirayotgani ko'ringan bo'lsa, yana bir tomondan aktrisa bitta shtampda ishlayotganidan darak beradi.

Bu spektakl bugungi kunda nafaqat bolalar, balki katta avlod vakillariga yoshlik va bolalikni o'z o'rnida saqlab qolish, yangi asrda orzu va maqsadlarga to'la go'zal va baxtli kelajakka ega bo'lish uchun ishonch bilan harakat qilishga chaqiradi.

Tennesi Uilyams kabi umuminsoniy g'oyalarni o'zining qissa va romanlarida aks ettirib, o'quvchining ruhiy-emotsional holatini uyg'otuvchi yozuvchi Chingiz Aytmatovning asarlari zamonaviy o'zbek teatri rejissyorlarini befarq qoldirmadi. Yozuvchining ko'pgina asarlari butun respublika teatrlari sahnalarida bir necha yillardan beri sahnaga olib chiqilmoqda. Qardosh bo'lgan qirg'iz xalqining orzu-o'ylari, insoniy fazilatlarini, ularni qiynayotgan muammolari, ayniqsa mintalitet jihatdan juda yaqin bo'lgani sababidan ham o'zbek tomoshabinining qalbidan joy olib kelgan. Jumladan, "Oq kema" asari yosh bola misolidagi katta o'ylar, katta orzu-maqsadlar tarannumi, asarning og'ir yuki, yoshlarga beradigan saboqlari, muhim aytimlari borligi bilan ajralib turadi.

Asar markazida bola (yosh avlod vakili) turibdi va voqelik bolaning nigohidan ko'rsatiladi. U kattalar dunyosi bilan to'qnashadi. Bunda avlodlar o'rtasidagi, ya'ni kattalar (O'rozqul kabi obrazlar) va bola dunyosi o'rtasidagi ziddiyat, ma'naviy inqiroz, qadriyatlar yo'qolishi, bolaning pok dunyosi bilan, qattiq hayot to'qnashuvi aks etadi.

Shuningdek, yosh bolaning otasiga bo'lgan sog'inchi, uning baliqqa aylanish, oq kemaga yetishib, otasini topish haqidagi beg'ubor orzu-o'ylari aks etadi. Uning o'z olami bor va u yerda soxta tuyg'ular, aldov, yolg'onga joy yo'q. U o'z durbini, bobosi olib bergan yangi va sevimli papkasi va xayolidagi timsoliy, o'zi o'ylab topgan obrazlar bilan suhbat qiladi. Unga mana shu do'stlarning o'zi yetarli. Chunki, ular bu beg'ubor yetti yoshli bolakaydan hech qanday manfaat kutishmaydi. Bola atrofidagi bo'layotgan nohaqliklar, adolatsizlik, ikkiyuzlamachiliklarni bilib turadi va voqeliklarni kattalardek tahlil qila oladi. Atrofdagi chirkinlik, yolg'onlar uning sof tabiati va beg'ubor olamiga to'g'ri kelmas ekan, orzulari to'liq sarobga aylanmasidan turib ketishni istaydi. Baliq kabi suzishni xayol qiladi. Uning uchun tiriklik va o'lim birdek oddiy narsa.

O'zbek sahnasida asarni o'ziga xos talqinini qozog'istonlik rejissyor Akbar Rahimov yechimida ko'rish mumkin. Xorijlik rejissyor 2018-yilda Olimjon Salimov insenirovkasi asosida O'zbek Milliy Akademik drama teatrida "Oq kema" spektaklini tomoshabinlarga havola etdi. Aynan shu yili esa xuddi shu insenirovka asosida M.Toshmuhammedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali teatrida Asqar Xolmo'minov tomonidan sahnaga olib chiqildi. O'z yo'nalishiga ega ikki teatrdan bir vaqtda ushbu asar ustida ishlanishi, ularni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. "Chingiz Aytmatovning boshqa asarlari singari "Oq kema" asari uchun ham yaxshilik va yomonlik mavzusi xarakterli hisoblanadi" [6, 6-b]. Ikki talqinda ham mavzu aniq ochib beriladi.

Yoshlar muammosining yana bir muhim jihati ijtimoiy munosabatlar tizimida, xususan, oila va jamiyat bosimi ostida shakllanishi bilan bog'liq. Bu masala satirik yo'sinda Vladislav Nyushechning "Falsafa doktori" komediyasida

aks ettirilgan. Asarda yosh avlodning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatining cheklanishi, soxta qadriyatlar va ijtimoiy illatlar – poraxo‘rlik, laganbardorlik, ma’naviy inqiroz kulgu orqali ochib beriladi. Komedik shaklga qaramay, asarda ko‘tarilgan muammolar global xarakterga ega bo‘lib, har qanday jamiyat uchun dolzarbdir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida asosan Yevropada shunday bir an’ana avj oldiki, zodagonlar farzandlari biror-bir sohaga o‘qishi, pianino chalishni o‘rganishi, fransuz tilini bilishi oliy maqom belgisi hisoblandi. Zodagonlar bilan qudachilik zanjirlarini bog‘lab, o‘zlarining mavqeini yanada mustahkamlash avj olgan bir davr bo‘ldi. Diplom egasining haqiqiy bilim darajasi, saviyasi yoki tarbiyasi qandayligi keyingi darajalarga tushib, asosiysi, oliy tabaqa o‘rtasidagi farzandlarining ortidan kelishuv shartnomasi bo‘lib qoldi. Oqibatda, ko‘p hollarda taqdiralar ayanchli yakunlandi. Bu masalalar “Falsafa doktori” asarida kulgi ostiga olinadi.

Yoshlarda uchraydigan muammolardan biri shaxsiy mustaqillikning cheklanishi. Ota-onaning ortiqcha nazorati va bosimi oqibatida ayrim yoshlar o‘z hayotiy maqsadini belgilash, muhim qarorlar qabul qilish, kasb tanlash, o‘zini anglashda ijtimoiy qaramlikka tushib qoladi. Bu holat jamiyatda malakali mutaxassislar yetishmasligiga olib keladi. O‘zbekiston Davlat Satira teatrida sahnalashtirilgan “Falsafa doktori” spektaklida ana shu masalalar o‘z ifodasini topgan.

Asarda yuqori quvvat, hayotiy so‘zlashuvlar, haqqoniy xarakterlar sezilib turadi. Voqealar Gogolning asarlaridagi o‘ta jiddiy masalalarni yengil kulgi ostiga yashirish va Molyerdagi beg‘ubor komik xarakterlarni eslatadi. Blagoye – Fazliddin Ochilov Jivotaga “Dumbul o‘g‘lingning o‘rniga Frayburgda kambag‘al Velimirni o‘qitishni kim senga maslahat berdi” derkan, Milorad haqidagi ilk tasavvurlar uyg‘onadi. Milorad – Zokir Abdukarimovning sho‘xliklari va axloqsizliklarini Mara – Amina Ibatulina yoshlik deb atarkan, Jivota – Azamat Qurbonboyev o‘z javobini aytadi: “Yoshlik?! Biz ham yosh bo‘lganmiz. Sen

yoshligingda oyna sindirganmisan? Yo‘q. Men ham sindirmaganman. Tushgacha uxlaydi – yoshlik, hech narsa qilmaydi – yoshlik, ko‘zguni sindiradi – yoshlik, qarz bo‘ladi – yoshlik. Agar bir marta bo‘lsa – yoshlik bo‘lar, axir har qadamda yoshlik”. Otasi Jivota o‘g‘li Milorad uchun qanchalik kuyib-pishmasin, uni professor, parlament a‘zosi, vazir qilish uchun bor imkoniyatlarini ishga solmasin, Milorad – olimlik, mansab hech qanday ahamiyatga ega emasligini ta’kidlab turadi. Otasining “Men seni professor qilaman. Yo‘o‘q, men seni parlament a‘zosi qilaman... Yo‘g‘a-a, parlament a‘zosi nima bo‘pti? Sen vazir bo‘lasan!” degan so‘zlariga, oddiygina “Men buning uchun tug‘ilmaganman”, deya javob beradi. Jivota chet elda o‘qish uchun o‘g‘lining o‘rniga Velimirni jo‘natib, unga soxta diplom olib berdi, o‘g‘lini olim sifatida tanitish maqsadida Velimirda ma’ruza yozdirib, o‘g‘li uchun katta auditoriyada ma’ruza tashkillashtirdi, o‘g‘lini barcha olim sifatida tan olishi uchun barchani sotib oldi. Ammo, oqibatda Miloradning ilmsizligi, qo‘liga yozib berilgan ma’ruzani shunchaki o‘qib berishni-da eplay olmasligi, uni katta auditoriya oldida sharmanda qildi.

Aktyorlar ijrosi haqida so‘z ketganda, barcha ijodkorlardagi tabiiylik, komik ruhiyat, obrazni teran his qilish satirik komediyada olib chiqilayotgan murakkab masalalarni oson hazm qilishda tomoshabinga yordam beradi, kayfiyatlar rang-barangligi, spektakl dinamikasining turli-tumanligi tomoshabinni zeriktirmaydi. Spektakl uchun Kamoliddin Rahimov tomonidan bolqon va serb xalqiga oid ko‘tarinki musiqalar tanlangan bo‘lib, ular spektaklning tepmo-ritmini, dinamikasini oshishiga hissa qo‘shgan.

Jahon dramaturgiyasida yoshlar mavzusining eng yuksak badiiy talqinlaridan biri Uilyam Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragediyasida o‘z ifodasini topgan. Ushbu asar yoshlar hissiyotining jo‘shqinligi, ijtimoiy to‘siqlar bilan to‘qnashuvi va fojiali oqibatlarini ko‘rsatish orqali muhabbat, adovat va murosasizlik kabi umuminsoniy muammolarni ochib beradi. Asarning zamonaviy sahna talqinlarida ham yoshlar ruhiyati, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va insoniy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyat markaziy o‘rinda turadi. Shekspir asarlarining

nafaqat poytaxt, balki viloyat teatrlarida ham muvaffaqiyatli sahnalashtirilishi o'zbek teatrlari rivojining yangi bosqichga ko'tarilayotganining bir belgisidek katta voqea sifatida qabul qilindi. Yangi o'zbek teatri tamal toshini qo'yishda o'z hissasini qo'shgan buyuk rejissyor va aktyorlar allaqachon teatr tarixiga muhrlagan asarlarni yana bir bor jonlantirish ijodkorlardan katta mas'uliyat, ijodiy quvvat talab etadi. Tragediya 2021-yilda ikki teatrdan ketma-ket sahnalashtirildi. Ya'ni, Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida Amangeldi Kudaynazarov tomonidan va O'zbek davlat drama teatrida Olimjon Salimov tomonidan sahnaga olib chiqildi.

Qoraqalpoq teatri uchun bu haqiqiy yangilik edi. Deyarli yarim asr davomida murojaat etilmagan Shekspir tragediyalariga qo'l urildi. Asar shoir va yozuvchi, tarjimon Uzaqbay Pirjanov tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi. Garchi qoraqalpoq tilida yangrasa-da, spektakl italyan muhitini, Shekspir ruhiyatini har bir obraz, har bir sahna, har bir ohang, musiqa va raqslarda bera olgan. Ya'ni, badiiy yaxlitlikka erishilgan. Aktyorlar ijrosida fojiaviylik ochilgan. Vaholanki, tragik holatlarni ochib berish uchun aktyorda mahorat va bilim bilan birga, o'tkir hissiy kechinma va katta "bogaj" – tajriba maktabi kerak. Ijroni tabiiy, oddiy, sodda, ta'sirli, jonli deyish mumkin. Rejissyor o'z talqinida ishq masalasi, uning yo'lidagi to'siqlarni ko'rsatishga urg'u bergan.

14–15 yosh insonda o'tish davri, bolalikdan kattalikka qadam qo'yish bosqichi hisoblangani uchun o'smirda hissiy-gormonal o'zgarishlar kechayotgan, kuch-quvvatga to'la davri hisoblanadi. Asarda yoshlarning qoni qaynoq, hislari esa o'zgaruvchan ana shunday nozik davrini ko'rish mumkin. Buni Romeo misolida yaqqol ko'ramiz. Romeo Rozalinani shu darajada sevar ediki, har tong o'rmonda bir o'zi yig'lab yurar, xonasida qorong'ulik va yolg'izlikda o'tirishni ixtiyor etardi. U sevgisi rad etilgan bo'lsa-da, Rozalinani ko'rish uchun dushmanining uyiga, bazmga bordi. U yerda Julyettani bir ko'rishdayoq sevib qoldi va eski muhabbatini bir zumda unutdi. Romeo – Rasul Tilemisov ana shu yoshlik sho'xliklaridan jiddiy muhabbat va nikoh qurish haqidagi mas'uliyatli qarorgacha bo'lgan hissiy

o'zgarishlarni zohiriy va botiniy kechinma jarayonlarini quvnoqlik va bosiqlik bilan parallel ravishda, har bir voqea bilan uyg'un holda ochib bergan. Xuddi shuningdek, Julyetta – Inkar Sarsenbayevada ham sho'xlik bilan jiddiylik noziklik bilan talqin etilgan. Julyettani shunchaki yosh qizaloq sifatida emas, balki uning balog'atli dard hamda iztirobli kechinmalarini aktrisa mohirona namoyish qilgan. Romeoni ham Rasul Tilemisov ijrosida biroz bosiq, jiddiy, dovyurak yosh yigit sifatida ko'ramiz. Talqin ayni Julyetta – Inkar Sarsenbayeva ijrosiga mos. Ikki yosh qahramon ham ancha mulohazali. Ya'ni, aktyorlarning tajribasi, yoshi, ularga ijroda diqqatni nimaga qaratishni, qanday yondoshishni ko'rsatgan holda, Romeo va Julyettani ruhiy tomondan anchayin ulg'aygan qahramonlar sifatida tasvirlashga zamin bo'lgan. Shu bilan birga, Romeo va uning do'stlarida yoshlik quvvati, jo'shqinlik, shaddodlik, qiziqqonlik, g'ayratlilik ufurib turadi.

Rejissyor A.Kudayberganov ko'p sahnalarda bugungi zamon talabi bo'lgan ortiqcha dialoglardan, bayonlardan, finalda ta'sirchan berilgan so'zlardan voz kechdi va aktyorlar xatti-harakati orqali o'zgacha yechim berdi va u o'zini oqladi. Masalan, bazm sahnasidagi Tibaltning noroziligi, enagani kutish sahnasi, final sahnasidagi uzun dialog va monologlar o'rniga xatti-harakat berilgan. Tomoshabin ortiqcha so'zlarsiz mizansahna, bir-biriga munosabatdan yakunni tushunadi.

“Rejissyorning yutug'i spektakl boshi va oxirida sahna bichimlaridan o'z o'rnida foydalana olgan va boshqacha yondashuv bilan asarni yakunlaganligi” [7, 311-b]. Ayni final sahnasida noodatiy, innovatsion yechimni ko'rish mumkin. Ikki yosh vafot etadi. Ularga oq libosli ikki farishta yo'l ko'rsatadi. Romeo va Jyuletta qo'l ushlagan holda ortida yig'lab qolayotgan o'z yaqinlariga bir qarab qo'yisharkan, farishtalar ko'rsatayotgan yo'l tomon ketadilar. Ortlarida esa ilgari dushman maqomida bo'lgan ota-onalari bir-birlarini quchoqlaganicha afsus chekib qoladilar. Ushbu sahna nur o'yinlari, qayg'uli va yuqori ritmli musiqa orqali yanada ta'siri kuchaytirilgan. Rejissyorning finaldagi talqini butun insoniyatga qaratiladi: “Insonlar ogoh bo'linglar, xudbinlik nima bilan tugashini ko'ring”, – degan g'oya o'rtaga tashlandi.

Qoraqalpoq teatri talqinida keskin rivoj, kulminatsiya biroz past tempda, bir tonda ko'rsatilgan bo'lsa, O'zbek davlat drama teatrida buning aksini, keskinlikni, tezkorlikni ko'rish mumkin. Olimjon Salimov aktyorlar holati, harakati orqali zarur sahnalarda yuqori temp berib, finaldagi eng tragik holatgacha to'g'ri yo'l ochgan. Spektaklda yaxlit holdagi kulgi, xursandchilikdan fojiagacha bosqichma-bosqich o'tilganini aktyor ijrosidagi to'g'ri yo'naltirilgan ovoz, tezlik, quvvat oshib borishi, musiqaning o'zgarib borishi, hatto yorug'likdan sezish mumkin. Asosiy qahramonlar Romeo va Julyettaning iztirobi, hissiyotlarining bari ochiqchasiga, norozilik ham, jo'shqin muhabbat hislari ham ravshan ko'rinadi. Julyetta – Gulrux Pirnazarova ijrosida sho'xlik, ta'sirchanlik, kuchli hissiyot, dadillik, ishonch, obrazga yengil yondashuv bilan ko'rinadi. Romeo – Begzod Zokirjonovda qiziqqon, sho'x va quvvatli, hissiyoti jo'shqin yosh yigitni ko'rish mumkin. Jamoa spektaklni bir to'lqinda, bir ohangda ijro etishgan. Olimjon Salimov ushbu spektakl orqali nizo falokatga olib kelishi haqidagi g'oyani ilgari surgan.

Drama teatri talqini haqida Hayriddin Sulton shunday yozadi: “Romeo va Julyetta” spektakli ... Uchinchi Renessans yo'lidagi yangi bir qadam bo'ldi, desak, inshoolloh, yanglishmasmiz” [8]. Bu holat yoshlar mavzusining milliy sahnadagi ifodasini klassik dramaturgik an'analar bilan integratsiyalash jarayonini tasdiqlaydi.

Tahlillardan xulosa qilish mumkinki, sahnaviy jarayonlarda an'anaviy, statik-dialektik ijro modelidan bosqichma-bosqich voz kechilib, zamon talablari bilan uyg'un holda dinamik harakat, temp va ritm ustuvorlik kasb etayotgani, shuningdek, yosh ijodkorlarning ichki energiyasi va psixofizik imkoniyatlaridan konseptual asosda foydalanilayotgani o'z isbotini ko'rsatmoqda.

Xorij asarlarida yoshlar mavzusining o'zbek sahnasidagi talqini bir avlodning badiiy timsolini yaratish bilan cheklanmay, balki davrning ijtimoiy-madaniy portreti, ma'naviy-axloqiy transformatsiyasi hamda ijtimoiy ong dinamikasini aks ettiruvchi estetik model sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa yoshlar mavzusini “ijtimoiy ko'zgu” funksiyasida tahlil qilish imkonini beradi.

Demak, zamonaviy o'zbek teatrida yoshlar mavzusi milliy doiradan chiqib, umuminsoniy muammolarni badiiy talqin etish vositasiga aylangan. Turli davr va makonlarga mansub asarlarning sahnalashtirilishi yoshlar hayotidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash, ularni estetik jihatdan anglash va tomoshabin ongiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *Ismoilov A. Zada bo'lgan avliyo // Teatr. – Toshkent, 2012. – № 4. – B. 9–10.*
2. *Кон И. Психология юношеского возраста: Проблемы формирования личности. – Москва: Просвещение, 1979. – 175 б.*
3. *Sulton X. Qish ichra bahor // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2022.*
4. *Tennesi W. A house not meant to stand: a gothic comedy. – NewDirections: Overdrive.com, 2008. – 95 p.*
5. *To'lxo'jayeva M. Teatr mavsumi xulosalari // Teatr. – Toshkent, 2018. – № 4. – B. 6.*
6. *Уильямс Т. Предназначено на слом. Перевод Мелковой П. – Москва: Гудьял-Пресс, 1999. [http:// www.lib-drama.narod.ru](http://www.lib-drama.narod.ru)*
7. *Xasanova U. Gugurt tutgan qizcha // Teatr. – Toshkent, 2014. – № 1. – B. 29.*
8. *Xojanov J. Romeo va Julietta Qoraqalpog'istonda // "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. Volume 5. Issue 2/April 2024. – B. 311.*

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Qo'g'irchoq teatri rejissyorligi magistranti  
E-mail: [alievanaazokat31@gmail.com](mailto:alievanaazokat31@gmail.com)

**“SEHRLANGAN SHAHZODA” BADIY-DRAMATURGIK  
XUSUSIYATLARI VA UNING SAHNAVIY TALQINI  
(QORAQALPOQ QO‘G‘IRCHOQ TEATRI MISOLIDA)**

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada M.Ashurovaning “Sehrlangan shahzoda” pyesasining badiiy-dramaturgik tuzilishi hamda uning rejissyor, dotsent A.Abduxalilov tomonidan Qoraqalpoq qo‘g‘irchoq teatridagi sahnaviy talqini chuqur ilmiy asosda tahlil qilinadi. Asarning g‘oyaviy mazmuni, konflikt tizimi, obrazlar evolyutsiyasi va ramziy qatlamlari yoritilib, rejissyorlik yechimlari, rang va yorug‘lik dramaturgiyasi, mizansahna va qo‘g‘irchoq hamda jonli aktyor uyg‘unligi kompleks tarzda o‘rganiladi. Spektaklning bolalar tarbiyasidagi o‘rni va zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri rivojidadagi ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** qo‘g‘irchoq teatri, dramaturgiya, sahnaviy talqin, ekologik tarbiya, ramziylik, mizansahna, rejissura.

**THE ARTISTIC AND DRAMATURGICAL FEATURES OF “THE  
ENCHANTED PRINCE” AND ITS STAGE INTERPRETATION (ON THE  
EXAMPLE OF THE KARAKALPAK PUPPET THEATRE)**

*Abstract.* This article provides an in-depth scientific analysis of the artistic and dramaturgical structure of M. Ashurova's play “The Enchanted Prince” as well as its stage interpretation at the Karakalpak Puppet Theatre directed by Associate Professor A. Abduhalilov. The study examines the ideological content of the work, the system of conflicts, character evolution, and symbolic layers. It also comprehensively explores directing solutions, color and lighting dramaturgy, mise-en-scène, and the interaction between puppets and live actors. The educational significance of the performance for children and its role in the development of contemporary puppet theatre are substantiated.

**Keywords:** *puppet theatre, dramaturgy, stage interpretation, ecological education, symbolism, mise-en-scène, directing.*

Zamonaviy teatr san'atida qo'g'irchoq teatri alohida yo'nalish sifatida nafaqat estetik, balki pedagogik va ijtimoiy funksiyani ham bajaradi. Ayniqsa, bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan spektakllarda badiiy ifoda vositalari orqali murakkab ijtimoiy va axloqiy g'oyalarni sodda va obrazli shaklda yetkazish dolzarb vazifalardan biridir.



“Teatrlarga mehr uyg'otish ishini bolalar o'rtasida boshlash katta ahamiyatga ega. Ular sahnadagi voqealar tufayli fikrlashga, xulosalar chiqarishga o'rganadilar. Teatr bola uchun yaxshi sirdosh, maslahatchiga aylanadi” [1, 45-b].

Maryam Ashurovaning “Sehrlangan shahzoda” pyesasi ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda inson va tabiat o'rtasidagi muvozanat, ekologik ong, axloqiy poklanish masalalari ko'tarilgan. Mazkur pyesaning Qoraqalpoq qo'g'irchoq teatri rejissyori, dotsent A'zamjon Abduxalilov tomonidan sahnalashtirilgan talqini ushbu g'oyalarni sahnaviy vositalar orqali chuqur ochib berishga xizmat qiladi.

Qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasi an'anaviy dramatik teatr dramaturgiyasidan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu yerda obrazlar

ko'proq ramziy, voqealar esa shartli ifodalanadi. Qo'g'irchoq teatri real hayotning nusxasi emas, balki uning badiiy modelidir. Qo'g'irchoq teatrida: obrazlar soddalashtiriladi, ammo ramziy ma'noga ega bo'ladi, harakat plastika orqali ifodalanadi, vizual ifoda (rang, shakl, yorug'lik) asosiy vositaga aylanadi. "Qo'g'irchoq teatr san'atining o'ziga xosligini anglagan mutaxassis – u rejissyor bo'lsin yoki aktyor, teatr bezakchisi yoki kompozitor, nurlar bo'yicha tasvirchi yoki ovoz operatorlari spektakl sahna obrazini, qahramonlar obrazlarini yaratishda aniq yo'llarni topa oladi" [2, 19-b].


Shu nuqtai nazardan "Sehrlangan shahzoda" spektakli qo'g'irchoq dramaturgiyasining barcha asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam etadi.



"Tanlangan asarning g'oyasi yorqin, syujeti ixcham, tushunarli, hatto kattalar uchun ham juda qiziq bo'lishi shart. Qo'g'irchoq teatri so'zamollikni ko'tarmaydi, g'oyani ochuvchi qiziq voqealar tomoshabin ko'z oldida sodir bo'lishini yoqtiradi". Asarning markaziy g'oyasi – insonning tabiatga bo'lgan munosabati va uning oqibatlaridir. Suv hayot manbai sifatida asosiy semantik markazni tashkil etadi. Quduq esa hayotiy energiya va tabiat muvozanatining timsolidir [3, 84-b].

Shahzoda obrazi evolyutsiyasi dinamik xarakterga ega. Bu evolyutsiya asarning dramatik asosini tashkil etadi. "Shahzoda – Qarg'a – Inson" metamorfozasi: axloqiy tarbiyada qahramonning tashqi ko'rinishi o'zgarishi bolalar uchun eng kuchli pedagogik elementdir. Qahramon evolyutsiyasi murakkab

psixologik yo'lni bosib o'tadi: u dastlab beparvo va shafqatsiz hukmdor, so'ngra jazoga uchragan mavjudot, undan keyin iztirob chekayotgan shaxs, oxir-oqibat xatolarini anglab yetgan va ibratli qahramonga aylanadi. Shahzodaning tabiatga nisbatan shafqatsizligi uni jazoga olib keladi. Bu jarayon orqali asarda ekologik va axloqiy muammo uyg'un holda ochib beriladi.



Asarda ramzlar tizimi muhim ahamiyatga ega: misol uchun, ramziy ma'noda suv – hayot manbai sifatida, quduq – tabiat muvozanati va hayotiy energiya timsoli (markazi) sifatida talqin qilinadi, qarg'a – jazolanish, tikanzor – vayronagarchilik, yashil o'rmon – uyg'unlik. Bu ramzlar sahnada vizual ifoda orqali kuchaytiriladi. Rejissyor quduqni markaziy mizansahna qilib tanlagan va barcha dramatik harakatlar aynan shu nuqta atrofida rivojlanib, kompozitsiyani mustahkamlaydi.



Rejissyor, dotsent A'zamjon Abduxalilov spektaklning g'oyaviy asosini to'liq anglagan holda, uni sodda, lekin chuqur mazmunli sahna tilida talqin "Rejissyor asarning mohiyatini to'g'ri anglash, ijodkorlarning qobiliyatini aniq baholsh barobarida bolalarning rangin dunyosining xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak. Bolalar tomosha jarayonida ham zavqlanishi, ham o'rganishi, ham aqlan va ma'nan rivojlanishi uchun qiziqarli spektakllar qo'yilishi lozim. Yosh tomoshabin estetik olamini to'g'ri shakllantirishda qo'g'irchoq teatrlarining mas'uliyati nihoyatda katta. Chunki bola qo'g'irchoqlar orqali millat, Vatan, inson haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiradi, uning ma'naviy olami qo'g'irchoqlar orqali shakllanadi" [4, 48-b]. Ushbu spektaklda rejissyorlik yondashuvi quyidagilarda namoyon bo'ladi: shartlilikka asoslangan sahna tili, ramziy ifodaning ustuvorligi, bolalar auditoriyasiga mos soddalik, sahna bezagi va makon dramaturgiyasi. Spektakl makoni ikki asosiy qarama-qarshilik asosida qurilgan. Yashil va jonli o'rmon, qurigan va halokatga uchragan makon. Bu qarama-qarshilik dramaturgik rivojga xizmat qiladi. Rang va yorug'lik dramaturgiyasi orqali sahnada quyidagi o'zgarishlar beriladi: yashil – hayot va uyg'unlik, qizil – halokat, binafsha – iztirob. Bu rang almashinuvi qahramon ichki holatini ifodalaydi.

"Sahnaning haqiqiy egasi bu aktyor. Shu sabab asarning ichki va tashqi ma'nolarini qunt bilan egallab olmog'i, o'zi ijro etayotgan obrazda yashamog'i lozim" [5, 120-b]. Spektaklda tabiat shunchaki fon emas, balki jonli, his qiladigan va o'zini himoya qila oladigan obraz O'rmon Parisi, gapiradigan daraxtlar sifatida namoyon bo'ladi. Spektaklning vizual va estetik yutuqlaridan yana biri – bu sahnada jonli aktyor O'rmon Parisi va qo'g'irchoqlarning bir-birini harakatlanishidir. Bu ikki qatlam sahnada parallel mavjud bo'lib, tomoshabinga boy estetik tajriba beradi.

Quduq markaziy mizansahna sifatida tanlangan. Barcha dramatik harakatlar shu nuqta atrofida rivojlanadi. Bu esa spektakl kompozitsiyasini mustahkamlaydi. Bolalar Shahzodaning tabiatga yetkazgan zarari (daraxtlarni kesish, suvni

ifloslantirish) qanday qilib uning o'ziga "qarg'ish" (jazo) bo'lib qaytganini ko'radilar.



Bu esa yosh tomoshabinda "Tabiatga nima qilsang, o'zingga qaytadi" degan hayotiy xulosani shakllantiradi. An'anaviy ta'limda tabiatni asrash ko'pincha quruq faktlar orqali o'rgatilsa, "Sehrlangan shahzoda" spektakli buni emotsional tajriba orqali amalga oshiradi. Asarning pedagogik cho'qqisi – xatoni tan olish va uni tuzatish imkoniyati borligidir. Shahzodaning qayta insonga aylanishi uchun u tabiatdan uzr so'rashi va uni qayta tiklashi kerak. Bu bolalarda mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. Shahzoda chiroyli bo'lganida qalbi xunuk edi, qarg'aga aylanganda esa uning qalbi "tozalana" boshlaydi. Bu orqali bolalarga haqiqiy go'zallik tashqi ko'rinishda emas, balki amal va niyatda ekanligi uqtiriladi. "Sehrlangan shahzoda" spektakli shunchaki sahna asari emas, balki kuchli tarbiyaviy-pedagogik vosita vazifasini ham o'taydi. U yosh tomoshabinlarda tabiatga hurmat, rahm-shafqat, ekologik mas'uliyat va teran ongini shakllantirishda muhim o'ringa ega. "Sehrlangan shahzoda" pyesasi va uning sahnaviy talqini qo'g'irchoq teatri san'atining zamonaviy rivojlanishidagi muhim namunadir. "Odatda aktyorlar qo'g'irchoq teatrida yangi pyesa yoki rassom eskizi qabul qilinganda bu bizning yo'nalish yoki bizning yo'nalish emas deb baholashadi. Ba'zida esa bu – qo'g'irchoqniki yoki qo'g'irchoq teatriga mansub emas deya muhokama qilishadi" [6, 3-b]. M.Ashurovaning "Sehrlangan shahzoda" pyesasi o'zining tarbiyaviy, badiiy – dramatik jihatdan boy uzilganligi tufayli, nafaqat qo'g'irchoq teatri

sahnasi uchun balki, Respublikaning barcha yosh tomoshabinlarga mo'ljallangan teatrlarida zaruriy repertuar o'rnida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Qoraqalpoq qo'g'irchoq teatrida rejissyor, dotsent A'zamjon Abduxalilov tomonidan sahnalashtirilgan "Sehrlangan shahzoda" spektakli badiiy jihatdan mukammal, sahnaviy jihatdan puxta va tarbiyaviy jihatdan yuqori ahamiyatga ega asar sifatida baholanadi. Mazkur spektakl qo'g'irchoq teatrining imkoniyatlarini to'liq namoyon etgan holda, zamonaviy bolalar teatrining yorqin namunasi sifatida e'tirof etilishi lozim.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. *Aktyorlik mahorati*. – Toshkent: O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti, 2012. – 200 b.
2. Korolev M. *Искусство театра кукол*. – Ленинград: Искусство, 1973. – 108 с.
3. Qodirov M., Qodirova S. *Qo'g'irchoq teatri tarixi*. – Toshkent: Talqin, 2006. – 180 b.
4. Ashurova M. *Rejissura va qo'g'irchoq teatrlari // Teatr jurnali*, 2021. – №3. – B. 17–21.
5. Ashurova M. *Aktyorlik mahorati*. – Toshkent: Innovatsiya–Ziyo, 2021. – 210 b.
6. Usmonov R. *Rejissura*. – Toshkent: Fan, 1997. – 160 b.
7. Ikromov H. *Davr va teatr*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 200 b.
8. Ikromov H. *Respublika qo'g'irchoq teatrlari: repertuar, rejissura, aktyor ijrosi // Teatr va yosh avlod*, 2012.
9. Yo'ldoshev T. *Qo'g'irchoq teatri san'atining o'ziga xosligi, hozirgi kundagi o'rnini va muammolari // Teatr va yosh avlod*, 2012.
10. Abduxalilov A. *Qo'g'irchoq teatri rejissurasi*. – Toshkent: ART Press, 2020. – 120 b.

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Aktyorlik san'ati: dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati  
mutaxassisligi magistranti  
E-mail: dnrodilova@gmail.com*

## **TURK, KOREYS VA O'ZBEK SERIALLARI: O'XSHASHLIK VA IJODIY TAFOVUTLAR TAHLILI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola bugungi kun ekran san'atining jozibali olamida turk va koreys seriallarining muvaffaqiyat sirlari hamda o'zbek serialchiligining joriy holati haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga, Sharqona qadriyatlarning zamonaviy ekrandagi aksini tahlil qilarkan, nega milliy seriallarimiz hamon oddiy maishiy mavzular iskanjasida qolayotganini kuyunchaklik bilan mushohada qiladi. Maqolada jahon tajribasiga tayangan holda, yuksak bilim va boshqaruv salohiyatiga ega bo'lgan yangi zamon qahramonlari paydo bo'lishi kerakligi badiiy tilda asoslab berilgan. Milliy seriallarni millatning o'zligini anglatuvchi kuchli bir ko'zgu ekanini anglatishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** teleserial, o'zbek seriallari, ekran san'ati, milliy o'zlik, badiiy tafakkur, tomoshabin.*

## **TURKISH, KOREAN AND UZBEK TV SERIES: ANALYSIS OF SIMILARITIES AND CREATIVE DIFFERENCES**

***Abstract.** This article analyzes the factors behind the success of Turkish and Korean TV series within contemporary screen culture and examines the current state of Uzbek TV series. It also explores the representation of Eastern values in modern media and critically examines the tendency of national TV series to remain limited to everyday themes. Based on international experience, the study substantiates the need for the emergence of a new type of protagonist characterized by high intellectual capacity and leadership potential. The study demonstrates that national TV series function as a powerful medium for expressing national identity.*

**Keywords:** *TV series, Uzbek TV series, screen art, national identity, artistic thinking, audience.*

Bundan bir necha o'n yil avval o'zbek tomoshabini uchun Lotin Amerikasining uzun va adog'i yo'q seriallari yangilik edi. Biroq bugungi kunga kelib, ekranlarni Sharq falsafasi va qadriyatlariga yaqin bo'lgan Turkiya va Janubiy Koreya mahsulotlari egalladi. Shu bilan birga, milliy serialchilik ham o'z yo'lini topishga harakat qilmoqda. Bu uch yo'nalish o'rtasidagi o'xshashliklar va tafovutlarni anglash, bizga milliy ekran san'atining istiqbolini belgilashda yordam beradi. Zamonaviy fikr tarafdorlari nazarida, bugun bosma davriy nashrlar singari televideniyaning ham davri o'tdi. Ularning fikricha, asosiy auditoriya allaqachon ijtimoiy tarmoqlarga ko'chib o'tgan. To'g'ri, bu gapda asos bor. Ammo unga to'liq qo'shib bo'lmaydi. Shu ma'noda televideniye hamon muhim targ'ibot vositasi va millionlab auditoriyasiga ega. Ayniqsa, ko'ngilochar dasturlar, seriallarning ishqibozi istagancha topiladi. Afsuski, "Bugun tomoshabinga "milliy serial" yorlig'i ostida taqdim etilayotgan ijodiy mahsulotlarning sifati, saviyasi, milliy qadriyat va an'analarga xosligi qay darajada?" degan savolga javob yo'q.

Televideniye kanallarida tomoshabin eng ko'p yig'iladigan paytda asosan milliy seriallarimiz namoyish etiladi. Ularni kuzatar ekansiz, xayolingizda "Bunday seriallar orqali qachongacha millatning, o'zimizning ustimizdan kulamiz?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Ustiga-ustak, bunday tomoshalar fahsh, manmanlik, kibr, odamlarni mensimaslik kabi illatlarni targ'ib etuvchi vositaga aylanib qolayotgani achinarlidir. Qonunni mensimaslik, zo'ravonlik, odamlarning yupun hayotini masxara qilish holatlarini aytmasa ham bo'ladi [1, 4-b].

Seriallar olami inson ruhiyatining turli qirralari aks etgan ulkan ko'zgudir. Turk seriallaridagi ehtirosli nigohlar va koreys dramalaridagi nafis sukunat zamirida, aslida, har bir inson talpinadigan mehr va adolat izlanishlari yashiringan. Yana bir jihati endilikda, oddiy maishiy muammolar emas, qalbning eng nozik

torlarini chertadigan, tomoshabinni o'zi bilan yuzma-yuz kelishga undaydigan yuksak badiiy tasvirlar namoyon bo'lishi ma'naviy ehtiyojga aylanmoqda.

Sababi, san'atning vazifasi shunchaki hayotni nusxalab efirga uzatish emas, uning mazmuniga nur bag'ishlashdir. Ekrandagi har bir lavha tomoshabinning didini tarbiyalashi, uning dunyoqarashini kengaytirishi va milliy o'zlikni zamonaviy talqinda anglatishi lozim. Qachonki, bizning ijod namunalarimiz ham jahon ekranlarida "bizning madaniyat nafasi" sifatida qabul qilinsa, shundagina san'atning asl maqsadiga erishilgan bo'ladi. Ekrandagi mazmunsizlik o'rnini yuksak ijodiy tafakkur egallaydi.

Bunday yuksak maqsadlarga erishish uchun oilaviy nizolar yoki qaynona-kekin mojarolaridan iborat tor doiradan chiqish, ijodiy izlanishlarning gorizontini kengaytirishi darkor. Tomoshabin qalbida milliy g'urur va ertangi kunga ishonch uyg'otish uchun bizga yangi qahramonlar, yangi kurashlar va zamonaviy muvaffaqiyat qissalari suv bilan havodek zarur. Aslida, bugungi kun qahramoni faqat maishiy tashvishlar ichida qolgan inson emas, dunyo bilan bo'ylashayotgan, ijodkor va yaratuvchan shaxs qiyofasida namoyon bo'lishi lozim. Afsuski, real hayotdagi bunday shiddatli o'zgarishlar va yutuqlar hali-hamon milliy ekranlarimizda o'z ifodasini to'laqonli topgani yo'q.

Keyingi to'rt-besh yil ichida namoyish etilgan ko'plab seriallarning mavzusi o'zaro yaqin, aniqrog'i, bir-birining takrori. Bu xususda yuqorida aytib o'tdik. Xo'sh, nahotki boshqa mavzu bo'lmasa? Ko'zni kattaroq ochib, bugungi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi yangi o'rnini, ijtimoiy-ma'naviy mavqeiga, odamlar, yoshlar hayotiga chuqurroq nazar tashlaylik. Yoshlarimizning ilm-fan, san'at, sport, tadbirkorlik va boshqa sohalarda erishayotgan yutuqlari, dunyoning havasiga sazovor bo'layotgan natijalari qiziqarli serial bo'lishi mumkin-ku? Davlatimiz rahbarining AQShda yosh vatandoshlar bilan uchrashuvida bildirilgan fikrlar, o'zga yurtda, o'zgacha sharoitda yashab, o'zbekligini unutmagan, millat farovonligi uchun xizmat qilishni niyat qilib, havas qilarli natijalarga erishayotgan yoshlar, o'zimizda zamonaviy zavod-fabrikalar qurib, million-million dollarlik

mahsulotni xorijga eksport qilayotgan navqiron tadbirkorlar haqida film, serial ishlash nega rejalarimizda yo'q? Buning sababi bitta, murakkab mavzu ustida bosh qotirgandan ko'ra, ijara uyida divanga yonboshlab yotib, navbatdagi pufak serialni shitob boshlash va tugallash oson. Ijod – to'la ma'noda erkin faoliyat. Bu borada hech kimga to'siq qo'yilishi mumkin emas. Ammo istiqlol bergan bu buyuk imkoniyatdan qanday maqsadda foydalanish – boshqa masala. Shunday ekan, serial ishlab chiqarish tizimini jiddiy qayta ko'rib chiqish, havaskor "oshpaz"larning sifatsiz "cho'zma lag'mon"i dan qutulish vaqti yetib kelganini unutmaylik [2, 8-b].

Keling, nigohimizni dunyo tan olgan ekran asarlariga qarataylik. Nega Janubiy Koreyaning "Saroy javohiri" (Tangem) seriali kichik bir mamlakat chegarasidan chiqib, butun olamni zabt etdi? Bu asar shunchaki bir oshpaz qizning taqdiri emas, inson irodasining yengilmasligi, milliy taomlar orqali madaniyat va tibbiyotning nafis uyg'unligini tarannum etgan falsafiy doston edi. Tangem obrazi orqali koreys xalqi o'z tarixini, nafosatini va fidoyilik qadriyatlarini jahonga ko'rsata oldi.

Turkiyaning "Kyosem Sulton" tarixiy dramasini olsak, unda saroy o'yinlari yoki hashamatli liboslarnigina aks ettirib qo'ymagan, davlat boshqaruvidagi mas'uliyat, shaxs va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi murakkab to'qnashuvlar mahorat bilan chizilgan. Bu seriallar tomoshabinga vaqt o'tkazishni emas, o'zligini anglashni, maqsad sari sobitqadamlik bilan intilishni o'rgatadi. Ularda har bir kadr, har bir dialog zamirida ulkan ijodiy tafakkur va milliy g'urur yotganligini ko'rishimiz mumkin. Xo'sh, bizga shunday badiiy quvvatga ega ssenariy va seriallar kerakmi? Albatta! Bizga bugungi kunning "Tangem"lari kerak. Zamonaviy ilm-fan laboratoriyalarida dunyoni o'zgartirayotgan olimlarimiz, jahon bozorlarini zabt etayotgan yosh tadbirkorlarimiz, o'z kasbining haqiqiy javohiri bo'lgan zamondoshlarimiz, haqida yuksak san'at asarlari yaratish vaqti keldi. Biz "pufak seriallar"ning yengil changidan qutulib, tariximizning zabardast siymolari va bugungi kunning shijoatli qahramonlarini ekranga olib chiqishimiz

shart. Bugun O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida yangi bir uyg'onish nafasi sezilmoqda. Davlat boshqaruvining murakkab sohalarida, xalqaro maydonda shiddatli maydonlarida va ezgu ijtimoiy loyihalar markazida aynan mana shunday "zamon Kyosemlari", tafakkuri tiniq, irodasi po'lat, intellektual salohiyati ummon kabi teran yetakchilar bo'y ko'rsatmoqda. Ularning har bir qarorida yurak ehtirosi va sovuqqon mantiq va vatanparvarlik tuyg'usi mujassam. Bu ayollar va yosh yetakchilar o'zlarining yuksak boshqaruv mahorati bilan jamiyatning eskirgan qarashlarini parchalab, taraqqiyotning yangi ufqlarini ochmoqdalar. Bizga ekran orqali aynan mana shunday ruhiyati yengilmas, tafakkuri chegara bilmas zamondoshlarimizning jonli siymolari kerak. Millatning ijodiy salohiyati "cho'zma lag'mon"lar bilan emas, "Saroy javohiri" yoki "Kyosem Sulton" darajasidagi salmoqli, dunyo havas qiladigan, ekran san'atining asl namunasi bo'la oladigan asarlar bilan o'lchanadi. Bugungi o'zbek tomoshabini shunday yuksak badiiy mahsulotga munosibdir.

Biroq, bunday yuksak badiiy cho'qqilarga intilish jarayonida biz tanganing ikkinchi tomoniga, seriallarning inson ongiga o'tkazadigan tinimsiz va ba'zan sezilmas ta'siriga ham hushyorlik bilan qarashimiz lozim. San'at noto'g'ri qo'llarda ma'naviy qiyofani yemiruvchi qurolga ham aylanishi mumkin. Shu sababli, ekran san'atiga millat axloqini shakllantiruvchi mas'uliyatli jarayon sifatida yondashish bugungi kun ziyolilari va ijodkorlari oldidagi eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Quyidagi fikrlar esa soha vakillari va mutaxassislarining bu boradagi xavotirlari hamda mavjud muammolarga ichkaridan nazarini ifodalaydi.

"Seriallar qaysi davlatniki bo'lishidan qat'i nazar, munosabatim yaxshi emas, – debdi adabiyotshunos Muhayyo Yo'ldosh. – Chunki davomiy bo'lgan narsaning boshqaruvda ahamiyati katta. Odamni ergashtirish, fikrini o'zgartirish, tarbiyasi, axloqiga ta'sir qilish yo'li davomli jarayondir. "Tomchi toshni teshadi", degan maqol bejiz emas. Men seriallarni zaharli tomchiga o'xshataman. Istalgan millatni o'z qiyofasidan, axloqiy tutumlaridan, qonuniyatlaridan, qadriyatlaridan

begona qiladi". Yosh rejissyor Baxtiyor Safarov: "Tan olish kerak, seriallarimizda tarbiyaviy ahamiyatga ega sahnalar, ta'sirli dialoglar ham bor. Lekin odamni asabiylashtirib, jazavaga tushiradigan epizodlar bisyor. Gonorari qimmat va qadri baland bo'lgan aktyorlar ham sifatli filmlar yo'qligi hamda pul uchun seriallarda suratga tushishga majbur bo'lmoqda. Ular ham oilasini boqib, tirikchilik qilishi kerak, yaxshi kinolarga taklif kutib, vaqtini o'tkazmaydi-ku. Shu sabab ko'plab professional aktyorlarning darajasi tushib ketyapti. Hozir "o'zbek seriallarini ko'rmayman", degan gapni ko'pchilikdan eshitamiz. O'zini hurmat qiladigan, o'z ustida ishlaydigan, vaqtini qadrlaydigan auditoriya, ya'ni ziyoli qatlam o'zbek serialini ko'rmayapti. Bu – haqiqat!" [3, 4-b].

Darhaqiqat, turk seriallaridagi ehtiroslar silsilasi yoki koreys dramalaridagi nafis ramzlar zamirida yillar davomida sayqallangan professional mehnat va tomoshabin didiga bo'lgan yuksak ehtiram yotadi. Ular o'z milliy qiyofasini dunyoga ko'z-ko'z qilarkan, har bir kadrni zargarona aniqlik bilan ishlaydilar. Bizning milliy seriallarimizda esa, afsuski, ba'zan mana shu zahmat va mas'uliyat o'rnini yengil-yelpi ijod egallab qo'yayotgandek. Agar biz turk rejissyorlarining vizual estetikasidan va koreys ssenariynavistlarining teran mantiqidan andoza olib, uni o'z milliy qadriyatlarimiz bilan sug'ormasak, ekranlarimiz "qiziqarsiz seriallar" maskani bo'lib qolaveradi. Haqiqiy san'at tomoshabinni shunchaki ekran qarshisiga mixlash emas, uning ma'naviy dunyosini boyitish, "Tangem" yoki "Kyosem" kabi kuchli xarakterlar orqali millatning irodasini uyg'otish demakdir. Bunday badiiy mas'uliyatni his etmaslik esa sohaning ma'naviy inqiroziga qo'yilgan birinchi qadamdir.

Xamirning zuvalasi qancha ko'p iylansa, tabiiyki undan mag'zi to'q, mazali non chiqadi. "Mendan ketguncha..." qabilida ish tutishni bas qilaylik, serialga qo'l urishdan avval xalqimizning mentalitetini, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini nazardan qochirmaylik. Aks holda, qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarish hech gap emas. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, turk va koreys seriallarining jahon miqyosidagi zafari milliy madaniyatni zamonaviy san'at tiliga mahorat bilan ko'chira olish

natijasida yuzaga kelgan fenomendir. Bugungi o'zbek serial industriyasi esa o'z taraqqiyotining muhim chorrahasida turibdi.

Biz endilikda maishiy muammolar va “pufak seriallar” doirasida qolib ketmasligimiz, boshqaruvida o'z so'zini aytayotgan qiyofasini ekranga olib chiqishimiz shart. Milliy serialchilik millatning ma'naviy immunitetini mustahkamlovchi, uning yutuqlarini dunyo hamjamiyatiga tanituvchi “yumshoq kuch”ga aylanayotgani quvonarli holatdir. O'zbek tomoshabini ekranda o'zining ichki dunyosini boyitadigan, ruhiyatini yuksaltiradigan va yangi zamon qahramonlari bilan yuzlashtiradigan asarlarni ko'rishga munosib. Qachonki bizning seriallarimiz ham o'z milliy ruhi va yuksak sifati bilan jahon ekranlarida “O'zbekiston nafasi” sifatida qabul qilinsa, san'atning asl muddaosi shundagina hosil bo'ladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Madiyorov B. *Ekrandagi bemaza seriallar... Ulardan kimga foyda-yu kimga ziyon? // gaz. Yangi O'zbekiston. – Toshkent: “Poligraf-Press” MCHJ, 2024. – № 99 (216). – 4 b.*
2. Meliboyev A. *“Cho'zma lag'mon” yoxud milliy seriallar mazmuniga yana bir nazar // gaz. – Toshkent: Sharq, 2025. – Jadid № 43 (95). – 8 b.*
3. Omad M. *Haftaning bir kuni “serialsiz kun” deb belgilansa...// gaz. Adolat. – Toshkent: “Sharq” NMAK. 2024. – № 16 (1482). – 4 b.*

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Qog'irchoq teatri aktyorligi mutaxassisligi magistranti  
E-mail: shaxbozali703@gmail.com*

## SUN'IY INTELEKT ASRIDA QOG'IRCHOQ TEATRI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining qog'irchoq teatri san'atiga ta'siri, uning rivojlanish jarayoniga qo'shayotgan innovatsion imkoniyatlari hamda an'anaviy teatr shakllari bilan uyg'unlashuvi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot davomida sun'iy intellektning sahna jarayonlari, ovoz va harakat boshqaruvi, dramaturgiya hamda tomoshabin bilan interaktiv muloqotdagi afzalliklari keng tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, qog'irchoq teatri, raqamli texnologiyalar, interaktivlik, innovatsiya, aktyorlik, teatr san'ati.*

## PUPPET THEATER IN THE AGE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

***Abstract.** This article examines the impact of artificial intelligence technologies on the art of puppet theater, highlighting the innovative opportunities they bring to its development as well as their integration with traditional theatrical forms. The study provides a comprehensive analysis of the advantages of artificial intelligence in stage processes, voice and movement control, dramaturgy, and interactive communication with the audience.*

***Keywords:** artificial intelligence, puppet theater, digital technologies, interactivity, innovation, acting, theatrical art.*

Raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi asrda san'atning barcha yo'nalishlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari sahna san'ati, teatr va qog'irchoq teatrining rivojlanishida muhim o'rin egallay boshladi. Qog'irchoq teatri qadimiy san'at turi bo'lib, asrlar davomida bolalar va kattalar uchun ma'naviy, estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. XXI asrning yangi texnologiyalari esa ushbu an'anaviy

san'at shakliga yangicha yondashuv, raqamli tajribalar, avtomatik boshqaruv va interaktivlik olib kirmoqda.

### **Sun'iy intellektning qo'g'irchoq teatriga kirib kelishi**

So'nggi yillarda sun'iy intellekt nafaqat ilmiy tadqiqotlar yoki sanoatda, balki san'at sohasida ham faol qo'llanilmoqda. Qo'g'irchoq teatrida SI qo'g'irchoqlarning harakatlanishini avtomatlashtirish, ovoz boshqaruvi, sahna yorug'ligi va effektlarni optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat texnik qulaylik, balki ijodiy jarayonning yangi qirralarini ochadi. Avtomatlashtirilgan harakat va mimika An'anaviy qo'g'irchoq teatrida harakatlar to'liq inson qo'liga bog'liq bo'lgan. Sun'iy intellekt yordamida qo'g'irchoqlarni sensordan keladigan ma'lumotlar asosida harakatlantirish, mimik reaksiyalarni aniqlash, sahnadagi vaziyatga mos ravishda avtomatik tarzda javob berish imkoniyati mavjud. Bu jarayon qo'g'irchoq teatrini yanada realistik, jonli va zamonaviy ko'rinishga keltiradi. Sun'iy intellekt asosidagi ovoz texnologiyalari SI ovoz yaratish, ovozni tanish va qayta ishlash texnologiyalari yordamida qo'g'irchoqlar bir nechta ovozda gapira olishi, turli xarakterlarga mos ovoz effektlarini yaratishi mumkin. Bu, ayniqsa, bolalar uchun mo'ljallangan spektakllarda obrazlarning jonlanishida katta rol o'ynaydi.

### **Interaktiv sahna va tomoshabin bilan muloqot**

Raqamli loyihalash asosidagi sahna konstruksiyasi SI bilan birga ishlaganda, tomoshabin harakatlarini tanib, ularning reaksiyasiga mos ravishda sahna o'zgarishi mumkin. Masalan, bolalar qarsak chalganida qo'g'irchoq kulishi yoki sahna yorug'ligining o'zgarishi – bu kabi interaktivlik tomoshabinlarni yanada jalb etadi.

### **Dramaturgiya va sun'iy intellekt**

Bugungi kunda SI matn yaratish, ssenariy tuzish va dramatik kompozitsiyalarni shakllantirishda yordamchi vosita sifatida ishlatilmoqda. Qo'g'irchoq teatrida ssenariy yaratish jarayoniga SI jalb etilishi ijodkorlarga yangi g'oyalar, yangi sahna yechimlari va o'ziga xos dramaturgiya yaratish imkonini

beradi. Qo'g'irchoq teatri ta'lim jarayonida sun'iy intellektning o'rni Maktablar, san'at maktablari va teatr studiyalarida qo'g'irchoq teatri bo'yicha ta'lim jarayoniga SI texnologiyalarini joriy etish, o'quvchilarga harakatni modellashtirish, ovoz sintezini o'rganish, sahna rejasini avtomatik yaratish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. An'anaviylik va innovatsiya uyg'unligi Qo'g'irchoq teatri o'z an'anaviy uslublari bilan qadrlidir. Shunga qaramay, sun'iy intellekt ushbu an'anani buzmaydi, aksincha uni boyitadi. Natijada teatr san'atining qadimiyligi va zamonaviy davr texnologiyalari uyg'unlashgan yangi ko'rinish shakllanadi.

Sun'iy intellekt asrida qo'g'irchoq teatri yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat ijodiy jarayonni boyitadi, balki tomoshabin tajribasini ham yangilaydi. Avtomatlashtirilgan harakat, ovoz, yorug'lik effektlari, interaktivlik va raqamli dramaturgiya qo'g'irchoq teatrining kelajakda yanada ommalashishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, an'anaviy teatr tamoyillari saqlangan holda, innovatsiyalarni qabul qilish san'atning rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning qo'g'irchoq teatri sohasiga kirib kelishi bugungi kunda nafaqat texnologik yangilik, balki tarbiyaviy va estetik jarayonlarga ta'sir o'tkazayotgan muhim hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq shuni unutmaslik kerakki, har qanday texnologik yutuq singari sun'iy intellektidan foydalanishda ham ma'lum ehtiyot choralari amal qilish zarur. Shuningdek, vizual va audio effektlarning ko'pligi tomoshabinlarda charchoq, diqqatning sustlashuvi yoki ortiqcha hayajon kabi holatlarni yuzaga keltirishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois, sun'iy intellekt asosidagi qo'g'irchoq teatridan foydalanishda eng maqbul yo'l – an'anaviy teatr tamoyillari va zamonaviy texnologiyalarni oqilona uyg'unlashtirishdir. AI texnologiyalari sahna jarayonini boyitishi, qiziqarli ta'limiy ko'rinishlar yaratishi mumkin, biroq bu jarayon pedagogik mas'uliyat va psixologik yondashuv bilan muvozanatli tarzda olib borilganda samarali bo'ladi. Umuman olganda, sun'iy intellekt qo'g'irchoq teatriga yangi imkoniyatlar ochadi, lekin bu imkoniyatlardan to'g'ri va mas'uliyat bilan foydalanish bolalarning sog'lom rivojlanishi, estetik didi va tafakkuri uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu sababli AI texnologiyalari qo'llanilayotgan sahna asarlarida tomoshabinning yosh xususiyatlari, psixologik ehtiyojlari va tarbiyaviy maqsadlar har doim ustuvor o'rinda bo'lishi kerak.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Karimov A. *Teatr san'ati va zamonaviy texnologiyalar.* – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 180 b.
2. Raxmonov D. *Raqamli madaniyat va uning san'atga ta'siri.* – Samarqand: Zarafshon, 2021. – 165 b.
3. Hasanboyeva M. *Qo'g'irchoq teatri tarixi va rivojlanishi.* – Toshkent: Fan, 2019. – 200 b.
4. Bryson J. *Artificial Intelligence and the Arts.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2022. – 120 p.
5. Miller T. *AI in Creative Performance.* – New York: Springer, 2023. – 137 p.

**Rasuljon Tog'oykulov**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Dramatik teatr rejissyorligi mutaxassisligi magistranti  
E-mail: rasulbek0215@gmail.com*

## **TEATR SAN'ATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: EVOLYUTSIYA, ESTETIKA VA PERSPEKTIVALAR**

***Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy teatr san'atida raqamli texnologiyalarning o'rni, evolyutsiyasi va kelajakdagi istiqbollari tadqiq etiladi. Muallif an'anaviy teatr makonining "gibrid makon"ga aylanish jarayonini, raqamli ssenografiya, video-mapping, VR (virtual borliq) va AR (to'ldirilgan borliq) texnologiyalarining sahnadagi estetik funksiyalarini tahlil qiladi. Shuningdek, sun'iy intellektning (AI) dramaturgiya va aktyorlik mahoratidagi hammualliflik roli hamda O'zbekiston milliy teatrlarida (O'zbek Milliy akademik drama teatri, "Ilhom" teatri va b.) raqamli innovatsiyalarning joriy etilish darajasi ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida texnologik taraqqiyot sharoitida teatrning "jonli nafasini" saqlab qolishning etik va estetik muammolari bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** raqamli teatr, video-mapping, gibrid makon, immersivlik, generativ ssenografiya, sun'iy intellekt, VR va AR, raqamli egizaklar, media-aktyorlik, O'zbekiston teatri.*

## **USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THEATRE ART: EVOLUTION, AESTHETICS, AND PERSPECTIVES**


***Abstract.** The article explores the role, evolution, and future prospects of digital technologies in modern theater arts. The author analyzes the transformation of traditional theater space into a "hybrid space", examining the aesthetic functions of digital scenography, video mapping, VR (Virtual Reality), and AR (Augmented Reality) on stage. Furthermore, the co-authoring role of Artificial Intelligence (AI) in dramaturgy and acting, as well as the implementation of digital innovations in Uzbek national theaters (such as the Uzbek National*

*Academic Drama Theater, "Ilkhom" Theater, etc.), are discussed. The article concludes by addressing the ethical and aesthetic challenges of preserving the "liveness" of theater in the age of rapid technological progress.*

**Keywords:** *digital theater, video mapping, hybrid space, immersivity, generative scenography, artificial intelligence, VR and AR, digital twins, media acting, theater of Uzbekistan.*

Teatr san'ati o'z tabiatiga ko'ra sinkretik janr bo'lib, u doimo o'z davrining texnik yutuqlarini o'zlashtirib kelgan. Biroq, XXI asrning birinchi choragida yuz bergan raqamli transformatsiya teatrning nafaqat vizual ko'rinishini, balki uning ontologik asoslarini ham o'zgartirib yubordi.

Bugungi kunda "Raqamli teatr" (Digital Theatre) tushunchasi shunchaki sahnada proyektor ishlatishni emas, balki jonli ijro va kompyuter texnologiyalarining uzviy sintezini anglatadi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, an'anaviy teatr makoni endilikda "gibrid makon"ga aylanmoqda, bu yerda jismoniy aktyor va virtual obraz bir xil huquqiy maqomda namoyon bo'ladi. Bu jarayon dramaturgiyadan tortib, rejissura va aktyorlik maktabigacha yangi talablarni qo'yimoqda.



## **Raqamli ssenografiya: vizual muhitning transformatsiyasi**

An'anaviy teatrda dekoratsiya tushunchasi statik va moddiy xarakterga ega edi. Raqamli texnologiyalar esa "dinamik ssenografiya" tushunchasini olib kirdi. Dekoratsiyadan "Muhit"ga o'tish: An'anaviy ssenografiyada asosiy vazifa voqea sodir bo'layotgan joyni (lokatsiyani) moddiy ashyolar orqali ko'rsatish bo'lsa, raqamli ssenografiyada asosiy urg'u "atmosfera" va "dinamika"ga qaratiladi. Raqamli ssenografiya – bu shunchaki sahnadagi rasm emas, balki aktyor bilan birga nafas oluvchi, o'zgaruvchan tirik organizmdir. Masalan: Video- mapping.

### **Video-mapping: Makon arxitekturasi**

**3D Video-mapping** texnologiyasi sahnadagi har qanday relyefli yuzani ekran sifatida ishlatish imkonini beradi. Bu usul yordamida klassik pyesalardagi mo'jizaviy o'zgarishlarni (masalan, "Shoh Edip"dagi saroyning ko'z o'ngida nurashi yoki "Gamlet"dagi arvohnning paydo bo'lishi) moddiy dekoratsiyalarsiz amalga oshirish mumkin.

**Texnik jihati:** Bu jarayonda bir necha yuqori quvvatli proyektorlar (kamida 20,000 lumen) yagona serverga ulanadi va maxsus dasturlar (Masalan, MadMapper yoki Resolume) orqali sahnaning 3D modeli ustiga vizual qatlam tushiriladi.

**Estetik jihati:** Tomoshabin fazo va vaqt tushunchasini yo'qotadi, bu esa "immersivlik" (ichiga sho'ng'ish) effektini beradi. 3D mapping texnologiyasi ssenografiyada inqilob yasadi. Uning mohiyati shundaki, maxsus dasturlar (Revolume, Watchout) yordamida sahnadagi har bir fizik elementning (ustunlar, zina, mebel) raqamli egizaki yaratiladi.

**Lazerli skanerlash:** Murakkab dekoratsiyalar lazer yordamida skanerlanadi va proyeksiyaning har bir pikselyi dekoratsiyaning relyefi bilan 100% mos tushishi ta'minlanadi.

**Optik illyuziya:** Bu texnologiya orqali sahna devorlarini "tebratish", "eritish" yoki ularni cheksiz koinotga aylantirish mumkin. Bu rejissorga pyesadagi qahramonning ichki ruhiy holatini (masalan, aqldan ozish yoki tush ko'rish jarayonini) vizual tarzda ko'rsatish imkonini beradi.

## Shaffof ekranlar va “Golografik” effektlar

Hozirgi kunda **Holographic Scrim** (shaffof to‘r ekranlar) ssenografiyaning ajralmas qismiga aylandi.

**Qatlamli estetika:** Sahnaning old qismiga deyarli ko‘rinmas to‘r tortiladi. Unga proyeksiya tushirilganda, tomoshabin aktyorni havoda muallaq turgan tasvirlar orasida ko‘radi. Bu “chuqurlik effekti”ni (depth effect) yaratadi.

**Interfaol nur:** Aktyor va vizual tasvir o‘rtasidagi chegara yo‘qoladi. Masalan, aktyor “havodagi” virtual eshikni ochishi yoki virtual yomg‘ir ostida qolishi mumkin.

## Generativ ssenografiya: Sun‘iy intellekt aralashuvi

Zamonaviy raqamli ssenografiyaning eng yuqori nuqtasi – bu **Generativ san‘at** (Generative Art). Bunda vizual tasvirlar oldindan tayyorlab qo‘yilmaydi, balki spektakl davomida real vaqt rejimida yaratiladi:

**Tovushga reaksiya:** Maxsus algoritmlar aktyorning ovoz balandligi yoki musiqaning ritmiga qarab ekrandagi tasvirlarni o‘zgartiradi.

**Harakatga bog‘liqlik:** Sahnadagi infraqizil kameralar aktyorning koordinatalarini kuzatadi. Aktyor qayerga borsa, uning ortidan “soya” yoki “nur” ergashib yuradi. Bu ssenografiyani improvizatsiyaga moslashuvchan qiladi.

## Raqamli ssenografiyaning iqtisodiy va ekologik jihati

**Logistika:** Og‘ir va ulkan yog‘och-temir dekoratsiyalarni tashish o‘rniga, birgina server va proyektorlar bilan butun bir dunyoni yaratish mumkin. Bu gastrol safarlarini osonlashtiradi.

**Transformatsiya tezligi:** An‘anaviy teatrdan parda ortida dekoratsiya almashishi uchun 5-10 daqiqa vaqt ketsa, raqamli sahnada bu soniyaning mingdan bir qismida amalga oshadi.

Raqamli ssenografiya – bu shunchaki texnik vosita emas, balki yangi vizual til. U tomoshabinning idrok etish chegaralarini kengaytirib, teatrnin kinoning vizual qudrati va video o‘yinlarning interaktivligi bilan boyitmoqda. Biroq, ssenografning

vazifasi texnik imkoniyatlar ichida aktyorni “yo‘qotib” qo‘ymaslik, balki uning mahoratini yoritib berishdan iborat bo‘lib qolaveradi.

### **LED Konstruksiyalar va Yorug‘lik Dramaturgiyasi**

Zamonaviy sahnada yorug‘lik endi shunchaki yoritish vositasi emas, balki mustaqil “personaj”dir. LED devorlar (Pixel pitch 2.5 mm va undan yuqori) quyosh nuri kabi yorqinlikni simulyatsiya qila oladi, bu esa teatrda kinoestetikani yaratadi.

### **Virtual (vr) va to‘ldirilgan borliq (ar) teatri**

VR va AR texnologiyalari teatrning “to‘rtinchi devor” konsepsiyasini butunlay buzib tashladi.

### **VR-Spektakllar: Individual Tajriba**

VR teatrida tomoshabin tomoshabinlar zalida emas, balki voqealar markazida bo‘ladi. Masalan, Shveysariyaning “VR\_I” spektaklida tomoshabinlar ko‘zoynak taqib, o‘zlari ham virtual raqqosalarga aylanishadi. Bu yerda teatr va videoo‘yin (gaming) o‘rtasidagi chegara yo‘qoladi.

### **To‘ldirilgan borliq (AR) sahnada**

AR texnologiyasi aktyorning harakatiga real vaqt rejimida effektlar qo‘shish imkonini beradi.

**Misol:** Aktyor qo‘lini ko‘targanda, uning barmoqlaridan “olov” chiqishi yoki uning atrofida virtual matnlarning uchib yurishi. Bu effektlar maxsus kameralar (Kinect yoki OptiTrack) yordamida aktyorning koordinatalarini kuzatib borish orqali amalga oshiriladi.

### **Sun‘iy intellekt va generativ san‘at: teatrda yangi ijodiy paradigma**

Sun‘iy intellekt – hammuallif sifatida

An‘anaviy teatrda ijodiy jarayon inson (rejissyor, dramaturg, rassom) tomonidan to‘liq nazorat qilinadi. Sun‘iy intellektning kirib kelishi bilan teatrda “Gibrid ijod” tushunchasi paydo bo‘ldi. AI algoritmlari (masalan, neyrotarmoqlar) millionlab ma‘lumotlarni tahlil qilib, inson xayoliga kelmagan vizual yoki matnli yechimlarni taklif qilmoqda.

## Generativ ssenografiya va algoritmlar

Generativ san'at – bu algoritmlar yordamida real vaqt rejimida yaratiladigan vizual mazmundir.

**Real-time Rendering:** Spektakl davomida maxsus dasturlar (masalan, TouchDesigner yoki Unreal Engine) aktyorning ovozi, harakati yoki tomoshabinlarning reaksiyasiga qarab vizual fonni o'zgartiradi.

**Betakrorlik:** Har bir ijro noyob bo'ladi. AI har safar tasvirlarni yangitdan generatsiya qilgani sababli, birinchi kungi spektakl ikkinchi kungi spektakldan vizual jihatdan farq qilishi mumkin.



AI-Dramaturgiya: Neyrotarmoqlar yozgan pyesalar Hozirgi kunda Large Language Models (LLM) – katta til modellari (ChatGPT, Claude kabi) teatr ssenariylarini yozishda faol qo'llanilmoqda. Eksperimental pyesalar: Masalan, Londondagi “Young Vic” teatrida sun'iy intellekt tomonidan yozilgan ssenariy asosida spektakl qo'yildi. Bunda AI o'ziga berilgan personajlar xarakteri va syujet liniyasi asosida kutilmagan dialoglarni yaratib berdi. Algoritmik dramaturgiya: AI pyesadagi ziddiyatlarni (konfliktlarni) matematik aniqlikda hisoblab, tomoshabinning hissiyotlarini maksimal darajada ushlab turish uchun syujet burilishlarini taklif qila oladi. Aktyor va AI: Raqamli hamkorlik. Teatrda aktyorning sun'iy intellekt bilan “partner” sifatida ishlashi yangi aktyorlik maktabini talab

qiladi. Digital Twins (Raqamli egizaklar): Sahnada tirik aktyor o'zining AI tomonidan boshqariladigan raqamli nusxasi bilan muloqot qilishi mumkin. Bunda raqamli nusxa aktyorning harakatlarini takrorlamaydi, balki uning harakatlariga algoritmlar asosida mustaqil javob qaytaradi. Ovoz simulyatsiyasi: AI yordamida vafot etgan buyuk aktyorlarning ovozini tiklash va ularni yangi spektakllarda "ishtirok ettirish" tajribalari o'tkazilmoqda.

Mezon	An'anaviy teatr	AI va Generativ teatr
Ssenariy	Dramaturg tomonidan oldindan yoziladi	Algoritm tomonidan generatsiya qilinadi yoki tahrirlanadi
Dekoratsiya	Statik yoki mexanik o'zgaruvchan	Real vaqtda o'zgaruvchi (Generativ vizual)
Ijro	Rejissyor chizig'idan chiqmaslik	Aktyor va tizim o'rtasidagi kutilmagan interaktivlik
Maqsad	Muallif g'oyasini yetkazish	Texnologiya va inson sintezini kashf etish


Etik va estetik muammolar

AI teatrga kirib kelishi bilan bir qator savollar tug'iladi:

1. Mualliflik huquqi: AI tomonidan yaratilgan ssenariy yoki dekoratsiyaning muallifi kim? Dasturchimi yoki algoritmni ishlatgan rejissyor?
2. Inson omili: Texnologiyaning haddan tashqari ko'pligi teatrning "jonli nafasini" so'ndirib qo'ymaydimi?
3. Sun'iy go'zallik: AI tomonidan yaratilgan mukammal tasvirlar inson yaratgan "kamchilikli, ammo samimiy" san'atdan ustun bo'la oladimi?


Maqolaning eng zamonaviy qismi – bu **Sun'iy Intellekt (AI)** ning teatrga kirib kelishidir. **AI Dramaturg:** Bugungi kunda ChatGPT kabi neyrotarmoqlar

yordamida yozilgan pyesalar sahnaga qo'yilmoqda (Masalan, Londondagi "Ai-Da" spektakli).



*"Ai-Da" spektaklidan lavhalar*

**Generativ Dizayn:** Neyrotarmoqlar spektakl uchun musiqa va dekoratsiya eskizlarini real vaqt rejimida yaratishi mumkin. Bu degani, spektaklning har bir ijrosi avvalgisidan farq qiladi, chunki AI har safar yangi vizual ketma-ketlikni generatsiya qiladi.



### **Aktyorlik mahorati va raqamli interfeys**

Raqamli texnologiyalar davrida aktyorlik kasbi “Motion Capture” (harakatni ushlab) yoʻnalishi bilan boyimoqda.

**Raqamli Avatar:** Aktyor sahnada maxsus datchiklar bilan harakatlanadi, uning harakati esa ekrandagi raqamli maxluq yoki personajga oʻtadi.

**Psixologik qiyinchilik:** Aktyor endi faqat sherigiga emas, balki mavjud boʻlmagan raqamli obyektga qarab ham his-tuygʻularini ifodalashi lozim. Bu aktyorlik maktabida yangi – “Media-aktyorlik” metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

### **Oʻzbekiston teatrida raqamli innovatsiyalar**

#### **Milliy ssenografiyada multimedia texnologiyalari**

O'zbekiston teatrlari oxirgi o'n yillikda an'anaviy "matoli" dekoratsiyalardan voz kechib, multimedia ekranlari va proyeksion texnologiyalarga o'tmoqda.

**O'zbek Milliy akademik drama teatri:** Ushbu teatrda tarixiy pyesalarni sahnalashtirishda (masalan, "Jaloliddin Manguberdi" yoki "Mirzo Ulug'bek") keng ko'lamli LED ekranlar va dinamik proyeksiyalardan foydalanilmoqda. Bu orqali sahna makoni bir necha soniya ichida jang maydonidan rasadxonaga aylanishi mumkin. **Alisher Navoiy nomidagi Badiiy akademik katta teatri:** Opera va balet janrida raqamli ssenografiya ayniqsa samarali bo'lmoqda. Masalan, "Lazgi" baletida raqamli vizualizatsiya va yorug'lik effektlari raqqoslarning harakati bilan simmetrik ravishda ishlaydi, bu esa tomoshabinda "3D chuqurlik" hissini uyg'otadi.

**"Ilhom" teatri: Eksperimental raqamli muhit.** Mustaqil teatr sifatida **"Ilhom" teatri** O'zbekistonda birinchilardan bo'lib media-san'atni spektakllarga olib kirdi. Ular nafaqat videodan fonga foydalanishadi, balki **Live-video:** aktyorning yuz ifodasi kamera orqali katta ekranga uzatiladi, bu esa tomoshabinga qahramonning eng kichik ruhiy o'zgarishlarini ham ko'rish imkonini beradi. **Interaktiv ovoz:** aktyorlarning jonli nutqi real vaqt rejimida kompyuter filtrlaridan o'tkazilib, kosmik yoki metafizik tovushlar yaratiladi.

**Raqamli arxivlashtirish va Virtual teatr (VR).** O'zbekistonda teatr san'atini raqamlashtirishning muhim yo'nalishi – bu spektakllarni 360 gradusli formatda yozib olish va onlayn platformalarga joylashtirishdir. Pandemiya davrida **"Online-teatr"** loyihasi doirasida ko'plab spektakllar YouTube va maxsus platformalar orqali translyatsiya qilindi. Hozirda milliy teatrlarning "Oltin fondi"ni raqamli formatga o'tkazish jarayoni ketmoqda, bu esa kelajakda VR-ko'zoynaklar orqali arxiv spektakllarini "ichidan" tomosha qilish imkonini beradi.

**Muammolar va istiqbollar.** Innovatsiyalarning O'zbekiston teatrlarida to'liq joriy etilishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim omillar mavjud:

1. **Mutaxassis yetishmovchiligi:** Teatrlarda raqamli texnologiyalar bilan ishlovchi “media-rassom” va “video-muhandis” mutaxassislariga ehtiyoj yuqori.

2. **Texnik baza:** Ko'pgina viloyat teatrlarida yuqori sifatli proyeksion tizimlar va serverlarning yetishmasligi.

3. **Dramaturgiya:** Hali ham pyesalar an'anaviy uslubda yozilmoqda. Raqamli imkoniyatlarni hisobga oluvchi “multimedia dramaturgiyasi”ga o'tish zarur.

O'zbekiston teatri raqamli innovatsiyalar pallasida turibdi. Milliy ruhni saqlab qolgan holda jahon texnologik yutuqlarini o'zlashtirish – milliy san'atimizning raqobatbardoshligini oshiradi. Kelajakda yurtimizda ham golografik aktyorlar va to'liq immersiv spektakllar yaratilishi uchun ilmiy-amaliy poydevor hozirdan qo'yilmoqda. Raqamli texnologiyalar teatrga ulkan imkoniyatlar bersa-da, ayrim xavflarni ham tug'diradi. Eng asosiy muammo – teatrnig “jonliligi”ni (liveness) saqlab qolishdir. Maqola yakunida shuni ta'kidlash kerakki, texnologiya – bu shunchaki qalam yoki bo'yoq kabi quroldir. Teatrnig markazida baribir inson va uning dardli kechinmalari qolishi kerak. Texnologik teatr – bu “sovuq mashinalar” namoyishi emas, balki insoniyatning raqamli asrdagi yangi badiiy tili bo'lishi lozim.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. *Auslander P. Liveness: Performance in a Mediatized Culture. 2nd Edition // Teatrnig “jonliligi” va media munosabatlariga oid asosiy asar – New York: Routledge, 2008. – B. 28–30.*

2. *Dixon S. Digital Performance: A History of New Media in Theater, Dance, Performance Art, and Installation // Raqamli teatr evolyutsiyasi bo'yicha fundamental tadqiqot. – Cambridge: MIT Press, 2007. – 280 p.*

3. *Козлова С. Современная сценография. – Москва: ГИТИС, 2019. – 200 с.*

4. *Bay-Cheng S., Parker-Starbuck J., Saltz D. Performance and Media: Taxonomies for a Digital Age. – Michigan: University of Michigan Press, 2010. – 260 p.*

- 
5. O'zbekiston Respublikasining "Madaniyat to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
  6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
  7. To'laxo'jayeva M. O'zbekiston teatri: rejissura va ssenografiya masalalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 256 b.
  8. Odilov A. (2020). Teatr ssenografiyasida innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar // San'at jurnali. – 2020. – №3. – B. 37–40.
  9. Young Vic Theatre Report // AI-Da: The first ultra-realistic humanoid AI robot artist in theatre production. – London, 2021.
  10. Unreal Engine in Theatre. Real-time rendering for live performance and immersive environments, 2023. URL: <https://www.unrealengine.com>.

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professori  
E-mail: orolmirzosafarov04@gmail.com*

## **MILLIY MUSIQA SAN'ATINING MA'NAVYIY-TARBIYAVIY XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Bugungi kunda shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda musiqa san'atining ahamiyati beqiyosdir. Zero, musiqa shunchaki nafas va zavq manbai bo'lib qolmay, balki insonning ruhiy olamini boyituvchi qudratli omil ham sanaladi. Uning jozibali ohangi, maromi va mazmun-mohiyati inson shuuriga bevosita daxl qilib, tafakkur yuritish, his-tuyg'ularni jilolash hamda ongli xatti-harakatlarning qaror topishida yetakchi o'rin tutadi. Maqolada milliy musiqa san'atining ma'naviy-tarbiyaviy xususiyatlari to'g'risida tahliliy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** musiqa, san'at, milliy, yoshlar, xalq qo'shiqlari, qadriyat, madaniy meros, urf-odatlar, qo'shiq, tarbiya, ma'naviyat.*

## **THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL CHARACTERISTICS OF NATIONAL MUSICAL ART**

***Abstract.** This article examines the role of national musical art in the development of an individual's spiritual and educational values. It analyzes music as an important cultural phenomenon that influences human consciousness, emotional development, and behavior. Special attention is given to the melodic and rhythmic features of music and their impact on cognitive and affective processes. The study also explores the significance of national musical traditions in shaping cultural identity and transmitting values across generations.*

***Keywords:** music, national art, spirituality, education, youth, folk songs, cultural heritage, traditions, values.*

Musiqa qadimiy ijtimoiy va diniy marosimlardan tortib, folklor namunalari, maqom san'ati hamda rang-barang ashula va kuylar orqali xalq ruhiyatining ko'zgusi bo'lib xizmat qilib kelgan. Ayniqsa, milliy musiqiy merosimiz hisoblangan maqomlar, folklor asarlari va lirik qo'shiqlar o'zbek xalqining ma'naviy olami, dunyoqarashi, milliy qadriyatlari hamda hayotiy falsafasini o'zida mujassam etadi. Hozirgi kunda esa musiqa badiiy-estetik tarbiya berish bilan bir qatorda, yosh avlod qalbida vatanparvarlik hissini uyg'otish, milliy g'urur va madaniy o'zlikni shakllantirishda ham beqiyos vosita vazifasini o'tamoqda.

Inson ruhiyati va psixologiyasiga eng jadal ta'sir ko'rsatadigan san'at yo'nalishlaridan biri musiqadir. Shaxsning muayyan musiqa janriga bo'lgan ishtiyoqi orqali uning ichki dunyosini va borliqqa bo'lgan munosabatini anglash mumkin. Zero, insonning biror musiqiy uslubni afzal ko'rishi tasodifiy holat emas, balki uning shaxsiyati, estetik didi va dunyoqarashining o'ziga xos in'ikosidir. Tinglovchining janrlar borasidagi tanloviga qarab, uning ruhiy holati, hayotiy tamoyillari, ijtimoiy faolligi va hissiy kechinmalari haqida muayyan xulosalar chiqarish imkoniyati mavjud.

Masalan, kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, maqom, mumtoz kuylar va an'anaviy milliy musiqaga ko'ngil qo'yganlar, odatda, bosiq, chuqur mulohaza yuritadigan, yuksak did sohibi bo'lgan hamda milliy qadriyatlarni qadrlaydigan, ruhiy muvozanati barqaror shaxslardir. Lirik asarlar va qo'shiqlarni xush ko'ruvchilar esa, asosan, romantikaga moyil, nozik tabiatli va boy ichki hissiyotga ega insonlar sirasiga kiradi. Jazz, blyuz yoki instrumental eksperimental yo'nalishlarni tinglaydiganlarda ijodiy salohiyat yuqori bo'lib, ular noan'anaviy tafakkur tarzi bilan ajralib turadilar.

Pop va zamonaviy estrada musiqasi shaydolari esa yangilikka intiluvchan, ochiqko'ngil hamda ijtimoiy faolligi yuqori bo'lgan shaxslar sifatida namoyon bo'ladilar. Rok yoki elektron musiqa ixlosmandlari esa, aksincha, jo'shqin energiyaga ega, o'z nuqtayi nazarini qat'iy himoya qiladigan va ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan murosasiz insonlardir. Shunday qilib, insonning musiqiy

tanlovi shunchaki estetik xohish emas, balki uning ruhiy olami, emotsional holati va hayot falsafasining o'ziga xos ko'rinishidir. Binobarin, musiqa vositasida inson tabiatini yanada chuqurroq anglash va uning ichki dunyosini tushunish mumkin.

Musiqa san'atining psixologik ta'sir imkoniyatlaridan bugungi kunda muayyan g'arazli kuchlar va yot oqimlar ham o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqdalar. Ma'lumki, musiqaning ruhiyatga o'tkazadigan kuchli ta'siridan nafaqat ezgulik yo'lida, balki ba'zan yovuz niyatlarni amalga oshirishda ham qurol sifatida foydalanilishi mumkin. Zero, musiqa san'ati inson ruhiy olamiga nihoyatda chuqur kirib borish xususiyatiga ega bo'lgan eng ta'sirchan vositalardan biri sanaladi.

Musiqaning insonni olijanoblik ruhida tarbiyalashi xususidagi fikrni buyuk kompozitor Iogann Sebastyan Bax hayoti misolida yaqqol isbotlash mumkin. U hamkasblariga nisbatan doimo samimiy munosabatda bo'lgan, hasadgo'ylikdan yiroq tutgan va kundalik hayotda nihoyatda soddadil inson bo'lib qolgan. O'z shogirdlaridan biriga yo'llagan maktubida u shunday yozadi: "Menga hech narsa kerak emas, faqatgina mendan o'zlashtirgan bilimlaringizni o'z vaqtida boshqa yaxshi insonlarga ham yetkazishga harakat qilsangiz, men uchun shuning o'zi kifoyadir" [1, 20-b]. Bunday fidoyilik va xolis niyatli bo'lish fazilatlarini bugungi kunda ham ko'plab san'atkorlar hamda ustoz-murabbiylar faoliyatida davom etib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, musiqa san'atining naqadar ulkan tarbiyaviy va ma'naviy qudratga ega ekanligidan dalolat beradi.

Yuqorida qayd etilganidek, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib kamol topishida musiqa san'ati yetakchi ahamiyatga ega. Tadqiqotchi M.Ilhomov e'tirof etganidek: "Musiqa inson ma'naviy barkamolligining uzviy asosi hamda uning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bo'lib xizmat qiladi" [2, 59-b]. Musiqa ta'limi umumiy pedagogika va tarbiya tizimining o'zak bo'g'ini bo'lib, shaxs ruhiyatini kamolga yetkazishda beqiyos o'rin tutadi.

Aytish joizki, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'tiladigan "Musiqa nazariyasi" fani musiqashunoslikning fundamental asoslarini o'zlashtirishda

tayanch manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu fan vositasida qadim zamonlardan hozirgi davrgacha bo'lgan musiqiy taraqqiyot bosqichlari, uning falsafiy-estetik qirralari atroflicha o'rganiladi. Musiqa shunchaki bilim berish vositasi emas, balki ma'nan pok, teran mushohada yuritadigan va tahliliy tafakkur sohibi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazishga ko'maklashadi. Musiqa o'qitish metodologiyasi esa pedagogika fanining umumiy qoidalari va quyidagi didaktik tamoyillarga tayanadi. Tarbiyalovchi ta'lim tamoyili:

1. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik;
2. Musiqiy materialning o'quvchilar yosh xususiyatlariga muvofiqligi;
3. Ko'rgazmalilik;
4. Bilim va malakalarning mustahkamligi;
5. O'quvchilarning faolligi hamda mustaqilligi, musiqa ta'limining hayot bilan bog'liqligi" [3, 7-b].

Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, musiqa ta'limi shaxs tarbiyasidan boshlanib, yuksak kasbiy mahorat cho'qqilarigacha davom etadigan yaxlit va uzluksiz tizimni ifoda etadi.

Globalashuv jarayonlari jadallashgan hozirgi sharoitda musiqa san'atining falsafiy asoslarini anglash va uning madaniy mohiyatini tadqiq qilishga bo'lgan ehtiyoj har qachongidan ham yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Buni quyidagi omillar bilan izohlash joiz:

Birinchiidan, zamonaviy musiqaning yoshlar axloqiy tarbiyasidagi o'rnini ilmiy va falsafiy nuqtayi nazardan o'rganish, uning dunyo musiqiy xazinasidagi nufuzini tahlil etish orqali milliy qadriyatlarimizning nafis va go'zal qirralarini ko'rsatib beruvchi qarashlarni yaxlit tizimga keltirish talab etiladi.

Ikkinchiidan, globalashuv sharoitida zamonaviy musiqa ijrochiligi va uning amaliyoti tubdan yangilanib bormoqda. Biroq, ushbu san'at turini shunchaki ohanglar yig'indisi sifatida tadqiq etish masalaga beryoqlama yondashishga sabab bo'ladi [4, 12-b]. Musiqa san'atini ijtimoiy-ma'naviy jarayon sifatida falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etish nihoyatda muhimdir. Bunday yondashuv musiqa

san'atiga milliy o'zlikni namoyon etuvchi asosiy omil sifatida qarash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, musiqani jahon madaniy makonida tahlil qilish orqali o'z milliy qadriyatlarimizni namoyish etish, ularni teran anglash va e'zozlash uchun mustahkam ilmiy poydevor yaratiladi.

Ikkinchi tomondan, globallashuv sharoitida musiqaga shunchaki ohanglar majmuasi deb baho berish uning tub ma'naviy va ijtimoiy vazifalarini inkor etish bilan barobardir. Zero, musiqa nafaqat nafosatdan zavqlanish manbai, balki ijtimoiy ong, shaxsiy dunyoqarash, madaniy xotira hamda axloqiy tamoyillarning yuksak ifodasidir.

Musiqa san'ati shaxs kamoloti va uning ruhiy-ma'naviy tarbiyasi yo'lida beqiyos omil bo'lib xizmat qiladi. Tizimli yo'lga qo'yilgan musiqiy ta'lim jarayoni yordamida insonda nafosat didi, axloqiy tamoyillarga sodiqlik, sabr-bardosh hamda mehr-oqibat kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlar qaror topadi. Musiqa inson ruhiyatini olijanob tuyg'ular tomon chorlab, ma'naviy hushyorlik va hissiy muvozanat tuyg'usini kuchaytiradi. Ayniqsa, milliy musiqiy merosimizga singdirilgan vatanparvarlik, insoniylik, nafosat va haqgo'ylik kabi yuksak qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida qudratli ijtimoiy vositaga aylanadi.

Shu bilan birga, musiqa san'ati bashariyatning tarixiy xotirasi, estetik tafakkuri hamda falsafiy dunyoqarashi mujassamlashgan yuksak madaniy hodisadir. Uni falsafiy-metodologik jihatdan tadqiq etish nafaqat musiqa sohasida chuqur bilimga ega bo'lishga, balki umumfalsafiy va mafkuraviy olamni anglashga ham ko'maklashadi. Binobarin, musiqa san'atini o'rganish jarayoni o'zining murakkabligi bilan bir qatorda, mazmunan g'oyat boy bo'lgan falsafiy izlanishlar silsilasini tashkil etadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Alimdjanova N. *Musiqa adabiyoti*. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 144 b.
2. Ilhomov M. *Barkamol avlod tarbiyasida milliy musiqaning o'rni va ahamiyati*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 259 b.

3. Xo'jayeva M. *Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi.*  
– Toshkent: Musiqa, 2008. – 156 b.

4. Axmedova Z. *Milliy musiqa madaniyati va uning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi roli: Fals. fan. nom. ... dis. avtoref.* – Toshkent, 2010. – B. 46.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professorı  
E-mail: farruh.mir18@gmail.com

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA YOSH SOZANDALARNING IJROCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar muhitida yosh sozandalarning ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvning nazariy asoslari va amaliy samaradorligi tadqiq etiladi. Tadqiqot 2023–2025-yillar davomida 54 nafar o'quvchi ishtirokida tajriba-sinov usulida olib borildi. Muallifning "Raqamli-Kompetentli Ijrochi" (RKI) modeli besh komponent – texnik-texnologik, musiqiy-analitik, ijodiy-interpretatsion, kommunikativ-sahna va o'z-o'zini boshqarish – asosida qurilgan. Natijalar raqamli texnologiyalarning maqsadli va tizimli qo'llanilishi cholg'u ijrochiligida yangi pedagogik imkoniyatlarni ochishini tasdiqlaydi.*

***Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, cholg'u ijrochiligi, ijrochilik kompetensiyasi, pedagogik model, musiqa ta'limi, online ta'lim, mobil ilovalar, virtual darslar, kompetentli yondashuv, yosh ijrochilar.*

## DEVELOPMENT OF PERFORMANCE COMPETENCIES IN YOUNG INSTRUMENTALISTS IN THE CONTEXT OF DIGITAL TECHNOLOGIES

***Abstract.** This article investigates the theoretical foundations and practical effectiveness of a pedagogical approach aimed at developing the performance competencies of young instrumentalists in a digital technology environment. The study was conducted between 2022 and 2024 in an experimental format involving 54 students. The author's 'Digital-Competent Performer' (DCP) model is built around five components: technical-technological, musical-analytical, creative-interpretive, communicative-performance, and self-regulation. The findings*

*confirm that purposeful and systematic integration of digital technologies opens new pedagogical opportunities in instrumental music teaching.*

**Keywords:** *digital technologies, instrumental performance, performance competency, pedagogical model, music education, online learning, mobile applications, virtual lessons, competency-based approach, young performers.*

XXI asrning ikkinchi yarmida dunyo bo'ylab ta'lim tizimi misli ko'rilmagan texnologik o'zgarishlar ta'siri ostida qayta shakllanmoqda. Musiqa ta'limi ham bu jarayondan chetda qolmadi: an'anaviy darsxona chegaralari kengayib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakllari tubdan o'zgarib bormoqda. Xususan, COVID-19 pandemiyasi davrida majburiy tarzda kengaygan online ta'lim tajribasi keyinchalik musiqa pedagogikasida mustaqil yo'nalishga aylanib, bugungi kunda raqamli va an'anaviy usullarning sintezi (girid pedagogika) asosiy paradigmaga aylandi [1, 34-b].

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'kidlanganidek, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [2, 7-b]. Musiqa ta'limi, jumladan cholg'u ijrochiligi sohasida, ushbu vazifa o'qituvchi oldiga nafaqat o'z fanini, balki raqamli muhit imkoniyatlarini ham puxta egallash talabini qo'yadi. Biroq amaliyotda ko'pgina pedagoglarda raqamli vositalarni ijrochilik ta'limiga samarali integratsiya qilish ko'nikmasi yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi [3, 112-b].

Muammo mohiyati shundaki, zamonaviy yosh cholg'u ijrochilari texnologik muhitda yashaydi va o'qiydi: ular YouTube kanallarida ijro namunalarini ko'radi, Spotify va SoundCloud'da tinglaydi, Musescore yoki Noteflight platformalarida nota yozuvlari bilan ishlaydi. Shunga qaramay, rasmiy ta'lim tizimida bu vositalardan pedagogik jihatdan maqsadli foydalanish hali yetarli darajada tizimga solinmagan [4, 67-b]. Oqibatda o'quvchilar texnologiyadan ko'ngilochar

maqsadlarda keng foydalansa-da, uni o'z ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ongli ravishda qo'llay olmaydi.

Ilmiy yangilik: Mazkur tadqiqot raqamli texnologiyalarni cholg'u ijrochiligi pedagogikasiga integratsiya qilishning besh komponentli modelini (RKI modeli) taklif etadi va uni empirik tajribada sinab ko'radi. Mavjud o'zbek musiqa pedagogikasi adabiyotida bunday kompleks, empirik asoslangan modelning ilgari taklif etilmaganligi tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi: raqamli texnologiyalar muhitida yosh sozandalarning ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik model (RKI) ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba orqali tekshirish.

Tadqiqotning nazariy asosi sifatida quyidagi konsepsiyalar xizmat qildi: kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi (A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya), konstruktivistik ta'lim paradigmasi (J.Dewey, J.Piaget), musiqa pedagogikasining zamonaviy nazariyalari (L.A.Barenboim, N.A.Vetlugina, D.Sh.Yusupova), texnologik pedagogik kontentni bilish nazariyasi – TPACK (Mishra, Koehler, 2006) va o'zbek musiqa ta'limining milliy metodologik an'analari [5, 88-b].

Tadqiqot 2023-yil sentyabridan 2025-yil may oyigacha amalga oshirildi. Asosiy tajriba maydonlari: Toshkent shahrining №1 va №5-sonli bolalar musiqa va san'at maktablari hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidagi maxsus cho'lg'u ijrochilik kurslari. Bu muassasalar har xil musiqa yo'nalishlarini (fortepiano, skripka, g'ijjak, rubob, nay, gitara) qamrab olganligi uchun tanlandi, bu esa natijalarning keng qo'llanilishi uchun zarur xilma-xillikni ta'minladi.

Tadqiqotda 10-20 yoshdagi 54 nafar yosh cholg'u ijrochisi qatnashdi. Ular maqsadli tanlov (purposive sampling) usuli bilan ikki guruhga ajratildi:

Tajriba guruhi (TG): 27 nafar – RKI modeli asosida o'qitildi;

Nazorat guruhi (NG): 27 nafar – an'anaviy o'quv dasturi bo'yicha o'qitildi. Tanlov mezonlari: kamida 2 yil cholg'u ijrochiligi bo'yicha rasmiy ta'lim olgan bo'lishi; uyda internet va smartfon/kompyuterga egalik; tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etishga rozilik bildirishi. Guruhlar tarkibi: tajriba guruhida 15 qiz, 12

o'g'il; nazorat guruhida 14 qiz, 13 o'g'il. Cholg'u turlari bo'yicha: klavishli (fortepiano, 18 nafar), torli (skripka, g'ijjak, 16 nafar), milliy (rubob, nay, dutor, 13 nafar), plektrli (gitara, 7 nafar) guruhlarni tashkil etdi. Tadqiqotda metodlar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oldi [7, 45-b]:

*1-jadval. Qo'llanilgan metodlar va ularning maqsadi*

№	Metod	Maqsad	Qo'llanish bosqichi
1	Pedagogik kuzatuv	O'quv jarayonini qayd etish	Barcha bosqichlar
2	Tajriba-sinov (eksperiment)	Modelni tatbiq va sinovdan o'tkazish	Asosiy bosqich
3	Tuzilmali so'rovnoma	O'quvchi va o'qituvchi fikrlari	Boshlang'ich va yakuniy
4	Ekspert baholash	Ijrochilik namoyishlarini baholash	Boshlang'ich va yakuniy
5	Hujjatlar tahlili	O'quv dasturlari tahlili	Tayyorlov bosqichi
6	Statistik tahlil (t-Test, r-korrelyatsiya)	Natijalarni miqdoriy baholash	Yakuniy bosqich

Ijrochilik kompetensiyalari rivojlanish darajasini o'lchash uchun besh komponentli ekspert baholash tizimi ishlab chiqildi. Har bir komponent 20 ballik shkala bo'yicha (4 ta mezon  $\times$  5 ball) baholandi, jami maksimal ko'rsatkich 100 ballni tashkil etdi [8, 77-b]. Baholash uch nafar mustaqil ekspert (yuqori toifali o'qituvchi va professor) tomonidan amalga oshirildi, ular o'rtasidagi kelishuv darajasi Krippendorff alfa koeffitsienti bilan o'lchandi ( $\alpha=0,84$  – yuqori ishonchlilik darajasi). Tadqiqotning tayyorlov bosqichida mavjud 14 ta musiqa ta'limi muassasasining o'quv dasturlari tahlil qilindi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, ko'rib chiqilgan dasturlarning 78,6% (11 ta)da raqamli texnologiyalar alohida

o'quv komponenti sifatida qayd etilmagan yoki faqat notani ko'chirish vositasi sifatida eslatilgan. Faqat 21,4% (3 ta) muassasaning dasturida audio-yozuv tahlili, online kontsert va raqamli ilovalar pedagogik vosita sifatida ko'zda tutilgan [9, 56-b].

So'rovnoma natijalari ham bu xulosani quvvatladi: tajribaga jalb qilingan 54 nafar o'quvchidan 91% (49 nafar) smartfon orqali musiqa tinglashini, 83% (45 nafar) YouTube'da ijro namunalarini tomosha qilishini aytdi. Biroq shulardan faqat 37% (20 nafar) bu vositalardan o'z ijrochiligi ustida ishlash maqsadida ongli ravishda foydalanganini bildirdi. O'qituvchilar so'rovnomasi esa boshqa tomonni ochib berdi: ishtirok etgan 18 nafar pedagogdan 72% (13 nafar) raqamli vositalarning ta'limdagi imkoniyatlaridan xabardor bo'lsa-da, ularni dars jarayoniga qanday tizimli kiritishni bilmasligini e'tirof etdi.

Tadqiqot asosida muallifning "Raqamli-Kompetentli Ijrochi" (RKI) pedagogik modeli ishlab chiqildi. Model uchta blokdan iborat: maqsadli blok (nima uchun), mazmuniy-jarayonli blok (qanday) va natijali-diagnostik blok (nima o'zgaradi). Mazmuniy-jarayonli blok beshta komponent va to'rtta pedagogik bosqichni o'z ichiga oladi.

### **Modelning beshta kompetensiya komponenti**

**1-komponent – Texnik-texnologik kompetensiya.** O'quvchi raqamli vositalarni (DAW dasturlari, metronom ilovalar, ovoz yozuvchilari, nota redaktorlari) cholg'u ijrochiligi mashqi jarayonida mustaqil qo'llay oladi. Bu komponent nafaqat texnik mahoratni (ritm aniqlik, texnik tezlik, nafas boshqaruvi) o'z ichiga oladi, balki o'quvchining o'z ijrosini yozib tahlil qilish, raqamli tuner yordamida intonatsiyani nazorat qilish va mashq protokollari yuritish ko'nikmalarini ham qamraydi [10, 134-b].

**2-komponent – Musiqiy-analitik kompetensiya.** O'quvchi raqamli audio-video manbalar (YouTube'dagi professional ijro yozuvlari, Spotify tanlov pleylistlari, nota bazalari) asosida musiqiy asar tuzilmasini, interpretatsiya yo'nalishlarini va uslub xususiyatlarini mustaqil tahlil qila oladi. Ushbu

komponent an'anaviy musiqa nazariyasini raqamli muhit bilan uyg'unlashtirgan holda musiqiy tafakkurni rivojlantiradi [11, 89-b].

**3-komponent – Ijodiy-interpretatsion kompetensiya.** O'quvchi turli xil ijrochilik talqinlarini solishtira oladi, o'z interpretatsiyasini asoslab bera oladi va raqamli muhitda original musiqiy loyihalarni (aranjirovka, improvizatsiya yozuvi, multitreklı yozuv) yarata oladi. Bu komponent ijrochining kreativlik va musiqiy originallik salohiyatini maqsadli rivojlantiradi [12, 45-b].

**4-komponent – Kommunikativ-sahna kompetensiyasi.** O'quvchi online kontsertlar, video taqdimotlar va raqamli portfel shaklida auditoriyaga o'z ijrochiligi bilan chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Raqamli muhit an'anaviy sahnadan farqli o'laroq, o'quvchiga o'z ijrochiligi video yozuvini ko'rib, sahna xatti-harakatini, mimikasini va jismoniy holat (posture)ini nazorat qilish imkonini beradi [3, 145-b].

*2-jadval. RKI modelining komponentlari, vositalari va kutilgan natijalari*

Komponent	Asosiy raqamli vositalar	Rivojlantiriluvchi ko'nikmalar	Nazorat usuli
Texnik- texnologik	DAW, tuner, metronom ilovalar	Texnik aniqlik, ritm, intonatsiya	Ovoz tahlili
Musiqiy- analitik	YouTube, Spotify, IMSLP, MuseScore	Musiqiy tafakkur, tahlil ko'nikmasi	Tahlil varag'i
Ijodiy- interpretatsion	GarageBand, Audacity, BandLab	Kreativlik, interpretatsiya	Portfolio baholash
Kommunikativ- sahna	Zoom, YouTube, video yozuv	Sahna madaniyati, taqdimot	Video tahlil
O'z-o'zini boshqarish	Notion, Trello, Google Sheets	Rejalashtirish, nazorat	Kundalik tahlili

**5-komponent – O‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasi.** O‘quvchi raqamli vositalar (elektron kundaliklar, mashq ilovalar, onlayn maqsad qo‘yish tizimlari) yordamida o‘z o‘quv jarayonini mustaqil rejalashtiradi, nazorat qiladi va tahlil qiladi. Bu komponent metacognitive ko‘nikmalar va o‘z-o‘zini tartibga solish (self-regulation) salohiyatini maqsadli shakllantiradi [13, 67-b].

Modelning to‘rtta pedagogik bosqichi

**I bosqich – Raqamli ongli-tayyorlov (2-3 hafta).** Maqsad: o‘quvchini raqamli muhitga ongli ravishda kiritish. Ushbu bosqichda o‘quvchilarning raqamli savodxonlik darajasi aniqlanadi, ularga asosiy musiqa ilovalari tanishtiriladi va ijrochilikning raqamli kuzatuv tizimi (mashq kundaligi, video yozuv protokoli) o‘rnatiladi. O‘qituvchi bu bosqichda faol yo‘naltiruvchi va texnik yordam beruvchi vazifasini bajaradi [14, 23-b]. **II bosqich – Integratsiyalashgan amaliyot (8–10 hafta).** Bu – modelning markaziy bosqichi bo‘lib, beshta kompetensiya komponenti parallel ravishda rivojlantiriladi. Haftalik darslar tuzilmasi: darsning 40%i an’anaviy asbob ustida ishlash, 30%i raqamli tahlil va yozuv, 30%i onlayn manba bilan ishlash va o‘z-o‘zini baholash. O‘quvchilar bir xil musiqiy parchani turli ijrochilar talqinida tahlil qilib, o‘z nuqtai nazarini qayd etadi; o‘z ijrosini yozib, xatolar ustida ishlaydi [6, 178-b].

**III bosqich – Mustaqil loyiha (4–5 hafta).** O‘quvchi bitta musiqiy asarni o‘zi tanlaydi, uning ijrosi ustida mustaqil ishlaydi, yozib oladi va raqamli portfolio shaklida taqdim etadi. Pedagog bu bosqichda maslahatchi rolini egallaydi. O‘quvchining mustaqil qaror qabul qilish, o‘z-o‘zini baholash va ijodiy topshiriq ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasi bevosita sinovdan o‘tkaziladi [7, 99-b].

**IV bosqich – Refleksiya va taqdimot (1–2 hafta).** O‘quvchi to‘plangan raqamli portfolio va mashq kundaligini ko‘rib, o‘z kompetensiyaviy o‘sishi bo‘yicha refleksiv xarita tuzadi. Guruhli muhokama, tengdoshlar baholash (peer review) va ochiq online kontsert ushbu bosqichning asosiy shakllaridir. Pedagogning yakuniy baholashi ham shu bosqichda amalga oshiriladi [8, 134-b].

### 3.3. Tajriba natijalari: miqdoriy tahlil.

Tajriba boshlashdan oldin ikki guruh o'rtasida statistik ahamiyatli farq kuzatilmadi: tajriba guruhi o'rtacha ko'rsatkichi  $M=41,8$  ball (100 ballik shkala), nazorat guruhi  $M=42,1$  ball;  $t=0,18$ ;  $p>0,05$ . Bu dastlabki teng sharoit mavjudligini tasdiqladi.

Tajriba yakunida olingan natijalar jadvalda keltirilgan:

3-jadval. Boshlang'ich va yakuniy baholash natijalari (o'rtacha ball, 20 balllik shkala har bir komponent)

Kompetensiya komponenti	TG boshida	TG oxirida	NG boshida	NG oxirida
Texnik-texnologik	8,4	15,8	8,5	10,2
Musiqiy-analitik	8,1	15,2	8,3	10,0
Ijodiy-interpretatsion	8,6	16,1	8,4	10,1
Kommunikativ-sahna	8,3	15,6	8,6	10,3
O'z-o'zini boshqarish	8,4	16,4	8,3	9,8
<b>JAMI (o'rtacha, 100 ball)</b>	<b>41,8</b>	<b>79,1</b>	<b>42,1</b>	<b>50,4</b>

Izoh: TG – tajriba guruhi; NG – nazorat guruhi.

Yakuniy kesim natijalari: tajriba guruhi  $M=79,1$  ball, nazorat guruhi  $M=50,4$  ball. Student t-testi natijasi:  $t=8,12$ ;  $df=52$ ;  $p<0,001$ . Tajriba guruhidagi o'sish 89,2% (41,8 dan 79,1 ga), nazorat guruhida 19,7% (42,1 dan 50,4 ga). Ikkala guruh o'sish ko'rsatkich-larining farqi – 58,3 foiz ball – statistik jihatdan muhimdir.

Komponentlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, eng yuqori o'sish "O'z-o'zini boshqarish" komponentida (+8,0 ball, 95,2% o'sish) kuzatildi. Bu natijaviy dalil shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar orqali mashq kundaligi yuritish va maqsad qo'yish tizimi o'quvchilarda o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini eng

tez va samarali rivojlantiradi. "Ijodiy-interpretatsion" komponent ham yuqori o'sish ko'rsatdi (+7,5 ball), bu esa raqamli muhitning kreativlikni rag'batlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi [15, 56-b].

Tajriba guruhi o'quvchilarining 92,6% (25 nafar) tajriba yakunida o'z ijrochiligi to'g'risida yanada chuqur va ongli fikrga ega bo'lganligini bildirdi. 88,9% (24 nafar) raqamli vositalarni mustaqil mashq jarayonida qo'llash ular uchun tabiiy odatga aylanganini aytdi. Ekspert baholashda tajriba guruhi ijrochilari nazorat guruhiga qaraganda interpretatsiya o'ziga xosligi va sahna taqdimoti jihatlaridan sezilarli darajada oldinda (o'rtacha farq: 4,2 ball).

Olingan empirik natijalar bir qator muhim ilmiy masalalarni ko'taradi va mavjud nazariyalar bilan nozik munosabat hosil qiladi.

Birinchi, RKI modelining besh komponentli tuzilmasi Mishra va Koehlnerning TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) konsepsiyasi [5, 1022-b] bilan mohiyatan hamohang: "texnik-texnologik" va "musiqiy-analitik" komponentlar TPACK ning texnologik va kontentli bilim uchburchagiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, bizning modelimiz TPACK'dan farqli ravishda o'quvchining o'z-o'zini boshqarish kompetensiyasini va sahna kommunikatsiyasini alohida komponent sifatida ajratib ko'rsatadi. Bu farq musiqa ta'limining o'ziga xos talablarini aks ettiradi: cholg'u ijrochisi faqat bilimga emas, balki mahorat va ifodalilikka asoslangan ijrochilik kompetensiyasini egallashi kerak [4, 89-b].

Ikkinchi, "O'z-o'zini boshqarish" komponentidagi eng yuqori o'sish natijalari Zimmerman (2000) va Pintrich (2004) ning o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim nazariyalari bilan uyg'un [16, 67-b]: raqamli vositalar o'quvchiga o'z mashqlarini obyektiv ko'rish, xatolarini tuzatish va o'z-o'zini baholash imkonini berib, metacognitive faollikni bevosita rag'batlantiradi. An'anaviy ta'limda bu funksiya asosan o'qituvchi zimmasida bo'lgan; raqamli muhit esa ushbu vazifani o'quvchining o'ziga o'tkazishga imkon beradi. Uchinchi, natijalarimiz B.M.Teplov konsepsiyasidagi asosiy tezis bilan – musiqiy kompetensiya faqat

uzluksiz amaliyot orqali shakllanadi – to'liq hamohang [17, 145-b]. Raqamli vositalar bu amaliyotni intensivlashtiradi: o'quvchi birinchi marta eshitishi bilan xatosini ko'radi (audio yozuv tahlili), onlayn platformada har qanday vaqtda namuna bilan solishtiradi, mashq kundaligi orqali dinamikasini kuzatadi. Bu holat an'anaviy "haftalik bir dars" modeliga nisbatan mashq sifatini tubdan oshiradi.

Biroq tadqiqot bir qator muhim cheklovlarni ham ochib berdi. Nazorat guruhi ham 19,7% o'sish ko'rsatganligi diqqatga sazovordir: an'anaviy ta'lim ham o'z samaradorligini saqlab qolmoqda. Demak, raqamli texnologiyalar an'anaviy pedagog-o'quvchi munosabatini almashtira olmaydi; ular faqat to'ldiruvchi, kuchaytiruv vazifasini bajaradi. Bu xulosani D.Sh.Yusupovanning [3, 156-b] "texnologiya vosita, pedagog esa subyekt" tamoyili ham quvvatlaydi.

Yana bir muhim muammo – raqamli tengsizlik (digital divide) masalasi. Tadqiqot shahardagi nisbatan qulay sharoitdagi maktablarda olib borildi. Qishloq musiqa maktablarida sifatli internet va zamonaviy qurilmalarga egalik ancha chegaralangan. Bu holat RKI modelining hamma joyda bir xilda qo'llanilishi mumkin emasligini va uning moslashtirilgan (adaptive) versiyasini ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi [9, 102-b].

Tadqiqotning yana bir cheklovli jihati – longitudinal kuzatuvning yo'qligi: ta'lim tugagandan keyin o'quvchilarning ijrochilik kompetensiyalari barqaror saqlana olishi yoki yo'qligini kuzatish keyingi tadqiqot uchun muhim vazifadir. Shuningdek, turli cholg'u turlari uchun modelni optimallashtirish masalasi ham alohida o'rganishni talab etadi: milliy cholg'u (rubob, nay, g'ijjak) ijrochiligining o'ziga xos texnik talablari bu jihatda ayniqsa muhim.

Qiziqarli kuzatuv: tajriba guruhidagi 5 nafar o'quvchi (18,5%) model bosqichlarida kutilgan o'rtacha sur'atdan sezilarli darajada orqada qoldi. Tafsilotli tahlil ko'rsatdiki, bu holat asosan ota-onaning raqamli texnologiyalarga munosabati bilan bog'liq: ushbu o'quvchilarning oilalarida "ekran vaqti"ni qat'iy cheklash amaliyoti keng tarqalgan edi. Bu natija pedagogik modelning muvaffaqiyati ko'p hollarda oilaviy muhitga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi

[18, 34-b]. Ushbu tadqiqot raqamli texnologiyalar muhitida yosh cholg'u ijrochilarining kompetensiyalarini rivojlantirishning besh komponentli RKI pedagogik modelini yaratib, uni empirik asosda isbotladi. Quyidagi asosiy xulosalar e'tiborga loyiqdir: raqamli texnologiyalar cholg'u ijrochiligi pedagogikasida kuchaytiruv (amplifier) vazifasini bajaradi: ular an'anaviy usullarni almashtirmaydi, lekin ularning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. RKI modelining besh komponenti o'zaro bog'liq tizim sifatida ishlaydi; birorta komponentni olib tashlash modelning umumiy samaradorligini pasaytiradi.

Tajriba natijalari (TG: +89,2%; NG: +19,7%;  $t=8,12$ ;  $p<0,001$ ) modelning an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli ustunligini isbotladi. "O'z-o'zini boshqarish" kompetensiyasi raqamli muhitda eng tez va samarali rivojlanadigan komponent bo'lib, u o'quvchining umumiy o'quv faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Model muvaffaqiyatini ta'minlashda oila muhiti, pedagog raqamli savodxonligi va muassasaning texnik jihozlanishi muhim shart-sharoit hisoblanadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Akhmedov B. *Musiqqa ta'limida innovatsion yondashuvlar: monografiya.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 228 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentyabrda yangi tahrirda qabul qilingan). – Toshkent: Adolat, 2020. – 48 b.
3. Yusupova D. *Musiqqa ta'limida individual yondashuv va raqamli muhit: uslubiy qo'llanma.* – Toshkent: O'zDSMI nashriyoti, 2022. – 172 b.
4. Mirzaev J. *Cholg'u ijrochiligi pedagogikasi: nazariya va amaliyot.* – Toshkent: O'zDSMI, 2020. – 284 b.
5. Mishra P., Koehler M. *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record.* – 2006. – Vol. 108, № 6. – P. 1017–1054.

6. Xasanova N. *Kompetensiyaviy yondashuv asosida musiqa ta'limini tashkil etish.* – Toshkent: O'zDSMI, 2019. – 216 b.
7. Ergashev S. *Pedagogik tadqiqotlarda eksperimental metodlar: metodik ko'rsatmalar.* – Toshkent: TDPU, 2020. – 80 b.
8. Qodirov B. *Cholg'u ijrochiligini baholash mezonlari va usullari // Musiqa ta'limi.* – 2021. – № 2. – B. 72–85.
9. Toshmatov A. *O'zbekistonda musiqa ta'limi: muammo va istiqbollari // San'at va madaniyat.* – 2022. – № 4. – B. 48–61.
10. Rajabov M. *Cholg'u ijrochiligi darolarida texnologik vositalar.* – Toshkent: Musiqa, 2021. – 136 b.
11. Hamidova Z. *Musiqa ta'limida analitik ko'nikmalarni shakllantirish: monografiya.* – Samarqand: SamDU, 2019. – 168 b.
12. Abdullayeva M. *Ijodiy faoliyat va interpretatsiya: nazariya va amaliyot.* – Toshkent: O'zDSMI nashriyoti, 2023. – 108 b.
13. Nazarov I. *Musiqa ta'limida o'z-o'zini boshqarish va metakognitiv ko'nikmalar // O'zbekiston musiqa ta'limi: yangi yo'nalishlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.* – Toshkent: O'zDSMI, 2023. – B. 61–74.
14. Karimova S. *Raqamli ta'limga o'tish: o'qituvchi va o'quvchi uchun qo'llanma.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 124 b.
15. Баренбойм Л. *Музыка педагогикаси ва ижрочилик.* – Ленинград: Музыка, 1974. – 336 б. [рус тилида]
16. Zimmerman B. *Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective // Handbook of Self-Regulation.* – San Diego: Academic Press, 2000. – P. 13–39.
17. Теплов Б. *Музыкальный воспитатель психологияси.* – Москва: АПН РСФСР, 1947. – 335 б. [рус тилида]
18. Sobirov A. *Musiqa ta'limida oilaviy muhitning o'rni // Pedagogika muammolari.* – 2021. – № 5. – B. 28–40.

Yusufjon Vohidov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrası dotsenti  
E-mail: yusuf.vohidov1971@gmail.com

## NAY IJROCHILIGIDA MILLIYLIK VA GLOBALISATSIYA

### JARAYONLARI

**Annotatsiya.** Maqolada nay ijrochiligida milliylik va globalizatsiya jarayonlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlil qilindi. Milliy uslubning saqlanishi, zamonaviy musiqiy muhitda transformatsiya jarayonlari, an'anaviy va zamonaviy ijro tafovutlari va yosh ijrochilar ijodidagi global ta'sirlar muhokama qilindi. Shuningdek, milliylikni saqlash va rivojlantirish yo'llari – ta'lim dasturlari, an'anaviy maktablar va raqamli arxivlar masalasi ham ko'rib chiqildi. Maqola ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, nay ijrochiligining milliy va zamonaviy yo'nalishlarini uyg'unlashtirish strategiyasini taklif etadi.

**Kalit so'zlar:** nay, ijrochilik, milliylik, globalizatsiya, an'ana, zamonaviylik, maqom.

## NATIONAL IDENTITY AND GLOBALIZATION PROCESSES IN NAY PERFORMANCE

**Abstract.** This article analyzes the interaction between national identity and globalization processes in nay performance. It examines the preservation of national style, the transformation of performance practices in the contemporary musical environment, as well as the differences between traditional and modern performance. The study also explores the impact of global influences on the creativity of young performers. In addition, it considers ways of preserving and developing national identity, including educational programs, support for traditional schools, and the creation of digital archives. The findings propose strategies for harmonizing national and modern approaches in nay performance.

**Keywords:** nay, performance, nationality, globalization, tradition, modernity, maqom.

Hozirgi globallashuv jarayonlari jahon madaniy makonida barcha sohalar qatori musiqa san'atiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, milliy musiqiy an'analarning saqlanishi, rivojlanishi va zamonaviy madaniy muhitga moslashuvi masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylandi. Bu jarayonda an'anaviy cholg'ular ijrochiligi, jumladan, o'zbek musiqiy merosining muhim tarkibiy qismi bo'lgan nay ijrochiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Nay cholg'usi o'zining boy tembr imkoniyatlari, chuqur emotsional ta'siri va maqom ijrochiligidagi yetakchi o'zni bilan milliy musiqa madaniyatida muhim o'rin tutadi. Asrlar davomida shakllangan ijrochilik an'analari, ustoz-shogird maktabi va individual uslublar nay san'atining milliylik xususiyatlarini belgilab bergan. Biroq globallashuv sharoitida ushbu an'analarning turli tashqi ta'sirlar jahon musiqiy uslublari, zamonaviy texnologiyalar va yangi ijrochilik tendensiyalari ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchramoqda. Mazkur holat nay ijrochiligida milliylik va globalizatsiya jarayonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Xususan, an'anaviy ijrochilik uslublarning saqlanishi, ularning transformatsiyasi va zamonaviy musiqiy muhitdagi o'rnini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Nay cholg'usi Markaziy Osiyo musiqiy madaniyatida qadimdan shakllangan va asrlar davomida takomillashib kelgan damli cholg'ular qatoriga kiradi. Uning kelib chiqishi ilk madaniy qatlamlar bilan bog'liq bo'lib, turli davrlarda nay nafaqat musiqiy ijro vositasi, balki ma'naviy-ruhiy ifoda vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan [1, 126-b]. Ayniqsa, Buxoro hamda Farg'ona-Toshkent ijrochilik maktablarida nay san'ati o'ziga xos uslubiy yo'nalishlarda rivojlangan bo'lib, har bir maktab o'zining ijro texnikasi, ovoz olish uslubi va musiqiy tafakkuri bilan ajralib turadi.

Milliy nay ijrochiligining o'ziga xosligi, avvalo, uning tembr xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Nay ovozi tabiiyligi, yumshoqligi va bir vaqtning o'zida chuqur ta'sirchanligi bilan tinglovchiga bevosita ruhiy ta'sir o'tkazadi. Ijrochi tomonidan ovoz chiqarish jarayonida lab, til va nafasning muvofiqligi hal qiluvchi ahamiyatga

ega bo'lib, bu jarayon individual mahoratni talab etadi. Shu bois, har bir nay ijrochisining ovoz rangi o'ziga xos bo'lib, uning shaxsiy uslubini belgilaydi.

Nay ijrochiligida nafas texnikasi alohida o'rin tutadi. Uzluksiz va nazoratli nafas olish orqali musiqiy iboralarni mantiqiy va ifodali tarzda yetkazish imkoni yaratiladi. Ayniqsa, uzoq davom etuvchi tovushlar va murakkab ohanglarni ijro etishda nafasni to'g'ri taqsimlash ijrochining kasbiy darajasini belgilaydi. Bu jihat milliy ijrochilik an'anasida ustozdan shogirdga amaliy yo'l bilan o'rgatiladigan muhim ko'nikmalardan biri hisoblanadi [3, 74-b]. Shuningdek, nay ijrochiligi ornamental bezaklarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Turli melizmatik elementlar, ohangiy burilishlar va bezaklar orqali ijro mazmunan boyitiladi va tinglovchiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bu bezaklar nafaqat texnik mahoratni, balki ijrochining badiiy tafakkurini ham namoyon etadi.

Maqom ijrochiligida nay cholg'usi yetakchi ifoda vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. U maqom yo'llarining ichki mazmunini ochib berishda, ayniqsa, lirik va tafakkuriy kayfiyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Nay ovozining inson ovoziga yaqinligi uni maqom ijrosida alohida ta'sirchan qiladi va u ko'p hollarda asosiy melodik yo'nalishni yetaklab boradi. Nay ijrochiligining shakllanishida ustoz-shogird an'anasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu an'ana orqali nafaqat texnik ko'nikmalar, balki ijrochilik madaniyati, uslub va musiqiy tafakkur ham avloddan avlodga o'tadi. Amaliy mashg'ulotlar, jonli ijroni kuzatish va takrorlash jarayonida shogird o'z ustozining ijrochilik uslubini o'zlashtiradi va keyinchalik uni shaxsiy ijodiy yondashuv bilan boyitadi. Shu tarzda milliy nay ijrochiligi uzviylik va davomiylik asosida rivojlanib boradi.

XXI asrda globalizatsiya jarayonlari jahon miqyosida madaniy aloqalarning kengayishi, axborot almashinuvining tezlashishi va turli milliy an'analarning o'zaro ta'sirga kirishishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon musiqa san'atiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, an'anaviy ijrochilik shakllarining qayta ko'rib chiqilishi va zamonaviy uslublar bilan boyishiga olib kelmoqda [5, 43-b]. Xususan, nay

ijrochiligi ham global madaniy muhit ta'sirida yangi mazmun va shakl kasb etmoqda.

Zamonaviy musiqa muhitida nay cholg'usining transformatsiyasi uning funksional va badiiy imkoniyatlarining kengayishi bilan ifodalanadi. Ilgari asosan maqom va an'anaviy ijrochilik doirasida qo'llanilgan nay bugungi kunda turli musiqiy loyihalarda, sahnaviy chiqishlarda va eksperimental ijrolarda ham ishtirok etmoqda. Bu holat cholg'u imkoniyatlarini yangi jihatdan namoyon qilish bilan birga, ijrochidan ham ko'p qirralilik va moslashuvchanlikni talab qiladi. Jahon musiqiy madaniyati bilan integratsiya jarayonlari natijasida nay ijrochiligi turli xalqlar musiqiy an'analari bilan muloqotga kirishmoqda. Xalqaro festivallar, qo'shma konsertlar va ijodiy hamkorliklar orqali nay ijrochilari o'z mahoratini keng auditoriyaga namoyon etish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, milliy ijrochilikni dunyoga tanitishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, uning uslubiy jihatdan boyishiga ham zamin yaratadi.

Globalashuv ta'sirida nay ijrochiligida yangi janr va uslublar ham shakllanmoqda. Ayniqsa, fusion va crossover kabi yo'nalishlarda nay cholg'usi turli musiqiy tizimlar bilan uyg'unlashtirilib, yangicha badiiy ifoda vositalari yaratiladi. Bu kabi ijrolarda an'anaviy ohanglar zamonaviy ritm va garmoniyalar bilan birlashtirilib, keng tinglovchilar qatlamiga mo'ljallangan musiqiy mahsulotlar yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, bunday uslubiy sintez ijrochidan an'anaviy maktab asoslarini chuqur bilishni va ularni ijodiy ravishda qayta ishlashni talab qiladi.

Raqamli texnologiyalar rivoji ham nay ijrochiligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Audio va video yozuvlar sifati oshishi, onlayn platformalar orqali ijrolarni keng tarqatish imkoniyati, ijrochilar uchun yangi auditoriyalarni ochib bermoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonida ham raqamli resurslardan foydalanish orqali nay ijrochiligini o'rganish imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq bu jarayon an'anaviy ustoz-shogird tizimining ahamiyatini kamaytirmasligi, aksincha, uni zamonaviy sharoitga moslashtirishni talab etadi.

Zamonaviy musiqiy makonda milliy an'analar va global tendensiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Nay ijrochiligi misolida bu holat an'anaviy ijro uslublari bilan innovatsion yondashuvlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ayrim hollardagi qarama-qarshilik orqali kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviylik va yangilik o'rtasida muvozanatni ta'minlash ijrochilik amaliyotida muhim masalalardan biri hisoblanadi.

An'anaviy ijrochilik maktablari asrlar davomida shakllangan qoidalar, uslubiy me'yorlar va ijro madaniyatiga asoslanadi. Ular nay ovoziining tabiiyligi, nafas texnikasining o'ziga xosligi va maqomga xos melodik tafakkurni saqlashga xizmat qiladi. Biroq innovatsion yondashuvlar ta'sirida ushbu an'analar ayrim hollarda qayta ko'rib chiqiladi, zamonaviy ijro talablariga moslashtiriladi. Bu esa an'anaviylikni inkor etmasdan, balki uning yangi sharoitdagi ifoda imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo etadi.

Milliy uslubning saqlanishi yoki transformatsiyasi masalasi mazkur jarayonning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Global ta'sirlar natijasida ayrim ijrochilar an'anaviy uslubiy elementlarni qisman o'zgartirish yoki ularni boshqa musiqiy tizimlar bilan uyg'unlashtirishga intiladi. Natijada yangi ijro shakllari yuzaga keladi, ammo bu jarayonda milliy uslubning asosiy belgilarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, ijrochilik o'zining ildizlaridan uzilib qolish xavfiga duch kelishi mumkin.

Nay ijrochiligida identivlik, ya'ni o'zlikni anglash muammosi ham globallashtirish sharoitida alohida ahamiyatga ega. Ijrochi nafaqat texnik jihatdan yetuk bo'lishi, balki o'z ijrosida milliy musiqiy tafakkurni namoyon eta olishi lozim. Bu esa uning qay darajada an'anaviy maktabga tayanishini, shu bilan birga, zamonaviy musiqiy muhit talablarini qay tarzda qabul qilishini belgilaydi. Identichlikni saqlash ijrochining ijodiy mustaqilligi va madaniy mas'uliyati bilan bevosita bog'liqdir. Yosh ijrochilar ijodida global ta'sirlar ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy axborot makoni, internet va media resurslar orqali ular turli

musiqiy uslublar bilan erkin tanishish imkoniga ega. Bu holat ularning musiqiy dunyoqarashini kengaytiradi, biroq ayni paytda an'anaviy ijrochilik asoslarini yetarli darajada o'zlashtirmaslik xavfini ham yuzaga keltiradi. Shu bois, yosh avlodni tarbiyalashda an'ana va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan holda yondashish muhimdir.

Madaniy almashinuv jarayonlari esa nay ijrochiligining rivojlanishiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy jihatdan qaraganda, bu jarayon milliy musiqani xalqaro miqyosda targ'ib qilish, yangi ijodiy g'oyalarni o'zlashtirish va ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, salbiy jihatlari sifatida milliy uslubning soddalashuvi, standartlashuvi yoki ommaviy madaniyat ta'sirida o'z xususiyatlarini yo'qotishi ehtimoli mavjud. Nay ijrochiligida milliylik va globalizatsiya o'rtasidagi o'zaro ta'sir dinamik jarayon bo'lib, u doimiy ravishda o'zgarib boradi. Ushbu jarayonda an'anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviy sharoitda rivojlantirish o'rtasidagi muvozanatni topish ijrochilik san'atining barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi.

Nay ijrochiligida milliylik va globalizatsiya jarayonlarini chuqurroq anglash uchun aniq ijrochilar va ijro namunasida amaliy tahlil o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Bu borada an'anaviy maktab vakillari hamda zamonaviy ijrochilar faoliyatini qiyosiy o'rganish orqali mazkur jarayonlarning amaliy ko'rinishlari ochib beriladi [1, 89-b].

Avvalo, an'anaviy ijrochilik maktabi namoyandalari ijrosini ko'rib chiqsak, ularda maqom an'analariga qat'iy rioya qilish, ohangni tabiiy va chuqur ifoda etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, klassik yo'nalishda tarbiya topgan nay ijrochilarining Shashmaqom asarlarini ijro etishida tovushning barqarorligi, nafasni nazorat qilish va melizmatik bezaklarni aniq va me'yoriy qo'llash yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday ijrolarda asosiy e'tibor musiqiy mazmunni chuqur ochishga qaratilgan bo'lib, tashqi effektlardan ko'ra ichki ifoda ustuvorlik qiladi.

Zamonaviy ijrochilar faoliyatida esa ma'lum darajada uslubiy erkinlik va eksperimental yondashuv kuzatiladi. Ayrim yosh nay ijrochilari an'anaviy maqom

yo'llarini saqlagan holda, ularni zamonaviy aranjirovkalar bilan boyitib ijro etishga harakat qiladilar. Masalan, nay cholg'usini jonli ansambl tarkibida fortepiano, gitara yoki sintezator kabi cholg'ular bilan uyg'unlashtirish holatlari uchramoqda. Bu esa nay ovozinining yangi tembriy muhitda namoyon bo'lishiga imkon yaratadi.

An'anaviy va zamonaviy ijroni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ijroda musiqiy shakl va uslub qat'iy me'yorlarga asoslansa, zamonaviy ijroda individual talqin va improvizatsiya imkoniyatlari kengaygan. Masalan, an'anaviy ijroda maqomning muayyan bo'limlari qat'iy ketma-ketlikda ijro etilsa, zamonaviy talqinlarda ayrim qismlar qisqartirilishi yoki erkin tarzda qayta ishlanishi mumkin.

Jonli konsertlarda ijrochining emotsional holati, sahna madaniyati va tinglovchi bilan muloqoti muhim o'rin tutsa, studiya yozuvlarida texnik mukammallik va ovoz sifatining yuqoriligiga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, ayrim studiya yozuvlarida nay ovoziga reverberatsiya yoki boshqa akustik effektlar qo'shib, uning fazoviy eshitilish imkoniyatlari kengaytiriladi. Bu esa an'anaviy tabiiy ovozga nisbatan yangi eshitish taassurotini hosil qiladi.

Repertuar masalasiga kelsak, an'anaviy ijrochilar asosan maqom asarlari, xalq kuylari va klassik musiqiy merosga tayanadi. Zamonaviy ijrochilar repertuarida esa milliy asarlar bilan bir qatorda yangi bastakorlik namunalari, shuningdek, jahon musiqasidan adaptatsiya qilingan asarlar ham uchraydi. Masalan, ayrim nay ijrochilari xorijiy musiqiy mavzularni milliy uslubda qayta ishlab ijro etish orqali yangi ijodiy yo'nalishlarni sinab ko'rmoqdalar. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, nay ijrochiligida an'anaviylik va zamonaviylik bir vaqtning o'zida mavjud bo'lib, ular o'zaro ta'sir orqali rivojlanmoqda. Bu jarayonda ijrochining bilim darajasi, uslubiy tayyorgarligi va ijodiy yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Nay ijrochiligida milliylik va globalizatsiya o'rtasidagi muvozanatni saqlash jarayonida bir qator muammolar yuzaga keladi. Ular orasida eng jiddiy masala – milliy ijrochilik an'analarning yo'qolish xavfi hisoblanadi. Zamonaviy musiqiy muhitda global uslublar va zamonaviy texnologiyalar ta'sirida ayrim an'anaviy

texnika va uslubiy elementlar e'tibordan chetda qolmoqda. Bu esa nafaqat ijrochilik darajasini, balki milliy musiqiy merosning uzluksizligini ham tahdid ostiga qo'yadi.

Ta'lim tizimidagi kamchiliklar ham mazkur muammoni kuchaytirmoqda. Bugungi kunda ko'p hollarda musiqa ta'lim muassasalarida nay ijrochiligiga aniq va tizimli e'tibor berilmaydi, an'anaviy uslublarni chuqur o'rgatish uchun zarur metodik qo'llanmalar va malakali murabbiylar yetishmasligi kuzatiladi. Shuning natijasida yosh ijrochilar milliy maktab asoslarini yetarlicha o'zlashtira olmaydi, bu esa an'anaviy ijrochilikning uzluksizligini xavf ostiga qo'yadi [3, 62-b].

Global ta'sirlar sharoitida milliylikni saqlash va rivojlantirish uchun bir necha samarali yo'llar mavjud. Avvalo, ta'lim dasturlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Musiqiy ta'lim muassasalarida nay ijrochiligiga oid alohida kurslar, master-klasslar va amaliyotga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil qilish orqali yosh ijrochilar an'anaviy texnika va uslubni chuqur o'zlashtira oladilar. Shuningdek, milliy maktablarni qo'llab-quvvatlash zarur. Maxsus an'anaviy musiqiy maktablar, studiyalar va markazlar orqali ustoz-shogird tizimi uzluksiz saqlanishi ta'minlanadi va bu an'anaviy yo'nalishlarning kelgusida ham rivojlanishini kafolatlaydi.

Shuningdek, raqamli arxivlar yaratish ham milliy ijrochilikni saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy va xorijiy auditoriya uchun onlayn platformalarda klassik va an'anaviy ijro yozuvlarini saqlash, ularni keng tarqatish imkoni, kelgusidagi ijrochilar uchun boy ilmiy va amaliy manba yaratadi. Bu jarayon an'anaviy uslubning zamonaviy texnologiyalar orqali saqlanishini ta'minlaydi va globallashtirish sharoitida milliylikni mustahkamlaydi.

Ta'kidlash kerakki, milliy ijrochilik an'alarining yo'qolishi va ta'lim tizimidagi kamchiliklar kabi muammolarni hal qilish uchun ta'limni takomillashtirish, an'anaviy maktablarni qo'llab-quvvatlash va raqamli arxivlar yaratish kabi chora-tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa nay

ijrochiligining milliylik va zamonaviylik o'rtasidagi muvozanatini saqlashda asosiy yo'ldosh vazifasini bajaradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Bobojonov X. *O'zbek milliy musiqiy merosi va uning ijrochiligi.* – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.
2. Levin T. *The Performance of Traditional Music in the Global Era.* – New York: Routledge, 2006. – 320 p.
3. Nazarov I. *Maqom san'ati va milliylik.* – Toshkent: Muassasa, 2012. – 180 b.
4. Nettl B. *The Study of Ethnomusicology: Thirty-One Issues and Concepts.* – Urbana: University of Illinois Press, 2005. – 375 p.
5. Qurbonov R. *Nay ijrochiligida an'anaviy uslublar va yangi tendensiyalar.* – Toshkent: Madaniyat nashriyoti, 2015. – 210 b.
6. Sayfullayev Sh. *Yosh ijrochilar va zamonaviy musiqiy muhit.* – Toshkent: Madaniyat va san'at, 2018. – 198 b.
7. Slobin M. *Globalization and Music: Cultural Exchange and Transformation.* – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 305 p.

**Davlat Mullajonov**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi  
dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi  
E-mail: mulladjanov59@gmail.com*

**Shirin Umarqulova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyati instituti  
Madaniyatshunoslik mutaxassisligi magistranti  
E-mail: sunnatilla8185@mail.ru*

## **SAODAT QOBULOVA IJODI VA O'ZBEK VOKAL MAKTABINING SHAKLLANISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Saodat Qobulovaning ijrochilik va pedagogik faoliyati o'zbek vokal maktabining shakllanishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xonandaning milliy an'analarni saqlagan holda akademik vokal uslubini rivojlantirishdagi o'rni, uning shogirdlar tayyorlashdagi faoliyati va milliy musiqiy merosni targ'ib etishdagi hissasi alohida ta'kidlanadi.*

***Kalit so'zlar:** Saodat Qobilova, milliy xonandalik, akademik vokal, o'zbek opera, lirik soprano, temp, tembr, konsert ijrochiligi, pedagogik faoliyat.*

## **THE CREATIVITY OF SAODAT QOBILOVA AND THE FORMATION OF THE UZBEK VOCAL SCHOOL**

***Abstract.** This article analyzes the performance and pedagogical activities of Saodat Qobilova in the context of the development of the Uzbek vocal school. It highlights her role in shaping an academic vocal style while preserving national traditions, her contribution to the training of young performers, and her efforts in promoting the national musical heritage.*

***Keywords:** Saodat Qobilova, national vocal art, academic vocal style, Uzbek opera, lyric soprano, vocal technique, timbre, concert performance, pedagogy.*

O'zbekiston musiqa madaniyati o'zining boy an'analari, betakror ijrochilik maktabi va xalq ruhiyatini aks ettiruvchi ijodkorlari bilan dunyo miqyosida e'tirof

etilgan. Ana shunday zabardast san'atkorlardan biri, O'zbekiston xalq artisti, iste'dodli xonanda Saodat Qobulova bo'lib, uning ijodi milliy musiqa san'atining rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Saodat Qobulova o'zining betakror ovozi, yuksak ijrochilik mahorati va xalq qo'shiqlariga bo'lgan chuqur mehr-muhabbati bilan tinglovchilar qalbidan mustahkam o'rin egallagan. Uning ijodiy merosi o'zbek vokal san'atining yuksalishiga munosib hissa qo'shgan.

Taniqli opera, milliy ashulachilik san'ati namoyandasi Saodat Qobulova 1925-yilda Marg'ilonda tug'ilgan. U 1954-yilda Moskvadagi O'zbek opera studiyasini, 1959-yilda Toshkent davlat konservatoriyasi (hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasi)ni tugatgan. O'zbek musiqa merosi va milliy ashula san'atining asl namunalarini To'xtasin Jalilov, G'anijon Toshmatov va Jo'raxon Sultonov, Emmanuel Baroyev, Xolxo'ja To'xtasinovlardan o'rgangan bo'lsa, Moskvada Belyavskaya, Goldman kabi ustozlardan opera bo'yicha ta'lim oladi. S.Qobulova san'atdagi faoliyatini juda erta – 1939-yilda Marg'ilon kolxoz va sovxoz teatrida boshlagan. U 1940-1948-yillarda Muqimiy nomidagi teatrdan ishlab, S.Abdullaning "Tohir va Zuhra" musiqali dramasida Qamar, K.Yashinning "Nurxon" asarida Nurxon rollarini ijro etadi, konsert ijrochiligi bilan shug'ullanadi.

Saodat Qobulova ijodi o'zbek vokal san'ati rivojida muhim davrni belgilab berdi, desak xato bo'lmaydi. U milliy ashulachilik an'analarini Yevropa mumtoz vokal texnikalari bilan uyg'unlashtirgan holda o'ziga xos vokal uslubini yaratdi. Bu uslub nafaqat o'zbek opera xonandalari orasida yangi mezonlarni belgilashga xizmat qildi, balki milliy musiqa merosining xalqaro miqyosda tanilishida ham muhim rol o'ynadi. Xonandaning ovoz tembri go'zal, yorqin va jilodor bo'lib, u har bir ijrosida hissiyotlarni tinglovchilarga chuqur yetkazish imkoniyatiga ega edi. Alohida ta'kid joizki, xonandaning vokal texnikasidagi eng muhim jihat uning lirizm va koloratura unsurlarini mukammal uyg'unlashtira olishi bilan bog'liq. Masalan, "Dilorom" va "Oyxon" partiyalarini ijro etishda u ovozining yuqori tembrlarini silliq va tabiiy ravishda mohirona ijro etib, sahnadagi obrazning ichki

ruhiyatini chuqur ochib berishga muvaffaq bo'lgan. Bu esa nafaqat tomoshabinlarni maftun etgan, balki o'zbek vokal san'atining yangi shakllarini yaratishga ham turtki bo'lgan [1].

S.Qobulova ijodida sahnadagi obrazlar bilan vokal ijro orasidagi uyg'unlik eng muhim mezon hisoblanadi. Masalan, Huri (T.Sodiqov, B.Zeydman, Y.Rajabiy, D.Zokirov, "Zaynab va Omon"), va Sanobar (S.Boboyev, "Hamza"), rollarida xonanda sahna harakatlari, mimikasi va vokal ifodalarini birlashtirib, dramatik ta'sirchan obrazlarni yaratgan. Mazkur unsurlar tomoshabinlar uchun sahnadagi obrazning jonli va hayotiy ko'rinishini ta'minlagan. Shu bilan birga, har bir qahramon obrazini yaratishda S.Qobulova temp, ritm va frazirovkaga alohida e'tibor qaratgan, bu o'z navbatida operadagi musiqiy dramatismni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

S.Qobulovanning repertuaridagi o'zbek opera partiyalarida milliy xonadalik ijrochilik unsurlarini mukammal aks ettiradi. Xususan, Jamila, Layli, (T.Sodiqov, R.Glier, "Layli va Majnun"), Zuhra (T.Jalilov, B.Brovsin, "Tohir va Zuhra") kabi rollarda xonanda o'zbek mumtoz ashulalaridagi bezak va nolalarni yuksak tarzda ishlatgan. Bu uslub orqali u milliy vokal an'analarni zamonaviy vokal ijrochilik texnikasi bilan uyg'unlashtirib, o'zbek opera xonandalari uchun yangi namunaviy vokal me'yorini yaratgan. Shu jihatdan qaraganda, S.Qobulovanning ijodi milliy musiqa merosini saqlab qolish va uni rivojlantirishga qaratilgan muhim yo'nalish sifatida baholanishi mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, o'zbek mumtoz maqom va zamonaviy ashulalar S.Qobulova repertuaridan mustahkam o'rin olgan. U kuylagan va magnit tasmlariga tushirilgan "Bayot 1, 2, 3, 4, 5", "Talqini Bayot", "Saraxbori Oromijon", "Samarqand Ushshog'i", "Chapandozi Navo", "Dugoh", "Iroqi Buxoro", "Etmasmidim", "Bu ko'ngildir" kabi o'nlab ashulalar, o'zbek kompozitorlarining romanslari hech qachon o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi.

1969-yildan boshlab S.Qobulova Toshkent davlat konservatoriyasida o'zini pedagogik faoliyatiga bag'ishladi. Shogirdlari o'z ustozlarini jon-dildan sevar, u

bo'lsa ular bilan mashg'ulot o'tkazishdan zavq olardi. 1988–1997-yillarda u “Akademik vokal” kafedrasiga rahbarlik qilib, butun bir xonandalar avlodini tarbiyalab yetishtirdi. Bugungi kunda uning shogirdlari nafaqat O'zbekistonning, balki yaqin va uzoq xorijning yetakchi sahnalarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. O'nlab vokalistlarni yetishtirgan bo'lib, hozirda ular milliy musiqa san'atimizning yetakchi vakillariga aylanishgan [2].

San'atkorning pedagogik metodikasi bugungi kunda ham o'zbek vokal maktabining asosiy qoidalaridan biri sifatida o'rganilmoqda. Uning shogirdlari milliy vokal an'analarini o'rganish bilan cheklanmagan, balki sahnadagi obrazlarni yaratish, vokal texnika va interpretatsiyasi bo'yicha yuqori malaka egasi bo'lgan. Shu jihatdan qaraganda, S.Qobulova o'zbek vokal pedagogikasining rivojlanishida poydevor yaratgan, yangi avlod xonandalarini tarbiyalash orqali milliy vokal san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Xonandaning xalqaro faoliyati ham alohida e'tiborlidir. U Jahon yoshlari festivalida (Moskva, 1957) laureat bo'lgan, shuningdek, Osiyo, Yevropa va Amerika mamlakatlariga gastrol qilgan. Bu faoliyat nafaqat uning shaxsiy ijodiy yuksalishini, balki o'zbek vokal san'ati va madaniyatining xalqaro tanilishidagi rolini ham ko'rsatadi. S.Qobulovanning ijodida shuningdek, dramaturgik tahlilning o'rni katta. U sahnadagi obrazlarni ijro etishda psixologik realizmni qo'llagan. Masalan, “Tohir va Zuhra” operasidagi Zuhra partiyasini ijro etishda xonanda sahnada obrazning ichki kechinmalarini ovozi orqali yetkazgan. Shu bilan birga, sahnadagi mimika, harakat va frazalarni ishlatishi, obrazning hissiy qiyofasini aniq ko'rsatishga yordam bergan. Shu bilan birga, u bu asarlarni sahna va konsert zalida ijro etib, musiqiy merosning nozik jihatlarini keng auditoriyaga yetkazgan. Bu esa uning konsert ijrochiligi milliy vokal merosini saqlash va rivojlantirishga qaratilganligining namunasidir. Shu bilan birga, sahnadagi mimik harakatlar va frazalarni ishlatishi, obrazning hissiy qiyofasini aniq ko'rsatishga yordam bergan. Bu iqtidorni Muxtor Ashrafiyning quyidagi so'zlari yaqqol tasdiqlaydi – “Uning ovozi orkestr bilan suhbatlasha olardi. U qo'shiq kuylamas, balki obrazni ovoz

bilan yaratadi” [3].

S.Qobulovning ijodi vokal texnikasi ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. U ovoz diapazonini kengaytirib, yuqori pardalarni nozik va tabiiy ravishda zabt etib, sahnadagi obrazning ichki dunyosini mukammal ifodalagan. Shu bilan birga, frazirovka, artikulyatsiya va dinamikani ijroda uyg‘unlashtirib, musiqiy dramatismni kuchaytirishga erishgan. Bu esa uning ijodiy uslubini boshqa xonandalar orasida ajratib turadi va o‘zbek vokal san’ati tarixida muhim mezon sifatida baholanadi [4].

Xonandaning ijodiy faoliyatida ijro etgan rollarining xilma-xilligi ham e’tiborga loyiq. U nafaqat milliy operalarda, balki jahon klassik operalarining bosh qahramonlari obrazini ham yuqori darajada ijro qilgan. Jumladan, Leyla (J.Bize, “Marvarid izlovchilar”), Violetta, Jilda (J.Verdi, “Traviata”, “Rigoletto”), Madam Batterflyay (J.Puchchini, “Chio-Chio-san”), Rozina (J.Rossini “Sevilya sartaroshi”), Mimi (J.Puchchini, “Bogema”) rollari xonandaning xalqaro repertuarini tashkil qilgan. Bu esa uning vokal san’atining nafaqat milliy, balki xalqaro meyor talablariga javob berishini ko‘rsatadi.

Betakror ovoz sohibi, yuksak iqtidor egasi bo‘lgan Saodat Qobulovning o‘zbek san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi munosib e’tirof etildi. U “Do‘stlik” (1998), “Buyuk xizmatlari uchun” (2001) ordenlari bilan mukofotlandi. Xonanda haqida “O‘zbektelefilm” tomonidan “Saodat”, “Saodat Qobulova kuylaydi” hujjatli filmlari yaratildi [5].

Saodat Qobulova o‘zining yorqin ovozi, sahnadagi obrazlarni mukammal ijro etishi, konsert va pedagogik faoliyati bilan o‘zbek vokal san’atida maktab yaratgan ustoz-san’atkor. U nafaqat o‘zbek opera san’ati rivojiga, balki xalqaro miqyosda O‘zbekiston madaniyatining tanilishiga ham xizmat qilgan ustoz san’atkoridir. S.Qobulovning ijodi zamonaviy vokal pedagogikasi va milliy xonandalik merosini uyg‘unlashtirgan holda o‘zbek akademik vokal san’ati maktabini yaratgan benazir san’atkoridir.

---

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umirova A. Saodat Qobulova: men dunyoda baxtli ayolman! // “Hurriyat” gazetasi 2007. Qarang: <https://ziyouz.uz/suhbatlar/saodat-obulova-men-dunyoda>
2. Гулзарова И. Саодат Кабулова. К юбилею легенды узбекской оперной сцены. <https://nuz.uz/2025/12/15/saodat-kabulova-k-yubileyu-legendy-opernoj>
3. Shokirov O'., Abduqunduzov M. Milliy teatrimiz namoyandalari (Mo'jaz ijodiy chizgilar). – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2002. – 213 b. <https://nuz.uz/2025/12/15/saodat-kabulova-k-yubileyu-legendy-opernoj>
4. Qobulova S. Tarjimai hol. <https://arboblar.uz/uzkr/people/kabulova-saodat>
5. Ashrafiy M. Xotiralar. – Toshkent: Yozuvchi, 1984, – 77 b.

**Dilbar Xayitbayeva**

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
“Fakultetlararo fortepiano ijrochiligi” kafedrası dotsenti  
E-mail: dilbarxayitbaeva1962@gmail.com*

## **SULTON HAYITBOYEV IJODIDA XORAZM XALQ OHANGLARINING TALQINI**

***Annotatsiya.** Maqola O'zbekiston kompozitorlik maktabining yorqin namoyondasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, atoqli kompozitor, professor Sulton Hayitboyevning xalq cholg'ulari uchun yozgan asarlarida Xorazm xalq ohanglarining talqini haqida so'z boradi. Asosiy e'tibor kompozitorning qashqar rubobi va fortepiano uchun qayta ishlangan “Qoradali” hamda “Aliqambar” kuylariga qaratiladi.*

***Kalit so'zlar:** kompozitor, xalq kuylari, milliy, ijrochilik mahorati, solo partiyasi, jo'rovoz.*

## **THE INTERPRETATION OF KHOREZM FOLK MELODIES IN THE WORKS OF SULTAN HAYITBOYEV**

***Abstract.** Hayitboyev, a prominent representative of the Uzbek school of composition, Honored Artist of Uzbekistan, composer, and professor. Special attention is given to the Khorezm folk melodies “Qoradali” and “Alikambar,” which were arranged by the composer for Kashgar rubab and piano. The study highlights the composer's approach to interpreting traditional musical material within a modern compositional framework.*

***Keywords:** composer, folk melodies, national music, performing art, solo part, accompaniment.*

Kompozitorlik ijodiyotida xalq musiqasi – folklorga murojaat etish, mualliflik asarlarining negizi etib milliy kuy-qo'shiqlarni tanlash milliy kompozitorlik maktabini shakllantirish yo'lidagi muhim qadamlardan hisoblanadi. Milliylikni anglash, milliy ohanglar yordamida shaxsiy ijodiy uslubini namoyish etish har bir taniqli kompozitor amaliyotida mavjud. Ayniqsa romantizm davrida

turli mamlakatlar kompozitorlari o'z milliy musiqasini keng jahonga olib



chiqishlari, F.Shopen, F.List, B.Smetana, A.Dvorjak, E.Grig, M.I.Glinka, "Qudratli to'da" vakillari kabi taniqli kompozitorlar ijodida milliy musiqaga bo'lgan katta e'tibor milliy madaniyatni yangi qirralarda dunyoga namoyish etishga omil bo'ldi.

Xalq musiqasini kompozitorlik ijodiyotida qo'llash, milliy va umuminsoniy tafakkurni kompozitorlar yaratgan asarlar yordamida xalqqa yetkazish tajribasi O'zbekistonda ham mavjud. XX asrning boshlarida zaminimizda shakllangan kompozitorlik maktabining ilk namoyondalari Viktor Uspenskiy, Yunus Rajabiy, Doni Zokirov, Reyngold Glier, To'xtasin Jalilov va boshqa kompozitorlar hamda bastakorlar yaratgan turli janrdagi asarlari zamirini milliy musiqa tashkil etdi. Bu an'ana keyingi avlod kompozitorlari Aleksey Kozlovskiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy, Georgiy Mushel, Manas Leviyev, Boris Giyenko, Sulaymon Yudakov, Mutal Burhonov, Abdurahim Sobitov, Fattoh Nazarov, Sharif Ramazonov va boshqalar ijodida yangi ko'rinishda o'z davomini topdi. XX asrning ikkinchi yarmidan keng ijodiy faoliyatini boshlagan Sulton Hayitboyev ham xalq ijodiga murojaat qilgan holda ko'plab sara asarlarni yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Sulton Hayitboyev ijodida musiqali drama, qo'shiq va ashula janrlari yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kompozitor turli cholg'ular uchun yirik va kichik janrlarda asarlar yaratib, o'z ijodiy uslubini namoyish etishga, tinglovchilar e'tiborini qozonishga muvaffaq bo'ldi. "U cholg'u musiqasi yaratishini talabalik davridan boshladi. S.Hayitboyev o'sha davrda asosan Yevropa musiqa san'atida shakllangan "Uvertyura", "Poema", "Syuita", "Sonatina", "Sonata", "Prelyudiya", "Fuga", "Simfoniya", "Cholg'u konsert" kabi janrlarning

tuzilish shakl xususiyatlarini puxta o'zlashtirishga harakat qildi. Ustozi professor B.B.Nadejdin rahbarligida turli janrlarda musiqiy asarlar yozib tajriba orttirdi.

O'sha yillari skripka, violonchel, fleyta, klarnet, goboy, fortepiano, turli sozlardan tashkil topgan ansambllarga musiqiy asarlar yaratish yo'lida izlandi" [1, 99-b]. Puxta bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan S.Hayitboyev o'zining turli cholg'ular uchun yozgan kamer cholg'u kuylarida professional mahoratini ko'rsatib bera oldi. "Kamer musiqa, – deb yozadi musiqashunos N.Kadirova, – murakkab intellektuallashtirilgan, inson qalbi va ichki olamining tub-tubini tadqiq qilishga yo'naltirilgan janrdir... His-tuyg'uning mayin ranglarini ifodalovchi kamer cholg'u musiqa musiqiy madaniyatning yuqori darajasini, maxsus professional bilimni, kompozitorlik sohasiga ega bo'lishni, shakl, kontrapunktik tafakkurni talab qiladi" [3, 194–195-b].

Kompozitor kamer cholg'u janrida ijod qilar ekan, boshqa janrlardagi singari bu yo'nalishda ham yaratgan va tanlagan ohangining milliyliigi hamda xalqchilligiga katta e'tibor qaratadi. Ayniqsa kompozitor ijodida o'zi o'sib ulg'aygan diyori – azim Xorazm xalq kuyi va qo'shiqlarining betakror ohanglari, ijro uslubi muhim o'rin tutadi. "Bir tomondan qadimiy qahramonlik va ishqiy-romantik dostonlar ijrosi, ikkinchi tomondan, sozchilar, baxshilar va xalfalar tilida o'tmish hamda yangi zamon qo'shiqlarining baralla jaranglashi yosh Sultonga ta'sir etmasdan qolmadi, – deb yozadi filologiya fanlari doktori, professor Malik Murodov, – bo'lajak san'atkor yoshligidayoq ona xalqining sho'x, o'ynoqi kuy-musiqasi-yu ashula-raqslari mo'jizasidan o'z tashnaligini qondirib qolmasdi. Diliga jo qila boshladi, ularni qunt va sabot bilan o'rgana boshladi" [4, 3-b].

Milliy ohanglar asosida kuy yaratish qatorida kompozitor ularni kompozitorlik ijodiga xos tarzda talqin qilishga, turli cholg'ular ansambliga moslashtirishga ham e'tibor qaratdi. Xususan, Xorazmning urfiy (og'zaki an'anada) bizgacha yetib kelgan "Qoradali" va "Aliqambar" maqomlari kuylarini kompozitor rubob va fortepiano uchun moslashtirib o'ziga xos talqin qildi.

Ko'p asrli tarixga ega bo'lgan "Qoradali" va "Aliqambar" kuylari Xorazm xalqining milliy musiqa meroslaridan hisoblanadi. Mazkur kuylar o'zining vazmin xarakterga egaligi, salobatlilik bilan ajralib turadi. Xonlar saroylarida asosan tor solosida dutor, doyra, nay, qo'shnay kabi xalq cholg'ulari ansambli jo'rligida ijro etilganligi haqidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Ma'lum davr va davralarda garmon cholg'usi ham ularga jo'r bo'lgan.

Asarlarning umumiy xususiyatlari bu – ularning maqom janri shakliga xos bo'lgan xona va bozgo'zlar asosida rivojlanishi, daromad, avj, miyonxat va furovardlarga egaligi bo'lib, kuylar bir balandlikdagi tovushlarning atroflicha kuylanishi orqali rivojlantirilishi, qashqar rubobi texnik imkoniyatlari doirasida tovushlarning "rez" ijrosi, ochiq simlarda qo'shimcha notalarni ijro etish yordamida bezaklar bilan boyitilishi orqali rivojlantirish xususiyatlarini o'zida mujassamlaydi. Kuylardagi o'zgarishlar asosan tovushlarning balandligi bilan bog'liq bo'lib, ritmik tuzilish asosiy shaklini saqlab qoladi. Milliy ohanglarning fortepiano jo'rligida talqin etilishi ularning yevropa an'alariga xos tarzda ijro etilishiga zamin yaratadi. Bunda biz xalq kuylarining maxsus ta'lim muassasalarining (ixtisoslashtirilgan san'at maktablari, litsey, san'at va madaniyat instituti, konservatoriya va boshqalar) o'zbek xalq cholg'ulari akademik ijro yo'nalishida tahsil oladigan o'quvchi va talabalar uchun qayta ishlanganligini inobatga olishimiz lozim.

"Qoradali" asari o'rtacha tezlikdagi sur'atda, Iya frigiyladida bayon etilgan bo'lib, rivojlanish jarayonida sol minor, Iya minor, sol frigiyladlariga o'tib ohang yangi ranglar bilan boyitiladi. Punktir ritm asosida harakatlanuvchi musiqiy fikr takrorlanish tamoyiliga asoslangan bo'lib, u dinamik, pardalarning nisbatan yuqoriga harakatlanishi, lado-tonal o'zgarishlar natijasida yangi xususiyatlarga ega bo'lib boradi. Musiqiy ohangning bunday talqini kuyga o'zgacha sehr baxsh etib, tinglovchi diqqatini o'ziga tortadi.

Qashqar rubobga jo'r bo'luvchi fortepiano partiyasi gamofon-garmonik tuzilma asosida rivojlantirilgan bo'lib, u o'ziga xos akkordli va oktavali

tovushlarga asoslangan faktura asosida harakatlantirilgan. Bunda kompozitor yakkanavoz va jo'rovoz partiyalarida lado-tonal mutanosiblikni, solo partiyasida keluvchi to'xtalishlarni jo'rovoz yordamida to'ldirish orqali umumiy muvozanatni saqlash va kuyni garmonik boyitib, ta'sir kuchini kuchaytirishga erishadi. Solo va jo'rovoz orasida savol – javob tarzida keluvchi ohanglar tuzilmalari ham asarning dramaturgik rivojlanishini ta'minlaydi.

O'rta qism butun asarning avjini tashkil etib II pog'onasi pasaytirilgan si majorda bayon etiladi. Bunda ham lado-tonal kontrast, jo'rovozda fakturaviy o'zgarishlar kuzatiladi.

*Allegretto*


The image shows a musical score for a piece marked 'Allegretto'. It consists of two systems of staves. The first system has a vocal line (treble clef) and piano accompaniment (grand staff). The second system continues the vocal line and piano accompaniment. The piano part features a steady eighth-note accompaniment in the right hand and a more active bass line in the left hand. The key signature has one flat (B-flat), and the time signature is 6/8.

Asar reprizasida yana boshlang'ich sokinlik, tonal barqarorlikka qaytiladi.

Navbatdagi, "Aliqambar" xalq kuyi sekin sur'atda ifoda etilib, unda asosiy tonallik sifatida kompozitor si minorni tanlaydi. Bir maromda harakatlanuvchi tovushlarning atroflicha kuylanishi, keyingi pardalarga asta-sekinlik bilan harakatlangan holda rivojlanishga asoslangan bu musiqiy ohang insonning his tuyg'ulari, ichki olami haqida so'zlaydi go'yo. Qashqar rubobining ochiq simlarida yangrovchi qo'shimcha pardalar bitta cholg'uda suhbat olib borilayotganday his etiladi. Unga qo'shilgan fortepiano partiyasidagi tovushlarning ovoz osti harakatlari

natijasida ikkita cholg'u o'rtasida ham gomofon-garmonik, ham polifonik rivojlanish tamoyillari yuzaga keladi.

O'rta qism asarning avjini tashkil etib, u fa diyez minorda, nisbatan baland pardalarda dinamik kuchli talqin etilishi bilan ajralib turadi. Bu yerda fortepiano cholg'usida fakturaviy o'zgarishlar ham yuzaga keladi. Arpedjioli harakatlar solo partiyasining liriko-dramatik xususiyatlarini kuchaytiradi. Musiqiy fikrning rivojlanishi davomida akkordli tuzilmalar "quyuqlashib boradi", oktavali bayon etish uslubi ustivorlik qiladi. Bu hol asardagi his-hayajonni yanada oshiradi.



Asarning furovard, ya'ni yakuniy qismida musiqiy mavzu ilk pardalarga, sokinlikka qaytib unga yakun yasaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, S.Hayitboyevning har bir asarida milliy ruh, ijodkorning shaxsiy qalamiga xos uslub aks etib turadi. Rubob va fortepiano uchun qayta ishlagan xalq kuylarida ham solo partiyalarida asosiy xalq ohanglari saqlanib qolingan bo'lsa-da, unga ijodiy yondashuv, jo'rovoz partiyasining talqini, garmonik tuzilmalar, ovoz va ovoz osti tovushlarning harakatlari kompozitorning ijodiy tafakkuri va mahorati natijasini namoyon etadi. O'quv pedagogik va konsert repertuarlaridan o'rin olgan mazkur asarlar orqali o'quvchi va talabalar milliy musiqa merosimiz bilan yana bir bor tanishish hamda ularni ijro etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. S.Hayitboyev tomonidan qashqar rubobi va fortepiano uchun moslashtirilgan milliy musiqa namunalarimizni ijro etish, talqin qilishda

sozandalar ijrochilik mahoratining nozik jihatlariga diqqatni qaratish, tovushlar o'zgarishi, muntazam takrorlanadigan tovushlarni ijro etishda barmoqlarni pardalarga to'g'ri joylashtirish orqali asarlarning mukammal, tinglovchi diqqatini o'ziga jalb qiladigan darajada yangrashiga erishishlari mumkin bo'ladi. Tinglovchini falsafiy mushohadaga chorlovchi "Qoradali" va "Aliqambar" xalq kuylari yosh avlodning nafaqat ijrochilik mahoratini mustahkamlanishiga, balki ularning ma'naviy dunyoqarashini boyitishga ham xizmat qiladi.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Jabborov A. Sulton Hayitboyev. *Monografiya. Qo'lyozma*, 2020. – 185 b.
2. Jabborov A. *O'zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari*. – Toshkent: Musiqa, 2018. – 439 b.
3. Кадирова Н. *Камерно-инструментальная музыка // История узбекской советской музыки, 3 том*. – Тошкент: Литература и искусство, 1991. – 216 с.
4. Murodov M. *Bastakor, pedagog, inson. Qo'lyozma*. – 1986. – 9 b.
5. Hayitboyev S. *Qashqar rubob ohanglari. Notalar to'plami*. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983. – 39 b.

**Laziz Pirnazarov**

*Qashi davlat universiteti  
"Musiqqa ta'limi" kafedrasida dotsenti  
E-mail: pirnazarovlaziz708@gmail.com*

## **MUSIQANI IDROK ETISHNING FALSAFIY ASOSLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola musiqani idrok etish jarayonining falsafiy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Musiqa nafaqat akustik hodisa, balki inson tafakkuri, hissiyotlari va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan estetik tajriba sifatida o'rganiladi. Tadqiqot davomida musiqani idrok etishda subyektiv va obyektiv omillarning o'zaro ta'siri, fenomenologik yondashuv hamda musiqiy ma'no yaratilishidagi kongitiv jarayonlar tahlil qilinadi. Muallif musiqani shunchaki, tovushlar ketma-ketligi emas, balki dunyoni idrok etishning o'ziga xos usuli sifatida talqin etadi.*

***Kalit so'zlar:** musiqa falsafasi, estetik idrok, fenomenologiya, musiqiy asar, subyektivlik, giletik ma'lumotlar, tovush, ritm, pragmatik mezon, til falsafasi.*

## **PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF MUSIC PERCEPTION**

***Abstract.** This article is devoted to the analysis of the philosophical foundations of the process of musical perception. Music is studied not merely as an acoustic phenomenon, but as an aesthetic experience intrinsically linked to human thought, emotions, and cultural values. The research analyzes the interaction between subjective and objective factors in music perception, the phenomenological approach, and the cognitive processes involved in creating musical meaning. The author interprets music not just as a sequence of sounds, but as a unique way of perceiving the world.*

***Keywords:** philosophy of music, aesthetic perception, phenomenology, musical work, subjectivity, noetic data, sound, rhythm, pragmatic criterion, philosophy of language.*

Musiqani idrok etish falsafasi – bu tovushlar olamini shunchaki eshitish emas, balki uni hissiy, psixologik va estetik jihatdan tushunish, ongli ravishda his qilish jarayonidir. U inson ruhiyatiga tinchlik, xotirjamlik va estetik zavq bag'ishlovchi mo'jiza sifatida, badiiy-estetik didni shakllantiruvchi, musiqiy obrazlarni ongda qayta yaratuvchi asosiy omil hisoblanadi.

Musiqqa idroki – musiqqa mazmunini (musiqiy obrazni) eshita bilish va hissiy kechinmalari asosida o'zlashtirishdir.

Musiqiy idrok – murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning asosida real borliqning obrazlar orqali musiqiy tovushlarda aks etishini eshita olish va undan ta'sirlanish qobiliyati yotadi. Musiqiy asar olamiga “kirib borish”, musiqqa kayfiyatini his etish, g'oyasini tushunib yetish tinglovchining o'ziga xos ijodiy faoliyati tufayli ro'y beradi.

Musiqqa insonga o'zining ifoda vositalari – ohang, lad, metro-ritm, temp, dinamika, registr, faktura, ko'povozlik, shakl, garmoniya va h.z. kabi “bo'yoqlari” uyg'unligida ta'sir etadi. Bu ifoda vositalari asarning kayfiyati, go'zalligi, mazmuni va g'oyasini tinglovchiga yetkazib beradi. Ammo musiqani tushunish, ya'ni uni nafaqat hissiy qabul qilish, balki ong bilan ham tushunish, musiqqa nimani ifodalayotganligi va qanday ifodalayotganligini his etish, musiqqa bilan muloqatda bo'lishga ehtiyoj sezish insondan badiiy saviya, musiqiy, hayotiy tajriba talab etadi. Shuning uchun musiqashunoslar musiqqa tinglash aqlning kuchli faoliyati va o'ziga xos ijoddir deb ta'kidlaydilar. Idrok masalalari, xususan musiqqa vositasida uni rivojlantirish muammolari ko'plab bolalar bilan ish olib borgan musiqashunoslar, psixologlar va pedagog olimlarning izlanishlari asosini tashkil etadi. Musiqashunos B.L.Yavorskiy “Musiqani idrok qilish asosida fikrlash, musiqani “ma'noga ega nutq” sifatida qabul qilish malakasi yotadi”, – deb ta'kidlaydi [1].

Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli-strukturaviy, kritik-tahliliy metodlari qo'llaniladi. Manbalarni o'rganishda ularning yozilish maqsadlari, mualliflarining dunyoqarashi, davrning siyosiy-ijtimoiy sharoitlari hisobga olinadi.

Musiqqa fenomenologiyasi musiqiy ma'no masalasini ko'rib chiqadi. Asosiy fenomenologik tamoyillarga ko'ra, ma'no subyekt tomonidan shakllantiriladi. Musiqani tinglash – bu subyekt birlamchi “giletik ma'lumotlar”dan (tovushlar oqimi) eshitgan narsalari haqida tasavvur hosil qiladigan faol jarayon. E.Gusserl ohangni idrok etish misolidan foydalanib, vaqtinchalik ufqning ishlashini tushuntirdi: hozirgina eshitilgan narsa saqlash sohasiga chekinadi, oldindan ko'rilgan va kutilgan narsa esa himoya sohasida bo'ladi.

Biroq, musiqiy ma'noning o'zi Gusserl ishining doirasidan tashqarida qoldi. Bu savol birinchi marta Ingarden tomonidan o'rganilgan, u musiqiy asar qasddan yaratilgan obyekt, ya'ni u asosan subyektlarni idrok etish ongida mavjud deb hisoblagan. Bu mavjudlik befarq emas, mavhum emas, oddiy tovushlar to'plami emas. Subyekt musiqiy ma'noni tushunadi, uni tushunadi va musiqani tushunish nimani anglatishi haqidagi savol zamonaviy fenomenologik munozaralarning markazida turadi.

Musiqiy asar yaxlit – u tovushlar va ular orasidagi intervallardan iborat bo'lib, ritmik tarzda tashkil etilgan. Biroq, musiqiy asarni tushunish nimani anglatadi: individual intervallar va o'tishlarni tushunishmi yoki asarni umuman “tushunish”mi? Kania bu savolga ikkita yondashuvni taklif qildi – arxitektonizm va konkatenatsiya. Birinchi yondashuvga ko'ra, musiqiy asarni tushunish uning shaklini tushunishni anglatadi va keng ko'lamli klassik asarlar (masalan, simfoniya) uchun bu kattaroq shaklni tushunishni anglatadi. Aytish mumkinki, hatto qisqa asarlar uchun ham (masalan, rok qo'shig'i) qo'shiqni tushunish quyning umumiy naqshini tushunishni anglatadi. Ikkinchi kontseptsiya “kvazitinglash” tushunchasini, ya'ni individual tovushlar, intervallar va o'tishlarni idrok etishni kiritadi. Bular, go'yo musiqaning yakka morfemalari bo'lib, to'liq mazmunli bo'lish uchun juda qisqa, ammo musiqqa ulardan iborat, katta shakllardan emas. Shunday qilib, arxitektura mohiyatan musiqaga uning vaqtinchalik xususiyatidan mavhum qaraydi, konkatenatsiya esa musiqani o'z-o'zidan vaqtinchalik

[1, 639–648-b] deb hisoblaydi. Musiqani naqshlar va dizaynlar orqali tushuntirib bo'lmaydi, chunki vaqtinchalik yo'qolgan narsa endi musiqa emas.

E.Xuovinen musiqani nafaqat tushunish, balki noto'g'ri tushunish masalasini ham ko'rib chiqdi. U tushunishning ikki turini joriy qildi, ularni bevosita va kontseptual deb atash mumkin (u ularni idrok tushunchasi va epistemik tushuncha deb atadi). Bevosita tushunish konkatensiyachilar ta'riflagan narsaga yaqin – bu musiqiy iboralar, motivlar va ohanglarni tushunishdir. Kontseptual bevosita narsaga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, bu yirik asar kontseptsiyasini tushunishdir. Xuovinenning fikricha, tushunmovchilik faqat kontseptual darajada mumkin, ammo bu asossiz ko'rinadi, chunki murakkab zamonaviy klassik musiqa dastlab tovushlar to'plami sifatida paydo bo'lishi mumkin, keyin esa darhol tushunmovchilik paydo bo'ladi [2].

Musiqani tushunishga mumkin bo'lgan yondashuv pragmatik mezon bo'lishi mumkin: qabul qiluvchi musiqani (birinchi navbatda motiv va kuyni) agar uni gumburlay olsa, tushungan. Biroq, bu mezon juda zaif. Birinchidan, bu yaxshi quloqni talab qiladi, bu musiqiy tushunish uchun zarur emas. Ikkinchidan, murakkab akademik asarni gumburlab bo'lmaydi, garchi uni tushunish mumkin bo'lsa ham. Uchinchidan, tushunish reproduksiya bilan bir xilmi yoki yo'qmi, umuman noma'lum (masalan, matnni hech qanday tushunmasdan asl nusxaga yaqinroq qayta ifodalash mumkin).

Musiqani tushunish muammosi bilan bog'liq holda, falsafaning turli sohalari musiqa tilning bir turimi, ya'ni u mazmunni yetkaza oladimi degan savolni muhokama qiladi. Bu musiqa falsafasining ancha murakkab sohasi bo'lib, til falsafasi bilan chegaradosh, chunki “til” tushunchasining o'zi turli xil ta'riflarga ega. Rus musiqashunosligida musiqani til turi sifatida tushunish tendentsiyasi uzoq tarixga ega. Musiqa til nazariyasi tarafdorlari musiqa tinglash tasvirlar va hissiyotlarni uyg'otishini ta'kidlaydilar [3]. Vivaldining “To'rt fasl” yoki Mussorgskiyning “Ko'rgazmadagi rasmlar” kabi tematik asarlar musiqadan ba'zi qo'shimcha musiqiy tarkibni yetkazish uchun foydalanishga qaratilgan ko'rinadi.

Bu qarashni I.S.Baxning “Avliyo Matto ehtirosi” kabi buyuk liturgik musiqaga, shuningdek, dafn marosimlarida ijro etilgan dafn musiqasiga havolalar ham qo'llab-quvvatlaydi. Bunday musiqa kuchli va ulug'vor tajribalarni uyg'otadi. Biroq, E.Xanslikning asaridan boshlab, musiqa falsafasida musiqiy tarkibning mohiyatini boshqacha tushunish paydo bo'ldi. Xanslik musiqadagi go'zallik faqat musiqiy deb hisoblardi. U tovushlarning o'zida va ularning badiiy kombinatsiyasida mavjud va shuning uchun tashqi ta'sirga ega bo'lgan tarkibdan mustaqildir. Musiqa o'zidan boshqa mazmunga ega bo'lmagan tovush seriyalaridan, tovush shakllaridan iborat. Shunday qilib, musiqaning musiqiydan tashqari tarkibni yetkazish qobiliyati shubha ostiga qo'yildi [4].

Hozirgi kunda til nazariyasi ham aniqroq va qat'iyroq bo'lib qoldi. Til belgilar tizimi sifatida tushuniladi va belgi o'zidan boshqa narsaga ishora qiluvchi mavjudotdir. Til an'anaviy, ya'ni belgilarning ma'nolari tarixan shakllangan va amaliyotdan ma'lum; ular belgilarning o'ziga xos emas (“yorug'lik” so'zi yorug'lik emas). Til shaffofdir – muloqotda normal ishlaganda, u o'z ma'nosini e'tiborsiz qoldiradi (biz “yorug'lik” so'zining yetti harfdan iboratligi haqida o'ylamaymiz). Musiqa tilning bu ikkala mezonini ham qondira olmaydi. U asosan noan'anaviydir. U ma'lum musiqaning qayg'uli yoki baxtli deb hisoblanishi haqida oldindan kelishuvsiz o'z-o'zidan his-tuyg'ularni uyg'otadi (garchi, albatta, musiqaning ma'lum bir madaniy sharti mavjud bo'lsa ham). U shaffof emas; biz uni o'zi uchun tinglaymiz va faqat vaqti-vaqti bilan ma'lum tasvirlarni tasavvur qila olamiz. Masalan, faylasuf A.A.Medova musiqani til bilan tenglashtirib bo'lmaydi, deb hisoblaydi, chunki uning mazmuni musiqiydan tashqari emas [5].

Musiqa va hissiyot o'rtasidagi bog'liqlik keng adabiyotning mavzusi bo'lib kelgan. His-tuyg'ularni tasvirleydigan badiiy adabiyotdan farqli o'laroq, musiqa ularni to'g'ridan-to'g'ri uyg'otadi. Musiqaning bu xususiyati, ehtimol, uning barcha xususiyatlarining eng sirlisidir. Ko'p hollarda, minor mod qabul qiluvchi tomonidan g'amgin deb qabul qilinadi, garchi u shunchaki raqamli ketma-ketlik bo'lsa ham: 1, 1/2, 1, 1, 1, bu yozilganda hech qanday g'amgin narsaga ega emas.

Minor kalit bizga nima uchun va qanday qilib g'amgin ko'rindi? Musiqa falsafasidagi bu sir hali ham hal qilinmagan.

Musiqaning his-tuyg'ularni uyg'otish qobiliyatini berilgan deb hisoblaydigan ifoda nazariyalari mavjud. Bundan tashqari, bastakor tinglovchi bilan bir xil his-tuyg'ular va his-tuyg'ularni boshdan kechirgan deb aytish mumkinmi yoki yo'qmi, noma'lum. Shu munosabat bilan "ekspressionizm" deb ataladigan narsa muhokama qilinadi. Badiiy adabiyotning musiqaga nisbatan qo'llaniladigan paradoksi. Bu paradoks shundaki, badiiy adabiyot o'quvchiga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin, garchi ular roman syujeti xayoliy ekanligini va qahramonlar hech qachon mavjud bo'lmaganligini bilishsa ham. Xuddi shunday, qabul qiluvchi musiqa asarini tinglaydi – masalan, dafn marosimi – va qayg'uni boshdan kechiradi, garchi bastakor ham xuddi shunday tuyg'uni boshdan kechirganini anglamasa ham. Bu paradoks bilan chambarchas bog'liq bo'lgan narsa "fojia paradoksi" bo'lib, unda odam biron bir aniq tuyg'uni izlashga hech qanday sababi bo'lmasa ham, fojiali san'at asariga ataylab hamdardlik bildiradi.

Subyekt estetik tajribani maxsus moslashuv, kayfiyat va "ochiqlik" holatida oladi. Shunda musiqa, uning mazmuni qanday talqin qilinishidan qat'i nazar ekstramusiqiy, hissiy yoki sof intramusiqiy sifatida ekzistensial tajribaga aylanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, musiqa idrok ufqini to'ldiradi; bu boy hodisa. Boy hodisa o'ziga xos ma'noga ega; u o'zini asoslaydi. U bilan uchrashuv ong uchun asos bo'lishi mumkin. Aynan shu holatda biz subyekt musiqani tushunadi, deymiz. Bu yerda tushunish ekzistensial tajriba bilan uzviy bog'liq.

Biroq, har bir musiqiy asar subyekt uchun estetik hodisaga aylana olmaydi, xuddi har bir asar tushunish uchun ochiq bo'lmagani kabi. Bu musiqiy sifatning qiyin savolini tug'diradi, chunki musiqaning a'lo yoki o'rtacha ekanligini aniqlash uchun universal mezonlar yo'q. Deyarli har qanday musiqa har qanday subyekt uchun estetik tajribaga aylanishi mumkin. Shuning uchun, estetik hodisani nima tashkil etishi va nima emasligi haqidagi qaror konsensus asosida qabul qilinadi.

Ta'kidlash kerak bo'lgan keyingi masala – bu musiqiy uslublardagi madaniy farq. Yagona madaniyat ichida turli madaniyatlar, shuningdek, submadaniyatlar mavjud. Bular asosan o'tib bo'lmaydigan darajada bo'lishi mumkin. Turli musiqiy madaniyatlarga misollar sifatida Yevropa va Yaqin Sharq musiqasini keltirish mumkin. Yevropalik uchun jiddiy tayyorgarliksiz arab musiqasini yoki undan ham tanish turk xalq musiqasini tushunish deyarli imkonsizdir. Musiqiy submadaniyatlarga misol qilib 1960-yillardagi rokni keltirish mumkin, uni o'sha davr yoshlari tushungan, ammo keksa avlodlar e'tiborsiz qoldirgan. Bugungi kunda ham yoshlar repi bilan shunga o'xshash vaziyat mavjud. Biroq, madaniyatlarning o'tib bo'lmaydiganligi mutlaq emas. Turk va G'arb ta'sirining sintezini ifodalovchi 1970–1980-yillardagi turk Anatoliya rokini madaniyatlar o'rtasidagi chegaralarning ochilishiga misol sifatida keltirish mumkin. Anatoliya roki tufayli G'arb musiqasi turk tinglovchilari uchun ochiq bo'ldi, turk musiqasi esa yevropalik tinglovchilar uchun ochiq bo'ldi. Shunday qilib, madaniy va submadaniy chegaralar butunlay o'tib bo'lmaydigan darajada emas.

Va nihoyat, musiqiy tushunchani cheklovchi uchinchi omil – bu tinglovchining kelib chiqishi. Bunga madaniy odatlar, musiqiy ta'lim darajasi, tinglovchining musiqa bilan qanday uchrashishi – radioda, konsertlarda, yozuvlarda, eng avvalo, tinglovchining o'ziga xos musiqiy individualligi kiradi. Apriori, ma'lum bir musiqaga ma'lum bir biologik moyillik ehtimolini inkor etib bo'lmaydi. Ba'zi musiqiy sezgir odamlar o'zlarining ichki musiqasini his qilishadi, bu bilan tashqi musiqa aks sado berishi mumkin. Ehtimol, biz musiqiy idrokdagi ma'lum bir tanaviy komponent, uning ritmining puls bilan sinxronlashishi, kuy tuzilishiga tanaviy javob haqida ham gapirishimiz mumkin. Kognitiv va aqliy faoliyatning tanaviy komponentlari nazariyasi faollik deb ataladi.

“Musiqqa mantiq mavzusi sifatida” kitobining qat'iy mantiqiy tuzilishida “Musiqiy afsona” matni stilistik jihatdan yaqqol ajralib turadi. Muallif buni, birinchidan, “musiqiy fenomenologiya” ehtiyojlarini va ikkinchidan, oldimizda

turgan narsa “kam tanilgan nemis yozuvchisi”ning yoshlik tarjimai ekanligini keltirib oqlashga harakat qiladi [6].

A.F.Losevning [7] fikricha, ilmiy tafakkurning asosiy xususiyati butunlikni aniq tushunishda yotadi: “...organizmda almashtirib bo‘lmaydigan lahzalar mavjud. Bu uning o‘ziga xosligi. Lekin bu nimani anglatadi? Bu organizmning ma’lum lahzalarida organizmning o‘zi to‘liq holda mavjud ekanligini anglatadi. Agar organizm shunday qismdan birini olib tashlash natijasida o‘lsa, demak, bu qismda u shunday, to‘liq holda mavjud bo‘lgan. <...> Agar organizmdagi hayot aynan shunday bo‘lsaki, butunlik uning har bir lazasida to‘liq modda sifatida mavjud bo‘lsa, <...> mexanizmda u faqat o‘lik sxema sifatida mavjud bo‘ladi...”[6] Qismlarning oddiy mexanik yig‘indisi butunlikni (organizmni) tashkil eta olmaydi, chunki ikkinchisida qism, butunning bir qismi sifatida, almashtirib bo‘lmaydi. “Mif dialektikasi”da biz shunday o‘qiymiz: “Butun va qismning antinomiyasiga kelsak, bu dialektik juftlikning aniq sintezi organizm bo‘lib, unda biron bir alohida lahzalarga mutlaqo bo‘linmaydigan yaxlitlikni yoki aslida bu butunlikni o‘z ichiga olgan qismlarning mavjudligini inkor etishning iloji yo‘q” [6]. Bu yerda Losev eydetik-organik va ratsional-mexanistik tafakkur o‘rtasidagi muhim farqni ta’kidlaydi. Ikkinchisi mavhum tafakkur bilan birlashtirilgan atributlar yig‘indisi orqali butunlikka erishadigan rasmiy mantiqqa mos keladi. Boshqacha qilib aytganda, atributlar to‘plami sifatidagi rasmiy tushuncha o‘z mazmunini to‘liq tugata olmaydi, bu esa aksincha, bevosita va intuitiv berilganlikka tayanadi. Binobarin, u ikkilamchi va hosilaviy narsani, bunday atributlarning mazmuniga nisbatan abstraksiyani ifodalaydi.

Zamonaviy texnologiya, materiya foydasiga ma’naviy qadriyatlarni inkor etish bilan, muqarrar ravishda shaxsning hayotini barbod qiladi: “Texnologiya eng mavhum va zerikarli metafizika sohasidir, chunki uning ruhi sxema va uning maqsadi bu sxemani hayotning tirik tuzilishiga kiritishdir” [6]. Shuning uchun, Losevning fikriga ko‘ra, chinakam organik dunyoqarash “mexanizmlar haqida emas, balki organizmlar va undan ham ko‘proq, shaxslar, tirik mavjudotlar haqida”

gapiradi. Uning qahramonlari hissiyotni qurish va tushunish uchun mavhum g'oyalar va usullar emas, balki bu hissiyotning o'zi, hayotiy iliqlik va energiya bilan nafas oladi. Bu yerda muhim bo'lgan narsa aynan "tashqi", "aniq", "sezgi", "shaxsiy", "haqiqiy" va "majoziy" [6].

Musiqaning haqiqiy hodisasi faqat <...> havo to'lqinlarining tebranishlari tufayli mumkin. Musiqaning bu jismoniy asosi haqiqiy va haqiqiy hodisami? Yo'q, unday emas. <...> Richard Vagnerning "Tannhauser"ga uverturasini tinglayotganimizda, biz o'sha paytda uning tovush to'lqinlari dastlab bir shaklda, oxirida esa boshqa shaklda bo'ladi deb umuman o'ylamaymiz; va agar biz bu haqda o'ylasak, unda, albatta, biz endi "Tannhauser" musiqasini emas, balki umuman tovush to'lqinlarining ilmiy fizik tahlilini tinglaymiz. <...> Bu <...> hech qanday tarzda musiqa fani emas. Havo tebranishlari musiqa bilan hech qanday aloqasi yo'q, xuddi rassom bu holatda foydalangan bo'yoqlarning kimyoviy tarkibini tahlil qilish rasmning estetik taassurotiga hech qanday aloqasi yo'q bo'lgani kabi <...> [6].

Musiqiy semiozisni aynan shu tarzda tushunish, uchta ketma-ket o'zaro bog'liq jihatlarda (PVV → PVS → PSS) talqin qilingan ikkita semiotik tekislik orqali masalaning mohiyatiga eng mos va eng yaqin ko'rinadi. Musiqiy semiotikaning boshqa, "soddalashtirilgan" talqinlari (hodisa sifatida) uning vulgarizatsiyasi va ibtidoiylashtirilishi bilan to'la bo'lib, bir vaqtning o'zida Okkamning "ortiqcha mavjudotlari"ni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, musiqa qonuniyatlari, musiqa san'ati xususiyatlari oddiy janrlardan murakkablariga qarab bosqichma-bosqich o'zlashtirilishi ta'minlanishi musiqaning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.

Fenomenologik nuqtai nazardan qaraganda, musiqa "vaqt san'ati" sifatida insonning o'tmishi, hozirgi zamon va kelajak haqidagi tasavvurlarni qayta shakllantiradi. Musiqa orqali biz borliqni tushunishning yangi qirralarini kashf etamiz, chunki u so'zlar ojiz qolganda hissiyotlar va g'oyalarni ifodalash qudratiga ega.

Musiqiy idrokning falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, musiqa inson tafakkurida obyektiv reallikni subyektiv ma'nolar bilan bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'taydi. Bu esa, o'z navbatida, musiqa falsafasini nafaqat san'at nazariyasi, balki inson ontologiyasining ajralmas qismi sifatida o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Andrew K. *Routledge Companion to Aesthetics*, 3rd edition. – New York: Routledge, 2013. – 705 p.
2. Хуовинен Э. *Понимание музыки // The Routledge Companion to Philosophy and Music*. – New York: Routledge, 2011. – 680 p.
3. Bonfeld M. *Music: Language. Speech. Thinking. Experience of the systematic investigation of the music art*. St. – Petersburg: Composer, 2006. – 480 p.
4. Eduard H. *Am Ende des Jahrhunderts (1895–1899): musikalische Kritiken und Schilderungen*. – Berlin: Allgemeiner Verein für Deutsche Litteratur, 1899. – 452 p.
5. Anastasiya M. *Phenomenology of a musical experience*. – Krasnoyarsk: Reshetnev Siberian State University of Science, 2021. – 268 p.
6. Лосев А. *Мен XX асрга сургун қилинганман... // Учрашув*. – Москва: Русская культура, 1991. 1-жилд. – 400 б.
7. Schastlivtseva E. *Rossiyada fenomenologik tafakkurning rivojlanishi haqidagi insholar*. – Moskva: Yozgi bog', 2012. – 165 b.
8. Pirnazarov L. *History and Development and Professional Qualities of the Teacher of Music*. *Science and innovation*, 2023. – №2(B5), – P. 198–203.

**Oydin Alimbekova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Vokal" kafedrası dotsenti  
E-mail: [alimbekovaoydin1975@gmail.com](mailto:alimbekovaoydin1975@gmail.com)*

## **MUSIQIY ESHITISH VOKAL-XOR FAOLIYATIDA MUSIQIY ISTE'DODNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada musiqiy eshitish qobiliyatining vokal-xor faoliyatidagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Musiqiy iste'dodning shakllanishida eshitish qobiliyatining roli, uning vokal va xor ijrosidagi metodik hamda psixologik jihatlari yoritiladi. Shuningdek, xor jamoalarida musiqiy eshitishni rivojlantirish usullari, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy tadqiqotlar asosida ilmiy izohlar beriladi.*

***Kalit so'zlar:** musiqiy eshitish, vokal-xor faoliyati, musiqiy iste'dod, pedagogika, metodika, psixologiya.*

## **MUSICAL HEARING AS A KEY FACTOR OF MUSICAL TALENT IN VOCAL-CHORAL ACTIVITY**

***Abstract.** This article analyzes the significance of musical hearing in vocal and choral activity. It examines the role of musical hearing in the formation of musical talent, as well as its methodological and psychological dimensions in vocal and choral performance. The study also highlights methods for developing musical hearing in choral ensembles and discusses relevant pedagogical approaches based on contemporary research findings.*

***Keywords:** musical hearing, vocal and choral activity, musical talent, pedagogy, methodology, psychology.*

Musiqa insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim sohalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Insonning musiqiy qobiliyati tabiiy iste'dodlarga asoslanib, ta'lim va mashq jarayonida takomillashadi. Vokal-xor ijodida eshitish qobiliyati hal qiluvchi omil bo'lib, u nafaqat yakka ijrochining, balki butun jamoa

ijrosining sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan musiqiy eshitishni rivojlantirish musiqiy ta'limning markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Musiqqa eshitish – bu insonning ovoz balandligi, tembr, ritm va intonatsiyani aniq his qilish qobiliyatidir. U umumiy sensor tizimdagi eng nozik va murakkab jarayonlardan biri sifatida tavsiflanadi. Psixologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqiy eshitish faqatgina tug'ma qobiliyat emas, balki ta'lim jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan murakkab ko'nikma sifatida ham namoyon bo'ladi.

B.M.Teplov musiqiy iste'dodning asosiy tarkibiy qismi sifatida musiqiy eshitishni ta'riflaydi. Uning fikricha, musiqiy eshitish – bu ovoz balandligini aniqlash, interval va akkordlarni farqlash, shuningdek, ritmik tuzilmani sezish qobiliyatidir [1].

B.V. Asafyev esa uni “musiqiy tafakkur jarayonining boshlang'ich bosqichi” sifatida ko'radi [2]. Musiqqa eshitishning turlari – absolyut, nisbiy, garmonik va ritmik eshitish bo'lib, ularning rivojlanishi pedagogik mashg'ulotlar orqali ta'minlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda musiqiy eshitish quyidagi turlarga ajratiladi:

- **Absolyut eshitish** – ovoz balandligini hech qanday tayanchsiz aniqlash qobiliyati.
- **Nisbiy eshitish** – ovozlarni boshqa ovozlarga nisbatan aniqlash va farqlash qobiliyati.
- **Garmonik eshitish** – akkord va garmonik tuzilmalarning uyg'unligini his qilish qobiliyati.
- **Ritmik eshitish** – vaqt va ritmni sezish qobiliyati.

Ushbu turlar insonda turlicha darajada namoyon bo'ladi va ularning takomillashishi pedagogik mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. To'g'ri mashqlar orqali ushbu qobiliyatlarni yuqori darajada rivojlantirish mumkin. Bolalik davrida sezgirlik yuqori bo'lgani uchun bu jarayon ancha samarali kechadi. Biroq katta yoshda ham differentsiatsiya tamoyillariga amal qilinsa, musiqiy eshitishni

takomillashtirish mumkin. Musiqa eshitish vokal-xor faoliyatida alohida ahamiyatga ega: xor ijrosida ovozlarning uyg'unligi, intonatsiya aniqligi va ritmik barqarorlik aynan musiqiy eshitish orqali ta'minlanadi. Agar xor a'zolarida musiqiy eshitish yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, umumiy ijro sifati pasayishi mumkin. Shu sababli xor pedagogikasida musiqiy eshitishni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Vokal jamoasida ovozlarning uyg'unligi, intonatsiya aniqligi va ritmik barqarorlik bevosita musiqiy eshitish qobiliyatiga bog'liq. Har bir xor a'zosi musiqiy eshitish orqali umumiy ijroga moslashadi. Agar xor a'zolarida ushbu qobiliyat yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, jamoaviy ijro sifati pasayadi. Shu sababli xor mashg'ulotlarida musiqiy eshitishni rivojlantirish asosiy pedagogik vazifa hisoblanadi. Musiqiy eshitishni rivojlantirishda solfedjio mashqlari, interval va akkordlarni eshitish mashqlari muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayonida xor mashg'ulotlari orqali eshitish qobiliyatini mustahkamlash mumkin. Zamonaviy ta'limda esa audio dasturlar, mobil ilovalar va virtual xor simulyatorlari kabi texnologiyalardan foydalanish orqali musiqiy eshitish sezilarli darajada rivojlantirilmoqda. Musiqiy eshitishning rivojlanishi diqqat, xotira va sezgirlik bilan chambarchas bog'liq. Jamoaviy ijroda psixologik uyg'unlik aynan ushbu qobiliyat orqali ta'minlanadi. Musiqiy xotira interval va akkordlarni farqlashda, melodiylarni eslab qolishda muhim ahamiyatga ega. Sezgirlik va emotsional tajribalar esa musiqiy iste'dodning shakllanishida hal qiluvchi omillardan hisoblanadi.

Bugungi kunda musiqiy eshitishni rivojlantirishda multimedia vositalari, interaktiv mashqlar va virtual xor simulyatorlari keng qo'llanilmoqda. Musiqiy eshitish vokal-xor faoliyatida musiqiy iste'dodning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Uni rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, xor ijrosining badiiy va texnik sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ovoz hosil bo'lish jarayoni murakkab teskari aloqa tizimi yordamida boshqariladi. Ushbu tizim miya bo'limlariga ovoz apparatining har bir nutq yoki qo'shiq paytida

qanday akustik natija bergani, qanday rezonator hodisalar yuzaga kelgani va turli bo'limlarda – og'iz, halqum, tomoq, hiqildoq, ko'krak va boshqalarda qanday sezgilar kuzatilgani haqida ma'lumot yetkazadi [3].

Sezgilarni tahlil qilish asosida akustik natija bilan unga erishish usuli o'rtasida bog'lanishlar o'rnatiladi. Agar bu sezgilar yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, ovoz apparatini boshqarish ham nomukammal bo'ladi. Shu sababli vokal funksiyani takomillashtirish sezgilarning nozik rivojlanishini talab qiladi.

Eshitish – vokal va nutq funksiyasining asosiy regulyatori bo'lib, uning rolini ortiqcha baholash qiyin. Ovoz apparati va quloq – bu axborotni tovush orqali uzatishning yagona tizimining ajralmas qismidir. Agar inson bolaligida eshitish qobiliyatidan mahrum bo'lsa, unda tovush tasavvurlari shakllanmaydi va ovoz apparati orqali hech narsani ifoda eta olmaydi. Shuning uchun “musiqiy karlik” holatida inson musiqiy tasavvurlardan mahrum bo'ladi. Bolalikdan to'g'ri vokal tasavvurlarni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Masalan, Italiyada bolalar musiqa muhitida o'sgani uchun vokal san'atining yuqori darajasi kuzatiladi. Shuningdek, mashhur qo'shiqchilar ijrosini tez-tez tinglash orqali vokal idealini tarbiyalash mumkin.

Bugungi kunda ovoz yozuv texnologiyalari keng rivojlangan bo'lib, ular ovozning barcha xususiyatlarini yuqori sifatda uzatadi. Bu esa har bir o'quvchi uchun to'g'ri kuylash tasavvurini shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, to'g'ri kuylash tasavvurini rivojlantirish vositasidan voz kechmaslik zarur. Bunda nafaqat mukammal ijrochilarni, balki nomukammal va hatto yomon qo'shiqchilarni tinglash ham muhim ahamiyatga ega. Dastlab eshitish faqat qo'pol farqlarni ajrata olsa-da, mashq va taqqoslash jarayonida differensiasiya qobiliyati tobora ortib boradi. Mashhur italiyalik pedagog Tozi ta'kidlaganidek: “Boshqalarning xatolarini o'rganing – bu katta maktab, arzon, ammo ko'p narsani o'rgatadi. Ko'pincha eng yomon qo'shiqchi eng yaxshi o'qituvchi bo'ladi” [4]. Shu sababli har bir o'quvchi imkon qadar ko'proq vaqtini pedagog sinfida o'tkazishi, turli sifatdagi ovozlarni tinglashi va ovozdagi tobora ko'proq xususiyatlarni ajratishga o'rganishi zarur.

Pedagog tomonidan olib boriladigan ovoz tahlili eshitishni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Dastlab eshitish umumiy ovozni qabul qiladi. Masalan, orkestrni ilk bor tinglaganda, u yaxlit ovoz sifatida idrok etiladi, keyinchalik, mashq va tajriba orqali alohida cholg'u guruhlari – torli, yo'g'och puflama, mis puflama – ajratiladi. So'ngra, har bir guruh ichidagi cholg'ularning tembrlari farqlanadi: goboyni klarnetdan, skripkani altdan, valtornani trubadan va hokazo. Tajribali dirijyorlarda eshitish shunchalik rivojlanadiki, ular katta orkestrda notekis nota olgan musiqachini osonlik bilan aniqlay oladi. Bu jarayon differentsiatsion tormozlanish tamoyiliga asoslanadi: diqqat muayyan tovushga qaratilganda, boshqa tovushlar vaqtincha idrokdan chiqib ketadi. Pedagog kuy intonatsiyasining tozaligiga, tembr rangining to'g'riligiga e'tiborli bo'lishi shart. Noto'g'ri ovozni o'tkazib yubormasligi, to'g'risini so'z bilan mustahkamlashi va xatolarni tuzatishi zarur. Muntazam mashq va tinglash orqali o'quvchi asta-sekin toza, tembr jihatdan to'g'ri bo'yalgan kuylashga erishadi. Intonatsiya tozaligi va tembrni eshitish orqali nazorat qilish masalasida qo'shiqchi ko'pincha qiyinchiliklarga duch keladi. Bu jarayonda odatda passiv eshitish va aktiv eshitish farqlanadi. Passiv eshitish – bu tovushni to'g'ri idrok etish qobiliyati bo'lsa, aktiv eshitish – eshitilgan narsani ovoz orqali aniq tasvirlash qobiliyatidir. Passiv eshitish differentsiatsiyalarning eshitish analizatorida rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa, aktiv eshitish ovoz apparatini zarur balandlikdagi tovushni hosil qilish uchun boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Agar qo'shiqchi ichki eshitishda to'g'ri tasavvurga ega bo'lmasa, uning ijrosida notekislik yuzaga keladi. Bu holat ko'pincha melodik tuzilmaning xotirada to'g'ri joylashmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Pozitsion notekislik – tembrning noto'g'ri hosil bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Yuqori obertonlari ko'p bo'lgan tovushlar eshitishda past obertonlari ustun bo'lgan tovushlarga nisbatan balandroq tuyuladi, hatto ularning asosiy tovushi bir xil bo'lsa ham. Shu sababli intonatsiya aniqligi ko'p hollarda vokal texnologiyaga bog'liq bo'lib qoladi. Qo'shiqchi o'z ovozini atrofdagilar eshitganidek qabul qilmaydi. Bu suyak o'tkazuvchanligi va ichki to'qimalar orqali eshitish bilan bog'liq. Shuning uchun

qo'shiqchi intonatsiyani faqat asosiy tovush balandligi orqali tuzatishi mumkin, ammo bu pozitsion notekislikda yetarli bo'lmaydi. Hatto mukammal musiqiy eshitishga ega qo'shiqchilar ham ba'zan intonatsiyani aniq bajara olmaydilar. Bunday holatda qo'shiqchi intonatsiyaning noaniqligini faqat eshitish orqali emas, balki mushak, rezonator va vibratsion sezgilar orqali ham angelaydi. Masalan, tajribali qo'shiqchi kontsertmeysterga: "Men bugun pastlatmayapmanmi?" [5] deb murojaat qilishi mumkin.

Ovoz kuchidagi aldovchi xususiyat qo'shiqchining o'zini qanday eshitishi va atrofdagilarning qabul qilishi o'rtasidagi farq bilan bog'liq. Ko'p hollarda qo'shiqchiga ovozi baland va to'liq tuyuladi, ammo atrofdagilar uchun u zaif eshinishi mumkin. Aksincha, ovoz unga kuchsiz tuyulganida, zalda jangdor va ta'sirli qabul qilinadi. Shu sababli pedagog o'quvchining ovozini aks ettiruvchi "oyna" vazifasini bajarishi, uni doimo nazorat qilib borishi zarur. Bu jarayon o'quvchi o'z eshitish va ichki sezgilari orqali atrofdagilar uchun to'g'ri bo'lgan ovozga moslashguncha davom etadi. Eshitish sezgilari nafaqat aldovchi, balki beqaror hamdir. Ular kuylashga mos keladigan akustik sharoitga bog'liq. Masalan, yumshoq buyumlar bilan to'ldirilgan yopiq xonada qo'shiqchi o'z ovozini yomon eshitadi, bo'sh xonada esa aks-sado ovozni chalkashtirib yuboradi. Shuning uchun ichki sezgilar ovozni nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular barqarorlik bilan ajralib turadi. Pedagog o'quvchining ovoz kuchi va tembrini doimo kuzatib borishi, noto'g'ri tasavvurlarni tuzatishi va to'g'ri ijroni mustahkamlashi lozim. Bu orqali qo'shiqchi asta-sekin ichki sezgilari va tashqi eshitish tasavvurini uyg'unlashtirib, intonatsiya aniqligi va ovozning jarangdorligini ta'minlaydi. Pozitsion notekislikka qarshi kurashda mushak harakatlarining aniq ishlab chiqilishi, harakat analizatori va boshqa analizatorlarning to'g'ri ishlashi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun vokal pedagog va kontsertmeyster ovozning to'g'ri pozitsion sozlanishiga katta e'tibor qaratishi lozim. Qo'shiqchining o'z ovozi haqidagi noto'g'ri eshitish tasavvuri nafaqat tembrga, balki ovoz kuchiga ham taalluqli. Bu holatni eng yaxshi tarzda o'quvchi o'z ovozini magnitofon

yozuvi orqali tinglaganda anglaydi. Shuning uchun pedagogik jarayonda ovozning to'g'ri intonatsiyasi va tembrini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmog'i zarur.

Musiqiy eshitish insonning vokal-xor faoliyatida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lib, uning rivojlanishi musiqiy iste'dodning shakllanishi va ijro sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Absolyut, nisbiy, garmonik va ritmik eshitish turlari pedagogik mashg'ulotlar orqali takomillashtiriladi va jamoaviy ijroda uyg'unlik, intonatsiya aniqligi hamda ritmik barqarorlikni ta'minlaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eshitish qobiliyati tug'ma xususiyat bilan cheklanib qolmay, balki ta'lim jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan ko'nikma sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik tajribada solfedjio mashqlari, interval va akkordlarni eshitish mashqlari, shuningdek, multimedia vositalari va virtual xor simulyatorlari musiqiy eshitishni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Eshitish qobiliyati diqqat, xotira va sezgirlik bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning takomillashishi orqali vokal ijroda intonatsiya tozaligi, tembr rangining to'g'riligi va ovoz jarangdorligi ta'minlanadi. Shu tariqa, musiqiy eshitishni rivojlantirish musiqiy ta'limning markaziy vazifasi sifatida qaralishi lozim. Uning pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri yo'naltirilishi nafaqat yakka ijrochining, balki butun xor jamoasining badiiy va texnik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Barkhatova I. *Voice Training for Pop Vocalists. A Method for Diagnosing Problems: A Textbook* // I.B. Barkhatova. – St. Petersburg: Lan. Planet of Music, 2015. – 61 p.

2. Теплов Б. *Психология музыкальных способностей*. – Санкт-Петербург: Планета музыки, 2020. – 408 с.

3. Асафев Б. *Музыкальная форма как процесс*. – Санкт-Петербург: Музыка, 2019. – 380 с.

4. Дмитриев Л. Основы вокальной методики // Л.Б. Дмитриев. – Москва: Музыка, 2007. – 368 с.
5. Omonnullayeva D. Estrada xonandaligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2007. – 120 b.
6. Pirmatov Sh. Xonandalik san'ati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: San'at, 2011. – 144 b.
7. Pirmatov Sh. Yakkaxon qo'shiqchilik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2011. – 128 b.
8. Pirmatov Sh. Vocal texnikasi asoslari. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2011. – 96 b.
9. Тураев Ю., Амануллаева Д. Вопросы методики преподавания эстрадного пения. Методическое учебное пособие. – Тошкент: Музыка, 2004. – 100 с.
10. Музыкальная энциклопедия. – Москва, 2010. – 3000 с.
11. Пирматов Ш., Маликова Д. Основы вокальной техники. Учебное пособие. – Тошкент: Musiqa, 2022. – 120 с.

Sharofat Tojiboyeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida dotsenti  
E-mail: sharofatxontadjibayeva@gmail.com

## YOSH XONANDALARDA INDIVIDUAL IJROCHILIK USLUBINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELINI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yosh xonandalarda individual ijrochilik uslubini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik modelning nazariy-metodologik asoslari va amaliy jihatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida 48 nafar musiqiy yo'nalishda ta'lim oluvchilar ishtirokida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari, pedagogik kuzatuv hamda ekspert baholash usullari qo'llanildi. Muallifning pedagogik modeli to'rtta bosqich – diagnostika, motivatsion-yo'naltirish, intensiv rivojlantirish va mustaqil ijodiy faollik asosida qurilgan bo'lib, uning samaradorligi nazorat va tajriba guruhlarida ko'rsatkichlari taqqoslash yo'li bilan isbotlandi. Tajriba natijalari individual ijrochilik uslubini maqsadli pedagogik ta'sir orqali sezilarli darajada shakllantirib va boyitib borish mumkinligini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** individual ijrochilik uslubi, yosh xonanda, musiqa pedagogikasi, pedagogik model, ovoz tarbiyasi, ijodiy qobiliyat, musiqa ta'limi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, vokaltexnika, diagnostika.

## A PEDAGOGICAL MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF INDIVIDUAL PERFORMANCE STYLE IN YOUNG SINGERS

**Abstract.** This article investigates the theoretical and methodological foundations and practical aspects of a pedagogical model aimed at developing an individual performance style in young singers. The study involved 48 music students specializing in vocal performance and employed experimental teaching methods, pedagogical observation, and expert evaluation techniques. The author's pedagogical model is structured around four stages-diagnostics, motivational orientation, intensive development, and independent creative activity. Its

*effectiveness is demonstrated through a comparative analysis of performance indicators in control and experimental groups. The results confirm that individual performance style can be effectively developed through purposeful pedagogical influence.*

**Keywords:** *individual performance style, young vocalist, music pedagogy, pedagogical model, voice training, creative ability, music education, student-centered learning, vocal technique, diagnostics.*

Zamonaviy musiqa ta'limida yosh ijrochilarning kasbiy kamoloti nafaqat texnik mahorat darajasi, balki individual ijrochilik uslubining shakllanishi bilan belgilanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, san'at va madaniyat sohasida milliy o'ziga xoslikni saqlash hamda rivojlantirish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Bu holat, o'z navbatida, musiqa pedagogikasining oldiga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modellarini ishlab chiqish va joriy etish vazifasini qo'ydi [1, 12-b].

Individual ijrochilik uslubi – bu xonandaning ovoz tembri, nafas boshqaruvi, emotsional ifodalilik, sahna xatti-harakati va interpretatsiya xususiyatlarining yaxlit mujassamlashuvi bo'lib, u har bir ijrochini boshqalardan ajratib turuvchi o'ziga xos musiqiy “imzo”ni tashkil etadi [2, 34-b]. Ushbu uslub shakllanishining asosi, birinchi navbatda, individual tabiat va iste'dodga borib taqalsa-da, pedagogik ta'sir uning rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois yosh xonandalar bilan ishlashda differentsial va individual yondashuv tamoyillariga asoslangan maxsus pedagogik strategiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi [3, 78-b].

O'zbek musiqa pedagogikasida ushbu masala qisman tadqiq etilgan bo'lsa-da (N.X.Xasanova, M.A.Rajabov, D.Sh.Yusupova va boshq.), hozirgi kunda yosh xonandalarda individual ijrochilik uslubini shakllantirishga bag'ishlangan yaxlit, izchil pedagogik modelning ilmiy asosda ishlab chiqilmaganligi ko'zga tashlanadi. Bu esa tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi [4, 15-b].

Muammoning qo'yilishi. O'quv jarayonida aksariyat o'qituvchilar texnik mahorat rivojlantirishga e'tiborni qaratib, shaxsiy ijrochilik uslubini shakllantirish masalasini ikkinchi o'ringa surib qo'yadilar. Oqibatda bitiruvchilar texnik jihatdan savodli, lekin individual musiqiy qiyofasi shakllanmagan ijrochi sifatida mehnat bozorida o'z o'rnini topishda qiyinchilik sezishadi [5, 91-b]. Bu ziddiyat pedagog-tadqiqotchilar oldiga muammoni yechuvchi kompleks pedagogik model yaratish vazifasini qo'yadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi (I.S.Yakimanskaya), faoliyatga asoslangan yondashuv (A.N.Leontyev), individual qobiliyatlar psixologiyasi (B.M.Teplov), musiqa pedagogikasining zamonaviy nazariyalari (D.B.Kabalevskiy, N.L.Grodzenskaya) va o'zbek milliy musiqa ta'limi an'analari tashkil etadi [6, 44-b; 7, 156-b].

Tadqiqot 2022–2025-yillar davomida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Toshkent shahrining 3-sonli musiqa va san'at maktabida olib borildi. Umumiy tadqiqot dizayni kvazitajriba (quasi-experimental) sxemasiga asoslangan bo'lib, sinov guruhiga maxsus pedagogik model tatbiq etilib, nazorat guruhi an'anaviy o'quv dasturi asosida o'qitildi.

Tadqiqotda 13–22 yoshdagi 48 nafar yosh xonanda qatnashdi, ular ikki guruhga bo'lindi: tajriba guruhi (n=24) va nazorat guruhi (n=24). Ishtirokchilar tanlashda maqsadli tanlov (purposive sampling) usulidan foydalanildi. Asosiy mezonlar: musiqa maktabida kamida 2 yil o'qigan bo'lishi, asosiy ovoz registri (soprano, mezzo-soprano, tenor, bariton) aniq belgilangan bo'lishi va tajribada ixtiyoriy ishtirok etishga rozilik bildirgan bo'lishi. Jins taqsimoti: tajriba guruhida 14 qiz va 10 o'g'il, nazorat guruhida 15 qiz va 9 o'g'il.

Tadqiqotda quyidagi usullar majmui qo'llanildi:

Pedagogik kuzatuv: dars va mashg'ulotlar jarayonida tizimli kuzatuv protokollari yuritildi (jami 320 dars soati qayd etildi);

So'rovnoma: talabalar va o'qituvchilar uchun alohida-alohida so'rovnomalar ishlab chiqildi (Likert shkalasi asosida, 5 balllik tizim);

Ekspert baholash: 5 nafar yuqori malakali musiqa pedagogidan iborat ekspertlar guruhi xonandachilik namoyishlarini baholadi;

Tajriba-sinov: uch bosqichli pedagogik tajriba (aniqlash, shakllantirish, nazorat);

Statistik tahlil: t-Test (Student mezon), korrelyatsion tahlil va foiz hisob-kitoblari.

**Baholash mezonlar.** Individual ijrochilik uslubining rivojlanish darajasi quyidagi besh mezon bo'yicha baholandi [8, 67-b]:

*1-jadval. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari*

№	Mezon	Ko'rsatkich	Ball (1–5)
1	Ovoz tembri va rang-barangligi	Ovoz sifati, dinamik diapazoni	5 ballik
2	Nafas texnikasi	Nafas qo'yish, ushlab turish	5 ballik
3	Emotsional ifodalilik	Mazmun uzatish, sahna obrazi	5 ballik
4	Interpretatsiya o'ziga xosligi	Ijro talqini, musiqiy tasavvur	5 ballik
5	Sahna madaniyati	Hatti-harakat, libos, aloqa	5 ballik

Jami maksimal ball: 25. Rivojlanish darajasi: 21–25 – yuqori; 15–20 – o'rta; 8–14 – past; 7 va undan past – kritik daraja.

Tadqiqot asosida muallifning “Individual ijrochilik uslubini shakllantirish” (IIUS) pedagogik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model uchta yirik blokdan

– maqsadli, mazmuniy-jarayonli va natijali – iborat bo‘lib, to‘rtta ketma-ket bosqichda amalga oshiriladi [9, 23-b].

Pedagogik modelning bosqichlari:

I bosqich – Diagnostik-tayyorlov bosqichi (1–2 oy). Bu bosqichda har bir o‘quvchining ovoziy imkoniyatlari, musiqiy xotira, eshitish qobiliyati va psixologik xususiyatlari kompleks tarzda o‘rganiladi. Qo‘llanilgan metodlar: ovoz diagnostikasi (kompilyator Yusupova D.Sh. metodikasi asosida), musiqiy eshitish testi, shaxsiy xususiyatlar anketi va biografik suhbat [10, 112-b]. Bosqich natijasi – har bir o‘quvchi uchun individuallashtirilgan rivojlantirish xaritasini tuzish.

II bosqich – Motivatsion-yo‘naltirish bosqichi (2–3 oy). Ushbu bosqichda o‘quvchilar turli ijrochilik uslublari namunalari bilan tanishtirilib, o‘z uslubiy yo‘nalishlarini anglashlariga ko‘maklashiladi. Bunda musiqiy biografiyalar tahlili, “ustoz–shogird” an‘analarini o‘rganish, musiqa matni interpretatsiyasiga doir seminar-mashg‘ulotlar, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash kundaliklari tutish kabi faoliyat shakllari qo‘llaniladi [11, 55-b].

III bosqich – Intensiv rivojlantirish bosqichi (4–6 oy). Modelning asosiy bosqichi bo‘lib, bu yerda diagnostika natijalariga asoslangan holda differentsial mashqlar tizimi tatbiq etiladi. Texnik mahoratni (nafas, diksiya, registr o‘tishi) rivojlantirish bilan birga sahna san’ati, kamera ishi (estrada yoki akademik yo‘nalish), repertuarni individuallashtirilgan tanlash amalga oshiriladi. O‘qituvchi bu bosqichda nazorat qiluvchi emas, balki hamkor-murabbiy rolini egallaydi [12, 88-b]. Haftalik individual darslar bilan birga oylik guruh masterklasslari olib boriladi.

IV bosqich – Mustaqil ijodiy faollik bosqichi (2–3 oy). O‘quvchi mustaqil repertuar tanlashni, ijro g‘oyasini bayon etishni va sahna obrazini yaratishni o‘z zimmasiga oladi. Ushbu bosqichda ochiq konsertlar, ijrochilik muhokamalari va o‘z-o‘zini tahlil qilish sessiyalari o‘tkaziladi. Pedagogning roli maslahatchi va yo‘naltiruvchi darajasiga tushadi, bu esa o‘quvchida mustaqil musiqiy tafakkurni shakllantiradi [6, 89-b].

2-jadval. IIUS pedagogik modelining tarkibiy-funksional tavsifi

Bosqich	Vaqt chegarasi	Asosiy maqsad	Asosiy metodlar
Diagnostik	1–2 oy	Individual profil aniqlash	Test, kuzatuv, suhbat
Motivatsion	2–3 oy	Uslubiy yoʻnalishni belgilash	Tahlil, seminar, kundalik
Intensiv	4–6 oy	Texnik va ijodiy rivojlantirish	Mashq, masterklass, ijro
Mustaqil	2–3 oy	Individual uslub mustahkamlash	Kontsert, muhokama, tahlil

Tajriba natijalari. Tajriba-sinov ishlari boshida (boshlangʻich kesim) ikkala guruh oʻrtasida statistik ahamiyatli farq kuzatilmadi (tajriba guruhi:  $M=13,4$ ; nazorat guruhi:  $M=13,1$ ;  $t=0,47$ ;  $p>0,05$ ). Bu dastlabki teng sharoit mavjudligini tasdiqlab, tajribaning ichki validligini taʼminladi.

Tajriba yakunida (yakuniy kesim) quyidagi natijalar qayd etildi:

Yakuniy kesimda tajriba guruhi ( $M=21,5$ ) bilan nazorat guruhi ( $M=15,3$ ) oʻrtasidagi farq statistik jihatdan muhim ekanligini Student t-testi tasdiqladi ( $t=7,83$ ;  $df=46$ ;  $p<0,001$ ). Tajriba guruhidagi oʻsish koʻrsatkichi 60,4%ni tashkil etdi, nazorat guruhida esa 16,8% oʻsish qayd etildi. Bu natijalar IIUS modelining samaradorligini ishonchli tarzda isbotlaydi.

Individual mezonlar boʻyicha eng yuqori oʻsish “Sahna madaniyati” (tajriba guruhida +1,7 ball, yaʼni +60,7%) va “Emotsional ifodalilik” (+1,6 ball) mezonlarida kuzatildi. Bu koʻrsatkich anʼanaviy taʼlimda eʼtiborsiz qoldirilgan

sahna san'ati va musiqiy ifodalilik komponentlarining maqsadli rivojlantirish orqali sezilarli darajada yaxshilanishi mumkinligini ko'rsatadi [13, 34-b].

*3-jadval. Boshlang'ich va yakuniy baholash natijalari (o'rtacha ball, 25 ballik shkala)*

Mezon	TG boshida	TG oxirida	NG boshida	NG oxirida
Ovoz tembri	2,7	4,3	2,6	3,1
Nafas texnikasi	2,5	4,1	2,7	3,0
Emotsional ifodalilik	2,8	4,4	2,6	3,2
Interpretatsiya	2,6	4,2	2,5	2,9
Sahna madaniyati	2,8	4,5	2,7	3,1
<b>JAMI (o'rtacha)</b>	<b>13,4</b>	<b>21,5</b>	<b>13,1</b>	<b>15,3</b>

*Izoh: TG – tajriba guruhi; NG – nazorat guruhi.*

So'rovnoma natijalari. Tajriba guruhi o'quvchilarining 91,7% (22 nafar) tajriba yakunida o'z ijrochilik uslubi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lganliklarini bildirdi (boshlang'ichda bu ko'rsatkich 25% edi). O'qituvchilar so'rovnomasida ishtirok etgan 12 nafar pedagog ushbu modelni an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq deb baholadi (o'rtacha baho: 4,6/5,0). Ekspertlar xulosasida esa tajriba guruhi namoyishlari nazorat guruhiga qaraganda original va yaxlit uslub nuqtai nazaridan 1,8 ball yuqori baholandi (tajriba guruhi: 4,1/5,0; nazorat guruhi: 2,3/5,0).

Olingan natijalar mavjud ilmiy qarashlar bilan bir qator muhim jihatlar bo'yicha hamohang va ba'zi tomonlardan esa qarama-qarshidir.

Birinchidan, tadqiqot natijalari B.M.Teplovning musiqiy qobiliyatlar to'g'risidagi konsepsiyasi [14, 203-b] bilan uyg'un bo'lib, iste'dod tabiiy berilgan bo'lsa-da, uning namoyon bo'lishi ko'p jihatdan pedagogik muhitga bog'liqligini empirik tarzda isbotladi. Shu bilan birga, natijalar E.V.Davidovanning musiqiy qobiliyatlar asosan yoshlikda, 10–14 yoshga qadar shakllanadi, degan tezisiga [15, 167-b] qisman zid keladi: bizning tajribamizda 17–22 yoshdagi katta guruh ham yuqori rivojlanish dinamikasini ko'rsatdi (o'rtacha o'sish: +7,4 ball), bu esa individual ijrochilik uslubining shakllanish jarayoni to'xtatilmagan, balki uzluksiz ekanligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi (I.S.Yakimanskaya, 1996) har bir o'quvchining o'z ta'lim yo'nalishini tanlash huquqini asoslab beradi [16, 78-b]. Bizning modelimizning II va IV bosqichlari aynan ushbu tamoyilga asoslanib, o'quvchiga o'z uslubiy yo'nalishini mustaqil tanlash imkonini beradi. Amaliy natijalar ko'rsatadiki, o'z ijrochilik maqsadlarini anglagan o'quvchilar ancha yuqori motivatsion darajada ishlaydi.

Uchinchidan, modelimiz G'arb musiqa pedagogikasidagi "master class" an'anasi bilan uyg'un bo'lsa-da [17, 45-b], u milliy musiqa ta'limi an'analari – xususan, o'zbek "ustoz-shogird" tizimi – bilan organik uyg'unlikda qurilgan. Bu jihat modelning milliy o'ziga xosligini ta'minlaydi va uning mamlakat maktablarida qo'llanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish joiz: namuna hajmi nisbatan kichik (n=48); tadqiqot faqat ikki muassasada o'tkazilganligi natijalarni umumlashtirish imkonini cheklaydi; boshqa musiqa janrlari (jazz, folk, elektron musiqa) vakillari uchun modelni moslashtirishni alohida tekshirish talab etiladi. Kelajakda katta namunaviy guruhlar va uzoqroq muddatli kuzatuv (longitudinal) yordamida tadqiqotni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Modelning amaliy qo'llanilishida e'tiborni tortuvchi bir muhim qiyinchilik – musiqa maktablarida bir o'qituvchiga yuklatilgan katta miqdordagi o'quvchilar (odatda 15–20 nafar). Bu holat IV bosqichdagi individual yondashuvni cheklaydi.

Shuning uchun tadqiqotda pedagogning asosiy yuki III bosqichda to'planishi, IV bosqichda esa guruhli muhokamalar, tengdoshlar baholashi va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi [4, 88-b]. Qiziqarli kuzatuv shundaki, tajriba guruhi o'quvchilarining individual uslubi shakllanish tezligi bir xil emas edi: 8 nafar o'quvchi (33%) barcha bosqichlarni belgilangan muddatdan 3–4 hafta oldin muvaffaqiyatli yakunladi, 14 nafar (58%) o'rtacha sur'atda oldinga bordi, va 2 nafar (8%) IV bosqichga o'tishga tayyor emasligini namoyon etdi. Ushbu individual farqlanish tabiiy holat bo'lib, modelning moslashuvchan (adaptive) xarakter kasb etishi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqot natijasida yosh xonandalarda individual ijrochilik uslubini shakllantirishning IIUS pedagogik modeli ishlab chiqildi va uning samaradorligi empirik tarzda isbotlandi. Tadqiqotning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat:

Individual ijrochilik uslubi – tabiiy iste'dod va pedagogik ta'sirning uyg'un mahsuli bo'lib, uni maqsadli va izchil tarbiyalash mumkin.

IIUS modeli to'rtta ketma-ket bosqich – diagnostik, motivatsion, intensiv rivojlantirish va mustaqil faollik – asosida qurilgan bo'lib, har bir bosqich aniq maqsad, metodlar va kutilgan natijaga ega.

Tajriba-sinov ishlari modeli tatbiq etilgan guruhda 60,4% statistik muhim o'sishni qayd etdi ( $t=7,83$ ;  $p<0,001$ ), nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 16,8% bo'ldi. Model milliy o'zbek "ustoz-shogird" an'anasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uzviy birlashtiradi, bu uning milliy kontekstda qo'llanishini osonlashtiradi.

Pedagog-xonandalar uchun professional rivojlanish dasturlariga modelni integratsiyalash musiqa ta'limi sifatini yanada yuksaltirishi mumkin.

Musiqa maktablari o'quv dasturlariga diagnostik bosqich uchun har o'quv yili boshida 2–4 haftalik maxsus kiritish bloki kiritilishi tavsiya etiladi.

Pedagoglar o'quv jarayonida ovoz diagnostikasi, psixologik portret tuzish va ijrochi o'z-o'zini baholash usullarini muntazam qo'llashni o'rgansalar maqsadga muvofiq;

Repertuarni tanlashda o'quvchining individual ovoziy va psixologik xususiyatlariga e'tiborni kuchaytirish zarur;

Oylik ochiq masterklasslar va tengdoshlar baholash sessiyalarini o'quv rejasiga kiritish IV bosqich samaradorligini oshiradi;

Model joriy musiqa pedagogikasi kurslari va malaka oshirish dasturlariga uslubiy qo'llanma sifatida kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xasanova N. *Musiqa ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.* – Toshkent: O'zDSMI nashriyoti, 2019. – 184 b.
2. Rajabov M. *Xonandachilik san'ati asoslari: darslik.* – Toshkent: Musiqa, 2015. – 256 b.
3. Yusupova D. *Yosh xonandalarni tarbiyalashda individual yondashuv: metodiy qo'llanma.* – Toshkent: O'zDSMI, 2020. – 96 b.
4. Toshmatov A. *O'zbek musiqa ta'limi tarixi va nazariyasi.* – Toshkent: Fan, 2017. – 312 b.
5. Mirzayev J. *Kasbiy musiqiy ta'lim metodikasi: o'quv qo'llanma.* – Toshkent: O'zDSMI nashriyoti, 2021. – 208 b.
6. Кабалевский Д. *Музыка ва музыка таълими ҳақида.* – Москва: Просвещение, 1984. – 192 б. [рус тилида]
7. Леонтьев А. *Фаолият, онг, шахс.* – Москва: Политиздат, 1975. – 304 б. [рус тилида]
8. Qodirov B. *Vokal-xor pedagogikasi.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 144 b.
9. Hamidova Z. *Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi: monografiya.* – Samarqand: SamDU, 2016. – 176 b.
10. Yusupova D. *Ovoz diagnostikasi metodikasi // O'zbekistonda musiqa ta'limi: muammolar va yechimlar: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.* – Toshkent: O'zDSMI, 2022. – B. 108–117.

11. Nazarov I. O'zbek milliy musiqa ta'limida "ustoz-shogird" an'anasi // *San'at va madaniyat*. – 2020. – № 3. – B. 48–61.
12. Ergashev S. *Musiqa pedagogikasida differentsial yondashuv: metodik ko'rsatmalar*. – Toshkent: TDPU, 2019. – 64 b.
13. Abdullayeva M. *Sahna san'ati va xonandachilik: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: O'zDSMI nashriyoti, 2023. – 120 b.
14. Теплов Б. *Музыкаль қобилиятлар психологияси*. – Москва: АПН РСФСР, 1947. – 335 б. [рус тилида]
15. Давидова Э. *Музыка таълимида солфежио методикаси*. – Москва: Музыка, 1986. – 224 б. [рус тилида]
16. Якиманская И. *Шахса йўналтирилган таълим: концепция ва технологиялар*. – Москва: Сентябрь, 1996. – 96 б. [рус тилида]
17. Lehmann A., Sloboda J.A., Woody R.H. *Psychology for Musicians: Understanding and Acquiring the Skills*. – New York: Oxford University Press, 2007. – 256 p.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasini mudiri, dotsent  
E-mail: husniddin1982.com@gmail.com

## O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATIDA AN'ANAVIYLIK

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbek milliy musiqa san'ati rivojida an'anaviylikning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, maqom san'ati, xalq og'zaki musiqa ijodi hamda ustoz-shogird an'alarining tarixiy shakllanishi va bugungi kundagi davomiyligi yoritiladi. Maqolada milliy musiqaning o'ziga xos uslubiy xususiyatlari, ijrochilik maktablari va ularning avloddan-avlodga o'tish jarayonlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, globallashtirish sharoitida an'anaviy musiqa merosini asrab-avaylash va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** an'anaviylik, o'zbek milliy musiqasi, Shashmaqom, ustoz-shogird tizimi, maqom san'ati, etnomusiqashunoslik, madaniy meros, globallashtirish.

## TRADITIONALISM IN UZBEK NATIONAL MUSICAL ART

**Abstract.** This article analyzes the role of traditionalism in the development of Uzbek national music. Particular attention is given to the historical formation and continuity of maqom art, oral musical traditions, and the master-apprentice system. The study examines the distinctive stylistic features of national music, performing schools, and their transmission processes across generations. It also addresses the issues of preserving and developing traditional musical heritage in the context of globalization.

**Keywords:** traditionalism, Uzbek national music, Shashmaqom, master-apprentice system, maqom art, ethnomusicology, cultural heritage, globalization.

O'zbek milliy musiqasi o'zbek xalqining tarixiy, ma'naviy va estetik qadriyatlarini aks ettiruvchi boy va chuqur ildiz otgan madaniy merosni ifodalaydi. Asrlar davomida musiqiy an'alar saqlanib qolgan va avlodlar davomida o'tib

kelgan, o'tmishga hurmat va uzluksizlikka asoslangan noyob badiiy ifoda tizimini shakllantirgan. An'anaviylik tushunchasi milliy musiqaning o'ziga xosligini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi, nafaqat ijro amaliyotiga, balki kompozitsion tuzilmalar va pedagogik yondashuvlarga ham ta'sir qiladi.

An'anaviylikning eng yorqin namoyonlaridan biri asrlar davomida shakllangan musiqiy tafakkur, modal tizimlar va ijro an'analarini o'zida mujassam etgan klassik janr bo'lgan Shashmaqomda kuzatish mumkin [1, 33–40-b]. Shu bilan birga, o'zbek xalq musiqasining turli shakllari jamoaviy xotira, marosimlar va ijtimoiy qadriyatlarning tirik ombori bo'lib xizmat qilishda davom etmoqda.

Globalashuv va tezkor madaniy o'zgarishlar sharoitida zamonaviy musiqiy amaliyotlarda an'anaviy elementlarni saqlab qolish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda [2, 88–92-p]. Ushbu maqola o'zbek milliy musiqasida an'anaviylikning mohiyatini o'rganishga, uning tarixiy asoslari, asosiy xususiyatlari va zamonaviy madaniy hayotdagi rolini tadqiq etishga qaratilgan.

O'zbek milliy musiqasining shakllanishi va rivojlanishi Markaziy Osiyoning tarixiy, madaniy va ijtimoiy evolyutsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Uning kelib chiqishi qadimgi davrlarga, ya'ni ilk musiqiy amaliyotlar marosim va kundalik sharoitlarda shakllangan davrlarga borib taqaladi [3, 12–18-b]. Asrlar davomida o'zbek musiqasi bir necha tarixiy bosqichlardan o'tib, islomgacha bo'lgan e'tiqodlarning ta'sirini, o'rta asr Sharq uyg'onish davrida fan va san'atning gullab-yashnashini va keyingi davrlarning madaniy dinamikasini aks ettirdi.

Bu jarayonda Buxoro, Samarqand va Xorazm kabi qadimgi sivilizatsiyalar va madaniy markazlar muhim rol o'ynadi. Xususan, saroy madaniyati nazariy bilim va badiiy ifoda sintezini o'zida mujassam etgan Shashmaqom kabi takomillashtirilgan musiqiy tizimlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi [4, 55–60-b]. Shu bilan birga, mintaqaviy an'analar o'ziga xos stilistik xususiyatlarni saqlab qoldi va milliy musiqiy merosning xilma-xilligiga hissa qo'shdi.

An'anaviylikni saqlashda og'zaki uzatishning roli ham muhim bo'lgan. Asrlar davomida musiqiy bilimlar yozma nota yozish o'rniga avlodan-avlodga

to'g'ridan-to'g'ri ijro va yodlash orqali o'tib kelgan [5, 21–25-b]. Etnomusiqashunoslik doirasida bunday og'zaki an'ana madaniy uzluksizlikni saqlab qolishning asosiy mexanizmi sifatida tan olingan bo'lib, o'zbek milliy musiqasiga o'zgaruvchan tarixiy sharoitlarga moslashgan holda o'zining haqiqiylikni saqlab qolish imkonini beradi.

O'zbek milliy musiqasi kontekstida an'anaviylik musiqiy ifodaning o'ziga xosligi, uzluksizligi va haqiqiylikni belgilaydigan barqaror badiiy tamoyillar tizimini ifodalaydi. U nafaqat o'rnatilgan shakllarni saqlashni, balki asrlar davomida shakllangan chuqur ildiz otgan musiqiy tafakkur, ijro amaliyoti va madaniy ma'nolarga rioya qilishni ham o'z ichiga oladi.

An'anaviylikning asosiy xususiyatlaridan biri melodik, ritmik va modal tizimlarning barqarorligidir. O'zbek musiqasi, ayniqsa Shashmaqomda yaqqol ko'rinib turgan, yaxshi o'rnatilgan modal asoslarga tayanib, unda har bir uslub o'ziga xos tonal munosabatlar, hissiy xususiyatlar va rivojlanish naqshlariga amal qiladi.

Muhim element – bu o'zbek musiqasining o'ziga xos tovushini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan an'anaviy musiqa asboblariidan foydalanish. Doira, dutor va tanbur kabi cholg'ular shunchaki ovoz chiqarish vositasi emas; ular tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, an'ananing estetik ideallarini aks ettiradi [6, 67-b].

An'anaviylik kanonik ijro qoidalari va stilistik normalarda ham aks etadi. Bularga musiqachilar amal qilishi kutilgan talqin, bezak, improvizatsiya va sahna xatti-harakatlarining o'rnatilgan usullari kiradi. Bunday normalar ko'pincha ustoz-shogird (ustoz-shogird) tizimi orqali uzatiladi va individual ijodkorlik qabul qilingan standartlardan chetga chiqmasdan ifodalanishi mumkin bo'lgan asos bo'lib xizmat qiladi [7, 45-b].

Va nihoyat, an'anaviylik madaniy qadriyatlar va dunyoqarash bilan chuqur ramziy aloqani o'zida mujassam etadi. O'zbek musiqasi ijtimoiy marosimlar,

ma'naviy amaliyotlar va jamoaviy xotira bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ko'pincha sevgi, tabiat, falsafa va axloq mavzularini ifodalaydi [8, 101-p].

O'zbek milliy musiqasining boyligi uning xilma-xil janrlari va shakllari orqali eng aniq ifodalanadi, ularning har biri an'anaviy uzluksizlikning o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi.

**Shashmaqom** – o'zbek musiqasining klassik qatlamida markaziy o'rinni professional musiqa san'atining cho'qqisini ifodalovchi yuqori darajada tuzilgan va murakkab tizim bo'lgan Shashmaqom egallaydi. Shashmaqom murakkab modal tashkilotga, keng ko'lamlı kompozitsion shakllarga va qat'iy ijro ketma-ketligiga asoslangan. Uning vaqt o'tishi bilan saqlanib qolishi an'anaviy barqarorlikning yuqori darajasini ko'rsatadi [9].

**Xalq musiqasi** – klassik musiqa bilan bir qatorda, o'zbek xalq musiqasi milliy madaniyatning muhim va dinamik qatlamini tashkil qiladi. U marosim qo'shiqlari (to'ylar, mavsumiy marosimlar va hayot aylanishi voqealari bilan bog'liq), mehnat qo'shiqlari va lirik qo'shiqlar kabi keng turdagi janrlarni o'z ichiga oladi.

**Mintaqaviy maktablar** – mintaqaviy musiqiy uslublar ham milliy musiqadagi xilma-xillikni ta'kidlaydi. Farg'ona-Toshkent uslubi o'zining lirik ifodaliligi va nafis ohangdorligi bilan mashhur. Buxoro-Samarqand an'anasi Shashmaqom kabi klassik shakllar bilan chambarchas bog'liq. Xorazm uslubi esa o'zining baquvvat ritmlari, o'ziga xos ohangdor burilishlari va noyob ijro texnikasi bilan ajralib turadi [10, 214-b]. O'zbek milliy musiqasida an'anaviylik ijro va talqin jarayonlarida eng yorqin namoyon bo'ladi, bu yerda o'rnatilgan normalar individual ijodkorlik bilan o'zaro ta'sir qiladi. Musiqiy asarlar shunchaki takrorlanmaydi; ular meros qilib olingan qoidalar doirasida qayta talqin qilinadi.

Bu jarayonning asosiy jihatlaridan biri improvizatsiya va o'zgarmas shakllar o'rtasidagi munosabatdir. Shashmaqom kabi janrlarda kompozitsiyalar aniq belgilangan strukturaviy ketma-ketlikka amal qiladi, ammo bu doirada ijrochilardan improvizatsiya elementlarini kiritish kutilmoqda. Bunga melodik

rivojlanish, bezak, temp va frazalardagi nozik o'zgarishlar kirishi mumkin. An'anaviylik sahna ijrosi va haqiqiy (an'anaviy) muhit o'rtasidagi farqda ham aks etadi. Tarixan o'zbek musiqasi oilaviy yig'ilishlar, marosimlar va madaniy marosimlar kabi yaqin muhitlarda ijro etilgan. Zamonaviy davrda musiqa tobora ko'proq rasmiy sahnalarda va konsert zallarida namoyish etilmoqda.

Zamonaviy sharoitlarda o'zbek milliy musiqasi globallasuv, texnologik rivojlanish va ommaviy axborot vositalarining tobora ortib borayotgan ta'siri natijasida shakllangan tez o'zgarib borayotgan madaniy muhitda mavjud.

An'anaviy musiqaga ta'sir qiluvchi eng sezilarli omillardan biri globalizatsiya va pop madaniyatining ta'siridir. Xalqaro musiqiy tendentsiyalar, raqamli platformalar va tijorat ko'ngilochar sanoati yosh avlodning musiqiy didini kengaytirdi. Bu ba'zi ijtimoiy sharoitlarda o'zbek xalq musiqasi kabi an'anaviy janrlarning kundalik mavjudligining pasayishiga olib keldi.

Shu bilan birga, zamonaviy moslashuv va musiqiy uyg'unlashuvning o'sib borayotgan tendentsiyasi mavjud. Ko'plab zamonaviy bastakorlar va ijrochilar an'anaviy musiqa elementlarini – maqom kuylari, ritmik naqshlar yoki instrumental tembrarni – zamonaviy janrlarga birlashtiradilar. Masalan, Shashmaqomning orkestr, jazz yoki pop aranjirovkalari doirasida qayta talqin qilinishi an'analardan butunlay voz kechmasdan qanday rivojlanishi mumkinligini ko'rsatadi. Etnomusiqashunoslik nuqtai nazaridan, modernizatsiyani tahdid sifatida ko'rish o'rniga, uni madaniy moslashuv shakli sifatida talqin qilish to'g'riroq. Zamonaviy davrda an'anaviylikni dinamik va rivojlanayotgan jarayon sifatida tushunish kerak. Uning barqarorligi tarixiy haqiqiylikni hurmat qiladigan, shu bilan birga ijodiy qayta talqin qilish va zamonaviy madaniy muloqot uchun joy qoldiradigan muvozanatli yondashuvni topishga bog'liq.

Zamonaviy davrda o'zbek milliy musiqasining barqarorligi saqlash va rivojlantirish bilan bog'liq bir qator amaliy va nazariy muammolarni hal qilishga bog'liq. An'anaviy musiqa madaniy o'ziga xoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lib qolsa-da, uning uzatilishi va uzluksizligi hujjatlashtirish, ta'lim va madaniy siyosat

orqali tizimli qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Asosiy masalalardan biri hujjatlashtirish va tadqiqotlarga ehtiyojdir. An'anaviy musiqaning ko'plab shakllari, ayniqsa og'zaki uzatish bilan bog'liq bo'lganlar, asosan ijroda mavjud bo'lganligi sababli, vaqt o'tishi bilan yo'qolish xavfi mavjud. Shuning uchun repertuar va ijro amaliyotini saqlab qolish uchun tizimli yozuv, transkripsiya, audio-vizual arxivlash va ilmiy tahlil juda muhimdir. Shashmaqom kabi janrlarni nomoddiy madaniy meros sifatida tan olish ham ularning maqomini mustahkamlaydi va saqlash sa'y-harakatlarini rag'batlantiradi. Madaniy siyosat an'anaviy musiqaning statik muzey artefakti emas, balki zamonaviy jamiyatning tirik va rivojlanayotgan qismi bo'lib qolishini ta'minlash uchun ham himoya, ham innovatsiyalarni ilgari surishi kerak.

O'zbek milliy musiqa san'atida an'anaviylik statik hodisa emas, balki tarixiy uzluksizlik va zamonaviy o'zgarishlar natijasida shakllangan doimiy rivojlanayotgan tizimdir. U nafaqat o'tmish merosi, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun ham muhim madaniy boylikdir.

Milliy musiqadagi an'anaviylikni uzluksizlik va o'zgarish o'rtasidagi dinamik muvozanat sifatida ko'rish kerak. O'tmish strukturaviy va estetik asos yaratadi, hozirgi zamon esa yangi kontekstlar va ifodali imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu muvozanatning ilmiy tahlili madaniy o'ziga xoslikning vaqt o'tishi bilan musiqa orqali qanday saqlanib qolishi va qayta shakllanishini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Maqom san'atini, xalq og'zaki musiqa ijodini va ustoz-shogird an'alarini asrab-avaylash hamda rivojlantirish – bu faqat musiqachilar emas, balki butun jamiyatning vazifasidir.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 176 b.

- 
2. Jabborov A. *O'zbek xalq musiqasi tarixi*. – Toshkent: G'ofur G'ulom, 2005. – 284 b.
  3. Rajabov I. *Maqom asoslari*. – Toshkent: Musiqa, 1991. – 192 b.
  4. Yunusov R. *O'zbek musiqiy merosi*. – Toshkent: Fan, 2010. – 210 b.
  5. Abdullayev F. *Etnomusiqashunoslik asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2016. – 156 b.
  6. Mirzayev T. *Shashmaqom va uning rivojlanishi*. – Samarqand: SamDU Press, 2012. – 240 b.
  7. Feld Steven. *Sound and Sentiment: Birds, Weeping, Poetics, and Song in Kaluli Expression*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1990. – 327 p.
  8. Nettl Bruno. *The Study of Ethnomusicology: Thirty-One Issues and Concepts*. – Urbana: University of Illinois Press, 2005. – 466 p.
  9. Broughton Simon et al. *World Music: The Rough Guide*. – London: Rough Guides, 2000. – 756 p.
  10. UNESCO. *Intangible Cultural Heritage: Shashmaqom of Uzbekistan and Tajikistan*. – Paris: UNESCO, 2008.

**Shahloxon Davlatova**

*Namangan davlat universiteti  
"An'anaviy xonandalik va cholg'u  
ijrochiligi" kafedrasida o'qituvchisi  
E-mail: atribut\_85@mail.ru*

## **MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MILLIY QADRIYATLARNI O'ZLASHTIRISH TENDENSIYALARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'quvchi-yoshlar, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa madaniyati darslarida milliy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonining mazmuni, musiqaning qadriyatlarni o'zlashtirishdagi roli, metod va vositalari, o'quvchilarda kechadigan ijtimoiy-psixologik holatlar atroflicha tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** o'quvchi-yoshlar, milliy qadriyat, musiqa, san'at, badiiy tafakkur, madaniyat, axloq, ijod, assotsiativ metod, kontrast tahlil, dialogik metod.*

## **TRENDS IN THE ASSIMILATION OF NATIONAL VALUES BY STUDENTS IN MUSIC CULTURE LESSONS**

***Abstract.** This article analyzes the process of the assimilation of national values by students, particularly primary school students, in music culture lessons. It examines the role of music in value formation, as well as the methods and means used in this process. The study also explores the socio-psychological factors influencing students' perception and internalization of national values.*

***Keywords:** students, national values, music, art, artistic thinking, culture, ethics, creativity, associative method, contrast analysis, dialogic method.*

Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – yosh avlodni har tomonlama yetuk, vatanparvar va milliy madaniyatga ega inson qilib tarbiyalashdir. Bu borada ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar muhim o'rin tutadi. Chunki aynan shu davrda bola shaxsining asosiy psixologik, axloqiy, estetik va madaniy tamoyillari shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ichki dunyosiga bevosita ta'sir etuvchi, ularning tasavvurlari va didini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan fanlardan biri bu – musiqa madaniyatidir.

Musiqa – bu nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki milliy ruh, tarixiy xotira, ma'naviy qadriyat va estetik ideal manbai hamdir. Har bir millatning musiqasi uning madaniyati, tafakkuri va hayot falsafasini aks ettiradi. Shu bois, musiqa madaniyati darslarining asosiy vazifasi – o'quvchilarni musiqiy bilimlar bilan qurollantirish bilangina cheklanmay, balki ularni o'z milliy musiqasini anglashi, qadrlashi va asrashiga yo'naltirishdir.

Bugungi globallashuv va madaniy universallashtirish jarayonlarida yoshlarning milliy identikligini asrash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, musiqa madaniyati fanining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini milliy qadriyatlarni singdirish vositasi sifatida o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Musiqa madaniyati fani boshlang'ich ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, nafaqat estetik tarbiya, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy, madaniy, emotsional va intellektual rivojiga ham faol ta'sir ko'rsatadi. Mazkur fanning asosiy maqsadi – o'quvchilarda musiqiy didni shakllantirish, ularga milliy va jahon musiqiy merosi haqida boshlang'ich tushunchalarni berish, musiqani tinglash, tushunish va ijro etish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Musiqa inson qalbini nozik tuyg'ular, go'zallik, hayajon va ilhom bilan boyitadi. Musiqa madaniyati fanining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchini ma'naviy olam bilan bog'laydi, uning ruhiy kechinmalarini ifodalaydi, go'zallikni his etishga, mehr-oqibat va vatanparvarlik kabi oliy qadriyatlarga sadoqat bilan qarashga o'rgatadi.

Pedagog olimi G.Jalilovning fikricha: “Musiqa – bu ta'limning emotsional tayanchi bo'lib, bola qalbiga milliy ruhiyat, axloqiy fazilatlar, ma'naviy tozalikni singdirishning kuchli vositasidir” [1, 45-c]. D.Kabalevskiy, A.I.Kochetov, B.Asafyev, V.Okonnikov, Sh.Abdullayeva, S.Ismoilova kabi musiqa

pedagogikasining klassik vakillari ham bolalarga mo'ljallangan musiqiy asarlarning didaktik qimmati, ularning dunyoqarash va axloqiy tushunchalarni shakllantirishdagi o'rni haqida ilmiy izohlar berganlar.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida musiqa madaniyati fani o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, musiqiy qabul qilish salohiyatiga, estetik didining shakllanishiga moslab rejalashtiriladi. Mustaqillik yillaridan boshlab O'zbekistonda ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilgan bo'lib, bunda milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy talablarga mos o'quv dasturlar ishlab chiqilgan. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarni nafaqat ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularning estetik, axloqiy, madaniy va ma'naviy dunyosini boyitish ham muhimdir. Bu borada musiqa madaniyati fanining roli beqiyosdir.

Musiqa bolalarning estetik hissiyotlarini uyg'otish, ularda go'zallikka bo'lgan muhabbatni tarbiyalash, milliy musiqa vositasida o'z xalqining ruhiyatini anglashi, qadriyatlariga hurmat bilan qarashni shakllantirishga xizmat qiladi. D.B.Kabalevskiy ta'biri bilan aytganda, "musiqa – bu bolalar bilan qalbdan suhbatlashishning eng qisqa yo'lidir" [2, 78-b]. Shuning uchun musiqa darslari orqali milliy ong, estetik dunyoqarash, vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi.

Musiqa madaniyati fani o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra kompleks (ya'ni integrativ) fan sanaladi. Bu fan doirasida o'quvchilar musiqa nazariyasi, cholg'ular, kuy va qo'shiqlar bilan tanishibgina qolmay, balki ularga berilgan har bir asar orqali milliy urf-odatlar, qadriyatlar va tarixiy meros bilan ham tanishadi. X.Nurmatov ta'kidlaganidek, "Musiqa – bu hissiyotlar bilan fikrlash, fikrlar orqali tarbiya berish vositasidir" [3, 23-b].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixofiziologik jihatdan sezgir, ta'sirchan, emotsional va obrazli tafakkurga ega bo'lgan yosh guruhidir. Shu sababli musiqa darslari bu yoshda ayniqsa samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Musiqa bolalar tafakkurini kengaytiradi, eshitish, his qilish, ifodalash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Psixolog L.S.Vygotskiy fikricha, musiqiy obrazlar bolaning tasavvur doirasini boyitadi va uning ichki dunyosini tarbiyalaydi. Ayniqsa, xalq qo'shiqlari, bolalar kuylari va milliy kuylar orqali ular ona tilini, madaniyatini chuqur his qiladi.

Bolalarning musiqaga bo'lgan munosabati quyidagilar bilan bog'liq:

- melodiya va ritmga sezgirlik (6–10 yosh oralig'ida kuchayadi);
- kuylashga, harakat qilishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj;
- eshitgan musiqasi orqali milliylikni intuitiv anglash.

Boshlang'ich ta'limda ana shu imkoniyatlardan foydalanib, musiqiy tarbiya orqali milliy qadriyatlarni singdirish dolzarb vazifadir.

Musiqqa madaniyati darslari orqali milliy qadriyatlarni o'zlashtirishda turli didaktik yondashuvlar qo'llaniladi. Jumladan:

- interaktiv metodlar (rolli o'yinlar, musiqiy drammatizatsiya, "savol-javob");
- kontekstual yondashuv (milliy bayramlar, urf-odatlar bilan bog'liq musiqqa namunalarini tahlil qilish);
- assotsiativ yondashuv (bolaning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq musiqiy taassurotlar);
- emotsional-ta'sirchan metod (milliy kuy va qo'shiqlar orqali ijobiy hissiy fon yaratish).

Masalan, "Alla", "Yor-yor", "Kelin salom" kabi xalq kuylari orqali oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat, xotirjamlik singari g'oyalar bola qalbiga tabiiy singadi.

Boshlang'ich sinf musiqqa darslari quyidagi yo'nalishlarda shakllanadi:

- tinglash va eshitish faoliyati (xalq kuy-qo'shiqlari, bolalar qo'shiqlari, mumtoz asarlar);
  - ijro faoliyati (xonandalik, cholg'u asboblari bilan tanishish);
  - yaratuvchanlik (oddiy ritmik ifoda, harakat bilan musiqqa uyg'unligi);
  - suhbatlashuv va tahlil (asar mazmuni, tuyg'ularni anglash, milliy obrazlarni topish).
- Pedagog olimi M.Jo'rayevaning ta'kidlashicha: "Boshlang'ich sinf

o'quvchilariga mo'ljallangan har bir musiqiy asar – bu bolaga millat ruhi, qadriyat va axloqiy mezonlar haqida aytuvchi badiiy koddir”.

Musiqqa madaniyati darslari orqali amalga oshiriladigan estetik tarbiya – bu o'quvchini go'zallikni anglash, uni qadrlash va ongli ravishda tanlashga o'rgatish jarayonidir. Estetik tarbiya jarayonida kuy, ohang, ritm, matn, musiqiy obraz, milliy kuylar va xalq musiqasi orqali o'quvchining estetik ongini uyg'otish, ichki go'zallikka yetaklash mumkin.

Milliy ong esa, estetik tarbiya bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Ayniqsa, xalq kuylari, maqomlar, urf-odatlar asosidagi musiqalar orqali bolaga milliylik tushunchasi bevosita musiqiy obrazlar, so'zlar va ohanglar orqali yetkaziladi. Bu yerda quyidagi metodlar alohida o'rin tutadi:

- assotsiativ metod (musiqiy asarni milliy obrazlar bilan bog'lash);
- kontrast tahlil (xalq kuylarini xorijiy musiqalar bilan solishtirish orqali milliylikni tushuntirish);
- dialogik metod (bolalar bilan savol-javob, sahnalashtirish orqali mazmuni chuqur anglash);
- interaktiv o'yinlar (musiqiy topshiriqlar, ovozli qiyoslash, milliy cholg'ular bilan tanishish).

Shu tarzda musiqqa madaniyati darslari bolalarda estetik did, milliy iftixor, madaniy xotira, vatanparvarlik, ma'naviy sezgi kabi tushunchalarni shakllantirishda beqiyos vositaga aylanadi. Ayni paytda bu fan orqali o'quvchilarni nafaqat musiqqa, balki tarix, madaniyat, san'at, xalq og'zaki ijodi, she'riyat, til kabi boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyati mavjud.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi, urf-odatlarini, an'analari, diniy e'tiqodlari, dunyoqarashi, tafakkuri va yashash tarzining mahsuli sifatida shakllangan. Ular xalq hayotining ma'naviy mezonlari, axloqiy asoslari, estetik ideallari, jamiyatdagi ijtimoiy tartib va me'yorlarning badiiy-madaniy ifodasidir [4, 47-b].

Pedagog olimi R.Jo'raqulovning fikricha: "Milliy qadriyatlar – bu xalq ongida tarix davomida shakllanib kelgan axloqiy, madaniy, estetik, ma'naviy g'oyalar tizimidir va ular yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashda asosiy ma'naviy tayanchga aylanishi lozim".

Milliy qadriyatlar yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash, mustaqil fikrlash, o'z madaniyatiga hurmat, an'anaviy urf-odatlariga sadoqat ruhini shakllantiradi. Ayniqsa, bu jarayonda badiiy vositalar – jumladan, musiqa, xalq og'zaki ijodi, kuy-qo'shiqlar, maqollar, she'rlar, ertaklar, sahna asarlari orqali qadriyatlar ta'sirchanroq singdiriladi.

Akademik A.Qodirovning ta'kidlashicha, milliy qadriyatlar orqali shaxsni tarbiyalashda asosiy maqsad – insonda o'z millatiga mansublik tuyg'usini uyg'otish, uni ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirishdan iborat. Musiqa madaniyati darslarida milliy qadriyatlarni singdirishning eng samarali vositalari – bu milliy kuylar, xalq qo'shiqlari, maqomlar, bolalar taronalari, she'rlar, badiiy matnlar va xalq og'zaki ijodidir. Ular o'zida xalqning orzu-umidlari, hayot falsafasi, tarixiy tajribasi, axloqiy mezonlari, vatanparvarlik ruhi va estetik idealini mujassamlashtiradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichidagi o'quvchilar (7–10 yoshlar) shaxsiy taraqqiyotining o'ziga xos psixologik va axloqiy xususiyatlariga ega. Bu davrda bola o'z-o'zini anglashni boshlaydi, uni o'rab turgan muhitga nisbatan qiziqishi ortadi, mustaqil fikr yuritish va baholash qobiliyatlari asta-sekin shakllanadi. Ana shu bosqichda berilgan tarbiya, shakllantirilgan qarashlar va qadriyatlar butun umrlik shaxsiy yo'nalishni belgilaydi.

Psixolog olimi G.Zaynutdinovning tadqiqotlarida qayd etilishicha, 7–10 yosh oralig'ida bolaning hissiy-muloqotga bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'lib, u aynan obrazlar, estetik vositalar, musiqa, she'r, rasm, harakat orqali bilim va tushunchalarni tezroq o'zlashtiradi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarni musiqiy obrazlar asosida berish ularning tafakkuri va xotirasida chuqurroq aks etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining psixologik va axloqiy portreti:

- taqlidga moyil – o'qituvchi, ota-ona, qo'shiq qahramonlariga o'xshashni istaydi;
- tasavvur kuchli – obrazli ifoda, xayoliy personajlar orqali bilimni yaxshi qabul qiladi;
- axloqiy sezgirlik shakllanmoqda – ezgulik, yomonlik, vatanparvarlik, samimiylk kabi tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida;
- ijodga qiziqish kuchli – qo'shiq aytish, musiqaga harakatlanish, rasm chizish orqali o'z fikrini bildiradi.

Shunday ekan, bu yoshdagi o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirishda obrazlilik, emosionallik, o'yinga asoslangan metodlar, mushohada va mulohaza uyg'otish, milliy timsollarni ko'rsatish kabi usullar katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda musiqa darslarining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda milliy ong va qadriyatga sadoqat hissini uyg'otishdir. Bunga erishish uchun darsda foydalaniladigan usul va metodlar, musiqiy asarlarning tanlovi, o'qituvchining estetik didi va metodik salohiyati muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmatning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar:

- o'qituvchining shaxsiy namunasi (ona tilida to'g'ri so'zlash, milliy libosda chiqishlar, milliy ashulalarni sevish);
- oila muhitining qadriyatlar bilan boyligi (uyda milliy kuylar tinglash, bayramlarni urf-odatlar bilan o'tkazish);
- musiqa darslaridagi obrazlar va qo'shiqlarning mazmuni (masalan: "Do'stlik", "Mehnat", "Vatanni sevish" haqida taronalar);
- bayramlar va sinfdan tashqari tadbirlar (Navro'z, Mustaqillik kuni, Mehrmuruvvat haftaligi kabi voqealar orqali qadriyatlar amaliy ko'rsatiladi).

XXI asr globallashuv, madaniy uyg'unlik va innovatsion texnologiyalar asri bo'lishi bilan birga, insoniyatni o'z milliy ildizlariga qaytish, o'zligini anglash zaruratini ham ilgari surmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning milliy qadriyatlarga

sadoqatli, vatanparvar, ma'naviy boy shaxs sifatida shakllanishida madaniyat va san'at vositalarining, xususan, musiqa madaniyati darslarining o'rni beqiyosdir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi – shaxsning ichki dunyosi shakllanadigan eng muhim va mas'uliyatli davr bo'lib, bu bosqichda musiqa madaniyati darsi orqali o'quvchilarning estetik didi, ma'naviy ongini shakllantirish va milliy identitetini mustahkamlash mumkin. Musiqa madaniyati fani – nafaqat ashula kuylash yoki cholg'u chalish, balki xalq ruhiyatini, madaniy kodlarini va qadriyatlarini bola qalbiga singdirishning eng kuchli vositalaridan biridir. Milliy musiqaning har bir namunasida tarix, urf-odat, ijtimoiy ong va ma'naviy meros mujassam.

Musiqa orqali milliy qadriyatlarni o'zlashtirish – bu jarayon faqat bilim berish emas, balki tarbiyaviy va emotsional ta'sir o'tkazish orqali amalga oshadi. Bunda bolalarning yosh psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va tafakkur darajasiga mos metodlar tanlanishi lozim. O'zbek xalq qo'shiqlari, milliy bayramlar bilan bog'liq musiqiy asarlar, allalar, doston va maqom elementlari orqali mehr-oqibat, vatanparvarlik, ota-onaga cheksiz hurmat, xalqparvarlik, do'stlik, sadoqat kabi qadriyatlar muvaffaqiyatli o'rgatilmoqda. Musiqa madaniyati darslarida milliy qadriyatlarni o'zlashtirishning muvaffaqiyati o'qituvchining metodik mahorati va estetik saviyasi, o'quv dasturlarining milliy ruhda boyitilganligi, darsda qo'llanilayotgan musiqiy namunalar va texnologiyalar va o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otuvchi ijodiy muhit kabi omillarga bog'liq.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Кочетов А. *Культура педагогического исследования*. – Минск: Адукацыя и выхаванне, 1992. – 312 с.

2. Кабалеvский Д. *Педагогические размышления. Избранные статьи и доклады*. – Москва: Педагогика, 1986. – 400 с.

3. Нурматов Х. Педагогическая основа формирования музыкально-эстетической культуры младших школьников Узбекистана: Автореф. Дисс. док. пед. наук. – Ташкент, 1994. – 55 с.

4. Yarashev J. Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda aksiologik yondashuv (Buxoro musiqa merosi misolida): Ped. fan. fal. dok... diss avtoref. – Samarqand: SamDU, 2020. – 36 b.

5. Inatullayev B. Navro'z bilan bog'liq marosimlarning badiiy talqini // *Oriental Art and Culture*. – Toshkent, 2022. – №3.2. – B. 222–229.

6. [https://scholar.googleusercontent.com/scholar?q=cache:izfJzS5h9UoJ:scholar.google.com/&hl=ru&as\\_sdt=0,5](https://scholar.googleusercontent.com/scholar?q=cache:izfJzS5h9UoJ:scholar.google.com/&hl=ru&as_sdt=0,5)

**Turgunpulat Davlatov**

Namangan davlat universiteti  
“An’anaviy xonandalik va cholg’u  
ijrochiligi” kafedrası o’qituvchisi  
E-mail: [turgunpolatdavlatov2@gmail.com](mailto:turgunpolatdavlatov2@gmail.com)

## **O‘ZBEK XALQ MUSIQA SAN‘ATI RIVOJIDA MAHALLIY USLUBLARNING ROLI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek xalq musiqa san‘ati rivojida mahalliy uslublarning tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, Buxoro – Samarqand, Xorazm, Farg‘ona – Toshkent va Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslublarning shakllanish jarayoni, ularning o‘ziga xos xususiyati, ijrochilik an‘analari hamda milliy musiqiy merosni boyitishdagi roli yoritib beriladi. Maqolada mahalliy uslublarning tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari o‘zbek xalq musiqa san‘atining rang-barangligini saqlash va uni zamonaviy musiqiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirishda mahalliy uslublarning muhimligini ko‘rsatib beradi.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, milliy musiqa, san‘at, tarbiya, folklor, qo‘shiq, ta’lim, oila, ma’naviy hayot, repertuar, mahorat.

## **THE ROLE OF LOCAL STYLES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK FOLK MUSIC**

**Abstract.** This article analyzes the role of local styles in the development of Uzbek folk music. Particular attention is given to the formation of the Bukhara – Samarkand, Khorezm, Fergana–Tashkent, and Surkhandarya–Kashkadarya musical styles, as well as to their distinctive modal, rhythmic, and performance characteristics. The study examines their contribution to the enrichment of the national musical heritage and highlights their close interconnection with historical, social, and cultural factors. The findings demonstrate the importance of local styles in preserving the diversity of Uzbek folk music and in harmonizing it with contemporary musical processes.

**Keywords:** *uzbek folk music, local styles, musical traditions, modal system, rhythm, performance practice, cultural heritage, regional schools.*

O'zbek xalq musiqa san'ati milliy madaniyatimizning ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo'lib, u asrlar davomida xalqning ijtimoiy hayoti, dunyoqarashi, urf-odat va an'analari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib kelgan. Ushbu san'at turi o'zining boy janrlar tizimi, rang-barang ohanglari hamda o'ziga xos ijrochilik maktablari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, har bir hududga xos bo'lgan mahalliy musiqa uslublari o'zbek xalq musiqasining betakrorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda globallashtirish jarayonlari, zamonaviy musiqiy oqimlarning kuchayishi sharoitida milliy musiqa merosini asrab-avaylash, uni ilmiy jihatdan o'rganish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek xalq musiqa san'ati rivojida mahalliy uslublarning o'rni, ularning tarixiy shakllanish bosqichlari va badiiy-estetik ahamiyatini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada o'zbek xalq musiqa san'ati taraqqiyotida mahalliy uslublarning roli, ularning o'zaro mushtarak va farqli jihatlari, shuningdek zamonaviy ijrochilik amaliyotidagi ahamiyati ilmiy manbalar va tahliliy yondashuv asosida yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari milliy musiqa merosini saqlash va uni kelajak avlodga yetkazishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonda barcha sohalar qatorida madaniyat va san'at zamonaviy talablar asosida takomillashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni hamda 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarini

qabul qilinishi bilan madaniyat tizimi, xususan, ijrochilik rivojlanishning yangi bosqichi boshlandi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, asrlar osha bizgacha yetib kelgan bitmas-tuganmas musiqa merosi o'zbek xalqining yuksak badiiy didi va teran tafakkuridan yaqqol dalolat berishi tabiiydir. Zero moziydan shu kunga qadar mahalliy san'at ahli an'anaviy ijodiyotning shakl va navlarini tobora takomillashtirib, uning badiiy barkamol namunalarini avaylab-asrab, yangidan-yangi ijodkorlik sa'y-harakatlari ila milliy-ma'naviy boyliklarni doimo ko'paytira borganlar. San'atkorlar xalqning orzu-umidlarini, sevinch-u hayratlarini, quvonch-u qayg'ularini mumtoz ohanglar orqali nafosat va ezgulik olamiga tinglovchini oshno qilish hamda o'lmas qadriyatlar ila ruhiy-ma'naviy ozuqa berib kelganlar.

Ma'lumki, o'zbek musiqa ijodiyotida bir qator uslublar mavjud. Avvalo "uslub" so'ziga to'xtalib o'tamiz. Bu ibora birmuncha keng, aniqrog'i-yig'ma ma'noda jahon xalqlari musiqa san'atiga xos umummilliy yoki muayyan mintaqaviy xususiyatlar ifodalanadi. Jumladan, "Sharqona musiqiy uslub", "Ovro'pacha musiqa uslubi" kabi sozlar yaqqol misol bo'la oladi. Boshqa barcha badiiy ijodiyot ko'rinishlari qatori musiqada ham milliy o'ziga xoslikka aynan uslub atamasi yordamida qisqa va lo'nda tavsif beriladi.

Musiqiy asarlarning ichki tuzilish qonuniyatlari bu masalada yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Ya'ni asosiy vositalarning o'zaro munosabatlarini belgilovchi mezonlardan u yoki bu uslub aniqlanadi. Xususan, "bir ovoqli" yoki "monodik", "ko'p ovoqli", jumladan, "garmonik", "polifonik", "gomofonik" nomli uslublar shular toifasiga kiradi. Yirik ijodiy yo'nalish va oqimlar, masalan, "klassitsizm", "romantizm", "impressionizm", "realizm" va boshqalar ham uslub tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir.

Uslub so'zi yana bastakor, kompozitor, dirijyor, xonanda va sozandalar faoliyatini ijodiy jihatdan chuqurroq yoritish maqsadida ishlatiladi. Ayniqsa, u birorta mashhur san'atkorning ijodiy qiyofasini, betakror chizgi-qirralarini tahlil yoki qiyos ila ko'rsatishda baholi-qudrat xizmat qiladi. Shuningdek, "cholg'u

uslubi”, “maqom uslubi”, “yovvoyi” yoki “patnisaki uslub”, “badiha uslubi”, “zamonaviy uslub” singari rang-barang ma'nolarni bildiruvchi hollarni kundalik o'quv-nazariy va amaliy iste'molda tez-tez uchratib turish mumkin.

Ko'lami keng, serqatlam musiqa merosimizni tashkil etuvchi xilma-xil ko'hna namunalarning nota yozuviga tushirib, to'plab, ushbu yo'nalishda dastlabki ilmiy izlanishlar bilan shug'ullangan bir qator yirik mutaxassislar ish faoliyatida kuzatilgan uslubiy tafovutlarga o'z vaqtida alohida e'tibor berilgan. Ular bu haqda ilk bor qiziqarli ma'lumotlarni to'plab, teran ilmiy mushohadalar yuritganlar. Xususan, e'tirof etilganki, O'zbekiston hududining barcha vohalarida, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonda istiqomat qiluvchi o'zbeklar orasida, shuningdek, ayrim boshqa xorijiy mamlakatlarda azaldan tub o'zbek aholisi zich holda yashab kelayotgan yerlarda “musiqiy sheva”larning ko'rinishlari xiyla o'zgacha ekan. Kuzatilayotgan bunday ancha murakkab etnik, jo'g'rofiy, siyosiy-ijtimoiy, tarixiy-madaniy voqelikni to'laligicha qamrab olish, unga mukammal ta'rif-u tavsiflar berish qiyin masala, albatta. Bularning orasida hozirga qadar ko'lami jihatidan bir muncha kengligi, tarixan qadimiyligi, xususiyatlari bo'yicha benazir, betakrorligi bilan asosan to'rtta mahalliy uslub alohida-alohida ajratilgan bo'lib, o'zbek musiqashunosligida nisbatan atroflicha o'rganilgan. Ularning har biri muayyan hudud nomi bilan, ya'ni Buxoro-Samarqand, Xorazm, Toshkent-Farg'ona va Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy uslublari deb yuritiladi.

O'ziga xos mahalliy xususiyatlar marosim-maishiy musiqasida ham, noma'rosim kuy-qo'shiqchilikda ham, ashula va cholg'u ijrochiligida ham bevosita namoyon bo'ladi. An'anaviy uslublar zaminida bitilgan hozirgi zamon asarlarida ham bu jihatlar, ozmi-ko'pmi, hamon namoyon bo'lishi mumkin.

Kasbiy musiqa ijrochiligi sohasida san'atkorlar ustoz-shogird an'anasini yuzaga keltirib, qadimdan bevosita qo'llagan holda faoliyat ko'rsatib kelganlar. O'zbekiston, Markaziy Osiyoning turli vohalaridagi taniqli xonanda, sozanda va bastakorlar bilan ular o'zaro yaqin aloqalarda bo'lishgan. Ularning O'rta va Yaqin Sharqqa, qolaversa, butun dunyoga mashhur bo'lgan olimlarimiz tomonidan o'ylab

chiqilgan musiqiy ilm-fan asarlaridan tajribali muallimlar yordamida, ko'plab maxsus nazariy risolalar orqali boxabar bo'lishgani ma'lumdir.

**Toshkent-Farg'ona mahalliy-musiqqa uslubi.** Ma'lumki, ushbu katta hududning aksariyat yirik shahar va qishloqlarida aholi zich joylashgan. Vohaning an'anaviy musiqqa ijodiyoti umummilliy, mahalliy, boshqa uzoq-yaqin qo'shni mintaqalardagi ayrim farqli xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi.

Toshkent-Farg'ona mahalliy-musiqqa uslubi tuzilish jihatdan oddiy, ixcham hajmli, mavzu va mazmun doirasi bo'yicha xilma-xil kuy, qo'shiq hamda ashulalar bu hududda juda keng tarqalgan. Jumladan, bu o'lkada bu qancha xalqchil maishiy, marosim, shuningdek, erkin tarzda cholg'u va ayrim janrlar qatorida ayollar qo'shiqlari ham nihoyatda mashhurdir. Mazkur mintaqaga xos bo'lgan yana ko'plab terma, bolalar qo'shiqlari, lapar, yalla, ashula, katta yoki patnis (yovvoyi) ashula, chog'u kuy, bir qismi va turkumli maqom yo'llari, ko'proq chorvadorlikka ixtisoslashgan qishloq joylarda esa dostonlar asosiy o'rin egallaydi.

Farg'ona-Toshkent bastakorlik ijodiyotiga molik asarlar esa hajman kattaligi, tuzilishi nisbatan murakkabligi, ba'zida usluban mutlaq noyobligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, musiqqa ijrochiligining kasbiy mezonlari ham yuqori darajada. Bu o'rinda ayniqsa katta ashula "milliy-mahalliy janr"ga yorqin namuna bo'la oladi. O'zbek milliy cholg'ularidan esa dutor, tanbur, sato, g'ijjak, qashqar rubobi, chang, nay, qo'shnay, surnay, karnay, nog'ora, doyra (childirma, chirmanda) kabilar juda keng qo'llanilib kelingan. Farg'ona-Toshkent maqom namunalari o'zining xalqchil, shinavandabop, xalq ashulalariga yaqinligidan dalolat beruvchi bir qator xislatlari bilan ta'riflanadi. O'zbek tinglovchilari orasida mashhur bo'lib ketgan surnay maqom yo'llari, "yovvoyi" yoki "patnisaki" maqom ashulalari, mumtoz cholg'u kuy hamda ularning noyob ijrochilik san'ati ham aynan shu hududning salohiyatli musiqqa madaniyatiga xosdir.

**Buxoro-Samarqand mahalliy-musiqiy uslubi.** O'rta Osiyoning eng qadimiy madaniy markazlaridan bo'lgan Samarqand va Buxoroning musiqiy-uslubiy xususiyatlari bir oz o'zgachadir. Jumladan, Zarafshon vodiysi hududida

istiqlomat qiluvchi aholi musiqa merosida folklor hamda kasbiy ijodiyot qatlamlarining shakl, janr va ichki uslublari bir-birlaridan farq qilishi kuzatiladi. Asl ma'noda musiqa san'ati namoyandalari – bastakorlar, hofiz va sozandalar, musiqa olimlari, ular qatoridan o'z vaqtida saroyda xizmat qilganlari, butun o'lkamizda juda katta obro' va mavqega ega bo'lganlar. Ular mumtoz ashula, kuy, maqom va boshqa rivojlangan shakllardagi musiqa namunalari ijodkorlaridir. Xassos ijrochi va bilimdon nazariyotchilardan bir qanchasi esa nafaqat O'zbekiston, butun Markaziy Osiyo, Islom sharqi bo'ylab shuhrat qozonganlar.

San'atchi – ayollardan tashkil topgan Sozanda nomli ijodiy guruhlar faoliyati shu voqea madaniyatining o'ziga xos jihatlaridan biridir. Guruh ishtirokchilari mahalliy – an'anaviy musiqa hamda jozibali raqslarning mohir ijrochilari sifatida omma orasida keng tanilgan. “Sozanda”ning ijro bisoti asosan kichik shakllarda, turfa mazmundagi o'zbek hamda tojik milliy kuy, qo'shiq va raqslardan iborat. Hozirda ham joylarda bunday an'analar yaxshi saqlangan.

Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi qadimiy shahar hamda qishloqlarda qo'llanilgan milliy cholg'u turlarining son jihatdan ko'pligi va rang-barangligi bilan ta'riflanadi. Bu yerlarda sof cholg'u musiqasining boyligi, marosim va nomarosim mahalliy kuy-qo'shiqlarining o'ziga xosligi yaqqol kuzatiladi. Ya'ni o'zbek milliy san'ati serqirra ko'rinishlariga ega bo'lishi qatorida o'zining tub tamoyillari orqali yaxlitlik va mushtaraklikni namoyon qiladi.

Shuningdek, mazkur viloyatlarga xos o'zbek musiqa folklorining ayrim jihatlari tojik xalq musiqasi bilan ma'lum darajada umumiylikni ham hosil qilgan. Tarixiy taqdirlari, urf-odatlar, madaniyati va san'ati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lmish ikkala qardosh xalqning ijodiyotidagi mushtarak an'analari mahalliy aholi ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi.

Buxoro aholisi o'rtasida “mavrigi” nomli nodir janr namunalari uchrashi, tojik tilida aytiladigan eski va zamonaviy qo'shiqlarning tarqalganligini aytish mumkin. Shuningdek, o'zbek hamda fors-tojik xalq va mumtoz she'riy namunalari

bilan uzviy bog'liq shashmaqom turkumidagi ustozona ashula yo'llar bunga eng yorqin misol bo'lib xizmat qiladi.

**Xorazm mahalliy-musiqiy uslubi.** Xorazm musiqa uslubi, avvalo, o'zining o'ta yorqin tusi va alohida jo'shqinligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Tarixdan ayonki, Xorazm diyori ham qadimiy va o'rta asr davrlarida butun Markaziy Osiyo xalqlarining katta madaniy-musiqiy o'choqlaridan biri bo'lgan. Ko'hna Xorazmning o'ziga xos mahalliy udum va an'analari barcha turmush jabhalarida o'z aksini topganligini ham e'tirof etish mumkin.

Bundan o'zgacha xislatlar asosan yerli xalq musiqasining janr tarkibida, jumladan, suvora, maqom yo'llari, dostonchilik, xalfachilik, raqs kuylarida kuzatiladi. Shuningdek, bu musiqaning kuy-ohanglari hamda usullari tabiatida, mavjud musiqiy cholg'ulari va ulardagi ijrochilikda sezilarli darajada o'z aksini topadi.

Xususan, O'zbekistonning boshqa hududlarida doston janri ko'proq she'riy-badihali uslubga moyildir. Xorazmda esa dostonlar musiqiy jihatdan ifodalibroq tabiati, shaklan rivojlangan xalqchil kuy va nomlari bilan farq qiladi. Uzoq o'tmishda qo'biz, keyinchalik do'nбира jo'rlicida dostonlar aytilgani ma'lum. So'nggi zamonlarda dutor, ba'zida ozarbayjon tori yoki tarkibida asosan g'ijjak, dutor, bulamon va doyradan iborat ixcham an'anaviy ansambl ishtirokida doston aytish bu yerlarda odat tusiga kirgan.

Xorazmda qo'llanilgan milliy musiqa cholg'ulari ham ayrim o'zgacha xususiyatlari bilan farqlanadi. Jumladan, bulamon respublikamizning faqat ushbu viloyatida hamda yaqin qo'shni hududlarda tarqalgan. Mahalliy surnayning ham o'zgacharoq tuzilishi va yangrashi ma'lum. Taxminan XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran to bugungi kungacha Xorazmda garmon sozi keng qo'llanib kelinmoqda. Ammo ayni chog'da bu viloyatda qadimgi do'mbira mutlaqo amaliyotdan chiqib ketgan. "Xalfa" nomli ayollar ijodiy guruhlarining noyob ijro bisoti ham huddi shu o'lka mahalliy uslubining o'ziga xos alomatlaridan biridir [4, 64-b].

Kavkaz xalqlarining “tor” nomli mashhur cholgʻusi XX asrning boshlarida oʻz imkoniyatlari boʻyicha oʻzbek sozandalariga juda maʼqul keldi. Bu jarangdor cholgʻu zamonaviy qoʻshiq va ashula ijrochiligi joʻrligida dastavval Xorazmda qoʻllanila boshlangan.

Yana bir qator milliy musiqa cholgʻularining tuzilishida, ularning anʼanaviy ijrochilik yoʻllarida ham oʻzgacha holatga duch kelish mumkin. Masalan, Xorazmga dutor kosaxonasining hajmi nisbatan kichikligi, dastasi biroz kichikroq, yaʼni ingichkaroq va kaltaroqligi bilan Fargʻona vodiysi va Toshkentda rasm boʻlgan anʼanaviy dutordan farq qiladi. Mahalliy – anʼanaviy dutor ijrochiligining kasbiy, jumladan, sof cholgʻu yoki maqomga mos chalish uslublari ham muayyan mushtarakligi qatorida oʻzaro birmuncha farqlanadi. Shu bilan birga taʼkidlash joizki, Xorazm vohasining musiqiy uslubida qoraqalpoq, turkman, ayrim kavkaz xalqlari, jumladan, ozarbayjon xalq musiqasi bilan muayyan darajada yaqinlik bor.

**Surxondaryo – Qashqadaryo mahalliy musiqiy uslubi.** Oʻzbekistonning eng janubida joylashgan ikki viloyat – Surxondaryo va Qashqadaryoda istiqomat qiluvchi tub aholining katta qismi, respublikamizning boshqa qadimiy oʻlkalaridan farqli oʻlaroq, yaqin oʻtmishda ham asosan chorvachilik bilan shugʻullangan. Turmush sharoiti ham shunga moslashgan edi. Aholining faqat maʼlum qismigina dehqonchilik, bogʻbonchilik, har xil hunarmandchilik ishi bilan band boʻlgan. Shu boisdan asl mahalliy musiqa folkloridan koʻproq terma (choʻblama) hamda ommaviy, jamoa qoʻshiqlari katta oʻrin tutgan. Bular qatorida doʻmbira kuylari, chorvadorlar hayoti va mehnati bilan bogʻliq boʻlgan maishiy mavzulardagi aytim va kuylar yetakchilik qilgan.

Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida joylashgan shahar va qishloqlarning musiqa madaniyatida kasbiy dostonchilik juda qadimgi davrlardan beri markaziy oʻrin tutib kelgan. Uning ijodkor-u bayonchilari hisoblanmish “baxshi”lar hamisha el-yurt ardogʻida boʻlishgan. Oʻzbekistonning boshqa viloyatlariga qiyos qilganda oʻtmishda mazkur oʻlkaning qishloq joylarida amalda qoʻllanilgan cholgʻu asboblari nisbatan chegaralangan edi [2, 128-b].

Bu yerlarda asosan do'mbira, nay, changqobuz, doyra kabi sozlar kengroq tarqalgan. Ammo Surxondaryoda uning hududida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan musiqa madaniyatiga oid bir qator ashyoviy dalillar (masalan, Ayritom toshtaxtasi, devoriy suratlar, terrakota haykalchalari va boshqalar) bu o'lkada yirik shaharlarga xos san'atkorlik an'analari juda qadimgi davrlarda shakllanganligini isbotlaydi. Ko'hna manbalarda, mashhur (ba'zi taxminlarga ko'ra ilohiy) sozandalarning ramziy qiyofalari, mukammal shakllardagi sharqona torli, damli, zarbli cholg'ular yuksak mahorat bilan tasvirlangan.

Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni muallimlarsiz tasavvur etib bo'lmaydigan haqiqatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z chiqishlarda: "Ma'naviyatning ikki qanoti bor, biri – iqtisod, ikkinchisi – ma'naviyat", – deb ta'kidlagan edilar. Shu boisdan ham bolalar musiqa va san'at maktablari, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini sifat jihatdan takomillashtirish davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda.

"Xalqimizning istiqloлга erishish munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urf-odat va an'alarimizni, ma'naviy va shu jumladan, badiiy merosimizni atroflicha o'rganish hamda undan bahramad bo'lish imkoniyati vujudga keldi. O'zbek xalqining musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Bu an'alar zamonaviy o'zbek musiqa madaniyatining ajralmas qismini tashkil qiladi" [1, 73-b].

Qadim-qadim zamonlardan ona-zaminimiz o'zining boy ma'naviy merosi, yuksak madaniyati, urf-odat, marosim va an'analari bilan jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallagan. Bu o'lka xalqlarining buyuk siymolari dunyo ilm-fani va madaniyatining barcha sohalari rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelganlar. O'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublarini o'rganishdan asosiy maqsad o'quvchilarni an'analarga boy va badiiy yetuk xalq musiqa ijodi namunalardan bahramand etish hamda shu asosda ularda o'tkir did, yuqori badiiy

saviya va nafis tuyg'ularni shakllantirishdan iborat. Ayni vaqtda, ko'p asrlar davomida yashab kelgan avlod-ajdodlarimiz ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi intixosi bo'lgan milliy kuy, qo'shiqlarimiz yosh avlod qalbidan o'rin olarkan, ularni o'z vataniga, xalqiga sadoqatli va mehr muruvatli bo'lishga, azaliy qadriyatlarimiz va o'ziga xos betakror an'alarimizni e'zozlashga, ona-yurt merosining bugungi kundagi haqiqiy vorislari bo'lishga, demak, milliy istiqlol zaruratini teran his etishga da'vat etadi.

Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib, zamonlar osha bizgacha yetib kelgan boy musiqa merosimizning turfa, noyob, usluban o'ziga xos va o'ziga mos tabiati uning juda qadimiyligidan, kuchli va bitmas-tuganmas salohiyat sarchashmalaridan dalolat beradi. Shuningdek, bular xalqimizining har qancha faxrlanishga arzigulik ulkan va bebaho madaniy – ma'naviy xazinasidir.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *Кароматов Ф. Ўзбек халқ музыка мероси. – Тошкент: Фан, 1972. – 240 б.*
2. *Кароматов Ф. Ўзбек достончилик санъати. – Тошкент: Фан, 1980. – 178 б.*
3. *Иброхимов О. О'zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism. – Toshkent: 1994. – 220 b.*
4. *Tursunov S. Surxondaryo baxshichilik maktabi. – Toshkent: Musiqa, 2008. – 168 b.*
5. *Ражабий Й. Ўзбек халқ музыка ижодиёти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 220 б.*
6. *Yunusov R. O'zbek xalq cholg'ulari va ijrochilik an'analari. – Toshkent: Musiqa, 2004. – 192 b.*
7. *Abdurahimov B. "Xalq musiqasi merosidagi mumtoz asarlarning ashula va raqs ansambllari repertuari uchun ahamiyati". Research Focus 4.Special Issue 3 (2025): 296–299.*

8. Abdurahimov B., Do'smurodov B. *Maqomlarni targ'ib qilishdagi yutuq va ba'zi bir muammolari //Scientific progress. – Toshkent, 2021. – №. 6. – B. 847–850.*

9. Inatullayev B. (2019). *Social-cultural factors of human socialization process. Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – № 1(10). – P. 165-170.*

**Shokirjon Otabekov**

Namangan davlat universiteti  
"An'anaviy xonandalik va cholg'u  
ijrochiligi" kafedrasida o'qituvchisi  
E-mail: shokirjonotabekov94@gmail.com

## **AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MUSIQA MADANIYATI RIVOJI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan hamda musiqa madaniyatining gullab yashnashi, u davrda musiqa san'ati nafaqat siyosiy va harbiy yutuqlar, balki ilm-fan, adabiyot va san'atning boshqa jabhalari yuksalishi bilan ham ajralib turadi. Temuriylar davrida ulkan madaniy va ma'naviy meros, noyob tarixiy yodgorliklarni asrab, avaylash haqida fikr yuritilgan.

**Ka'lit so'zlar:** ko's nog'ora (nakkora), duhul, avest, husayniy, hijoz,rohaviy, zangula, iroq, isfahon, zirofkand.

### **THE DEVELOPMENT OF MUSICAL CULTURE DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS**

**Abstract.** This article examines the development of science and musical culture during the reign of Amir Temur and the Timurids. It highlights that this period was characterized not only by significant political and military achievements, but also by a remarkable flourishing of science, literature, and the arts. Special attention is given to the preservation and transmission of the rich cultural and spiritual heritage, as well as to the unique historical monuments of the Timurid era.

**Keywords:** kos-nakkora drum, duhul, Avesta, Husayni, Hijaz, Rohavi, Zangula, Iraq, Isfahan, Zirafkand.

Tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari madaniyati faqat Amir Temur davrida yanada rivojlana boshlagan. Buni bobomiz Amir Temur

tomonidan O'rta Osiyo hududidagi turli tarqoqliklarga barham berilib, birlashgan buyuk davlat tuzishga erishilganidan anglashimiz ham mumkin.

Aynan Temuriylar davrida musiqa nazariyasi, ta'limoti, qoida va shakllari haqida risolalar paydo bo'la boshlagan. Darvesh Ahmad Qonuniy, Sulton Muhammad Udiy Samarqandiy, Sulton Ahmad, Abduqodir Marog'iy kabi xonanda, sozanda va musiqa nazariyotchilarning dovrug'ini butun dunyo tanigan edi [1, 51-b]. "Amir Temur armiyasining orkestri puflama va zarbli cholg'ulardan nog'ora, juft nog'ora, ko's nog'ora (nakkora), dovul, duhul, surnay, karnay singari sozlardan tarkib topgan. Tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiyning ta'rificha, jangga kirishdan oldin Amir Temurning harbiy orkestrida 300 erkak duxul va surnaylarni chalib askarlarga jangovar ruh bag'ishlagan" [1, 29-b] ligini ta'kidlab o'tgan.

Temuriylar davridan boshlab musiqa mavqeyi yuqori san'at turi sifatida tan olina boshlagan. Amir Temur musiqa san'ati va uning ijrochilarini benihoyat yaxshi ko'rgan va ularni e'zozlab katta hurmat bajo keltirgan. Shuning uchun uning hukmdorlik davrida ko'pgina iste'dodli xonanda va sozandalar mashhurlik darajasiga erishgan.

Biz milliy madaniyatimizning Temuriylar davri taraqqiyotiga nazar solar ekanmiz, milliy musiqamiz bu jarayonda yuqori darajada rivoj pog'onasiga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu Amir Temurning milliy san'atimiz, madaniyatimiz va uning fidoyilariga ko'rsatgan mehr muhabbati hamda ehtiromi tufaylidir. Temuriylar davri madaniyati va san'ati davrida Abdulqodir Marog'iy boshchiligidagi Markaziy Osiyo musiqasi nazariyasi va amaliyoti maktabi alohida e'tirofga ega. Xoja Abdulqodir Marog'iy (to'liq ismi Xoja Abdulqodir bin G'oibi al Hofiz al-Marog'iy) XIV asrning 2-yarmi, Marog' shahrida dunyoga kelgan. U ud, chang, nay sozlari mohir ijrochisi, xonanda, bastakor va musiqashunos bo'lgan.

XVII asr musiqa tarixchisi Darvish Alining ma'lumotiga ko'ra Xoja Abdulqodir Marog'iy isfaxonlik bo'lib, o'sha davr Sharqining buyuk musiqashunos olimi, bastakor va nazariyotchisi edi [2, 56-b].

Amir Temur uni Bog'doddan Samarqandga olib kelgan va 1394–1405-yillarda u Sohibqiron, so'ng esa Shohrux Mirzo, Xalil Sulton saroylarida umrining oxirigacha ijodiy faoliyatini olib borgan. Abdulqodir Marog'iy Samarqandga kelib saroy teatri va musiqasi san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan. Samarqandda o'z maktabini yaratib, ko'plab shogirdlar tayyorladi. Abdulqodir Marog'iyning Shom davlatidan olib kelib saroy musiqachilarining rahbari etib tayinlanganligi ham Amir Temurning musiqa san'atiga ixlosmand bo'lganligidan, madaniyat va musiqa san'atining rivojiga alohida e'tibor berganligidan dalolat beradi. Abdulqodir Marog'iy musiqa nazariyasi sohasida juda boy meros qoldirgan. U “Kanz ululhon” (Kuylar xazinasi), “Jome ulalhon” (Kuylar majmuasi), “Maqosid ul alhon” (Kuylar hosil qilish o'rni), (Safiuddin al Urmaviyning “Kitob ul advor”ga sharh va boshqa asarlarini yozib qoldirgan va “Kitob ul advor” asarini turk tiliga tarjima qilgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Xoja Abdulqodir Marog'iy asarlarida Forobiy, Safiuddin al Urmaviy, Mahmud ash-Sheroziylarning musiqaga oid nazariy fikrlarini rivojlantirib, qator masalalarga aniqliklar kiritib o'tgan [2, 73-b].

Hoja Abdulqodir Marog'iy ham musiqa nazariyotchisi, ham amaliyotchisi, ham ijrochilikda mashhurlikka erishgan shaxs bo'lgan. U sozgar sifatida “udi murassa”, deb atalgan torli soz ixtiro qilgan, bastakor sifatida esa Sharq xalqlari musiqasida mashhur tasnif, peshrav, amal, savt shakllarida (Tasnifi Xoja Abdulqodir, Amali Bo'ston kabi) kuy va ashula yo'llari, yangi (Zarbul fath, Chohor zarb) singari doyra usullarini yaratgan. Bu davrda saroylarda musiqa san'atiga e'tibor juda ham kuchaytirilgan edi. Xususan Mirzo Ulug'bek Samarqandni ilmiy madaniy va ma'rifiy markazga aylantirib, shoir hamda san'atkorlarga homiylik qilgan. Ularni moddiy va ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlab turgan [3, 13-b].

Xullas, Amir Temur va Temuriylar homiyligi, sa'y-harakatlari bois, o'sha davr milliy mumtoz musiqa san'ati nazariyasi hamda amaliyoti rivoj topdi. Shuningdek, bir guruh milliy sozlar kashf etildi, olimlar tomonidan

musiqashunoslikka oid nazariy ta'limotlar yaratildi. Bu esa musiqa madaniyati va san'ati taraqqiyotida katta hissa bo'lib qo'shildi.

Tafakkurdagi ikki: aqliy (ratsionalizm) va vajdiy (irratsionalizm) yo'nalish namoyandalari zohiran o'zaro kelishmay kelgan bo'lsalarda, amalda Yevropa Uyg'onish davrida bo'lganidek, inson ongini bedor etish, uni aqidaparastlik (taqlidchilik) g'uboridan tozalashda hamkorlik qildilar. Shu bois hurfikrli mutafakkirlar orasida ratsionalist olimlar bilan birga, orif sufiylar ham bor edi [3, 18-b]. Sharq Uyg'onish davri vakillari o'z xalqlarining keng madaniyat bilan birga, yunon va hind xalqlari merosidan ham foydalanishgan. Yunon olimlarining asarlari VIII–IX asrlarda arab tiliga tarjima qilindi, sharhlandi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari deb hisoblashgan, Plotin qarashlari Ibn al Arabiyga ta'sir etib, "vahdatul vujud" falsafasiga turtki berdi. Biroq yunonlar ko'p fikrlarni qad. osiyoliklardan olganlar. Bu tarix qonuniyati; Abu Rayhon Beruniyning "Kitob attafhimli avoil sinoat attanjim" asari qo'lyozmasi (XIII asr), yuksalishga shaylangan xalq o'z madaniyati va o'zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o'zlashtirib, yana yuksaklikka ko'tariladi [7, 94-b].

Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII–XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (davozdax) maqom mavjud bo'lgan. Bular "Ushshoq", "Navo", "Buzalik", "Rost", "Husayniy", "Hijoz", "Rohaviy", "Zangula", "Iroq", "Isfahon", "Zirofqand", "Buzurg"dir [11, 87-b].

Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning "Risola dar ilmi musiqa" (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining "Dar bayoni duvozdah maqom" (o'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog'iy, Xoja Sayfidin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lgan: "Maqomi rost", "Maqomi Ushshoq", "Maqomi Navo", "Maqomi Roho", "Maqomi Hijoz", "Maqomi Iroq", "Maqomi Husayniy". Yana ushbu risolada ulug' bobimiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, "Bulujiy", "Shodiyona", "Axloqiy", "Tabriziy", "Usuli

ravon”, “Usuliy otlig” singari kuylarni ixtiro qilganligini ta’kidlab o’tadi. Bugungi kunda sharq musiqasi o’zining o’rni va ahamiyatini saqlab kelmoqda jahon miqiyosida tan olingan bo’lib xalqaro musobaqalar festivallar tashkil etilmoqda. Xususan O’zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi milliy musiqa san’atining eng yaxshi namunalarini keng targ’ib qilish, milliy musiqa an’analarini saqlash va rivojlantirish, yosh avlodda san’atga muhabbat tuyg’usini uyg’otish hamda xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, do’stlik, o’zaro hamjihatlik, madaniy-ma’naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini tashkil etgan. Festival 1997-yildan buyon har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahridagi ko’hna “Registon” maydonida avgust oyining 2-yarmi oxirida o’tkazilib kelinadi. Festivalda ishtirokchi davlatlar soni yildan-yilga ko’paymoqda. Jumladan, I festivalda 34 ta davlat, II festivalda 36 ta davlatdan 250 dan ortiq vakillar o’z san’atlarini namoyish etdilar. Festivalga har yili katta tayyorgalik ko’riladi va rang-barang namoyishlarga boy ochilish marosimi dasturi bilan festival boshlanadi. Ochilish marosimida faxriy mehmonlar, jumladan UNESCO prezidenti, O’zbekiston Respublikasi prezidenti va hokimiyat vakillari o’z nutqlari bilan chiqishadi. Musiqiy haftalikda o’nlab davlat vakillari ishtirok etadilar sharq madaniyati va urf-odatlarini e’zozlagan holda festival ko’tarinki kayfiyatda davom etadi. Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo’llari sayqallangan ko’rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo’llari ham o’z o’rnini topganligi ehtimoldan holi emas. Sharq musiqa madaniyati butun dunyo musiqa madaniyatining rivojlanishiga turtki bo’la oldi desak adashmagan bo’lamiz.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Ashurov B. *XVI–XVII asrlarda milliy musiqiy tafakkur rivojining zamonaviy talqini. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.* – Toshkent, 2019.
2. Abu Nasr Farobiy. *Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. Mas'ul muharrir O'zbekiston Respublikasi FA a'zosi M.M.Xayrullayev.* – Toshkent: Fan, 1975. – 112 b.
3. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub (Qalblar sevgilisi).* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 304 b.
4. Begmatov S. *Musiqqa: 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6-nashri.* S.Begmatov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi, 2017. – 160 b.
5. Fayziyev O., Rahimov Q. *Borbad Sharq san'ati asoschilaridan biri // San'at yo'nalishlaridagi yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami.* – Buxoro, 2013. – B. 220.
6. Fitrat A. *O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi.* – Toshkent: Fan, 1993. – 56 b.
7. Abdurahimov B. *maqomning yangi O'zbekiston san'at ta'limi tizimida o'qitishning zarurati // Oriental Art and Culture.* – 2024. – T. 5. – №.1. – B. 304–307.
8. Hoshimov K., va boshq. *Pedagogika tarixi.* – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 224 b.
9. Hasanboyev J., To'raqulov X. *Pedagogika nazariyasi fanidan izohli lug'at.* – Toshkent: Fan, 2008. – 176 b.
10. Ibrohimov O. *IX–X asrlar o'zbek musiqqa madaniyati // San'at yo'nalishlarida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami.* – Buxoro, 2013. – B. 10.

**Bahtiyorjon G'iyosov**

Namangan davlat universiteti  
“An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi kafedrası” o'qituvchisi  
E-mail: [giyosovbahtiyorjon@gmail.com](mailto:giyosovbahtiyorjon@gmail.com)

**Golibjon Isroilov**

Namangan davlat universiteti  
“An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi” kafedrası talabasi  
E-mail: [golibjonisroilov5gmail.com](mailto:golibjonisroilov5gmail.com)

**Madina Rajabova**

Namangan davlat universiteti  
“An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi” kafedrası talabasi  
E-mail: [rajabovam157@gmail.com](mailto:rajabovam157@gmail.com)

**SOZ YASASH AN'ANALARI VA UNING ZAMONAVIY  
TRANSFORMATSION JARAYONLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada sozgarlik san'atining ilmiy-amaliy va nazariy asoslari, uning o'zbek milliy musiqa san'ati, hunarmandchilikda tutgan o'rni hamda ijtimoiy-madaniy ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Mazkur maqolada milliy cholg'u sozlarini yasash jarayonining bosqichlari, unda ishlatiladigan materiallar, materiallarni tanlash va uning akustik xususiyatlari hamda ustoz-shogird an'anasining roli ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilinadi. O'zbekistonda shakllangan sozgarlik maktablarining o'ziga xos jihatlari, ularning texnologik va estetik farqlari ilmiy-tahliliy asosda ochib berilib, sozgarlik san'ati an'alarining saqlanishi va rivojlanish masalalari, soz yasash an'alarining zamonaviy innovatsion texnika hamda texnologiyalar bilan integratsiyalashuv jarayonlari ham muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** sozgarlik san'ati, milliy cholg'ular, musiqa madaniyati, akustika, ustoz-shogird an'anasi, hududiy maktablar, innovatsion texnologiyalar, rezonans, materialshunoslik.*

**TRADITIONS OF MAKING MUSICAL INSTRUMENTS AND THEIR  
TRANSFORMATION PROCESSES**

**Abstract.** *This article provides a comprehensive analysis of the scientific, practical, and theoretical foundations of instrument-making art, its role in Uzbek national musical art and traditional craftsmanship, as well as its socio-cultural significance. The study examines the stages of crafting national musical instruments, the materials used, the criteria for their selection, and their acoustic properties, along with the role of the master-apprentice tradition from a scientific and practical perspective. The distinctive features of regional schools of instrument-making in Uzbekistan, as well as their technological and aesthetic differences, are revealed through a scientific-analytical approach. The article also discusses issues related to the preservation and development of instrument-making traditions, as well as their integration with modern innovative techniques and technologies.*

**Keywords:** *instrument-making art, national musical instruments, music culture, acoustics, master-apprentice tradition, regional schools, innovative technologies, resonance, materials science.*

Musiqqa san'ati insoniyat madaniyatining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Har qanday musiqqa asari, o'sha ijro etilayotgan cholg'u sozisiz yoki boshqa ijro vositalarisiz to'liq ifodalanmaydi. Bir gap bilan aytganda, cholg'u bo'lmasa kuy qayerdan taraladi?

Soz faqat tovush chiqaruvchi vosita emas, balki insonlar musiqiy tafakkurining ifodalovchisidir. Ma'lum bir sozni qo'lga olgan sozanda, qo'lidagi soz bilan o'zining dardi va orzu-umidlari haqida so'zlaydi. Ya'ni qo'lida soz bilan musiqqa orqali ifoda etadi. Dutor, gijjak, rubob, chang, surnay, nay kabi milliy cholg'ular orqali xalqning tarixiy tuyg'ulari, orzu-umidlari, hayotga qarashi, dard va shodligi ifoda etiladi. Demak, so'zgarlik san'ati – bu milliy ohanglar xotirasini asrash vositasidir.

“So'zgarlik san'ati o'zbek xalqining ko'p asrlik musiqqa va hunarmandchilik an'alarining tutashgan noyob san'at turlaridan biridir. Ushbu san'at turi nafaqat

musiqiy soz yasash faoliyatini, balki chuqur falsafiy-ma'naviy, estetik va ijtimoiy jihatlarni ham o'z ichiga olganligini ko'ramiz. So'zgarlik san'ati vositasida xalqimizning madaniy xotirasi, milliy ruhiy olami va badiiy idroki ifodalanadi. So'zgarlik san'ati tushunchasining mohiyati – u faqat texnik hunar emas, balki ijodiy tafakkur, estetik idrok, milliy an'ana va musiqiy-falsafiy bilimlar uyg'unligidan tashkil topgan murakkab faoliyat turidir.

So'zgarlikda ustoz-shogird an'anasi asosiy o'rin tutadi, bu esa bu san'at turining avlodan-avlodga o'tishini, davomiyligini va mahalliy maktablar shakllanishini ta'minlagan. Milliy musiqa madaniyatimiz tarixida ana o'sha ustoz va shogirdlar sozgarlik sohasini moziyning necha ming yillik yo'llaridan mukammal holda bekamu ko'st olib o'tganlar. Muhimi shundaki, ular sozgarlik sohasini tarix yo'llaridan shunchaki olib o'tibgina qolmadilar, balki sozgarlikning ma'naviy va amaliy qonuniyatlarni yaratib, keying avlodlarga meros qilib qoldirib ketdilar” [1, 34-b]. Hozirgi globallashuv jarayonlarida, nomoddiy-madaniy meroslarimiz yoqolib borayotgan bir vaqtda shuni aytib o'tish joizki, Mumtoz madaniyatimizning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan cholg'ularning kelib chiqish tarixi, tayyorlanish jarayoni, ustalarning kasbiy mahoratlarini ilmiy nuqtai nazardan chuqur o'rganish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, uni ado etish bizning vazifamiz va muqaddas burchimizdir [2, 34-b].

Ilmiy nuqtai nazardan tahlil etib o'rganadigan bo'lsak, sozgarlik san'atida uslub va texnika o'ziga xos maktablar asosida shakllanganligini ko'ramiz. O'zbekistonning turli hududlarida faoliyat yuritgan sozgarlar o'z ustaxonalarida hududiy maxsus texnologiyalarga tayanib ish olib boradilar. Shuning uchun har bir hududning va har bir sozgar ustaning avlodan avlodga o'tib boruvchi o'z an'analari mavjud. Ushbu mavjud an'analari faqatgina avlodan-avlodga, ustozdan-shogirdga o'tib boradi.

Farg'ona vodiysidagi sozgar ustalar rubob, dutor va gijjak yasashda yetakchi hisoblanishgan. “Qo'qonda Mo'minbek degan usta o'tgan. Undan keyin uyoq tomonlarda dutor yasovchi usta chiqmadi” [1, 59-b]. Sozgarlik san'atida hozirgi

kunda ham Farg'ona maktabi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Farg'ona maktabida yasalgan cholg'ular yengilligi va ixchamroq tuzilishi, naqshlar bilan o'zgacha uslubda bezatilganligi va cholg'u kosaxonasining o'ziga hos jarangi bilan boshqa maktablardan farq qiladi.

Buxoro maktabiga xos rubob va chang yasash maktabi, ko'p qatlamli rezonatorli devorlar, o'zgacha jilolanuvchi maxsus sirli laklar bilan qoplangan yuzalar, noyob hamda vohaga hos bo'lgan naqsh inklyuziyalari (katta miqdorda tilla va suyak ishlanmalar) bilan ajralib turadi. Ushbu maktabning ham cholg'ulari ovoz tembrli jihatidan boshqa maktab cholg'ularidan farqlanadi.

Xorazm maktabi ham xozirgi kunda tor, qo'shmay va dutor cholg'ularini yasashda o'ziga hosligi bilan ajralib turadi. Betakror tembrli cholg'u navlarini yasashda cholg'u devorlarining qalinligi, katta rezonator kosaxonasi, ohangdor ovozi hamda ushbu cholg'u ovozlarning uzoq va davomli jarangi ushbu maktabning asosiy sifatlaridandir.

Ushbu maktablar o'rtasida soz yasashda, yog'ochni quritishda, unga ishlov berish hamda estetik bazatish ishlarida texnik va ijodiy yondoshish bo'yicha farqlar mavjud bo'lsa-da, ushbu maktablar sozgar ustalarining barchasi mahorat, aniqlik va did bilan o'zlarining ilmiy-ijodiy ish faoliyatlarini davom ettirmoqdalar.

Sozgarlar odatda yong'oq, tut, tol, archa, qayin kabi yog'och turlaridan foydalanadilar. Bu yog'ochlarning har biri o'ziga xos rezonator xususiyatlarga ega. Masalan, yong'oq yog'ochi zichligi va ishlov berish osonroqligi bilan mashhur bo'lsa, tut yog'ochi yengil, mustahkam hamda tovushni yaxshi sadolantira olish hususiyati bilan ajralib turadi.

Ustalar, shuningdek, kosaxona qoplamalari uchun teri (ko'pincha echki, buzoq yoki toy terisi) hamda yog'ochdan yasaladigan qopqoqlar (tut va boshqa qattiq hamda zich bo'lgan yog'och materiallari), metall torlar (mis yoki bronza) va tabiiy o'simliklardan olinadigan bo'yoq va lak mahsulotlaridan foydalanadilar. Bularning barchasi cholg'u sozining asosi bo'lgan akustik samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Cholg'u sozlarni yasash quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Loyihalash (proyektlash): bu bosqichda butun daraxtlarning ma'lum bir soz qismlari uchun ishlatiladigan bo'laklari (xomashyo, yog'och) tanlanib, cholg'u sozi qismlarining o'lchamlari, torlar o'rni, turli bezak qismlari, tanasining simmetrik shakli, rezonator kamerasing (kosaxona) ichki va tashqi hajmi belgilab olinadi.

2. Yog'ochni (material, xomashyo) tayyorlash: tanlangan yog'och quritiladi. Chunki, yaxshi quritilmagan xomashyo (yog'och) soz yasalib, ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng deformatsiyaga uchrab, o'z hususiyatini yoqotishi mumkin. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda ustalar qaysi bir cholg'uni yasayotganliklariga qarab, turli vaqt va har xil sharoitlarda yog'ochni quritadilar (ba'zan bir necha yil davom etadi; maxsus qutilarga xomashyoni solib yerni ostiga ko'madilar yoki cho'l hududlarda saqlaydilar). Yog'ochni kesib, parmalab, yelimlab kerakli shaklga keltiradilar.

3. Sozning qismlarini birlashtirish, yelimlash va ishlov berish: kesib olinib ma'lum bir shaklga ketirilgan cholg'u qismlari turli texnologiyalar asosida birlashtiriladi. Kerakli qismlar bir biriga mahkamlanadi hamda butun bir shaklga keltiriladi (yahlitlanadi) va mayda ishlov beriladigan (quloqlar va boshqa texnik apparatlar) qismlariga etibor qaratiladi.

4. Ladlar o'rni, tor ilgaklari, qopqoq qismlarini o'rnatish va bezatish: yaxlit holga keltirilgan cholg'uni dastlab parda, lad o'rnilar mahkamlanadi (bunda ba'zi cholg'ularga metal jezlar qoqiladi, ba'zilariga bog'lama pardalar o'rab chiqiladi). Torlarni ushlab turuvchi mexanizm ilgaklar aniq hissob kitob orqali joyiga o'rnatiladi. Cholg'uning kosaxona qismiga qopqoq (deka) yoki teri pardalar o'rnatiladi va qoplanadi. Keyingi qadamda naqshlar o'yib ishlanadi yoki sadaf orqali bezatish ishlari amalga oshiriladi. Ya'ni bunda yog'och o'yilib kerakli joylari ochiladi. Ushbu o'yib olinib ochilgan qismlariga hayvonlar suyagi yoki chig'anoqlarga ishlov berish orqali yasalgan shakllar, yozuvlar va boshqa

elementlar qadab chiqiladi. Yoki estetik badiiy elementlar turli xildagi tabiiy bo'yoqlar orqali chiziladi.

5. Ijro uchun tayyorlash, sozlash: bu bosqichda cholg'uning asosiy va shayton xarraklari o'z joyiga o'rnatiladi va torlari tortiladi. Torlarni cholg'u dastasiga nisbatan masofasi to'g'irlanadi. Cholg'uning menzurasi maxsus tekshirish yo'li orqali me'yyoriga keltiriladi. Sozning eng ohirgi mayda detallarini ham ko'zdan qochirmagan holda ijro uchun tayyor holga keltiriladi.

Agar yuqoridagi besh bosqichni sinchiklab o'rganib tahlil qilinsa, mazkur bosqichlar ko'pgina san'at turlari va ilm uyg'unligining mahsuli ekanligini payqash mumkin. Chunki sozgar nafaqat hunarmand, balki akustik fizikani chuqur biladigan muhandis hamdir.

Turkiy hamda O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ma'lum bir turga kiruvchi, oiladosh cholg'ularni kuzatsak, sezilarli farqlar ko'zga tashlanmaydi. Ularni qismlar hattoki ijro qilish uslublari ham deyarli bir xildir. Qolaversa, ushbu cholg'u asboblarning shakli, tovushi, yasash texnologiyasi va ular bilan bog'liq bo'lgan semantik ma'no (ibora, so'z, termin)lar bir biriga juda yaqin. Masalan, g'ijjak va g'ijjaka o'xshash cholg'ular tojik, ozarbayjon, turkman, arman, uyg'ur, arab, mo'g'ul, koreys va boshqa xalqlarda uchraydi [4, 83–84-b]. Tojikistonda va Turkmanistonda g'ijjak, azarbayjonda kemancha, uyg'urlarda kamon, Eron va Afg'onistonda rebab deb yuritiladi. Ularning barchasi ruhiy va madaniy jihatdan bir biri bilan o'zaro bog'liq. Shu bois, sozgarlik san'atini milliy identiklik bilan birga, butun insoniyat hamda turkiy-islomiy musiqiy sivilizatsiyaning ajralmas bo'lagi sifatida e'tirof etish mumkin.

Hozirgi davrda XXI asr globallashuv, texnika va raqamli texnologiyalar taraqqiy etgan vaqtda so'zgarlik san'atining rivoji yangi texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Raqamli loyihalash, 3D modellashtirish, lazerli kesish va rezonansni kompyuter orqali tahlil qilish imkoniyatlari ustalar uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochmoqda. Yangicha innovatsion uslublar sozgar ustalar ish faoliyatlariga tadbiq qilinmoqda. Masalan, lazerli kesish – yog'ochni aniq

o'lchamlarda kesishga imkon yaratadi, bu esa cholg'uning ovoz sifatiga ta'sir etib, kosaxonaning rezonator aniqligini oshiradi. Cholg'uning tovush ko'lamini raqamli tahlil qilish – ushbu sozning akustik jihatlarini matematik jihatdan aniq baholash imkonini beradi. Turli xildagi yog'ochga ishlov beruvchi modul tizimlar –cholg'ularning turli xil qismlarini tamirlash, modernizatsiya qilish va almashtirish imkonini beradi (masalan, g'ijjak cholg'usi kosaxonasini almashtirish yoki bazi bir cholg'ularga zamonaviy mehanizmlarni o'rnatishda).

Globalashuv sharoitida milliy san'at turlari o'z o'rnini yo'qotmasligi uchun ularning qadriyatlik hamda an'anaviylik jihatlarini saqlagan holda, zamonaviy kontekstda taklif etilishi muhim. Musiqiy cholg'ular moddiy madaniyat mahsuloti hisoblanib, ma'naviy madaniyatga ham aloqadordir [3, 3-b]. Xususan, sozgarlik san'ati bu borada o'ziga xos jihatga ega bo'lib, u lokal o'zlik (mahalliy identiklik) ni aks ettiribgina qolmay balki, umuminsoniy musiqiy estetikaga ham xizmat qiladi.

Hozirda ustalar tomonidan sozgarlik san'atida qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar cholg'u sozlarini yasashdagi an'anaviylikni to'liq siqib chiqarayotgan unsur sifatida emas, balki uni to'ldirayotgan texnologik jarayon sifatida qaralmoqda. Shuning uchun sozgar ustalar bu texnologiyalarni uzoq yillardan beri shakllanib kelayotgan an'analar doirasida integratsiya qilishga harakat qilmoqdalar.

Sozgarlik san'ati o'z ichiga materialshunoslik, muhandislik, musiqashunoslik, estetika va ruhiy-ma'naviy qadriyatlarni olgan murakkab, ko'p qirrali jarayondir. Usta-sozgarlar o'z faoliyatlarida qadimiy texnologiyalarni zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlashtirib, har bir cholg'uga ruh bag'ishlaydilar. E'tibor berib qaralsa, o'zbek milliy cholg'ulari orasida birorta cholg'u tabiatda tayyor mahsulot (masalan qovoq va h.k.)lardan yasalmaydi.

O'zbek milliy cholg'ularining hammasi sozgar ustalar faoliyatining mahsulidir. Hatto, o'sha o'zidan tovush chiqaruvchi qayroqlarga ham biroz bo'lsa-

da, ishlov beriladi [1, 59-b]. Shunday qilib, so'zgarlik – bu faqat hunar emas, balki ruhiy-estetik maktab, milliy xotira ifodasidir.

So'zgarlik san'atining ijtimoiy-madaniy vazifalari keng qamrovli bo'lib, ular orasida milliy identiklikni saqlash, madaniy vorislikni ta'minlash, musiqa san'ati rivojiga hissa qo'shish va yosh avlodni tarbiyalash kabi funksiyalar muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy davrda so'zgarlik san'ati yangi texnologiyalar, akademik yondashuvlar, ilmiy tadqiqotlar va ijodiy laboratoriyalar orqali rivojlanmoqda, biroq an'anaviylikni saqlab qolish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Zufarov T. *Soz va sozgarlik tarixi*. – Toshkent: Meriyus, 2014. – 327 b.
2. Madraimov A. *Amir Temur va Temuriylar davridagi cholg'ular*. – Andijon: Hayot nashri, 2020–2022. – 115 b.
3. Abdullayeva O. *Ansambl cholg'ularini o'rganish*. – Toshkent: Musiqa, 2006. – 87 b.
4. Toshmatov O'., Beknazarov X. *Cholg'ushunoslik*. – Toshkent: 2015. – 147 b.

**Bashorat Turaboyeva**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrası o'qituvchisi  
E-mail: bashoratturaboyeva@gmail.com

## **AHMADJON DADAYEV IJODIDA BASTAKORLIK AN'ANALARI**

***Annotatsiya.** Ustoz-shogird an'anasi o'laroq asrlar davomida bizgacha yetib kelgan o'zbek xalqining milliy madaniy merosi, hofizlarning betakror ijro uslubini yanada sayqallashtirish hamda yangi zamonga mos va xos bo'lgan milliy bastakorlik ijodini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Milliy mumtoz musiqa asosida ommaviy janrlarga xos asarlar yaratish bastakorlik an'analarning asosiy mezonini bo'lmog'i lozimdir. Mana shunday murakkab davrda o'z ijod mahsuli bilan el orasida dong taratib kelayotgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ahmadjon Dadayevning ijodi tahsinga sazovordir. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek milliy musiqa san'atining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan xushovoz xonanda, mohir sozanda, yetuk bastakor Ahmad Dadayevning hayoti va ijodiy faoliyatiga to'xtalib o'tamiz.*

***Kalit so'zlar:** Ahmadjon Dadayev, ijod, san'at, kuy-ohang, maqom, sozanda, xonanda, bastakor, o'zbek milliy musiqasi.*

## **COMPOSITIONAL TRADITIONS IN THE WORKS OF AHMADJON DADAYEV**

***Abstract.** This article examines the compositional traditions in the works of Ahmadjon Dadayev, a prominent representative of contemporary Uzbek musical art. Particular attention is given to the development of national compositional creativity based on classical musical heritage and the master-apprentice tradition. The study analyzes the distinctive features of his musical language, including melodic structure, genre characteristics, and the influence of maqom traditions. It also explores his contribution to the preservation and development of Uzbek national music in the context of modern cultural processes.*

**Keywords:** Ahmadjon Dadayev, composition, Uzbek national music, maqom, musical tradition, melody, composer, performance art.

Madaniyatni rivojlantirish va xalqning ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori bu – adabiyot va san'atdir. Adabiyot va san'atga e'tibor – bu avvalo xalqimizga, kelajagimizga e'tibordir. Buyuk shoir Cho'lpon ta'kidlaganidek, “Adabiyot va madaniyat yashasa, millat yashaydi” [1].

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida ijodkor ziyolilarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, xalqning ma'naviy kamolotida madaniyat vakillarining xizmatlari beqiyosdir [2].

Xalqimizning milliy-mana'viy merosini musiqa san'atisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek xalqining yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yosh xonanda va sozandalarni boy madaniy merosga, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalriga sadoqat ruhida tarbiyalash, asrlar davomida bizgacha yetib kelgan an'ana va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yosh iste'dodli san'atkorlarni kashf etish, ustoz hofizlarning betakror ijro uslubini yanada rivojlantirish hamda yangi zamonga mos va xos bo'lgan milliy bastakorlik ijodini yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Albatta, bugunga qadar ko'plab bastakorlar kamol topgan edilar. Ularning ijodiy meroslari o'zbek xalqining san'atga shinavanda tinglovchilari tomonidan chuqur hurmat ila e'tirof etiladi. Biroq, globallashtirish jarayonida milliy an'analarga sodiq holda asar yaratish biroz mushkul bo'lib qolmoqda. Milliy mumtoz musiqa asosida ommaviy janrlarga xos asarlar yaratish bastakorlik an'analarning asosiy mezonini bo'lmog'i lozimdir. Mana shunday murakkab davrda o'z ijod mahsuli bilan el orasida dong taratib kelayotgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ahmadjon Dadayevning ijodi tahsinga sazovordir.

O'tmish bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos uslublari o'zining ma'nodorligi bilan zamonaviy bastakorlik ijodi borasida professional yosh san'atkorlarni shakllantirishda dasturulamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Xususan, A.Dadayev ijodi fikrimizning yaqqol dalilidir. Uning bastalagan asarlarida an'anaviylik, zamonga hamnafaslik, kuychanlik alohida sezilib turadi. U yaratgan asarlar bugungi kun ijrochiligida keng ommalashgani bois tinglovchilar qalbidan muqim o'rin olmoqda.

A.Dadayevning musiqaga bo'lgan qiziqishi bolaligidan shakllanadi. Bolalik yillarida xalq ohanglarini tinglash, ustoz san'atkorlar ijrosini kuzatish va musiqiy kechalarda qatnashish ijodiy tafakkurini boyitdi. Ustoz-shogird an'anasi ijodiy kamolotida muhim rol o'ynaydi. Tajribali san'at darg'alari bilan muloqot, amaliy mashg'ulotlar va mumtoz asarlarni o'rganish orqali u milliy musiqa san'atining nozik jihatlarini chuqur egallashga muvaffaq bo'ldi. Shu jarayon uning ijrochilik va bastakorlik uslubining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi [3].

Bastakor Ahmadjon Dadayev – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, mohir sozanda, xushovoz xonanda bo'lish bilan birga mehribon ustoz hamdir. U Toshkent viloyatining Parkent tumani, Novdak qishlog'ida tavallud topdi. Otasi kamtarin inson, san'atsevar havaskor sozanda Shokarim aka, onasi Risqi opa farzandi musiqaga shaydo ekanligini payqab, Qizil tog' shaharchasidagi 2-son bolalar musiqa maktabiga o'qishga beradilar. Musiqa maktabida o'zbek xalq cholg'usi g'ijjak bo'yicha ustoz Georgiy Iskayevich Pinxasov sinfida tahsil oladi. 1972–1976-yillarda esa Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtida o'qishni davom ettiradi. Bu erda Ahmadjon Dadaev Sotvoldi Karimov, Murod Toshmuhammedov, Rahim Malikov kabi ustoz sozandalarning sabog'ini olishga muvaffaq bo'ladi.

1976-yili Ahmadjon Dadayev Toshkent davlat konservatoriyasi (hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasi) “Sharq musiqasi” bo'limi an'anaviy g'ijjak ijrochiligi bo'yicha o'qishga qabul qilindi. U “Sharq musiqasi” bo'limida

xalqimizning taniqli san'at namoyondalari, ustoz san'atkorlar Faxriddin Sodiqov, Mahmudjon Muhamedov, Is'hoq Rajabov, Sulaymon Taxalov va boshqa murabbiylarda an'anaviy musiqa ijrochilik sirlarini o'rgana boshladi. Bu ustozlar rahbarligida Ahmadjon Dadayev an'anaviy mumtoz musiqa merosi, Maqom ijrochilik san'atini jidiy va qunt bilan o'rgandi. Aytish mumkinki, T.Jalilov, K.Jabborov, G'.Toshmatov, G'.Hojiqulov, N.Hasanov, T.Toshmatov, T.Hasanov, Q.Komilov, A.Ismoilov va O'lmas Rasulov kabi o'zbek bastakorlarining aksariyati aynan g'ijjak sozi mutaxassislari bo'lgan. Jumladan, Ahmadjon Dadayev ham ustozlari maslahati va ko'magida an'anaviy o'zbek sozandalik san'atida ijro maktabini mohir g'ijjakchi ustozlarning ijro uslublarini egallashga bor kuch g'ayrati bilan harakat qiladi. O'sha davrning keksa san'atkori, betakror sozanda G'ulomjon Hojiqulov bilan ustoz-shogird an'analarini davom ettirib, ijodiy hamkorlik qiladi. Mehnat faoliyatini 1975-yildan Toshkent viloyatiga qarashli Krasnogorsk shaharchasida o'zi tahsil olgan musiqa maktabida dars berishdan boshladi [4].

Konservatoriyada o'qib yurgan kezlardan boshlab (1970–1975) O'zbekiston radiosi qoshida tashkil etilgan Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambliga ishga taklif etilib, ustozlar bilan yonma-yon turib faoliyat yuritishga muyassar bo'ldi. Konservatoriya ilm dargohi bo'lsa, maqom ansambli ustozlar sabog'i va tajriba sinov maskani bo'lib xizmat qildi. Bu yerdagi ustozlar davrasi doimo ziyo maskani sifatida yosh Ahmadjon uchun nazariy, amaliy, hayotiy maktab vazifasini o'tadi. Ahmadjon Dadayevga ana shunday baxtli kunlar nasib etdi. U zamonasinig eng yetuk san'atkorlari, mohir sozandalar, xonandalar Orifxon Xatamov, Orif Alimaxsumov, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Is'hoq Rajabov, Eson Lutfullayev, Ochilxon Otaxonov, Shokirjon Ergashev, Izro Malakov, aka-uka Ismoil va Isroil Vahobovlar, Dadaxo'ja Sottixo'jayev, Shavkat Mirzayev, Temur Mahmudov, Abduxoshim Ismoilov, Maxmudjon Tojiboyev, Matluba Dadaboyevalar bilan birga faoliyat yuritdi. U ushbu ansamblida eng avvalo, maqom ijrochilik sir-sinoatlarini puxta o'zlashtirdi. Ustozlariga havas qilib, o'z ijodiy

tafakkurini sinab ko'rish maqsadida bastakorlik borasida izlanishlar olib borishga jazm qildi. Bu borada u bastakorlik ijodiyotining musiqiy me'rosi bilan bog'liq jihatlarini idroklashga harakat qildi. Ustozlariga mehr qo'yib, sekin-asta zamonga mos bo'lgan Habibiy so'zi bilan "Gulzorim go'zal", "Mehribonimga", "Dillar uchrashuvi" va "Bahor" ashularini, N.Narzullayev so'zi bilan esa "Jondan shirin", "Mening bordir o'z diyorum" kabi ashulalarni yaratdi [5].

A.Dadayevning ilk asarlarida o'zbek hofizlik san'atining yorqin namunalariga xos uslublarni ko'rishimiz mumkin. Musiqa asari yaratish sozanda uchun unchalik murakkab emasdek tuyuladi, lekin musiqiy merosni bilish, ustozlar sabog'ni olish, ijodkor samarasining asosini tashkil etishini unutmaslik lozim. Ahmadjon ana shunday yuqori darajadagi ustozlar sabog'ini olib, shiddat bilan ijod qilishga kirishdi. O'zining dastlabki asarlarini ustozlar nazaridan o'tkazib, ularning ishonchini oqlashga erishdi. Ayniqsa, Mashrab g'azali bilan "Onam", M.Rahmon so'zi "Umidim qoldi", Qadam Saidmurodov she'ri bilan "Xabar yubordim" kabi ashulalari o'z uslubi, usuliga ega ekanligi va o'ziga xos yangi oqim sifatida elga tanildi. Ustozlari va tinglovchilar olqishiga sazovor bo'ldi. Bundan ruhlangan Ahmadjon o'z ijodini dadillik bilan davom ettirishga kirishdi. Jumladan, "Mehnat bilan" (Uyg'un), "Rubobim tori ikkidir" (E.Vohidov), "Vafo qilarmisan bahorim" (A.Oripov), "Seni kutgayman" (O.Odilxonov), "Dutorim" va "O'zbekistonim yaxshidir" (Sh.Dadayev), "Gavharim" (J.Jabborov), "Eslarman seni" (A.Turon), kabi yuzdan ortiq kuy-ashulalarni yaratib tinglovchilarga taqdim etdi.

Qolaversa, fors-tojik she'riyatining namoyondalari A.Rudakiy, M.Tursunzoda, A.Jomiy va M.Shodiy g'azallariga murojaat qilib, kuy bastaladi. Bu kabi ijod mahsuli bo'lmish mumtoz asarlar barchani o'ziga jalb etib, xalq e'tiboriga tushdi.

Bugungi kunda A.Dadayev mumtoz ohanglar asnosida ijodini davom ettirish bilan birga yosh san'at shaydolariga xonandalik va sozandalik borasida milliy uslubini o'rgatib kelayotgani tahsinga sazovordir.

---

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. *Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom.* – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni*, 2017.
3. Akbarov I. *Musiqqa lug'ati.* – Toshkent: G'.G'ulom, 1997. – 368 b.
4. Bo'riyeva K. *An'anaviy xonandalik.* – Toshkent: Musiqqa, 2008. – 120 b.
5. Kahharov N. *Vokal asoslari.* – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 311 b.
6. Mullaxandov D. *O'zbek vokal ta'limi masalalari.* – Toshkent: O'zdamnashr, 1954. – 120 b.
7. Kahharov N., Murodov Y. *Yakkaxon qo'shiqchilik.* – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 147 b.

**Zuxra Arzibayeva**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi katta o'qituvchisi  
E-mail: [arzibayevazuhra494@gmail.com](mailto:arzibayevazuhra494@gmail.com)

## UYG'ONISH DAVRI KOMPOZITORLARI VA YEVROPA PROFESSIONAL MUSIQASINING SHAKLLANISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Uyg'onish davri kompozitorlarining Yevropa musiqa madaniyatining shakllanish jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan. Ma'naviy va dunyoviy musiqa janrlari evolyutsiyasi tahlil qilingan. Maqolada flanko-flamand maktabi, xususan, Giyom Dyufai va Josken Depre, shuningdek, Jovanni Perluiji da Palestrina boshchiligidagi Rim maktabi vakillari faoliyati tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Aynan ularning ijodi klassik cherkov polifoniyasining namunasiga aylandi.

**Kalit so'zlar:** Uyg'onish davri, kompozitorlar, flanko-flamand maktabi, Rim maktabi, professional musiqa, Yevropa musiqa madaniyati.

## RENAISSANCE COMPOSERS AND THE FORMATION OF EUROPEAN PROFESSIONAL MUSIC.

**Abstract.** This article reveals the significance of Renaissance composers in the formation of European musical culture. It analyses the evolution of sacred and secular music genres. The article pays particular attention to the analysis of the activities of the Franco-Flemish school, in particular the following representatives: Guillaume Dufay and Josquin Desprez, as well as representatives of the Roman school led by Giovanni Pierluigi da Palestrina Their works became a model for the development of classical church polyphony.

**Keywords:** Renaissance, composers, Franco-Flemish school, Roman school, professional music, European musical culture.

Uyg'onish davri kompozitorlari Yevropa professional musiqasining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadilar. Ular o'rta asr polifoniyasini

mukammallashtirib, ovozlar o'rtasidagi uyg'unlik va muvozanatni yangi bosqichga olib chiqdilar. Musiqa endilikda nafaqat diniy marosim vositasi, balki inson hissiyotlarini ifodalovchi san'at turi sifatida qarala boshlandi.

Niderlandiya (franko-flamand) maktabi Renessans polifoniyasining yetakchi markazi edi. Jozken Depre bu maktabning eng yirik namoyandasi bo'lib, imitasion polifoniyani mukammal darajaga olib chiqdi. Uning motet va messalarida har bir ovoz mustaqil melodik ahamiyatga ega bo'lib, umumiy musiqiy tuzilma ichida mantiqiy rivojlanadi. Jovanni Pyerluidji da Palestrina katolik cherkovi musiqasining eng muhim bastakorlaridan biri edi. Uning uslubi silliq melodik harakat, muvozanatli faktura va dissonanslarning ehtiyotkor qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Palestrina uslubi ko'pincha "sof cherkov polifoniyasi" namunasi sifatida ko'riladi [1]. Venetsiyada Andrea va Jovanni Gabrieli ko'p xorli (polixoral) uslubni rivojlantirdilar. Ular turli joylashuvdagi xor va cholg'ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, keng hajmli tantanavor tovush makonini yaratdilar. Bu uslub keyinchalik barokko orkestr tafakkuriga asos bo'ldi. Uyg'onish davrida dunyoviy musiqa ham yuksaldi. Italiyada Luka Marensio va Klaudio Monteverdi madrigal janrini yuqori badiiy darajaga olib chiqdilar. Madrigallarda matn ifodaviyligi, hissiy kontrastlar(qarama-qarshi) va musiqiy tasvir vositalari keng qo'llanildi.

Renessans kompozitorlari musiqasiga silliq melodik chiziqlar, imitatsiya, muvozanatli polifonik to'qima va yumshoq garmoniya xos. Har bir ovoz umumiy uyg'unlikka xizmat qiladi. Dissonanslar tayyorlanib va yechilib boradi, keskin sakrashlar kam qo'llanadi.

Bu davr kompozitor matn mazmunini aniq ifodalashga intildilar. So'zlarning hissiy ma'nosi melodik harakat, ritm va faktura orqali ochib berildi. Bu "matnga mos yozish" tamoyili keyingi davr vokal musiqasining asosiga aylandi. Uyg'onish davri bastakorlari yaratgan uslub barokko davriga o'tish uchun zamin yaratdi. Polifonik tafakkur mukammallashdi, janrlar boyidi va musiqaning ifodaviy imkoniyatlari kengaydi. Ularning merosi Yevropa klassik musiqa an'anasining muhim poydevori bo'lib qolmoqda [2].

Uygʻonish davri kompozitorlari kontrapunkt sanʼatini yanada chuqurlashtirdilar. Imitasiya oddiy takrorlashdan murakkab koʻp bosqichli rivojlanishga aylandi: mavzular turli ovozlarda navbatma-navbat paydo boʻlib, keng musiqiy tuzilmani shakllantirdi. Kanon va qatʼiy kontrapunkt usullari ham faol qoʻllanildi. Natijada musiqa nafaqat eshitish uchun yoqimli, balki ichki tuzilishi jihatidan ham mukammal boʻlib bordi.

Renessans musiqasida garmoniya hali akkordlar tizimi sifatida toʻliq shakllanmagan boʻlsa-da, vertikal uygʻunlikka boʻlgan eʼtibor sezilarli darajada oshdi. Ovozlarining bir vaqtda jaranglashi natijasida konsonans uygʻunlik asosiy mezonga aylandi. Kvarta, kvinta va oktava barqaror intervallar sifatida qoʻllanildi, dissonanslar esa oʻtkinchi va nazorat ostidagi elementga aylandi. Bu jarayon keyinchalik barokko garmoniya tizimining shakllanishiga olib keldi.

Uygʻonish davri musiqasining asosiy qismi vokal janrlarga tegishli edi. Xor jamoalari cherkovlarda professional darajada faoliyat yuritgan, saroylarda esa dunyoviy vokal ansambllar shakllangan [3]. Ovozlar tabiiy tembrda, vibratosiz va silliq legato bilan ijro etilgan. Bu ijrochilik uslubi polifonik chiziqlarning aniq eshutilishiga xizmat qilgan.

Dastlab cholgʻular vokal asarlarni joʻr boʻlib ijro etgan boʻlsa, vaqt oʻtishi bilan mustaqil cholgʻu janrlari shakllana boshladi. Lute, viola da gamba, organ va klavesin uchun yozilgan asarlar paydo boʻldi. Raqs suitlari va variatsion shakllar rivojlandi. Bu jarayon keyingi barokko cholgʻu musiqasining bevosita poydevorini yaratdi.

XVI asr oxiriga kelib Renessans polifoniyasi asta-sekin yangi ifodaviy vositalarga yoʻl ochdi. Matnni yanada ravshan yetkazish istagi monodiya va basso continuo uslubining tugʻilishiga olib keldi. Uygʻonish davri kompozitorlarining uslubiy izlanishlari barokko davrining dramatik va garmonik boy musiqiy tiliga oʻtish jarayonini tayyorlab berdi. Bu davr musiqasi tarixda uygʻunlik, muvozanat va polifonik mukammallik timsoli sifatida saqlanib qolgan [4].

Uygʻonish davri musiqiy madaniyatining yuksalishida Gʻarbiy Yevropa kompozitorlar alohida va muhim oʻrin tutadi. Aynan ushbu kompozitorlari ijodi orqali oʻrta asr musiqiy tafakkuridan yangi davr sanʼatiga oʻtish jarayoni yakunlandi. Ularning asarlari musiqaning nazariy asoslarini mustahkamlab, polifonik tafakkurni mukammallik darajasiga olib chiqdi. Gʻarbiy Yevropa kompozitorlar diniy va dunyoviy janrlarda barobar ijod qilib, musiqaning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdilar.

Giyom Dufay (Guillaume Dufay) uygʻonish davrining ilk bosqichiga mansub yetuk kompozitor sifatida taniladi. U franko-flamand maktabining asoschilaridan biri boʻlib, oʻrta asr musiqiy anʼanalari bilan uygʻonish davri uslubi oʻrtasida koʻprik vazifasini bajardi. Dufay asarlarida hali eski izoritmik usullar uchrasa-da, melodik soddalik va garmonik ravonlik aniq seziladi. Bu jihatlar yangi musiqiy tafakkurning shakllanayotganini koʻrsatadi.

Dufayning messalari va motetlari uygʻonish davri diniy musiqasining rivojiga katta hissa qoʻshdi. U ovozlarda oʻrtasidagi muvozanatga alohida eʼtibor qaratib, musiqaning yumshoq va uygʻun jaranglashiga erishdi. Uning kantilenali uslubi keyingi kompozitor uchun muhim namuna boʻlib xizmat qildi. Dufay musiqasida matn va ohang oʻrtasidagi mutanosiblik yaqqol namoyon boʻladi.

Josken des Prez (Josquin des Prez) uygʻonish davri musiqasining eng buyuk namoyandalardan biri hisoblanadi. U polifonik sanʼatni yangi bosqichga olib chiqqan kompozitor sifatida tarixda muhrlanib qolgan. Josken ijodida kontrapunkt sanʼati mukammal darajada namoyon boʻlib, har bir ovoz mustaqil va mantiqan asoslangan holda rivojlanadi. Umumiy musiqiy yaxlitlik saqlab qolinadi.

Josken des Prezning asosiy yutuqʻi matnga yoʻnaltirilgan musiqiy tafakkurni rivojlantirganidadir. U matn mazmunini chuqur tahlil qilib, musiqiy vositalar orqali uni ifodalashga intildi. Bu uslub motet va messalarda ayniqsa kuchli seziladi. Josken musiqasi tinglovchiga ruhiy va hissiy jihatdan kuchli taʼsir koʻrsatishi bilan ajralib turadi. Giovanni Palestrina uygʻonish davri cherkov musiqasining eng yuksak namunalarini yaratgan kompozitor sifatida eʼtirof etiladi. U Rim

maktabining yetakchi namoyandasi bo'lib, katolik cherkovi talablariga to'liq mos keladigan musiqiy uslubni shakllantirdi. Palestrina ijodi musiqiy poklik, muvozanat va ravonlik bilan ajralib turadi.

Palestrina polifoniyasi o'zining aniqligi va tiniqligi bilan mashhur. U dissonanslardan juda ehtiyotkorlik bilan foydalangan, ovozlar harakati esa silliq va tabiiy bo'lgan. Matn tushunarligi saqlanib, musiqaning ruhiy ta'siri kuchaygan. Ushbu uslub keyinchalik "klassik cherkov polifoniyasi" namunasi sifatida e'tirof etildi.

Palestrinaning messalari, xususan, "Papa Marcellus messasi" cherkov musiqasida burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu asar cherkov rahbarlariga polifonik musiqa diniy matnni buzmasdan, aksincha, uni yanada ta'sirchan qilishi mumkinligini isbotladi. Palestrina ijodi cherkov musiqasining kelgusi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Giyom Dufay, Josken des Prez va Giovanni Palestrina ijodi uyg'onish davri musiqasining badiiy va nazariy asoslarini shakllantirdi. Ular polifoniya, kontrapunkt, garmoniya va musiqiy shakllarning rivojiga beqiyos hissa qo'shdilar. Yuqoridagi kompozitorlarning merosi keyingi barokko va klassik davr musiqasining shakllanishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi.

Uyg'onish davrida Yevropada professional kompozitor san'ati yuqori bosqichga ko'tarilib, turli hududlarda mustaqil kompozitorlik maktablari shakllandi. Ushbu maktablar umumiy uyg'onish davri estetik tamoyillariga tayanib rivojlangan bo'lsa-da, har biri o'ziga xos uslubiy va badiiy xususiyatlarga ega edi. Kompozitorlik maktablarining paydo bo'lishi musiqaning mintaqaviy rang-barangligini ta'minlab, Yevropa musiqiy madaniyatining boyishiga xizmat qildi.

Uyg'onish davrining eng ta'sirchan maktablaridan biri franko-flamand (Niderland) maktabi bo'ldi. Ushbu maktab vakillari Yevropaning turli mamlakatlarida faoliyat yuritib, polifonik san'atning yoyilishiga katta hissa qo'shdilar. Ular musiqada kontrapunktning murakkab shakllarini ishlab chiqib,

polifonik tafakkurni yuqori darajaga olib chiqdilar. Franko-flamand kompazitorlari ijodi Uyg'onish davri musiqasining asosiy tayanchini tashkil etdi.

Franko-flamand maktabi bastakorlari uchun ovozlarda o'rtasidagi mutanosiblik va mustaqillik muhim tamoyil bo'lgan. Har bir ovoz melodik jihatdan erkin rivojlanar, biroq umumiy musiqiy g'oyaga bo'ysunar edi. Bu uslub messalar, motetlar va dunyoviy vokal janrlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Aynan ushbu maktab kontrapunkt san'atining klassik asoslarini yaratdi.

Italiya kompozitorlik maktablari uyg'onish davrida alohida ahamiyat kasb etdi. Rim va Venetsiya shaharlarida shakllangan maktablar diniy va dunyoviy musiqaning rivojiga turlicha yondashdi. Rim maktabi musiqada soddalik, tiniqlik va matn tushunarligini ustuvor qo'ydi. Venetsiya maktabi esa tantanavorlik, fazoviy effektlar va ovoz guruhlarining qarama-qarshi qo'llanilishi bilan ajralib turdi [5].

Venetsiya kompozitorlik maktabida ko'pxorli uslub (polixorallik) keng rivojlandi. San-Mark soborining me'moriy tuzilishi musiqaning fazoviy joylashuviga imkon yaratdi. turli xor guruhlarini qarama-qarshi joylashtirib, ovozlarda o'rtasida dialog yaratdilar. Yuqoridagi tajribalar keyinchalik barokko davri musiqasining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Fransiya kompozitorlik maktabi uyg'onish davrida asosan chanson janrining rivoji bilan mashhur bo'ldi. Fransuz bastakorlari musiqada nafislik, yengillik va lirik ifodaga e'tibor qaratdilar. Ularning asarlarida gomofonik yozuv ustun bo'lib, matnning ravshanligi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu uslub fransuz musiqasining milliy qiyofasini shakllantirdi.

Ispaniya kompozitorlik maktabi diniy musiqaning chuqur ruhiyligi bilan ajralib turdi. Ispan kompazitorlari musiqada ichki sokinlik va kontemplativ kayfiyatni ifodalashga intildilar. Ularning messalari va motetlari ovozlarning yumshoq harakati va dissonanslardan ehtiyotkor foydalanish bilan xarakterlanadi. Bu maktab katolik an'analariga qat'iy amal qilgan holda rivojlandi. Angliya kompozitorlik maktabi esa uyg'onish davrida o'ziga xos yo'nalishda rivojlandi.

Ingliz kompazitorlar musiqada boy garmoniya va shaffof polifoniyani uyg'unlashtirdilar. Ularning asarlarida keng intervallar va iliq ohanglar ustunlik qildi. Angliya musiqasi Yevropa musiqa madaniyatiga yangi garmonik ranglar olib kirdi.

Uyg'unish davri kompozitorlik maktablarining rivoji musiqaning nazariy va amaliy jihatdan yetuklashuviga xizmat qildi. Har bir maktab o'z uslubini shakllantirib, umumiy Yevropa musiqiy an'anasini boyitdi. Ushbu maktablar tajribasi keyingi barokko davri musiqasining vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *Abdullayev A. Musiqa tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – 356 b.*
2. *Alimuhamedov R. Jahon musiqa madaniyati tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 400 b.*
3. *Ashurov M. Musiqa san'ati tarixi va nazariyasi. –Toshkent: Musiqa, 2024. – 325 b.*
4. *Bo'ronov S. Yevropa musiqa madaniyati tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 280 b.*
5. *Davlatov B. Musiqiy uslub va janrlar tarixi. – Toshkent: Navro'z, 2023. – 249 b.*
6. *Ergashev J. Jahon musiqa madaniyati. – Toshkent: Ilm ziyo, 2024. – 266 b.*
7. *Ismoilov K. G'arb musiqa san'ati tarixi. –Toshkent: Fan, 2022. – 300 b.*
8. *Jo'rayev A. Musiqada polifoniya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 220 b.*
9. *Karimov N. Musiqa nazariyasiga kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 230 b.*
10. *Nazarov D. Musiqa madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2024. – 240 b.*

Sevara Mirsidikova

O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
"O'zbek musiqa" kafedrasida doktoranti  
E-mail: [sevaramirisidikova98@gmail.com](mailto:sevaramirisidikova98@gmail.com)

## VIZUAL DEPRIVATSIYA SHAROITIDA MUSIQIY TAFAKKUR TUZILMASIDA INTONATSION-ESHITISH TAHLILI

**Annotatsiya.** Maqolada vizual deprivatsiya sharoitida musiqiy tafakkur va uning tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. Vizual kanalning yo'qligi ichki eshitish va eshitish xotirasining rivojlanishi bilan qoplanishi, intonatsion-eshitish tahlilini musiqiy tafakkurning dastlabki va asosiy shakliga aylantirishi asoslab beriladi. Muallif ko'zi ojiz musiqachilarda eshitish idroki va intonatsion kechinmalarning ustunligiga asoslangan muqobil kognitiv arxitektura shakllanishi haqida xulosa chiqaradi.

**Kalit so'zlar:** musiqiy tafakkur, vizual deprivatsiya, intonatsion-eshitish tahlili, intonatsion nazariyasi, musiqiy idrok, ichki eshitish, eshitish xotirasi, kognitiv jarayonlar, ko'zi ojiz musiqachilar.

## INTONATIONAL-AUDITORY ANALYSIS OF THE STRUCTURE OF MUSICAL THINKING IN CONDITIONS OF VISUAL DEPRIVATION

**Abstract.** The article analyses the complexities of musical cognition and its structure under conditions of visual deprivation. Blind musicians' musical cognition is focused on, suggesting that their inner hearing and auditory memory compensate for their lack of visual perception, making intonation-auditory analysis the primary method for understanding music. It also demonstrates that blind musicians develop a distinct cognitive framework characterized by the dominance of aural perception and intonational experience.

**Keywords:** musical thinking, visual deprivation, intonation-auditory analysis, intonation theory, musical perception, inner hearing, auditory memory, cognitive processes, blind musicians.

Zamonaviy musiqashunoslik va musiqa psixologiyasida musiqiy tafakkur musiqiy voqelikni mantiqiy va hissiy-obrazli o'zlashtirishni birlashtirgan badiiy tafakkurning alohida shakli sifatida qaraladi. R.G.Qodirov musiqiy tafakkurni musiqaning o'ziga xosligi, qonuniyati va madaniyatini, shuningdek, musiqa sa'nati asarlarini tushunishning o'ziga xos intellektual jarayoni deb ta'riflaydi [1, 57-b]. V.Sradjev tafakkurning psixologik jihatlariga e'tibor qaratadi Musiqiy tafakkur musiqiy faoliyatni amalga oshirish uchun musiqiy-eshitish tasvirlari bilan ishlaydigan ruhiy mexanizmlar tizimi sifatida tushuniladi [2, 56-b].

Musiqiy tafakkur evolyutsiyasi muhim tarixiy va falsafiy ildizlarga ega. Hatto qadimgi o'tmishda ham Platon va Aristotel musiqaning shaxsning ma'naviy va axloqiy olamlarini yaratishdagi ahamiyatini ta'kidlaganlar. Aristotel o'zining "Siyosat" nomli fundamental asarida "musiqiy tarbiya" atamasini ishlatib, "musiqa fazilatga yetaklaydi", ammo "musiqani amalda o'rganish", "kuy va ritm go'zalligini anglash" va shunchaki zavq bilan kifoyalanmaslik kerakligini ta'kidlagan [3, 446-b]. Musiqiy tafakkur va idrokining nazariyasining keyingi rivojlanishi o'rta asr Sharqining ilmiy tafakkuri bilan bog'liq. Amerikalik olim Frederik Starrning "Yo'qotilgan ma'rifat: arab istilosidan Temurgacha Markaziy Osiyoning oltin davri" monografiyasida Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino), Rudakiy, Umar Xayyom, Ulug'bek va Navoiy kabi o'rta asr olimlari va mutafakkirlarining falsafiy va ilmiy tafakkur rivojidadagi ulkan roli ta'kidlangan [4, 244-b]. Markaziy Osiyolik Al-Farobiyning musiqa nazariyasini o'rganish bo'yicha asarlari Sharq va G'arb musiqa nazariyasining rivojlanishini 500 yil oldinga belgilab berdi va G'arb musiqashunosligi uchun poydevor bo'lib xizmat qildi [5, 232-b]. Farobiy musiqa bo'yicha bir qator muhim asarlar yozgan, ulardan eng muhimi "Kitob al-Musiqa al-Kabir" ("Musiqaning haqida katta kitobi") bo'lib, u musiqa nazariyasi asoslarini o'rganish va o'qitish usullari, ohanglarning tonal munosabatlar, musiqiy kuylar va ularni yaratish (kompozitsiya) usullari kabi nazariy va amaliy jihatlarni qamrab oluvchi keng qamrovli risoladir. Farobiyning musiqa nazariyasiga qo'shgan eng muhim

hissalaridan biri matematik nisbatlar va munosabatlardan foydalanib, shuningdek inson his-tuyg'ulari bilan bog'lagan holda musiqiy intervallar, ritmlar va ladlar (parda) tushunchasini rivojlanish va tizimlashtirish edi.

O'rta asrlar islom falsafasida musiqa arifmetika, geometriya va astronomiya bilan bir qatorda kvadriviumning bir qismi sifatida ko'rib chiqilgan, bu esa uning ilmiy-nazariy maqomini ta'kidlaydi. Ibn Sino bu an'anani davom ettirib, musiqiy bilimni matematika, psixologiya, etika va metafizikani birlashtirgan keng falsafiy tizimga kiritdi va birlashtirdi. Ibn Sino musiqiy ta'sirning 4 turini ajratib ko'rsatgan: 1) fiziologik ta'sir-tana holatlariga ta'sir; 2) psixologik ta'sir-hissiyot va kayfiyatga ta'sir ko'rsatish; 3) axloqiy ta'sir-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va 4) intellektual ta'sir-aqliy faoliyatni rag'batlantirishdir [6].

A.Jumayev ta'kidlaganidek, Sharq musiqa an'anasi nazariyotchilari musiqiy ohanglarning harakati qalb harakatlari bilan bog'liq bo'lib, ichki ruhiy jarayonlarni aks ettiradi. Bu postulat musiqani hissiy-estetik idrok etishning boy va yuksak madaniyati mavjudligida ifodalandi. O'rta asr ma'rifatli kishisi uchun bunday qobiliyat, Alisher Navoiyning fikricha, madaniy jamoada shaxsning nafis va binobarin, yuksak qadrlangan ma'naviy fazilatlarining belgisi hisoblangan [7, 99–100-b].

Musiqiy tafakkur tahlilining fundamental nazariy asosi B.V.Asafyev tomonidan ishlab chiqilgan musiqaning intonatsion nazariyasidir. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, musiqa tovush elementlarining statik yig'indisi sifatida emas, balki ohang(intonatsiya)lar harakati orqali badiiy ma'no shakllanadigan jarayonli, yani protsessual san'at sifatida qaraladi. B.V.Asafyevning ta'kidlashicha, "intonatsiya – bu fikrning tovushda ifodalanishidir" [8]. Bu esa musiqiy tafakkurni o'ziga xos badiiy-tovush faoliyatining shakli sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi, bunda madaniy-tarixiy va individual tajriba asosida shakllanadigan intonatsion modellar bilan ishlash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

V.V.Medushevskiy, o'z navbatida, musiqaning intonatsion (semantik) va analitik (strukturaviy) turlarini ajratib ko'rsatadi va tovushning intonatsion tuzilishi

asosiy ekanligini ta'kidlaydi. Analitik shakl "tarixiy grammatikalar tizimi (lad, garmoniya, metr, masshtabli-tematik tuzilmalar, motiv-tematik va kompozitsion rivojlanish tamoyillari), ularning ko'plab elementlari-intervallar, tovushqatorlar, akkordlar, funksional davralar, kadensiyalar, barqaror va beqaror bayon turlari bilan ifodalanadi" [9, 49-b].

Shu munosabat bilan xulosa qilishimiz mumkinki, musiqiy fikrlash o'z tabiatiga ko'ra akustik operatsiyalar to'plami emas, balki intonatsiya-semantik jarayondir. Bu kozi o'zlik kontekstida, ayniqsa eshitish kanali asosiy bo'lib qolganda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Musiqiy tafakkurning intonatsion tabiatini hisobga olgan holda, musiqiy tahlilni aniqlash juda muhimdir. An'anaviy nazariyada tahlil ko'pincha strukturaviy elementlarni-lad, garmonik va shaklni aniqlash sifatida talqin qilinadi. Biroq, asosan musiqachi partiturada ko'radigan matnning vizual tasviriga qaratilgan bunday yondashuv ko'zi o'zlik sharoitida cheklovlarga ega.

Shu nuqtai nazardan, biz intonatsion-eshitish tahlilini musiqaning vizual tasviriga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri eshitish tajribasiga asoslangan alohida analitik faoliyat turi sifatida ko'rib chiqishni taklif qilamiz. Idrok va tahlilning eshitish tizimlari musiqiy tafakkurning intonatsion tabiatini tushunishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, B.Yavorskiy, B.Asafiev va boshqa musiqashunoslarning asarlari musiqiy tafakkur vizual va strukturaviy emas, balki birinchi navbatda intonatsion va eshitish xususiyatiga ega. Ular tomonidan musiqiy tafakkurning faqat vizual-nota fiksatsiyasiga asosida musiqiy fikrlashga qarshi bo'lib, yeshitish yo'nalishining ustuvorligini izchil asoslaydilar. Eshitish madaniyati musiqiy ma'noni tushunishning asosiy vositasi sifatida qaraladi, partituraning vizual anglash esa ikkinchi darajali va yordamchi funktsiya bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mulohazaga ko'ra, eshitishning rivojlanishi ixtisoslashgan ko'nikma sifatida emas, balki eshitish jarayonida intonatsion tahlil, sintez va semantik bog'lanishlarni amalga oshirish qobiliyati sifatida belgilangan musiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun asos sifatida qaraladi. Shunday qilib, intonatsion-

eshitish tahlili musiqiy tafakkurda muhim tushunchadir. U musiqiy matnning intonatsiya tuzilishini tanib olish va tushunish jarayoni sifatida ta'riflanadi, bu lad va tonal tayanchlarni aniqlash, intonatsiya va melodik formulalarni tanib olish, ritmik va metrik naqshlarni tahlil qilish va musiqiy mato elementlari o'rtasida funktsional aloqalarni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Adabiyotlarni chuqur tahlil qilish bizga quyidagi ta'rifni shakllantirishga imkon berdi: bu musiqiy asarni intonatsion tajribasi, eshitish modellashtirish va tovushning ma'noviy-semantik dinamikasini aniqlash orqali idrok etish va anglash bo'yicha keng qamrovli kognitiv-pertseptual jarayonidir. Dalil sifatida biz B.Asafiyevning iqtibosini keltiramiz: musiqiy shakllanish quloq tomonidan uyushgan, intonatsion harakat sifatida qabul qilinganda, uning barcha bosqichlari yagona dinamik jarayonning ma'lumotlari bilan ifodalanadi, bunda bir tomondan ohanglar va tovush komplekslarining doimiy o'zaro ta'siri mavjud bo'ladi, ikkinchi tomondan, tovushning har bir momenti berilgan tonal munosabatlarning butun to'plami bilan belgilanadi [10, 65-b].

*1-Jadval. Intonatsion-eshitish tahlil bosqichlari*

No	Bosqich	Bosqich mazmuni
1	Intonatsiyani tushunish	Tovushning ma'noviy yo'nalishini dastlabki idrok etish, bunda harakat tabiati, taranglik va bo'shashish hamda musiqiy jarayonning energiyasi kabi parametrlar qayd etiladi.
2	Eshitish differentsiatsiyasi	Musiqiy matoning alohida elementlarini aniqlash: intervallar, motivlar, ritmik tuzilmalar, intonatsiya idroki kontekstida amalga oshiriladi.
3	Ichki eshitish modellashtirish	Musiqiy materialni bilan uning bevosita yangrashidan tashqari ishlash.
4	Intonatsiion talqin	Musiqiy materialning ifodali ma'nolarini tushunish. Bu yerda idrokdan anglshga o'tish sodir bo'ladi.
5	Sintez	Asarning yaxlit badiiy qiyofasini shakllantirish.

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Intonatsion-eshitish tahlili bir qator o'zaro bog'liq kognitiv operatsiyalarni o'z ichiga olgan dinamik, ko'p bosqichli jarayon sifatida amalga oshiriladi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri eshitish idrokidan musiqiy shaklni mazmunli tushunishga o'tishni ta'minlaydi (1-jadval). Eshitish tahlili alohida usul emas, balki musiqiy tafakkurning organik shakli sifatida qaraladi.

Ko'rish qobiliyati cheklangan sharoitda intonatsion-eshitish tahlili vizual idrok kanalining yo'qligi sababli o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ko'zi o'z o'zida musiqachilarning musiqiy tafakkuri nafaqat tovush hodisalarini idrok etish, balki ularning tarkibiy xususiyatlarini-tovush balandligi, ritmi, tembri, dinamika va garmoniyani chuqur tahlil qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Tovush musiqiy makonni anglash va talqin qilishning asosiy vositasiga aylanadi, bu esa kichik akustik o'zgarishlarga yuqori sezgirlikni va murakkab tovush tuzilmalarini tanib olish qobiliyatini rivojlantiradi. Ko'rish qobiliyati zaif musiqachilar uchun musiqiy harakat tovush tasvirlarining murakkab ichki modellashtirishni o'z ichiga oladi, bunda har bir nota, interval yoki akkord ma'noviy va hissiy kuchga ega bo'ladi.

Ko'zi o'z o'zida sharoitida intonatsion-eshitish tahlili o'zgarishi sodir bo'ladi, bunda tovushning ma'noviy talqini formal mantiqiy tahlildan oldin keladi. Kompensatsiya funksiyasini bajaradigan ichki eshitish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu talabga musiqiy material bilan vizual partiturasiz ishlash imkonini ta'minlaydi, bu ularga shaklini eslab qolish, uning rivojlanishini oldindan bilish va aqliy tahlil qilish imkonini beradi. Eshitish xotirasi tobora muhim rol o'ynaydi va intonatsion tajribani to'plash, yangilash va faollashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu musiqiy tasvirlarning izchilligini ta'minlaydi va keng qamrovli badiiy obrazni rivojlantirishga yordam beradi. Analitik komponent ham o'zgaradi: tahlil musiqiy matnning tarkibiy qismlarini vizual anglash orqali emas, balki eshitish tajribasi orqali amalga oshiriladi, bu esa analitik va intonatsion jarayonlarning integratsiyasini taqazo etadi.

Shunday qilib, vizual deprivatsiya sharoitida intonatsion-eshitish tahlili shunchaki usul emas, balki musiqiy matnni idrok etish, anglash va talqin qilishning

uzviy birligini ta'minlovchi musiqiy tafakkurning asosiy shakliga aylanadi. Shu bilan birga, musiqiy tafakkurning o'ziga xos tashkil etilishi paydo bo'ladi, unda intonatsiya badiiy ma'noni ifodalaydi, eshitish esa kognitiv va estetik tasvirning asosiy kanali hisoblanadi. Qayd etilgan fikrlar bizga muhim xulosa chiqarishga imkon beradi: ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi musiqachilarning musiqiy tafakkuri soddalashtirilgan deb emas, balki intonatsion-eshitish tahlilining ustunligiga, ichki eshitishni qobiliyatlarning rivojlantirishiga hamda badiiy anglash shakli sifatida intonatsion tajribaning ustuvorligiga asoslangan muqobil kognitiv arxitektura sifatida chiqish maqsadga muvofiqdir.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Кадыров Р. Музыка и педагогика [Монография]. – Ташкент: Complex print, 2022. – 326 с.
2. Сраджев В. Творческое мышление и воспитание музыканта. – Москва: ООО Прогресс, 2016. – 120 с.
3. Аристотель Политика, Книга восьмая; VI.
4. Матякубов О. Вековые музыкальные традиции под взором современности // Общество и инновации. – №1. – С. 242–251.
5. Старр Ф. Утраченное Просвещение: Золотой век Центральной Азии от арабского завоевания до времен Тамерлана // Стивен Фредерик Старр. – Пер. с англ. – Москва: Альпина Паблшер, 2017.
6. Granot R., Shair N. The Origin and Power of Music According to the 11th-century Islamic Philosopher Ibn Sīnā // Journal of the royal asiatic society, 2019.
7. Джумаев А. К проблеме реконструкции «старой эстетики макомата» и ее значении в условиях современности. Мақом сан'atining nazariy va amaliy asoslari: muammo va yechimlar: II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2024. – С. 99–100.

8. Асафьев Б. (Игорь Глебов). Музыкальная форма как процесс. Книга первая и вторая. – 2-е изд. – Ленинград: Музыка. Ленингр. отд-ние, 1971. – 376 с.

9. Медушевский В. Интонационная форма музыки: Исследование. – Москва: Композитор, 1993. – 262 с.

10. Арановский М. Концепция Б.Асафьева // Искусство музыки: теория и история. – 2012. – №6. – С. 24.

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Xalq ijodiyoti: cholg'u ijrochiligi mutaxassisligi magistranti  
E-mail: normatovaluiza56@gmail.com*

## CHOLG'U IJROCHILIGIDA INDIVIDUAL ISHLASH PRAGMATIKASI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada cholg'u ijrochiligida pedagogdan o'qitish jarayonida talabaning individuallik xususiyatlariga ahamiyat qaratishning kerakligi haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga, har bir talaba o'z oldiga bir individdir. Bunda pedagog dars jarayonida faqat kasbiy nazariya emas, talabalar bilan ishlashish pragmatikasi ko'nikmasini ham egallashi zarur.*

***Kalit so'zlar:** cholg'u ijrochiligi, individuallik, pedagogik mahorat, talaba, individual ta'lim.*

## PRAGMATICS OF WORKING WITH INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS IN MUSICAL PERFORMANCE

***Abstract.** This article examines the importance of considering students' individual characteristics in the process of teaching instrumental performance. It highlights the role of a differentiated pedagogical approach in enhancing students' musical development. The study emphasizes that effective teaching requires not only professional theoretical knowledge but also the development of pragmatic skills for working with students during lessons.*

***Keywords:** instrumental performance, individuality, pedagogical skill, student, individualized education.*

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblari chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o'z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy

ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an'analari qaror topdi va rivojlandi [1, 581-b].

Milliy cholg'ularimiz hozirgi davrgacha amaliyotda o'z o'rnini egallaganligi va ijrochilik amaliyotida yuqori darajaga ko'tarilib borayotganligi, umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega ekanligi ham bundan dalolat beradi [2, 198-b].

Musiqiy ifoda vositalari qatoridan joy egallaydigan musiqiy cholg'ular haqida nazariy va amaliy bilimlar ijodkor uchun juda muhim ahamiyatga ega. Yaxshi bastakor bo'lish uchun inson yoshlik chog'larida, albatta, biror-bir musiqiy sozni chalgan va uni mukammal o'zlashtirgan bo'lishi haqida ko'p bora fikr yuritganmiz. Zero, torli-kamonli cholg'ulardan birini puxta egallagan ijodkor torli-kamonli cholg'ular guruhiga kiruvchi boshqa cholg'ularni ham to'g'ri anglaydi. Yog'och damli yoki mis damli cholg'ulardan birini puxta egallagan ijrochi damli cholg'ular guruhini yaxshi tushunadigan bo'ladi [3, 65-b].

O'zbek milliy sozlari qadimiy, boy tarixga ega. Bu cholg'ular asrlar davomida shakllandi, rivojlandi. Cholg'ular taraqqiyotida usta sozgarlar, mohir sozandalarning ulkan hissalar bor. Usta sozgar mashaqqatli, zargarona mehnati bilan sehri ohang taratuvchi cholg'u yaratadi. Har bir sozni bunyod etilishi uchun oylab, hatto yillab vaqt sarflanadi. Sozanda esa o'zining mohirona ijro ijrosi bilan shu cholg'uni "gapirtiradi", unga go'yo til ato etadi. Shu bilan birga, usta sozgar bilan hamkorlikda ishlab, sozni yanada takomiliga yetkazishda o'z hissasini qo'shadi. O'zbek milliy musiqa ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – undagi mavjud usullardir [4, 3-b]. Har biri o'z ijrochilik pragmatikasi bilan ajralib turadi. Ularni yoshlarga o'rgatish esa, hammasidan ahamiyatli jarayondir.

Cholg'u ijrochiligida talabalarning individuallik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'rgatilmasa natija berishi ko'ngildagidek bo'lmasligi mumkin. Cholg'u ijro qilishning mas'uliyati g'oyatda yuqori. Individuallik muayyan hodisa bo'lib, shaxsning o'zigagina xos, betakror, xususiy belgilaridir.

Individual ta'lim – o'qituvchining o'quvchiga yakka tartibda pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri, o'qituvchining o'quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan alohida faoliyati. Individual o'qitish – o'quvchi shaxsiga alohida yondoshgan holda ta'lim-tarbiya berish [5, 28-b]. Musiqachi shaxsining serqirraligi haqida nemis dirijyori Bruno Valter shunday degan: "Faqat sozanda – bu har doim yarim sozanda". Musiqachining mehnatsevarligi haqida P.I.Chaykovskiy: "Eng keragi, avvalo, mehnat, mehnat va yana mehnat... Men har kuni ertalab ijodga o'tirib, to biror narsa chiqmaguncha ishlayveraman", degan edi. Mashhur pianinochi va pedagog M.Klementi sakkiz, ba'zan o'n ikki va hatto o'n to'rt soatlab mehnat qilgan [6, 14-b]. Bu bejiz emas, cholg'u ijrochiligida talabalarning individuallik xususiyatlari har xildir.

Talabani individuallik xususiyatini yaxshi o'rgangan pedagog o'zining pragmatikasini dars jarayonida mukammallashtirib boraveradi.

Individual ishlashning pedagogik va psixologik ahamiyati shundan iboratki, bu jarayonda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan alohida shug'ullanish ularning eng avvalo bilim darajasini, erkin fikrlash va uni bayon eta olishini rivojlantiradi. Faol o'quvchilar bilan individual ishlash esa ulardagi mavjud iqtidorni yanada rivojlantirish va o'sha yo'nalishda yaxshi natija ko'rsatishda katta ahamiyat kasb etadi. A.S.Graniskaya metodikasining o'ziga xosligi uning darsni muayyan g'ayriodatiy qurilma asosida tashkil etishidir:

- Birinchi qism – barchani o'qitish;
- Ikkinchi qism – ikki parallel jarayon oluvchilarning mustaqil ishlari va o'qituvchining ayrim o'quvchilar bilan individual ishlashi, ya'ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi juft o'qituvchi bo'lib ishlash, moslashuvchan ko'p qirrali vazifalar va boshqalar.

V.D.Shadrikov gipotezasiga ko'ra agar talabaga murakkablashib boruvchi vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o'rganish jarayonini motivatsiyalash taklif

etilsa, lekin talabaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o'quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi.

“Iste'dod egalari kamyob bo'lishadi, alohida-alohida olganda tanho, takrorlanmas deyish mumkin. Demak, iste'dod egasi noyob hodisa ekan, ularni avaylash va qadrlash zarur”, – degan fikrlar bejizga aytilmagan [7, 53-b].

Talaba o'z o'qituvchisining ko'rsatma va fikrlariga ko'rko'rona ergashib bo'ysinishi emas, balki biror masala yuzasidan o'zining shaxsiy munosabatini ijro orqali bildira olishi kerak. O'qituvchi rahbarligida o'tiladigan darsning ahamiyati katta, lekin bu ish o'quvchining mustaqil ishlari muhimligini inkor etmaydi. O'quvchining mustaqil mashg'ulotiga sarf bo'layotgan vaqtini bekor o'tkazmasligini o'rganib borish kerak. Buning uchun o'quvchiga mustaqil mashg'ulotni qanday tashkil qilish, nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligini tushuntirish lozim.

Vaqtdan ratsional va unumli foydalanish mustaqil ishlash asosi prinsiplaridan biri bo'lishi zarur. Asosiy prinsiplaridan yana biri mashg'ulotning muntazamligidir. Ijroni o'rgatishning dastlabki davridan boshlab o'quvchida muntazam mustaqil ishlashni ko'nikmasini hosil qilish zarur. Odatda, muntazamlikka erishish qiyin bo'lsa ham, bunday mashg'ulotlar asta-sekin odat tusiga ko'rib borishi maqsadga muvofiqdir [8, 3-b]. Iqtidorli talabaning ba'zi bir salbiy xususiyatlari va ularning o'rganish qobiliyatlari shundaki, ular osonlikcha izdan chiqarib yuboriladi yoki mavzudan tashqarida bo'ladi – ular dars paytida osongina zerikib qolishlari mumkin, bu esa ularni boshqa talabalarga to'sqinlik qilishi va ular bundan bosh tortishlari mumkin. Zerikishlariga yo'l qo'ymaslik uchun ularni band qilib qo'yish kerak. Shunda ularni o'qitish ancha ravonroq ketadi [9, 302-b]. Musiqa ijrochiligidan ta'lim berish o'qituvchidan turli bilim, ko'nikma va qobiliyat talab etadigan ishdir. O'qituvchi uchun faqat sozanda bo'lishning o'zi yetarli bo'lmay, undan pedagogik fikrlash, o'quvchining ichki dunyosiga ko'ra bilish, uning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi sifatlarga ega bo'lish ham talab etiladi. Cholg'u ijrochiligidan ta'lim beradigan

o'qituvchi umumiy pedagogika va psixologiya sohalaridan ham xabardor bo'lishi kerak. O'qituvchi xarakteridagi individual xususiyatlar tarbiya ishida katta ahamiyatga ega. O'qituvchilardan irodali bo'lish, maqsadga to'g'ri intilish, talabchanlik bilan har bir ishni o'z vaqtida oxiriga yetkaza olish, qiyinchilaklarni yengishda mardlik ko'rsata olish kabilar talab etiladi. Har bir o'quvchining tarbiyasi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, biri ikkinchisidan farq qiladi. O'quvchi mahoratining muhim taraflaridan biri har bir o'quvchidagi yaxshi xususiyatni vaqtida topib, unga e'tibor berishdir. O'qituvchi o'quvchining diqqat-e'tiborini qadrlashi, uning shaxsiga hurmat bilan qarashi kerak [10, 73-b].

Cholg'u ijrochiligi fani o'z murakkabligi bilan ajralib turadi. Ijodiy fan nazariya bilan birga pragmatik tajribalarni ham talab qiladi. Pedagog talabalarning individuallik xususiyatlarini dars jarayonida kuzatib, o'rganib, tahlil qilib boradi. Cholg'u ijrochiligida individuallikni shakllantirish zaruriy omilga aylanib bormoqda. Individual ishlash pragmatikasining katta ijobiy tomoni – murakkab darslarini o'zlashtirishda yaxshi samara beradi. Individuallik xususiyatlari bilan ishlash pragmatikasi – pedagogning dars tamoyiliga aylanishi kerak. Bugungi kunda biz pedagoglarning oldida katta mas'uliyatli vazifalar mavjud.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Bugungi shiddatli zamon oldimizga qanday murakkab vazifalarni qo'yayotganini barchamiz ko'rib, bilib turibmiz. Ularni hal etish va ezgu maqsadlarimizga yetish, dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lish uchun xalqimizni, avvalambor, yoshlarimizni ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyat, taraqqiyot yutuqlari bilan qurollantirishimiz kerak. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, oliygohlarimizni ta'lim va ilm-fanning yirik markazlariga aylantirish bo'yicha boshlagan katta ishlarimizni jadal davom ettirishimiz lozim” [11, 1-b], – deb ta'kidlagan edi. Haqiqatan, barcha jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. Cholg'u ijrochiligida pedagog pragmatik tajribalarni oshirish orqali talabalarning ijobiy-ijodiy xususiyatlarni maksimal darajada rivojlantirib boradi. Talabaning rivojlanishi – uning darsga

tayyorligi, bilim qobiliyatlari darajasi, kuzatish, e'tibor, xotira, nutq, fikrlash jarayonlari, cholg'uga yo'naltirish bilan xarakterlanadi. Cholg'u ijrochiligida talabalarning individuallik xususiyatlari bilan ishlash pragmatikasining ortishi orqali talaba qaysi janrga, qaysi cholg'uga, qaysi san'atkorning ijro yo'llariga ko'proq qiziqishi borligini tahlil qilib boramiz. Individuallik xususiyatlari bilan ishlash pragmatikasi talabaning mashg'ulotlarga munosabati, ularning yutuq va kamchiliklari, qiyinchiliklarni yengish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi salbiy muammolarni bartaraf etib borishga zamin yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yesanov M. *O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi // Oriental Art and Culture.* – Farg'ona O'zDSMIQF, 2021. – №3/1. – B. 25–30.
2. Abruyeva M. *O'zbek milliy cholg'ularining tarixi va ularni rekonstruksiya qilish xususida // Analytical Journal of Education and Development.* – Toshkent, 2022. – №02/1. – B. 45–50.
3. Abdullayeva O. *Cholg'ushunoslik.* – Toshkent: Musiqa, 2017. – 75 b.
4. Islomov D. *Maxsus cholg'u.* – Toshkent: O'zDSMI, 2019. – 166 b.
5. Djurayev R., Tolipov O'., Safarova R., To'raqulov X., Inoyatova M., Divanova M. *Pedagogik atamalar lug'ati.* – Toshkent: Musiqa, 2008. – 132 b.
6. Qodirov R. *Musiqa psixologiyasi.* – Toshkent: Musiqa, 2005. – 80 b.
7. Haydarov A. *Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish.* – Toshkent: Kamalak, 2019. – 192 b.
8. Rahimov Sh., Yusupov Sh. *Cholg'u ijrochiligi.* – Toshkent: Musiqa, 2011. – 88 b.
9. Xodjaeva D. *Iqtidorli talabalarning individual-tipologik xususiyatlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.* – Buxora, 2022. – № 9. <http://interscience.uz>
10. Rahimov Sh., Yusupov Sh. *Cholg'u ijrochiligi.* – Toshkent: Musiqa, 2011. – 88 b.
11. Mirziyoyev Sh. *O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga // gaz. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.* – Toshkent, Sharq. – 2021 yil, 1 oktabr. – №40. (4647)

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Ashula va raqs mutaxassisligi magistranti  
E-mail: mohigulsayidova18@gmail.com*

## **BOLALAR TEATRI AKTYORLIGIDA VOKAL TA'LIMINING NAZARIY ASOSLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalar teatri aktyorlarining kasbiy mahoratini shakllantirishda vokal ta'limining o'rni va nazariy asoslari tadqiq etiladi. Maqolada vokal aktyorning o'ziga xos xususiyatlari, nutq va ohang mutanosibligi hamda yosh tomoshabinga psixologik ta'sir etishi yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak aktyorlarning vokal apparati bilan ishlashning pedagogik tamoyillari tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** bolalar teatri, vokal ta'limi, aktyorlik mahorati, intonatsiya, artikulyatsiya, musiqiy dramaturgiya, sahna nutqi.*

## **THEORETICAL BASIS OF VOCAL TRAINING FOR ACTORS IN CHILDREN'S THEATRE**

***Abstract.** This article examines the role and theoretical foundations of vocal education in the formation of professional skills of children's theater actors. The article describes the specific characteristics of acting vocals, the balance of speech and tone, and the psychological impact of vocals in communication with a young audience. Pedagogical principles of working with the vocal apparatus of future actors are also analyzed.*

***Key words:** children's theater, vocal education, acting skills, intonation, articulation, musical dramaturgy, stage speech.*

Bolalar teatri aktyori uchun vokal tayyorgarligi nafaqat qo'shiq kuylash, balki sahnada obraz yaratishning fundamental asosi hisoblanadi. Zamonaviy bolalar teatri o'zining sintetik tabiati bilan ajralib turadi. Bu yerda aktyordan bir vaqtning o'zida dramatik mahorat, plastik harakat va mukammal vokal

ko'nikmalari talab etiladi. Bolalar teatri aktyori uchun vokal shunchaki qo'shiq aytish emas, balki qahramonning ichki dunyosini, emotsional holatini va xarakterini ochib beruvchi asosiy vositadir. Bolalar auditoriyasi samimiylilikni va aniq intonatsiyani talab qilganligi sababli, aktyorning vokal tayyorgarligi o'ziga xos ilmiy-nazariy yondashuvlarga tayanadi.

Aktyorlik vokali akademik vokal ijrochiligidan o'zining "obrazlilik" bilan farq qiladi. Nazariy jihatdan, bu jarayon K.S. Stanislavskiyning "harakatdagi so'z" tamoyiliga tayanadi. Bolalar teatri aktyori uchun vokal mashg'ulotlari nafaqat texnik imkoniyatlarni kengaytirishga, balki musiqiy matn orqali harakat qilishga yo'naltiriladi. Vokal ta'limida diksiya va artikulyatsiya nazariyasiga katta e'tibor beriladi, chunki bolalar teatri spektakllarida so'zning tushunarligi birinchi o'rinda turadi.

Bolalar teatri aktyorlari uchun vokal tayyorgarligi dramatik mahoratning ajralmas qismi bo'lib, u fiziologik va psixologik jarayonlarning murakkab sinteziga tayanadi. Akademik xonandalikdan farqli o'laroq, vokal aktyorning sahnadagi jismoniy harakati bilan bevosita bog'liqdir. Nazariy jihatdan bu jarayonning asosi "diafragmal nafas olish" tizimidir. M.Umarov o'zining "Sahna nutqi" asarida ta'kidlaganidek, aktyor nafasni qovurg'alar aro va diafragma mushaklari yordamida boshqarishni o'rganishi shart. Bu ko'nikma aktyorga sahna bo'ylab faol harakatlanish (raqsga tushish, yugurish, sakrash) davomida ham vokal partiyalarini uzilishlarsiz va ovoz bo'g'ilishlarsiz ijro etish imkonini beradi.

"Ovoz chiqarish vaqtidagi nafas apparatining harakatlari hiqqildoq va talaffuz a'zolari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shu bois kuylashda nafas yo'llari ishini alohida o'rganish shart. Negaki, ovoz hosil etish jarayonida erkin nafas chiqarish paytida uning yo'lini to'sib turuvchi a'zo tovush boylamlaridir. Ovoz hosil etish vaqtida tovush boylamlarning tebranishida bevosita nafas ishtirok etadi. Shuning uchun ashulachilik nafasi haqida so'z yuritilganda albatta, aynan, shu paytda hiqqildoqning xatti-harakatlari nazarda tutiladi" [2, 17-b]. Psixofizik nuqtai nazardan vokal aktyorning ichki tuyg'ularini tashqi ifoda bilan bog'lovchi

ko'prikdir. K.S.Stanislavskiyning ta'limotiga ko'ra har bir tovush muayyan ichki harakatdan tug'ilishi kerak. Bolalar teatrida esa bu yanada muhim, chunki yosh tomoshabin ovozdagi soxtalikni darhol his qiladi. Vokal mashg'uloti davomida aktyor o'z vujudini go'yoki sozlangan musiqa sozi holatiga keltirishi va barcha mushak qisilishlaridan halos bo'lishi nazariy hijatdan asoslanadi.

Bolalar teatrining janriy xususiyatlari aktyordan ko'pincha transformatsiya ya'ni o'z tabiatidan uzoq bo'lgan obrazlarni yaratishni talab etadi. L.B.Dmitriyevning vokal metodikasiga tayangan holda aytish mumkinki, "aktyor personajning yoshi, fe'l-atvori hamda ijtimoiy holatidan kelib chiqib, o'z ovoz tembrini o'zgartira olishi kerak. Masalan, ertak qahramonlari bo'lgan hayvonlarni gavdalantirishda vokal rezonantlaridan foydalanish nazariyasi ishlaydi. Ayiq obrazida ko'krak – (pastki) rezonantlar ustunlik qilsa, ayyor tulki yoki mitti qushcha obrazlarida-bosh (yuqori) rezonantlarda va "falset" usulida ijro etiladi. Bu shunchaki ovozga taqlid qilish emas, balki vokal texnikasi yordamida yaratilgan "tovushli niqob"dir. Ushbu jarayonda aktyor o'zining tabiiy ovoz boylamlarini himoya qilishi yani to'g'ri kuylashga amal qilishi ilmiy jihatdan o'rganiladi" [6, 128-b].

Bolalar uchun mo'ljallangan asarlarda ko'pincha ertaknamo, fantastik yoki hayvonot dunyosiga oid personajlar uchraydi. Bu aktyordan vokal diapazonini transformatsiya qilishni (masalan, "xirillash", "ingichka ovoz", "taqlid")ni talab etadi. Nazariy asoslarda bu "vokal xarakteristikasi" deb ataladi. Bunda aktyor ovoz boylamlariga zarar yetkazmagan holda, turli tovush effektlaridan foydalanishni o'rganishi kerak. Vokal ta'limi aktyorning nafas olish tizimi bilan uzviy bog'liq. "Diafragmal nafas olish" bolalar teatri aktyori uchun juda zarurdir. Chunki u sahna harakati (raqs, sakrash, yugurish) davomida ham barqaror ovoz chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, vokal darslari aktyorda musiqiy eshitish qobiliyati orqali sherigini (partnyorini) his qilish instinktini rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar teatri aktyorining vokal ta'limida "musiqiy intonatsiya" va "nutq intonatsiyasi"ning sintezi eng samarali uslubdir. Agar aktyor faqat nota

ketma-ketligiga e'tibor qaratib, dramaturgik maqsadni unutsa, bolalar auditoriyasi bilan aloqa uziladi.

Ma'lumki, intonatsiya tushunchasi ikki xil ma'noda talqin etiladi: texnik (notalarning toza olinishi) va badiiy (ovozdagi emotsional ranglar). Bolalar teatri aktyori uchun ikkinchi jihat ya'ni badiiy intonatsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sababi, yosh tomoshabin uchun ohangdagi samimiylik va obrazdagi ifoda har qanday mukammal texnikadan ustun turadi. Musiqiy intonatsiya spektaklning dramaturgik chizig'ini belgilaydi. Aktyor ovozining dinamikasi (baland-pastligi), tembri(rangi) va sur'ati (tempi) intonatsiyaning tarkibiy qismlari bo'lib, ular orqali sahnadagi konflikt va yechimlar ko'rsatiladi. Spektaklning kulminatsion nuqtasida intonatsiya o'zining eng yuqori emotsional kuchiga chiqishi, fojeaviy, lirik qismlarda esa yanada chuqurlashishi yoki muloyimlashishini belgilaydi.

Nazariy asoslarning to'g'ri qo'llanilishi aktyorga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ovoz salomatligini uzoq vaqt saqlash;
- musiqiy-dramatik obrazning mukammal uyg'unligiga erishish;
- kichik yoshdagi tomoshabinning diqqatini badiiy vositalar orqali ushlab

turish. Bolalar spektakllarida so'z va musiqa chambarchas bog'liqdir. Bolalar auditoriyasida so'zning tushunariligi (diksiya) muhim ahamiyatga ega. Vokal mashg'ulotlarida qo'llaniladigan "vokal artikulyatsiyasi" nazariyasiga ko'ra qo'shiq aytish davomida unli tovushlarning shakli va undosh tovushlarning faolligi nutqdagi talaffuzga qaraganda kuchliroq va yanada tiniq bo'lishini talab etadi. Bugungi kunda bolalar teatrining eng muhim ma'naviy vazifalaridan biri-o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga milliy ruh va o'zlikni anglash tuyg'usini milliy musiqa va ohanglari vositasida singdirishdir. Spektakllarda milliy ohanglardagi qo'shiqlar bolaning badiiy tafakkurini boyitadi. Bolalar teatri aktyori uchun vokal mashg'ulotlarida milliy qo'shiqchilik san'atining o'ziga xos murakkabliklari, xususan, milliy ohang yo'nalishlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, milliy cholg'ular (nay, dutor, g'ijjak, doyra)sadosi ostida ijro etiladigan

vokal partiyalari bolada nafaqat musiqiy zavq, balki, ajdodlar merosiga nisbatan cheksiz hurmatni uyg'otadi. Bu jarayonda aktyor o'z vokal imkoniyatlari orqali milliy ohangning jozibadorligini saqlab qolgan holda, personajning zamonaviy dunyoqarashini ham ochib berishi lozim. Binobarin, teatrlashtirilgan tomoshalarda milliy musiqaning ustunligi sahna asarining tarbiyaviy kuchini oshirib, yosh tomoshabinni begona va yot g'oyalardan musiqiy estetika yordamida himoya qiluvchi ma'naviy qalqon bo'lib xizmat qiladi.

“Bolalar teatri aktyori vokal mahoratining nazariy asoslari bevosita milliy qo'shiqchilik san'atidagi ovoz hosil qilish an'analari bilan ham uzviy bog'liq. Xususan, ovozni tanglay orqali yo'naltirish (rezonans hosil qilish) uslubi aktyorga baland pardalarni erkin olish va ovoz apparatini charchatmaslik imkonini beradi. Milliy ijrochilik tajribasi shuni ko'rsatadiki, unli tovushlarning tanglayda shakllanishi ovozning jozibadorligi va kuchi xususiyatlarini ta'minlovchi asosiy omildir. Bu metodika aktyor uchun sahnada nafaqat musiqiy matnni ijro etish, balki personaj harakterini uzoq vaqt davomida barqaror ovozda ushlab turish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Quyida keltiriladigan ma'lumot, fikrimizning yaqqol dalilidir. Xonandaning ovozi og'iz bo'shlig'ining pastki qismidan chiqarilsa, unda baland pardalarni mutlaqo ololmaydi. Shuning uchun albatta uning baland tomoni, ya'ni tanglay tomonidan aylantirib chiqarish kerak. Yana bir maslahat. Ovoz og'izning ichkarisidan aytilsa, o'ng tomondan osonroq chiqadi...Bundan ma'lumki, og'izning ichkarisidan tovushni chiroyli, yoqimli qilib chiqarib bo'lmaydi” [1, 20-b].

Bolalar teatri aktyorining kuylash jarayonini tadqiq etar ekanmiz, vokal mashg'ulotlari shunchaki ijro etish emas, balki sahna mahoratining fundamental asosi ekanligiga yana bir bor amin bo'lish mumkin. Barcha o'rganilgan nazariy asoslar va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, vokal-bolalar tetri aktyori uchun o'z qahramonining ruhini tomoshabinga yetkazuvchi eng qudratli va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi vositadir. Bolalar auditoriyasining psixologik o'ziga xosligi, ya'ni ularning so'zdan ko'ra ohangga ishonishi, aktyor zimmasiga katta mas'uliyatni

yuklaydi. Vokal mashg'ulotlari aktyorning ruhiy va jismoniy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omildir. Yuqorida tahlil qilingan diafragmal nafas olish va rezonans nazariyalari shuni isbotlaydiki, aktyor vokal texnikasini mukammal egallamasdan turib, spektakllarda yaxshi ijrolarni ko'rsata olmaydi. Bolalar teatrlarida uchraydigan turli ovozli niqoblar (xirillash, qichqiriq, xandon otib kulish, taqlid) faqatgina mustahkam ovoz bazasi asosidagina bezarar va ishonchli amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, milliy va jahon vokal maktablarining o'zaro uyg'unligi, ovozni yo'naltirish metodikasi aktyorlik san'atini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. Kelajakda bolalar teatrlari aktyorlari uchun vokal mashg'ulotlarini jahon va milliy ijrochilik an'analari bilan yanada uyg'unlashtirish, ushbu sohada ilmiy izlanishlarni davom ettirish dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Zero vokal mahorati yuksak bo'lgan aktyorgina bolalar qalbiga kirib bora oladi va teatr san'atining mangu yashashiga o'z hissasini qo'shadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Mamadaliyev F. *Milliy musiqa ijrochiligi masalalari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 32 b.
2. Sayidov B. *Yakkaxon qo'shiqchilik*. – Toshkent: Fan ziyosi, 2021. – 176 b.
3. Stanislavskiy K. *Aktyorning o'z ustida ishlashi*. – Toshkent: Yangi avlod, 2010. – 512 b.
4. Qodirov M. *O'zbek teatri tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2003. – 232 b.
5. Ismoilov M. *Vokal asoslari*. – Toshkent: Musiqa, 2012. – 152 b.
6. Дмитриев Л. *Основы вокальной методики*. – Москва: Музыка, 2007. – 368 c.

**Faxriyor Qosimov**

*Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi  
oliy toifali o'qituvchisi  
E-mail: faxriyorqosimov@gmail.com*

## **DO'MBIRA CHOLG'USINING TARIXI, YASALISHI VA IJRO USLUBLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada do'mbra cholg'u asbobining tarixi, tuzilishi va ijrochilik uslublari tahlil qilinadi. Ayniqsa, do'mbra baxshichilik san'atida muhim o'rin egallashi, unda cholg'u nafaqat jo'rnavozlik vositasi, balki badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy vosita sifatida xizmat qilishi yoritiladi. Tadqiqotda Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida do'mbra ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlari, uning konstruktiv tuzilishi hamda ijro texnikalari tahlil etiladi.*

***Kalit so'zlar:** do'mbira, baxshi, epik ijro, doston.*

## **HISTORY, CONSTRUCTION, AND PERFORMANCE STYLES OF THE DOMBRA MUSICAL INSTRUMENT**

***Abstract.** This article examines the history, construction, and performance styles of the dombra as a traditional musical instrument. Particular attention is given to its role in the performance practice of epic singers (bakhshis), for whom the instrument serves as an essential means of artistic expression alongside the spoken word. The study focuses on the use of the dombra in the Kashkadarya and Surkhandarya regions, highlighting its structural features and distinctive performance techniques within the epic tradition.*

***Keywords:** dombra, bakhshi, epic performance, dastan.*

Baxshichilik o'zbek xalqining qadimiy og'zaki ijod an'analaridan biridir. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyoti ibtidoiy jamoa tuzumi davridan yashab kelayotgani barchaga ayon bo'lsa-da, u fan sifatida XX asrda shakllandi. Hamisha xalq ma'naviyatining, hayotining ko'zgusi, ruhiy estetik dunyosining asosi,

falsafiy qarashlarning mahsuli bo'lgan og'zaki badiiy ijod namunalari barcha tur va janrlar bo'yicha yozib olish, yozilganlarni tavsiflash, o'rganish, tadqiq qilish va nashr etish sohasida to'qson yil mobaynida ulkan ishlar qilindi [1]. Baxshilar xalq orasida odil so'z egasi, haqiqatparvar inson sifatida tasvirlangan. Baxshilar "Alpomish", "Go'rog'li", "Rustamxon" kabi eposlarni asrlar davomida kuylab xalq qalbida ma'naviy uyg'oq ruhni saqlab kelganlar [2, 39-b]. Dostonlar xalqning azaliy orzu-umidlarini, urf-odatlarini, dard-u hasratlarini o'zida aks ettiradigan ijod mahsulidir desak mubolag'a qilmaymiz. Folklorshunos olimlarimizning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Bulung'ur, Qo'rg'on, Nurota, Shahrisabz, Narpay, Sherobod, Qamay, Piskent kabi yetakchi baxshilar yetishib chiqqan doston ijrochilik maktablari mavjud [3] bo'lgan. Bunda esa baxshilarga asosiy hamroh sifatida do'mbira cholg'usini keltirish mumkin.

Barchamizga ma'lumki, do'mbirasimon cholg'ular juda keng tarqalgan va eng qadimiy cholg'ulardan biri bo'lganligi sababli, O'rta Osiyo mamlakatlarida ham do'mbirasimon cholg'ularning turlarini va shu kabi cholg'ularning xilma-xilini, bundan tashqari mana shu cholg'ularning, hatto ijro uslublari ham bir-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lgan cholg'ularning guvohi bo'lishimiz mumkin. Cholg'ularni chalish uslubi turli xalqlarda har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun uyg'urlar, afg'onlar, Pokiston xalqlari, tojiklar, turkmanlar va o'zbeklar dutor torlarini yulib chalishadi [4]. Do'mbira baxshilar va doston ijrochilari uchun sevimli hamroh hisoblanadi.

Do'mbira juda chuqur va boy tarixga ega. U butun turkiy xalqlar madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Do'mbira sozi 2500–3000 yillik tarixga ega. Bu soz musiqiy merosning ulkan qismi bo'lgan dostonlarni ijro qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sozni nafaqat baxshilar, qolaversa cho'ponlar ham sevib ijro etishgan. Hatto ushbu soz uchun "Cho'poncha" nomli kuylarni ham yaratganlar [5]. Do'mbira sozi faqatgina o'zbeklarda emas qoraqalpoq, qozoq va turkman xalqlarida ham keng tarqalgan. XIX–XX asrlarga

kelib etnograflar va musiqashunoslar do'mbirani o'rganishni boshlagan. Bugungi kunda do'mbira cholg'usi o'rta va oliy ta'lim tizimlarida o'rgatilib kelinmoqda.



Inson tafakkuri torli cholg'uni ixtiro etib, uni ma'lum darajada rivojlantirgandan so'ng, uning umumbashariy rivoji har bir xalqning madaniyati, ma'naviyati va an'anasi asosida shakllanib rivoj topadi [6]. Cholg'ularni har bir xalqning o'ziga xos va turli vositalar orqali ijro etiladigan namunalari yuzaga keladi. Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos bo'lagi hisoblanuvchi baxshichilik cho'lg'usi, ya'ni dombirani maromiga keltirib ijro qilishga tayyor qilish uchun naft uch yil talab etiladi.

Do'mbira torli o'zbek an'anaviy cholg'ularidan biri bo'lib, ayni paytda o'zbek baxshichilik san'atining yetakchi cholg'usi hisoblanadi. Cholg'uning ilkki torliligi va turli tovushlarga sozlanib bir paytda ijro etilishidan, uni cholg'u ijrochiligining ancha shakllangan davrida yuzaga kelgan asbob, deb qayd etadi V.Belyayev [6].

Do'mbira, tanbarga nisbatan kosasi katta, dastasi esa kalta, dutorga nisbatan dastasi kalta, kosasi kichkina ikki torli cholg'udir. Do'mbira yasovchi ustadan juda katta e'tibor va mahorat talab etiladi. Butun diqqati va qalb qo'ri bilan yasalgan

sozgina baxshining barmoqlarini harakatga keltiradi va baxshining ko'ngil kechinmalarini birdek ohanglar orqali tinglovchiga yetkazib beradi. Ehtimol shundanmi ushbu sog'a sehrli degan so'z qo'shib aytiladi. Do'mbira olmurut, ipton va o'rik daraxtlaridan yasaladi. U hosil bermay qolganiga 10 yil bo'lgan daraxtning tanasidan yasaladi. Noyabr, dekabr oylarida daraxtning tanalari kesilib maxsus joyga ko'miladi va u 6 oydan 1 yilgacha saqlanadi. Bu esa materialning yanada puxta yetilishiga sabab bo'ladi. Shundan so'ngina do'mbra cholg'usini yasashga kirishiladi. 1 oyda 2 tagacha do'mbira yasash mumkin. Qish va yoz fasllarida yetilib ovozi maromiga yetgan do'mbira cholg'usi uch yillik jarayondan so'ngina baxshilarga tavfsiya etiladi.

Do'mbira ijrosi o'ziga xos texnika va uslublarga boy bo'lib, u ijrochining mahorati, his-tuyg'usi hamda hududiy an'analarga qarab turlicha namoyon bo'ladi. Ushbu cholg'uda ijro qilish jarayoni nafaqat musiqa chalish, balki ma'lum ma'noda hikoya qilish san'ati ham hisoblanadi. Do'mbirada ikki tor bir vaqtda chertilishi bilan birga alohida-alohida ham ijro etiladi. Bu ijrochi baxshilarning badihasiga bog'liq. Cholg'u alohida simlarda chertilganda har ikki toridan keng foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga chap qo'lni "pisikato" usuli bilan ijro etish uslubi ham keng qo'llaniladi [6]. Quyida do'mbira chalishning bir nechta usullarini ko'rib chiqamiz:

### **1. Chertib chalish usuli.**

Bu do'mbira ijrosining eng asosiy va keng tarqalgan usullaridan biridir. Torlar barmoqlar bilan chertiladi, ovoz mayin va ravon chiqadi. Ko'proq lirika va sekin kuylar uchun ishlatiladi. Bu usul baxshilar tomonidan dostonlarning sokin qismlarini ijro etishda qo'llaniladi.

### **2. Urrib chalish (ritmik usul).**

Bu usulda torlar qo'l bilan urrib chalinadi va kuchli ritm hosil qiladi. Juda jo'shqin va tez ohang beradi. Raqsga mos kuylar uchun ishlatiladi va tinglovchini ruhlantiradi.

### **3. Aralash ijro usuli.**

Bu usulda chertish va urish texnikalari birlashtiriladi. Natijada murakkab va boy ohang hosil bo'ladi. Professional ijrochilar ko'p foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, do'mbira bu shunchaki cholg'u emas, balki u tarixiy xotira, xalq ruhi va og'zaki ijodining asosiy vositalaridan biridir. Qolaversa, do'mbira – ayniqsa, an'anaviy (xalqona) shaklida – o'zbek va umuman Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy merosining ajralmas qismidir. U nafaqat musiqa asbobi, balki xalqning tarixi, ruhiyati va og'zaki ijodini (doston, termalar, qo'shiqlar) yetkazuvchi vosita hisoblanadi. Do'mbira ijro usullari esa ijrochi his tuyg'ularini ifodalashda yordam beradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *Abdiolim E. Baxshi badiiyati. – Qarshi: Nasaf, 2015. – 120 b.*
2. *Uchinchi renessans davrida baxshi san'atini o'qitish masalalari va baxshi san'ati transformatsiyasi // Xalqaro ilmiy amaliy konfrensiya. – Toshkent, 2025.*
3. *Мирзаев Т. Халқ бахшларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – 152 b.*
4. *Saydumarova N. International Journal of Science and Technology // O'rta osiyo mamlakatlarida do'mbirasimon cholg'ular tasnifi.*
5. *Davr infarmatsion dasturi. Nilufar Raimova, Malohat Mengliqulova reportajidan.*
6. *Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. – Toshkent: Yangi nashr, 2008. – 160 b.*

**Baxromjon Inatullayev**

*Namangan davlat universiteti  
"An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi" kafedrasini mudiri,  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor  
E-mail: atribut\_85@mail.ru*

## **MA'NAVY EHTIYOJLARNING ILMYIY-NAZARIY ASOSLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada inson rivojlanishida ma'naviy ehtiyojlarning o'rni tahlil qilinadi hamda ularning nazariy asoslari yoritiladi. Unda ma'naviy ehtiyojlarga oid Sharq va G'arb qarashlari, ularning shakllanish jarayonlari hamda ijtimoiy-psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar sharoitida ma'naviy ehtiyojlar va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil etiladi.*

***Kalit so'zlar:** inson, ma'naviy ehtiyojlar, milliy qadriyatlar, raqamli transformatsiya, madaniyat, oila, din, ta'lim tizimi, ehtiyojlar ierarxiyasi.*

## **SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF SPIRITUAL NEEDS**

***Abstract.** This article analyzes the role of spiritual needs in human development and examines their theoretical foundations. It explores Eastern and Western perspectives on spiritual needs, as well as the processes of their formation and their socio-psychological dimensions. Particular attention is given to the relationship between spiritual needs and spiritual values in the context of contemporary social and cultural transformations.*

***Keywords:** human, spiritual needs, national values, digital transformation, culture, family, religion, education system, hierarchy of needs.*

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida moddiy qadriyatlar bilan bir qatorda ma'naviy qadriyatlar, ularni anglash va ularga ehtiyoj sezish masalasi dolzarb bo'lib kelgan. Ayniqsa, XXI asrda globalizatsiya, texnogen inqiloblar va raqamli transformatsiyalar sharoitida insonning ma'naviy-ruhiy holatini, ichki olamining boyligi va barqarorligini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb

etmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, ma'naviy buyuk xalq – iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi [14].

Hozirgi ijtimoiy taraqqiyot sharoitida inson hayotida nafaqat moddiy, balki ma'naviy qadriyatlarning ham o'rni ortib bormoqda. Insonning jamiyatdagi o'rni, uning faoliyati, o'z-o'zini anglash va o'zini namoyon qilish imkoniyatlari ko'p jihatdan uning ma'naviy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu ehtiyojlarning ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilishi jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga, fuqarolik ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy insonning hayotida turli ma'naviy ehtiyojlar – o'zini anglash, axloqiy asoslarda yashash, estetik zavqlanish, diniy e'tiqod, tarixiy xotira, milliy o'zlik va intellektual rivojlanishga bo'lgan talab – tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli, ma'naviy ehtiyojlarning ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilishi nafaqat falsafiy, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv jarayonida yot mafkuralarning kuchayishi, individualizmning o'sishi, ma'naviy relyativizmning kengayishi kabi tahdidlar fonida, insonni o'z milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq holda tarbiyalash, ularning ma'naviy ehtiyojlarini to'g'ri yo'naltirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Inson hayotining mazmuni faqat moddiy manfaatlar bilan cheklanib qolmaydi. Shaxsning ma'naviy-ruhiy dunyosi, uning ichki olami, estetik va axloqiy qadriyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu jihatlar bilan bog'liq holda "ma'naviy ehtiyoj" tushunchasi yuzaga keladi. Ma'naviy ehtiyojlar – bu insonning o'zligini anglash, mavjudlik ma'nosini topish, axloqiy-estetik qadriyatlar asosida yashashga bo'lgan ichki intilishidir.

A.Mavrulovning fikricha, yoshlar ma'naviy ehtiyojini rivojlantirish uchun quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratmoq kerak: Birinchidan, shaxs ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun uni o'rganish lozim, Ya'ni, yoshlar o'z ma'naviy bilim

saviyasini oshirishga o'zlarida ehtiyoj sezyaptilarmi, yo yo'q? Buni anglab yetmasdan maqsadga erishish mumkin emas.

Ikkinchidan, ma'naviy ehtiyojni bir zarb bilan rivojlantirish mumkin emas.

Uchinchidan, ma'naviy ehtiyojni rivojlantirish uchun har bir fuqaroda ziyolilik sifatlarini oshirish talab qilinadi. Ziyoli faqat diplomli, yuksak lavozimli kishi emas. Ziyoli, shu bilan birga ma'rifatli, kishilarga nur tarqatuvchi, ongini yorituvchi insonlardir. Bundaylar mamlakatimizda juda ko'p [1, 80-b].

Ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha psixologik, falsafiy, sotsiologik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi. Falsafa fanida ma'naviy ehtiyojlar insonning mavjudot sifatida o'zini anglash, hayot mazmunini izlash, go'zallik va haqiqatga intilish kabi jarayonlar orqali ifodalanadi. Psixologiyada esa bu ehtiyojlar shaxsning o'z-o'zini ro'yobga chiqarishga bo'lgan ehtiyoji sifatida baholanadi.

Masalan, E.Fromm fikricha, inson o'zining ichki bo'shligini to'ldirish uchun ma'naviy qadriyatlarni izlaydi. U bu ehtiyojlarni "ontologik iztirob" deb ataydi va ularni insonning mavjudot sifatida yakkalanganligi bilan bog'laydi [2, 352-b]. Viktor Frankl esa ma'naviy ehtiyojlarni "hayot ma'nosi"ga intilish bilan izohlaydi. U insonni mazmunli hayot izlashga undovchi kuchni logoterapiya asosiga qo'ygan [3, 178-b].

Ma'naviy ehtiyojlar inson tabiati bilan ajralmas bog'liqdir. Inson biologik mavjudot sifatida fiziologik ehtiyojlarga ega bo'lsa-da, uni jamiyatning faol subyekti sifatida ajratib turadigan asosiy xususiyati – bu ma'naviy ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar orqali inson o'z shaxsiyatini, jamiyatdagi o'rnini, tarixiy va madaniy meros bilan bog'liqligini anglaydi.

Ilmiy doiralarda inson tabiatining ikki tomonlama – biologik va ijtimoiy-ma'naviy jihatlari mavjudligi qayd etiladi. Masalan, A.N.Leontevning faoliyat nazariyasida ehtiyojlar faoliyatni tashkil etuvchi asosiy mexanizm sifatida talqin qilinadi. Unga ko'ra, ehtiyojlar va motivlar inson ongli harakatlarining ichki determinanti bo'lib xizmat qiladi [4, 304-b]. Aynan ma'naviy ehtiyojlar insonda

maqsadga yo'naltirilgan, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan faoliyatlarni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, ma'naviy ehtiyojlar insonni o'z-o'zini anglash, o'z ustida ishlash, ichki uyg'unlik va muvozanatni topishga undaydi. Psixolog A.Adler fikricha, insonning asosiy motivatsion kuchi – bu jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishdir, bu esa ma'naviy ehtiyojlarning muhim ko'rinishidir [5, 220-b].

Zamonaviy psixologik va sotsiologik tadqiqotlarda ehtiyojlar motivatsion tizimning asosi sifatida baholanadi. Ayniqsa, A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bu borada muhim asos bo'lib xizmat qiladi [6, 250-b].

Yana bir muhim nazariy yondashuv – bu K.Rojersning shaxsiy rivojlanish konsepsiyasidir. Unga ko'ra, har bir insonda “samoaktualizatsiya”ga – o'zini mukammallashtirishga intilish mavjud. Ushbu jarayon davomida inson ma'naviy qadriyatlarga tayanadi, o'z hayot falsafasini shakllantiradi, ichki uyg'unlikni izlaydi. Rogers insonning ijobiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy kuch sifatida ma'naviy ehtiyojlarni ko'rsatadi [7, 250-b].

Shuningdek, V.Franklning logoterapiya nazariyasida ham ma'naviy ehtiyojlar markaziy o'rinda turadi. U insonni “hayot ma'nosi mavjud bo'lishiga ishonadigan mavjudot” sifatida ta'riflaydi [8, 368-b]. Hayot ma'nosiga ehtiyoj – bu insonning eng chuqur va eng barqaror ehtiyojidir. Frankl bu ehtiyojni qondirishni inson salomatligining, psixologik barqarorligining garovi sifatida baholaydi.

Ma'naviy ehtiyojlar hech qachon bo'shliqda shakllanmaydi. Ular har doim muayyan madaniy muhitda, milliy qadriyatlar, diniy e'tiqodlar va tarixiy tajriba asosida rivojlanadi. Shu bois, bu ehtiyojlarni o'rganishda madaniyatshunoslik yondashuvi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniyatshunos olim Klifford Girts fikricha, inson – bu ma'naviy va madaniy ramzlar tizimida yashaydigan mavjudotdir [9, 560-b]. Demak, ma'naviy ehtiyojlar ham ramziy shakllar orqali namoyon bo'ladi: san'at, din, axloq, adabiyot, til, rasm-rusumlar va boshqalar. Bu ehtiyojlarning mazmuni har bir jamiyatda o'ziga xos shakllarda ifodalanadi.

O'zbekiston sharoitida milliy ma'naviyat, qadriyatlar, urf-odatlar, ajdodlar merosi – bularning barchasi aholi ma'naviy ehtiyojlarining shakllanishida va rivojida muhim omillardir. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “ma'naviyat – bu millatning yuragi, jamiyatning eng muhim tayanchi” [14]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, ma'naviy ehtiyojlar faqat shaxsiy darajadagi holat bo'lmasdan, umummilliy taraqqiyot mezonini sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ma'naviy ehtiyojlar – bu insoniy mavjudlikning eng yuqori shakllaridan biri bo'lib, shaxsning o'zini anglash, hayot mazmunini topish, madaniy va axloqiy qadriyatlarga intilishi orqali ifodalanadi. Ushbu ehtiyojlarni chuqur tushunish va ularga ilmiy asosda yondashish jamiyat taraqqiyoti uchun zarurdir.

Ma'naviy ehtiyojlar tabiiy emas, balki sotsiomadaniy jihatdan shakllanadigan ijtimoiy konstruksiyadir. Ular insoniyat tarixida muayyan madaniy, diniy, ijtimoiy, axloqiy va mafkuraviy shart-sharoitlar asosida vujudga keladi. Shunday ekan, har bir jamiyatda ushbu ehtiyojlarning mazmuni, ifoda shakli va qondirilish usullari o'ziga xos bo'ladi.

Sotsiologik yondashuvda ma'naviy ehtiyojlar ijtimoiy institutlar – oila, maktab, din, ommaviy madaniyat, ijtimoiy guruhlar va shaxsiy tajriba orqali shakllanadi. P.Berger va T.Lukman [10, 323-b] kabi olimlarning “ijtimoiy haqiqatni konstruksiya qilish” nazariyasida qayd etilishicha, inson hayotiy tajribalarni ijtimoiy muhit orqali talqin qiladi va o'z ehtiyojlarini shu kontekstda shakllantiradi.

O'zbekiston jamiyatida milliy qadriyatlar, diniy an'analar va tarixiy xotiraning kuchli ta'siri borligi sababli ma'naviy ehtiyojlar ham avloddan avlodga ko'chadigan axloqiy-ma'naviy andozalarga tayangan holda shakllanadi. Masalan, qadimdan “halollik”, “vijdon”, “mehmondo'stlik”, “or-nomus” kabi tushunchalar ma'naviy ehtiyojlar tizimida asosiy o'rin tutgan.

Oila – bu shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvi sodir bo'ladigan muhitdir. U bola dunyoqarashining, qadriyatlar tizimining, axloqiy qarashlarining, ehtiyojlarining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, oiladagi

axloqiy munosabatlar, diniy rasm-rusumlar, madaniy marosimlar va o'zaro hurmat tuyg'usi orqali bola ma'naviyat dunyosiga kirib boradi.

Oila "sotsial o'quv" muhiti sifatida qaraladi. A.Banduraning ijtimoiy ta'lim nazariyasiga ko'ra, inson muhitdagi xatti-harakatlarni kuzatish, modellashtirish va taqlid qilish orqali o'zining ichki ehtiyoj, qadriyatlarini shakllantiradi [11, 320-b]. Bu esa demak, ota-ona, bobo-buvilar, opa-singil yoki aka-ukalarning ijtimoiy modeli bolaning ma'naviy ehtiyojlari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ko'plab sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ota-onaning madaniy saviyasi, diniy dunyoqarashi, kitobxonligi va umumiy ma'naviy-madaniy darajasi bolaning keyingi hayotidagi ma'naviy ehtiyojlariga bevosita ta'sir qiladi.

Ta'lim tizimi – jamiyat tomonidan shakllantirilgan rasmiy institut bo'lib, yosh avlodga faqat bilim emas, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni ham singdiradi. O'zbekistonda ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga alohida e'tibor qaratilishi bejiz emas. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" tamoyili aynan maktabdan boshlanadigan ideologik ishlarga asos bo'lib xizmat qiladi.

Diniy e'tiqod inson hayotining eng chuqur motivatsion qatlamlaridan biridir. Dinning ma'naviy ehtiyojlar bilan aloqasi bevosita bo'lib, u axloqiy, ruhiy, estetik va metafizik ehtiyojlarni qondirishning muhim manbai hisoblanadi. Dinning axloqiy-etik normalari shaxsiy va ijtimoiy hayotda tartib, muvozanat va ma'naviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Sotsiolog M.Veber ta'kidlaganidek, din inson xatti-harakatlariga ma'no beradi, ularni "muqaddas" deb belgilaydi va shu orqali shaxs motivatsiyasini shakllantiradi [12, 445-b]. Din doirasidagi ibodatlar, rasm-rusumlar va ijtimoiy marosimlar orqali inson o'zining ruhiy ehtiyojlarini ifoda etadi va ularni jamiyat kontekstida mustahkamlaydi.

O'zbek xalqi tarixan islom dini asosidagi ma'naviy tizimni qabul qilgan bo'lib, bu tizim o'zining murakkab axloqiy, estetik va ijtimoiy normalari orqali milliy ma'naviyatning poydevoriga aylangan. Qur'on, Hadis, tasavvuf adabiyoti va mutafakkirlar asarlari (Al-G'azoliy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy,

Imom Buxoriy va b.) O'zbekiston xalqlarining ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda muhim manbalar bo'lib xizmat qilgan.

Ma'naviy ehtiyojlar shakllanishida milliy qadriyatlar – tarixiy xotira, madaniy meros, urf-odatlar, milliy g'urur va o'zlikni anglash kabi omillar asosiy o'rinni egallaydi. Bu qadriyatlar jamiyat a'zolarining o'z tarixiga, ajdodlariga, millat va Vatanga bo'lgan e'tiborini mustahkamlovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy identiklik nazariyalariga ko'ra (E.Xobsbawm, A.Smit), xalqning umumiy tarixiy xotirasi va ramziy merosi uning hozirgi va kelajakdagi ma'naviy ehtiyojlarini belgilaydi. Masalan, O'zbekistonda Alisher Navoiy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Yassaviy kabi tarixiy shaxslar va ularning merosi fuqarolarda ma'naviy g'urur, estetik zavq, tarixiy ong, milliy birlik kabi ehtiyojlarning uyg'onishiga turtki beradi.

Bu jarayon ayniqsa, madaniyat muassasalari – muzeylar, kutubxonalar, teatrlar, madaniyat markazlari orqali faol ravishda qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, "Milliy qadriyatlar va yoshlar" mavzusidagi loyihalar va targ'ibot ishlari yoshlarning ichki ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Ma'naviy ehtiyojlar biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy shart-sharoitda shakllanadi. Oila – bu ehtiyojlarning birlamchi manbai, ta'lim – ularni rasmiylashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi muhitdir. Din – ruhiy va axloqiy ehtiyojlarni chuqur qondiruvchi manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar va tarixiy xotira – shaxsning o'zligiga bo'lgan ehtiyojini uyg'otuvchi asosiy omillardandir.

Bu omillarni har tomonlama o'rganish va rivojlantirish orqali jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit va ma'naviy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Shaxsning rivojlanishi uzluksiz va bosqichma-bosqich kechadigan murakkab jarayon bo'lib, uning har bir bosqichida ehtiyojlar tizimi ham o'zgaradi. Bu

o'zgarishlar ichida ma'naviy ehtiyojlar shaxsiy identiklik, axloqiy me'yorlar, o'z-o'zini anglash va ijodiy namoyon qilish jarayonlari bilan bog'liq holda rivojlanadi.

Erik Eriksonning "psixosotsial rivojlanish nazariyasi"ga ko'ra, har bir yosh bosqichida inson ma'naviy-axloqiy sinovdan o'tadi [13, 338-p]. Erikson fikricha, agar bu bosqichlarda shaxs ma'naviy ehtiyojlarini yetarli darajada qondira olsa, ichki muvozanatga erishadi. Aks holda, shaxsda beqarorlik, iztirob va ijtimoiy yakkalanish holatlari paydo bo'ladi.

Shuningdek, K.Yung ta'kidlashicha, inson umrining ikkinchi yarmida ruhiy kamolotga, ma'naviy uyg'unlikka, "individuatsiya"ga intilish kuchayadi. Bu holat ma'naviy ehtiyojlarning hayot davomida ortib boruvchi xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Viktor Frankl o'zining logoterapiya nazariyasida insondagi eng asosiy ehtiyoj – bu hayot ma'nosini izlash ekanligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, insonning hayotdagi barcha harakatlari, intilishlari ma'naviy asosga ega bo'lishi, ya'ni maqsadli va mazmunli bo'lishi kerak. Bu holda inson o'zini jamiyatda to'la shakllantira oladi.

Ma'naviy ehtiyojlar shaxsiy identikligimizga asos yaratadi. "Men kimman?" degan savolga berilgan javobda inson o'z millati, dini, qadriyatlari, tiliga bo'lgan munosabatini ifoda etadi. Bu esa o'z navbatida identiklik nazariyalarida "ma'naviy identiklik" tushunchasining asosini tashkil etadi.

Ijod inson tabiatining eng yuksak ifodasi bo'lib, u insonning ma'naviy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir. Badiiy ijod, musiqa, teatr, adabiyot, diniy-falsafiy tafakkur – bularning barchasi shaxsning ichki dunyosini ifoda etish vositalaridir. Ijod orqali inson o'zining estetik ehtiyojlarini, mavjudot haqidagi falsafiy qarashlarini, ichki sezgi va kechinmalarini ifodalaydi.

O'zbek adabiyoti, san'ati va musiqa merosi orqali xalqimiz o'z ma'naviy ehtiyojlarini asrlar davomida ifoda qilib kelgan. Alisher Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Mashrab kabi allomalar asarlarida faqat estetik zavq emas, balki ma'naviy izlanish, axloqiy tozalikka intilish, ruhiy yuksalish kabi ehtiyojlar aks etadi.

Shu jihatdan, ijod insonning ichki olami, intellekti va ruhiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa uning ijtimoiy faoliyatida, kasbiy o'qishda, jamiyatdagi pozitsiyasini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda "ijodiy iqtisodiyot" atamasi ham aynan insonning ma'naviy salohiyatiga asoslangan iqtisodiy jarayonlarni anglatadi.

Ma'naviy ehtiyojlar qondirilmagan holatda inson ruhiy beqarorlik, psixologik iztirob, hayotdan norozilik kabi holatlarga duch keladi. Zamonaviy psixologiyada bu holat "ekzistensial bo'shliq", "ma'nosizlik sindromi" deb yuritiladi.

V.Frankl fikricha, o'z hayoti ma'nosini topa olmagan inson nevrotik xatti-harakatlarga, depressiyaga moyil bo'ladi. Bu holatni davolashning asosiy yo'li – bu shaxsga ma'naviy maqsad, hayotiy ma'no, ijtimoiy missiya topib berishdir. Shu sababli, zamonaviy psixologiyada logoterapiya yo'nalishi aynan inson ma'naviy ehtiyojlariga e'tibor qaratadi.

Ma'naviy ehtiyojlar bilan uyg'un yashash insonda ichki uyg'unlik, ruhiy barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy qat'iyatlik, ijodiy kuch va samimiyat hosil qiladi. Ushbu fazilatlar shaxs taraqqiyotining barqaror va sog'lom asosda kechishini ta'minlaydi.

Insoniyat taraqqiyoti jarayonida ma'naviy ehtiyojlar doimiy rivojlanib, murakkablashib, turli omillar ta'sirida shakllanib boradi. Inson tabiatining ajralmas bir qismi sifatida, ma'naviy ehtiyojlar o'z mohiyati bilan moddiy hayot ustidan nazorat va yuksaklikni ta'minlovchi asosiy ijtimoiy-psixologik va madaniy unsur hisoblanadi.

Ma'naviy ehtiyojlar – ko'p qatlamli va murakkab tizimdir. Ular shaxsning axloqiy, estetik, diniy, madaniy, falsafiy, intellektual ehtiyojlarini o'z ichiga olgan holda, ijtimoiy hayot sharoitiga mos ravishda rivojlanadi. Mazkur ehtiyojlarning asosida insonning o'zini anglash, jamiyatda o'z o'rnini topish va hayotning ma'nosini izlash yotadi. Ma'naviy ehtiyojlarning shakllanishida tarixiy-madaniy kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir davr, har bir xalq, har bir madaniyat

insonda ma'lum turdagi ma'naviy ehtiyojlarni shakllantiradi. Ayniqsa, o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy merosi – bu ehtiyojlar tizimini barpo etishda asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida ma'naviy ehtiyojlar evolyutsiyasi kuzatiladi. Agrar jamiyatdan sanoat, so'ngra axborot jamiyatiga o'tish inson ma'naviy ehtiyojlarining ko'lamini kengaytirdi. Endilikda bunday ehtiyojlar shaxsiy rivojlanish, global ong, ekologik tafakkur, sun'iy intellekt bilan muloqot kabi zamonaviy komponentlar bilan boyimoqda. Globallashuv jarayonlari va raqamli inqilob ma'naviy ehtiyojlarga ikkiyoqlama ta'sir qilmoqda: bir tomondan, axborotga erkin kirish va ma'naviy izlanish imkoniyatini oshirsa, ikkinchi tomondan, yot mafkuralar, axloqiy relyativizm va shaxsiy izolyatsiyaga olib keladigan tahdidlarni ham kuchaytirmoqda.

Madaniyat muassasalarini (muzey, kutubxona, teatr, san'at maktablari) shaxs ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi faol subyektga aylantirish va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'naviy sohadagi salohiyatini oshirish uchun "madaniy maslahat kengashlari" tashkil etish va yoshlar orasida milliy va diniy qadriyatlarga asoslangan "ma'naviy volontyorlik" harakatlarini rivojlantirish lozim. Insoniyat texnologik jihatdan har qancha yuksak taraqqiy etmasin, uning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlari baribir dolzarbligicha qoladi. Bu ehtiyojlar shaxs va jamiyatning bir-biriga nisbatan mas'uliyatini kuchaytiruvchi, maqsadga intiltiruvchi va ruhiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omildir.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Mavrulov A. *Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 80 b.
2. Фромм Э. *Революция надежды. Избавление от иллюзий*. – Москва: Айрис-пресс, 2005. – 352 с.

3. Франкл В. Человек в поисках смысла: Сборник: Пер. с англ. и нем. / Общ. ред. Л.Я.Гозмана и Д.А.Леонтьева; вст. ст. Д.А.Леонтьева.. – Москва: Прогресс, 1990. – 178 с.
4. Леонтьев А. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.
5. Адлер А. Очерки по индивидуальной психологии. Пер. с нем. – Москва: Когито-Центр, 2002. – 220 с.
6. Маслоу А. Мотивация и личность. 3-е изд. / Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2019. – 400 с.
7. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. Москва: Прогресс, 1994. – 250 с.
8. Франкл В. Человек в поисках смысла: Сборник: Пер. с англ. и нем. / Общ. ред. Л.Я.Гозмана и Д.А.Леонтьева; вст. ст. Д.А.Леонтьева. – Москва: Прогресс, 1990. – 368 с.
9. Гириц К. Интерпретация культур / Пер. с англ. – Москва: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2004. – 560 с.
10. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. / Пер. Е.Д.Руткевич. – Москва: Медиум, 1995. – 323 с.
11. Бандура А. Теория социального научения. – СПб.: Евразия, 2000. – 320 с.
12. Вебер М. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии. 4 т. общ. ред. и предисл. Л.Г.Ионина – Москва: Изд. дом Высшей школы экономики, 2016. – 445 с.
13. Erik Erikson - Identity Youth and Crisis. New York: London: Norton, 1968. – 338 с.
14. <https://oyina.uz/uz/posts/25644>

**Sherali Qo'ldashev**

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi,  
dotsent, tarix fanlari doktori  
E-mail: sherali.kuldashev@mail.ru*

## **G'URUMSAROY KULOLCHILIK SAN'ATIDAGI O'ZIGA XOS AN'ANALAR**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada G'urumsaroy kulolchilik san'atining o'ziga xos an'analari hamda kulol ustalarning tajribasi tahlil qilinadi. Xususan, barkash, nimbarkash, nimtavoq, kaymokdon, kosa, piyola, qo'shquloq va katta kuzalagancha kabi an'anaviy kulolchilik buyumlarining rang uyg'unligi va bezak xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda G'urumsaroy kulolchiligining o'ziga xos jihatlari – oq va ko'k ranglar uyg'unligi, bezak elementlari, zoomorf va o'simliksimon naqshlar tahlil etiladi. Shuningdek, ushbu kulolchilik maktabiga xos an'anaviy texnikalarning hozirgi kunda ham ustalar tomonidan keng qo'llanilayotgani, tabiiy xom ashyo va bo'yoqlardan foydalanish an'analari saqlanib qolayotgani asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** kulolchilik san'ati, G'urumsaroy kulolchiligi, keramika an'analari, bezak motivlari, rang uyg'unligi, hunarmandchilik, madaniy meros.*

## **DISTINCTIVE TRADITIONS IN THE POTTERY ART OF GURUMSARAY**

***Abstract.** This article examines the traditions of Gurumsaray pottery and the experience of master potters. Particular attention is given to traditional ceramic products such as barkash, nimbarkash, nimtavoq, kaymokdan, kasa, piyala, koskulak, and kata kuzalagancha, which are known for their clarity and harmony of colors. The study analyzes the distinctive features of Gurumsaray pottery, including white and blue patterns, decorative elements, and the use of zoomorphic and vegetal motifs. It also demonstrates that traditional techniques of this pottery school are widely preserved and developed by contemporary artisans, with a continued reliance on natural raw materials and pigments.*

**Keywords:** *pottery art, Gurumsaray pottery, ceramic traditions, decorative motifs, color patterns, craftsmanship, cultural heritage.*

O'zbek xalqining o'ziga xos qadimiy an'alariga ega bo'lgan Kattabog', Shahrisabz, G'ijduvon, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Toshkent, Rishton, Andijon singari kulolchilik markazlari bilan bir qatorda o'zining tabiiy ishqorli sopol buyumlari bilan mashhur bo'lgan G'urumsaroy kulolchilik markazi an'alarini qayta tiklash jarayonini boshidan o'tkazmoqda.

Farg'ona vodiysida Rishton kulolchilaridan keyin, G'urumsaroy kulolchilik maktabi mashhur bo'lgan. Unga shu qishloqlik Usta Kulol Kuhiy taxminan 1700-yillarda asos slogan [5, 62-b]. Bunga qishloq tuprog'ining tozaligi, olovga o'ta chidamliligi, havosini chang emasligi bilan bir qatorda qishloq atrofidagi tog' va tog'oldi hududlaridagi o'sadigan, kulolchilikda tabiiy sir olinadigan qirqbo'g'in, gulak nomli o'simliklar ham muhim ahamiyatga ega edi. Shuningdek, Chodaksoy bo'ylaridagi toshlardan olinadigan tabiiy bo'yoqlar ham G'urumsaroy kulolchilik markazining boshqa markazlardan ajralib turishiga olib kelgan. G'urumsaroy kulollarining mahsulotlari hisoblanmish barkash, nimbarkash, nimtavoq, qaymoqdon, kosa, piyola, qo'shquloq, katta ko'zalagancha kabi buyumlarining bejirimligi, ranglarining tiniqligi bilan mashhur bo'lgan. G'urumsaroy sopol buyumlari o'zining oq-moviy, oq-ko'k tUSDagi naqsh, bezaklari, zoomorf va o'simliksimon unsurlar qo'llanishi bilan ajralib turgan. G'urumsaroy kulolchiligi san'atining o'ziga xos bo'lgan barcha uslublari hozirda usta kulollar tomonidan keng qo'llaniladi. Ushbu maktabda asosan tabiiy xomashyo va ranglardan foydalanilgan holda ish bajariladi. Buyumlarga naqsh berishda asosan gullar va geometrik shakllar ishlatiladi. Xususan, idishlar naqshida gullarning "Chorbarg", "Gajjaklar", "Tuya ko'z", "Bodomcha", "Larzana", "Ilon yo'li" kabi namunalari ko'p uchraydi.

Usta Kukining avlodlaridan biri Mullo Shermuhammad Muhammad Murod o'g'li el orasida "kulol domla", "tovoqchi qori" nomlari bilan mashhur bo'lgan. U

inson 1890-yilda Pop tumani G'urumsaroy qishlog'ida tavallud topgan. Dastlab G'urumsaroy masjididagi imom domladan savod chiqarib, keyin Qo'qonga kelib, bir muddat Jome madrasasida ta'lim olgan. Otalari vafot etgach, G'urumsaroyga qaytishga majbur bo'lgan. Mullo Shermuhammad Toshxon ismli singillari bilan yolg'iz yashab, otalaridan meros qolgan kulolchilik bilan shug'ullanganlar. Keyinchalik singillarini bir namozxon kishiga uzatib, Qo'qonga kelib, tahsilni davom ettirganlar. Kulolchilikni tashlab, Jome masjidida imomlik qilganlar. U kishi haqida, Muhammad Yahyoxon Xo'qandiy shunday yozgan: "Bo'ylari o'rtadan balandroq, oq yuzli, o'zlariga yarashgan oq sallali, odob-tavozeli, shu bilan birga, qat'iyatli, cho'rtkesar zot edilar. Taqdir taqozosi bilan bir qancha muddat Qo'qondagi Taroqchilik mahallasida istiqomat qilib turganlarida ko'rishga muyassar bo'lganmiz. U paytda yosh bo'lganimiz uchun suhbatlarini ololmaganmiz. Ammo, u kishiga salom berishga ishqiboz edik. Kulol domla ilmiy faoliyatlari doirasi keng bo'lib, ayniqsa, tafsir va fiqh borasida kuchli edilar. U kishini ko'rgan zamondoshlari va avlodlari e'tiroflariga ko'ra, domladan fatvo, rivoyat olish, masala yechimini topish uchun O'rta Osiyoning turli joylaridan ahli ilmlar kelib turar, shu jumladan, Ziyovuddin qori Eshon Boboxon o'g'illari ham biror fiqhiy masala yechimi bahonasida ziyorat qilib ketar ekanlar. Nabiralarning so'zlariga ko'ra, toshkentlik Saidkarim qori, Hoji domla Hindistoniy hazratlari ham ishtirok etgan bir anjumanda Kulol domla bir qancha suralarni tafsir qilib berib, bir uy odamni yig'latgan ekanlar. Voizlikda ham nuqtadon bo'lganliklari naql etiladi. Asosiy tirikchilik manbalari kulolchilik edi. u kishi san'at yo'nalishida emas, balki keng xalq iste'mol buyumlari: kosa, tovoq, piyola, xum, xumcha, xurma, lapaq, ko'za, obdasta, tandir, sopol quvur, tarnov tayyorlash bo'yicha ish olib borardilar. Tayyor mahsulotlarni o'g'illari bozorga olib chiqib sotib kelganlar. Ilmda ham shogirdlari ko'p edi. Farg'ona vodiysi va Toshkentning ko'pgina ilm ahillari u kishini o'zlariga ustoz deb bilar edilar. Marhum ahli ilmlardan No'monxon to'ra, Nasriddin oxund, Mubashshirxon qori hamda hozirda hayot mashhur ahli ilmlardan Huyrulloxon qori domla, Hoshimxon qori domla,

shahrimizning bosh imom-xatiblari Abdulmajidxon hoji u kishining iste'dodli shogirdlari edilar. Mullo Shermuhammad 1983-yilda to'qson uch yoshda vafot etdilar. Janoza namozlarini Pirimquli maxzum o'qidilar. Katta izdihom bilan katta qabristonga dafn etildilar. O'g'il farzandlari:

1. Abdulhamid maxzum hunarmand, vafotlari 1996-y.
2. Abdulhafiz mahzum alloma, imom, kulol, vafotlari 2008-y.
3. Abdulmajid hunarmand, vafotlari 2007-y.
4. Abduolim savdo xodimi, imom, alloma, vafotlari 2010-y. Qarindoshlari

Abdulatif Turdaliev filologiya fanlari nomzodi bo'lib, 1989-yildan beri Qo'qondagi Adabiyot muzeyida faoliyat olib bormoqda" [4, 295-b]. G'urumsaroylik usta kulol Sotimov ham mashhur insonlardan biridir.

"Hakim tovoqchi" yoki "Hokim buva" nomi bilan mashhur Hokim Sotimov 1902-yil 10-mayda G'urumsaroy qishlog'ida tug'ilgan. Uning yasagan kulolchilik buyumlari hozirda Rossiya, Germaniya, Fransiya, Avstraliya, Chexoslovakiya, Yugoslaviya kabi davlatlarning muzeylarida saqlanadi. U 1974-yilda sobiq ittifoq rassomlar uyushmasi a'zosi bo'lgan. Uning ishlarining davomchisi Vohobjon Buvaevning fikricha, "Usta ishlarining o'ziga xos tomonlari u yasagan buyumlarining shakli jihatidan kattaligi, naqshlarining yo'g'on olinishi va ranglarining to'q holatda qo'llashida namoyon bo'ladi. U ko'proq barkash, xum, ko'za, xurma, damtovoq kabi katta hajmli buyumlar yasagan. Pishirish uslubida esa uzoq muddat davomida o't qalashi bilan ajralib turgan" [2, 707-b].

San'atshunos olim, akademik Akbar Hakimovning yozishicha, "G'urumsaroyda 1960–1980-yillarda ustalar T.Shermatov, H.Sotimov, M.Rahimov, M.Turopov va boshqalar ishlagan" [8, 448-b]. Tadqiqotchi S.Aliyevaning yozishicha bu davrda G'urumsaroy kulolchilik markazida jami 14 nafar kulol faoliyat olib borganligini yozgan [1, 128-b]. XX asrning 70-yillarida qishloqda uch usta – Mahmud tovoqchi Rahimov (1928-1993), Maqsudali tovoqchi Turpov, Hakim Sotimovning o'g'li Hayitboy Hakimovlar faoliyat olib borganlar.

Mahmudjon Rahimov kulolchilikda “G‘urumsaroy moviy keramikasi” maktabi sifatida e’tirof etilgan. Bu kulolning yasagan buyumlari naqsh kompozitsiyasi aniqligi bilan ajralib turadi. Tovoqlaridagi naqsh kompozitsiyasini uchta asosiy guruhga ajratib olish mumkin:

1. Ikki yonida novda tasvirlangan qumg‘on tasviri.
2. Xochisimon katta naqsh.
3. Uncha katta bo‘lmagan chorbarg.

Ustaning bu buyumlari o‘zining har xil shakli bilan ajralib turadi. Buyumlari an’anaviy tarzda ishlangan bo‘lib, bir qarashda yangilik sezilmaydi, biroq o‘ziga xoslik sezilib turadi [2, 709-b]. Shu bois, uning bu boradagi yangiligi mutaxassislar tomonidan yuqori baholanib, O‘zbekiston keramikasining eng yaxshi namunasi sifatida Italiyaning Fazine shahridagi muzeyga qo‘yilgan.

Mahmud tovoqchi Rahimovning asarlari uchun bezakning monumental oydinligi va soddaligi o‘ziga xosdir. Bu buyumlarning motivlar doirasi cheklangan, kompozitsiyalari juda oddiy va ko‘p qavatli sxemalar yo‘q. Faqatgina markaziy qismida va yon tomondagi hoshiyalarida naqshlar chizilgan. Yuzali kulolchilik buyumlarining markaziy qismida asosan uchta motiv varatsiyalarni uchratamiz: qumg‘on yoki choydosh, chorbarg va uchlari kengayib boruvchi butsimon naqsh tasvirlari, hoshiya ornamentlarining ko‘rinish ham ko‘p emas. Shunga qaramay bu asarlar katta jozibaga ega. Ular nafis zangori kolorit go‘zalligi bilan ham, idish va kosalar shaklida nihoyatda uzviy ravishda birlashib ketgan odmi naqshning kamsuqumliligi bilan ham o‘ziga jalb qiladi. Turg‘un motivlardan mohirona foydalanganlikda ustaning mahorati namoyon bo‘lgan. Moviy rangli bo‘yoqni olishda xalq orasida “baliq ko‘zi” nomi bilan mashhur gulak va qirqbo‘g‘in o‘simliklarini qurimasdan, ya’ni nam holatda terib olinib, kuydiriladi. O‘simlik kulini oqtosh bilan 70/30 foiz nisbatda aralashtirilib, aralashmani xumdonda 900–1100 darajadagi issiqlik yordamida eritish asosida tabiiy sir hosil qilib olinadi. Hosil qilingan tabiiy sir qattiq massadan iborat bo‘lganligi bois, uni soydan olinadigan silliq xarsangtosh yordamida maydalab, eziladi. Ezilgan tabiiy sirni

tegirmon toshi yordamida yana-da mayin, kukun holatiga keltiriladi. Hosil bo'lgan tabiiy sir elakdan o'tkaziladi. Elakdan o'tgan mayin kukun suvga solinib, unga ohak qo'shiladi hamda suyuq holatga keltiriladi. Tayyor bo'lgan suyuq qorishma bezak berilgan sopol buyumlarning yuzasiga quyiladi. Tabiiy ishqor yordamida oxirgi ishlovdan o'tgan sopol buyumlar ma'lum vaqt davomida selgitib, xumdonda pishiriladi. Shu tariqa G'urumsaroyning maftunkor sopol buyumlari tayyor holiga keladi [3, 29-b]. G'urumsaroy kulolchilik mahsulotlari ko'k va oq sut ranglar qo'llanishi bilan boshqalardan farq qiladi. Bu maktab kulollari Maqsudali kulol Turopov ham Mahmudjon tovoqchining qo'llangan uslublaridan foydalangan. U 1928-yilda G'urumsaroy qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, Hayitboy Hakimov bilan amakivachcha bo'lgan. Uning ishlarining o'ziga xos bo'lgan tomonlarini bezash va shakllarni tanlashdagi katta erkinlikda namoyon bo'lgan. U tayyorlagan diametri yarim metr keladigan mahalliy laganlar va qo'shquloqlar, o'rtacha hajmdagi kosa va yuzali idishlar yasagan. Bugungi kunda uning kulolchilik buyumlari Evropa hamda Amerika muzeylarida saqlanmoqda. 1997-yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasi a'zoliciga ega bo'lgan usta o'z sirlarini shogirdlariga ham o'rgatgan. U G'urumsaroy maktabini saqlab qolishga intilgan va shu bois, unga YUNESCO tomonidan "Jahon ustasi" sertifikatini berilgan. Maqsudali Turopov Mahmud Rahimovning ijodiga xos bo'lgan grafika, siluet usulidan voz kechgan va tasvirlashda mayin, rangtasvir-akvarelli talqindan foydalangan. Uning naqshlarida zangori tus jigarrang kontur doirasidan chiqib ketadi va oppoq fonda g'oyib bo'lgan. Qumg'on tagida zangori alanga tillariga o'xshab yer va o'tlarning allegorik tasvirlari ifodalanganligi tufayli tomoshabinda qumg'onning osmonda go'yo parvoz qilayotgan hissiy tuyg'ular paydo qiladi. G'urumsaroy sirlangan sopol buyumlarining shakllari xilma-xil bo'lib, katta hajmdagi lagan (tovoqi kalon), to'y lagan (to'y tovoq) eng mashhur bo'lgan. Shuningdek, G'urumsaroy sopol buyumlarini Rishton sirlangan buyumlaridan, ayniqsa, O'zbekistonning boshqa markazlaridan ajratib turadigan o'ziga xos badiiy xususiyati – o'ziga xos ko'zgu naqshidir, bunda naqshni bir vaqtning o'zida fon sifatida ham, bezak

sifatida ham namoyon bo'lishidir. "Bunday holda naqsh, turli rangdagi naqshlarning bir biriga kirib borish effekti yordamida yaratiladi – ko'k va oq naqshlar navbat bilan fon yoki naqsh vazifasini bajaradi. Bunday tuzilish negizida naqshning o'zaro nomutanosib, ko'zguli joylashgan unsurlari tamoyili yotadi [6, 88-b]. XX asrning 70-yillarida Rishton kulolchilik maktabi namoyandalaridan biri Sharif Yusupov G'urumsaroyga kelib g'urumsaroylik kulollarining ishlarini o'rgangan va bu uslubni o'zi ham qo'llab ko'rgan [7, 3-b]. Endilikda G'urumsaroy kulolchiligi an'analari M.Turopovning shogirdi Vahobjon Buvayev davom ettirmoqda va bu borada munosib hissa qo'shayotgan hunarmandlardan. Vahobjon Buvayev G'urumsaroy markazini ijodiy va tashkiliy jihatdan saqlab qolish uchun ko'p harakat qildi. Usta XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid noyob mahaliy buyumlar kolleksiyasini to'plab, G'urumsaroyning mumtoz qonuniyat tizimini o'rganib, ijodiy o'zlashtirmoqda. Asl an'analarga amal qilish zarurligini anglab, usta asta-sekin shaxsiy-ijodiy yangiliklarni namoyon etmoqda. Ular asosan buyumlarning shakllari va bezaklarning alohida unsurlarini talqin etish bilan bog'liqdir. O'rta hajmdagi laganlar, damtovoqlar, barkashlar va turli mayda idishlar – qaymoqdonlar, xumcha, sut uchun ko'zalar – ustaning sevimli shakllaridir. Sopol buyumlarni bezashda "to'rt bargli" (chorbarg), "bo'tsimon bezak", "xo'roz tizmasi" (gultoji xo'roz), "islimi gul", "to'rli naqsh" (chetan) yo'sinining turfa variantlarini unumli qo'llaydi. Buyum hoshiyalarini bezash uchun geometrik – "chetan", "taroki sangi" va o'simliksimon bezaklardan – "islimi barg", "xarroji barg" keng foydalanadi. Usta kulolchilikka qiziqqan yoshlarni atrofida birlashtirib, ularga ushbu maktab sir-asrorlarini qunt bilan o'rgatib kelmoqda. Xulosa qilib aytganda, G'urumsaroy kulolchilik san'ati o'zining boy an'analari, o'ziga xos uslublari va estetik jihatdan mukammal bezaklari bilan milliy madaniy merosimizning muhim qismi hisoblanadi. Ushbu maktabda yaratilgan keramika buyumlari ranglarning tiniqligi, naqshlarning nafisligi hamda zoomorf va o'simliksimon bezaklarning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qadimiy kulolchilik an'analari bugungi kunda ham ustoz-shogird

an'anasi asosida davom ettirilib, amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, tabiiy xomashyo va bo'yoqlardan foydalanish G'urumsaroy kulolchilik maktabining o'ziga xosligini saqlab qolishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois, mazkur san'at turini asrab-avaylash, uni ilmiy jihatdan o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Алиева С. *Художественная поливная керамика Узбекистана IX–начала XXI в.* – Ташкент: Санъат, 2009. – 220 с.
2. Buvayev V. *G'urumsaroy kulolchilik maktabi // "Oriental Art and kulture" Sientifi Methodial Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / Deember 2022.* – B. 701–709.
3. Jabbarov B. *G'urumsaroy kulolchilik markaziga xos bo'lgan texnologik jarayon // G'urumsaroy badiiy kulolchilik maktabi qadimiy an'analarini qayta tiklash va badiiy kulolchilik ta'lim yo'nalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlash istiqbollari mavzusidagi Xalqaro anjuman materiallari.* – Namangan, 2025. – B. 20–30.
4. Muhammad Yahyoxon *Ho'qandiy. Ho'qandiy latif manoqibi (Tazkira).* – Toshkent: Movarounnahr, 2018. – 524 b.
5. *O'zbekiston san'ati.* – Toshkent: Sharq, 2001. – 445 b.
6. Хакимов А. *Современное декоративное искусство республик Средней Азии (к проблеме традиций и новаторства).* – Ташкент: Издательство «Фан», 1988. – 120 с.
7. Хакимов А. *Керамики Гурумсарай: локальные особенности и судьба традиции // Гурумсарой бадий кулолчилик мактаби қадимий анъаналарини қайта тиклаш ва бадий кулолчилик таълим йўналишида юқори малакали кадрлар тайёрлаш истиқболлари мавзусидаги Халқаро анжуман материаллари.* – Наманган, 2025. – B. 3–8.
8. Hakimov A. *O'zbekiston hunarmandchiligi.* – Toshkent: Ochun, 2023. – 550 b.

## Qunduz Nishanbayeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasida  
dotsenti, tarix fanlari nomzodi  
E-mail: [qunduznishanbayeva@gmail.com](mailto:qunduznishanbayeva@gmail.com)

### MA'RIFAT QALDIRG'OCHLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligi, shuningdek xotin-qizlarning ta'lim, san'at, ilm-fan, ijtimoiy faollik va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashdagi ishtiroki bilan bog'liq jarayonlar jadid ma'rifatparvarlarining ushbu masalaga yondoshuvlari hamda bugungi kundagi ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy tajribalari keng yoritib berilgan. Shuningdek, jamiyatning madaniy ravnaqi va xotin-qizlar masalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan muammo ekanligi madaniyatshunoslik nuqtayi nazardan yoritilgandir.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, xotin-qizlar, madaniy ravnaq, ta'lim, san'at, ilm-fan, jadid ma'rifatparvarlari, ilk pedagoglar.

### HERALDS OF ENLIGHTENMENT

**Abstract.** This article highlights that in recent years in the Republic of Uzbekistan, increasing the role and status of women in society has become one of the priority directions of state policy. It also broadly covers the processes related to women's participation in education, art, science, social activity, and the preservation of national values, as well as the approaches of Jadid enlighteners to this issue and their historically significant experiences that remain relevant today. Furthermore, from a cultural studies perspective, it explains that the cultural development of society and women's issues are closely interconnected.

**Keywords:** Uzbekistan, women, cultural development, education, art, science, Jadid enlighteners, early educators.

Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida "xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

Ayollarni qo'llab-quvvatlash masalalarida davlat rahbarining bevosita tashabbusi bilan 30 dan ortiq farmon va qarorlar hamda hukumat qarorlari qabul qilinganligini qayd etib o'tish joiz. Birgina joriy yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi ijobiy jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega: birinchidan, oila va xotin-qizlar bilan professional tarzda ishlashga ixtisoslashtirilgan yangi davlat organi – oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etdi; ikkinchidan, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berildi; uchinchidan, xotin-qizlar bilan ishlashning yangi mexanizmi – mahallalarda xotin-qizlar bilan maqsadli va manzilli tartibda ishlash amaliyoti belgilab berildi; to'rtinchidan, xotin-qizlar

huquqlarini ta'minlash hamda ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida yangi huquqiy mexanizmlar – prokuratura organlarining ushbu sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorati joriy etildi; beshinchidan, xotin-qizlarga ta'lim olishlari, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun davlatning yangi kafolatlar va imtiyozlar paketi joriy etildi; oltinchidan, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning munosib turmush kechirishlariga ko'maklashishni nazarda tutuvchi amaldagi mexanizmlar takomillashtirildi; yettinchidan, xotin-qizlarning sog'lig'ini saqlash, xotin-qizlarga xos bo'lgan kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish, onalikni muhofaza qilishga qaratilgan yangi tizim joriy etildi; sakkizinchidan, xotin-qizlar bilan muloqot qilishning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda va muloqotning yangi, samarali platformalariga asos solindi.

“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmon bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur hamda milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Xotin-qizlarning bilim darajasini oshirish uchun keng tushuntirish ishlari olib boriladi, chunki ko'p muammolar (ajralishlar, uysizlik) bilim yetishmasligidan kelib chiqadi. Parlamentda ayollar ulushi BMT standartlariga yetdi, bu ularning madaniy va siyosiy rivojini ko'rsatadi.

“Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” milliy dasturida bandlik, salohiyatni ro'yobga chiqarish, oila va onalik himoyasi, qizlarni sog'lom tarbiyalash, milliy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga e'tibor kuchaytirilgan.

Gender nazariyasi asoschilaridan biri Simone de Beauvoir ayolning ijtimoiy maqomi biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy konstruktsiya ekanini ta'kidlab, “Ayol bo'lib tug'ilmaydi, balki ayolga aylanadi” degan g'oyani ilgari suradi. Ushbu fikr xotin-qizlar ijtimoiy-madaniy qiyofasi jamiyat tomonidan

shakllantirilishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Bu borada o'z davrida jadid ma'rifatparvarlari xotin-qizlar madaniy ravnaqini milliy taraqqiyotning strategik omili sifatida baholaganlar. Shu nuqtayi nazardan, jadidlar merosi bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda xotin-qizlar siyosati va madaniy rivojlanish konsepsiyalarining ilmiy-nazariy asoslaridan biri hisoblanadi Ular o'z qarashlari orqali ayollar ta'limi jamiyat taraqqiyotini; onalar ma'naviyatini; gender tengligi ijtimoiy barqarorlik kabi g'oyalarni ilgari suradilar.

Jadid ma'rifatparvarlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy fikricha: "Millatni isloh qilmoq uchun, avvalo, onalarni isloh qilmoq kerak" [1, 40-b], – deydi. Bu bilan adib ayollar ta'limi va ma'naviyati jamiyat islohotining bosh nuqtasi ekanligini ta'kidlasa, Abdurauf Fitrat esa "Bir millatning saodati ayollarning tarbiyasiga bog'liqdir" [2, 60-b] deb, ayollarning ma'naviy va intellektual darajasi millat kelajagini belgilashini alohida ta'kidlaydi.

Ma'rifatparvar jadidchilar orasida Salima Yoqubova va Mahfuza Maqsudovalarning "Muallimalik masalasi" deb nomlangan maqolasida keltirilishicha Turkistonlik ayollar uchun Yevropa usulidagi maktablar ochilishi, ularda muallimlik shahodatnomasi bo'lgan, alohida kurslardan o'tgan muallimlar dars berishgan. Ularga ma'lum miqdorda oyliklar belgilanishi kerakligi haqida mulohazalar bayon qilinadi [3]. Mualliflar Turkistonda ham xuddi yevropada bo'lganidek, xotin-qizlardan muallima tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari ochilishi masalasini qo'yadilar. Umuman, ayollarning ilmsizligi muammosi taraqqiyparvarlarni doimo tashvishlantirgan. Ular hatto boshqa musulmon davlatlarida bu holatning mavjudligini yoritishga harakat qilganlar. Jumladan, bir maqolada "Misr hududida 5 million 265 ming 250 nafar xotun borligi bilindi. Bularning yolg'uz 20 ming nafari, ya'ni yuz xotunga bir nafari o'qib va yozmoq bilur ekan. Alarningda ko'pi yevropali yoki nasoro arab xotunlaridur" [4, 72-b]. muallif "O'qimoq namozdek er va ayolg'a shar'an farz" ekanligini yana bir karra eslatadi. Bunday mazmundagi maqola Zahriddin Fathiddinzoda qalamiga mansub bo'lib. Unda xotin-qizlarning ilm o'rganishi va tarbiyasi xususida so'z boradi [5].

Ishoqxon Ibrat o'zining "Tarixi madaniyat" asarida ham qizlarni o'qitish borasida quyidagilarni yozgan: "ammoki, qizlar maktabig'a kelsak, bu qiyinroq ko'rinadur. Xalqni vahshiyot va ota-onalar qizlarini ehtiyot qilishi, odamg'a, bir yerga yubormasligi, xalqni ilm qudratini bilmagani, xusus, xotunlarda taassufga g'arq bo'lub, bular bu taassufni yo'qotishga ellik yillar kerak bo'lishi ko'runadur. Munga ham yo'llar tofsa bo'lurki, otunbibilarni erlari targ'ib qilsalar, muallimalarda bir-ikki oylar yozuv va hisoblarni bilib olub, andin so'ng o'zlarini mahallasiga otunbibilardan muallima qilib, oncha (ancha) muncha oylik berib tursalar. Bular vaqti-vaqti ila katta muallimatefasi (tepa)dan qarab tursa, besh-o'n yillar ichinda har qishloqda besh-o'n muallima tayyor bo'lishini umid qilsa bo'lur. Ammoki, hozirdan darhol muallimag'a bor deganda, xotunlar ko'b bo'lmagan so'zlarni ayturlar" [6, 137-b]. Jadidlar oila va jamiyatda o'qimishli ayolning o'rni hamda mavqeyi o'zgacha ekanligini tushuntirishga harakat qilganlar. Bu haqda manbalardan quyidagilarni bilish mumkin: "Xotunlarni o'qitmoq va ularning aqllariga jilo bermoq va erlari birla yaxshi muammolar qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoq va zindakorchilikni yaxshi bilmaklari xususida ta'lim, albatta, zarurdir" [7].

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ayol, oila, jamiyat masalalari umuminsoniy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda ham yuksak ahamiyatga egadir. Xotin-qizlarning o'qimishli, ilmi, madaniyatli, o'z jamiyati uchun zarur va foydali insonlar bo'lib yetishishlari kabi ularning masalalari jadidlar matbuotining dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Bu mavzuda ko'plab maqolalar, she'rlar, badiiy asarlar chop etib borildi. So'fizodaning "O'qunglar onalar", Tavalloning "Hamshiralar tilindan" she'rlarida Turkiston xotinlarining "mute' joriyalar" ga aylanib qolganligi, ularning ma'rifatli bo'lishiga qarshilik ko'rsatayotgan "chalasavod"larga qarshi chiqildi. "Agarda har bir millatning istiqbolini bilmak xohlansa ul millatni bolalariga nazar va ularning sihatlariga va husni tarbiya va ta'limlariga [8] katta e'tibor zarurligi Abdusalom Azimiyning "Ta'lim va tarbiya" maqolasining bosh mavzusi bo'lgan. "Agarda

onalar johila bo'lmay, balki oqila, muhazzaba, mutaallama va odobi sahihalarga dono bo'lsalar va bolani o'z tarbiyasiga muvofiq bo'luvini tushunsa, hivzi sihat va odobga rioya etsa va nobajo bo'lunmog'idan to'xtatsa va odibi islomiya va axloqi marziya birla tarbiyat etsa, albatta, ul bolani oqil va halim bo'lmog'iga shak va shubha yo'qdir" [9].

Yana bir tarixiy manbaaga murojaat qiladigan bo'lsak, jadid ma'rifatparvari Rauf Muzaffarzoda o'zining "Yangi yildan eski tilaklar" nomli maqolasida milliy matbuot qanday bo'lishi va qaysi yo'nalishda rivojlanishi haqida fikr bildirar ekan, "Erlarimiz ham, xotin-qizlarimiz ham maishat, tarbiya va dunyo ila tanishtursun va onlarning fikrlarini ochub ahvoli olamdan xabar bersun" [10]. Eng ahamiyatlisi shundaki, ushbu murojaatga javoban ayol mualliflarning Turkiston xotin-qizlari hayoti, kundalik turmushi bilan bog'liq bo'lgan voqyealarni kengroq yoritgan maqolalari vujudga keldi. Ana shunday maqolalardan biri Sora Muzaffariyaning "Ayb o'zimizda" deb nomlangan maqolasi bo'lib, unda Turkiston xotin-qizlarining haq-huquqlari masalasi haqida fikr yuritiladi. "Bizda iste'dod ham bor, qobiliyat ham bor. Ong va fikr ham bor. Bir uy ichigina emas, ba'zi erlar ham o'rniga keltira olmaydigan, mamlakatlar idora qiladurg'on quvvat ham bor. Sora Muzaffariya Turkiston xotin-qizlarining Ovrupa ayollaridek erkaklar bilan teng huquqlilik asosida hayot kechirishni, jamiyatning har bir jabhasida faoliyat ko'rsatishni orzu qiladi. "Ey turk xotuni! Xalqimiz bizg'a salomat aql va fitri bo'lgan iste'dod va qobiliyat bergan-ku! Oni dunyoga chiqarishdan ma'n qilmoqqa kimning haqqi bor!" [11]. Abdurauf Fitratning "Oila" deb nomlangan kitobining asosiy qismi ayolga, uni qanday hurmat qilish va unga qanday munosabatda bo'lishga bag'ishlangan. Ushbu kitobda "Qiz bolalar o'qishi kerakmi?" degan band ham bor. Muallifga ko'ra, insonning intellektual holati, oladigan ta'limi ko'p jihatdan ayollarga, onalarga bog'liq. Muallifning yozishicha, erkak tirikchilik uchun yegulik-ichgulik topish bilan band, ayol esa erkakdan ko'ra ma'lumotliroq bo'lishi shart, chunki u, asosan bolalar va ularning tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, jadid ma'rifatparvarlari ayollarni oila, jamiyatdagi o'rnini topishi uchun ta'lim olishlari muhim ekanligini tushunib yetganlar.

XX asr boshlarida O'zbekistonda paydo bo'lgan milliy-taraqqiyparvar harakatlar dasturida ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi va ijtimoiy hayotda o'z o'rnini egallashi masalasi o'z aksini topgan edi. Jumladan, jadid tashkiloti "Sho'roi islom" o'zining dasturida birinchi bo'lib ayollarga saylovlarda qatnashish huquqini berish masalasini qo'ydi. Jadid namoyondalari M.Behbudiy, A.Fitrat, F.Xo'jayev, A.Cho'lpon, A.Avloniy kabi taraqqiyparvarlar xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini nihoyatda yuqori baholab, ularni ijtimoiy ozodlikka chiqarish zarurligini ta'kidlagan edilar. Ularning fikricha, jamiyatni o'zgartirish ma'naviy va madaniy-maishiy hayotning tubdan isloh qilishdan boshlanishi kerak. Ya'ni xotin-qizlarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida qabul qilmasdan, oila masalasini to'g'ri hal qilmasdan, yosh avlodni to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Oxir-oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining holatiga bog'liqdir. Shuning uchun XX asrning 20-yillarida amalga oshirilgan tadbirlar nafaqat xotin-qizlar, ayni paytda jamiyatning progressiv ruhdagi erkaklari tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. Jadid namoyondalarining faollari masalaga dastlabki yillarda juda ehtiyotkorlik bilan yondashdilar, har bir xonadonga kirib, tushuntirish ishlari olib bordilar, maxsus xotin-qizlar klublari, artellar, do'konlar tashkil etdilar, bu yerlarda ular savod chiqardilar, tikishni va savdo-sotiqni o'rgandilar. Barcha tadbirlar Turkiston xotin-qizlari turmush tarziga xos xususiyatlarga, milliy an'analarga mutanosib holda olib borildi. Jadid faollari ko'proq ishontirish usuliga suyangan holda harakat qilib, xotin-qizlar huquqini ta'minlash, ularni yaratuvchanlik va jamoatchilik ishlariga jalb etish borasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishildi.

O'lkada sovet hokimiyati o'rnatilgach xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish, jamiyatning faol ishtirokchisiga aylantirish, eng avvalo, ularni xalq maorifi

tizimiga kengroq jalb etish bilan bog'liq edi. Shu maqsadda o'tgan asrning 20-yillarning boshlaridanoq o'zbek xotin-qizlarini o'qituvchilik kasbiga ko'proq jalb etish harakati avj oldi. 1919-yildayoq Toshkentda xotin-qizlar uchun birinchi o'quv yurti va oliy pedagogika instituti ochilgan edi. 1922-yili bu o'quv yurti "Maorif uyi" nomi bilan atala boshlandi. 1923-yilda ushbu o'quv maskanini 72 ta dastlabki qaldirg'ochlar bitirib chiqdilar. Ular orasida Manzura Sobirqorieva, Hamida Tojjeva, Robiya Xo'jayeva, Xosiyat Ziyamammedova va boshqalar bor edi. 20-yillarning birinchi yarmida xotin-qizlar maorif institutlarini tashkil etishga alohida e'tibor berila boshlandi. Bunday institutlarning o'quv muddati ikki yil bo'lib, ular o'sha davrdagi eng nufuzli bilim yurtlaridan hisoblanardi. 20-yillarning o'rtalariga kelib O'zbekiston xotin-qizlar Bilim yurtlari o'qituvchilari orasida dastlabki o'zbek pedagoglari paydo bo'ldilar. Samarqand xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida o'qigan Z.Yoqubova, M.Sulaymonova, F.Yoqubova, Toshkent pedagogika texnikumida K.Shodmarova, Z.Sadriddinova, G.Agzamjonova, Qashqadaryo pedagogika texnikumida P.Abdullayeva, Xorazm pedagogika texnikumida Z.Fayziyeva, Buxoro pedagogika texnikumida X.Ma'sudova, O.Qamariddinova va boshqalar shular jumlasidandir [12].

O'z davrining bilimdon va ma'rifatparvarlaridan biri Zuhra Yusupova bo'lib, taraqqiyparvar milliy ziyolilar qatorida turib yangilikni targ'ib qilib, xotin-qizlar ozodligi yo'lida fidokorlik namunalarini ko'rsatdi.

Taraqqiyparvar ma'rifatparvarlar oilasida dunyoga kelib, "Namuna" maktabida saboq olgan xushchaqchaq va zehni o'tkir bo'lgan Sojida Nosirova ham ma'rifatning ilk qaldirg'ochlaridan edi. Sojidaga xos sifatlardan biri doimo o'zining madaniy saviyasini orttirishga va turmush bilan birga borishga intilishdir. Dastlab, Toshkent ishchilar maktabiga kirib tahsil oldi, keyin O'rta Osiyo paxtachilik institutida o'qishni davom ettirdi. So'ngra ToshMIga o'qishga kirib muvaffaqiyatli tamomladi.

O'zbek xalqining asl farzandlaridan bo'lgan Sojida Nosirova o'zining 66 yillik umri davomida achchiq azob-u haqoratlarni, ochlik-yalang'ochlik kabi

qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Lekin orqaga sira chekinmadi. Sharq ayoliga xos matonat, chidamlilik, po'lat irodasi bilan ularni yengib, o'zbek xotin-qizlar ilmiy xodimlarining oldingi safida mehnat qildi.

O'tgan asrning tahlikali yillarida maorif sohasida ishlash sharafiga muyassar bo'lgan xotin-qizlardan biri toshkentlik Oyposhsha Jalilova (Majidxonova) edi. Jalilovalar to'rt opa-singil bo'lib, ularning hammalari ham birinchilardan bo'lib maorif sohasida faoliyat olib bordilar. Oyposhsha, Muazzam, Muattar, Poshshaxon Jalilovalar 20–30-yillarda Sharq xotin-qizlarining savodini chiqarish hamda ayollar savodsizligini tugatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilishga e'tibor berdilar. Shunday jasoratli ma'rifatparvar jonkuyarlari xizmatlari tufayli 1926-yilda respublikada 82 ta savodsizlikni tugatish maktablarida 2700 xotin-qizlar o'qigan bo'lsalar, 1936-yilda 186 ming ayol savodini chiqargan.

Bunday ayollardan biri ilk o'zbek aktrisasi sifatida tanilgan Tursunoy Saidazimova bo'lib, 1911-yilda Toshkent shahrida tavallud topadi. 1924-yildan 1927-yilga qadar Moskvadagi maorif uyi qoshida ochilgan Moskva o'zbek drama studiyasida tahsil oladi. 1927-yildan to vafotiga qadar teatrdan aktrisa sifatida faoliyat yuritgan. U ko'plab spektakllarda qo'shiq ham kuylagan. Aktrisini hamkasblari yoqimli ovozi uchun uni “o'zbek bulbuli” ham deb atashgan. Tursunoy Saidazimova dramaturg va shoir Hamza Hakimzoda Niyoziyning talabasi bo'lgan. Qisqa umri davomida o'zbek va chet el dramaturgiyasidan yorqin obrazlar yaratishga muvaffaq bo'lgan. Mariya Antonovna “Revizor”, Turandot “Malikai Turandot”, Klariche “Ikki boyga bir malay” va hokazo kabi salmoqli rollarni mahorat bilan ijro etgan. Tursunoy Saidazimova 1927-yilning 10-mayida san'atining eng gullagan davrida 17 yoshida Buxorodagi gastrol safari paytida turmush o'rtog'i tomonidan bir necha marta pichoq bilan sha'niga putur yetkazishda ayblangan. Hamza Hakimzoda Niyoziy unga bag'ishlab “Tursunoy” marsiyasini yozgan.

Bunday ayollardan yana biri Robiyaxonim Nosirova bo'lib, oilada Navoiy, Fuzuliy, Mashrab asarlari g'oyasi bilan kamol topib, mahalla ayollari va yoshlariga

adabiyotdan saboq beradi. 1923-yilda Zebuniso nomidagi xotin-qizlar bilim yurtini a'lo baholar bilan tamomlab, shu bilim yurtiga direktor rahbar etib tayinlanadi. Bilim yurti huzurida xotin-qizlar orasida ishlash bo'limini ochib, suhbatlar, ma'ruzalar, konsertlar qo'yib beradi. Shuningdek, bilim yurtida tahsil olayotgan o'zbek xotin-qizlarining madaniy va siyosiy saviyasini oshiribgina qolmay, fanning hamma sohasini egallash zarurligi tushunchasini ularning dillariga joylashga harakat qiladi.

Tojixon Rustamboyeva ham o'z davrining bilimdon va zukko, iste'dodli pedagoglaridan bo'lib, asosiy tarbiyani oilasida oladi. 1913-yilda Toshkentda birinchi xotin-qizlar maktabini tashkil qiladi va maktab ta'limi uchun birinchilardan bo'lib "Ta'limda alifbo", "Ta'limi soniy" nomida birinchi darsliklar yaratgan. Xalq maorifining haqiqiy jonkuyarlaridan biri Tojixon Rustamboeva bir necha yillar maorif sohasida xizmat qilib, ilm mash'alini el qalbiga chuqurroq olib kirishiga butun vujudi bilan intilgan pedagog edi. Uning asosiy falsafiy g'oyasi "hammadan zaruri bilim olish" edi.

Bulardan tashqari, o'tgan asrning 20–30-yillarida ayollar orasida mashhur olimalar, yozuvchilar, shoirlar, muhandislar, shifokorlar yetishib chiqdilar. Albatta, bunday o'z sohasining bilimdon ilk qaldirg'ochlarini yetishtirib berishda o'qituvchi, muallim, ilk tarbiyachi-ma'rifatparvarlarning xizmatlari katta edi. Shohida Mahzumova, Manzura Sobirova (Oydin), Xosiyat Tillaxonova, Hamida Tojjeva shular jumlasidandir. Yuqoridagi ma'rifatparvar onaxonlarimiz suronli 20–30-yillarda murabbiya, muallima, mudira sifatida jonbozlik bilan ishlab madaniyat, maorif va san'at muassasalarining tashkil topishiga va rivojlanishiga ulkan hissalarini qo'shdilar.

Shohidaxonim Mahzumova oila a'zolari adabiyot va san'atdan xabardor kishilar bo'lib, Toshkentning Arpapoya mahallasida istiqomat qilar edilar. Eng ahamiyatli jihati shunda ediki, bu mo'jazgina ziyoli oilada xotin-qizlar yarim maxfiy holda musiqa chalar, ashula va g'azalxonlik qilishar, san'atga qiziqishlari ham o'zgacha edi. Ana shunday muhitda tarbiya topgan yosh chog'ida oila

davrasida o'qiladigan Navoiy va Fuzuliy g'azallaridan, musiqadan lazzat oladi, eshitganlarini darhol yodlaydi, ham ijro eta boshlaydi. Yosh san'atkorimiz dastlabki ta'limni ammasi Bashoratxon Jamilova hamda Orifxon otin (shoir G'afur G'ulomning buvisi)dan oladi. 1920-yillarda Shayhontohurda Saodatxonim yenikeeva rahbarligida ochilgan "Zebunniso" nomli birinchi o'zbek xotin-qizlar bilim yurtiga o'qishga kirib, san'at va adabiyotdan dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lib, pianinoda musiqa chalishni, dutor chertishni o'rganadi. Shohidaxonim o'z davrida faol o'zbek qizi sifatida savodsizlik kurslarida o'qituvchilik qiladi, turli mavzularda suhbatlar o'tkazib, san'at to'garaklarida o'z bilganlarini yoshlarga o'rgatadi.

Shohida Mahzumova "hammadan zaruri bilim olish" degan nomni qattiq ushlab olib, o'qishni davom ettiradi. 1926–27-yillarda "Ishchilar" fakultetida o'qiydi. Shu davrlarda o'zbek raqs san'atining qobiliyatli namoyondalaridan Ali Ardabus rahbarligida bilim yurti huzurida tashkil topgan badiiy to'garakda faol qatnashadi va birinchi bo'lib Oydin (Manzura Sobirova)ning "Yangilikka qadam" asaridagi bosh rolni sahnada muvaffaqiyat bilan ijro etadi.

Sh.Mahzumova "Ishchilar" fakultetida o'qib yurgan paytida o'zining sevgan teatr san'ati sahnasida havaskor sifatida muttasil ishlab, Gogolning "Revizor"i, Ostrovskiyning "Bankrot" asarlaridagi bosh rollarni mahorat bilan ijro etganida o'zining iste'dodini yorqin namoyish qiladi. Teatr san'atidan bir qadar tajriba va ma'lumotga ega bo'lgan Shohidaxonim 1929-yilda san'at institutiga o'qishga kirib, tajribasini jiddiy sur'atda oshirib, murakkab rollarni ijro eta boshlaydi.

Shohida Mahzumova "Farhod va Shirin" pyesasida Shirin, G'ulom Zafariyning "Halima" nomli musiqali dramasida Halima, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi"sida Gulbahor, Shillerning "Makr va muhabbat"ida Luiza, "Qaroqchilar" ida Amaliya, Komil Yashin va Amir Umariyning "Hamza" nomli asarida Sanobar, Bahrom Rahmonovning "Yurak sirlari"da Surmaxon rollarini ajoyib mahorat bilan ijro etadi. Odil Yoqubovning "Aytsam tilim, aytmasam dilim" asarini o'zi sahnaga qo'yib, bundagi mas'uliyatli

rollardan Huri rolini, Hamzaning “Xolisxon” (“Paranji sirlari”) asarida Zebixon rolini mahorat bilan o‘ynaydi. Shohida Mahzumova Gulbahor va Sanobar rollarini Moskva sahnasida ijro etganda moskvaliklarning unga juda yuksak baho berib, gazetalarda yozishlari uning ajoyib iste’dodidan darak bergan edi.

Tabiatan san’at shaydosi bo‘lgan kamtarin inson Shohidaxonim Mahzumova Hamza nomidagi (hozirgi milliy drama teatr)da ham faoliyat olib borib, o‘zbek xotin-qizlaridan birinchi rejissyor bo‘lish sharafiga muyassar bo‘lib, o‘z hayotining 35 yildan ortig‘ini san’atga bag‘ishladi. “Uning ijrosida yaratilgan obrazlarning g‘oyaviy-badiiy puxtaligi, yorqin va tipikligi, nozik harakatlari o‘ziga hos joziba va fusunkorligi tomoshabinlar qalbida chuqur iz qoldiradi” deb talqin qiladi sharqshunos olimi.

Sh.Mahzumova o‘z faoliyati davomida teatr san’atini rivojlantirishda qo‘shgan hissalarini evaziga, unga 1994-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” degan faxriy unvon berildi. Shu bilan bir qatorda teatr san’ati sohasida ko‘plab iste’dodli shogirdlarni yetishib chiqishida ham faol xizmat qildi. 1962-yilda esa dotsentlik ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘ldi. U tom ma’noda o‘zbek ayollari orasida birinchilardan bo‘lib o‘zining teatr maktabini yaratdi. Bu maktabdan respublikamizda faoliyat olib borib, xalq nazariga tushgan Oydin Norboeva, To‘lqin Tojiev, Tamara Jabborova, Nosirjon Ustaboev va boshqa ko‘plab san’atkorlar bahramand bo‘lib, xalqqa tanildilar.

Xotin-qizlar masalasi insoniyat tarixida hamisha o‘ziga xos murakkab muammo bo‘lib kelgan. Millionlab Turkiston ayollari qismatini o‘z ichiga olgan bu ijtimoiy-siyosiy masalani XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmida bolsheviklar o‘z andozalari asosida keskin hal qildilar. Turkiston xotin-qizlarining hayoti qadimdan musulmonchilik qonuniyatlari va an’analari asosida qurilgan bo‘lib, sovet davrida ana shu diniy qadriyatlar va an’analar “xurofot” sifatida qoralanib kelindi. An’analarimizdagi, qadriyatlarimizdagi milliylik, ayollarga bo‘lgan hurmat va e’zozlash sifatleri mutlaqo unutildi.

Sovet hukumati o'rnatilgach, ayollarning butunlay yangi avlodini, ularni faqat oilani o'ylaydigan shaxslarni emas, balki ko'proq jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotida erkaklar bilan teng asosda faol ishtirok etishni istaydigan shaxslar qilib tarbiyalash asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Bu jarayonni sun'iy ravishda tezlashtirish maqsadida unga zarbdor safarbarlik xususiyatini berib, 1926-yilning sentyabr oyida O'rta Osiyo Partiya komitetlarining xotin-qizlar bo'limlari xodimlari ishtirokida kengash o'tkazildi va u yerda xotin-qizlar orasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish va uni majburiy ravishda o'tkazishga qaror qilindi. Bu majburiy tadbir "Hujum" deb ataldi, ya'ni hujum uslubida ayollar muammosini hal qilish siyosati ustun bo'la boshladi. Bu kompaniyani o'tkazish uchun 1926-yil dekabr oyida O'rta Osiyo respublikalari va xususan O'zbekistonda maxsus komissiyalar tuzildi. Xotin-qizlar ozodlikka chiqarishning eng muhim vazifalaridan biri paranjiga qarshi kurash edi. 1927-yil 8-mart kuni O'zbekistonda bo'lgan yuzlab mitinglarda qatnashgan minglab xotin-qizlar o'z paranjilarini tashladilar. Lekin bu ijtimoiy-siyosiy tadbirni o'tkazishda o'sha davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy ahvol, milliy-ma'naviy dunyoqarash, oiladagi nihoyatda nozik bo'lgan erkak bilan ayol o'rtasidagi munosabat, islom qadriyatlari, oila va ayollar masalasidagi mavjud an'analar, urf-odatlar inobatga olinmadi. "Hujum"ning mohiyatini tushunib yetmagan ba'zi bir partiya xodimlari o'zlari bilmagan holda unga zid harakatlar qilganliklari tarxiiy hujjatlaridan ma'lumdir.

O'tgan asrning 20–30-yillari O'zbekiston tarixida o'z ahamiyati jihatidan juda muhim voqyealar bilan tavsiflanadi. Bunday voqyealar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy holatida muayyan siljishlar, ayrim ijobiy o'zgarishlar bilan birga, ayni paytda, jiddiy yo'qotishlar kishilar ijtimoiy ongida an'anaviy ravishda mavjud bo'lgan milliy psixologik-ruhiy holatning o'zgarishi, bir-biriga zid dunyoqarashning yuzaga kelishi asnosida rivoj topdi.

XX asrning so'nggi o'n yilligi va XXI asrning boshlari ayolning jamiyatdagi tutgan o'rnini qayta baholash asri bo'ldi. Bugungi kunda ayolning qadr-qimmatini,

uning oiladagi, ishlab chiqarishdagi, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ahamiyatini insoniyat tomonidan qayta mushohada qilinish jarayoni davom etmoqda. Xotin-qizlarning jamiyat hayoti va boshqaruvda ishtiroki O'zbekiston mustaqil davlatining barqaror rivojlanishining muhim jihatlaridan biridir.

Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy rivojlanishi jarayonida insonning, shu jumladan ayollarning o'z salohiyati va iqtidorini ro'yobga chiqarishi masalasi dolzarb masalalardan biriga aylandi. O'zbekiston xotin-qizlari, birinchidan, tom ma'noda katta va ijtimoiy kuch sifatida, ikkinchidan, salohiyatli iqtisodiy faol mehnat resursi sifatida, uchinchidan, oilaviy-maishiy munosabatlarda milliy an'analarni yoyuvchi sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Mamlakatimizda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida qirqdan ortiq muhim konseptual hujjat va qonunlar qabul qilindi. Bugun davlat miqyosida xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Ularning bilimli bo'lishi, ilm-fan sohalarida yuksak marralarga chiqishi, huquq va manfaatlari qonunchilik hujjatlari va hatto yangilangan konstitutsiyada ham alohida mustahkamlab qo'yilishi borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda "yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga nisbatan munosabati bilan belgilanadi" [13]. Demokratik davlatning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri, ma'lumki, ayolning jamiyatdagi mavqeyi va, eng avvalo, uning iqtisodiyot va boshqaruvda ishtirok etish darajasi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqida dunyoning 11 ta global muammolari qatorida gender tengligi masalalari haqida gapirib, O'zbekistonda gender siyosat davlat ahamiyatiga molik masala ekanligi, ayniqsa, yangi parlament tarkibidagi deputat xotin-qizlar soni bugungi kunda 2 barobarga oshganligi ta'kidladi [13].

Yuqorida berilgan turli imkoniyatlarga qaramasdan, mamlakatimizda xotin-qizlar madaniyatini oshirish va ularni hayotini yaxshilash borasida ba'zi bir salbiy holatlar ham uchrab turibdiki, bular xotin-qizlar shaxsiga nisbatan noo'rin

munosabatlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday ayanchli holatlarga qarshi faqat ayollarni ma'rifatli qilish bilan javob berish mumkin. Ular o'zlarining haquqlarini bilib, jamiyatning faol a'zosiga aylanishi hamda oilaning mustahkam ma'naviy ustuni bo'lishi uchun ham ma'rifatli bo'lishi kerak.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Behbudiy M. *Padarkush*. – Samarqand, 1911. – 40 b.
2. Abdurauf F. *Oila*. – Buxoro, 1916. – 60 b.
3. Yoqubova S., Maqsudova M. *Muallimalik masalasi // Sadoi Turkiston*. –1914. – № 20.
4. *Xotunlarda ilm maorif // Oyna (1914–1915)*. – Toshkent, 2001. – 72-b.
5. Fatxiddinzoda Z. *Huquq nisvon // Sadoi Turkiston*. – 1914-yil 10-dekabr.
6. Ishoqxon I. *Tarixi madaniyat // O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. Inv. Ne 10117 To'raqo'rg'on, 1925.– 137 b.*
7. *Bir musulmon // Turkiston viloyati gazetasi, 1912-yil 20-sentyabr.*
8. Azimiy A. *Ta'lim va tarbiya // Oyna*. – 1915 yil 5 fevral.
9. Abdusalom A. *Ta'lim va tarbiya // Oyna*. – 1915 yil 5 fevral.
10. Muzaffarzoda R. *Yangi yildan eski tilaklar // Sadoi Turkiston*. –1914 yil 2 yanvar.
11. Muzaffariya S. *Ayb o'zimizda // Sadoi Turkiston*. – 1914 yil 23 avgust.
12. Azizzoda L. *Yangi hayot kurashchilari*. – O'zbekiston: Fan, 1976. – 128 b.
13. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqidan, 2020-yil 23-sentyabr.*

To'rabek Fayziyev

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasi  
dotsenti, texnika fanlari nomzodi  
E-mail: turabek4052@gmail.com

## MADANIYAT SOHASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISH

**Annotatsiya.** Maqolada innovatsion tashkiliy madaniyatni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Innovatsion madaniyat sohasida boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi. Innovatsion tashkiliy madaniyatni rivojlantirish jarayoni texnologiyasi taklif etildi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiyalar, tashkiliy madaniyat, rivojlanish maqsadlari, xizmat ko'rsatish sohasi, raqobatbardoshlik, tashkiliy madaniyat turlari.

## IMPLEMENTING INNOVATIVE METHODS IN THE MANAGEMENT OF THE CULTURAL SECTOR

**Abstract.** This article examines management methods in the cultural sector, with particular attention to design and programming techniques. The study outlines the functions of cultural projects and programs and analyzes the factors and tools that enhance their attractiveness. It also considers the role of information innovations in the development of the cultural sphere.

**Keywords:** innovation, cultural management, project management, program management, project attractiveness, information innovation.

Iqtisodiyotning postindustrial rivojlanishi tabiiy ravishda insonning jamiyat bilan yangi munosabatlarni, madaniyat sohasi orqali davlat bilan o'zaro aloqada bo'lgan madaniy maydonda shaxs va jamoalar xulq-atvorining yangi stereotiplarini shakllantiradi. Insonning intellektual rivojlanishi ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi, ularning bir qismi axborot, texnologik sohada, bir qismi esa moddiylashtirilmagan sivilizatsiya sohasida, an'analar va shaxsni rivojlantirish

yo'llarini saqlash sohasida namoyon bo'ladi. Insonning nomoddiy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish – madaniy sohaning vazifasi, bu sohani boshqarish va uni samarali faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratish – davlatning vazifasi.

Ushbu maqola kontekstida insonning yashash muhiti va uning sivilizatsiyaviy faoliyatidagi doimiy o'zgarishlar tufayli boshqaruv va innovatsiya kabi asosiy mohiyatlarning o'zaro ta'sirini ko'rib chiqiladi. "Innovatsiya" tushunchasining ma'no-mohiyati hozirgi kunda bir necha murakkab mazmunga ega bo'lmoqda. Madaniyat sohasini boshqarish samaradorligini oshirish mohiyatan davlatning madaniy muhit bilan o'zaro ta'sirining eng samarali usullarini aniqlash ekan, muhitning o'zida innovatsiyalarni va u bilan o'zar ta'sir tizimidagi innovatsiyalarni, muhitni boshqarish sohasidagi innovatsiyalarni ko'rib chiqish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Bunday innovatsiyalardan biri ma'lum vaqt davomida boshqaruvni nomarkazlashtirish edi, ammo rivojlanish qonuniyatlariga to'liq mos ravishda, u o'zining barqaror vositalariga ega bo'lgan amaldagi tizimga aylandi. Innovatsiya boshqaruvning loyihaviy usulini qo'llashda namoyon bo'ldi, bu esa maqsadli jalb qilish va foydalanish imkonini beradigan resurslardir.

Madaniyat sohasida mahsulot ko'pincha yetarli moddiy qiymatga ega bo'lmagan, amalga oshirilmagan natijadir, shuning uchun loyiha usuli madaniy muhitda diskret fragmentlangan va past texnologiyali ishlab chiqarish jarayonini boshqarishning eng samarali modeli sifatida qaror topgan. Boshqaruvning loyihaviy tizimi jarayonlar uchun yo'naltirilgan resurslarning aniq hajmidan foydalanishni cheklovchi vaqt va resurs chegaralarini belgilash imkonini beradi, bu esa o'z navbatida faoliyat samaradorligini unga ketadigan xarajatlar nuqtai nazaridan baholash va ma'lum vaqt davomida olingan ijtimoiy natijaning samaradorligini belgilaydi.

Loyiha faoliyati boshqaruvga moslashuvchanlik, boshqariladigan jarayonlarga esa baholash uchun muvofiqlik berish orqali nomarkazlashtirish jarayonlarini ta'minlash imkonini berdi. Loyiha tizimida boshqaruv teskari aloqa

bilan o'z vaqtida boshqaruv impulslarini yaratuvchi, ammo ijodiy jarayonga tizimli va ma'muriy cheklovlarni kiritmaydigan oddiy tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Aynan shunday yondashuv faoliyat natijalari haqida xulosa chiqarish va ularni jalb qilingan resurslar bilan taqqoslash imkonini beradi [3, 78–83-b].

Markazlashtirishni cheklash jarayoni madaniyat sohasiga davlat tomonidan ajratiladigan mablag'larning muqarrar ravishda qisqarishiga olib kelganligi sababli, loyiha yondashuvi tashqi resurslarni jalb qilish orqali yo'qotishlarning bir qismini qoplashning eng samarali usuli bo'lib chiqdi. Bundan tashqari, aynan loyiha boshqaruvi sharoitida davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlik modeli amalga oshirilishi mumkin, bunda investitsiya ishtirokchilaridan har birining madaniy muhitdagi ulushi qanday bo'lishini hal qiladi va natijalarni olishda raqobatga kirishmaydi. Loyihaning tashkiliy va boshqaruv samaradorligi resurslarning sochilib ketishi va mablag'larning alohida faoliyat turlari zarariga maqsadsiz yo'naltirilishini istisno etuvchi cheklangan maqsadni belgilash imkoniyatidan iborat. Madaniy soha va uning o'zaro munosabatlarini bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirish maqsadli manzillarga olib chiquvchi o'ziga xos tunnellar - loyihalarni amalga oshirish orqali eng kam og'riqli va eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi.

Dasturiy-maqsadli yondashuv, loyiha yondashuvi kabi, xorijiy tajribani sinchiklab o'rganish tufayli keng tarqaldi.

Ushbu yondashuv doirasida madaniy faoliyatni 1991-yildayoq boshlangan o'zgarishlarga moslashtirishga erishildi. Dasturiy-maqsadli yondashuv tufayli ijtimoiy buyurtma maqsadlariga erishish uchun byudjet mablag'larini yo'naltirish texnologiyalarini qo'llashga erishildi. Dastur byudjet mablag'lariga shartnomaviy munosabatlar tizimi joriy etilgan hujjatga aylandi.

Dastur ma'lum talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan faoliyat usuli sifatida byudjetdan tashqari manbalardan mablag'larni jalb qilish tizimini tartibga solish, ularni notijorat maqsadlarda qo'llashga mo'ljallangan. Aynan dastur shartnoma intizomiga rioya qilish sharti bilan byudjet taqchilligida moliyalashtirishni

birlashtirish yoki moliyalashtirishni qisman almashtirish masalasini hal qilish imkonini beradi.

Dastur zamonaviy menejmentning rivojlangan vositalaridan biri bo'lib, moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish va mablag'larni maqsadga qarab taqsimlash orqali faoliyat imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Dastur hatto madaniy muhitda ham iqtisodiy vosita sifatida qaraladi, bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega. Dasturiy moliyalashtirish aniq maqsadga erishish uchun qat'iy kelishilgan muddatlarda, ishlab chiqilgan amalga oshirish va hisobot rejalariga rioya qilgan holda mablag'lar ajratishni nazarda tutadi. Bunda moliyalashtirish ishtirokchilari dasturning maqsadlari, uni amalga oshirish muddatlari va usullari to'g'risida kelishib olish huquqiga ega, biroq umumiy roziliksiz va dasturiy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritmasdan belgilangan tartibni buzishlari mumkin emas.

Dasturni byudjet mablag'larini xo'jalik hisobida yo'naltirish usuli deb qarash mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, dastur amalga oshirish jarayonida kamroq erkinlik qoldiradi, ammo aniq jarayonlarda ijodiy erkinlikni cheklamaydi. Dastur o'z tarkibida ishtirokchilarning vakolatlari va ichki mustaqilligini belgilovchi loyihalarni o'z ichiga olishi mumkin. Dastur iqtisodiy usul bo'lib, shartnomaviy majburiyatlarning mavjudligi tufayli ishtirokchilar, ijrochilar va investorlarni ma'lum darajada himoya qiladi [1, 132–134-b].

Loyiha va dasturlar tomonidan bajariladigan asosiy vazifalar:

- samarali moliyaviy vositalar yordamida ijtimoiy masalalarni hal qilish imkoniyati;
- majburiyatlar bilan munosabatlarni shakllantirish;
- homiylar, investorlar va donorlarni moliyalashtirish zarurati to'g'risida xabardor qilish;
- mahsulotning ijtimoiy, madaniy va badiiy ahamiyatini ko'rsatish;

– mahsulot haqida nafaqat madaniy xususiyatdagi, balki investorlar qiziqishini uyg'otadigan tijorat tarkibiy qismiga ham ega bo'lgan real qiymatga ega bo'lgan tasavvurni shakllantirish.

Loyihaga qo'yiladigan sanab o'tilgan talablar yoki uning belgilaridan kelib chiqib, loyihaning jozibadorligini oshiradigan belgilar va vositalarni sanab o'tish mumkin:

- loyihaning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatish;
- loyihani yanada rivojlantirish foydasiga dalillar taqdim etish;
- loyiha g'oyasining o'ziga xosligi va uni amalga oshirish yo'llari;
- loyihaning axborot ahamiyati, uni ommaviy axborot vositalarida yoritish istiqbollari;
- siyosiy nuqtai nazardan dolzarblik, siyosiy va davlat ishtiroki;
- potensial iste'molchilarning alohida guruhlariga nisbatan to'g'rilik, kamsitishga qarshi mohiyat;
- strategik sheriklik salohiyati;
- loyihaning investorlar uchun moliyaviy va iqtisodiy salohiyati;
- notijorat xarakterga ega;
- loyiha va uning ishtirokchilarining ijodiy salohiyati.

Loyihani amalga oshirish uchun mablag'larni muvaffaqiyatli jamlash uchun usullarni tanlashda yangi imkoniyatlar va mavjud obyektiv cheklovlarni anglash zarur-madaniyat sohasini byudjetdan moliyalashtirish bir nechta mablag' manbalaridan foydalanishni nazarda tutadi, ularning har biri byudjet manbalarini to'ldiradi. Bu potensial investorlar tomonidan ham, loyiha tashkilotchilarining o'zlari tomonidan ham tanlov usulining ustuvorligini anglatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, homiylar ham bir qator mezonlar bo'yicha tanlanadi va ijodiy erkinlikni cheklamasdan va tashkilotchilarga hech qanday shartlar qo'ymasdan loyihani moliyalashtirishga tayyor bo'lganlarga eng ko'p ustunlik beriladi. Dasturiy yondashuv ham homiylarga, ham tashkilotchilarga murosaga kelish uchun qarama-

qarshi shartlarni qo'yish imkonini beradi - tanlov orqali tanlash eng samarali usulga aylanadi [2, 127–131-b].

Shuni unutmaslik kerakki, dasturiy yondashuvning maqsadi dasturga kiritilgan g'oyalarni amalga oshirishdir – dastur maqsadlari amalga oshirilayotgan g'oyalarga mos kelishi kerak, ya'ni loyihalarning dasturda belgilangan g'oyaviy qoidalariga erishishi homiylarni dastur qoidalarining amalga oshirilishidan kam qiziqtirmasligi kerak. Madaniy siyosatdan ijtimoiy holatni yaxshilashga yo'naltirilganlikni kutish kerak, chunki madaniy siyosat doirasida shakllantirilgan dasturlar ijodiy tarkibiy qismdan kam bo'lmagan aniq yo'nalishga va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Davlat, xuddi tashqi homiy kabi, loyiha va dasturdan nafaqat bir arbob yoki jamoaning ijodiy o'zini namoyon qilish imkoniyatini, balki bu ifodadan ijtimoiy rezonansni ham kutishga haqli. Shu bilan birga, bu rezonans davlat yoki homiyning dasturni amalga oshirishdan ular uchun kutilgan samara haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tizimli nuqtai nazardan, dastur va loyiha qandaydir tizimning holatini unga boshqa sifat berish yoki uning holatidagi ma'lum belgilarni ajratib ko'rsatish uchun o'zgartirish vositasidir. Boshqaruv va maqsadni belgilash jarayonida yangi madaniyatni yaratish zaruriyatini ham, mavjud madaniyatni qo'llab-quvvatlash, yangi oqimlarni shakllantirish, yo'qotilgan yo'nalishlarni qayta tiklash zaruriyatini ham ko'rib chiqish mumkin. Bu madaniy siyosatda belgilangan strategik ko'rsatmalar orqali shakllanadi. Istiqbollarni ko'rib chiqish va moliyalashtirish ob'ektini maqsadli rivojlantirishni tasavvur qilish-mavjud siyosat dasturiga amal qilish nuqtai nazaridan zarur shartdir. Madaniyat rivojlanishning ikkilamchi emas, balki shakllantiruvchi omilidir, shuning uchun madaniy siyosat strategik istiqbollarni ko'rib chiqishi va strategik maqsadlarda belgilangan yo'nalishda harakat qilishi kerak. Mintaqaviy darajada mahalliy kelib chiqish omillarini hisobga olish va maqsadlarni umumiy madaniy siyosatni amalga oshirishning mintaqaviy va mahalliy sharoitlariga muvofiqligiga qarab farqlash zarur.

Maqsadlarni muhit sharoitiga qarab tabaqalashtirish imkonini beruvchi nomarkazlashtirishning asosiy ma'nosi aynan shunda ifodalanadi.

Sanab o'tilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda, umuman madaniyat siyosatining maqsadlari, mintaqaviy siyosat va ushbu siyosat doirasida amalga oshirilayotgan dastur va loyihalarning maqsadlarini taqqoslashning muhimligi tushunarlidir. Boshqaruv xarakteridagi faoliyat mahsuli sifatida dastur tashqi sharoitlarning o'zgarishini hisobga olgan holda modifikatsiyalanishi kerak, buning uchun uning qoidalarini monitoring qilish va tuzatish vositalarini yaratish zarur. Shu bilan birga, yangi boshqaruv yondashuvlari va usullari "yo'naltiruvchi va tuzatish" boshqaruvidan foydalanishni hisobga olgan holda, minimal buyruq ta'siri bilan shakllantiriladi. Zamonaviy boshqaruv maqsadlar va ularga erishish uchun jalb qilinadigan mablag'lar muvozanatiga erishishga asoslangan bo'lib, buning uchun boshqaruvga qarorlar qabul qilish va boshqaruv ta'sirlarini shakllantirishda zarur moslashuvchanlikni beruvchi bir nechta moliyalashtirish manbalarini jalb qilish muhimdir. Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan dasturlarning aksariyati ularga sarflangan mablag'larga nisbatan ortga qaytmas, qaytarib bo'lmaydigan xarakterga ega. Shu sababli, samaradorlik va maqsadga muvofiqlik muvozanati xarajatlarni – jalb etilgan mablag'larni – olingan samara bilan uning adekvat ifodalanishiga yaqinlashgan holatida taqqoslash asosida ta'minlanishi lozim. Shu ma'noda, strategik maqsadlarga erishishga olib keladigan ta'sirlar yig'indisi sifatida qisqacha ta'riflanishi mumkin bo'lgan samara va samaradorlik o'rtasidagi farqni tushunish uchun aniq chegaralarni belgilash zarur [4, 148–152-b].

Ko'pincha davlat boshqaruvi tizimida madaniyatni jamiyat taraqqiyoti va u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy holatning umumiy taraqqiyotini belgilovchi omil sifatida qaramasdan, madaniyat dasturidan aynan juda qisqa vaqt oralig'ida samara kutishadi. Bunday holatda boshqaruv organlari uzoq muddatli istiqbollarni e'tiborsiz qoldirishni boshlaydilar, faoliyat sohasi ko'rsatkichlariga erishish uchun madaniy dasturlarga monopollashtirilgan deb qaraydilar, bu esa muqobil moliyalashtirish manbalarini izlashda cheklolarga olib keladi.

Dasturning ichki tuzilmasi belgilar va maqsadlar bo'yicha bog'langan loyihalar yig'indisi bo'lishi mumkin, bunda loyiha maqsadlari dastur maqsadlari doirasida yotadi, lekin ma'lum bosqichda mustaqil bo'lishi mumkin. Ijtimoiy loyiha va dastur maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan davrning davomiyligi bilan tavsiflanadi.

Mintaqaviy darajada faqat ushbu mintaqaga xos bo'lgan yoki uning hududiy chegaralarida joylashgan milliy kelib chiqishga ega mahalliy madaniy muhitlarning mahalliy, o'ziga xos yo'nalishlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi dasturlar va loyihalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturlar ko'p madaniyatli muhit va bir necha sivilizatsiya an'alariga ega bo'lgan ko'p millatli davlat doirasida har doim integratsion va umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lgan umumiy madaniy siyosatning tabiiy elementi sifatida amalga oshiriladi. Ijtimoiy-madaniy muhit o'zining xilma-xilligi bilan madaniy siyosatni shakllantirishda kompleks yondashuvni va mintaqaviy darajada aniq maqsadlar va vazifalarni farqlashni talab qiladi, bu yerda aholining madaniy mahsulotga bo'lgan mahalliy, shu jumladan mahalliy o'ziga xos ehtiyojlari yaxshiroq ko'rinadi va hisobga olinadi. Aynan mahalliy masalalarni hal qilish loyiha va dasturiy yondashuvlar doirasida jarayonlarga begona mablag'larni jalb qilish va ularni boshqa maqsadlarga qayta taqsimlash imkoniyatlarini bloklash imkoniyati tufayli yaxshi amalga oshiriladi.

Shu munosabat bilan aynan hududlar ko'proq kadrlar tayyorlash muammosiga duch keladi, chunki umumiy madaniy siyosat doirasida hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi kabi keng ko'lamlı davlatda madaniyatlarning ko'p qirraliligini hisobga olgan holda o'qitish muammosining yechimi tayyorlanmagan. Mintaqaviy darajada muammo mamlakat oliy o'quv yurtlarida madaniyat sohasi xodimlarini tayyorlashni moliyalashtirish dasturlari yordamida, mintaqaviy ahamiyatga ega mahalliy ekinlar darajasida esa ushbu madaniyatlarning xususiyatlarini o'rganish va ularni rivojlantirish uchun qo'shimcha kadrlar tayyorlash dasturlari yordamida hal etilishi mumkin. O'ziga

xos mahalliy madaniyatlarni saqlash va qo'llab-quvvatlash – birlashtiruvchi mafkura asosida faoliyat yurituvchi ko'p millatli davlat doirasida umumiy madaniy merosni saqlash masalasi. Madaniyat va madaniy siyosatning davlat va jamiyat mafkurasidagi o'rni esa shu qadar ravshanki, qo'shimcha izohga muhtoj emas.

Ijtimoiy-madaniy sohani tartibga solish jalb qilingan mablag' va sa'y-harakatlardan bir necha barobar ko'p samara beradi, biroq bu samara kechiktirilgan xususiyatga ega, chunki bu ta'sir turiga xos bo'lgan, bir necha avlodlarga mos keladigan vaqt ko'lamiga ega sivilizatsiyaviy ta'sirdir. Davlat nuqtai nazaridan sivilizatsiyaviy va ijtimoiy-madaniy ta'sir, bir tomondan, jahon jarayonlariga integratsiyalashish salohiyatining o'sishida, ikkinchi tomondan esa o'z rivojlanishining o'ziga xosligi va individualligini saqlab qolishda umumlashtiriladi.

Madaniyat sohasi o'ziga xos soha bo'lib, unda boshqaruv mutaxassislaridan o'zlari boshqarishni o'z zimmalariga olayotgan sohaga yo'naltirishni talab qilish oqilona bo'lardi. Bu ulardan aynan madaniy jihatdan yuqori malakani kutish kerak degani emas, ammo loyiha va dasturiy boshqaruv ko'nikmalari albatta mavjud bo'lishi kerak. Byudjet sohasida bozor muhiti chaqiriqlari sharoitida faoliyat o'zgarishlarining ma'nosini aks ettiruvchi yo'nalish – resurs uchun kurash paydo bo'ldi. Madaniyat sohasidagi menejment yuqoridan “tushadigan” resurslarni iste'mol qilish psixologiyasiga va begona, noan'anaviy resurslarni jalb qilishda ortiqcha tashabbus ko'rsatishdan qo'rqishga asoslangan ilgari shakllangan stereotiplarni buzishni talab qiladi. Madaniyat sohasida o'zar munosabatlarning bozor tizimining barcha yaqqol kamchiliklariga qaramay, aynan bozor ushbu qoliplardan xalos bo'lish va nafaqat tashkiliy, balki moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanish imkonini beradi. Ushbu menejerlar axborot makonining yopiqligini yengib o'tishlari va madaniy muhitni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan hamda ular uchun tushunarli bo'lgan ishbilarmonlik tilidagi aloqalarni talab qiladigan biznes bilan o'zar aloqa darajasiga olib chiqishlari kerak bo'ladi [5, 112–115-b].

Boshqaruvdan madaniy sohaning barcha yo'nalishlarini bir xil istiqbolli deb qabul qilish qobiliyatini talab qilish kerak, bu esa ko'p yillar davomida shakllangan mafkuralashtirilgan ma'muriyatchilik konsepsiyasi va modeliga ko'p jihatdan zid keladi. Madaniyatda menejer uchun "yomon" yo'nalish yo'q - tadqiqot bosqichida, masalan, xalq ijodini saralash va unga asossiz ustuvorlik berish mumkin emas. Boshqaruvchining tushunchasi va dunyoqarashiga mos kelmagani uchungina boshqa, noan'anaviy yo'nalishni tashlab yuborishga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Idrokning kengligi va erkin fikrlash madaniyat sohasi mutaxassisi bo'lmasa-da, boshqaruv ta'sirlari tizimining shu soha manfaatlari yo'lida ishlashini ta'minlash niyatida bo'lgan professional boshqaruvchining belgilovchi sifatlariga aylanadi. Yaqin vaqtlardan qolgan yana bir xato: "davlatchilik" va yondashuvlardagi rasmiyatchilik. Madaniyat sohasida madaniyat ehtiyojlarini davlat ehtiyojlari, ijtimoiy rivojlanish va bozor hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari bilan muvofiqlashtira oladigan samarali menejment korpusini shakllantirish uchun boshqaruv ongidan bu noto'g'ri qarashlarni yo'qotish zarur.

Madaniyatni boshqarishda innovatsiya va an'ana muvozanatini saqlashni o'rganish lozim. Qadriyatlar va ba'zi tashkiliy shakllarni saqlash an'anasi "madaniyat qiyofasi"ni saqlab qolish uchun zarur-masalan, an'anaviy tashkilot mumtoz musiqa jamoasi, drama teatri, yangi bo'lmagan san'at namunalarini to'playdigan rasmlar galereyasi uchun katta ahamiyatga ega. Madaniy an'ana kabi nozik tuzilmaga aralashish, uni o'z ijodi bilan ifodalovchi odamlar tomonidan rad etilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, madaniy an'ananing xalqchil, ijtimoiy variantida bo'lishi jamiyatni barqarorlik holatida ushlab turish imkonini beradi. Madaniy sohadagi innovatsiya madaniyatning sivilizatsion mohiyatiga zid bo'lishi mumkin emas.

Kadrlar tayyorlash O'zbekiston Respublikasidagi zamonaviy madaniy faoliyatning muammosidir, chunki moliyalashtirish yetishmovchiligi sharoitida rahbar yaxshi tayyorlangan menejerlarning butun salohiyatidan foydalanmasdan, sinov va xatolar usullaridan foydalanishga majbur bo'ladi, ular cheklangan moddiy

rag'batlantirish sharoitida ishlashni xohlamaydilar. Loyihaviy va dasturiy yondashuvlardan foydalanish rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki u madaniyatga investitsiyalar va mablag'larni jalb qiladi, hatto ularning yuqori moddiy talablari bilan ham professional menejerlarda qiziqish uyg'ota oladi, bunday turdagi menejerlardan samarali infratuzilmani yaratish va faoliyatning boshqa sohalari bilan o'zar hamkorlik qilish bo'yicha harakatlarni kutish mumkin. O'zar hamkorlik madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashishi mumkin.

Madaniyat sohasidagi axborot innovatsiyalari o'ziga xos yo'nalish bo'lib, uni shartli toifalarga ajratish mumkin:

- madaniyatning faoliyatiga axborot mahsulotini joriy etish;
- madaniyatni boshqarish sohasiga axborot mahsulotlari va texnologiyalarini joriy etish. Ikkala toifa ham faoliyatning barcha sohalarida talabga ega va bunda madaniyat faoliyatning boshqa har qanday sohasi kabi innovatsion rivojlanishga ehtiyoj sezadi. Dasturiy-maqсадli usul madaniy sohada axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish uchun moddiy-texnik va kadrlar bazasini shakllantirishga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish imkonini beradi. Ushbu mahsulotlar va texnologiyalarni qo'llash asosida madaniy faoliyatni boshqarishga tizimli yondashuv shakllanadi, chunki axborot texnologiyalarini qo'llash faoliyatni tizimlashtiradi va optimallashtiradi. Boshqaruvning dasturiy-maqсадli usuli universallik xususiyatiga ega bo'lib, u bir nechta komponentlarni qo'llash va ehtiyojga qarab ularni qo'llashni kombinatsiyalash imkoniyatidan iborat.

Kumulyativlik tamoyili-istalgan parametrlarga ega natijalarni olish uchun oldindan belgilangan ko'rsatmalar bilan modellashtirish usuli yordamida loyihalarni yaratish imkoniyati. Kumulyativlik – aniq ifodalangan maqsadlar va maqsadlarga erishishning hisoblangan yo'llari asosida faoliyatni optimallashtirish imkoniyati bo'lib, bunda turli manbalardan resurslarni jalb etish va ulardan foydalanish tashkil etiladi. Sanab o'tilgan usullar tufayli dasturiy-maqсадli yondashuv boshqaruv, maqsadni belgilash, ichki jarayonlarni tartibga solish va

resurslarni taqsimlash nuqtai nazaridan barqarorlik va bashorat qilish imkoniyatiga ega.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Qosimova G. *Menejment nazariyasi*. – Toshkent: Moliya, 2011. – 256 b.
2. Qayimov M., Umarov A., Zunnunova U. *San'at menejmenti. O'quv qo'llanma. Yextremum-press*. – Toshkent: Yextremum-press, 2012. – 220 b.
3. Zunnunova U., Fayziyev T. *Art marketing. O'quv qo'llanma*. – Toshkent, 2019. – 276 b.
4. Zaynuddinov Sh. *Menejment asoslari. Darslik*. – Toshkent: Moliya, 2006. – 217 b.
5. Fayziyev T. *Tadbirkorlik asoslari. O'quv qo'llanma*. – Toshkent: Afzalzoda books, 2024. – 362 b.

**Rahima Yusupova**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası dotsenti  
E-mail: [rkasymovna@mail.ru](mailto:rkasymovna@mail.ru)

**Zarina Nurullayeva**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi  
E-mail: [@zarinanurullayeva31@gmail.com](mailto:@zarinanurullayeva31@gmail.com)

## XOTIN-QIZLARNING MADANIYAT VA SAN'ATDA ILMIY HAMDA IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya.** Bugungi imkoniyatlar asrida xotin-qizlarning madaniyat va san'at sohasidagi faoliyati ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayollarning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish jamiyatda mavjud bo'lgan ko'plab kamchiliklarni bartaraf etishda, xususan, bugungi raqamli madaniyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z-o'zidan ayollarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirishni talab va taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, ijod, san'at, salohiyat, qobiliyat, tenglik, estetik, stereotip, tafakkur.

## DEVELOPING THE SCIENTIFIC AND CREATIVE POTENTIAL OF WOMEN IN CULTURE AND ART

**Abstract.** This article examines the role of women's participation in culture and art as an important factor in social development. It analyzes the significance of enhancing women's scientific and creative potential in addressing contemporary challenges, particularly in the context of digital culture. The study emphasizes the need for continuous development of women's intellectual and creative capacities as a key condition for sustainable cultural progress.

**Keywords:** culture, creativity, art, potential, ability, equality, aesthetic thinking.

Zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning madaniyat va san'at sohasidagi o'rni kun sayin ortib bormoqda. Natijada bu sohada har jihatdan yetuk, ma'naviy kamol topgan va ijodkorlik salohiyatga ega bo'lgan kadrlarga talab va ehtiyoj, ayni shu sohada ayollarimizni o'qitishga va rivojlantirishga shart-sharoit yaratmoqda. Madaniyat va san'at-jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilovchi muhim soha. Ayollar bu jarayonda ijodkor, ilmiy tadqiqotchi, tarbiyachi. Shuningdek, madaniy merosni saqlovchi sifatida ishtirok etadi. Tarixdan ma'lumki, ayollarimiz asosan oila ishlari va farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lib kelishgan. Ming afsuslar bo'lsinki, natijada oiladagi mas'uliyat sabab ayollarda ijodiy va ilmiy salohiyatning o'sishi ortda qolgan va hozir ham bunga guvoh bo'lishimiz mumkin. Chunki farzand tarbiyasi, ro'zg'or yumushlari sabab ijodiy erkinlikka vaqt topilmasligi tabiiy hol. Bolani faqat ona tarbiyalaydi deb o'ylaydigan jamiyatda ayollarning romani va ilmiy kashfiyoti hech qachon tug'ilmaydi. Azal-azaldan o'zbek oilalarda asosan erkak moddiy taraflama ta'minlovchi sifatida qaralgan va buning natijasida oiladagi qolgan vazifalar ayollarning zimmasida bo'lgan. Jamiyatda ayollarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish uchun avvalambor, ularni shu mas'uliyatdan qisman ozod qila olsakgina, ma'lum bir o'zgarishlarga duch kelamiz. Hozirgi davrning raqamli madaniyat va internet tarmoqlarining shiddat bilan rivojlanayotgan bir bosqichida zamonamizning haqiqiy jonkuyarlari, ya'ni ayollar uyda o'tirgan holda ham erkin izlanishlar olib borishmoqda. Ularning ijodiy, ilmiy va iqtisodiy taraflama o'sishi kuzatilmoqda [1].

Falsafiy nuqtai nazardan, jamiyatda madaniy taraqqiyot ayollarining ijtimoiy va ijodiy faolligiga, ya'ni: "Jamiyat rivoji ayollarining erkinligi va bilimiga bog'liq".

Ayollarning madaniyat va san'at sohasidagi faoliyati ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayollarning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish nafaqat san'atning yangi jabhalarini kashf etadi, balki milliy madaniy merosni asrab avaylash va ularni boyitishga xizmat qiladi. Madaniyat va san'at

sohasida ayollar ijodi ko'pincha milliy qadriyatlar, oila, tarbiya, estetik dunyoqarash va insoniylik g'oyalarini aks ettiradi. Shu sababli ayollarning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash madaniy siyosatning muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda ham bu borada davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan turli festival, ko'rik tanlov va ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi madaniyat va san'at sohasida faol ijodkor ayollarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshiradi. So'nggi yillarda, ayniqsa, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan milliy dastur va “Oila va va xotin qizlarni tizimli qo'llab quvvatlash” farmoni asosida madaniyat va san'at sohasida xotin-qizlarning ishtirokini oshirish bo'yicha aniq qadamlar qo'yilmoqda. Masalan, 2026-yil fevral oyida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida “Xotin-qizlarning madaniyat va san'at sohasidagi ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning zamonaviy imkoniyatlari mavzusida anjuman o'tkazildi [2]. Bu tadbirda respublikaning yetuk olim va ijodkor ayollari, mutaxassislar ishtirok etib, ta'lim, grantlar, loyihalar va stereotiplarni bartaraf etish masalalarini muhokama qilishdi.

Ayollarimizning madaniyat va san'at sohasidagi ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish bo'yicha bajarilayotgan ishlar bu shunchaki “xalqaro trend” emas, balki milliy o'zlikni saqlab qolish va yangilanishning kalitidir. Chunki o'zbek madaniyati – bu asrlar davomida ayollar ijodi bilan boyigan va yanada sayqallanib kelayotgan madaniyatdir. Zulfiya, Halima Xudoyberdieva va yana bir qancha ma'naviy immuniteti mustahkam ijodkor ayollar bunga yorqin misoldir. Agar ularning salohiyati to'liq ochilmasa, milliy madaniyat “yarim ovozdada” qoladi. Eng muhimi, oilaviy yuklama, qishloq joylarda ta'lim va imkoniyatlar cheklovi, stereotiplar (san'at bu ayollar ishi emas) hali ham kuchli. Lekin davlatning “Oqila ayollar” harakati gender byudjetlash va maxsus grantlar. Bu to'siqlarni asta-sekin yengib o'tmoqda.

Ijod – bu nafaqat go‘zallik, balki o‘z-o‘zini anglash va kelajakni tasavvur qilish vositasidir. Tarixan madaniyat va san’at sohasida ayollarning o‘rniga bir nazar tashlaydigan bo‘lsak, tarix zarvaraqlari shuni ko‘rsatadiki, ayollar adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, teatr va hunarmandchilikda katta hissa qo‘shib kelgan. Masalan o‘zbek adabiyotida Zulfiya ijodi ayol ijodkorlarning man’aviy va badiiy salohiyatini namoyon etadi. Jamiyatda xotin-qizlarning roli kengaygan sayin turli sohalarda, shu bilan birga madaniyat va san’at sohasida ham sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Yurtboshimiz tomonidan qaratilayotgan e’tibor sabab hozirda barcha sohalarda ayollarimizni bir qancha yutuqlarga ega bo‘layotganlarini ko‘rish jamiyatimizda barcha teng huquqli ekanligini isbotlaydi. Hozirda ayollarimizning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish orqali jamiyatimizdagi ma’lum bir tabii xira qiladigan kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Shu sababli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan xotin-qizlarning ta’lim va tarbiyasiga oid bir qancha keng ko‘lamdagi qarorlar e’lon qilindi va shu qarorlar natijasi o‘laroq madaniyat va san’at sohasida ayollarning erkin ijod qilishiga barcha imkoniyatlar yaratildi. Xususan, 2018-yil 26-avgustda “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PR-3290 imzolandi.

2018-yilda ma’adaniyat va san’at tizimini tubdan takomillashtirishbo‘yicha qabul qilingan qarorda:

1. Madaniyat markazlari faoliyatini modernizatsiya qilish.
2. Musiqa va san’at maktablarini rivojlantirish.
3. Ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish;
4. Milliy madaniy merosni asrash kabi vazifalar belgilandi [3].

Bu qarorlar ijodiy ta’lim tizimida xotin-qizlarning faol ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz ayollarning ta’lim olish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatib, “Agar ayol bilimli va ma’rifatli bo‘lsa, butun jamiyat ma’rifatli bo‘ladi”, – deya ta’kidlaydilar.

Ayollarning madaniyat va sa’natdagi faolligi yosh avlod tarbiyasiga ham

ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki ijodkor ayollar jamiyatda estetik tafakkur, ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashni rivojlantiradi. Shu bois xotin-qizlarning madaniyat va san'atda ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi faqat bir sohaning emas, balki ta'lim, madaniyat siyosati, ijtimoiy tenglik va innovatsiya bilan bog'liq kompleks jarayondir. Ayollarning madaniyat va san'atdagi faoliyatining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri quyidagi jabhalarda ko'zga tashlanadi.

1. Milliy madaniyatni boyitadi.
2. Yosh avlodning estetik didini shakllantiradi.
3. Gender tenglikni mustahkamlaydi.
4. Yangi ijodiy maktablar va ilmiy yo'nalishlar paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Xotin-qizlarning ilmiy va ijodiy rivojlanishi ta'lim, madaniy muhit, davlat siyosati va shaxsiy rivojlanishga bog'liq. Bugungi kunda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ko'zda tutilgan maqsadlar, jumladan san'at va madaniyat sohasida oliy va kasb-hunar ta'limini kengaytirish, maxsus kurslar, studiyalar tashkil qilish, onlayn platformalar orqali bilim olish imkoniyatlarini yaratish, ya'ni turli xildagi video-darslar, master-klasslar va yana bir qancha shunga o'xshash shart-sharoitlar yaratishni ham ta'minlaydi. Ushbu jarayonda ayollar manfaatlari va ishtiroki muhim o'rin tutadi. Chunonchi ularning ilmiy, ijodiy salohiyati san'atshunoslik, madaniyatshunoslik, pedagogika va ta'lim yo'nalishlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi va bu bevosita amaliy faoliyatda – musiqa, teatr, adabiyot, rasm, raqs, tasviriy san'at va hunarmandchilik yutuqlarida namoyon bo'ladi.

Xotin-qizlarning madaniyat va san'at sohasida ilmiy hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirish bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollarning intellektual, estetik va ijodiy imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki milliy madaniyatning boyishi va yangilanishiga ham xizmat qiladi.

Shuni aytish mumkinki, xotin-qizlarning madaniyat va san'atdagi faolligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi: ta'lim tizimida teng imkoniyatlar yaratish, ijodiy tashabbuslarni rag'batlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda ijtimoiy-madaniy muhitni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni rivojlantirish. Shu bilan birga, ayollarning ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatga keng jalb etilishi innovatsion g'oyalar paydo bo'lishiga va madaniy merosning zamonaviy talqinda rivojlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda davlat siyosati, ta'lim muassasalari va jamiyatning barcha qatlamlari o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borgan taqdirdagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

Qolaversa, ayollarning madaniyat va san'at sohasida ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish faqatgina shu soha uchun xizmat qilmaydi, balki jamiyatdagi barcha sohalarning rivojiga turtki bo'lib xizmat qiladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va gender tenglikka oid farmon va qarorlari. – 2018–2022.*
3. *Simone de Beauvoir. The Second sex. – Paris: Gallimard, 1949. – 900 p.*
4. *UNESCO Gender Equality in Culture bo'yicha hisobotlar. – 2014.*

**Munisa Mavrulova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasida dotsenti,  
falsafa fanlar doktori (DSc)  
E-mail: mavrulovamunis@icloud.com*

## **YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA MA'NAVIY BOYLIK VA KOMIL INSON TARBIYASI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ma'naviy boylik tushunchasi hamda Yangi O'zbekiston sharoitida barkamol shaxsni tarbiyalashning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Unda ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analar va zamonaviy taraqqiyot jarayonlari uyg'unligi asosida barkamol avlodni shakllantirish masalalari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ma'naviy boylik, barkamol shaxs, milliy qadriyatlar, ta'lim va tarbiya, yoshlar siyosati, vatanparvarlik, axloqiy fazilatlar, ta'lim tizimi, ijtimoiy rivojlanish.*

## **SPIRITUAL WEALTH AND THE EDUCATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED INDIVIDUAL IN THE CONTEXT OF NEW UZBEKISTAN**

***Abstract.** This article examines the concept of spiritual wealth and the current issues of educating a harmoniously developed individual in the context of New Uzbekistan. It analyzes the development of a well-rounded generation based on the harmony of spiritual values, national traditions, and modern development processes.*

***Keywords:** spiritual wealth, harmoniously developed individual, national values, education and upbringing, youth policy, patriotism, moral qualities, education system, social development.*

Bugungi dunyoning globallashuv jarayonlari inson ongi, tafakkuri, uning qalbi uchun bo'layotgan kurashni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Turli ma'naviy-mafkuraviy, g'oyaviy tahdid va xurujlar mamlakatlar, millatlar

mustaqilligi, erki va taraqqiyotini yemiruvchi dahshatli kuchga aylanib bormoqda. Bunday ziddiyatli dunyoda omon qolishning yagona yo'li jamiyat a'zolarida sog'lom fikr, mustahkam ma'naviy immunitet hamda ma'naviy va siyosiy madaniyatning uyg'unligini ta'minlashdan iborat bo'lib qolmoqda.

“Bugungi shiddatli, o'ta murakkab zamon shuni ko'rsatmoqdaki, – deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – bu borada faqat ta'lim-tarbiya tizimining o'zi mavjud ma'naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki bugungi kunda bolalarimizni ota-ona, bog'cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo'lidagi telefon “tarbiyalamoqda”. Afsuski, ana shu kichkinagina telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani targ'ib etadigan katta qurolga, zo'ravonlik, yovuzlik “virusi”ni tarqatadigan manbaga aylanmoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz [1, 36-b].

Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda.

Ma'naviy tahdidlar, yot g'oyalar va mafkuralar O'zbekistonda asrlar davomida paydo bo'lgan, shakllangan, davrlar o'tgan sari ilmiy, madaniy, axloqiy qadr-qimmatini tobora ortib borgan milliy boyliklarni jamiyat a'zolari tomonidan iste'mol qilinishiga zarar yetkazmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunning eng dolzarb ilmiy muammolaridan biri – ma'naviy-madaniy boyliklarni aholi iste'moliga kiritish, ulardan samarali foydalanishdan iboratdir.

Jamiyat ma'naviy-madaniy hayotini yanada takomillashtiruvchi, uning taraqqiyotini belgilab beruvchi omillardan biri, bu – ma'naviy faoliyatning ma'naviy ehtiyojlarga mutanosibligini doimo saqlab turishdir. Shuningdek, muhim masalalardan yana biri – shaxs tomonidan ma'naviy boyliklarni iste'mol qilishning ma'naviy ehtiyojga mosligiga erishishdir. Jamiyat a'zolari ma'naviy olamining

qanchalar darajada rivojlanganligi ma'naviy-madaniy ehtiyojlarning qay holatda va qanday maqsadlarda qondirilishi bilan ham o'lchanadi.

Ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilish jarayonini, ayni paytda, ishlab chiqarish holati bilan qiyoslash ham mumkin. Madaniyatshunoslik fanida bu juda muhim masala hisoblanadi. Masalan, inson kitob mutolaa qilganda, musiqa tinglaganda, ijodiy-badiiy jarayonda faol ishtirok etganda o'zi tushadigan ruhiy holatni ijtimoiy-hayotiy tajribasi, bilim saviyasi nuqtayi nazaridan tasavvur etadi. Mazkur holatga tushishning o'zi inson aqli, tafakkur tarzi, turli hissiy kechinmalari, shaxs ma'naviy olami, ijtimoiy faolligi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bunday holatdagi har qanday shaxs, shubhasiz, ma'naviy-madaniy boyliklarni nafaqat iste'mol qiluvchi, balki, ularni yaratuvchisi, ishlab chiqaruvchisi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Madaniyatshunos olimlar o'rtasida ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilish va adabiy-badiiy ijodni bir jarayon sifatida talqin qilish, ular o'rtasida hech qanday farq yo'qligini isbotlashga harakatlar mavjud. To'g'ri, ushbu ikki jarayonning umumiy bog'liqlik tomonlari juda ko'p va ularni mutlaqo bir-biridan ajratib tashlash mumkin emas. Ammo, ayni paytda ular ikki mustaqil soha hisoblanadi.

Har bir jamiyat va davlat o'z manfaatlari, ijtimoiy-siyosiy maqsadlari nuqtayi nazaridan milliy-madaniy boyliklar yaratadi. Jamiyat a'zolari tomonidan ularni o'zlashtirish, iste'mol qilishda ham qulay va ma'qul imkoniyatlar yaratishga harakat qiladi. Shu ma'noda, mazkur jarayon muayyan tarzda siyosiy-mafkuraviy ahamiyatga ham egaligini e'tiborga olish lozim.

Ayni paytda jamiyat a'zolarining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish, bu borada iste'molchining talab va qiziqishlarini yanada kengaytirish uchun har bir shaxsda uning ma'naviy mo'ljalari hamda ma'naviy ideallari haqidagi ko'nikmalarini shakllantirish kerak.

Bugungi globalashuv davrida kishilar ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish, qondirishning yo'llari juda ko'payib bormoqda. Ana shunday paytda shaxs

ma'naviy mo'ljalini aniqlab olish juda zarur. Shu o'rinda, Prezident Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini o'z vaqtida aytilgan deyish mumkin: "Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik kuchini kuchaytiradi [2, 440-b].

O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lasini porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etishi zarur". Har qanday ma'naviy mo'ljal jamiyat va davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy mo'ljalga hamohang bo'lgandagina muayyan yutuqqa erishish mumkin. O'zbekistonning bugungi ma'naviy mo'ljali Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, Yangi O'zbekistonni yaratish yo'lidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-g'oyaviy asosga qurilishi belgilangan [3, 248-b]. Jamiyat ma'naviy mo'ljali va davlat tomonidan tanlangan ijtimoiy mo'ljalning uyg'unligiga erishmasdan turib biron jiddiy yutuqni qo'lga kiritish mumkin emas. Ma'naviy-madaniy boyliklarni yaratish ham, ularni iste'mol qilish ham, pirovard natijada aholining bu borada tobora kengayib borayotgan ehtiyojlarini qondirish ham mazkur uyg'unlikning ta'minlanishiga bog'liq.

Shaxs tomonidan ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilish ko'nikmasining shakllanishi ko'p jihatdan jamiyat a'zolarining o'z ma'naviy ideallarini topish jarayoni bilan bog'liq. Faylasuf olim Qiyom Nazarov ma'naviy ideal deganda shaxs va jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi va harakatlantiruvchi, uni savob ishlar, bunyodkorlikka safarbar etuvchi ezgu g'oya, orzu-maqсад va ijobiy namunalar majmuini ifodalovchi tushunchani nazarda tutadi [7, 85-b].

Ma'naviy ideal shaxsning shakllanishi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unlashuvi ham alohida ahamiyatga ega. Ideal jamiyatni barpo etish esa undan ham og'irroq. Iqtisodiy jihatdan

farovon, mo'l-ko'lhilikka erishgan davlatlarni barpo etish mumkin. Bugun jahon xaritasida bunday mamlakatlar borligi hammaga ayon.

Biroq, gap faqat inson moddiy ta'minoti, mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlari xususida ketayotgani yo'q. Tom ma'nodagi ideal jamiyat, avvalo, shu jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy ildizlari, ularning fuqarolar kamolotiga ta'sir kuchiga bog'liq.

Har bir xalqning ma'naviy ideallarini o'sha xalqning milliy madaniy va ma'naviy taraqqiyot tarixidan qidirish lozim. O'zbek xalqining milliy tarixi ham ma'naviy ideallarni topish, shakllantirish va ularni real hayotga joriy etishdan iborat tarixdir. Ko'hna "Avesto", Urxun-Enasoy yodgorliklari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning barcha asarlari, Birinchi va Ikkinchi Renessans davri allomalarining deyarli barcha nodir tadqiqotlari, jadid ma'rifatparvarlarining kitoblari aslida ma'naviy idealni yaratish, ularni aholi ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi izlanishlar, deyish mumkin [4, 52–71-b].

Mazkur mutafakkirlarning asosiy g'oyalari adolatli davlat va ma'naviy ideal jamiyatni barpo etishdir. Buyuk Forobiy ideal jamiyat – bu yuksak axloqqa ega shaxslar jamiyatidir, deydi. Uning fikricha, adolatli davlatni faqat yuksak axloqli kishilar bilangina qurish mumkin, axloqli inson adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib o'zibilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur, deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin.

Yusuf Xos Hojib ma'naviy idealni insonning ilm-fanga bo'lgan muhabbatsiz ko'rmaydi. Uning qayd etishicha, betimsol boylik bo'lmish bilimning qadri shu darajada balandki, u do'zax o'tidan ham ozod qilishi mumkin. Jahonda bilimdan qudratliroq hech narsa yo'q. Bilimsizlik aslida kishi uchun haqoratdir. Hattoki, bilimsiz odam to'rga o'tirsa, unday to'rni to'r deb bo'lmaydi. Uni poygakdan ham past, deb bilish kerak. Ammo, poygakka bilimdon kishi

o'tirsa, u joyni to'rdan ham a'lo, deb bilish lozim. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ma'naviy ideallikka erishishning eng muhim jihatlarini adolatli davlat va uning odil shohida ko'radi.

Ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilish vositasida ma'naviy ideallik holatiga kelish masalasida mamlakat hududidan yetishib chiqqan allomalarning boy merosi katta kuchga ega. Shu o'rinda, Alisher Navoiyning komil insonning eng muhim xislatlari sifatida sanab o'tgan quyidagi dalillariga diqqat qilish lozim: birinchisi – tavba, ikkinchisi – halol luqma bilan qanoatlanish, uchinchisi – o'z kasbidan rizqini topib kun o'tkazish, to'rtinchisi – shariatga rioya qilish, beshinchisi – tariqat odobini saqlash, oltinchisi – barchadan o'zini kam deb bilish, hattoki, farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, yettinchisi – chuchuk tilli bo'lish, sakkizinchisi – rahmdil bo'lish, to'qqizinchisi – saxiy bo'lish, o'ninchisi – mard bo'lish, o'n birinchisi – halimlik, xushxulq bo'lish, o'n ikkinchisi – rozi-rizolik bilan kun o'tkazish, o'n uchinchisi – sabrli bo'lish, o'n to'rtinchisi – sadoqatli, vafoli bo'lish, o'n beshinchisi – riyozat chekishdan qo'rqmasli [5, 22-b].

Yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, shaxs tomonidan ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilishda inson va jamiyat ma'naviy mo'ljallari hamda ma'naviy ideallar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi sharoitda nafaqat O'zbekiston madaniyatshunoslik ilmida, shuningdek, jahon "Kulturologiya" sohasida ham mazkur masalaga keng e'tibor berilgani yo'q. Buning qator sabablari bor. Masalan, ayrim mamlakatlar va millatlarda o'z milliy-ma'naviy merosini o'rganish holati juda achinarli tarzda qolgan. Buning sababi esa butun jamiyatning "ommaviy madaniyat" iskanjasida qolganligidadir.

Patrik Jozef Byukenenning yozishicha, amerikalik umumta'lim maktablari zarurat tug'ilganda mamlakatni himoya qilishi mumkin bo'lgan fuqaro va vatanparvarlarni tarbiyalamog'i kerak. Ular bolalar qalbiga Amerikaga nisbatan muhabbat tuyg'usini jo etmog'i zarur. Zero, buyuk kishilar tarjimayi holi, tarixiy

va badiiy asarlarni o'qib, xalq qo'shiqlarini tinglab, shonli tarixi aks ettirilgan san'at asarlarini tomosha qilish jarayonida ularning qalbida vatanga nisbatan muhabbat tuyg'usi mustahkamlanib boradi. Bu tuyg'u qanchalik kuchli bo'lsa, vatanning uzviy qismi bo'lib qolish, uning uchun jon fido qilish, butun xalqni o'z oilasini himoya qilganidek, asrab-avaylash hissi shunchalik zo'r bo'ladi.

Baxtga qarshi, bugun bolalarimizni ana shu buyuk meros va tariximizni o'rganishdan mahrum etmoqdalar. Natijada, Artur Shlezinger "Amerikaning tarqoqligi" asarida ta'kidlaganidek, "Xalqni yo'q qilish yo'lida dastlabki qadam – uni xotirasidan judo qilish. Keyingi bosqichda uning kitoblari, madaniyati va tarixi yo'q qilinadi. So'ngra kimdandir yangi kitoblarni yozishni, yangi madaniyat va tarixni o'ylab topishni iltimos qilsangiz bas, xalq asta-sekin o'zligini ham, qanday paydo bo'lganini ham, kimlarning avlodi ekanini ham unutadi-qo'yadi".

Keyingi yillarda butun dunyoda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham bo'sh vaqtga nisbatan munosabatlar o'zgarib bormoqda, shunga mos ravishda paradoks holatlari yuz bermoqda. Bir tomondan, aholi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishdagi yengilliklar, ishlab chiqarishda ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish, kompyuter tizimining keng yo'lga qo'yilishi oqibatida muayyan vaqtda amalga oshirilishi nazarda tutilgan vazifalarni tezroq va sifatliroq hal etish imkoniyatining paydo bo'lishi odamlarda bo'sh vaqtning ko'payishiga olib keldi.

Jamiyat a'zolari tomonidan ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilish jarayonidagi sifat masalasi esa har doim ustuvor tavsifga ega bo'lishi kerak. Masalaning mohiyati shundan iboratki, eng muhimi, ma'naviyat va madaniyat bilan shug'ullanadigan tashkilot va muassasalar tarafidan tashkil etiladigan, o'tkaziladigan tadbirlar soni emas, asosiysi bunday tadbirlarning shaxs kamolotiga ta'sir darajasini aniqlashdan iboratdir.

Hozircha madaniyatshunoslik fanida ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan turli tadbirlar, uchrashuvlar, treninglarning shaxs ma'naviy kamoloti va madaniy olamini shakllantirishga ko'rsatayotgan ta'sirini belgilovchi metodika ishlab chiqilmagan.

Turli davlatlarda bunday holatni aniqlashda o'sha mamlakatlar va millatlar mentaliteti, ijtimoiy-siyosiy maqsadlari, ma'naviy mo'ljallari nuqtayi nazaridan munosabatda bo'linadi. Masalan, g'arb davlatlarida ko'proq aholining ta'lim olishi bilan bog'liq jarayonlarga ustuvorlik beriladi. Patrik Jozef Byukenen shu o'rinda bugungi kundagi G'arb dunyosi mafkuraviy holatini quyidagicha baholaydi: madaniy inqilob bir necha avlod hayoti mobaynida g'alabaga erishgan bo'lsa, uni yengish uchun kamida yana shuncha vaqt talab etiladi, deb o'ylayman. Keyingi janglar siyosat maydonida emas, axloq, tafakkur va ma'naviyat sohasida kechadi. Zero, ro'paramizdagi raqib shunchaki bir siyosiy partiya bo'lmasdan, u o'zga e'tiqod, Xudo va insoniyatga nisbatan tamoman boshqacha qarashlar majmuidir.

Shuning uchun jang taqdirini Kongressdagi bahs-munozaralar emas, balki maktab ta'limi, ommaviy axborot vositalari hamda sudlarning munosabati va nuqtai nazari hal qiladi. Bu o'rinda so'z g'oyat muhim masala – yoshlarning ongi va qalbi xususida borayotir. Buning ahamiyatini madaniy inqilobchilar yaxshi angelaydi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida dunyo olimlari, siyosatchilari G'arb olamidagi ma'naviy bo'shliqni sezib, urchib borayotgan axloqsizlik, Vatanparvarlik masalasidagi kentiklarni anglab, vaqtni boy berganliklarini, imkoniyatni qo'ldan chiqarayotganliklarini tushunib yetmoqdalar.

Yangi O'zbekiston sharoitida bugun G'arb davlatlarida haqli ravishda paydo bo'layotgan ana shunday salbiy holatlarning oldini olish eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham mamlakat rahbari bekorga "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli xavf-xatarlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrashni, ulaning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni unutmasligimiz kerakligini, bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz, deb ta'kidlamagan [6, 480-b].

Aholi tomonidan ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilish natijasida ular ijtimoiy-madaniy tafakkur tarzida amalga oshadigan sifat o'zgarishining

ikkinchi jihati esa shaxsning o'zini-o'zi namoyon qilishi bilan bog'liq jarayondir. Mazkur jarayon asosan ijod bilan bog'liq bo'lib, bunda sub'ektning ijodiy qobiliyati, qiziqishlarining qondirilishi asosiy o'ringa chiqadi. Turli ma'naviy-madaniy ehtiyojlarning mavjudligi ularni qondirish uchun real imkoniyatlar borligidan ham dalolat beradi. Ayni paytda, ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilish jarayonining mazmunli tashkil etilishi ma'naviy ehtiyojlarning yanada ko'payib borishi, ular darajasining ortishiga sabab bo'ladi. Ma'naviy-madaniy ehtiyojlarning qondirilmasligi muayyan makon va zamonda ularni o'z-o'zidan so'nishiga olib keladi.

Bunday holat ikki xil tarzda ro'y berishi mumkin. Birinchidan, milliy-madaniy boyliklarni o'zlashtiruvchi subyektda ma'naviy boyliklarga bo'lgan ehtiyoj yo'qoladi. Ikkinchidan, bunday ehtiyojlarni qondirishda yuz beradigan obyektiv va subyektiv sabablar mazkur holatga ta'sir qilishi mumkin. Obyektiv va subyektiv sabablar mazkur mamlakat rahbariyatning madaniy siyosat borasida olib borayotgan strategik yo'lga, shuningdek, jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatiga, inqirozli va bo'hronli holatga bog'liq bo'ladi. Ma'naviy ehtiyojlar va ma'naviy iste'mol o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi qudratli omil hisoblanadi. Bunday bog'liqlik tufayli aholi tomonidan iste'mol qilinadigan ma'naviy-madaniy boyliklarning samaradorlik darajasi yanada o'sadi. O'z navbatida ma'naviy-madaniy boyliklar va madaniy merosni iste'mol qilish esa ma'naviy ehtiyojlarning dinamik ko'payishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Ma'naviy-madaniy ehtiyojlar milliy-madaniy boyliklarni iste'mol qilishni tartibga soluvchi omil ham ekanligini doimo yodda tutish lozim. Masalan, bunday boyliklarning passiv ravishda iste'mol qilinishining sababi iste'mol qilinishi lozim bo'lgan boyliklarning aholi tomonidan qabul qilishdagi muayyan e'tirozlarning mavjudligidadir. Misol uchun, jamiyat a'zolarining estetik didi masalasini olib ko'rsak. Ma'lumki, estetik did voqea-hodisalarning estetik, hissiy mazmun-mohiyatini, sifatlarini idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqish yoki

qoniqmaslik tuyg'usi estetik mezon hisoblanadi. Estetik did shaxsning fikr-mulohazalari, xatti-harakatlari, moddiy va ma'naviy ijod mahsulotlarida o'z ifodasini topadi. Ayni paytda, estetik did zaminida go'zallikni xunuklikdan ajrata bilish va undan beg'araz shodlanish hamda lazzatlanish qobiliyati yotadi.

Agar jamiyatda ana shunday holat yuz bermasa, ya'ni odamlarda go'zallikdan shodlanish, hunuklikdan nafratlanish ruhiyati bo'lmasa, estetik tuyg'uning darajasi past bo'lsa, shaxsda o'z ma'naviy olamini rivojlantirishga bo'lgan ichki rag'bat so'nggan bo'lsa, bunday holda davlatning o'zi mamlakatda estetik tarbiyani yanada takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rishi lozim bo'ladi. Bunday holatda ta'lim muassasalarida, odamlar ko'p to'planadigan maskanlarda ularni estetik ruhda tarbiyalash, hissiy didni oshirishga yordam beradigan vositalarni ishga solish lozim bo'ladi. Shu ma'noda, ma'naviy-madaniy ehtiyojlar bunday boyliklarni iste'mol qilinishini tartibga soluvchi hodisaga aylanadi.

Aholida ma'naviy boyliklarni iste'mol qilish jarayonini takomillashtirishning intensiv va ekstensiv yo'llari mavjud. Ekstensiv yo'lning mazmun-mohiyati shundan iboratki, bunda shaxsning ma'naviy ehtiyojlari darajasini o'rganishda asosan son ko'rsatkichlariga, masalaning tashkiliy tomonlariga e'tibor qaratiladi. Yangidan-yangi qurilayotgan madaniyat va san'at muassasalari, nashr etilayotgan asarlar soni, ma'naviy sohada mehnat qilayotgan xodimlar son ko'rsatkichlari, ayniqsa, tashkil etilayotgan turli tadbirlarning ko'p yoki kamligi ham ma'naviy-madaniy ehtiyojlar ham ularni qondirishda asosiy omil sifatida baholanadi. Mazkur jarayonda shaxsning ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilishdagi samaradorligini o'lchab bo'lmaydi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatni yanada taraqqiy ettirish, ma'rifatli jamiyat va davlat qurish barobarida jamiyat a'zolari tomonidan ma'naviy-madaniy boyliklarni iste'mol qilinishi jarayonidagi bir-biriga zid ikki holatni ham nazariy, ham amaliy jihatdan e'tiborga olish talab etiladi.

Bir tomondan, bugun O'zbekiston rahbariyati barcha vositalar bilan bo'lsa-da madaniyat va san'atni, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish

bo'yicha ko'plab ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda. Yangidan-yangi madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy xodimlar tayyorlaydigan ta'lim tashkilotlari, kutubxonalar bunyod etilmoqda. Sohaning infratuzulmasi mutlaqo yangilanmoqda. Odamlarning o'z ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishi uchun sharoitlar yaratilmoqda, shaxsning bu boradagi iste'mol qobiliyatlarini yanada oshirish yo'lida jiddiy ishlar olib borilmoqda.

Ayni paytda dunyodagi jiddiy globallashuv jarayoni, turli ma'naviy-mafkuraviy va g'oyaviy tahdidlar, ayniqsa jahonning qator hududlarida ommaviy ravishda axloqsizlik holatlarining ko'payib borishi jamiyat a'zolarining ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini milliy axloq va milliy xarakterimizga yot bo'lgan, milliy fazilatlarimizni oyoq osti qilishga yo'naltirilgan "ommaviy madaniyat" ta'siridan himoya qilish mexanizmining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida shaxs tomonidan xalqimiz ming yillar davomida to'plagan milliy-madaniy boyliklarni iste'mol qilishga xalaqit qilmoqda.

Bunday holatda, asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish tavsiya etiladi: birinchidan, aholining ma'naviy-madaniy ehtiyojlari darajasini turli sotsiologik tadqiqotlar, so'rovnomalar orqali aniqlash, bunda ehtiyojlar ierarxiyasini tahlil qilish, bu boradagi ishlarni tashkil etishda ularning natijalariga amal qilish; ikkinchidan, aholi, ayniqsa, yoshlarning bo'sh vaqt masalasini o'rganish, mazkur vaziyatda yigit-qizlarning ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini o'rgangan holda ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olib, ayni paytda, bo'sh vaqtdan. milliy madaniy meros namunalariidan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish; uchinchidan, aholi tomonidan ma'naviy-madaniy boyliklarini iste'mol qilish, ular ehtiyojlarini samarali qondirish jarayonida jamiyat va alohida shaxslar uchun ma'naviy ideallar masalasini ilmiy jihatdan ishlab chiqish. Mazkur jarayonda yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar, mutafakkirlar, mamlakatimiz ozodligi yo'lida jon fido qilgan vatanparvarlar ijod va qahramonlik yo'lini tadqiq etish asnosida yoshlarning o'z ma'naviy ideallarini topishga ko'maklashish.

---

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. *Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir.* – Toshkent: Tasvir, 2021. – 36 b.
2. Mirziyoyev Sh. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.* – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 440 b.
3. Quronov M., To'rayev Sh., Daminov E., Bozorov O. *Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish.* – Toshkent: 2017. – 284 b.
4. Mavrulov A. *Vatanni sevish mas'uliyati.* – Toshkent: Sano-standart, 2016. – 128 b.
5. Mavrulov A. *Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi.* – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 160 b.
6. Boboyev H., G'ofurov Z. *O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 480.
7. Nazarov Q. *Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya).* – Toshkent: Faylasuflar jamiyati, 2004. – 192 b.

**Xafiza Abdullayeva**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası dotsenti  
E-mail: hafiza05550@mail.ru*

## **YANGI O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI VA INFRATUZILMA RIVOJI.**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida urbanizatsiya jarayonlarining zamonaviy tendensiyalari, shaharlar rivojlanishi, aholi migratsiyasi va shahar muhitini modernizatsiya qilish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, shahar infratuzilmasini rivojlantirish, transport tizimi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy infratuzilma hamda raqamli shahar konsepsiyalarining ahamiyati yoritib berilgan. Urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy o'sish, aholi turmush darajasi, ekologik barqarorlik va shahar boshqaruvi bilan bog'liq jihatlari ilmiy-nazariy asosda o'rganilgan. Maqolada urbanizatsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlari, shaharlarni rejalashtirishda innovatsion yondashuvlar hamda davlat siyosatida infratuzilmaviy islohotlarning o'rni xususida xulosalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** urbanizatsiya, infratuzilma, Yangi O'zbekiston, shaharsozlik, migratsiya, transport infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, raqamli shahar, ekologik barqarorlik, hududiy rivojlanish.*

## **URBANIZATION PROCESSES AND INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN**

***Abstract.** This article analyzes modern trends in urbanization processes in the context of New Uzbekistan, including urban development, population migration, and issues of modernizing the urban environment. It also highlights the importance of developing urban infrastructure, transport systems, engineering and communication networks, social infrastructure, and digital city concepts. The aspects of urbanization related to economic growth, living standards, environmental sustainability, and urban governance are examined on a scientific*

*and theoretical basis. The article presents conclusions on the positive and negative impacts of urbanization, innovative approaches to urban planning, and the role of infrastructural reforms in state policy.*

**Keywords:** *urbanization, infrastructure, New Uzbekistan, urban planning, migration, transport infrastructure, social infrastructure, digital city, environmental sustainability, regional development.*

So'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida urbanizatsiya masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Urbanizatsiya – aholining shaharlarga ko'chishi, shahar aholisi ulushining ortishi, shaharlar iqtisodiy va madaniy markaz sifatida kengayishi bilan xarakterlanadigan ijtimoiy jarayondir. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida shahar muhitini yaxshilash, aholiga qulay infratuzilma yaratish, transport va kommunikatsiya tizimini modernizatsiya qilish muhim vazifalardan biriga aylandi.

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari tabiiy demografik o'sish, ichki migratsiya, ish o'rinlari konsentratsiyasi va shahar iqtisodiyotining kengayishi hisobiga tezlashmoqda. Bunday sharoitda shahar infratuzilmasi – iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va aholi turmush sifatini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining asosiy xususiyatlari jarayoni tarixan muayyan bosqichlarda kechgan bo'lib, mustaqillik yillarida yangi tendensiyalari paydo bo'ldi. Yangi O'zbekiston davrida urbanizatsiya quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

Birinchidan, demografik omillar. Aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'lgan mamlakatlarda shaharlashuv tez kechadi. O'zbekistonda aholi sonining yildan-yilga ortishi shaharlar infratuzilmasiga bo'lgan talabni oshirmoqda. Ya'ni uy-joy qurilishi, ta'lim muassasalari, tibbiyot, kommunal xizmatlar va transport tarmoqlari kengaytirilishini talab qiladi.

Ikkinchidan, ichki migratsiyaning kuchayishi. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar farqi, ish o'rinlarining shaharlarda ko'pligi va ta'lim

imkoniyatlarining markazlashuvi ichki migratsiyani kuchaytirmoqda. Bu esa Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijon kabi shaharlarda aholi zichligining ortishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, yangi shaharlar va yangi turar-joy massivlari qurilishi. So'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi asosida yangi turar-joylar, yangi shahar massivlari, "Yangi Toshkent" kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu shaharsozlikda zamonaviy arxitektura va infratuzilmani bir vaqtning o'zida tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Urbanizatsiya va infratuzilma o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik – shahar hayotining asosiy "qon tomirlari" hisoblanadi. Urbanizatsiion jarayonlar kuchaygani sari infratuzilmaga bo'lgan talab keskin ortishi ma'lum.

Infratuzilmaning asosiy turlari quyidagilardan iborat: transport infratuzilmasi; muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi (gaz, suv, elektr, kanalizatsiya); ijtimoiy infratuzilma (maktab, bog'cha, shifoxona, madaniyat muassasalari); raqamli infratuzilma (internet, elektron xizmatlar); ekologik infratuzilma (yashil hududlar, chiqindini qayta ishlash tizimi).

Urbanizatsiya infratuzilmaga bosimni kuchaytirsada, infratuzilma rivoji shaharlarning barqaror o'sishiga sharoit yaratadi. Demak, bu ikki jarayon bir-biriga bog'liq holda amal qiladi.

Yangi O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish Shahar rivojining muhim ko'rsatkichi – transport tizimining samaradorligi. Urbanizatsiya jarayonlari transport oqimini ko'paytirib, tirbandliklar, havo ifloslanishi va vaqt yo'qotish kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Jamoat transporti tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha mamlakatda avtobuslar parki yangilanishi, metro yo'nalishlarining kengayishi va elektron to'lov tizimlarining joriy etilishi shahar harakatini yengillashtirishga xizmat qilmoqda.

Shaharlarda ko'priklar, tunnellar, yangi magistral yo'llar qurilishi urbanizatsiyaning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, Toshkent shahrida

yangi transport halqalari va yo'l o'tkazgichlar qurilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik transport vositalari (elektrobuslar, velosiped yo'laklari va piyodalar uchun qulay hududlar) urbanizatsiyaning barqaror modelini ta'minlaydi. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda amaliy ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Kommunal va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish urbanizatsiya jarayonlarida eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shahar aholisi ortishi bilan suv ta'minoti, issiqlik, elektr energiyasi, kanalizatsiya va chiqindi tizimiga bo'lgan ehtiyoj ortadi.

Shaharlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish muhim. Suv tarmoqlarining eskirishi va yo'qotishlar katta muammo hisoblanadi. Shu bois, yangi quvurlar o'rnatish, filtratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Urbanizatsiya elektr energiyasi iste'molini oshiradi. Yangi O'zbekistonda energetika tizimini modernizatsiya qilish, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, energiya samarador binolar barpo etish kabi ishlar infratuzilmaning barqarorligini ta'minlaydi.

Shaharlarda chiqindilar hajmi ortishi ekologik xavflarni keltirib chiqaradi. Chiqindilarni saralash, qayta ishlash zavodlari tashkil qilish va sanitariya tizimini yaxshilash bu muammoning yechimi hisoblanadi. Ijtimoiy infratuzilma va shahar muhitining sifatini oshirish faqat uy-joy qurish bilan cheklanmaydi. Ijtimoiy infratuzilma – aholi turmush sifatining asosiy ko'rsatkichidir.

Yangi turar-joy massivlari barpo etilayotgan hududlarda maktab va bog'chalar yetishmasligi tez-tez uchraydi. Shu sababli shaharsozlik rejasida ta'lim muassasalarini qurish birinchi navbatdagi vazifa bo'lishi kerak.

Shahar aholisi ortishi poliklinika va shifoxonalarga yuklamani ko'paytirmoqda. Zamonaviy tibbiy markazlar qurish, raqamli tibbiyot xizmatlarini joriy etish aholi salomatligini ta'minlashda muhimdir. Parklar, teatrlar, muzeylar,

sport majmualari va ko'ngilochar markazlar shahar madaniyatining muhim qismi hisoblanadi.

Raqamli infratuzilma va "aqli shahar" konsepsiyasi yangi O'zbekistonda raqamli transformatsiya davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Urbanizatsiya jarayonlarida raqamli infratuzilmaning ahamiyati ortib bormoqda.

"Smart city" konsepsiyasi elektron davlat xizmatlari, transport harakatini intellektual boshqarish, kommunal xizmatlarda raqamli monitoring, xavfsizlik tizimlarini avtomatlashtirish va shahar ma'lumotlarini tahlil qilish orqali qaror qabul qilish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Raqamli infratuzilma shahar boshqaruvini tezkor, samarali va shaffof qilishga xizmat qiladi.

Urbanizatsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlari urbanizatsiya iqtisodiy o'sish va innovatsion taraqqiyotni tezlashtiradi. Biroq bu jarayon muayyan muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Ijobiy jihatlar: ish o'rinlari ko'payishi; iqtisodiy faollik oshishi; xizmat ko'rsatish sohasi kengayishi; madaniy hayot rivojlanishi; innovatsiyalar markazlashuvi.

Salbiy jihatlar: transport tirbandligi; havo ifloslanishi; uy-joy narxining oshishi; kommunal xizmatlarga bosim; shahar va qishloq o'rtasidagi farqning kuchayishi. Shu sababli urbanizatsiya davlat siyosatida tizimli boshqaruvni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Urbanizatsiya aholi turmush sifatini yaxshilash, ish o'rinlarini ko'paytirish va shahar iqtisodiyotini rivojlantirish imkoniyatini bersa-da, infratuzilmaga bo'lgan talabni keskin oshiradi. Shahar infratuzilmasini barqaror rivojlantirish uchun transport tizimini modernizatsiya qilish, kommunal xizmatlarni yaxshilash, ijtimoiy obyektlar qurish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, shahar ekologiyasini muhofaza qilish va yashil

hududlarni kengaytirish orqali urbanizatsiyaning salbiy ta'sirlarini kamaytirish mumkin.

Demak, urbanizatsiya va infratuzilma rivoji o'zaro bog'liq jarayon bo'lib, Yangi O'zbekistonda shaharlarni strategik rejalashtirish, innovatsion yondashuvlar va davlat dasturlari asosida kompleks ravishda boshqarilishi zarur.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston Respublikasida shaharsozlik va uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror va farmonlar to'plami. – Toshkent, 2020–2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. Shaharsozlik siyosati va infratuzilmani rivojlantirish hisobotlari. – Toshkent, 2021–2024.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
5. Qodirov A. Urbanizatsiya jarayonlari va shahar infratuzilmasi: iqtisodiy tahlil. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 350 b.
6. Safarov B. Shaharsozlik asoslari va zamonaviy infratuzilma. – Samarqand: Sam DU nashri, 2019. – 280 b.
7. Xodjayev I. Hududiy iqtisodiyot va shaharlar rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 2018. – 450 b.
8. World Bank. Urban Development and Infrastructure Modernization in Central Asia. – Washington, 2021. – 180 p.
9. Ochilov D. Kommunal xo'jalik va shahar infratuzilmasini boshqarish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 350 b.

**Nodira Abdunazarova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"  
kafedrasi dotsenti (v.b.)  
E-mail: [abdunazarovanodira44@gmail.com](mailto:abdunazarovanodira44@gmail.com)*

## **JADID MA'RIFATPARVARLARINING MADANIYATGA OID QARASHLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jadidlarning ta'lim, adabiyot, teatr va matbuot sohalari orqali jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan faoliyati haqida so'z boradi, shuningdek jadid ma'rifatparvarlarining madaniyatga oid qarashlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, madaniyat, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, jadid ma'rifatparvarlari, ma'naviy muhit, taraqqiyot, jamiyat, davlat.

### **VIEWS OF JADID REFORMERS ON CULTURE**

**Abstract.** This article examines the activities of the Jadid reformers aimed at enhancing the spiritual life of society through education, literature, theatre, and the press. It also analyzes their views on culture and their contribution to the cultural and social development of society.

**Keywords:** jadidism, culture, spirituality, education, social environment, Jadid reformers, spiritual life, development, society, state.

XIX asr oxiri va XX asr boshlari Turkiston tarixi uchun tub burilishlar davri bo'lib, bu jarayonda jadidchilik harakati alohida ahamiyat kasb etdi. Jadid ma'rifatparvarlari jamiyatni ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan yangilashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Ular xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ilm-fan va zamonaviy bilimlarni keng targ'ib qilish orqali milliy taraqqiyotga erishish mumkinligini asoslab berdilar. Jadidlar madaniyatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab, uni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdilar.

Jadidchilik: “(arab, jadid – yangi) – XIX asr oxiri XX asrning boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat” [1, 115-b]. Jadidchilikni shakllantirishda ko‘plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi.

Ular fikricha, millatning yuksalishi avvalo uning ma’naviy saviyasi, ta’lim darajasi va madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois jadid ma’rifatparvarlari ta’lim tizimini isloh qilish, milliy til va adabiyotni rivojlantirish, teatr va matbuotni yo‘lga qo‘yish orqali jamiyat madaniyatini yuksaltirishga harakat qildilar. Ularning aksariyati o‘z asarlarida Turkiston xalqi madaniyatini rivojlantirish, ma’rifatga chaqirish, Vatan taqdiri va uning istiqboli uchun qayg‘urish kabi muammolarni ko‘tarib chiqqan edilar. Ularning orzusi turkistonliklarni tanazzuldan chiqarish, ilg‘or xalqlar qatori jahon madaniyati tizimida joy olish, o‘z madaniyatini dunyo miqyosiga tanitishdan iborat bo‘lgan. Jadidlar xalqning milliyligini saqlab qolgan holda turmush tarzini zamonaviylashtirish – madaniyatlikning bir belgisi, deb hisoblar edilar. Jadidlarning asar va maqolalarida “madaniyat” iborasi ko‘proq “taraqqiyot” ma’nosida ishlatilganligini kuzatish mumkin [2, 115-b]. Zero, ularning madaniy taraqqiyot va tanazzul haqidagi fikrlari bevosita ilm-fan, maktab-maorif, ta’lim-tarbiya masalalari bilan chambarchas ravishda tahlil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda” [3], deb bildilar.

Turkiston jadidchiligi yo‘lboshchisi hisoblangan Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1906-yilda nashr etilgan “Muntaxabai jug‘rofiyai umumiy” asarida o‘z davrining ilg‘or ziyolisi sifatida madaniyat masalasiga alohida e’tibor beradi.

Behbudiy uchinchi toifa kishilarni “madaniyat” tushunchasi ostida birlashtirib, “madaniy” yoki “shahariy” deb ataydi va quyidagi ta’rifni beradi: “Bularni aksar ishlari tartib va tajriba, ilm va fan va qoida bo’yicha bo’ladur. Maktab, madrasa, masjid, mahkama, ruhoniylar, ibodatxona, amir, xukmron, podshohlari bordur” [4, 27-b]. Mahmudxo’ja Behbudiy ilm-fan taraqqiyoti bevosita madaniyatning eng muhim qismi ekanligini doimiy takrorlagan. Ayniqsa, tabiiy fanlar rivoji natijasida yevropaliklar qo’lga kiritgan yutuqlarni o’quvchiga quyidagicha yetkazadi: “Hikmati tarbiya ilmini yaxshi tajriba ila o’qudilar. Oni uchun oylik yo’lni kung’a, yillik xabarni daqiqag’a yurmoqg’a, kelmoqg’a asbob tayyor qildilar. Shul tariqa osmondagi nimarsalarni bilmoq uchun ajib asboblar tayyorladilar, ya’ni nazariyoti ilmiyani tajriba ila badihoti amaliyag’a solishturub amalga kirguzgonlaridan tilgirof, tilifo’n, tilgirofi havoyi, paraxo’d, temur yo’l, bolun, telesko’p, mikrisko’p kabila chiqardilar. Va shu asboblar sababi ila Yer yuzig’a butun g’alaba qildilar” [4, 239-b].

Xiva xoni Muhammad Rahim – Feruz taxallusi bilan she’rlar yozgan – ma’rifatli inson bo’lgan. Uning sharofati bilan ilk bosmaxona Rossiyadan sotib olinib, Xivaga olib kelingan. Birinchi jadidlar maktabi, hamda qiz bolalar uchun alohida jadidlar maktabi ochgan. Xiva xoni vaziri Islomxo’janing ushbu harakatda homiy sifatida qilgan ishlarini alohida ta’kidlab o’tish lozim, chunki u “usul ul-jadid” maktablarini rivojlantirishga har tomonlama yordam bergan va bunday maktablar ahamiyatini tushungan. Zikr etilgan barcha mintaqalardagi maktablarni birlashtirib turgan narsa shuki, jadidlar o’z madaniyati bilan cheklanib qolmaslikni, xalq qoloq bo’lib qolgani sababi G’arbning texnologik yutuqlarini jalb etishni xush ko’rmaslik ekanini yaxshi anglagan.

Butun jamiyatning qoloq taraflarini ochish va tezroq xalqqa tushunarli bo’lishi maqsadida mualliflar ba’zan hajviy usullardan ham keng foydalanganlar. Abdulla Avloniy o’zining “Madaniyat to’lqinlari” feletonida madaniyat muammolari haqida fikr yuritarkan, “madaniyat qonunida fano va buzuq ishlar bo’lmasligi kerak”, deb yozadi. Ayniqsa yoshlarga qarata “...usti yaltiragan, ichi

qaltiragan bo'lub, boshlarig'a yevropacha qalpog'ini kiyib "madaniyat!", "madaniyat!" deb og'izlarini ko'pirtirub, oz-moz musulmoncha, chala yarim ruscha so'ylashib kulgu bo'lub yurmak madaniyat bo'lmay, masxarabozlikning shabadasidir", deya kinoya qiladi. Avloniy – madaniyat avvalo Sharqda paydo bo'lganligi va keyinchalik G'arbga ko'chishi haqida yozadi. Madaniyat ruscha qo'shib gapirish emas, yevropacha restaranlarda qizlar bilan mayishat emas deydi. G'arbdan madaniyat deb madaniyatga zid narsalarni o'zlashtirayotganimizni aytadi.

O'z davrining yetuk jurnalisti bo'lgan Rauf Muzaffarzoda o'zining "Madaniyat nardboni" nomli maqolasida "madaniyat" iborasiga bir-ikki so'z bilan ta'rif berib bo'lmasligini ta'kidlaydi: "qorong'u go'shalarg'acha o'zining nurini tushurgan madaniyat oftobining ismi har daqiqada tillarda so'ylanub ko'zlarga ko'rilsa ham oning nima ekanligi, buning ilagina albatta bilunib bitmaydur". Millatning madaniyatlilik darajasiga erishishning muhim zinopoyalari sifatida Muzaffarzoda ilm-maorif, matbuot, teatr, jamiyatlar, nashriyot shirkatlari va tarixga murojaat masalalarini ko'radi.

O'zbek ma'rifatparvari Ishoqxon Ibrat "Tarixi madaniyat" asarida: "Madaniyat degan so'z arabiy bo'lub, bizlarga arablardan qolgan so'zdur. Muni turkiy qilganda "shaharlik" demak bo'lur. Madaniyat endi madaniyat degan so'z nizom va qonun ostida idora bo'lub, xalqi ilm va hunarni bilib qilib turgan kasbi ila bahuzur tiriklik qilsa, ana o'shal yerni shahar va odamlarini madaniy derlar.- Madaniyatni tofadurgan va yurg'izadurgan asbobi ilm ekan. Ilm bo'lsa maktab birla bo'lur. Nimalar bo'lsa madaniyat bo'ladi?" deb ta'riflagan.

Madaniyatga erishgan davlat qanday bo'lmog'i kerak, uning moddiy va ma'naviy zamini nimalardan iborat bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritadi. Jumladan, u horijiy davlatlarni ko'rgan, ularning turmush tarzi bilan yaqindan tanish bo'lgan alloma sifatida madaniy taraqqiyotga erishgan davlatni quyidagicha ta'riflaydi: "madaniyat degan so'z nizom va qonun ostida idora bo'lib, xalqi ilm va

hunarni bilib, qilib turg'on kasbi ila bahuzur tiriklik qilsa, ana o'shal yerni shahar va odamlarini madaniy derlar" [5].

Isxoqxon Ibrat uqtiradiki, "Maktab bo'lmasa bu olamda madaniyat joriy bo'lmaydi... Dunyo ishi uchun ilm kerak, ilm!". Ibrat ma'naviy boylikni barcha narsadan ustun qo'yuvchi ma'rifatparvar sifatida o'zi yettita tilni bilgani holda yoshlarni doimo bilim olish bilan birga, til o'rganishga chaqirgan.

Jadid ma'rifatparvarlarining madaniyatga oid mavzuga katta ahamiyat berishi bejiz emas. Ular jamiyatni isloh qilish va taraqqiy ettirishning asosiy yo'li sifatida aynan madaniyat, ma'rifat va ta'limni ko'rganlar. Avvalo, jadidlar uchun madaniyat – bu millatning o'zligini saqlab qolish vositasi edi. Ular milliy til, adabiyot, urf-odat va qadriyatlarni rivojlantirish orqali xalqni birlashtirishga harakat qilgan. Madaniyat jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida qaralgan. Jadidlar fikricha, savodsiz va madaniyatsiz jamiyat rivojlana olmaydi. Shuning uchun ular yangi usuldagi maktablar (usuli jadid maktablari), teatr, matbuot va adabiyot orqali xalqning ongini oshirishga intilishgan.

Madaniyat orqali jahon bilan integratsiya qilish g'oyasi ilgari surilgan. Jadidlar G'arb va Sharq madaniyatini o'rganib, ilg'or yutuqlarni milliy muhitga moslashtirishni maqsad qilgan. Bu esa zamonaviylik va milliylik uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilgan. Madaniyat ijtimoiy islohotlarning vositasi sifatida ham qaralgan. Jadidlar ayollar huquqi, ta'lim, axloq va turmush tarzi kabi masalalarni madaniyat orqali o'zgartirishga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar uchun madaniyat faqat an'anaviy qadriyatlarni saqlash emas, balki zamonaviy ilm-fan, ta'lim va taraqqiyot bilan uyg'unlashgan holda rivojlanishi lozim bo'lgan jarayon edi. Ular milliy o'zlikni asrab qolgan holda, Yevropa va jahon sivilizatsiyasining ilg'or yutuqlarini qabul qilish tarafdori bo'lganlar. Shuningdek, jadid ma'rifatparvarlari madaniyatni jamiyatni uyg'otish, xalqni savodli qilish va mustaqil fikrlaydigan avlodni tarbiyalash vositasi deb bilganlar. Ular teatr, matbuot, yangi usul maktablari orqali madaniy islohotlarni amalga oshirishga harakat qilganlar.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi, 11.12.2023.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005. – 900 b.
3. Мустафаева Н. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик тахлили. – Тошкент: Наврӯз, 2014. – 334 б.
4. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 304 б.
5. Индамас. Маданият тўлкинлари. Садои Туркистон. – 1914 йил 11 май.
6. Музаффарзода Р. Маданият ва биз. Садои Туркистон. – 1914 йил 5 август.
7. Вохидова К. Исхокхон Ибрат. Тарихи Фаргона. Тарихи маданият. – Тошкент: Шарк, 1999. – 36 б.
8. Abdunazarova N. Jamiyat rivojlanishida ijtimoiy va madaniy innovatsiyalarning ahamiyati // *Journal of Culture and Art*, 1, 4. – 2023.
9. Abdunazarova N. *The role of banks in the regional economic development of Uzbekistan: lessons from the German experience.* epubli. – 2014.
10. Abdunazarova N. *Youth education and cultural innovation. European Journal of Humanities and Educational Advancements.* – 2022. – № 3(4), – P. 183–184.
11. Abdunazarova N. *Key factors for the formation of innovative culture in education of youth in renewing Uzbekistan // Theoretical & Applied Science.* – 2021. – № (8). – P. 117–120.
12. Abdunazarova N. *The role of education and upbringing in shaping the moral culture of youth // International Journal of Artificial Intelligence.* – 2025. – № 1(3). – P. 315–318.
13. Rustamovna A. *Jurnalist aqliy mehnat kishisi.* – Toshkent, 2021. – B. 17–21.

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedراسi o'qituvchisi  
E-mail: rahimovkomiljon67@gmail.com*

## **MADANIYAT VA SAN'AT MENEJMENTINING RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada madaniyat va san'at menejmentining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitidagi rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Unda madaniyat va san'at sohasida boshqaruvning samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda ushbu sohada marketing strategiyalarini joriy etish, loyihaviy boshqaruv va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi zamonaviy tendensiyalar yoritiladi. Shuningdek, madaniy va badiiy faoliyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda professional boshqaruv yondashuvlarining ahamiyati asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** madaniyat menejmenti, san'at menejmenti, madaniy siyosat, marketing strategiyalari, loyihaviy boshqaruv, raqamli texnologiyalar, kreativ industriyalar.*

## **MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF CULTURAL AND ART MANAGEMENT**

***Abstract.** This article examines the development of cultural and art management in the context of contemporary socio-economic transformations. It analyzes the role of management in enhancing the effectiveness of cultural institutions and identifies modern trends such as the integration of marketing strategies, project-based management, and digital technologies in the cultural sector. The study also highlights the importance of professional management approaches in the sustainable development of cultural and artistic activities.*

***Keywords:** cultural management, art management, cultural policy, marketing strategies, project management, digital technologies, creative industries.*

Madaniyat sohasida menejmentning turli yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular madaniyatning muayyan sohalari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ularning orasida san'at menejmenti mavjud bo'lib, uning asosiy maqsadi ijodiy loyiha, yangicha kreativ fikr, g'oyaning samarali ishlashini ta'minlashdir.

San'at menejmenti bugungi kunda madaniy qadriyatlarni tanlash, saqlash, ishlab chiqarish va tarqatish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan funksional sohalardan biri hisoblanadi. Odatiy boshqaruvdan farqli o'laroq, "art" darajasi, ya'ni badiiy sohaga tegishli bo'lgan san'atga ishora qiladi. Badiiy faoliyat sohasida amalga oshiriladigan menejmentdir. Bundan tashqari, san'at menejmenti badiiy xizmatlar bozorini shakllantirib, ijrochilar, rejissyorlar, rassomlar va boshqalar tomonidan yaratilgan ijodiy mahsulotlarni targ'ib qiladi.

Yangi O'zbekistonda zamonaviy madaniy sohadagi san'at menejerining faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga, vositalarga, ish qobiliyatlariga ega bo'lgan mustaqil kasbdir. San'at boshqaruvchisining asosiy vazifasi badiiy loyihalar, mahsulotlar, xizmatlarni yaratish va amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat. San'at (art) menejeri – rejalashtirish, motivatsiya, tashkil etish va nazorat qilish kabi boshqaruv usullarini san'at mahsulotlarini yaratish hamda tarqatish, san'at bozorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llaydi [1, 87-b].

San'at menejeri uchun kommunikativ qobiliyat muhimdir. Bu uning ijodiy odamlar, ommaviy axborot vositalari, tijorat tuzilmalari, davlat hokimiyati organlari vakillari va boshqalar bilan o'zaro munosabat va hamkorlik qilish zaruratida mujassamlanadi. Badiiy qadriyatlarni targ'ib qilish yoki tarqatish uchun san'at sohasidagi menejer reklama strategiyasini oldindan bilishi, tegishli binolarni topishi, tegishli xizmatlar uchun to'lovni ta'minlashi va boshqa ko'p narsalar bilan shug'ullanishi kerak.

San'at menejeri turli lavozimlarni egallashi va ko'plab ijtimoiy-madaniy muassasalarda turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rgazma kuratori, san'at bozori maydonida faoliyat yuritayotgan madaniyat va san'at muassasasining

rahbari, ijodiy loyiha koordinatori sifatida. Ba'zan san'at menejeri o'z faoliyatida yanada aniqroq ishlarni amalga oshiradi: art- marketing yoki reklama. San'at menejmenti ommaviy madaniy faoliyatni amalga oshiradigan madaniyat subyektlarida: madaniyat markazlari, ko'ngilochar muassasalar, bolalar bog'chalari, ommaviy axborot vositalari, kino, video, ijara, muzeylar, kutubxonalar, bog'lar, ta'lim muassasalari va san'at subyektlari: konsert zallari, teatrlar, sirk, galereyalar va ko'rgazma zallari, kinostudiyalar, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, badiiy jamoalarda qo'llaniladi. Badiiy boshqaruvning ajralmas qismi ijodiy muammolarni hal qilish uchun doimiy izlanish va nostandart yondashuv zarur. San'at menejerining asosiy faoliyat sohasi ijodiy muhit va ijodkorlar hisoblanadi. San'at menejeridan nafaqat menejer yoki tashkilotchi bo'lish, balki ijodiy, kreativ, badiiy janrlarni tushunish ham talab qilinadi.

San'at menejeri ko'plab muammolarni hal qiladi. Ular orasida biz quyidagi vazifalarni ta'kidlashimiz mumkin:

- badiiy mahsulotlarni sotish bozorlarini izlaydi;
- repertuarni tanlaydi;
- ijodiy loyihalarni ishlab chiqadi;
- noodatiy badiiy asarlarni tanlaydi;
- iqtidorli ijrochilar, rassomlarni izlaydi;
- investitsion muammolarni hal qiladi;
- yangi ijodiy g'oyalar va mahsulotlarni sotish shakllarini izlaydi va amalga oshiradi;
- jamoani tanlaydi, ijodiy jamoaga kastingni amalga oshiradi;
- jamoalar yoki shaxslarning ijodiy rivojlanishi va konsert faoliyatini amalga oshiradi;
- sahna obrazini yaratadi;
- tashqi kommunikativ oqimlarni nazorat qiladi (reklama, ommaviy axborot vositalarida matnlar va boshqalar);
- ijrochi, rassom yoki jamoaning ijodiy o'sishiga g'amxo'rlik qiladi [2, 15-b].

Ijodiy loyiha va g'oyalarni amalga oshirish va hamkorlar (rejissyorlar, rassomlar, yozuvchilar, ssenaristlar, libos dizaynerlari va boshqalar) bilan ishlashning muvaffaqiyat kaliti bo'ladi. Ayniqsa, zarur jihozlar bilan ta'minlash va tashkiliy faoliyatning boshqa jihatlari san'at menejerining samarali faoliyatiga bog'liq bo'ladi. San'at menejeri badiiy faoliyat sohasidagi me'yoriy va huquqiy hujjatlarni bilishi mablag' to'plash qobiliyatiga (fandreyzing) ega bo'lishi kerak. Shu sababli, san'at menejerini o'qitishda homiyilar bilan ishlash texnologiyasi, ijodiy loyihani yaratish va targ'ib qilish qobiliyatlari, badiiy faoliyatning huquqiy asoslariga katta e'tibor beriladi.

Yangi O'zbekistonda san'at menejmentini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari san'at menejerlari san'at bozori faoliyatining umumiy xususiyatlari va uning muayyan sohalarida: festivalni boshqarish, galereya biznesi, konsert biznesi, ovoz yozish sanoati, kino ishlab chiqarish jarayonlarida namoyon bo'ladi. San'at menejeri madaniyat nazariyasi va tarixi bo'yicha fundamental bilimlarni tushunishi, ichki va jahon miqyosidagi ijodiy merosning asosiy xususiyatlarini bilishi kerak.

Masalan, badiiy menejerning teatr jihatidagi vazifalarini to'rt toifaga ajratish mumkin:

- badiiy jihat (tarjima, rejissyorni tanlash, aktyorlarni tanlash, ishlab chiqarish dizaynerini tanlash, kostyumlarni sotib olish, teatr texnikasini o'rnatish, premerani tashkil etish);
- tashkiliy jihat (binoni ijaraga olish, repetitsiyalar jadvali, chiptalarni tarqatish bo'yicha tashkiliy ishlar);
- marketing (reklama tashkil etish, chipta sotish);
- moliyaviy jihat (xarajatlar smetasini aniqlash, byudjetlashtirish, homiyilarni izlash) [3, 44-b].

Mamlakatimizda san'at bozori Yevropa davlatlaridagidan bir necha barobar kichikroq. Shunga qaramay, bugungi kunda tasviriy san'at sohasidagi biznes madaniyat va san'at sanoati kompleksining eng faol rivojlanayotgan

yo'nalishlaridan biridir. San'at biznesining asosini tijorat faoliyatini amalga bir qancha usullari mavjud bo'lgan badiiy galereyalari tashkil etadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, san'at biznesi butunlay mustaqil ravishda rivojlana olmaydi. Unga madaniy faoliyatning boshqa tarmoqlari kabi subsidiyalar va rag'batlantirish uchun samarali chora-tadbirlar (davlat qo'llab-quvvatlash tizimlari, mablag'lar, xayriya) kerak. Mamlakatimizda san'at bozorining rivojlanishiga quyidagi omillar to'sqinlik qilmoqda:

- badiiy asarlar mualliflari, kolleksionerlar, homiylar va boshqa shaxslarning ishlarini tartibga soluvchi qonunlarning yo'qligi yoki zaifligi;
- san'at menejerlarining kasbiy malakasi yetishmasligi va ijodiy mahsulotning yaratuvchisi va iste'molchisi o'rtasidagi vositachilar kamligi;
- madaniyat sohasini saqlash va rivojlantirishga yordam bermaydigan samarasiz soliq siyosati (tadbirkorlikda madaniy faoliyatni qo'llab-quvvatlashni rag'batlantiradigan soliq imtiyozlari mexanizmlarining ishlamasligi);
- milliy san'at va uning ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida homiylar, va xayriya sohasida yaxshi tashkil etilgan amaliyotlarning amalda yo'qligi [4, 28-b].

Madaniyat sohasidagi menejerlar o'z faoliyatlarini teatr, muzey, xalq ijodiyoti, kutubxona, madaniyat markazi, kinoteatr, madaniyat va istirohat bog'i, ko'rgazma zali, galereya, ma'mur-menejer, shuningdek, davlat va tijorat madaniyat tashkilotlari menejeri sifatida tashkil etishlari mumkin.

Madaniyat va san'at sohasidagi menejerlarning asosiy tamoyillari va yo'nalishlari o'xshash xususiyatlarga ega. Madaniyat va san'at muassasasi menejeri, qoida tariqasida, tashkilotda boshqaruv, tashkiliy, marketing va boshqa tegishli funksiyalarni bajaradi, shuningdek ijodiy jamoalar faoliyatida katta rol o'ynaydi. Madaniyat menejeri ijodkorlik, estetik tarbiya, madaniy merosni saqlab qolish sohasidagi faoliyatning mazmunini tartibga solish, muvofiqlashtirish va tashkil etish uchun mavjud.

Madaniyat sohasida menejerining ishi uchun zarur shart – bu aloqa texnologiyalari, axborot oqimlari, marketing ko'nikmalarini, kadrlarni boshqarish, moddiy, ramziy, moliyaviy resurslardan malakali foydalanish hisoblanadi. Menejerlar madaniy loyihalarni ishlab chiqish, festivallar, aksiyalar, ko'rgazmalar o'tkazish, investor bilan shartnoma tuzish, madaniy resurslarni kapitalizatsiya qilish davlatning madaniy salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi. Nafaqat ma'rifat, tarbiya, shakllantirish, balki ijod va ijodiy g'oyalarni o'zida mujassam etish uchun sharoit yaratishga qodir bo'ladi. Madaniyatning salohiyatini ham oshiradi.

Madaniyat menejeri o'z faoliyatini ushbu sohaning istalgan muassasasida amalga oshirib, butun madaniyat sohasidagi kuzatilayotgan bozor sharoitlariga va axborot jamiyatining tendensiyalariga qarab o'zgarish va moslashishning qiyin davrini hisobga olishi kerak. Menejer ko'plab madaniyat muassasalari uchun umumiy faoliyat yo'nalishlariga e'tibor qaratishi kerak:

**1. Innovatsion ish uslublarini joriy etish.** Bunda biz muntazam rivojlanayotgan va tatbiq etilishi mumkin bo'lgan interaktiv tadbirlar, shou elementlari, texnik vositalarni va boshqalarni nazarda tutyapmiz. Bundan tashqari, yangi ish usullarining muhim qismi madaniyat va san'at muassasasini madaniy dam olish, sayyohlik, moda, ommaviy axborot vositalari va boshqa sohalarga integratsiyalashga urinish hisoblanadi. Bu esa byudjetdan tashqari daromad manbalariga ijodiy faoliyatdan qo'shimcha daromad olish imkonini beradi.

**2. Axborot ta'minotining turli shakllaridan foydalanish.** Axborotni ta'minoti nafaqat madaniyat va san'at muassasasini kelgusi hodisalar haqida o'z vaqtida xabardor qilishni, balki tashkilotning ijobiy imijini, obro'yini, muayyan stereotiplarni va potensial iste'molchining uning faoliyati va vazifasi haqidagi fikrlarini boshqaradigan axborot oqimlari bilan yaxshi ishlashni ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda, asosan, bosma reklamaning an'anaviy usullaridan tashqari madaniyat muassasalari muvozanatli marketing strategiyasiga ega emas. Ushbu strategiyaning tarkibiy qismi bozorni o'rganish (marketing muhiti, potensial

auditoriya istiqbollari, ehtiyojlar), brending, PR-faoliyati, Internet tarmog'idan foydalanish, muntazam yangilanib turadigan va ijodiy sayt yaratish, korporativ identifikatsiyalash, promo-aksiyalar, ochiq tadbirlar, festivallar kabi bo'lishi mumkin.

**3. Faoliyatning yangi tashkiliy shakllarini rivojlantirish.** Zamonaviy vaziyat madaniyat va san'at muassasasining faqat samaradorligini emas, balki qiyin iqtisodiy sharoitlarda "suvda qolish" imkoniyatini ta'minlash uchun menejerdan doimiy faol ishlashini talab qiladi. Gap turli xil amaliyotlarni joriy qilish haqida ketyapti. Ularning aksariyati madaniyat va san'at muassasalari va ular tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan [5, 34-b].

Madaniyatni biznes bilan o'zaro bog'lashning yangi usullaridan biri – madaniyatning turli sohalarida vaziyatni avvaldan to'g'ri tahlil qilish hisoblanadi. Xususiy-davlat sherikchiligi, korporatsiyalarni yaratish va .h.k. Bundan tashqari, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishning boshqa mexanizmlari ham mavjud bo'lib, ular orasida madaniy industriyalar (nashriyot, reklama, turizm, dekorativ ishlab chiqarish, dizayn, moda, esdalik sovg'alar ishlab chiqarish) sohasiga integratsiya qilish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy loyihalar imkoniyatlaridan faol foydalanish, buning natijasida ijodiy loyihalar amalga oshiriladi. Madaniy yangiliklar yaratiladi [6, 34-b].

Madaniyat menejeri ishining o'ziga xosligi asosan o'z vakolatlarini amalga oshiradigan madaniy faoliyat sohasiga bog'liq. Ushbu madaniyat sohalarining ayrimlarini menejer faoliyati uchun o'ziga xos ekanligida. Bugungi kunda dekorativ-amaliy hunarmandchilik, badiiy-sanoat ishlab chiqarish sohasi o'zining rivojlanishi uchun katta salohiyatga ega. Bu sohada ko'pincha – metall, mato, yog'och, loy va boshqa materiallardan qo'lda ishlanadigan mahsulotlar ishlab chiqarishning amaliyotlar hisoblanadi. Bu yerda rassomning mahorati katta ahamiyatga ega. Ba'zi hunarmandchiliklar xalq hunarmandchiligi bo'lib, ularning faoliyati xalq san'ati an'analarini qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. An'anaviy hunarmandchilikning uslubiy xususiyatlari saqlanib qolingan.

Bugungi kunda madaniyat menejeri uchun badiiy hunarmandchilikni saqlab qolish muammosi vaqtida ilmiy-amaliy o'rganilib, sohaga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilgan. O'zbek milliy noyob va takrorlanmas o'tmish yillari an'alarini saqlab qolgan hunarmandchilik madaniy merosning bir qismidir. Shuning uchun ularga sanoatning odatiy turi sifatida qarash mumkin emas.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Haydarov A. *Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. O'quv qo'llanma.* – Toshkent: Kamalak, 2019. – 232 b.
2. Haydarov A. *Ijodiy faoliyatni rejalashtirish va boshqarish. O'quv qo'llanma.* – Toshkent: Kamalak, 2019. – 198 b.
3. *Madaniyat va san'at sohasida zamonaviy boshqaruv jarayoni: muammolar va yechimlar. [Matn]to'plamda / Mas'ul muharir M. Xolmo'minov.* – Toshkent: Ijod print, 2023. – 504 b.
4. Xolmo'minov M. *Madaniyat va san'at muassasalari xodimlarining malakasini oshirish dasturi. Uslubiy qo'llanma.* – Toshkent: Ijod-print, 2023. – 85 b.
5. Ikramov S., Xolmo'minov M. *San'at va madaniyat sohasini zamonaviy boshqaruv usullari. Uslubiy qo'llanma.* – Toshkent: Ijod-print, 2023. – 250 b.
6. Xolmo'minov M. *San'at menejmenti fanini o'qitishda me'yoriy hujjatlarning o'rni va ahamiyati // Oriental Art and Culture.* –2021. – № 2.4. – 123–130-b.

Samarqand davlat universiteti  
“Jahon tarixi” kafedrası doktoranti  
E-mail: jalolidinabduxamidov@gmail.com

## **YETTISHAHAR DAVLATIDA MADANIY HAYOT**

**Annotatsiya.** Mazkur mavzu Yettishahar davlatida madaniy hayotning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini yoritishga bag'ishlangan. Unda hududda yashagan xalqlarning urf-odatları, an'analari, diniy e'tiqodları hamda ma'naviy qadriyatları tahlil qilinadi. Shuningdek, Yettishahar davlatida ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilik sohalarining rivoji, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Mavzu orqali ushbu davlatning madaniy merosi, uning o'ziga xos jihatlari hamda boshqa hududlar bilan madaniy aloqalari haqida umumiy tasavvur hosil qilish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Yettishahar davlati, madaniy hayot, urf-odatlar, diniy e'tiqod, ilm-fan, san'at, me'morchilik, madaniy meros, ijtimoiy hayot, Sharq madaniyati.

## **CULTURAL LIFE IN THE YETTISHAHAR STATE**

**Abstract.** This study examines the formation and development of cultural life in the Yettishahar State. It analyzes the customs, traditions, religious beliefs, and spiritual values of the population. Particular attention is given to the development of science, literature, art, and architecture, as well as their role in social life. The study provides insights into the cultural heritage of the state, its distinctive features, and its interactions with other regions.

**Keywords:** Yettishahar State, cultural life, customs and traditions, religious beliefs, science, art, architecture, cultural heritage, social life, Eastern culture.

Hozirgi Xitoy xududida vujudga kelgan Yettishahar davlati (1865–1878)ga oid tarixiy tadqiqotlarda, Markaziy Osiyo mintaqasining sharqiy va g'arbiy qismlari o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar doimo bir-

biriga ta'sir qilib kelganligi qayd etilgan. Har ikki hududda yashagan mahalliy aholining tili, dini, urf-odatlari, madaniyati juda yaqin va o'xshash, ildizlari chuqur bog'langanligi bois tarixiy, adabiy asarlarining mazmuni, uslubi, yozuvi, husnixati hamda kitobat san'atida ham yaqin uyg'unlik, mavzular o'xshashligi va mushtarak bog'liqligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois, Yettishahar davlati madaniy hayotidagi o'zgarishlar bevosita mintaqaning boshqa hududlariga o'xshash, tarmog'i uzilmas bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu davlatda badiiy adabiyot va tarixnavislik, adabiy jarayonlar hamda ijodiy muhit, diniy madaniyat, musiqa, xattotlik san'ati, badiiy kulolchilik kabi sohalar taraqqiy qilgan [1, 31-b].

Sharqiy Turkistonda shu davrda islom dini va tarixi hamda tarix, adabiyotga oid ko'pgina asarlar yozilgan. Shuningdek, o'ziga xos tarjimonlik maktablari shakllanib, ko'pgina asarlarni tarjima qilish ishlari jonlanib ketgan. Ulardan biri Xo'tonda ancha taraqqiy topgan edi. Bu yerda Xo'ton xokimi Azizshoh topshirig'i bilan "Salovoti Ma'sudiy" va Muhammad G'azzoliyning "Kimyoi saodat" asarlari fors tilidan turkiy (o'zbek) tiliga tarjima qilingan. Ushbu ikki asar Muhammad Iso degan kishi tomonidan tarjima qilingan. Shu tarjima keyinchalik toshbosma va qo'lyozma nusxalarida turkiy tilli aholi orasida keng tarqalgan [2, 156–157-b].

1865-yilda Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan Toshkent bosib olingach, toshkentlik va qo'qonlik sarkardalar Hamdam botirboshi, Turobxo'ja yasavul, Abdulloh ponsod, G'ozibek ponsod, Muhammadquli shig'ovul, Xo'ja kalon xudoychi, Isroilxonto'ra, Umarqul bahodir, Boqibek dodho va jami yetti mingdan ortiq kishi Qashqarga o'tib kelgan [3, 96-b]. Muhammad Yoqubbek Qo'qon xonligi ustaxonalaridan mohir va komil ustalarni o'z davlatiga oldirib kelib, dastlab Qo'qon xonlari Mallaxon (1858–1862) hamda Sayid Sulton (1863–1865)lar nomidan tilla tanga chiqargan [4, 52-b]. Shuningdek, u Qo'qon va Buxorodagi mashhur usta me'mor va naqqoshlarni ham oldirib kelib Yettishaharning turli shaharlarida eng mustahkam va chiroyli binolar qurilishida ishlatgan[5,17-b].

Qo'qon adabiy muhitida shakllangan Akmal Toshkandiy [6, 213–217-b],

1866-yili shoir Toib bilan birga, qo'qonlik Pisandiy ham Qashqar va Yorkendda bo'lgan. Sharqiy Turkistonda bu davrda Furqat, hamda tarixchilardan Imom Ali Qunduziy, Mirza Shams Buxoriy, Muhammad Toyib Muhammad Amin o'g'li, Muhammad Umar qori Umidiy Marg'iloniylar Yettishaharning turli shaharlarida ijod bilan shug'ullanganlar. Ular Sharqiy Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida faol ishtirok etganlar.

Akmal Toshkandiy asarida qayd etilishicha, Muhammad Yoqubbekning kuyovi 1830-yillarda Toshkentda tug'ilgan Akmal Sayidahmadxon o'g'li Toshkandiy – XIX asrda yashab ijod etgan zullisonayn shoir bo'lgan. 1865–1877-yillari Yoqubbekning shaxsiy kotibi va Qashqar qozisi bo'lib ishlagan bu shaxs shahar obodonchiligi va osoyishtaligi uchun katta xizmat qilgan. Muhammad Yoqubbek vafotidan so'ng, u Toshkentga qaytib kelib, maktab ochgan. Uyg'ur tarixchisi Muso Sayromiy u haqda shunday yozgan: “Va yana Akmalxon to'ram edilar, fozil, ulamo, boinsof kishi edi. Ismlariga muvofiq darvoqye komil va akmal edilar”, – deya ta'rif berilgan.

Muso Sayramiyning “Tarixi aminiya” asarida Yettishahar davlatidagi mashhur kishilarning ro'yxatini keltirib o'tadi:

Ulamolar:

1. Buzrukxonto'ra.
2. Kattaxonto'ra.
3. Kichikxonto'ra.
4. Ismoilxonto'ra.
5. Hakimxonto'ra.

Olimlar:

1. Mahmudxo'ja.
2. Ahmadxo'ja.
3. Akmalxonto'ra.

4. Sayid Ardloniy.

5. Sayid Ahroriy.

6. Devona Ota.

Qorilar:

1. Qori Mullo Solih.

2. Mulla Solih.

3. Mir Muhammad Oxund.

4. Abdurashid a'lam.

5. Abduholiq eshon.

6. Ziyovuddin domla.

7. Mulla Qosim A'lam.

8. Ne'mat oxund.

Eshonlar:

1. Kabir Sohib hazrat.

2. Miskinshoh Soyib hazrat.

3. Mulla Ibrohim qoziqalon.

4. Mulla Abdulla oxund.

5. Mulla Muhammad Xasan.

6. Mulla Ismoil mufti.

7. Mulla Abdulatifhoji.

8. Mulla Usmonxon xoji.

9. Shamsiddin a'lam.

10. Eshonhoji hazrat.

11. Mir G'iyosiddin.
12. Mulla Abdulqodirxoja.
13. Imom Rabboniy Majid Alif soniy.
14. Ma'sumxo'ja.
15. Mulla Sidiq hazrat.
16. Mulla Ibrohim.
17. Mulla Norqul oxund.
18. Mulla Sodat oxund.
19. Mulla Akromshoh qozi.
20. Mulla Yusuf oxund.
21. Mulla Olloyor oxund.
22. Mulla Alixoji.
23. Mulla Abdulqodir oxund.
24. Mulla Ahmadhoji.
25. Qozi Surh Abi.
26. Mulla Temurxoji.
27. Mulla Sobit oxund.
28. Mulla Po'latshayh.

Davlat arboblari:

1. Qashqar hokimi Alashbiy dodxoh.
2. Yorkend hokimi Mulla Yunusjon shig'ovul.
3. Xo'tan hokimi Niyozbek.

4. Oqsuv hokimi Mulla mirzaboshi.
5. Kuchor hokimi Abdurahmon dodxoh.
6. Uchturfon hokimi Muhammadbob to'qsabo.
7. Boy va sayram hokimi Muhammad Iminbek.
8. Kuchor hokimi Ishoqjon.
9. Nurmuhammad parvonachi.
10. Kuchor hokimi Omilxonto'ra.
11. Ko'rla hokimi Hoji mirza.
12. Niyozmuhammad to'qsabo.

Sayidlardan Sayid Ahrorxonto'ra ilmi va taqvodor kishi edi. Yana biri Devon ota bo'lib, Hindistondan kelgan. Kelganiga uzoq vaqt bo'lgan. Qodiriya sulukining namoyondalardan bo'lib, Yoqubbekning ustoz bo'lgan. U kishi 114 yoshda bo'lib, Uchturfonda yashagan. Qorilar bu jamiyatda juda e'zozlangan. Ulardan biri Qori Mulla Solih bo'lib taqvodor va solih kishi edi. Yana biri qashqarlik Mulla Muhammad Sharif Halifa 50–60-yil madrasa mudarrisi bo'lgan. Ko'pgina ulamolar undan ta'lim olgan. U kishi hamma uchun foydali bo'lgan amaliy fan bilan shug'ullanganlar. Aytishlaricha, u kishini 300 nafar talabasi bo'lgan. Ularning barchasi Qur'oni karimni xatm qilgan va ularning duosini olgan. U kishi 85 yoshda 1892-yilning 5-aprelida vafot etganlar. Yana birlari Mir Muhammad Oxund qozi kalon bo'lib, u kishi ham taqvodor va vijdonli shaxs edi.

Yettishahar davlati aholi o'rtasida madaniy hayot borasida o'z ko'nikma va uslublarini ayriboshlash jarayonlari yuz bergan. Xususan, sharqiy turkistonliklar uy qurilish uslublari, kiyim-kechak turlarini ishlab chiqarish, musiqa asboblari, zargarlik, kulolchilik va kandakorlik buyumlari yasash borasida amalga oshirilgan ishlari taraqqiy qilgan. Yettishahar shaharlarida hunarmandlar “qashqarcha”, “uyg'urcha” uslublarda yangi buyumlar yasaganlar.

Yettishahar davlatida temirchi va misgarlari metall idishlar: mis qumg'on, mis lagan, mis choyidish kabilarning qopqoq, dasta, bosh va ostki qismlarini an'anaviy shabaka-panjarasimon bezak bilan bezaganlar. Bunday uslubda bezatilgan idishlar nafis va go'zal bo'lishi kandakor ustalaridan yuksak mahorat va yetuk badiiy didni talab etgan. Shunday uslubda bezatilgan idishlar mahalliy hunarmandlar kolleksiyasida ko'plab uchraydi [7, 20-b]. Ko'p hollarda ushbu uslubda bezatilgan Qashqar qumg'onlari Yettishahardan Qo'qon xonligi bozorlariga olib kelib sotilgan. Bu qumg'onlar "qashqarcha qumg'on" nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu qumg'on Qo'qon xonligi hunarmandlari tayyorlagan qumg'onlarga nisbatan kichikroq bo'lib, qorni yumaloq, ba'zan naqshli va naqshsiz bo'lgan [8, 78-b].

Yettishahar davlati hunarmandlari tashqi sirtini xitoy tasviriy san'atida uchraydigan bulutsimon naqshlar bilan bezatilgan mis laganlar ham tayyorlaganlar. XIX asrda Qo'qon kandakorlari orasida bir necha muhojir sharqiy turkistonlik kandakor ustalar ham faoliyat yuritgan. Ularning ichida Musavvir Qashqariy ismli hunarmand el orasida mashhur bo'lgan.

Yettishahar davlati hunarmandchiligi rivoj topgan amaliy san'at sohalaridan biri zargarlik san'ati hisoblanadi. Chunki, bu hududlarda zargarlik san'atining taraqqiy etishga imkon beradigan tabiiy boyliklar – oltin, kumush, qimmatbaho toshlar ko'p edi. Bu zargarlik materiallari jumladan, Yettishaharlik zargarlarni ham oltin bilan bir qatorda Qo'qon xonligidan olib borilgan bu xom-ashyodan o'z mahsulotlarini tayyorlaganlar. Xo'ton yaqinidagi tog'lardan kumush, nefrit, zumrad, olmos topilgan. Shuningdek bu savdogarlar Badaxshon va Ladakdan feruza, la'l, marjonlar va boshqa qimmatbaho toshlarni Qo'qon va Sharqiy Turkiston zargarlariga yetkazib bergan. Bu esa, ikki hudud zargarlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning rivojlanishiga olib kelgan.

Yettishahar zargarlari tomonidan tayyorlangan zargarlik san'ati namunalari nafaqat xonlik aholisi orasida, balki butun O'rta Osiyoda ham mashhur bo'lgan. Bunday zargarlik buyumlari "qashqarbaldoq", "qashqarcha isirg'a" hamda

“qashqarcha zirak” deb nomlangan. Yarim oy shaklidagi “qashqarcha isirg‘a” marjon va kumush shodalari bilan bezatilgan. Qashqarlik zargarlar tomonidan tayyorlangan “qashqarbaldoq”ning tayyorlanish uslubi Qo‘qon zargarlarining uslubiga yaqin bo‘lgan. Bu baldoq halqa shaklida oltin va kumushdan tayyorlangan bo‘lib, quyi qismidan yuqori qismigacha nozik gulli sim panjaralari shaklida yasilib, markazda mayda zig‘irak (yoki mayda marvarid) bilan gul shakllarini hosil qilib to‘ldirilgan. Unga ba‘zan feruza toshdan ko‘z yoki oltindan yaproq shakli bilan ishlanib boyitilgan. Halqaning quyi qismidagi panjarasimon gul xuddi yangi chiqqan oy (xilol)ga o‘xshatib yasalgan. Qashqarbaldoqning chiroyli shakli, nafis shabaka, ya‘ni panjarasimon gullari, tilla va marvarid jilosi hamda zargarona ishlanishi bu baldoqga joziba bag‘ishlagan [9, 631-b]. Uyg‘ur zargar ustalaridan qashqarlik Mahmud bunday baldoqlarni yasashda mohir bo‘lgan. Shuningdek, u barkash va choy idishlarga did bilan bezak berishi bilan ham mashhur bo‘lgan.

Xo‘ton va Yorkend gilamlari Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Eron, Arab davlatlari, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlarida ham mashhur bo‘lgan. Bu gilamlar jahon bozorida o‘z davrida mashhur fors gilamlari bilan teng narxda baholangan edi. Yettishahar davlatida bir necha qishloqlari aholisi gilam to‘qish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Ular tomonidan gilamlar asosan yuqori sifatli mayin qo‘y yungidan to‘qilgan. Shuningdek, ipak va paxtadan ham gilamlar to‘qilgan. Xo‘ton gilamlari turli o‘simliksimon naqshlar va hayvonlar tasviri tushirilgan manzarali naqshlar bilan to‘qilgan. Yettishaharlik to‘quvchilar har bir gilamni to‘qish jarayonida 10 dan ortiq ranglardan foydalanganlar. Ushbu rang-baranglik, ya‘ni, bo‘yoqlarning uyg‘unlashuvi yangi manzaralarni vujudga keltirgan. Ushbu gilamlar, – deb yozgan edi Felkzem [8], bu mahalliy aholining nafaqat boyligi bilan, uning tashqi ko‘rinishi bilan ham ajralib turgan. Bunday chiroyli rang-baranglikni biz O‘rta Osiyo gilamlarida uchratmaymiz”. Xo‘ton, Yorkend, Oqsuvda paxtadan to‘qilgan gilam, namatlar o‘zining yumshoqligi va mayinligi bilan O‘rta Osiyo bozorlarida mashhur bo‘lgan. A.Kun [3], Yorkend gilamlarini Yettishahardan Qo‘qon xonligiga olib o‘tilgan muhim mollardan biri sifatida e‘tirof

etgan. Shuningdek, muhojir hunarmandlar tomonidan olib kelingan tajriba natijasida bunday gilamlarni to'qish Qo'qon xonligida ham rasm bo'lib borgan. Ch.Valixanovning ko'rsatishicha [9], Marg'ilonda sharqiy turkistonliklar tomonidan to'qilgan gilamlarga xitoy naqshlari tushirilgan. Qo'qon xonligidagi gilam to'quvchilari tomonidan markazida o'simlik va mevali daraxtlar tasviri tushirilgan "qashqar nusxa" gilamlar to'qish keng tarqalgan. Qashqardan keltirilgan oq kigizlar eng a'lo sanalib, mahalliy hukmdorlar unga o'tqazilib, taxtga ko'tarilgan.

Ushbu ikki mintaqa Tyan-Shan tog'i tizmalari yonbag'irlarida joylashganligi sabab, ular tabiiy-geografik jihatdan o'xshashdir. Bu esa ikki mintaqa aholisining asosiy mashg'ulotlari, turmush tarzi, kiyim-kechagi, oziq-ovqati, turar-joylari, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bir-biridan uncha farq qilmasligi ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, aholining uy-joy qurilishi, xususan, uy xonalarning nomlanishi va ularning did bilan san'atkorona bezatilishi, jihozlanishida umumiylik aks etgan. Yettishahardan xonlikka ko'chib kelgan muhojirlardan xonlik aholisi me'morchilik san'atidagi "qashqarcha" elementlarni ham o'zlashtirib olganlar. Ulardan biri, "qashqarcha mo'ri-o'choq" hisoblashib, uning uchburchak shaklidagi old devorchasi usti tekis yopilib, ochiq qismi oddiy ravoq ko'rinishga ega bo'lgan. Xonlik aholisi orasida "qashqarcha mo'ri" deb nom olgan bu mo'rilar XIX–XX asrlarga kelib Farg'ona vodiysi mahalliy aholisi uylarida ham ko'plab uchratish mumkin edi. Yettishaharlik ustalar Xudoyorxon o'rdasi qurilishi (1872) da ham faol ishtirok etganlar. Ular tomonidan o'rdaning mo'rilar "qashqarcha" uslubda qurilgan. "Qashqarcha mo'ri" bilan o'rdaning isitiladigan xonalari sahni archali tarzida taxtachalar (parket) bilan qoplangan. Shuningdek, "qashqarcha ayvon" ham Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida keng tarqalgan. "Qashqarcha ayvon yoki ravon" ko'tarma deraza, panjaralar bilan o'ralgan ayvon hisoblangan. Shuningdek, Qo'qon xonligi aholisidan muhojir aholi ham me'morchilik madaniyatining ayrim xususiyatlarini o'zlashtirganligi ma'lum. Masalan, uyg'urlar uchun hovlini "ichkari" va "tashqari" qismlarga bo'lish odatlari bo'lmagan. Biroq xonlikdagi

o'zbek va tojiklar bilan yashay boshlagan ba'zi bir uyg'urlar o'z xonadonlarida "ichkari" va "tashqari" xonalar qurganlarki, bu albatta, qo'qonliklarning ta'siri edi. Maxsus ilmiy adabiyotlarni o'rganib chiqish shuni ko'rsatadiki, Qashqarda yashovchi ko'plab uyg'urlar Farg'ona vodiysida yashovchi o'troq aholi kabi uylarini isitishda mo'ri-o'choqdan foydalanganlar va bunday mo'ri o'choqlar o'zining tuzilishi jihatidan deyarli o'xshash bo'lgan. Turar-joy imoratsozligi borasida Farg'ona va Qashqar an'alarini o'zaro ta'siri o'ziga xos uyg'unligini keltirib chiqaradi. Ship, ustun va binolarning yog'och elementlariga ishlov berish va bezashda ikki hudud xalq amaliy san'ati uyg'unlashgan hamda o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qolgan.

Uyg'ur tarixchisi Yusuf Ziyo Shirvoniy Yettishahar madaniyati to'g'risida shunday yozadi: "Yettishahar g'arbdan Osiyoga o'tadigan savdo yo'lidadir. Shuning uchun Yettishahar qadimgi zamonlarning o'zidayoq tranzit joyga, ya'ni san'at, kasb-hunar, madaniyat makoniga va uni almashtirish joyiga aylangan. Bu hol Yettishahar madaniyatining o'sishiga turtki bo'lgan. Natijada Yettishahar o'ziga xos boy madaniy merosga molik bo'lib olgan" [9].

Uyg'ur maqomlari o'zbek maqomlaridan faqat o'zining soni (olti o'rniga o'n ikkiligi) bilan farqlanmasdan, balki rang-barangligi, sho'xligi va ohanglarining boyligi hamda o'yinlarining ko'pligi va xilma-xilligi bilan ham farq qiladi. "O'n ikki maqom" uyg'ur xalqining ma'naviy hayot boyligida eng yuksak, eng mo'tabar o'rinni egallagan. U o'zining badiiyligi jihatidan benihoyat nafisligi, mazmunan behad teranligi hamda hayot va tabiat hodisalarini o'zida to'la-to'kis mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi. Ayni chog'da uyg'ur xalqining milliy xususiyatlari, an'analari musiqada o'z ifodasini topganligidan dalolat hamdir. O'n ikki maqomda yilning to'rt fasli, har bir faslining bir-biridan tafovuti, o'zgaligi, xosiyati, o'n ikki oyning bir-biriga o'xshamas xislatlari juda ham mohirlik bilan ifoda qilingan. Uning "Roh" hamda "Mushovarak" singari bo'limlarining o'zbek xalq maqomlari qatoridan o'rin olib, uning o'zbek san'atkorlari tomonidan "qashqarcha roh", "mushvorak muqomlari" deb atalib kelgan. Bu holat ikki hudud

o'rtasidagi aloqalar ularda yashagan aholining musiqa madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

Xullas, Yettishahar davlati madaniy hayotida badiiy va adabiy jarayonlar, diniy madaniyatdagi islom madaniyati, san'atning musiqa, zargarlik, hunarmandchilik turlarini san'atkorona rivojlanganligini ko'rish mumkin. Bu madaniy hayot bevosita qo'shni Qo'qon xonligi va Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridagi madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy qilgan.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Yudaxin K. *O'zbek va uyg'ur xalqlari tillaridagi yaqinlik // O'zbek tili va adabiyoti jurnali*. – Toshkent, 1958. – № 1. – B. 31.
2. Muzaffarzoda G. *Farg'ona vodiysi madaniyatining ta'siri. (Muhammad al-G'azzoliyning kimyoi saodat asari tarjimai misolida) // Buyuk ipak yo'li va Farg'ona. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*. – Andijon, 2004. – 156–157-b.
3. Muxlisov I. *Esirlar va eserlar (uyg'ur klassik adabiyoti xaqida ba'zi mulohazalar)*. – Almata: Gilim, 1973. – 96 b.
4. Mulla Shokir. *Zafarnoma. O'zR FA ShI, qo'lyozma*. – № 12172. – 52-b.
5. Jalilov O. *Muso Sayromiy*. – Toshkent: O'zbekiston, 1968. – 23 b.
6. Abdullaev I. *Akmal Toshkandiy // Imom al Buxoriy saboqlari*. – Toshkent, 2002. – № 3. – 213–217-b.
7. Abdullayev T. *XIX–XX asrlarda o'zbek kandakorligi*. – Toshkent: Fan, 1974. – 120 b.
8. Nozilov D. *O'rta Osiyo dizayni tarixi*. – Toshkent, 1992. – 144 b.
9. *Qashqar baldoq // O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi*. – Toshkent, 2005. – T. 10. – 631 b.

**Dilnoza Qurbonova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Madaniyatshunoslik" kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: dilnozatoxirovna588@gmail.com*

## **O'ZBEK OILALARIDA ETNOMADANIY QADRIYATLAR**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek oilalarida shakllangan etnomadaniy qadriyatlar, ularning mazmun-mohiyati va jamiyat hayotidagi o'rni haqida so'z boradi. Milliy an'ana va urf-odatlar, oilaviy munosabatlar, tarbiya tizimi hamda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy merosning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, globallashtirish sharoitida mazkur qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbek oilalarining etnomadaniy o'ziga xosligini anglash va uning tarbiyaviy ahamiyati xususida fikrlar bayon qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** oila, qadriyat, madaniyat, tarbiya, millat, urf-odat, an'ana, ma'naviyat, jamiyat, marosim.*

## **ETHNOCULTURAL VALUES IN UZBEK FAMILIES**

***Abstract.** This article discusses the ethnocultural values formed in Uzbek families, their essence and significance, as well as their role in the life of society. It highlights the importance of national traditions and customs, family relationships, the system of upbringing, and the spiritual heritage passed down from generation to generation. In addition, special attention is paid to the issues of preserving and developing these values in the context of globalization. The paper also presents reflections on understanding the ethnocultural identity of Uzbek families and its educational significance.*

***Keywords:** family, values, culture, upbringing, nation, customs, traditions, spirituality, society, rituals.*

Biz oilani ilk tarbiya o'chog'i sifatida e'tirof etamiz. Mana shu oilaning ustuni tarbiyalanuvchilarini boshqaruvchi zot – Ona! Albatta, ona yaratganning

buyuk mo'jizasidir, chunki ona avlodlar davomiyligini, oila tinchligini ta'minlaydi, barkamol avlodni tarbiyalaydi, kelajakni yaratadi. Darhaqiqat, Allohning mo'jizasi bilan Payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomni dunyoga keltirgan zot – ayol, Amir Temurni beshigini tebratgan zot ham ayol, Navoiyni oq sut berib katta qilgan ham ayol, tunlarni bedor o'tkazib, Ulug'bekni voyaga yetkazgan ham ayol. Shunday ekan, ayol kishiga, eng avvalo, millat tarbiyachisi sifatida qaramoq lozim. Shu o'rinda aytish joizki, xotin-qizlarning ilm-ma'rifatli, madaniyatli bo'lishi, ya'ni ayol kishining ijtimoiy hayotdagi, jamiyatdagi o'rni ta'lim-tarbiyani to'g'ri izchil tashkil etishda faol ishtirok etadi. Zero, ayol fuqarolik jamiyati kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash hamda, farzandlar tafakkurini o'zgartirish bilan bog'liq o'ta dolzarb va muhim masalalarni hal qilish qudratiga egadir. Globallashuv, ma'naviy tahdidlar kuchaygan bir davrda oilalar o'qigan, ilmi, ma'rifatli kelinlarga ehtiyoj sezilyapti. Darhaqiqat, ilmi qiz, mulohazali kelin, yaxshi tarbiyachi, ona, oila qadrini har narsadan ustun qo'yadigan beka bo'la oladi.

Yurtimizda oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, xotin-qizlarning faolligini oshirish, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda ularning bilimlarini kuchaytirish uchun keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, xotin-qizlar oilani, jamoani, jamiyatni, millatni birlashtiruvchi kuch hisoblanadi. Shu o'rinda, ayolni har tomonlama avaylab-ardoqlash, ularning izzat-hurmatini joyiga qo'yish borasida mamlakatimizda boy tajriba to'planganligini ham aytib o'tish joiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, **“Ayollarimiz hayotiy muammolarni, oila va mahalladagi o'tkir masalalarni, ularni bartaraf etish yo'llarini jamiyatning tomir urishini boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladilar. Ular o'zlarining mehribonligi, yuksak mas'uliyat tuyg'usi, mehnatsevarligi bilan barchaga o'rnak bo'la oladilar”** [1].

Donishmandlar jamiyatning madaniy darajasi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi, deb bejiz ta'kidlashmagan. Zero, buyuk shaxsni buyuk ona tarbiyalaydi degan naql bor. Buyuk insonlarni tarbiyalash esa yana o'sha oila atalmish muqaddas dargohning holati va muhitiga bog'liqdir. Ona hurmat topgan

oilada farzand ham oqil bo'lib o'sadi. Bolalikda ayolga hurmatsizlik namunalarini ko'rib ulg'aygan bola esa kelajakda o'z oilasini ham mustahkam saqlay olmaydi. Oilasining sha'ni va nomusini himoya qilishga qobil bo'lmaydi. Shu bois, farzand bu mas'uliyatning nechog'lik sharaf ekanini bolalikdanoq ko'rib, tushunib yetishi kerak. Ona hurmat ko'rmay o'tgan oilada balog'atga yetgan qiz ham turmush shunday ekan, degan tasavvur bilan ulg'ayadi. Zotan, oila – qadriyatlar beshigidir.

Xalqimizda “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, “Onasini ko'rib, qizini ol” kabi maqolalar bejizga paydo bo'lmagan. E'tirof etish lozimki, ma'naviy yetuk oila ma'naviyati yuksak jamiyatning tayanchi sifatida qadrlanadi.

Tarixga nazar solsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy oila, tarbiya va ayollarning jamiyatdagi o'rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning Oila asarida shunday fikrlar bor: “Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki farzandlarimiz imonli, fidokor bo'lib ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur” [2, 97–98-b].

Oila masalasi respublikamizda nafaqat oila instituti va mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining, balki davlatimiz rahbarining ham e'tibor markazidadir. Jamiyatimizda ilk marotaba o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida ham, yoshlarni oilaga tayyorlash, oilaviy nizolarning oldini olish masalasiga alohida to'xtalib o'tdilar. **“Bir narsani unutmashimiz lozim: xonadonlarimizdagi tinchlik-totuvlik, avvalo oiladagi sog'lom muhit, mustaqil hayot ostonasida turgan qizlarimizni oilaviy turmushga tayyorlash bilan bevosita bog'liq”** [3].

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 14-bobi aynan “Oila” deb nomlanadi. Unda to'rtta modda mavjud. Bu moddalarda ham milliy ham umuminsoniy qadriyatlar mohiyati aks etgan [4]. Oila bilan bog'liq milliy va

umuminsoniy qadriyatlar esa bizdan ko'pdan-ko'p tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilishni talab etadi. Zero, oila tinchligi – jamiyat tinchligi. Ushbu qo'rg'onning mustahkamligiga har birimiz bevosita mas'ulmiz. Oila – jamiyat poydevori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi PF 5938-sonli Farmoniga muvofiq, [5] Fuqarolar yig'ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari, oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis lavozimi, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, "Mahalla va oila" ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi. Ushbu ijtimoiy ahamiyatga ega chora-tadbirlar va oilani mustahkamlashga qaratilgan milliy tajribalarning ahamiyati katta.

O'zbek oilalarida etnomadaniy qadriyatlar nafaqat kundalik hayot tarzini belgilab beruvchi omil, balki millatning ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi muhim ustunlardan biridir. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi davrda ana shu qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamon talablariga mos holda rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, V.Alimasovning ta'kidlashicha: "Keyingi yillarda etnomadaniy qadriyatlarni islom dini va e'tiqodi, shar'iy nikoh bilan bog'lash keng yoyilmoqda. Ha, o'zbek etnomadaniy qadriyatlarida islom bilan bog'liq urf-odatlar, marosimlar, tushuncha va tasavvurlar yetarlicha topiladi. Demak, etnomadaniy qadriyatlar ular uchun shunchaki, palliativ xususiyatga ega tadbirlar emas, oila qurish va u bilan bog'liq marosimlar, nikoh, tadbirlar va tomoshalar inson, xalq, millat hayotining fundamental asoslaridir. Bu asosni buzish, rad etish yoki uni etnomadaniy qadriyatlarga zid shakllar bilan almashtirish mumkin emas" [6, 175-b].

O'zbek oilasi azaldan muqaddas dargoh sifatida qaralgan. Bu dargohda avvalo insonparvarlik, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi fazilatlar shakllanadi. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, ota-onaga sadoqat kabi qadriyatlar bola tarbiyasining ilk bosqichidanoq singdiriladi. Bu esa jamiyatda o'zaro ishonch, hamjihatlik va barqarorlikni ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi.

Etnomadaniy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi va dunyoqarashini o'zida mujassam etgan murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Ular quyidagi asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- **an'anaviylik** etnomadaniy qadriyatlarning eng muhim belgisidir. Bu qadriyatlar asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga meros sifatida o'tib keladi. Urf-odatlar, marosimlar va bayramlar orqali ular uzluksiz davom etadi;

- **milliylik** xususiyati muhim ahamiyatga ega. Etnomadaniy qadriyatlar muayyan xalqqa xos bo'lib, uni boshqa millatlardan ajratib turadi. Masalan, o'zbek xalqining mehmondo'stligi, kattalarga hurmati kabi fazilatlar milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi;

- **barqarorlik va davomiylik** xosdir. Etnomadaniy qadriyatlar vaqt o'tishi bilan ma'lum darajada o'zgarsa-da, ularning asosiy mazmuni saqlanib qoladi. Bu esa millatning ma'naviy ustuvorligini ta'minlaydi;

- **ijtimoiylik** xususiyati mavjud. Ya'ni, bu qadriyatlar jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, o'zaro hurmat, hamjihatlik va hamkorlikni shakllantiradi;

- **tarbiyaviy ahamiyat** katta o'rin tutadi. Etnomadaniy qadriyatlar orqali yosh avlodda axloqiy fazilatlar, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari va tashqi madaniy ta'sirlar ortib borayotgan bir sharoitda, ayrim an'analarning susayib borishi ham kuzatilmoqda. Shu bois, oila institutining rolini yanada kuchaytirish, milliy qadriyatlarni targ'ib etish va ularni yoshlar ongiga chuqur singdirish muhim vazifaga aylanmoqda. Bu borada ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlari hamkorligi alohida ahamiyatga ega.

M.Mavrulovning fikricha, "O'zbek oilalarining fazilatlarini ko'p. Ammo, keyingi paytlarda jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, turli ma'naviy, mafkuraviy, g'oyaviy tahdidlarning tobora kuchayib borishi o'zbek oilasining ming yillar davomida shakllanib kelgan azaliy an'analari, sha'niga ham ta'sir

etmasdan qolmayapti. Oilaviy ajrimlar, yetim bolalar sonining muttasil ravishda ortib borishi, ota-ona va farzandlar, qarindosh urug'lar o'rtasidagi kelishmovchiliklar oila kabi o'zbek jamiyatining muqaddas qo'rg'oniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda" [7, 65-b].

Darhaqiqat, o'zbek oilasi azaldan mustahkam qadriyatlar, an'ana va ma'naviy tayanchga ega bo'lsa-da, bugungi globallashuv jarayonlari va turli mafkuraviy tahdidlar uning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, o'zbek oilasining qadimiy an'ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, jamiyatda oilaning o'rni va ahamiyatini yanada mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga puxta tayyorlash, bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ota-onalar va farzandlar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat va mas'uliyat hisini kuchaytirish orqali ko'plab muammolarning oldini olish mumkin.

Shuningdek, ta'lim muassasalari, mahalla va keng jamoatchilik ham oilaviy muhitni sog'lomlashtirishda faol ishtirok etishi zarur. Xalqimiz yangi O'zbekistonni qurish, Uchinchi Renesans poydevorini bunyod etishdek ezgu va ulug'vor maqsad yo'lida bormoqda. Bu jaryonlarda faqatgina hamjihatlik, ahillik va milliy qadriyatlarga sodiqlik orqali o'zbek oilasining mustahkamligi saqlanib qoladi va kelajak avlodlar uchun barqaror ma'naviy poydevor yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek oilalaridagi etnomadaniy qadriyatlar – bu millatning ma'naviy boyligi, uning tarixi va kelajagini bog'lab turuvchi mustahkam ko'prikdir. Ularni asrash, rivojlantirish va kelgusi avlodlarga yetkazish har birimizdan mas'uliyat va fidoyilikni talab etadi. Faqat shundagina biz o'z milliy o'zligimizni saqlab qolgan holda, zamonaviy taraqqiyot yo'lida barqaror odimlay olamiz.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. <https://parliament.gov.uz/uz/events/committee>
2. Fitrat A. *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. –112 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi // *Xalq so'zi* gazetasi. –2020-yil 26-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2014. –76 b.
5. <https://lex.uz/ru/docs/>
6. Mirziyoyev Sh. *Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Jild 3.* –Toshkent: O'zbekiston, 2019. –396 b.
7. Alimasov V., Zohirov R. *Oila institutini mustahkamlashning etnomadaniy asoslari.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2024. –238 b.
8. Mavrulova M. *Jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlashda milliy-madaniy qadriyatlarning o'rni. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyadan.* –Toshkent, 2022. –B. 65.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Madaniyatshunoslik mutaxassisligi magistranti  
E-mail: oqilaortiqboyeva@gmail.com

## O'QUV JARAYONIDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI TALABALAR KASBIY BILIMLARINI OSHIRISH YO'LLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim jarayonida raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning kasbiy bilimlarini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Unda zamonaviy raqamli vositalar, aralash ta'lim (blended learning) yondashuvlari hamda innovatsion o'qitish usullarining talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning ahamiyati asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, innovatsiya, zamonaviy mehnat bozori, raqamli vositalar, aralash ta'lim, axborot texnologiyalari, kasbiy kompetensiyalar.*

## IMPROVING STUDENTS' PROFESSIONAL KNOWLEDGE THROUGH DIGITAL AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES

***Abstract.** This article examines the role of digital and innovative technologies in improving students' professional knowledge within the educational process. It analyzes the use of modern digital tools, blended learning approaches, and innovative teaching methods aimed at enhancing students' competencies and skills. The study highlights the importance of integrating information technologies in education to prepare highly qualified specialists capable of competing in the modern labor market.*

***Keywords:** digital technologies, innovation, modern labor market, digital tools, blended learning, information technologies, professional competencies.*

“Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda “raqamli texnologiyalar”, “innovatsiya”, “innovatsion” kabi bir qancha so‘zlar barcha soha vakillari o‘rtasida ommalashganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ayni damdagi zamonaviy mehnat bozori o‘z sohasi bo‘yicha yuqori saviyaga ega malakali kadrlar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirdi. Ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bugungi kunda kasbiy ta‘limda yetakchi bo‘lib, bu tahsil oluvchi barcha yoshlarni malakali kadr sifatida tarbiyalashga katta yordam beradi. Shu sababli, ayni vaqtda ushbu terminlar ta‘lim tizimida ham o‘z o‘rniga ega. Shuni aytish joizki, o‘quv jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi dars sifatini yanada oshirishga hamda internet tarmog‘i orqali eng yangi sara ma‘lumotlarni topishga zamin yaratmoqda. O‘zimizga to‘xtaladigan bo‘lsak, oliy ta‘lim muassasalari talabalarini kasbga bo‘lgan ma‘lumot va qiziqishini yanada oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Shu sababli ham jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta‘limning texnologik yaxshilanishi biz – talabalar hayotini osonlashtirdi. Bugungi kunda qalam va qog‘ozdan foydalanish o‘rniga taqdimotlar va loyihalarni yaratish uchun turli xil dasturiy ta‘minot va vositalardan foydalanib, bir qancha soha uchun foyda keltiruvchi start-up loyihalarni ham tayyorlab, amalda qo‘llanilyapti. O‘zimizga kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni gadjetlari orqali bevosita internet tarmog‘idan ko‘rib yoki bir vaqtni o‘zida ikkita va undan ortiq oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olish imkoniyati yaratilyapti. Ta‘lim jarayonida nafaqat talaba yoshlarni, balki barcha tahsil oluvchilarning bilim darajasini yuqori sifatga olib chiqish uchun noan‘anaviy

shakldan foydalanishga to'g'ri kelyapti. Sababi aynan noan'anaviy o'qitish tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalar bilan ta'lim oluvchi berilayotgan yangi bilimlarni tez va tushunarli qabul qilyapti. Global miqyosda gapiradigan bo'lsak, ta'lim sohasida ko'plab o'zgarishlar ro'y bermoqda. Interfaol texnologiyalar ilgari o'qituvchilar tomonidan o'quv faoliyatida o'qitish usuli sifatida faol foydalanilgan. Endilikda innovatsion raqamli va axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun katta imkoniyatlar ochmoqda. Axborot texnologiyalari va ta'limning uyg'unligi inson uchun ko'plab muhim muammolarni hal qilish imkoniyatini ochib beradi. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

-Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

- Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

Yuqoridagi tushunchalarga ta'rif berib ketadigan bo'lsak, "blended learning" atamasi Deklan Bern ta'riflaganidek: "Ushbu ta'lim turi boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday yondashuv axborotni turli uslubiyotlardan foydalangan holda axborotni yetkazib berishdan iborat. Ushbu yondashuvning afzallik tomonlariga keladigan bo'lsak, onlayn usulda o'quvchi istagan manbasidan foydalanishi, onlayn kutubxonalar tashkil etilishi, kam xarajat qilgan holda yuqori samaraga erishishni ko'zda tutish mumkin. Bu esa tahsil oluvchilarni kelayotgan yangi axborotlarni qabul qilishda charchatmaydi, balki o'qishga bo'lgan motivlarini oshiradi. Ikkinchi terminga ya'ni "flipped

classroom”ga to‘xtaladigan bo‘lsak, an’anaviy hamda masofaviy ta’limni o‘z ichiga olgan atama to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinsa teskari sinf texnologiyasini anglatadi. Ushbu texnologiya TOP-1000 reytingdagi universitetlar tomonidan foydalanib, yuqori natijalarni ko‘rsatib kelmoqda. Bunda talabalar darslarni qiziqish bilan, darsdan keying uy vazifalarini vijdonan bajarishlari hamda muhokama va munozaralarda faol ishtiroki kuzatilgan.

- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

Shuni aytib o‘tish joizki, bugungi kunda masofaviy ta’lim dasturini joriy etishning bir qancha afzallik tomonlarini ko‘rib chiqish mumkin. Masalan, dunyoning istalgan chekkasidan turib, kelayotgan barcha yangi xabarlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Masofaviy ya’ni ommalashgan til bilan aytganda onlayn ta’limning yana bir ustun jihati shundan iboratki, bunda talaba ham ishlab, ham kunning istalgan qismida o‘ziga kerakli bo‘lgan nazariy bilimlarni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish imkoniyatiga keng yo‘l ochib beradi.

- Milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

Bilamizki, talaba yoshlarimiz bugungi kunda bir qancha zamonaviy gadjetlardan keng foydalanib kelmoqda. O‘zining ilmiy salohiyatini rivojlantirishda o‘z sohasi yuzasidan mustaqil ravishda talabalarning olib borayotgan ilmiy ishlariga bir qancha sohaga oid kitoblar kerak, albatta. Ammo bugungi jadal rivojlanib borayotgan bu olamda kerakli kitoblarni izlash uchun kutubxonalarga tashrif uyushtirish biroz qiyin. Yoki bo‘lmasam, kitob tanqisligi, istalgan joyda, istalgan vaqtda uning mutolaasi uchun vaziyatning to‘g‘ri

kelmasligi kabi bir qancha muammolarga milliy elektron kutubxona yechim topadi. Uni istalgan vaqtda, istalgan joyda, hattoki, biron-bir ish bilan mashg'ul bo'lgan vaqtda ham audio sifatida tinglash mumkin.

- Oliy ta'lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma'lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy-texnik ma'lumotlar yangiligini ta'minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;

- Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;

- Oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlari, bakalavriat, magistratura talabalari va doktorantlariga oid ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi va muntazam yangilanib boruvchi elektron baza (Student Record System) yuritilishini yo'lga qo'yish asosida uning milliy tizimini yaratish.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, bugungi virtual olamdagi yoshlarning qiziqishlarini an'anaviy shakldagi texnologiyalar bilan qondirish mushkul ish bo'lib qolmoqda. Shu sababli maktab va oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'lga qo'yilgan. Bolada yoshligidan mana shunday texnologiyalardan foydalanib, kelajakda kasb tanlashiga qiynalmasligi, kreativlikni shakllantirish, zamon bilan hamnafas bo'lish kabilarni shakllantirish mumkin. IT – sohasi ayni damda jadal rivojlanib kelayotgan sohalar qatoriga qo'shildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan soha vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berildi. Joriy yildan bizlarga – ayollarga Zulfiya nomidagi davlat mukofoti yo'nalishlari ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport va jamoatchilik qatoriga axborot texnologiyalari ham qo'shildi, bu ham biz uchun juda katta imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi

PF-60-son farmoni: 28.01.2022 // Qonun hujjat ma'lumotlari bazasi

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga yo'llagan murojaatnomasi: 24.01.2020 // <https://lex.uz>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari” to'g'risidagi PF-6108-sonli farmoni: 06.11.2020 // <https://journal.avloniy.uz>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi PF-2326-son farmoni: 10.06.1999 // <https://lex.uz>

5. Akramovich N. *The priority of using innovative technologies in the agricultural education system // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences.* – 2022. – T. 1. – №. 10. – P. 185–191.

6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

7. [www.advance-he.ac.uk](http://www.advance-he.ac.uk)

8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Fayziya Qarshiyeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Madaniyatshunoslik mutaxassisligi magistranti  
E-mail: faysiyaqarshiyeva@gmail.com

## YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA IJTIMOIIY MAKON VA YOSHLAR MADANIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy makonning o'ziga xos xususiyatlari va yoshlar madaniyatining shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat siyosati hujjatlari, nazariy adabiyotlar va ilmiy manbalarga asoslangan holda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, madaniy identifikatsiyani mustahkamlash va zamonaviy qadriyatlar tizimini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada ijtimoiy transformatsiya sharoitida yoshlar madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar sintezi asosida rivojlanishi hamda ijtimoiy makonning yoshlar faolligini shakllantiruvchi muhiti sifatidagi ahamiyati asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy makon, yoshlar madaniyati, Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, madaniy identifikatsiya, ijtimoiy faollik, qadriyatlar tizimi.

## SOCIAL SPACE AND YOUTH CULTURE IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

**Abstract.** This article analyzes the characteristics of social space and the formation of youth culture within the framework of the New Uzbekistan development strategy. The study, based on state policy documents, theoretical literature, and scientific sources, examines issues related to increasing youth social activity, strengthening cultural identity, and developing a modern value system. It also highlights the development of youth culture in the context of social transformation through the synthesis of national and universal values, as well as the role of social space as an environment for shaping youth activity.

**Keywords:** social space, youth culture, New Uzbekistan, development strategy, cultural identity, social activity, value system.

Mustaqillikning Uchinchi renessansi davri mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan tarixiy bosqich sifatida e'tirof etilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'kidlanganidek, zamonaviy demokratik davlat qurish, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlatning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi [1, 456-b]. Ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirishda yoshlarning faol ishtiroki va ularning madaniy-ma'naviy rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan yoshlar avlodi mamlakatning kelajagini belgilovchi asosiy ijtimoiy kuch hisoblanadi. Ijtimoiy makon tushunchasi zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlari, madaniy amaliyotlari va qiymat yo'nalishlarini shakllantirishning muhit xususiyatlarini o'z ichiga oluvchi murakkab kategoriya sifatida qaraladi.

Yoshlar madaniyati esa ijtimoiy makonning alohida qatlami bo'lib, u avlodlar o'rtasidagi madaniy uzatish mexanizmlarini, zamonaviy tendensiyalarni qabul qilish va an'anaviy qadriyatlarni saqlash o'rtasidagi dialektik munosabatlarni aks ettiradi. A.Erkayev ta'kidlaganidek, taraqqiyot jarayoni faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ijtimoiy-madaniy transformatsiya va inson salohiyatining kompleks rivojlanishini nazarda tutadi [2, 328-b]. Hozirgi davr yoshlarining o'ziga xos madaniy kodlari, qadriyat tizimi va ijtimoiy xulq-atvori globallashuv sharoitida milliy identifikatsiyani saqlash va zamonaviy sivilizatsiya yutuqlarini o'zlashtirish orasidagi muvozanatni topishni talab etadi. Maqolaning maqsadi Yangi O'zbekiston taraqqiyoti kontekstida ijtimoiy makonning yoshlar madaniyatini shakllantiruvchi xususiyatlarini aniqlash va ushbu jarayonlarning nazariy-metodologik asoslarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodologik jihatdan ijtimoiy makon nazariyasining zamonaviy yondashuvlari, madaniy-antropologik konsepsiyalar va yoshlar sotsiologiyasi tamoyillariga asoslanadi. P.Burdyoning ijtimoiy makon nazariyasi doirasida jamiyat tuzilmasini turli kapitalni shakllardagi resurslar taqsimoti orqali tushunish

imkoniyati yaratiladi, bu esa yoshlar madaniyatini madaniy, ijtimoiy va simbolik kapital kontekstida tahlil qilish uchun nazariy asos bo'ladi [3, 14-p]. M.Kastelning tarmoq jamiyati konsepsiyasi zamonaviy ijtimoiy makonning transformatsiyasini axborot texnologiyalari va kommunikatsiya tarmoqlari orqali tushunishga imkon beradi, bu yoshlarning raqamli madaniyati va virtual ijtimoiy makonlardagi faolligini o'rganish uchun muhim nazariy asosdir [4, 594-p]. Mamlakatimizda yoshlar siyosati va madaniy rivojlanish masalalari turli ilmiy izlanishlar obyektiga aylangan. O.Usmonov yoshlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik jamiyati qurilishidagi o'rni haqidagi tadqiqotlarida yoshlar avlodining davlat boshqaruviga jalb etilishi va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usining shakllanishi muammolarini ko'rib chiqadi [5, 240-b].

Rossiya tadqiqotchilaridan V.A.Lukov va A.I.Kovaleva yoshlar sotsiologiyasi sohasidagi fundamental ishlari yoshlarni mustaqil ijtimoiy-demografik guruh sifatida o'rganish metodologiyasini ishlab chiqish jihatidan ahamiyatlidir [6, 351-b]. Madaniy identifikatsiya va avlodlar o'rtasidagi qadriyat uzatish masalalari K.Manheyning avlodlar nazariyasi doirasida keng tadqiq etilgan bo'lib, har bir avlodning o'ziga xos tarixiy tajribasi va ijtimoiy-madaniy konteksti ularning dunyoqarashi va qadriyat tizimini belgilashi asoslanadi [7, 276–322-p]. Xorijiy tadqiqotchilardan S.Hall yoshlar subkulturasini va madaniy qarshilik nazariyalari yoshlarning ijtimoiy makon ichida o'z identifikatsiyalarini qurish mexanizmlarini tushunish uchun muhim nazariy ramka yaratadi [8, 312-p]. Ijtimoiy makon va madaniy amaliyotlar o'rtasidagi bog'liqlik masalalari A.Lefebvrning makon ishlab chiqarish nazariyasi doirasida chuqur tahlil qilingan bo'lib, ijtimoiy munosabatlar va madaniy amaliyotlar makonni yaratishi va qayta shakllantirishi g'oyasi ilgari suriladi [9, 454-p]. O'zbekiston sharoitida yoshlarning madaniy ehtiyojlari, qiziqishlari va qadriyat yo'nalishlarini shakllantiruvchi omillar kompleks tahlilni talab etadi, bu yerda milliy madaniy meros va zamonaviy globallashtirish jarayonlari o'zaro ta'sirida bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili asosida Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy makonning yoshlar madaniyatini shakllantiruvchi bir qator xususiyatlari aniqlanadi. Birinchidan, zamonaviy o'zbek yoshlari uchun ijtimoiy makon ko'p qatlamli tuzilmaga ega bo'lib, an'anaviy ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim muassasalari, mahalla), zamonaviy madaniy markazlar va raqamli virtual platformalar sintezi asosida shakllanmoqda. Ushbu ko'p qatlamlilik yoshlar madaniyatining gibrid xarakterini keltirib chiqaradi, bu yerda milliy qadriyatlar va global madaniy oqimlar o'zaro ta'sirda bo'ladi. Yangi O'zbekiston strategiyasida yoshlarga keng imkoniyatlar yaratish, ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni egallash uchun sharoit yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi ijtimoiy makonning yoshlar rivojlanishi uchun qulay muhit sifatida qayta tashkil etilishini ta'minlaydi [10, 196-p].

Ikkinchidan, yoshlar madaniyatining shakllanishida ta'lim tizimi va ilm-fan sohasidagi islohotlar muhim rol o'ynaydi, chunki zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash yoshlarning intellektual kapitalini oshiradi va ularning ijtimoiy mobilligini ta'minlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar avlodi uchun madaniy identifikatsiya jarayoni ikki yo'nalishda amalga oshadi: bir tomondan, milliy madaniy merosni o'rganish va qadriyatlarni egallash, ikkinchi tomondan, zamonaviy global madaniyat elementlarini qabul qilish va o'zlashtirishdir. Bu yerda muhim vazifa milliy madaniy identifikatsiyani saqlagan holda ochiq va progressiv dunyoqarashga ega yoshlar avlodini tarbiyalashdan iborat. Uchinchidan, ijtimoiy makonning transformatsiyasi yoshlarning faollik formalarini o'zgartirmoqda: an'anaviy ijtimoiy institutlardagi ishtirok bilan birga, yoshlar ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va raqamli hamjamiyatlarda faol ishtirok etadi, bu esa yangi turdagi ijtimoiy munosabatlar va madaniy amaliyotlarni yuzaga keltiradi.

A.Erkayevning ta'kidlashicha, haqiqiy taraqqiyot jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni rivojlanish jarayoniga jalb etish va ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi [2].

To'rtinchidan, davlat siyosati darajasida yoshlar uchun ijtimoiy liflarni yaratish, ijodiy va tadbirkorlik faoliyati uchun sharoit yaratish, sport va san'at sohasida o'z qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish yoshlar madaniyatining faol va konstruktiv xarakter kasb etishiga xizmat qiladi. Beshinchidan, ijtimoiy makonning o'zgarishi yoshlarning qadriyat tizimida ham o'zgarishlarni keltirib chiqaradi: mehnat, bilim, professional muvaffaqiyat qadriyatlari bilan birga, oilaviy qadriyatlar, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari ham yoshlar ongida mustahkamlanib bormoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy makon yoshlar madaniyatini shakllantiruvchi muhim omil sifatida tub o'zgarishlar boshdan kechirmoqda. Ijtimoiy makonning ko'p qatlamli tuzilmasi, an'anaviy va zamonaviy institutlarning sintezi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi yoshlar madaniyatining gibrid xarakterini shakllantirishga xizmat qiladi. Davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yoshlar uchun imkoniyatlar yaratish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish choralari ijtimoiy makonning yoshlar rivojlanishi uchun qulay muhit sifatida takomillashuvini ta'minlaydi. Yoshlar madaniyatining rivojlanishi milliy madaniy identifikatsiyani saqlash va zamonaviy global tendentsiyalarni o'zlashtirish o'rtasidagi muvozanatni topish asosida amalga oshishi lozim. Kelajakda ijtimoiy makon va yoshlar madaniyati o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini chuqurroq o'rganish, yoshlarning qadriyat yo'nalishlarini empirik tadqiq etish va madaniy siyosatni takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish zarur. Yangi O'zbekiston qurilishida yoshlar avlodining faol, ma'rifatli va milliy qadriyatlarga sodiq fuqarolar sifatida shakllanishi mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy omili bo'lib qolaveradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Mirziyoyev Sh. *Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 456 b.

2. Erkayev A. *Taraqqiyot: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Sharq, 2021. – 328 b.
3. Bourdieu P. *Social Space and Symbolic Power // Sociological Theory*. – 1989. – Vol. 7. – № 1. – P. 14-25.
4. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell Publishers, 2000. – 594 p.
5. Усмонов О. *Ёшларнинг ижтимоий фаоллиги ва фуқаролик жамияти*. – Тошкент: Фан, 2020. – 240 б.
6. Луков В., Ковалева А. *Социология молодежи: теоретические проблемы*. – Москва: Социум, 1999. – 351 с.
7. Mannheim K. *The Problem of Generations // Essays on the Sociology of Knowledge*. – London: Routledge, 1952. – P. 276–322.
8. Hall S. *Resistance Through Rituals: Youth Subcultures in Post-War Britain*. – London: Routledge, 1976. – 312 p.
9. Lefebvre H. *The Production of Space*. – Oxford: Blackwell Publishing, 1991. – 454 p.
10. Nazarova D. *Yoshlar madaniyati va qadriyatlar tizimi*. – Toshkent: Akademiya, 2019. – 196 b.

**Javohir Nuraliyev**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Madaniyatshunoslik mutaxassisligi magistranti  
E-mail: begona.0104@gmail.com*

## **JADID TEATRINING SHAKLLANISHI VA XALQNING MA'NAVIY UYG'ONISHIDAGI AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Maqolada XX asr boshlarida Turkiston hududida jadidchilik harakatining ajralmas qismi sifatida maydonga kelgan yangi o'zbek milliy teatrining shakllanish jarayoni va uning g'oyaviy asoslari tahlil qilinadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma'rifatparvarlarning teatrdan jamiyat ongini uyg'otish, o'z xalqini madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish va jaholatga qarshi kurashish vositasi sifatida foydalanganliklari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** teatr, pyesa, jadidchilik, ilm-ma'rifat, ma'naviy uyg'onish, spektakl, jaholatga qarshi kurash, taraqqiyot, jamiyat.*

## **FORMATION OF THE JADID THEATER AND ITS IMPORTANCE IN THE SPIRITUAL AWAKENING OF THE PEOPLE**

***Abstract.** The article analyzes the process of formation and its ideological foundations of the new Uzbek national theater, which emerged as an integral part of the Jadid movement in Turkestan at the beginning of the 20th century. It highlights how enlighteners such as Mahmudkhodja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashidkhanov and Hamza Hakimzoda Niyoziy used Theater as a means of awakening publik consciousness, improving the cultural and spiritual well-being of their people, and combating ignorance.*

***Keywords:** theater, play, jadidism, science and enlightenment, spiritual awakening, performance, fight against ignorance, development, society.*

“Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirsam, o'zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko'rub ibrat olur”.

Teatr – insonning ma'naviy olamini boyituvchi, madaniyatini shakllantiruvchi, ong va tafakkurini teranlashtiruvchi san'atdir. Teatr – misli ko'zgu. Bu bo'yalmagan ko'zguda har bir inson o'z aksini ko'radi va zarur xulosalar oladi. Teatr sahnasida jamiyatlardagi kamchilik va qusurlar ham ochiq aks ettiriladi. Bu borada ham teatrning ahamiyati yuksakdir.

O'zbek milliy teatrining shakllanishida jadidlarning o'rni juda katta. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Teatr – bu ibratxonadir", – deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir", – deb yozadi [1].

Mahmudxo'ja Behbudiy 1914-yilda o'zining "Oyina" jurnalida chop ettirgan "Teyotr nadur?" maqolasida teatrga shunday ta'rif beradi: "Teyotr nimadur? Javobig'a teyotr ibratnamodur, teyotr va'zxonadur, teyotr ta'zir adabidir. Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub kar-quloqsizlar eshitib asarlanur. Xulosa: teyotr va'z va tanbih egguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildurguvchidir.

Taraqqiy qilgan millatlar teyotrxonalarni ulug'lar uchun maktabi adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri teyotrlardur deyurlar. Teyotrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof va munaqqidi derlar. Umumiy odatlarni naf'i va zararidan paydo bo'laturgon natijalarni teyotrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundane ta'sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ushlaroqg'a sabab bo'lur" [2, 78-b].

Teatr bevosita insonning hissiyotlariga ta'sir etadi. Musiqa eshitish orqali, adabiyot ko'rish va o'qish orqali inson manaviy dunyosiga ta'sir etsa, teatrdam eshitib, ham ko'rib ta'sirlanish mumkin. Teatrlarning bu xususiyati haqida ham Behbudiy shunday fikr yuritadi: "Hikoya yoinki nasihat kitoblarida ba'zi bir

hodisani bayon qilingandurki, o'qub, asarlanib, lazzat olinadur. Ammo teyotrg'a maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe'lan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitkandan ziyodadur. (Shunidan kay bud monandi diydan – eshitmoq qachon ko'rmoq kabidir.) Yana teyotrda savodsiz odam ko'zi ila ko'rub, ko'zsiz odam eshitib, kar mushohada etib, ibrat va lazzat olar. Xulosa: teyotr bir nav' maktab hukmindadur" [2, 79-b].

Shu o'rinda yana bir masalaga e'tibor qaratish lozim deb topdik. Teatr sahnasidagi aktyorlar sahnada ham, hayotda ham o'zlarining madaniyat, ziyo tarqatuvchi ekanliklarini unutmasliklari kerak. Chunki, ular xalqqa eng yaqin va ta'sir etish kuchiga ega shaxslar hisoblanadi. Keng xalq ommasi ularning muomala madaniyatidan kiyinish madaniyatigacha kuzatishadi. Yoshlarimiz esa ularga taqliq qilishga harakatlar qilishadi. Shunday ekan bu aktyorlarning kelajak avlod tarbiyasida ham qisman ta'siri bor. Behbudiy ularni axloq muallimlari deya ta'riflaydi: "So'zni qisqasi, teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur. Va anda mushaxxis bo'laturgonlar "o'yunchi va masxaraboz" bo'lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdurlar" [2, 79–80-b].

O'tmishda o'zbek xalqining teatr san'ati xalq havaskorlik teatridan iborat bo'lgan. Bu teatr improvizatsiya san'atida yuqori mahoratga erishgan masxarabozlar va qiziqchilar teatri edi. Bularda tomoshalar yakka shaxslar yoki ozroq miqdordagi personajlar qatnashadigan tomoshalar bo'lardi. Shunisi diqqatga sazovorki, erkaklar truppalari bilan bir qatorda xotin-qizlar truppalari ("to'plari") ham mavjud edi, ularda "masxaraboz xotin" va "qiziqchi xotin" chiqishardi. Inqilobdan oldingi davrda xotin-qizlar og'zaki dramasiining markaziy mavzui ayollar taqdiri, ularning huquqsiz ahvoli, ayni vaqtda hayotni sevish, ozodlik va teng huquqlikka intilishdan iborat bo'lardi. "Zambur", "Domla eshon", "Loy sovun" komediyalaridagi hajv, avvalo, ma'murlar va dindorlar vakillariga qarshi qaratilgan edi.

Erkaklar teatri kabi xotin-qizlar teatrlarining tomoshalari ham ko'pincha xalq bayramlari (masalan, Navro'z) va urf-odatlari – to'ylar va boshqa marosimlar

bilan bog'liq bo'lardi. Biroq ular faqat xotin-qizlar yig'ilishlarida – oilaviy tantanalar, bayramlar munosabati bilan, xotin-qizlarning qishki kechalarida o'tkazilardi. Xotin-qizlar xalq teatri ularni g'oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda sezilarli rol o'ynadi [3, 155–156-b]. Bu davrda teatrga ham, ayollarning teatr sahnasiga chiqishiga ham yo'l qo'yilmas va bu amal johil ulamolar tomonidan harom deya qoralanar edi. (Birinchi o'zbek aktrisasi Masuma Qoriyeva taqdiri so'zimizga yorqin misol bo'la oladi.) Bu haqida Abdulla Avloniy 1914-yilda "Sadoyi Turkiston" gazetasida chop etilgan "Tiyotr xususida munozara" maqolasida shunday yozadi: "Tiyotr harom, tiyotrdan kelgan oqcha ham harom", derlar. Holbuki, tiyotr harom ermas, bid'at. Bid'at bo'lsa ham "bid'ati hasana". "Bid'ati sayyia"lardan emas. Tiyotr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo'q qilmak uchun, o'zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg'on oyinasidir" [4, 343-b].

O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgach, mustamlakachi hukumat siyosiy maqsadlarda, o'lkaga rus madaniyatini yoyishga jadallik bilan kirisha boshladi. Bunda teatr sohasi ham muhim ahamiyat kasb etdi. 1870-yil Turkiston general-gubernatori tomonidan taklif qilingan Samara teatri o'lkada bir necha kunlik dasturlarini namoyish etdi. 1910-yilda Samarqand va Toshkentga rus aktrisasi V.F.Komissarjevskaya truppasining gastrollari uyushtirildi. Turkistonda namoyish etilgan bunday tomoshalar o'lka mahalliy san'atkorlari ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ilg'or ma'rifatparvarlar va jadidlar yangicha g'oyalarini targ'ib etish uchun dramatik teatrning ulkan imkoniyatlarini tushunib yeta boshladilar. Tatar va ozarbayjon truppalarning 1910–1912-yillarda Turkistonda bo'lib o'tgan gastrollari ham teatr shakllanishida muhim voqealardan biri bo'ldi.

Turkistonda ilk milliy sahna asari 1911-yil yaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", A.Samadovning "Mahramlar", Fitratning "Bir farangi bilan buxorolik bir mudarrisning qilgan munozaralari" nomli asarlari shular jumlasidandir. "Padarkush" pyesasidan keyin 1917-yilgacha o'zbek dramalarining soni 40 ga yetgan. Ular ichida, ayniqsa, o'zbek milliy teatri durdonasiga aylangan Behbudiyning "Padarkush" dramasi juda muhim voqelik bo'ldi. "Padarkush"

pyesasi o'laroq, butun bir siyosiy oqimni muxoliflar "Padarkushchilar" deb atay boshladilar. Johil ulamolar tomonidan jadidlarni shunday nomlash urf bo'lib ketadi.

Turkistonda birinchi o'zbek milliy teatri Samarqand shahrida Mahmudxo'ja Behbudiy rahbarligida tashkil etildi. Bu truppada namoyish etilgan ilk asar ham uning "Padarkush" pyesasi edi.

1914-yil boshlarida Abdulla Avloniy Toshkent shahrida "Turon" nomidagi teatr truppasini tashkil etdi. Teatrda sahnalashtirgan birinchi asar ham "Padarkush" pyesasi bo'ldi. Abdulla Avloniy "Tarjimai hol"ida bu haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: "1913-yildan boshlab xalqning ko'zin ochmoq, madaniyatga yaqinlashtirmoq uchun teatru kirishib, teatru ishlarini yo'lga qo'yuvchilarning boshlug'u bo'lub, Turkistonning bir necha shahar-lariga borib o'zbeklar orasida teatru yo'l ochdim... "Turon" ismli teatralniy blag'otvoritelniy jamiyatni yuzaga chiqardim."

1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi Kolizey teatri binosida, taniqli tatar rejissyori Zaki Boyazidskiy Valeyev ta'biri bilan aytganda, "milliy dramaturgiya, milliy til, milliy artistlar bilan tayyorlangan" o'zbek milliy teatrining birinchi mavsumi ochildi. Spektaklni ochish sharafi Munavvar qoriga, unga rejissyor bo'lish Ubaydullaxo'jaga nasib qiladi. Tantanali marosimda Munavvar qori tarixiy so'zlarni aytadi: "Turkiston tilida hanuz bir teatr o'ynalmagonligi barchangizga ma'lumdir. Shul sababli ba'zi kishilarimiz teartg'a, ehtimolki o'yinbozlik yoki masxarabozlik ko'zlari ila boqurlar. Holbuki, teatrning asl ma'nosi "ibratxona", yoki "ulug'lar maktabi" degan so'zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qiling'on bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirsam, o'zining husn va qabihligini, ayb va nuqsonini ko'rib ibrat olur... Teatr sahnasiga chiqib, yuziga un surtib, bir masxaraboz shakliga kirgan zotlar go'yoki tabibi hoziq misolidadir" [3, 278-b].

"Turon" jamiyati nizomida quyidagilar yozilgan: "Xalq orasida jadidiy va sahna ishiga hamda xayriyaga muhabbat uyg'otish; xalq uchun spektakl qo'yib,

sog'lom tomosha ko'rsatish; Turkiston o'lkasi hududida yashovchi muhtoj musulmonlarga moddiy yordam berib, manaviy va moddiy jihatini yaxshilash".

"Turon" jamoasining obro'si va tarixiy xizmati haqida Munavvar qori bunday deb yozgan edi: "Toshkent jamiyatining ismini unutgan, yoki hech bir jamiyat degan so'zni eshitmagan Toshkent musulmonlarining yetti yasharidan yetmish yasharigacha jamiyatning vujudidan xabardor bo'ldi. Rus, yahudiy va armanlar foydalanib yurgan o'rinlardan foydalanmoq musulmonlarga ham mumkin ekanligi ochiq bilindi. Bu esa Toshkent musulmonlarining xiyla ruhlarining ko'tarilmog'iga va jamiyatga muhabbat ila qaramoqlariga sabab o'ldi" [3, 279-b].

Abdulla Avloniy tomonidan tashkil etilgan "Turon" truppasining faoliyatini professional o'zbek teatri tarixining boshlanishi deb hisoblash mumkin.

"Turon" truppasi 1915-yildan boshlab teatr bilan birga shakllana boshlagan o'zbek dramaturgiyasining yangi namunalarini muntazam sahnalashtirib boradi. Masalan, 1915-1916-yillarda Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Hoji Mu'inning "Mazluma xotun" pyesalari truppa repertuaridan joy oladi va truppa ilk qadamlaridan boshlab yangilikka, hamkorlikka intilib, professional jamoa sifatida shakllanishga, ijodiy o'sishga, xalqning madaniy-ma'rifiy saviyasini ko'tarish yo'lida, o'ta qiyin bir sharoitda, dadil tashabbuslar ko'rsatishga harakat qiladi.

Bu davrda yangi voqelik talablariga javob beradigan to'laqonli sahna asarlari hali paydo bo'lmagan edi. Shu sababli, "Turon" teatri 1918-yilning mart oyidan 1919-yilning sentyabr oyiga qadar sahnalashtirilgan 16 ta pyesadan 15 tasini bir pardali asarlar tashkil etadi. Bu asarlar orasida shoir va bastakor G'.Zafariyning "Tilak", "Yomon o'g'il", "Rahimli shogird" singari musiqali pyesalari ham bor edi [7]. U.Gajibekovning "Go'ro'g'li", "Layli va Majnun" va "Arshin mol olon" musiqali pyesalari o'zbek jamoatchiligi orasida iliq kutib olindi. Bu o'z navbatida mahalliy teatr rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi [5, 145-b].

1916-yil Qo'qon shahrida Hamza rahbarligida havaskorlar teatri tashkil etildi. Unda namoyish etilgan birinchi spektakl Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" pyesasi bo'ldi. Bu pyesa o'zbek teatri shakllanishida ham, o'zbek

dramaturgiyasi vujudga kelishida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Teatr chuqur mazmunli, ijtimoiy ahamiyatga molik hodisaga aylandi [5, 146-b].

Jadidchilik harakatining ma'rifatli jamiyat qurish g'oyasi yo'lida teatrning ulushi ulkan ekanligi haqida adabiyotshunos olim Begali Qosimov shunday yozadi: "Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'rsin".

Teatrlarga e'tibor sekin-astalik bilan kuchayib bordi. Uning jamiyat hayotiga ta'siri sezilishi bilan davlat siyosati darajasida qarala boshlandi. 1918–1920-yillarda havaskor teatr to'garaklari, yarim professional teatr truppalari tashkil etildi, Maorif xalq komissarligi huzurida maxsus san'at bo'limi tashkil etish (1918-yil), "Teatr ishlari bo'yicha birlashma" tashkil qilish haqida (1919-yil) qarorlar qabul qilindi.

Farg'onada Hamza tomonidan 1918-yil sentyabr oyida tashkil etilgan "Musulmon truppasi" Turkfront siyosiy boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazildi va "O'lka musulmon siyosiy drama truppasi" deb qayta nomlandi. Mashhur artistlardan Qori Yoqubov, Hoji Siddiq Islomov va boshqalar o'z ijodiy faoliyatlarini ana shu truppada boshlagan edilar. Repertuar asosini Hamza dramalari: "Zaharli hayot", "Boy ila xizmatchi", "Farg'ona fojiasi", "Loshmon fojiasi", "Kim to'g'ri?", "Tuhmatchilar jazosi" asarlari tashkil etdi [4, 157-b].

1920-yilning mart oyida Mannon Uyg'ur rahbarlik qilgan Karl Marks truppasi "Taraqqiy" havaskorlar to'garagi bilan birlashganidan so'ng o'lka davlat namuna truppasi yuzaga keladi. 1920-yil 26-martda namoyish qilingan Hamzaning "Zaharli hayot" dramasi, G'.Zafariyning "Halima" musiqali dramasi bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Oradan ikki-yil o'tgach, 1924-yil 20-iyunda Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" (Xurshid inssenirovkasi), 15-dekabrda esa Fuzuliyning "Layli va Majnun" (Uzeir Hojibekov inssenirovkasi va musiqasi) dostonlari asosida musiqali spektakllar tayyorlanib, namoyish qilinadi.

1920-yilning bahorida o'lka o'zbek davlat namuna truppassi tashkil etilganidan so'ng unga Toshkentning Yangi shahar qismidagi 600 kishilik "Xalq uyi" binosi beriladi va Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon teatr direktori etib tayinlanadi. 1914-yildan boshlab dramaturgiyada ham qalam tebrata boshlagan Cho'lpon 20-yillarning avvalida "Yorqinoy" va "Xalil farang" pyesalarini yozadi. "Yorqinoy" 1920-yil 24-noyabrda, "Xalil farang" esa 1921-yil 2-fevralda teatr sahnasida namoyish etiladi. Umuman, teatr faoliyati, uning ijodiy kamolotida Cho'lpon alohida o'rin tutadi.

Jadidlar teatr orqali o'z davri jamiyati hayotini isloh qilishga va xalq ma'naviyatini oshirishga o'zining munosib hissasini qo'sha oldi. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yozilgan va sahnalashtirilgan ko'plab sahna asarlari buning yaqqol misoli bo'la oladi. Quyida ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi ilm-ma'rifatni targ'ib qiluvchi va jaholatni qoralovchi ilk jadid yozma asari hisoblanadi. Asarda ilmsizlikning oqibatlarini ortidan keladigan ayanchli fojia hikoya qilinadi. Boyning farzandini maktabga berishiga chaqirgan Domulla va Ziyoli kabi obrazlar ilm-ma'rifat fidoiylari sifatida tasvirlanadi. Shu o'rinda asardan parcha keltirishni joiz deb bildik. Asarda boy farzandini o'qishga bermasligini aytadi va buni quyidagicha izohlaydi: "Mani xayoling'a dunyoning sababi, izzati – boyluk. Oxiratga bo'lsa, dunyoning qilgani bo'lur. Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mulldan ziyoda izzat qiladurlar" [2, 6-b]. Boyning so'zlariga domulla shunday javob qiladi: "bu so'zlaringiz hozirgi zamonga ma'qul, lekin chilen va boylarning izzatlari vaqtincha va xalqni ko'zi ochilgunchadir. Holbuki, alarni ishi tushganlar hurmat qilur, mulloni bo'lsa, barcha xalq izzat qilur, ya'ni mulloni ilmi izzat qilinadur" [2, 6-b]. Behbudiy bu dialog orqali o'z xalqiga bu dunyoda barcha to'plagan matohlar, boyluklar bir kun yo'qolishi yoki tugashi mumkin, ammo ilm, ma'rifat hech qachon yo'qolmasligi va uning abadiy ekanligini uqtiradi.

Abdulla Qodiriy 1915-yilda o'zining "Baxtsiz kuyov" dramasini yozadi. To'rt pardali dramada dabdabali to'ylarning fojiviy oqibatlarini tasvirlaydi.

Dramada Solih va Rahimaning fojiaiy qismati fonida ortiqcha dabdabali to'ylar insonlar hayotiga qanchalik salbiy ta'sir etishi haqida hikoya qilinadi.

Ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi" pyesasida asosan ilmsizlik qoralanadi. Xalqni ma'naviy va mafkuraviy tomonlama o'sishga chaqiradi. Avloniyning "Advokatlik osonmi?" dramasi ilm-ma'rifat haqida Davronbek shunday so'zlaydi: "Endi ochuq manga ma'lum bo'ldiki, umuman xalq orasida ilm va ma'rifat tomir yoyub, madaniyat taraqqiy qilmaguncha manga o'xshash bir ikki odam xalq orasida ishlab, xalqni ko'zin ochamiz, huquqin mudofaa qilamiz, demak, yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmoqqa o'xshash xayoliy bir nimarsa ekanlig'i emdi ochiq va aniq ma'lum bo'ldi" [4, 322-b]. Dramasida jabrdiyda xotin-qizlar ahvoli ham ko'rsatiladi. Muallif bu hollarning sababi – ilmsizlik va madaniyatdan yiroqlik deb biladi va Davronbek tilidan shunday so'zlarni aytadi: "Oh, zolim madaniyat, bizim turkistonliklarning orasiga qachon kelub tomir yoyasam?! Qachon bizim bu jaholat zindonidan xalos qilasan?! Bizda uy tarbiyasi boshlanub, xotun-qizlarimiz ilm-u maorif ila nurlanmag'uncha, bizning oramizda shunday ko'ngilsiz hollar davom etsa kerak" [4, 328-b].

Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" pyesasi ham o'z davridagi ijtimoiy adolatsizlik, mutaassiblik va jaholat qurboni bo'lgan ikki yosh – Mahmudxon va Maryamxonlarning fojiali muhabbati haqida hikoya qiladi. Ularning muhabbatiga jamiyatdagi eskicha qarashlar va moddiy manfaatlar to'sqinlik qiladi.

Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yozilgan va sahnalashtirilgan dramalarning har biri o'z zamirida jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlarini aks ettirgan. Jadidlarning bosh maqsadlari o'rta asrchilik va feodal qoloqlikni tugatish, "Usuli qadim"ni inkor etgan holda taraqqiy etish edi. Ular teatrlar orqali o'z g'oyalarini xalqning ich-ichigacha kirib borishini ta'minladilar. Chunki teatr tomoshalari o'qish va yozishni bilmaydigan savodsiz ijtimoiy qatlam uchun ham birdek tushunarli va ta'sirli edi.

XX asr boshlarida shakllangan jadid teatri shunchaki ko'ngilochar maskan emas, balki millatni g'aflat uyqusidan uyg'atuvchi kuchga aylandi. Jadid teatri va dramalarining ma'naviy uyg'onishdagi ahamiyati shundaki, ular xalqning o'zligini anglash, ilm-ma'rifatga intilish, erkinlik kabi g'oyalarini sodda va xalq uchun tushunarli bo'lgan tilda yetkazib berdi. Bugungi kunda ham ushbu asarlar o'zining dolzarbligini yo'qotmay, yosh avlodni milliy qadriyatlariga sodiq, ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalashda muhim poydevor bo'lmoqda. Jadidlar asos solgan "Sahnai ibrat" maktabi o'zbek milliy madaniyati va davlatchiligi tarixida tub burilish yasagan ma'naviy hodisalardan biridir.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – 176 b.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. *Padarkush: drama, hikoya, maqola va hikmatlar.* – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 160 b.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. K.2. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida // Tuzuvchilar: M.Jo'rayev, R.Nurrullin, S.Kamolov va boshq.; Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jayev (rais) va boshq./.. – Toshkent: Sharq, 2000. – 688 b.
4. Abdulla Avloniy. *She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma / qayta nashr; nashrga tayyorlovchilar: B.Qosimov, O.Oltinbek.* – Toshkent: Zabarjad Media, 2024. – 432 b.
5. Tillaboyev S, Zamonov A. *O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi XX asr boshlari) / mas'ul muharrir D.A.Alimov.* – Toshkent: Sharq, 2019. – 160 b.
7. Haydarov A. *The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.* – 2021. – Vol. II, – № 3. – P. 1973–1977.

**Zumriniso Kozimova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrasini mudiri, dotsent  
E-mail: kzumriniso6263@gmail.com*

## **O'ZBEK TILI TEATR TERMINOLOGIYASINING MAVZUVIY GURUHLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida teatrga oid terminlarning mavzuviy va leksik-semantik guruhlariga ajratib o'rganish hamda uning nazariy asoslari yoritildi. Shuningdek, o'zbek teatr terminlarini tizimli ravishda tadqiq etish zarurligi asoslanib, ularni mavzuviy va semantik mezonlar asosida tasniflandi. Maqolada teatr san'atining tarixiy taraqqiyoti, xususan, qadimgi tomosha san'ati va zamonaviy teatr bosqichlari ajratib ko'rsatildi hamda har bir davrga xos terminologik birliklar tahlil qilindi. Shuningdek, teatr terminlari diaxron va sinxron jihatdan o'rganilib, ularning janr nomlari, shaxs nomlari, sahna jihozlari, jarayonlar va boshqa guruhlariga bo'linishi misollar asosida izohlandi. Qo'g'irchoq teatri va boshqa tomosha turlariga oid terminlarning shakllanishi va qo'llanish xususiyatlari ham alohida ko'rib chiqildi.*

***Kalit so'zlar:** termin, leksik-semantik, teatr, tomosha, qo'g'irchoq, dorboz, opera, balet, raqs, grim, bir aktyor teatri.*

## **THEMATIC CLASSIFICATION OF THEATRE TERMINOLOGY IN THE UZBEK LANGUAGE**

***Abstract.** This article examines the thematic and lexico-semantic categorisation of theatre terminology within Uzbek linguistics, highlighting its theoretical foundations. Furthermore, it substantiates the necessity of a systematic study of Uzbek theatre terms, classifying them based on thematic and semantic criteria. The article delineates the historical evolution of theatrical arts – specifically contrasting ancient performance arts with modern theatre stages – and provides a detailed analysis of the terminological units' characteristics of each period. Theatre terms are analysed from both diachronic and synchronic*

viewpoints, categorised into groups such as genre titles, personal names (anthroponyms), stage equipment, and theatrical processes, accompanied by specific examples. The formation and functional characteristics of terminology related to puppetry and other forms of performance arts are also analysed as distinct areas of study.

**Keywords:** term, lexico-semantic, theatre, spectacle, puppetry, tightrope walking (dorboz), opera, ballet, dance, make-up, one-actor theatre.

Jahon tilshunosligida soʻzlarni mavzuviy va leksik-semantik guruhlariga ajratib olib tadqiq qilishning boshlanganligiga koʻp vaqt boʻlgan [1, 65-c]. Avvalgi leksikografik mazmundagi adabiyotlarda soʻzlarni mazmuniy uyalarga yoki mavzuviy va leksik-semantik guruhlariga boʻlib olib izohlangan. Shu anʼana keyinchalik oʻzbek tilshunosligida ham oʻz aksini topa boshladi. XX asrning 80–90-yillariga kelib oʻzbek tilshunosligida ham terminlarni va terminologiyani tizim sifatida tadqiq etishga alohida eʼtibor qaratila boshlandi.

Oʻzbek tilidagi nomlar, terminlarni mavzuviy va leksik-semantik guruhlariga boʻlib oʻrganish borasida ham koʻplab ishlar borki [2, 13-b], bu holat terminlarni mavzuviy hamda leksik-semantik guruhlariga ajratib oʻrganish usulining ishonchli va samaraliligini tasdiqlaydi. Oʻzbek teatr terminlarining mavzuviy guruhlarini aniqlab olish, leksik semantik guruhlarini belgilash bilan soha terminlarining semantikasi haqida dastlabki ilmiy xulosalar olinadi.

Teatr sanʼati hamda uning tarmoqlari sanʼat sohasida muhim oʻrin tutadi. Shu sababli sanʼat sohasida teatr sanʼatining turli davrlarda bajaradigan vazifasining turi va ahamiyatiga koʻra bir necha toifalarga boʻlingan. Dastlab, davriylik nuqtai nazaridan teatr sanʼatini 2 ta katta guruhga boʻlib oʻrganish mumkin.

1. XX asrgacha boʻlgan davr (bu davr eramizdan avvalgi davrlardan boshlanib, eramizning XX asrigacha boʻlgan davrlarni oʻz ichiga oladi va bu davr teatr sanʼati “Tomosha sanʼati” atamasi bilan yuritilgan.

2. Zamonaviy teatr san'ati davri (bu davr XX asrning 20-yillaridan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi).

**Qadimda teatr san'atining** ilk ko'rinishlaridan biri bo'lgan tomosha san'ati jamiyatning madaniy, ijtimoiy, axloqiy va badiiy hayotini aks ettirib, zamon, makon va xalq madaniyatidan kelib chiqib o'zgaruvchi va boyib boruvchi san'at turi hisoblangan.

O'zining bajaradigan vazifasi va maqsadiga ko'ra tomosha san'ati quyidagi guruhlarga bo'lingan:

1. Kulgili tomoshalar.
1. Hikoya uslubidagi tomoshalar.
2. Maydon tomoshalari.
3. Dorbozlik tomoshalari.
4. Qo'g'irchoq o'yin tomoshalari.

**1. Kulgili tomoshalar** qadimda masxara, hazzol, mutoyib, mutoyaba, taqlid, zarofat kabi tushunchalarni o'z ichiga olgan va ular o'z mazmun-mohiyati va vazifasiga ko'ra farqlangan. Bugungi kunda bu tomosha turi qiziqchilik san'ati sifatida ajralib chiqqan bo'lib, faqat teatr san'atining komediya janri ostida xususiylashadi.

**2. Hikoya uslubidagi** tomosha san'ati ham bajaradigan vazifasi va o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra boshqa turlardan farqlanib, bu san'at egalari sifatida maddohlar, go'yandalar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, laffozlar, voizlarni ko'rsatish mumkin.

**3. Maydon tomoshalari** ham qadimgi tomosha san'atining keng tarqalgan turi hisoblanib, bu san'at o'z ichiga kamongarlik, zo'rgarlik, tirandozlik, kushtidonlig' kabi tomosha turlarini birlashtirgan.

**4. Dorbozlik tomoshalari** dastlab ko'cha tomoshasi sifatida yuzaga kelgan va unda rasanboz, afsungar, afsunsoz, la'bafkan, lu'batakboz, muhrabozlik, muqallid, mush'abid, huqqaboz, shu'badaboz, naqshboz, nayrangsoz, bozigarlar faoliyat yuritgan. Bugungi kunda bu tomosha turi ko'cha tomoshalari sifatida ham,

sirk va teatr sahnalarida ham namoyish etiladi. Hozirda bunday san'at ustalarini dorbozlar va ko'zboylog'ich (fokuschi) deb yuritiladi.

**5. Qo'g'irchoqbozlik tomoshalari** ildizlari ham qadimiy marosim o'yinlariga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, miloddan avvalgi davrlardayoq turli shakldagi haykalchalar va qo'g'irchoqlar diniy marosimlarda, hosildorlikka bag'ishlangan tantanalarda ishlatilgan. Sharq mamlakatlarida, xususan, Hindiston, Xitoy, Eron va Markaziy Osiyo hududlarida qo'g'irchoq o'yinlari qadimdan mavjud bo'lgan. Masalan, Hindistondagi "katputli", Xitoydagi soyali teatrlari, turkiy xalqlardagi "qovurchoq", "kuurchak" (qirg'izcha), "gurjak" (turkmancha), "quirshaq" (qozoqcha), "qorchaq" (uyg'urcha) tomoshalari buni yaqqol isbotlaydi. Aynan o'zbek madaniyati va san'atida ham "qiziqchi" va "masxaraboz" san'ati bilan bir qatorda qo'g'irchoqbozlik xalq madaniyatining ajralmas qismi bo'lib kelgan. "Chodir jamol", "Chodir xayol", "Fonus xayol" nomi bilan mashhur bo'lgan qo'g'irchoq teatri asrlar davomida xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq holda shakllangan.

Qo'g'irchoq o'yinlarining turlarini ifodalovchi atov birliklari: qo'l qo'g'irchoqlar, ip qo'g'irchoqlar, soyali qo'g'irchoqlar, chodir jamol.

Qo'g'irchoq teatrining shakllari ko'plab madaniyatlarda turlicha namoyon bo'ladi va ular qo'g'irchoq o'yinlarining turlarini ifodalab, mikroguruhlarini tashkil etadi.

1. Qo'l qo'g'irchoqlar (chodir jamol) – qo'g'irchoqning bosh qismi yog'och yoki matodan tayyorlanib, aktyorning qo'lga kiydiriladi.

2. Ip qo'g'irchoqlar (chodir xayol) – iplar yordamida boshqariladigan, ko'proq dramatik sahnalar ijrosiga moslashgan shakl. Maxsus tortilgan pardalar (chodir) ortida tomosha ko'rsatilgan.

3. Soyali qo'g'irchoqlar (fonus xayol) – XV–XVI asrga oid qo'g'irchoqbozlik turi bo'lib, qo'g'irchoqlar yassi shaklda yog'och yoki charmdan ishlangan va dastcho'plarga o'rnatilgan. Iplarni tortish yordamida boshqarilgan. Bu tomosha turi kechqurun namoyish etilgan hamda qo'g'irchoqlarning ortidan fonus bilan yoritib

turilgan. Pardaga tushirilgan yorug'likda qo'g'irchoqlarning siluetlari ko'rinadi (masalan, turk xalqlaridagi "Karag'oz va Hojibekdash" o'yinlari).

**Zamonaviy teatr san'ati** XX asr boshlaridan to hozirgi kungacha rivojlanib kelayotgan teatr shakli bo'lib, u ifoda usullariga ko'ra bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi va har bir bosqichning o'z terminologik tizimi mavjud:

**1. Modern teatr** (Modern Theatre) – XX asr boshlari – 1940-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan hamda uning asosiy yo'nalishlarini ifodalovchi realizm, naturalizm, ekspressionizm terminlar hozirgi kunda ham keng iste'molda.

**2. Postmodern teatri** tushunchasi 1945–1980-yillarda amalda bo'lgan va uning asosiy xususiyatlarini ifodalovchi dekonstruksiya, intertekstuallik, metateatr, absurd teatr kabi atamalardan keng foydalanilgan.

1980-yillardan – hozirgi kunga qadar Muosir/zamonaviy teatr yo'nalishi va uning tendensiyalarini aks ettiruvchi texnologik teatr, multimedia immersiv teatr, dokumental teatr, immersiya, video, grafika, proyeksiya va virtual texnologiya, interaktivlik, jamoaviy ijod, ijodiy laboratoriya, verbatim, sotsiodrama kabi terminlar amalda qo'llanilmoqda.

Ma'lumki, "borliq inson ongida milliy-mental ko'rinishda gavdalanadi. Milliy tasvirda milliy tuyg'ular, urf-odat va qadriyatlar, mental ruhiyat kabilar tasvirning "ranglari" sifatida namoyon bo'ladi. Ammo ilm-fan, sanoat, ishlab chiqarish sohalarining lisoniy tasvirida milliylikdan ko'ra umuminsoniylik ustuvor. Milliy tasvir asosan tilning umumiste'mol leksikasida o'z ifodasini topsa, terminosistemada milliylikdan ko'ra ko'proq universallik, umuminsoniylik bo'rtib turadi" [3, 28-b].

O'zbek zamonaviy teatr terminlarining struktur va semantik xususiyatlari, qo'llanish ko'lamida asosida bir qancha yirik va mayda mavzuviy guruhlariga ajratish mezonlari ishlab chiqildi. Bunda ushbu soha terminlarini janriy xususiyatlari asosiy o'ringa chiqdi.

1. Janriy mansublik mezoni: muayyan bir janrni tashkil etgan terminlarni bir mavzuviy guruhga birlashtirish.

2. Semantik mansublik mezoni: terminlarni semantik tarkibidagi umumiy semalari asosida bir mavzuviy guruhga birlashtirish.

Zamonaviy o'zbek teatrini: drama, qo'g'irchoq, musiqali teatr (opera, estrada), balet, pantomima teatrlari kabi janrlarga ajratamiz. Ular uchun umumiy va xususiy bo'lgan terminlar mavjud. Opera, balet, raqs, simfonik orkestr, qo'shiq, vokal, avj, akkord, akapella, garmoniya, imitatsiya, partitura, syuta, polifoniya kabilar musiqali teatrga; xoreograf, raqs, libretto, plastika, baletmeyster balet teatriga; vertep, gapit, koturna, marionetka, patronka, safil, qo'g'irchoq, qo'g'irchoqboz kabilar qo'g'irchoqbozlik teatriga xos terminlar hisoblanadi.

Musiqali, xususan opera, balet, estrada terminlari drama va qo'g'irchoqbozlik terminlariga nisbatan birmuncha abstraklashgan. Qo'g'irchoqbozlik teatri terminlari ma'lum doiradagina qo'llanilib, aniqlikka ega. Musiqiy teatr terminlari esa raqs, qo'shiqchilik san'atining uzviy qismi bo'lganligi sababli umumiylik kasb etadi, shuningdek, mavhumlashishiga ham sabab bo'ladi.

Mazkur mavzuviy guruhlariga tegishli terminlar til sinxroniyasi, ya'ni zamonaviylik nuqtai nazaridan, yana quyidagi kichik mavzuviy guruhlariga birlashadi:

**Diaxron xarakterli terminlar (eskirgan):** hazzol, mutoyib, mutoyaba, taqlid, zarofat maddohlar, go'yandalar, qissago'ylar, masalogo'ylar, badihago'ylar, laffozlar, voizlar, zo'rgarlik, tirandozlik, kushtidonlig', afsungar, afsunsoz, afsonaguzor, afsonapardoz, la'bafkan, lu'batakboz, muhrabozlik, muqallid, mush'abid, huqqaboz, shu'badaboz, naqshboz, nayrangsoz, bozigar, arusak, lu'bat, lu'batboz, qovurchoqchi, fonus xayol, chodar, bismil, mehtar, korfarmon, ko'chagar, risola.

Quyida ularning eski o'zbek tilida qo'llanish holatlariga misollar keltiramiz:

Afsonaguzor – Tujjori sayohatshior, aqolim va buldon holiday xabardor, ajoyibdin afsonaguzor va g'aroyibdin nodira guftor; Afsonapardoz – Yana dag'i rasoilg'a qalam suribmen va makotibg'a raqam uribmenki, forsiy sehrsozlar va pahlaviy afsonapardozlar ham anda avroq orasta va ajzo pirosta qilibdurlar;

Naqshboz – Ham oxir bo‘ldi naqshbozi,

Ne mushkil hiyla bo‘lsa chorasoz [4, 347-b];

Hazzol – Mavlono Burundiq – nadimvash va hazzol kishi ermish... ;

Huqqaboz – Ne qilg‘ay necha jo‘giyi sehrsoz,

Biri muhraduzdu biri huqqaboz [5, 271-b];

Mutoyib – Mavlono Abdurazzoq... rangining humrati bor uchun mutoyiblari  
ani “surx qalb” derlar [6, 164-b];

Mutoyaba – Mutoyabaki, boisi inbisot bo‘lg‘ay, xushturki, mujibi farah va  
nishot bo‘lg‘ay [7, 106-b];

Maddoh – Mavlono Xurramiy... aning maddohlig‘ida til ojiz va aql qosirdur;

Masalgo‘y – Mavlono Tusiy... masalgo‘y va g‘azalgo‘y erdi [8, 93–92-b];

Muhraboz – Muhrabozliq tasbihin evurmak va uzunroq namozdin g‘arazi el  
ko‘rmak;

Muqallid – Fasaqa xaylida muqallideki, g‘arazi el kulgusidur, go‘yo fohishai  
qahbaning ko‘rganni ko‘rguzgan ko‘zgusidur [9, 42–106-b].

Qo‘g‘irchoq o‘yini tomoshalari uchun xos bo‘lgan arusak, lu‘bat, lu‘batboz,  
qovurchoqchi, fonus xayol, chodar, bismil, mehtar, korfarmon, ko‘chagar, risola  
kabi terminlar bu o‘yin tomoshalarining muhim jihatlarni ifodalaydi hamda  
ularning maqsadi, o‘zaro aloqasi, shuningdek, tomosha jarayonida ahamiyatga ega  
bo‘lgan elementlarini tushunishga yordam beradi.

Ko‘rib turganimizdek, qo‘g‘irchoq o‘yidan boshqa tomosha turlarida  
ko‘rsatilgan tushuncha va terminlar tomosha turi va shu san‘at turi bilan  
shug‘ullanuvchi shaxsni bildirgan. Tomosha nomlariga -boz, -soz, -gar, -chi shaxs  
oti yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan yasalgan terminlar ham, yasovchi  
qo‘shimchalarsiz – tomosha nomlarining o‘zi ham shaxsni bildirib kelgan terminlar  
ham mavjud bo‘lgan (masxara – ham tomosha turini, ham uni ijro etuvchi shaxsni  
bildirgan. Yusuf masxara, Ismoil masxara kabi). Mazkur tomoshalarni tashkil  
etilishi uchun xos bo‘lgan asboblardan, jihozlardan umumiylik kasb etib, adabiyot,  
san‘atning boshqa bir qancha turlari, sport sohalari uchun xususiy hisoblanadi.

Qo'g'irchoq o'yini tomoshalarida arusak, lu'bat, qo'g'irchoq, qovurchoq, qurchaq – tomosha uchun asos bo'lgan predmet, ya'ni aynan qo'g'irchoq; lu'batboz, qovurchoqchi, qo'g'irchoqboz – qo'g'irchoqlar yordamida tomosha ko'rsatuvchi aktyor; chodir xayol, fonus xayol, chodir jamol – qo'g'irchoq o'yin turlari; chodar, chodir, safil – tomosha ko'rsatish uchun jihoz turi; bismil – odatga ko'ra, qo'g'irchoq yasalgandan keyin bo'yni pichoq bilan kesib qo'yilgan va u “bismil” deb atalgan. Bu bo'yni kesilmagan qo'g'irchoq narigi dunyoda jon talab qiladi, degan diniy aqidadan kelib chiqqan.

Bu tomosha turlari uchun umumiy bo'lgan termin va tushanchalar ham mavjud bo'lgan:

Korfarmon, mehtar, ko'chagar – tushunchalari barcha tomosha turlari uchun umumiy bo'lib, XIX asrda o'zbek an'anaviy teatrining rahbari, boshqaruvchisi bo'lgan. Buxoro xonligida “g'olibboshi” deb ham yuritilgan. Ular yetakchi aktyor ham bo'lganlar. Ular tomosha rejasini tuzganligi, kerakli asbob-anjomlarni hozirlaganligi hamda aktyorlarni rollar uchun tanlaganligini nazarda tutsak, bugungi kundagi teatr rejissyorlari vazifasini bajarganliklarini bilishimiz mumkin bo'ladi.

Sahna, ko'shk, maydon, saylgoh, bazmgoh – barcha tomosha turlari o'tkaziladigan joy nomlarini bildirgan.

**Sinxron xarakterli teatr terminlari (zamonaviy xarakterdagi teatr terminlari):** opera, balet, raqs, simfonik orkestr, qo'shiq, vokal, avj, akkord, akapella, garmoniya, imitatsiya, partitura, syuta, polifoniya, xoreograf, raqs, libretto, plastika, baletmeyster, vertep, gapit, koturna, marionetka, patronka kabi.

Albatta, terminlarni mavzuviy guruhlarga ajratib o'rganishdan maqsad lingvistik umumlashmalar chiqarishdir. Shu jihatdan qaraganda, teatr terminlarini semantik jihatdan quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Janr nomlari: drama, melodrama, tragediya, komediya, inssenirovka, bir pardali pyesa.

2. Teatr qahramonlari nomi: Bichaxon, Kachal polvon, Petrushka.

3. Teatr asboblari va jihozlari nomi: chodar, qo'g'irchoq, safil, aerograf, butaforiya, kulis, lonja, loja, paduga, parda, planshet, portal, portik, rampa, rekvizit, sahna kolosnigi. Shuningdek, afisha, bilet, dastur, programma, ssenariyni ham shu guruhga kiritishimiz mumkin.

4. Teatrda tegishli o'rin-joy nomlari: ko'shk, vestibyul, balkon, bazmgoh, sayilgoh, avanloja, avanssena, amfiteatr, arena, yarus, pavilyon, benuar, aryerssena, balagan, balkon, bel-etaj, parter.

5. Shaxs nomlari: butafor, aktyor, adabiy emakdosh, adminstrator, suflyor, lu'batboz, qovurchoqchi, huqqaboz, shu'badaboz, mushu'bid, muhraboz, afsungar, bozigar, hazzol, mehtar, korformon, korifey, antreprenyor, baletmeyster, aktrisa, gastrolyor, suflyor, kastyumer.

6. Aktyorlarning rollari ijrosiga ko'ra nomi: epizotik qahramon, personaj, amplua, antiqahramon, dublyor, ikkinchi darajali ishtirok etuvchi shaxs, premyer, partnyor, rezonyor, injenyu, solist.

7. Jarayon nomlari: vernisaj, grim, debyut, akt, aktualizatsiya, aksent, andante, apach, gastrol, peripetiya, improvizatsiya, kaskad.

8. Spektakldagi vaqtni ifodalovchi nomlar: divertisment, avj, final, xotima, antrakt, apofeoz, prolog.

9. Aktyor xatti-harakati, holatini ifodalovchi atov birliklar: deksiya, mimika, adajio, aktyor plastikasi, mizanssena, repetitsiya, tryuk, grotesk, jest, deklomatsiya, buffonada.

10. Kimga mo'ljallanganligiga ko'ra: bolalar teatri, kattalar teatri, ayollar qiziqchiligi, yosh tomoshabinlar teatri.

11. Ijrosiga ko'ra: bir aktyor teatri, monodrama, dialogik, prologik, epilogik. Ko'rinadiki, teatr terminlari maqsadi, vazifasi, zamonaviylik nuqtai nazaridan hamda semantik jihatdan bir nechta guruhga bo'linadi.

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, teatr terminlari tilning leksik tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, mazkur tizim terminlari o'zaro umumiy-xususiylik, tur-jins munosabatida bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, teatr terminlari

ham boshqa soha terminlari kabi keng qamrovliligi sababli san'at sohasida qo'llaniladigan terminlarni ko'p hollarda boshqa sohaviy leksika, shuningdek, umumiste'mol birliklardan qat'iy chegaralashda qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa tizimda ham qo'llanadigan umumiste'mol va boshqa sohaviy terminlarni teatr terminlari sifatida talqin qilish va leksikografik tavsifini berishda chuqur lingvistik bilim bilan bir qatorda teatr sohasidan ham xabardor bo'lishi lozimligin taqozo etadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Новоселова Т. Об изучении тематических групп лексики // *Русский язык в школе*, 1972. – №1. – С. 60.
2. Ne'matova Yu. *Namangan viloyati oykonimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref.* – Toshkent, 2018. – Б. 13.
3. Valiyev T. *O'zbek tili yo'lsozlik terminlarining struktur-semantik xususiyatlari va leksikografik talqini: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. ... diss.* – Samarqand, 2018. – Б. 28.
4. Алишер Навоий. *Мукаммал асарлар тўплами. СаДДи Искандарий.* 20 томлик. 11-том. – Тошкент: Фан, 1993. – 300 б.
5. Алишер Навоий. *Мукаммал асарлар тўплами. МаЖолис ун-нафоис.* 20 томлик. 13-том. – Тошкент: Фан, 1997. – 400 б.
6. Алишер Навоий. *Мукаммал асарлар тўплами. Маҳбуб ул-қулуб.* 20 томлик. 14-том. – Тошкент: Фан, 1998. – 260 б.
7. Алишер Навоий. *Мукаммал асарлар тўплами. Фарҳод ва Ширин.* 20 томлик. 8-том. – Тошкент: Фан, 1991. – 380 б.

**Mamura Umarxodjaeva**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasida katta o'qituvchisi,  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: mamuraumarxodjaeva@gmail.com*

**QO'G'IRCHOQ SAN'ATIDA INDIVIDUAL IJOD:  
QOZOG'ISTONLIK JANNA DJANAYEVA ASARLARI  
TAHLILI MISOLIDA**

***Annotatsiya.** Qo'g'irchoq san'atida individual ijod muallifning ichki dunyosi, estetik qarashlari va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini o'ziga xos tarzda ifoda etadi. Ushbu tadqiqotda Janna Djanayeva asarlari misolida mualliflik qo'g'irchoqlarining badiiy xususiyatlari va uslubiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ijodi orqali zamonaviy qo'g'irchoq san'atida individuallik va an'anaviylik uyg'unligi ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** qo'g'irchoq san'ati, qo'g'irchoq yasash, individual ijod, badiiy uslub, milliy qadriyatlar, dekorativ san'at, hunarmandchilik.*

**INDIVIDUAL CREATIVITY IN PUPPET ART: AN ANALYSIS  
BASED ON THE WORKS OF KAZAKHSTANI ARTIST ZHANNA  
DZHANAYEVA**

***Abstract.** This article examines doll art as a form of individual creativity that reflects the author's inner world, aesthetic perspectives, and attitude toward national values. The study analyzes the works of Zhanna Dzhanayeva, highlighting the artistic features and stylistic approaches characteristic of authorial dolls. It also explores the interaction between individuality and tradition in contemporary puppet art through the artist's creative work.*

***Keywords:** puppet art, doll making, individual creativity, artistic style, national values, decorative art, craftsmanship.*

Mualliflik qo'g'irchoq yaratish san'ati bu estetik va texnik ko'nikmalarning murakkab integratsiyasi bo'lib, unda shakl va funksiya, anatomik to'g'rilik va

individual ekspressiya birlashtiriladi. Bu jarayonda mualliflar materiallarning fizik xususiyatlarini tahlil qiladi, kompozitsion yechimlarni ilmiy asosda tanlaydi va obyektning vizual hamda funksional barqarorligini ta'minlaydi. Mualliflik qo'g'irchoqlarini yaratishning ilmiy jihati, shuningdek, har bir qadamda konseptual va texnik qarorlarni baholashga asoslanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda Qozog'iston Respublikasida mualliflik qo'g'irchoq san'atini rivojlantirishda faoliyat yuritayotgan Janna Djanayevani alohida ta'kidlash muhim. U mualliflik statuar qo'g'irchoqlarini yaratish bilan to'rt yildan buyon shug'ullanib kelmoqda va bu jarayonda badiiy estetika hamda texnik innovatsiyalarning mukammal integratsiyasini amalga oshirmoqda. 1990-yillar avlodiga mansub ko'plab mutaxassislar singari, u ikkita oliy ta'lim muassasasining diplomiga ega. Ushbu akademik tayyorgarlik Janna Djanayevaning mualliflik qo'g'irchoqlarning shakl va funksiya, material va kompozitsiya jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning ijodiy va texnik qarorlarini sistemalashtirishga yordam beradi [1].



*Qozog'istonlik Janna Djanayeva*

U uzoq yillar davomida turli kompaniyalarda moliya direktori lavozimida faoliyat yuritgan bo'lib, hozirgi kunda etnik uslubdagi qo'g'irchoqlarni yaratish

bilan shug'ullanmoqda. Bu yerda "yaratish" atamasi nafaqat qo'g'irchoq liboslarini tayyorlashni, balki qo'g'irchoqning o'ziga xos badiiy shaklini ham mustaqil ravishda yaratish jarayonini qamrab oladi.

Barcha jarayon jurnalidagi tasvirdan ilhomlanish va o'z-o'zidan qotuvchi massa ladoldan qo'g'irchoqlar tayyorlashdan boshlangan. Rossiyalik usta Alyona Abramova tomonidan o'tkazilgan o'quv kursini tamomlagandan so'ng, Janna pishirib qotiriladigan polimer material sernitdan giperrealistik qo'g'irchoqlar yaratishga kirishdi.

Muallif o'z asarlarida mamlakat tarixini aks ettirish maqsadida etnik qo'g'irchoqlar yo'nalishida faoliyat yuritishni boshladi. Qo'g'irchoqlarni yaratish jarayon ko'zlarni tanlashdan boshlanadi. Qo'g'irchoqning umumiy o'lchami aynan ko'zlarning diametriga qarab belgilanadi. Masalan, 12 millimetrli ko'zlar tanlangan taqdirda, qo'g'irchoqning bo'yi taxminan 60 santimetрни tashkil etadi. Keyingi bosqichda folgadan foydalangan holda bosh va qo'llar uchun asosiy shakl (karkas) hosil qilinadi. Shundan so'n, ushbu asos sernit bilan qoplanadi, ko'zlar joylashtiriladi va haykal yaratish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun maxsus asbob-uskunalaridan foydalaniladi, ayrim qo'g'irchoqsozlar stomatologik asboblardan ham foydalanadilar. Bosh o'lchamiga muvofiq holda qo'g'irchoq tanasining sxemasi ishlab chiqiladi, so'ngra unga mos ravishda qo'l va oyoq qismlari tayyorlanadi. Qo'g'irchoqqa qanday turdagi poyabzal kiydirilishi va uning yechiladigan yoki yechilmaydigan bo'lishiga qarab, oyoq shakllantiriladi. Ochiq poyabzal uchun barmoqlar alohida ishlanadi, yopiq poyabzal holatida esa bu talab etilmaydi. Keyingi bosqichda barcha detallar termik ishlovdan o'tkaziladi. Bu jarayonni oddiy o'choqda (duxovka) amalga oshirish mumkin, biroq sernit moddasi pishirish paytida toksik xususiyat namoyon qiladigani sababli alohida mo'ljallangan pechdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Detallar, odatda, 130°S haroratda taxminan 30 daqiqa davomida pishiriladi. Vaqt plastik qatlamining qalinligiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Masalan, yirik hajmli bosh qismlari uchun bir soatgacha vaqt talab qilinishi mumkin, ingichka yoki mayda detallar uchun esa

20 daqiqa yetarli bo'ladi. Aks holda, elementlarning shikastlanishi yoki kuyib ketishi xavfi mavjud. Qo'g'irchoqning asosiy konstruksiyasi metall karkasdan iborat bo'lib, u payvandlangan holda tayyorlanadi va buyumning balandligi hamda og'irligini ko'tara olishi lozim. Maxsus asboblarda yordamida karkas egiltirilib, qo'g'irchoqqa rejalashtirilgan holat beriladi. Shundan so'n karkasga asosiy to'ldiruvchi materiallar porolon va sintepon o'ralgan holda joylashtiriladi. Keyingi bosqichda quruq valyanie (quruq ignalash) usuli qo'llanilib, asosga inson tanasiga xos anatomik xususiyatlar beriladi [2].

Qo'g'irchoqsoz turli kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan ko'p tarmoqli mutaxassis hisoblanadi.

Polimer glinadan tayyorlangan qo'g'irchoq termik ishlovdan (objigdan) o'tkazilgandan so'n, u badiiy jihatdan bezatiladi (raspis qilinadi), keyin esa libos tayyorlash bosqichi amalga oshiriladi. Qo'g'irchoqlarni kiyintirish jarayoni kostyum tarixi bo'yicha bilim va tikish mahoratini talab etadi. Bu jarayonda qator nozik jihatlar mavjud: masalan, mato fakturasi qo'g'irchoq o'lchamiga mutanosib bo'lishi zarur. Oddiy matolar har doim ham mos kelavermaydi, shu bois ko'p hollarda tabiiy materiallar jun, paxta, ipak va krujevolardan foydalaniladi.



*“Oysuluv”*

*Qo'g'irchoq muallifi J.Jannayeva*

Poyabzallar haqiqiy poyabzalsozlik texnologiyasi asosida tayyorlanadi: teri qizdiriladi, qolipga (bolvankaga) tortiladi, quritiladi, tikiladi va yakunda yopishtiriladi. Sintetik materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq emas, chunki

ular yetarli darajada cho'zilmaydi, shaklni saqlamaydi va umumiy badiiy ko'rinishni soddalashtirib yuboradi.

Soch materiali qo'g'irchoq o'lchamiga bog'liq holda tanlanadi. Kichik hajmdagi qo'g'irchoqlar uchun odatda echki junidan foydalaniladi, chunki u yumshoq bo'lib, tolalarining kesim o'lchami kichik. Inson o'lchamiga yaqin qo'g'irchoqlarda esa tabiiy inson sochi qo'llaniladi.

Sochni joylashtirishning turli texnologiyalari mavjud. Kichik qo'g'irchoqlarda sochni yopishtirish usuli qo'llanilsa, balandligi bir metrdan ortiq bo'lgan qo'g'irchoqlarda soch implantatsiya qilinadi. Bu jarayon yuqori darajada sabr-toqat va diqqat talab etadi. Sochlar ingichka igna yordamida 2 va 3 toladan kiritib boriladi. Mazkur amal polimer material hali yumshoq holatda bo'lgan, ya'ni termik ishlovdan oldin bajarilishi lozim.

Bir dona qo'g'irchoqni yaratish jarayoni o'rtacha ikki oy vaqtni talab etadi. Libos tayyorlashda faqat tabiiy matolardan foydalaniladi; mato har doim ham qo'yilgan talablarga javob bermagan hollarda, u to'liq bo'yaladi yoki tegishli ravishda modifikatsiya qilinadi. Qo'g'irchoqlar uchun bezak elementlari ham mustaqil ravishda tayyorlanadi.

Shuningdek, ish jarayonida bir vaqtning o'zida bir nechta qo'g'irchoqni yaratish imkoniyati cheklangan. Muallifning ma'lum qilishicha, u har bir qo'g'irchoq ustida ishlash jarayoniga chuqur darajada sho'ng'ib ketadi va shu sababli diqqatni boshqa obyektga ko'chirish qiyin kechadi.

### **Nima uchun mualliflik qo'g'irchoqlari qimmat baholanadi?**

Muallif tomonidan yaratiladigan qo'g'irchoqlarning o'rtacha qiymati taxminan ming AQSh dollarini tashkil etadi. Ko'p hollarda "Nima uchun bunday qo'g'irchoqlar qimmat? Do'kondan arzonrog'ini xarid qilish mumkin-ku?" degan savollar uchraydi. Qo'g'irchoqsozlar bu holatga shunday izoh beradilar: sanoat asosida ishlab chiqariladigan qo'g'irchoqlar ko'pincha mukammal shaklga ega bo'ladi, chunki ular qoliplar yordamida tayyorlanadi va ommaviy ishlab chiqarish

xarajat jihatidan kamroq sarf talab qiladi. Bu esa zavod mahsuloti yomon degani emas, balki uning xususiyati boshqacha ekanini anglatadi.

Mutaxassis tomonidan qo'l mehnati asosida qo'g'irchoq yaratish jarayoni bir haftadan ikki oygacha davom etishi mumkin. Bu esa har bir mahsulotga qanchalik katta mehnat, vaqt va ijodiy kuch sarflanishini ko'rsatadi. Qo'lda yaratilgan qo'g'irchoqlar, odatda, yagona nusxada bo'ladi; ular individual tarzda tayyorlanadi va asosan kolleksiya qilish yoki intererni bezash maqsadida mo'ljallanadi.

Bunday qo'g'irchoqlarni aynan takrorlash amalda mumkin emas, bu holatni rassomlar asarlari bilan qiyoslash mumkin. Mutaxassislar orasida bir xil asarni takrorlash qadrlanmaydi va maqbul deb hisoblanmaydi, chunki xaridor, avvalo, noyob va takrorlanmas mahsulot uchun to'lov amalga oshiradi.



*“Ayman Sholpon”  
Qo'g'irchoq muallifi J.Jannayeva*

### **Qo'g'irchoq liboslarini yaratishda tarixni chuqur bilish zarurmi?**

Bu yaratish maqsadiga bog'liq. Agar muayyan juz yoki hududga mansub qozoq ayolining etnik obrazini aks ettiruvchi qo'g'irchoq yaratilayotgan bo'lsa, tarixiy ma'lumotlarni chuqur bilish zarur hisoblanadi. Agar esa qo'g'irchoq muallifning ijodiy g'oyasi asosida yaratilsa, bu holat boshqacha yondashuvni talab

qiladi. Shu bilan birga, har qanday holatda ham qo'g'irchoq va uning badiiy obrazi estetik jihatdan jozibador bo'lishi lozim, deb hisoblanadi.

Qo'g'irchoqsozlik faoliyati davomida milliy liboslarga nisbatan munosabat ham o'zgargan. Jamiyatda qozoq milliy libosi haqida soddalashtirilgan tasavvur mavjud bo'lib, u ko'pincha kaprondan tikilgan burmali ko'ylak va yirik naqshli yorqin jilet bilan cheklanadi. Biroq bu qarash milliy libosning haqiqiy mohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Muzey ekspozitsiyalarida XVII–XVIII asrlarda qozoqlar tomonidan kiyilgan liboslarni kuzatish orqali ularning yuksak estetik qiymati, nozik didi va nafisligini anglash mumkin. Muallif o'z ishlarida tarixiy liboslarni aynan nusxalashni maqsad qilmaydi; aksincha, ularda shaxsiy ijodiy yondashuv ham namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, barcha ayollar libos jihatidan mutlaqo bir xil bo'lmagani ta'kidlanadi. Albatta, muayyan davrlarda umumiy tendensiyalar mavjud bo'lgan, biroq ular cheklangan xarakterga ega edi. Bundan tashqari, libos tanlovi ayolning iqtisodiy ahvoli va ijtimoiy maqomiga ham bog'liq bo'lgan. Markaziy Osiyo hududi Buyuk ipak yo'lida joylashgani sababli, bu yerda qimmatbaho va nafis matolar ipak va parcha, shuningdek, boy zeb-ziynat buyumlari hamda sifatli teri keng qo'llanilgan. Muallif o'z qo'g'irchoqlarida ana shu an'analarni saqlashga intiladi.

### **Bir dona qo'g'irchoq yaratish uchun qancha mablag' sarflanadi?**

Ijodiy faoliyat katta moliyaviy sarflarni talab etadi va xarajatlarni qisqartirish imkoniyati cheklangan. Qo'llaniladigan barcha materiallar import qilinadi: masalan, sernit Belgiyadan keltiriladi, qo'g'irchoq ko'zlari esa Rossiya yoki Malayziyalik ustalar tomonidan qo'l mehnati asosida tayyorlanadi [3]. Qo'g'irchoqlar energetik jihatdan murakkab mexanizm hisoblanadi. Shu bois ularning ta'sirini mutlaqo ijobiy yoki salbiy deb baholashning imkoni yo'q. Ilgari qozoqlar orasida bunday e'tiqod mavjud ediki, qiz uylanganda o'z o'rniga onasiga qo'g'irchoq tayyorlab qo'ygan, chunki u uch-ulti yer orqali ketib, onalari bilan qayta ko'rish imkoniga ega bo'lmasligi mumkin edi. Hozirda esa ko'p psixologlar

qo'g'irchoqlardan terapevtik metodikalarda foydalanib, insonlarni murakkab psixologik vaziyatlardan chiqarishda qo'llanadilar.

Xulosa qilib aytganda, qo'g'irchoq san'atida individual ijod muallifning shaxsiy dunyoqarashi va badiiy tafakkurini namoyon etuvchi muhim omil hisoblanadi. Janna Djanayeva asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mualliflik qo'g'irchoqlarida milliy an'analar va zamonaviy badiiy yondashuvlar o'zaro uyg'unlashgan holda ifodalanadi. Bu zamonaviy qo'g'irchoq san'atida individuallikni saqlagan holda madaniy merosni rivojlantirish va boyitish imkoniyati mavjud ekanligini ko'rsatadi.



*Qo'g'irchoq muallifi J.Jannayeva*

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

- 1. Umarxodjaeva M. O'zbekiston qo'g'irochq teatri san'ati shakllanish va rivojlanish bosqichlari: doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2026.*
- 2. Мудрагел Лидия. Куклы из пластика. Изготовление, коллекционирование, реставрация. – Спб.: Издательство «Питер», 2015. – 128 с.: ил.- (Серия «Ручная работа»).*
- 3. Санатова С. Развитие творческих способностей студентов-дизайнеров костюма как педагогическая проблема // Вестник СПбГУ. Серия 12. Вып. 3. Спб.: Изд-во СПбГУ, 2014.*

Nigora Xolmuminova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Tahririyat va nashriyot" bo'limi xodimi  
E-mail: xolmuminovanigora588@gmail.com

## NAVOIY IJODIDA KOMIL SHAXS TARBIYASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida komil inson timsoli, axloqiy-ma'naviy tarbiya tamoyillari hamda shaxs kamolotiga doir qarashlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Navoiy asarlarida ilgari surilgan fazilatlar zamonaviy tarbiya jarayoni bilan qiyosiy o'rganilib, ularning bugungi kun uchun ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** komil shaxs, ma'naviyat, axloq, tarbiya, odob, Navoiy, tasavvuf, kamolot.

### THE CONCEPT OF THE IDEAL HUMAN IN NAVOI'S CREATIVE HERITAGE

**Abstract.** This article analyzes the concept of the ideal human in the works of Alisher Navoi, as well as the principles of moral and spiritual education reflected in his writings. It examines Navoi's views on personal development and the ethical values he promotes. The study also explores the relevance of these ideas in the context of modern educational processes, highlighting their significance for contemporary society.

**Keywords:** ideal human, spirituality, ethics, education, morality, Alisher Navoi, Sufism, human perfection.

Sharq mutafakkirlari – Ibn Sino, Farobiy, Ahmad Yassaviy, Jomiy kabi allomalarning pedagogik qarashlari orasida Alisher Navoiyning komil shaxs haqidagi ta'limoti alohida o'rin tutadi. Navoiy nafaqat adib, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyotchisi sifatida ham Sharq uyg'onish madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan. Uning badiiy merosi, ayniqsa "Xamsa", "Mahbub ul-qulub",

“Nasoyim ul-muhabbat”, “Lison ut-tayr” kabi asarlarida komil inson timsoli, uning axloqiy fazilatlarini chuqur falsafiy talqinini topgan.

Sharq uygʻonish davrigacha boʻlgan madaniy merosda komil inson gʻoyasi markaziy oʻrinda boʻlgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida insonning maʼnaviy kamoloti yetakchi masalalardan biri sifatida yoritilgan. Navoiyning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Nasoyim ul-muhabbat” kabi asarlari nafaqat badiiy, balki pedagogik meros sifatida ham katta qimmatga ega.

Erursen shoh, agar ogohsen, sen,

Agar ogohsen sen, shohsen sen! [1]

Alisher Navoiyning ushbu shoh baytini eshitmagan, qalbiga singdirib, hayotining shoriga aylantirmagan kishi boʻlmas kerak. “Xamsa” tarkibidagi “Farhod va Shirin” dostonidan olingan bu bayt “sultonzodayi olam” Abulforis Shohgʻarib Bahodirga bagʻishlanadi. Ulugʻ donishmand shohlik va ogohlik, ogohlik va shohlik mavzularini tarannum etishdan maqsad-muddaosi ilm-maʼrifatni targʻib etish, shohlikda maʼnaviy komil, maʼnaviy komillikda shoh boʻlish gʻoyasini ilgari surishdir. Navoiy nazdida boshiga toj kiygan shoh shoh emas, balki maʼnaviy yuksak, buyuk donishmand, raiyatparvar, botiniy va zohiriy bilimlarni mukammal egallagan, komil shaxsgina haqiqiy shohdir. Shoir nafaqat shohlarni maʼrifatli boʻlishga daʼvat etmoqda, shu asnoda butun insoniyatga ilm olish nechogʻli buyuk va mashaqqatli ish ekanligini, bu yoʻlda sabr va matonat, nafsdek kuchli gʻanimni yenga olish kerakligini uqtiradi. Mutafakkir nazarida komil shaxs tarbiyasi jamiyatning ravnaqini taʼminlovchi asosiy omildir. Shu bois Navoiy ijodida shaxsning ichki pokligi, axloqiy yetukligi va ilmli boʻlishi komillikning poydevori sifatida talqin qilinadi.

### **1. Navoiyda komil shaxs konsepsiyasi.**

Navoiy insonning haqiqiy kamolotini uning ruhiy-maʼnaviy yetukligida koʻradi. Komil inson – bu:

- Ilmli;
- Axloqli;

- Sabrli;
- Kamtar;
- Adolatli;
- Saxovatli;
- jamiyatga foydali bo'lgan shaxsdir.

Mutafakkir fikricha, insonning moddiy boyligi emas, balki ma'naviy pokligi uning haqiqiy qadriyatini belgilaydi. Bu fikr tasavvufdagi "Komil shaxs" konsepsiyasi bilan hamohangdir.

## **2. Ilm – komillikning birinchi mezoni.**

Navoiyning ko'plab asarlarida ilmni ulug'lash yetakchi o'rinda turadi. "Mahbub ul-qulub"da ilmning ahamiyati quyidagicha ta'kidlanadi: "Ilm insonni ulug'lovchi, johillik – insonni xor qiluvchi xususiyatdir" [2].

Navoiy ilmni faqat bilish emas, balki uni amal bilan qo'llashni ham komillik mezoni deb biladi. Ilmni odob bilan uyg'unlashtirgan inson haqiqiy yetuk shaxs sifatida e'tirof etiladi.

## **3. Axloq va odob tarbiyasi.**

Navoiy odobni "barcha ezguliklar ildizi" sifatida talqin qiladi. "Hayrat ul-abror" dostonida odobli insonlar tarovati, odobsizlar oqibati o'rtasida keskin badiiy kontrast yaratiladi. Mutafakkir quyidagi fazilatlarni komil insonning eng asosiy sifatleri deb biladi:

- halollik;
- rostgo'ylik;
- sabr-toqat;
- saxovat;
- hurmat va ehtirom;
- kamtarlik.

Navoiy nazarida odobsiz ilm ham, boylik ham insonni komillikka eltmaydi.

## **4. Tasavvufiy qarashlar va ruhiy poklanish.**

Navoiyning ko'plab asarlarida (xususan "Lison ut-tayr") komillikka erishish yo'li qushlar sayohati orqali ramziy tasvirlangan. Bu sayohat insonning nafsdan xalos bo'lish jarayonini anglatadi. Mutasavvufona qarashlarga ko'ra, komil inson:

- o'z nafsini tiygan;
- boshqalarga ezgulik istagan;
- adolatli va saxiy;
- dunyoviy manfaatga berilmagan;
- haqiqatni ko'zlab yashovchi shaxsdir [3].

### **5. Navoiy pedagogik qarashlarining zamonaviy talqini.**

Navoiy ta'limoti bugungi tarbiya tizimida ham muhim o'rin tutadi. Uning g'oyalari hozirgi pedagogika tamoyillari bilan uyg'un:

1. Ilm va ma'naviyat birligi – bilim axloq bilan uyg'unlashganda komillik yuzaga keladi.

2. Oila va ustozning roli – tarbiyaning asosiy bosqichi oilada shakllanadi.

3. Amaliy tarbiya – yaxshi xulq kundalik hayotda shakllanadi.

4. Jamiyat oldida mas'uliyat – komil inson o'z jamiyatiga xizmat qilishi kerak [4]. Tasavvuf ilmi payonsiz va tubsiz ummon bo'lib uning fiqh, hadis, tafsir, tavhid, tajvid singari o'ziga xos fan tarmoqlari mavjud. Hazrat Navoiy shulardan asosiy uchtasini shoh-u gado, yaxshi va yomon insonlar o'rganishini farz deb biladi. Bu din ilmiki, xomom qildi taxrir,

Erur fiqhu hadisu so'ngra tafsir.

Uch takmil o'ldi bu uch ilm, sen bil,

Yana har ilm maylin qilma yo qil [6].

Demak, haqiqat tilsimlaridan ogohlik istagan inson fiqh, hadis, tafsir ilmlarini, albatta, o'zlashtirishi lozim. Chunki bu uch ilm boshqa ilmlar tilsimiga kalit bo'lib, ular idrokiga yo'l ochadi. Navoiy tasavvuf ilmini mukammal o'zlashtirishi va unga amal qilish uchun bir jismoniy ilmni ham o'rganish zarurligidan saboq beradi. Bu tabobat ilmidir.

Valekin tib bu hikmat ham erur xo'b

Ki, sihatdur kishi jismida matlub...

Ul uch din ilmiyu bu bir badandur,

Bular muhtoji yaxshi, gar yomondir.

Uch din ilmi e'tiqod va ruhiyat komilligini ta'minlasa, tib ilmi badan salomatligi garovidir. Tib ilminig zarurati shundaki, aqliy-ruhiy sog'lomlik jismoniy baquvvatlikni taqozo etadi. Navoiy nazdida komil insonda ma'naviy-ruhiy yetuklik bilan jismoniy sog'lomlik uyg'un bo'lishi kerak.

XV asrda buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy tomonidan kuylangan "Komil shaxsni tarbiyalash" muammosi hozirgi davr talablari bilan hamohangdir. Shoir asrlarida ma'naviyat bilan johiliyat, ma'rifat bilan tubanlik, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash va insoniy tuyg'ularning tarannum etilishi, asrlar o'tsada o'z qadr-qimmatini yo'qotmasligini ta'minlagan. Shunday ekan, Navoiy ijodini o'rganish va tadqiq etish hali ochilmagan qirralarini yoritishga, xalq ommasiga yetkazishga xizmat qiladi. Shu bois Navoiy merosi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda hal qiluvchi o'rin tutadi [5]. Navoiy ijodida komil shaxs tarbiyasi chuqur falsafiy va pedagogik mazmunga ega. Uning ilm, odob, adolat, sabr, saxovat haqidagi talqinlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mutafakkirning komil inson konsepsiyasi yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan pok, jamiyatga foydali shaxslar qilib tarbiyalashda mustahkam metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Navoiy A. *Xamsa*. – Toshkent: Fan, 2011–2012. – 3500 b.
2. Navoiy A. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: Fan, 2011. – 250 b.
3. Navoiy A. *Lison ut-tayr*. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2023. – 544 b.
4. Qayumov A. *Navoiy va komil inson masalasi*. – Toshkent: Fan, 1991. – 160 b.
5. Yo'ldoshev A. *Navoiy ma'naviy merosi va tarbiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 144 b.
6. Qosimov B. *Navoiy tafakkuri va tasavvuf*. – Toshkent: Fan, 2001. – 128 b.

**Mohigul Jabborova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Madaniyatshunoslik mutaxassisligi magistranti  
E-mail: jabborovamohigul02@gmail.com*

## **MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA MILLIY DETALLARNING GERMENEVTIK TALQINI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodidagi milliy detallar (do'ppi, to'n, ro'mol, uzun yeng) germenevtik tamoyillar asosida tahlil qilinadi. Shoirning bir qator mashhur she'rlari misolida mazkur detallarning shunchaki libos emas, balki milliy qadriyatlar, or-nomus va o'zlikni anglash ramzi sifatidagi mohiyati tadqiq etiladi.*

***Kalit so'zlar:** Muhammad Yusuf, germenevtika, milliy detal, do'ppi, ro'mol, etnomadaniyat, qadriyat, badiiy talqin.*

## **THE HERMENEUTIC INTERPRETATION OF NATIONAL ELEMENTS IN THE POETRY OF MUHAMMAD YUSUF**

***Abstract.** This article analyzes national details (do'ppi (skullcap), robe, headscarf, long sleeves) in the poetry of Muhammad Yusuf based on hermeneutic principles. Through several of his famous poems, the essence of these elements is revealed not merely as clothing, but as symbols of national values, honor, and self-awareness.*

***Keywords:** Muhammad Yusuf, hermeneutics, national detail, do'ppi (skullcap), headscarf, ethno-culture, value, artistic interpretation.*

Germenevtika – bu nafaqat matnni o'qish, balki uning zamiridagi yashirin ma'nolarni, muallifning tili va davr ruhini (kontekstni) anglash haqidagi falsafiy-adabiy ta'limotdir. Uning asoschilari Fridrix Shleyermaxer va Vilgelm Dilteylar nazariyasida germenevtika “tushunish san'ati” sifatida talqin etilgan bo'lsa, keyinchalik Hans-Georg Gadamer uni “matn va kitobxon o'rtasidagi muloqot” darajasiga ko'tardi. Ushbu nazariyaning markaziy tushunchasi bo'lgan

“germenevtik aylanma” prinsipi shuni anglatadiki, asarning yaxlit ma’nosini tushunish uchun uning har bir detalini (masalan, Muhammad Yusuf she’riyatidagi do‘ppi yoki ro‘molni) tahlil qilish kerak, o‘z navbatida, har bir detalning mohiyati faqat asarning umumiy g‘oyasi doirasidagina to‘liq oydinlashadi [1]. Shuningdek, germenevtika matnni o‘tmish va bugungi kun nuqtayi nazaridan qayta talqin qilish orqali undagi milliy kodlar va qadriyatlarni yangi avlod tushunchasiga moslashtirishga xizmat qiladi. Germenevtikada detal – butunning kalitidir. Muhammad Yusuf she’riyatida milliy libos unsurlari shunchaki kiyim emas, balki millatning ruhiy holatini aks ettiruvchi “metonomiya”lardir. Shoir bu detallar orqali o‘quvchini tarixiy xotiraga va milliy axloq me’yorlariga qaytarishga intiladi. **“Do‘ppi”** she’rida do‘ppi insonning “panohi”, ya’ni aql va iymoni ustidagi muqaddas qalqon sifatida talqin qilinadi.

Do‘ppi kiymay qo‘ydi odamlar,

Ko‘ngil esa ko‘rmoq tusaydi.

Madaniyat gullagan damlar,

Kallaga e’tibor susaydi...

Do‘ppidan voz kechish shoir talqinida faqat kiyimdan voz kechish emas, balki milliy ruhning begonalashuvidir. Do‘ppi bu yerda or-nomusning moddiy shakli. Uni kiymaslik – ma’naviy yalang‘ochlikdir. Xulosa esa, kutilmagan va jiddiy:

Boshga loyiq do‘ppi yo‘qdir, yo

Bosh qolmadi do‘ppiga loyiq.

“Belbog‘” she’rida o‘zbek yigitining or-nomusi belbog‘ detali orqali ifodalanadi. “Belida belbog‘i bor” iborasining mohiyatida ham shu yotadi. Shoir milliy o‘zlikning ajralmas qismi sifatida yigitlardagi lafzida turish fazilatini ko‘radi:

Pahlavon yigitcha, polvon yigitcha,

Dimog‘i osmonni olg‘on yigitcha.

O‘zbek ekaningiz yolg‘on, yigitcha,

Belbog'ingiz qani, belingizdagi?..

She'r so'ngiga kelib belbog' ham umumturkiy, ham tarixiy ahamiyat kasb etadi: Dehqoni, cho'poni, bog'boni bari, Turkiyning to'qson olti qabilalari.

Ey, Mirzo Boburning nabiralari,

Belbog'ingiz qani, belingizdagi?!

“Muhammadqodir” she'rida chempion Muhammadqodir Abdullayev timsolida dunyoga bo'ylayotgan o'zbek, dunyodan o'z haqini talab qilayotgan o'zbek obrazi yaratiladi:

Kurash to'ylarga ko'rk,

Sayilda ermak,

Bilaklarga berdik

Xirmonlarda tob.

Yaponning egnida

Bizlarning yaktak,

Paxtamiz Muhammad

Aliga qo'lqop [2].

G'alaba damida boshga qo'ngan do'ppi – bu jahon maydonida milliy “men”ning g'alabasidir. Milliy bayroq va to'n uyg'unligi tahlil qilinadi. Detal bu yerda shaxsiy muvaffaqiyatni umummilliy iftixorga aylantiradi:

Qachonki to'n kiyib maydonga tushsang,

Pahlavon Mahmudlar qo'llasin seni...

“Bobodehqon...” she'rida chopon va belbog' detallari orqali mehnat ahli ulug'lanadi. Bobodehqonning yaktagi – uning halollik va tuproqqa sadoqat libosidir. Germenevtik nuqtayi nazardan, dehqonning kiyimidagi chang – bu baraka va rizqning muhridir:

Yer aylanar,

Yer aylanar,

Yer yugurib tinmaydi,

She'r so'ngiga kelib belbog' ham umumturkiy, ham tarixiy ahamiyat kasb etadi:

Dehqoni, cho'poni, bog'boni bari,

Turkiyning to'qson olti qabilalari.

Ey, Mirzo Boburning nabiralari,

Belbog'ingiz qani, belingizdagi?!

“Muhammadqodir” she'rida chempion Muhammadqodir Abdullayev timsolida dunyoga bo'ylayotgan o'zbek, dunyodan o'z haqini talab qilayotgan o'zbek obrazi yaratiladi:

Kurash to'ylarga ko'rk,

Sayilda ermak,

Bilaklarga berdik

Xirmonlarda tob.

Yaponning egnida

Bizlarning yaktak,

Paxtamiz Muhammad

Aliga qo'lqop.

G'alaba damida boshga qo'ngan do'ppi – bu jahon maydonida milliy “men”ning g'alabasidir. Milliy bayroq va to'n uyg'unligi tahlil qilinadi. Detal bu yerda shaxsiy muvaffaqiyatni umummilliy iftixorga aylantiradi:

Qachonki to'n kiyib maydonga tushsang,

Pahlavon Mahmudlar qo'llasin seni...

“Bobodehqon...” she'rida chopon va belbog' detallari orqali mehnat ahli ulug'lanadi. Bobodehqonning yaktagi – uning halollik va tuproqqa sadoqat libosidir. Germenevtik nuqtayi nazardan, dehqonning kiyimidagi chang – bu baraka va rizqning muhridir:

Yer aylanar,

Yer aylanar,

Yer yugurib tinmaydi,

Yaktagingning yenglaridan

Ter yugurib tinmaydi,

Qo'ling tegmay bu dunyoda  
Bitta giyoh unmaydi,  
Tin bilmagan jonim mening,  
Bobodehqonim mening...

**“O'rganish”** she'rida lirik qahramon yupqagina to'nini tortqilashib qo'yishmagach yechganini, otasidan yodgor do'ppini ham sandiqlarga otganini, sumalak qaynatilgan kechada uni qo'riqlab chiqqanini, qo'shnisining mozoriga borolmaganini zamon tor bo'lgani bilan izohlaydi va...

Xo'sh endi-chi dersiz, nima g'ov?  
Do'ppi boshga o'rnashmagandek,  
To'nim endi yarashmagandek,  
Kiysam kulayotgandek birov!..

Bu noqulaylik ortida butun bir millatning o'zligidan begonashib borgani, oqibatda asl qadriyatlari bilan yuzlashganda o'ng'aysizlashishi fojiaiy tarzda bayon qilinadi. Bayon sodda va ravon. Undagi fojia esa juda chuqur.

**“To'n haqida she'r”** asari ham ayni shu ruhda yozilgan.

O'zbekning to'ning yenglari uzun,  
O'zbekning jo'ning yenglari uzun.  
Yengi uzun ko'ylak kiymanlar, qizlar,  
Madaniyat dargohida o'qisangizlar...

Sobiq mustabid tuzum davrida madaniyat niqobi ostida millat madaniyatiga qanday chang solingani bu she'rda mahorat bilan aks ettirilgan. Ushbu she'r Muhammad Yusuf ijodidagi eng o'tkir ijtimoiy va kinoyaviy asarlardan biri bo'lib, uni germenevtik (talqin ilmi) nuqtayi nazaridan tahlil qilish matn ostidagi yashirin ma'nolarni va shoirning “badiiy isyoni”ni ochib beradi.

**“To'n va uzun yeng”** – o'zbek to'ning yengi uzunligi bu azaldan mehmondo'stlik va saxovat ramzi bo'lgan. Shoir bu detal orqali o'zbekning fe'l-atvoridagi sirlilik va andishaga urg'u beradi. Ammo madaniyat dargohi (ta'lim tizimi) bu milliylikni eskilik deb baholayotganiga ishora qiladi. She'rning ikkinchi

qismidagi qizlarga qaratilgan "maslahatlar" (upa surish, yevropacha bo'yanish) aslida antifrazis (teskari ma'noda gapirish) usulidir. Shoir "Madaniyat dargohida o'qisangizlar" iborasini takrorlash orqali o'sha davrdagi ta'lim tizimidagi milliylikka bo'lgan tazyiqni fosh qiladi. Yuzga upa surish – bu o'zlikni begona qiyofa bilan niqoblashdir. Shoir ta'lim olish badaliga o'zlikdan voz kechish kerakligini achchiq kesatiq bilan tasvirlaydi. Erkaklarga qarata aytilgan:

Sizga ham gapim bor, ahli erkaklar,

Do'ppi kiymay yuring, kiymang telpaklar.

Qiyin bo'lar sizga shlyapasizlar,

Madaniyat dargohida o'qisangizlar, – misralarida germenevtik ziddiyat yaqqol ko'rinadi. Do'ppi – milliy ong va iymon ramzi bo'lsa, shlyapa – yot madaniyat va tizimga bo'ysunish ramzi sifatida ierarxik to'qnashuv hosil qiladi. "Madaniyat dargohi" (universitet yoki institut) insondan nafaqat bilim, balki tashqi qiyofani ham yot qoliplarga solishni talab qilmoqda. Shoir buni ma'naviy qullikning boshlanishi deb talqin qiladi. She'ning oxirgi bandi germenevtik kalit hisoblanadi: "To'nimizga kimlar osilgani yo'q – Madaniyat dargohida o'qisak bizlar". Bu yerda to'n – butun boshli millatning ma'naviy xazinasini va sha'ni. To'nga osilish millatning ichki ishlariga, uning ming yillik qadriyatlariga tajovuz qilishdir. Muhammad Yusuf "madaniyat" va "ziyolilik" niqobi ostida kelayotgan ruhiy qashshoqlik va manqurtlikdan ogohlantiradi. Matndagi har bir detal (upa, shlyapa, uzun yeng) – milliylik va globallashuv (yoki o'sha davrdagi rus-sovet madaniyati) o'rtasidagi kurash maydonidir [3].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Muhammad Yusuf she'riyatidagi milliy detallar germenevtikasi shoir uchun libos – bu millatning tashrif qog'ozidir. Shoir o'quvchini faqat sirtqi ko'rinishga emas, balki har bir detal ortidagi ming yillik hayo, mardlik va sadoqat kabi qadriyatlarni "o'qish"ga chorlaydi. Muhammad Yusuf she'riyatida milliy detallar muhim badiiy vosita bo'lib, ular orqali vatanga muhabbat, xalq ruhi va milliy qadriyatlar ifodalanadi. Germenevtik

yondashuv bu detallar ortidagi yashirin ma'nolarni ochib berishga yordam beradi va shoir ijodining chuqur mazmunini anglash imkonini yaratadi.

### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2004. – 384 b.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 392 b.
3. Hans-Georg Gadamer, H.-G. Wahrheit und Methode (Haqiqat va uslub). – Germaniya: Paul Siebeck, 1960. – 552 p.

**Dilbar Malikova**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Vokal" kafedrası professori  
E-mail: dilbarmalikova@yandex.ru*

## **DIRIJYOR VA XORMEYSTERLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARI AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada dirijyor va xor rahbarlari uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar hamda ularning asosiy vazifalari tahlil qilinadi. Unda vokal-xor jamoalari bilan samarali ishlashda xor amaliyotining ahamiyati hamda vokal-xor ko'nikmalarini rivojlantirish yondashuvlari yoritiladi. Shuningdek, bo'lajak dirijyorlarning badiiy talqin, musiqiy sezgirlik va yetakchilik kabi kasbiy sifatleri tahlil etiladi.*

***Kalit so'zlar:** xor ijrochiligi, dirijyor, xor rahbari, kasbiy kompetensiyalar, vokal-xor ko'nikmalari, badiiy talqin, musiqiy ifoda, ritm hissi, dirijyorlik texnikasi..*

## **THE IMPORTANCE OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF CONDUCTORS AND CHOIRMASTERS**

***Abstract.** This article examines the tasks and professional competencies required of conductors and choirmasters in choral performance. It highlights the importance of choral practice in achieving effective work with vocal-choral ensembles and discusses approaches to developing vocal and choral skills. The study also analyzes the professional qualities necessary for future choir conductors, including artistic interpretation, musical sensitivity, and leadership abilities.*

***Keywords:** choral performance, conductor, choirmaster, professional competencies, vocal-choral skills, artistic interpretation, musical expression, rhythm, conducting technique.*

Bugungi kunda o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining asosiy vazifasi ijodkorlikni, jamoada ishlash qobiliyatini, talabalarning o'z-o'zini o'rganish va o'zini-o'zi anglash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo'lgan kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish tobora kengayib bormoqda.

Shu munosabat bilan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi bilan bir qatorda, bo'lajak xor dirijyorlarining kasbiy moslashuvchan harakatchanligini shakllantirish o'rta maxsus va oliy ta'lim o'qituvchilari oldidagi muhim vazifa hisoblanadi.

Dirijyorning professional-moslashuvchan harakatchanligi haqida so'zlashdan oldin, dirijyor faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini va ushbu faoliyat uchun asos bo'lgan kasbiy bilim, ijro mahorati borasidagi asosiy kasbiy kompetensiyalarni aniqlashtirib olsak.

Xor jamoasi rahbarini kasbiy o'ziga xosligi – faoliyatlar majmuasidir.

Dirijyor albatta yaxshi ovoz sohibi bo'lib, a'lo eshitish, musiqiy xotira, iqtidorli kuylay olish, musiqiy usullarni yaxshi his eta olish qobiliyatlariga, xonandalik san'atiga xos bilimga, qolaversa, yaxshi ko'rinish, tetik qaddi-qomatga ega bo'lib, ijrochi va tinglovchi, tomoshabinlarga o'zining chiroyli qo'l harakatlari bilan estetik zavq baxshida eta olish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim.

Dirijyorning vazifasi, ijrochi jamoaning badiiy rahbari va mafkuraviy ilhomlantiruvchisi sifatida, har bir kuylovchini o'zining ijro talqinining badiiy qiymatiga ishontirishdir. Chunki dirijyorlik san'atining ta'sirchanligi, ishontirish qobiliyati va badiiy tasviri - bu inson ruhining mahsuli, dirijyorning ruhiy sohasi mahsulidir, unga nafaqat musiqachi sifatida yuqori professionallik, balki boy ijodiy tasavvur, rejissyorlik iste'dodi, aktyorlik qobiliyati va hatto qisman o'z so'zini o'tkazuvchi rahbarlik xususiyatlari ham kiradi. Bu xususiyatlar dirijyor shaxsida qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning ijrochilar va tinglovchilarga ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi.

Kuchli iroda va ijodiy intilish - shu ikki fazilat shunchalik muhimki, ularsiz musiqachi qanchalik buyuk bo'lsin dirijyor bo'la olmaydi.

Dirijyorning vazifasi xorni o'z irodasiga bo'ysundirgan holda yagona jamoa, organizm yaratishdan iboratdir. Dirijyor ijodiy jarayonda doimo o'zini tuta bilishi, yaxshi kayfiyatda bo'lishi, ijod jarayonida o'zini qo'lga ola bilishi, asar ustida ishlashda bor mahoratini ishga solishi, dirijyorlik bilimlaridan to'g'ri foydalana bilishi shartdir.

Dirijyorning obrazli tasavvuri kuchli bo'lishi ham juda muhim. Bu borada amerikalik xormeyster Gordon Lamb "Choral Techniques" kitobida konsert chiqishlari va ularga tayyorgarlik masalalari bo'yicha shunday yozadi: "Konsert dasturi ustida ishlaganda dirijyor va xonandalarning barchasi hamkorlikda mukammal, sayqal berilgan, tinglovchilarga ma'naviy ozuqa, estetik zavq beradigan asarlarni taqdim etishga harakat qilishlari kerak. Qismlarga, partiyalarga bo'lib, uzoq muddatda o'rganilgan xor asarini umumlashtirilganda, har bir xonanda ansamblni, xorni his qilishi, ovozini go'zal, ajoyib musiqa to'lqinida yangrashidan o'zi ham, tinglovchiga ham zavq ulashi kerak. U buni his qilishi, ongli ravishda konsertda qatnashish mas'uliyatini tushunishi uchun ham so'nggi bir necha repititsiyalarning o'rni muhimdir" [1, 273–274-b].

Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, mardlik, halollik va prinsipiellik kabi xususiyatlarsiz haqiqiy dirijyorni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Mohir dirijyorning san'atini xordan ajratib bo'lmaydi deyilganda, biz, uning ijrochilik jamoasini ko'p tovushli va rang-barang yagona musiqa cholg'usi sifatida qabul qila olish qobilyatini nazarda tutamiz. Ana shu yagona musiqiy cholg'u-tirik oziga xos tarzda fikr yurituvchi, his qiluvchi va yaratuvchi ijodkor – xor artistlaridan iborat ekanligini doimo esda tutish kerak. Xor jamoasiga uyg'unlashib ketish, butun vujudi ila u bilan nafas olish, kuylash, ijro etishga qodir bo'lmagan ijrochi mohir dirijyor bo'la olmaydi.

Xor jamoasining rahbari, dirijyor har qanday ijrochi – musiqachi kabi artist, ijodkor hisoblanadi. Xor dirijyorining cholg'usi bu xor ishtirokchilari va xordir.

Dirijorning vazifasi xorni o'z irodasiga bo'ysundirgan holda yagona jamoa, organizm yaratishdan iboratdir. Dirijyor ijodiy jarayonda doimo o'zini tuta bilishi, yaxshi kayfiyatda bo'lishi, ijod jarayonida o'zini qo'lga ola bilishi, asar ustida ishlashda bor mahoratini ishga solishi, dirijorlik bilimlaridan to'g'ri foydalana bilishi shartdir. Dirijyor – o'qituvchi, ijodkor sifatida asar talqiniga jiddiy yondoshishi zarur. Ijroda asarning avj nuqtasiga erishish, xarakter va uslubini anglab, uning badiiy g'oyasini ochish ishlarini bajariladi. Dirijyor navo, hirgoyi va ritm hisiga ega bo'lishi lozim. Dirijorning yuz tuzilishi asar xarakterini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning yuz-ko'zi asar xarakteriga xos ma'nodor va mimikasi aniq bo'lishi lozim. Bu esa asarni badiiy ifodalab, obrazli yoritib borishga katta yordam beradi. Dirijyorlik xor jamoasi ya'ni ijrochilarni boshqarish orqali ifodali ma'lumot beruvchi imo-ishoralar tizimi orqali amalga oshiriladi. Dirijyorlikning muhim xarakterli xususiyati bu muloqotdir. Musiqiy ijro faoliyati dirijyor va xor o'rtasida ijodiy ma'lumotlar almashinuvini ifodalaydi.

Dirijyor ishoralarida diqqat, sur'at, muvofiqlashtirish, egiluvchanlik va quloqch yozish kabi asosiy xususiyatlar mavjud. Dirijyor boshqaruvchi bo'lishidan tashqari, talqin etuvchi hamdir. Biron-bir asarni yakka tarzda talqin eta olish, ijrochilarni birlashtirib jamoaga aylantira olishga erishishlar dirijyordan mustahkam iroda, g'ayrat va shijoat, matonat va mahorat, hamda ijodiy tafakkur talab etadi. Dirijyor ijrochilarni dirijyorlik apparati orqali boshqaradi. "Xonandaning ovozi erkin, quyilib chiqishi qanchalik muhim bo'lsa dirijorning harakatlari ham o'ta qattiq bo'lmay, mushaklari bo'sh, gavdasi esa ishga tayyor bo'lishi lozim. Oyoqlari ochiq, tovonlar orasi olti sakkiz santimetr bo'lishi kerak. Tizzalar yumshoq va egiluvchan bo'lishi kerak. Gavdani og'irligi ikki oyoqga ham bir xilda tushishi kerak. Dirijyor tanasi xor tomonga ozgina egilib (gavdani tepa qismini og'ishtirmasdan), bukchaymasdan, bosh ozgina yelkadan oldinga egilgan holda bo'lishi kerak" [2, 64-b], – deb ta'kidlaydi Gordon Lamb "Choral techniques" kitobida. Dirijyorlik faoliyatni amalga oshirishning psixologik xususiyati shundan iboratki uning "cholg'u asbobi" bu ko'plab shaxslar, xor

artistlaridir, ularni tayyorgarlik darajasi xarakterlari, temperamentlari va boshqa psixologik xususiyatlariga ega bo'lgan har xil musiqachilar guruhi ekanligi bilan bog'liq.

Dirijyor interpretator sifatida muallif va ijrochilar o'rtasida vositachi hisoblanadi. Bu esa uning muallif, ijrochilar va tinglovchilar oldidagi javobgarligini belgilaydi. Dirijyor-xormeysterning ijrochilik faoliyati tovushlarni doimiy, muntazam ravishda avvaldan ilg'ash bilan bog'liq, shuning uchun dirijyorning fikrlashi va ichki eshitishi oldindan sezish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda dirijyorning imo-ishoralarida o'z ifodasini topishi kerak. Dirijyorlik ishi musiqa kasblari orasida eng qiyinlaridan biridir. Bugungi kunda xor dirijyorligi kasbi o'ziga xos kasb maqomiga ega bo'lib, ular maxsus kasbiy tayyorgarliksiz jamoa bilan shug'ullana olmaydilar. Xorning mukammal ijrochiligi bu sohada mutaxassislar tayyorlashning o'rnatilgan tizimi to'laqonli shakllangandagina mumkin bo'ladi.

Xor dirijyori faoliyatining asosiy xususiyati uning ko'p funktsiyaliligi bo'lib, u o'z faoliyatining turli bosqichlarida tashkilotchi, boshqaruvchi, ijrochi, rahbar, o'qituvchi, kostyumer va hattoki menejer funktsiyalarini ham bajaradi.

Dirijyor aktyor va rejissyorning funktsiyalarini ham birlashtirib, konsert dasturini musiqiy spektakldek rejalashtiradi, sahnalashtiradi va shu bilan birga unda asosiy rolni o'ynaydi. Aytib o'tish joizki, dirijyor bundan tashqari ijrochilarni yagona jamoaga birlashtiruvchi o'qituvchi-tarbiyachi vazifasini ham bajarib har bir xor artistida vokal-xor ijrochilik malakalarini va mahoratini shakllantirishga yordam berib keladi. Ushbu kasbni kompetentsiyalari ro'yxatini davom ettirishimiz mumkin, ammo yuqorida qayd etilganlarini o'zidan ham bilish mumkinki, dirijyorlik kasbi o'ta alohida iste'dodni talab qiladi. Har bir professional musiqachidan talab qiladigan qobiliyat dirijyorlik kasbi uchun yetarli emas. Dirijyorlik kasbining o'ziga xos qobiliyatlaridan eng asosiy va birinchisi bu kuchli irodaga ega bo'lish, yuqori darajada jamlangan va tabaqalashtirilgan diqqatni egasi bo'lish, keskin reaksiya tezligiga va aniq muloqot qobiliyatlari,

harakatning harakatchanligi, tushunish va tushunish qobiliyatini ta'kidlash kerak. Bu barcha sifatlarning shakllanishi maxsus fanlar bo'yicha talabalarni tayyorlashni tashkil etish shartlariga bog'liq bo'ladi. Dirijyor-xormeysterlarni tayyorlash, ularni Ijrochilik mahoratini oshirish sohasi metodikasida o'ziga xos katta qiyinchiliklar mavjud. Bu asosan ularni texnik jihatlarini o'zlashtirishiga, xususan: dirijyorlik sxemalarini, turli dinamik tuslarni ko'rsata biliish usullari, auktakt va boshqalarga bog'liq. Biroq, manual texnikani o'zlashtirib olish ya'ni dirijyorlik ko'nikmalarini egallash bu hali ijrochilar bilan faol ishlay oladi degan ma'noni anglatmaydi albatta. Ko'pincha ushbu mutaxassislik bo'yicha tahsil olgan talabalarning aksariyati vokal-xor jamoalari bilan ishlash ko'nikmalariga ega emaslar va aytib o'tish joizki, ular dirijyorlik kasbining haqiqiy mohiyatini nafaqat tasavvur qila olmaydilar balki kasbning qiyinchiliklariga tayyor emaslar.

Afsuski, sinfda kontsertmeysterlar ijrosi ostida dirijyorlik qilishni o'rganayotganda, o'quvchida eng muhim dirijyorlik fazilatlarini – ya'ni jamoani boshqarish va u bilan o'zaro munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirish qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi. Dirijyorlik – bu asarni ijro etish, ya'ni, amaliy o'rganilgan xatti-harakatlar, yuz ifodalari, mimikalar orqali ijrochilar, jamoaga o'z ta'sirini o'tkazish va ularga o'zining ijro interpretatsiyasidagi niyatlarini yetkazish qobiliyatidir. Dirijyorning asarni musiqaviy jummalarga to'g'ri bo'la olish va uning aniq ijro sur'atini topa olishi muhim ahamiyatga ega. Shundan ko'rinib turibdiki, dirijyorning ijrochi va talqinchi sifatidagi vazifalari uning oldiga juda murakkab masala, muallif nazarda tutgan mulohazalarni tushunib, uning fikrlarini to'g'ri talqin etish muammosini ko'ndalang qo'yadi. Buning uchun muallifning matniga nisbatan juda e'tiborli bo'lishi, uni aniq o'qiy olishi, muallifning barcha ko'rsatmalari, barcha ijro tavsiyalarini qunt bilan o'rganishi juda muhim.

Dirijyor – xormeyster faoliyatining yakuniy natijasi bu musiqiy asarni tinglovchilarga jonli ravishda yetkazishdir. Demak xormeyster nafaqat kompozitor yaratgan musiqiy asar janri, uslubi, xususiyatlarini balki shu bilan birga xor ijrochiligining ham o'ziga xos uslublari, sir-asrorlari hamda asarni badiiy

obrazini ifoda eta bilishi zarur. Shu bilan birga, xormeyster jamoaning vokal-xor imkoniyatlarini, professional ijro mahoratini yanada rivojlanishiga hamda xor artistlarining badiiy-estetik didlarini o'stirish borasida istiqbolli rejalar tuzishi kerak. Dirijyor, xormeysterlar turli xil xor jamoalarida ishlashlari mumkin: bolalar, professional, havaskor va kichik vokal ansambllarda. Qayd etilgan jamoalarning har biri uchun dirijyor o'zining shaxsiy muloqot uslubini tanlashi kerak, bu esa ijodkorlik va jamoa ichidagi munosabatlarda yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Biz bilamizki, qoida bo'yicha dirijyorlar juda muloqotga tez kirishuvchan, ochiq insonlardir. Ular turli yoshdagi va ijtimoiy maqomdagi odamlar bilan qanday muloqot qilishni juda yaxshi biladilar. Aksariyat hollarda bu sifat kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanishi ham mumkin.

Dirijyor va xormeysterlarning ishidagi eng katta qiyinchilik shundan iboratki, xorda ko'pchilik ijrochilar kuylaydilar, ularning har birining o'ziga xos fe'l-atvori, temperamenti, psixologik-emotsional xususiyatlari, turli darajadagi vokal tayyorgarligi va qobiliyatlari turlicha bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, dirijyor-xormeysterlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ma'lum bilimlarni: musiqiy nazariy, estetik va tarixiy; turli qobiliyatlar – tashkiliy, pedagogik, ijrochilik; shuningdek, irodaning mavjudligi, ijrochilar va jamoa bilan muloqot qilish qobiliyatini talab qiladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Краснощёков В. Вопросы хороведения. – Москва: Музыка. 1969. – 300 с.
2. Gordon Lamb. Choral Techniques. – Rice University, Houston, Texas. <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> >.
3. Malikova D. Xor sinfi. Darslik. – Toshkent: Fan ziyosi, 2021. – 266 b.
4. Shomaxmudova B. Xor lug'ati. – Toshkent: Musiqqa, 2009. – 305 b.
5. Malikova D. Dirijyorlik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 256 b.

**Saxobiddin Xudayberdiyev**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Axborot texnologiyalari" kafedrası professori (v.b)  
E-mail: sakho64@gmail.com*

**MS ACCESS PLATFORMASIDA KUTUBXONA-ABOROT FAOLIYATI  
JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH: KICHIK VA O'RTA  
FONDLAR UCHUN BYUDJETLI YECHIM**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada resurslari cheklangan kutubxonalarda kutubxona-axborot faoliyati jarayonlarini raqamlashtirishning samarali vositasi sifatida Microsoft Access platformasidan foydalanish masalasi ko'rib chiqilgan. Bunda fond xajmi uncha katta bo'lmagan mahallalar, korxonalar qoshidagi kutubxonalar va ta'lim muassasalariga qarashli kutubxonalar uchun mo'ljallangan relyatsion ma'lumotlar bazasining optimal tuzilmasi taklif qilingan. Tadqiqot doirasida kitob fondi hisobi, kitobxonlarni ro'yxatga olish, adabiyotlarning harakati (berish va qaytarish) nazorati hamda hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini avtomatlashtirish modellari ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** MS Access, kutubxonani avtomatlashtirish, relyatsion ma'lumotlar bazasi, kitob hisobi, AKAT, tirajni boshqarish.*

**AUTOMATION OF LIBRARY-INFORMATION ACTIVITY  
PROCESSES ON THE MS ACCESS PLATFORM: A BUDGET-FRIENDLY  
SOLUTION FOR SMALL AND MEDIUM-SIZED COLLECTIONS**

***Abstract.** This article examines the use of the Microsoft Access platform as an effective tool for digitalizing library-information activity processes in resource-constrained libraries. In particular, an optimal relational database structure is proposed for small- and medium-sized libraries, such as community libraries, institutional libraries, and those affiliated with educational institutions, where the volume of the collection is not extensive. Within the scope of the study, automation models were developed for processes including book collection accounting, reader*

*registration, control of literature circulation (lending and returning), and report generation.*

**Keywords:** *MS Access, library automation, relational database, book accounting, ALIS, circulation control.*

Bugungi kunda ko'plab kichik kutubxonalar – umumta'lim maktablari, kollejlari, mahalla va korxonalar qoshidagi kutubxonalar o'z faoliyatini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishga tobora ko'proq ehtiyoj sezmoqda. Raqamlashtirilgan axborot muhitida ma'lumotlarni tez, aniq va qulay qayta ishlashga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli kutubxona ishida eng muhim jarayonlarni samarali boshqarish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, kitob fondini hisobga olish, kitobxonlarni ro'yxatga olish, adabiyotlarni berish va qaytarishni nazorat qilish, shuningdek, o'z vaqtida hisobot tayyorlash kutubxona xizmatining sifatini belgilab beradi.

An'anaviy usullar, ya'ni qog'oz hujjatlar yoki tarqoq elektron jadvallar asosida ishlash, bugungi kunda kutubxonalarning zamonaviy ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Bunday yondashuv ma'lumotlarni izlashni sekinlashtiradi, hisob yuritishda xatolar ehtimolini oshiradi va hisobotlar tayyorlashni murakkablashtiradi. Ayniqsa, kadrlar va moliyaviy resurslari cheklangan ta'lim muassasalari (umumta'lim maktablari kabi) hamda kichik kutubxonalarda bu muammo yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Bunday sharoitda professional avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimlaridan, masalan, **IRBIS**, **Ruslan**, **MARC-SQL** kabi dasturiy yechimlardan foydalanish har doim ham amaliy jihatdan qulay emas. Chunki bunday tizimlar ko'pincha yuqori moliyaviy xarajatlarni, maxsus server infratuzilmasini va malakali texnik mutaxassislar ishtirokini talab qiladi [1]. Natijada ular ko'plab kichik kutubxonalar uchun murakkab va qimmat yechim bo'lib qolmoqda.

Shu sababli mazkur maqolada kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishning sodda, amaliy va iqtisodiy jihatdan maqbul modeli sifatida **Microsoft Access**

platformasidan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Microsoft Access ish stoliga mo'ljallangan, keng tarqalgan va foydalanish nisbatan oson bo'lgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi bo'lib, u relyatsion ma'lumotlar bazalari, foydalanuvchi shakllari, so'rovnomalar va hisobotlarni yaratish imkoniyatlarini birlashtiradi.

**Kichik kutubxonalar**da amalga oshiriladigan asosiy jarayonlarni tahlil qilish. Kichik kutubxonalar faoliyati, odatda, bir nechta asosiy yo'nalishlardan iborat bo'ladi: kitob fondini hisobga olish, kitobxonlarni ro'yxatga olish, adabiyotlarni berish va qaytarishni nazorat qilish, fond bo'yicha qidiruvni tashkil etish hamda statistik va boshqaruv hisobotlarini tayyorlash. Mazkur jarayonlar ko'p hollarda daftar hamda jurnallar orqali yoki alohida elektron jadvallar yordamida yuritiladi. Bunday usul dastlab sodda va tushunarli ko'rinsa-da, vaqt o'tishi bilan ma'lumotlar hajmi ortgani sayin jarayonlarning murakkablashuvi, takroriy yozuvlar ko'payishi va axborotga ishlov berish samaradorligining pasayishi kuzatiladi.

Kitob fondini hisobga olish jarayonida kutubxonaga kelib tushgan adabiyotlarni ro'yxatga olish, ularga inventar raqami berish, muallifi, nomi, nashriyoti, nashr yili, mavzusi, nusxalar soni kabi ma'lumotlarni qayd etish zarur bo'ladi. Agar ushbu ma'lumotlar qo'lda yoki tarqoq fayllarda yuritilsa, fond tarkibining real holatini aniqlash, muayyan kitob mavjudligini tekshirish, yo'qolgan yoki eskirgan adabiyotlarni aniqlash qiyinlashadi. Shu bilan birga, fond bo'yicha tezkor qidiruv imkoniyati cheklanadi.

Kitobxonlarni ro'yxatga olish jarayoni ham kichik kutubxonalar faoliyatida muhim o'rin tutadi. Har bir foydalanuvchi haqida familiyasi, ismi, sharifi, yashash joyi, aloqa ma'lumotlari, o'quvchi yoki xodim ekanligi, sinfi, guruhi yoki bo'limi haqidagi ma'lumotlar saqlanishi kerak. Qo'lda yuritiladigan ro'yxatlarda bunday axborot ko'pincha tarqoq, takroriy yoki to'liq bo'lmagan holda uchraydi. Natijada kitobxonni tez topish, u olgan adabiyotlar tarixini ko'rish yoki u bilan bog'lanish qiyinlashadi.

Kutubxona ishining eng muhim amaliy jarayonlaridan biri kitob berish va qaytarishni nazorat qilishdir. Bu jarayon adabiyotning qaysi kitobxonga qachon berilgani, qaytarish muddati qachon ekanligi va amalda qachon topshirilgani haqidagi ma'lumotlarni aniq qayd etishni talab qiladi. An'anaviy usullarda bunday nazoratni olib borish ko'p vaqt oladi, ayrim hollarda yozuvlarning tushib qolishi yoki chalkashib ketishi sababli kitob aylanishida noaniqliklar paydo bo'ladi. Ayniqsa, muddati o'tgan adabiyotlarni aniqlash, qarzdor kitobxonlarni topish va fondagi joriy holatni bilish qo'lda yuritiladigan tizimlarda murakkab vazifaga aylanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik kutubxonalarda mavjud muammolarning asosiy qismi ma'lumotlarning markazlashmaganligi, qo'lda ishlov berish ulushining yuqoriligi hamda bir xil ma'lumotni bir necha marotaba qayta kiritishga to'g'ri kelishi bilan bog'liq. Shu sababli asosiy jarayonlarni yagona ma'lumotlar bazasi asosida birlashtirish, ma'lumotlarni standart shaklda saqlash va ular bilan ishlashni avtomatlashtirish kutubxona faoliyati samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

**Kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tarkibini aniqlash.** Har qanday axborot tizimini yaratishdan oldin, unda qaysi ma'lumotlar saqlanishi va ular qanday ko'rinishda tashkil etilishi lozimligini aniqlash zarur. Kutubxona-axborot faoliyatini avtomatlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tarkibini belgilash tizimning keyingi barcha bosqichlari uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki noto'g'ri tanlangan yoki to'liq bo'lmagan axborot tarkibi tizimning funksional imkoniyatlarini cheklaydi, ma'lumotlarning takrorlanishiga olib keladi va hisobotlar aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot doirasida kutubxona faoliyatiga oid ma'lumotlarni bir necha asosiy guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi. Birinchi guruh – kitob fondiga oid ma'lumotlar. Unga kitob nomi, muallifi, nashriyoti, nashr joyi, nashr yili, sahifalar soni, mavzusi, inventar raqami, bibliografik tavsifi, nusxalar

soni, narxi hamda joriy holati kabi atributlar kiradi. Ushbu ma'lumotlar kitobni identifikatsiya qilish, fond bo'yicha qidiruvni amalga oshirish hamda kitoblarning fizik va hisob holatini nazorat qilish uchun zarurdir.

Ikkinchi guruh – kitobxonlar haqidagi ma'lumotlar. Bular kitobxonlarning ismi-sharifi, tug'ilgan yili, yashash manzili, telefon raqami, ta'lim muassasasi bilan bog'liq rekvizitlari, sinfi, guruhi yoki lavozimi, ro'yxatdan o'tgan sana hamda shaxsiy identifikatsiya raqami kabi maydonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu axborot kutubxona foydalanuvchilarini tizimda aniq tanib olish, ularning faolligini kuzatish va kitob berish-qaytarish jarayonlarini ular bilan bog'lash imkonini beradi.

Uchinchi guruh – kitob aylanishiga oid ma'lumotlar. Bunda qaysi kitob qaysi kitobxonga berilgani, berilgan sana, qaytarish muddati, amaldagi qaytarish sanasi, kechikish mavjud yoki yo'qligi, kitobning holati kabi ko'rsatkichlar qayd etiladi. Amalda aynan shu guruh ma'lumotlari kutubxona jarayonlarining dinamik qismini aks ettiradi. Bu yozuvlar asosida qarzdor kitobxonlarni aniqlash, fond harakatini kuzatish, ma'lum bir davr ichida kitob aylanishini tahlil qilish mumkin bo'ladi.

To'rtinchi guruh – yordamchi va tasniflovchi ma'lumotlar. Unga mualliflar ro'yxati, nashriyotlar, adabiyot bo'limlari, mavzular, kitob turlari va boshqa klassifikatsion elementlar kiradi. Bunday ma'lumotlarni alohida jadval sifatida yuritish bir tomondan takroriy kiritishni kamaytiradi, ikkinchi tomondan qidiruv, saralash va tahlil natijalarining aniqligini oshiradi [2].

Kutubxona faoliyatini avtomatlashtirish uchun zarur ma'lumotlar tarkibini aniqlash nafaqat qaysi ma'lumotlar saqlanishini belgilaydi, balki ularning o'zaro aloqadorligini ham aniqlashtiradi. Bu esa keyingi bosqichda relyatsion ma'lumotlar bazasi tuzilmasini to'g'ri loyihalash imkonini beradi.

**Microsoft Access muhitida kutubxona uchun relyatsion ma'lumotlar bazasi tuzilmasini loyihalash.** Kutubxona faoliyatiga oid ma'lumotlar tarkibi aniqlangandan so'ng, ularni mantiqiy va texnik jihatdan tartibga soluvchi relyatsion ma'lumotlar bazasi tuzilmasini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Microsoft

Access bu vazifani bajarish uchun qulay platforma hisoblanadi, chunki u jadvallarni yaratish, ularni o'zaro bog'lash, shakllar, so'rovnomalar va hisobotlarni bir tizim doirasida ishlab chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, maxsus dasturlashsiz, vizual muhitda baza strukturasi loyihalash imkoniyati uning kichik kutubxonalar uchun amaliy ahamiyatini oshiradi.

Loyihalash jarayonida asosiy obyektlar alohida jadvallar ko'rinishida ifodalandi. Jumladan, "Kitob fondi", "Kitobxonlar", "Kitob berish", "Kitob qaytarish", "Nashriyotlar" va "Bo'limlar" kabi jadvallarni ajratish maqsadga muvofiq deb topildi. Bunday tuzilma ma'lumotlarni bir jadvalga ortiqcha jamlamasdan, ularni funksional vazifasiga ko'ra guruhlash imkonini beradi. Natijada har bir jadval ma'lum bir predmet sohasi uchun javob beradi va ma'lumotlar takrorlanishi kamayadi.


Masalan, "Kitob fondi" jadvali fondning asosiy axborot bazasini tashkil etadi. Ushbu jadvalda kitobning inventar raqami, nomi, muallifi, nashriyot kodi, nashr yili, nusxalar soni, mavzu yoki bo'lim kodi kabi maydonlar joylashtiriladi. "Kitobxonlar" jadvali esa kitobxonlarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlaydi. "Kitob berish", "Kitob qaytarish" jadvallari esa bu ikki jadvalni bog'lovchi asosiy operatsion jadval sifatida xizmat qiladi (1-rasmga qarang), chunki unda kitob va kitobxon haqidagi identifikatorlar birgalikda ishtirok etadi.

Relyatsion tuzilmaning muhim jihatlaridan biri birlamchi va tashqi kalitlardan foydalanishdir. Har bir jadvalda yozuvlarni yagona identifikatsiya qiluvchi birlamchi kalit belgilanadi. Masalan, "Inventar raqam", "ID raqami" kabi maydonlar birlamchi kalit vazifasini bajaradi. Operatsion jadvallarda esa ushbu identifikatorlar tashqi kalit sifatida qo'llanadi. Bu usul jadvallar o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlaydi, ma'lumotlar yaxlitligini saqlaydi va noto'g'ri yozuv kiritilishining oldini oladi.

Quyidagi 1-rasmda Microsoft Access muhitida ishlab chiqilgan kutubxona ma'lumotlar bazasining asosiy jadvallari va ular o'rtasidagi relyatsion bog'lanishlar tasvirlangan. Sxemada "Kitob fondi", "Kitobxonlar", "Kitob berish"

hamda “Kitob qaytarish” jadvallari o‘zaro mantiqiy bog‘langan bo‘lib, ular birlamchi va tashqi kalitlar orqali kutubxona jarayonlarining yaxlit axborot modelini shakllantiradi. Mazkur relyatsion tuzilma kitob fondi hisobini yuritish, kitobxonlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni saqlash, adabiyotlarning berilishi va qaytarilishi ustidan nazorat o‘rnatish hamda ma‘lumotlarni izchil boshqarishni ta‘minlaydi.

Microsoft Accessda “Схема данных” oynasi orqali jadvallar o‘rtasida 1-rasmdagi kabi birga-ko‘p tipidagi bog‘lanishlar o‘rnatiladi. Masalan, bitta kitob vaqt o‘tishi bilan bir necha bor turli kitobxonlarga berilishi mumkin, bitta kitobxon esa o‘z navbatida bir nechta adabiyotdan foydalanishi mumkin. Ushbu munosabatlar operatsion jadval orqali aks ettiriladi. Shu tariqa, Access muhitida qurilgan relyatsion model kutubxona ma‘lumotlarini izchil, yagona tamoyil asosida boshqarish imkonini beradi.



1-rasm. Jadvallar orasidagi relyatsion bog‘lanish

Microsoft Access asosida loyihalangan relyatsion ma‘lumotlar bazasi kutubxonaning asosiy axborot obyektlarini strukturaviy jihatdan tartibga soladi, ma‘lumotlar takrorlanishini kamaytiradi va keyingi avtomatlashtirish funksiyalari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

**Kitob fondi, kitobxonlar va kitob berish-qaytarish jarayonlarini hisobga olishga mo‘ljallangan jadvallar, shakllar va so‘rovnomalarni yaratish.**

Ma'lumotlar bazasi tuzilmasi ishlab chiqilgach, uni amaliy ishlash holatiga keltirish uchun Accessning asosiy obyektlari – jadvallar, shakllar va so'rovnomalar yaratildi. Bu bosqichda nazariy model amaliy interfeys va ishlash mexanizmiga ega axborot tizimiga aylantiriladi. Ya'ni faqat ma'lumot saqlash emas, balki uni qulay kiritish, ko'rish, qidirish va tahlil qilish imkoniyatlari ham yaratiladi.

Jadvallar bazaning asosiy saqlash mexanizmi sifatida xizmat qiladi. "Kitob fondi" jadvali fond tarkibini aks ettiradi, "Kitobxonlar" jadvali foydalanuvchilar ro'yxatini saqlaydi, "Kitob berish" hamda "Kitob qaytarish" jadvallari esa adabiyotlar harakatini qayd etadi. Bundan tashqari, nashriyotlar va bo'limlar bo'yicha yordamchi jadvallarni yaratish ma'lumotlarni standartlashtirishga yordam beradi. Bu yondashuv bir xil muallif yoki bo'lim nomlarini turli ko'rinishda yozish xavfini kamaytiradi. Kiritish formalari foydalanuvchi bilan tizim o'rtasidagi asosiy interfeys sifatida tashkil etadi. Masalan, yangi kitoblarni fondga kiritish uchun alohida forma, kitobxonlarni ro'yxatga olish uchun alohida forma hamda kitob berish va qaytarish operatsiyalarini bajarish uchun maxsus ishchi formalar yaratish mumkin. Kiritish formalaridan foydalanishning afzalligi shundaki, kutubxonachi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri jadval satrlariga kiritmaydi, balki oldindan tayyorlangan, tushunarli va boshqariladigan interfeys orqali ishlaydi. Bu esa ma'lumot kiritish xatolarini kamaytiradi va ish jarayonini tezlashtiradi. Quyidagi **2-rasmda** kutubxona fondi bilan ishlash uchun ishlab chiqilgan ma'lumot kiritish formasi keltirilgan. Shaki yordamida adabiyotlarga oid asosiy bibliografik va hisob ma'lumotlari yagona interfeys orqali bazaga kiritiladi hamda boshqariladi.

**FONDGA KITOB KIRITISH EKRANI**

Inventar raqam

Kitob nomi

Muallifi

Nashriyot nomi

Nashr yili

Boshlang'ich narxi

Qimmatlilik koeffitsenti

Kitobning umumiy narxi

Almashirilganligi


Nusxalar soni

2-rasm. "Fondga kitoblarni kiritish ekrani" oynasi

Ushbu yechim foydalanuvchi bilan ma'lumotlar bazasi o'rtasida qulay muloqot muhitini yaratib, fondni hisobga olish jarayonining tezkorligi va ishonchliligini oshiradi.

So'rovnomanomalar esa tizimning tahliliy va nazorat funksiyasini bajaradi. Ular yordamida ma'lum muallifga tegishli kitoblarni topish, muayyan kitobxon olgan adabiyotlar ro'yxatini chiqarish, hozirda kimlarda qanday kitoblar borligini aniqlash, muddati o'tgan berishlarni ajratish va fond bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni olish mumkin bo'ladi. Microsoft Access muhitida bir necha sorovnomalar mavjud. Masalan "Запрос на выборку", "Параметрический запрос" va "Итоговый запрос" kabi vositalar kutubxona faoliyatida zarur ma'lumotlarni tezkor izlash, saralash hamda amaliy axborotni olish imkonini beradi.

Jadvallar, formalar va so'rovnomanomalar o'zaro bog'langan yagona axborot muhitini hosil qiladi: jadvallar ma'lumotlarni saqlaydi, formalar ma'lumotlarni kiritish va ko'rish imkonini beradi, so'rovnomanomalar esa mavjud ma'lumotlar asosida zarur natijalarni ajratib beradi. Shuning uchun bu uchala komponent kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishning o'zaro chambarchas bog'liq amaliy vositalari sifatida qaraladi. Quyidagi 3-rasmda kitoblarni muallifi bo'yicha qidirishga mo'ljallangan so'rovnoma namunasi keltirilgan. Ushbu so'rovnoma Microsoft Access muhitida yaratilgan bo'lib, foydalanuvchi kiritgan muallifga tegishli kerakli adabiyotlarni tezkor topish va saralash imkonini beradi. Mazkur yondashuv kutubxona fondi bilan ishlash samaradorligini oshiradi hamda zarur axborotni qisqa vaqt ichida olishga xizmat qiladi.



Поле:	inventar raqam	Kitob nomi	Muallifi	Nashriyot nomi	Nashr yili	Boshlang'ich narxi	Nusxalar soni
Имя таблицы:	Kitob fondi	Kitob fondi	Kitob fondi	Kitob fondi	Kitob fondi	Kitob fondi	Kitob fondi
Сортировка:							
Вывод на экран:	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>	<input checked="" type="checkbox"/>
Условие отбора:			Like *** & [Muallif familiyasini kiriting] & ***				
или:							

3-rasm. Kitoblarni muallifi bo'yicha qidirish so'rovnomasi

Natijada yaratilgan obyektlar majmuasi kutubxona fondi, kitobxonlar va kitob aylanishini yagona tizimda yuritish, ma'lumotlarni tezkor yangilash va nazorat qilish imkonini beradi.

**Kutubxona faoliyatiga oid hisobotlarni avtomatik shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish.** Kutubxona faoliyatida hisobotlar muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Ular fond holatini tahlil qilish, kitob aylanishi ko'rsatkichlarini aniqlash, faol kitobxonlarni belgilash, qarzdorlarni topish va muayyan davr bo'yicha umumiy natijalarni chiqarish imkonini beradi. An'anaviy sharoitda bunday hisobotlarni qo'lda tayyorlash ko'p vaqt talab qiladi va hisob-kitoblarda xatolar yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Shu sababli tizimda hisobotlarni avtomatik shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega.

Microsoft Accessda hisobotlarni avtomatik shakllantirish, asosan, jadvallar va so'rovnomalar asosida amalga oshiriladi. Dastlab kerakli ma'lumotlarni ajratib olish uchun maxsus so'rovnomalar tayyorlanadi. Masalan, muayyan davr ichida berilgan kitoblar, qaytarish muddati o'tgan adabiyotlar, eng ko'p o'qilgan kitoblar yoki eng faol kitobxonlar bo'yicha alohida so'rovnomalar tuziladi. Keyinchalik aynan shu so'rovnomalar asosida standart ko'rinishdagi hisobot obyektlari yaratiladi.

Hisobotlar tarkibi kutubxonaning amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlanadi. Jumladan, fond bo'yicha umumiy hisobot, adabiyotlar berilishi bo'yicha hisobot, qaytarilmagan kitoblar ro'yxati, kitobxonlar faolligi bo'yicha hisobot, yangi kelib tushgan adabiyotlar bo'yicha hisobot kabi shakllar amaliy jihatdan eng zarur hisoblanadi. Bunday hisobotlar kutubxona rahbariyati va kutubxonachi uchun joriy vaziyatni tahlil qilishda, resurslarni boshqarishda va tashkiliy qarorlar qabul qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Avtomatik hisobotlarning afzalligi shundaki, foydalanuvchi ma'lumotlarni alohida yig'ib, qayta sanab chiqmaydi. Tizim bazada mavjud yozuvlar asosida kerakli ko'rsatkichlarni o'zi hisoblaydi, saralaydi va ularni tayyor shaklda taqdim etadi. Bu bir tomondan vaqtni tejaydi,

ikkinchi tomondan esa inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi. Bundan tashqari, hisobotlarning yagona formatda shakllanishi kutubxona hujjatlarini tartibli yuritishga yordam beradi. Shunday qilib, kutubxona faoliyatiga oid hisobotlarni avtomatik shakllantirish mexanizmi Access asosidagi tizimning eng muhim amaliy natijalaridan biri bo'lib, u kutubxona ishini monitoring qilish, tahlil qilish va boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Quyidagi 4-rasmda Microsoft Access muhitida ishlab chiqilgan "Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimi" tasvirlangan. Ushbu menyu orqali foydalanuvchi kitoblar fondini boshqarish, kitobxonlar bilan ishlash, kitob berish va qaytarish, qidiruv hamda hisobotlarni shakllantirish bo'limlariga tezkor murojaat qilishi mumkin. Mazkur interfeys tizim funksiyalaridan qulay foydalanishni ta'minlab, kutubxona jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshiradi. **Taklif etilgan modelning amaliy samaradorligi va qo'llash imkoniyatlarini baholash.** Ishlab chiqilgan modelning amaliy samaradorligini baholashda uning kutubxona ish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishi, an'anaviy usullarga nisbatan qanday afzalliklarga ega ekanligi va qaysi sharoitlarda samarali qo'llanishi mumkinligi tahlil qilinadi. Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, u kutubxona ma'lumotlarini yagona tizimda markazlashgan holda saqlash, kerakli axborotni tezkor topish va jarayonlar ustidan nazoratni kuchaytirish imkonini beradi.



4-rasm. Microsoft Access muhitida yaratilgan "Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimi"ning bosh menyusi

Amaliy samaradorlik, avvalo, vaqt sarfining kamayishida namoyon bo'ladi. An'anaviy usulda kitobni qidirish, foydalanuvchini topish, kitob berish tarixini tekshirish yoki hisobot tayyorlash ko'p vaqt olishi mumkin. Access asosidagi avtomatlashtirilgan modelda esa bunday operatsiyalar bir necha so'rovnoma yoki formalar yordamida tez bajariladi. Natijada kutubxonachi mehnati yengillashadi va xizmat ko'rsatish tezligi ortadi.

Ikkinchi muhim jihat – ma'lumotlarning aniqligi va tartibligi. Yagona baza va o'zaro bog'langan jadvallar orqali ma'lumotlarni saqlash takroriy yozuvlarni kamaytiradi, ma'lumotlarning izchil yuritilishini ta'minlaydi va xatolarni nazorat qilishni osonlashtiradi. Ayniqsa, kitob berish-qaytarish jarayonlarida bu juda muhim, chunki fond harakati bilan bog'liq noaniqliklar kutubxona ishining umumiy sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi jihat – iqtisodiy va tashkiliy qulaylik. Taklif etilgan modelni joriy etish uchun yirik server infratuzilmasi, murakkab tarmoqli platforma yoki doimiy ravishda yuqori malakali texnik mutaxassis talab qilinmaydi. Bu uni ayniqsa moddiy imkoniyatlari cheklangan maktab, kollej, qishloq va korxonalar kutubxonalari uchun amaliy jihatdan maqsadga muvofiq yechimga aylantiradi. Microsoft Accessning Microsoft Office tarkibida keng tarqalgan dasturiy vosita ekani ham tizimni o'rganish va qo'llashni osonlashtiradi.

Biroq modelning cheklovlarini ham hisobga olish zarur. U asosan kichik hajmdagi kutubxonalar, lokal foydalanish muhiti va uncha katta bo'lmagan foydalanuvchi oqimi uchun qulay hisoblanadi. Juda katta fondga ega, ko'p filialli yoki ko'p foydalanuvchili tarmoq muhitida ishlaydigan kutubxonalarda yanada kuchliroq server yechimlari va professional kutubxona platformalari talab qilinishi mumkin. Shunga qaramay, kichik kutubxonalarni raqamlashtirish, boshlang'ich avtomatlashtirishni joriy etish va asosiy jarayonlarni tartibga solish nuqtayi nazaridan ushbu model samarali yechim sifatida baholanishi mumkin.

Umuman olganda, taklif etilgan model kichik kutubxonalar uchun iqtisodiy, funksional va tashkiliy jihatdan maqbul bo'lib, uni amaliyotga tatbiq etish

kutubxona ishining tezkorligi, aniqligi va boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, Microsoft Access asosida yaratilgan kutubxona ma'lumotlar bazasi modeli kichik kutubxonalarda asosiy ish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishning sodda, amaliy hamda iqtisodiy jihatdan qulay vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur model fond hisobini yuritish, kitobxonlar bilan ishlash, kitob aylanishini nazorat qilish va hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini yagona axborot muhitida amalga oshirish imkonini beradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *IRBIS tizimi foydalanuvchi qo'llanmasi // Rossiya davlat kutubxonasi. – Moskva, 2018. – 120 s.*
2. *Xudayberdiyev S. Axborot tizimlari va bazalari: MS Access amaliyoti. – Toshkent: San'at, 2021. – 180 b.*
3. *Qodirov B., Karimova N. Kutubxona ishini avtomatlashtirish asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2020. – 250 b.*
4. *Microsoft Corporation. Microsoft Access 2021 documentation. URL: <https://docs.microsoft.com/en-us/office/access/>*
5. *Tashkent State University of Economics. Database design for small libraries: practical guide. – Toshkent: TDIU, 2022. – 95 p.*
6. *Ahammad, Nur, Farrah DS Bahry, and Haslinda Husaini. Sustainable library services with open-source library automation and digitisation software: A literature review // Business Information Review. – 2024. – № 41.2. – P. 59–68.*

**Shakir Yusupov**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Sahna nutqi" kafedrası professori (v.b.)  
E-mail: shakiryusupov65@gmail.com*

## **SAHNA NUTQI FANINING SAN'AT TA'LIMIDAGI O'RNI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada sahna nutqi fanining san'at ta'lim tizimidagi o'rni va uning teatr aktyorligi hamda xoreografiya bo'limi o'quvchilari uchun pedagogik ahamiyati haqida so'z yuritilib, uning tarkibiy qismlari tizimli tahlil qilingan. Samarali metodlar va amaliy mashqlar tavsiya etilib, san'atning turli sohalarida nutq madaniyatining roli ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** sahna nutqi, nafas texnikasi, diksiya, intonatsiya, nutq madaniyati, teatr aktyorligi, xoreografiya, san'at ta'limi, pedagogika, Stanislavskiy tizimi.*

## **THE ROLE AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE DISCIPLINE OF STAGE SPEECH IN ART EDUCATION**

***Abstract.** This article examines the place of the discipline "Stage Speech" in the system of arts education and its pedagogical significance for students of the theatrical acting and choreography departments. A systematic analysis of its structural components is carried out. Effective methods and practical exercises are recommended, and the role of speech culture in various fields of art is demonstrated.*

***Keywords:** stage speech, breathing technique, diction, intonation, vocal culture, theatre acting, choreography, arts education, pedagogy, Stanislavski system.*

Zamonaviy san'at ta'limi tizimida sahna nutqi fani nafaqat ijrochilik mahorati, balki umumiy nutq madaniyatini rivojlantiruvchi mustaqil pedagogik fan

sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Teatr aktyorligi va xoreografiya bo'limi o'quvchilari uchun nutq texnikasini egallash – sahna san'atida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning zaruriy sharti hisoblanadi. Dunyo teatr pedagogikasida K.S.Stanislavskiy, M.Chexov, V.Nemirovich-Danchenko kabi ulug' ustozlar tomonidan yaratilgan tizimlar nutq texnikasini aktyorlik mahoratining poydevori deb belgilagan [1]. O'zbek teatr san'atida esa Mannon Uyg'ur, Abror Hidoyatov kabi buyuk sahna ustalarining ijodiy merosi nutq san'atini yuqori pedagogik maqomga ko'targan [3].

Sahna nutqi – aktyorning sahnada nutq vositasida obraz yaratish va ma'no yetkazish san'atidir. U kundalik nutqdan uch jihatdan tubdan farqlanadi: birinchidan, u ongli nazorat ostida bo'ladi; ikkinchidan, katta auditoriyaga mo'ljallangan; uchinchidan, u rolning obrazi xizmatida turadi [4]. Nutq apparati aktyor uchun musiqachining asbobiga o'xshaydi. Nafas a'zolari (o'pka, diafragma, qovurg'a muskullari), tovush paylari, rezonatorlar va artikulyatsiya a'zolari (til, lablar, tishlar) – bularning barchasi nutq tizimini tashkil etadi [5]. Pedagog ushbu a'zolarining fiziologik imkoniyatlarini yaxshi tushunib, o'quvchilarga to'g'ri yo'l ko'rsata olishi shart. Zamonaviy pedagogikada sahna nutqi fani sakkizta asosiy yo'nalishni qamrab oladi: nafas texnikasi; diksiya va artikulyatsiya; orfoepiya; tovush dinamikasi; intonatsiya; pauza va urg'u; temp-ritm; nutq va harakatning uyg'unligi [6].

Teatr san'atida nutq ifodaning eng qudratli vositalaridan biri hisoblanadi. Aktyor sahnada obrazni yaratishda harakat, mimika va plastikadan foydalanganidek, nutq ham uning ijodiy arsenalining ajralmas qismini tashkil etadi. Aslida, nutq – bu faqat so'zlarni talaffuz qilish emas, balki tirik inson ruhiyatini, uning his-tuyg'ulari, orzu-umidlari va ziddiyatlarini tomoshabinga yetkazishning betakror yo'lidir. Mashhur rejissyor Konstantin Stanislavskiy ham ta'kidlaganidek, so'z sahnada harakatdan kam bo'lmagan kuch-quvvatga ega, chunki to'g'ri aytilgan bir jumla butun bir monologdan ko'ra kuchliroq ta'sir etishi mumkin [2].

Sahna nutqi teatrda oltita muhim vazifani bajaradi:

1. Aktyor ijro etayotgan qahramonning kechinmalari, shubhalari, sevinchi va g'ami – bularning barchasi nutq orqali tirik holatga keladi. Tovushning ohangi, tezligi, pauzalar – hammasi personajning botiniy olamini ochib beradi. Tashqi ko'rinishdan yashirilgan hissiyotlar nutqda o'z aksini topadi.

2. Dramaturg yozgan matn sahnada faqat aktyor nutqi orqali to'liq ma'no kasb etadi. Aktyor har bir so'zni idrok etib, uning orqasidagi fikrni, muallifning maqsadini teran tushungandagina tomoshabin pyesaning asl ruhini his qila oladi.

3. Nutq vositasida aktyor vaqt va makon hissini yaratadi. Dialog va monologlar orqali zamon, joy, voqealar foni shakllantirilib, tomoshabinning xayolida spektaklning to'liq manzarasi gavdalanadi.

4. Haqiqiy teatr tajribasi – bu ikki tomonlama hissiy aloqa. Aktyorning samimiy, ishonarli nutqi tomoshabinni o'ziga tortadi, uning yuragiga yo'l topadi. Ayni shu lahzada sahna va zal o'rtasidagi devor yo'qoladi va tomoshabin voqealar ishtirokchisiga aylanadi.

5. Har bir insonning o'ziga xos nutq tarzi bor – kimdir jadal va tez gapiradi, kimdir sekin va mulohazali. Aktyor bu xususiyatlardan foydalanib, personajning xarakterini, tarbiyasini, ijtimoiy mavqeini va psixologik holatini nutq orqali aniq ifodalaydi.

6. Nutq spektaklning nafasidir. Sur'atning tezlashuvi yoki sekinlashuvi, pauzalar va ularning davomiyligi – bularning barchasi tomoshabinni kuchayib borayotgan kulminatsiyaga olib boradi yoki uni hissiy dam oldiradi. Ritm sahna asarini musiqiy asarga o'xshatadi – to'g'ri intonatsiya va temp bo'lmasa, hatto eng buyuk matn ham o'z ta'sirini yo'qotadi.

Shunday qilib, sahna nutqi – bu faqat texnik malaka emas, balki aktyorning tomoshabin bilan muloqot qilishining eng chuqur va nozik san'atidir. Uni puxta egallagan aktyor sahnada nafaqat so'zlaydi, balki yashaydi. Xoreografiya san'atida ko'p asrlar davomida “nutq kerakmas, tana gapiradi” degan qarash keng tarqalgan. Bu fikrning o'ziga xos mantiqi bor: raqs – harakat san'ati, va tana haqiqatan ham ko'p narsani so'zsiz ifodalay oladi. Biroq zamonaviy sahna xoreografiyasi

amaliyoti bu tushunchaning tor va bir tomonlama ekanini isbotlab bermoqda. Bugungi professional xoreograf faqat raqsni bilishi emas, balki uni o'rgata olishi, tushuntira olishi va tomoshabinga yetkaza olishi kerak. Aynan shu nuqtada nutq madaniyati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sahna xoreografiyasida nutq va plastikaning birligi tasodifiy hodisa emas – bu san'atning yangi talabi. Myuzikl (qo'shiq, raqs va aktyorlik bir sahnada uyg'unlashgan tomosha turi), fizik teatr (his-tuyg'ular so'z orqali emas, asosan tana harakati orqali ifodalanadigan teatr shakli) va kontemporari (qat'iy qoidalardan ozod, hissiyotni erkin ifodalashga asoslangan zamonaviy raqs san'ati) janrlarida aktyor-raqqos bir vaqtning o'zida ham raqs tushadi, ham gapiradi, ham kuylaydi. Bu uch elementning uyg'unligi ijrochidan jismoniy va nutqiy mahoratning yuqori darajasini talab etadi. Shuning uchun xoreografiya ta'limida nutq texnikasini o'rgatish – bu ikkinchi darajali masala emas, balki zamonaviy san'at ta'limining markaziy vazifalaridan biridir. Pedagog-xoreograf uchun nutq madaniyati alohida va ko'p qirrali ahamiyat kasb etadi. Raqs ustozlari dars jarayonida doimo so'z ishlatadi – u ko'rsatadi, tushuntiradi, baholaydi va ruhlantiradi. Nutq texnikasi esa uning pedagogik samaradorligini bevosita belgilab beradi [7]. Demak, xoreografiya san'atida “tana gapiradi” degan haqiqatni inkor etmagan holda, zamonaviy ta'lim amaliyoti yana bir haqiqatni qat'iy tasdiqlaydi: nutq va harakat – bir-birini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi ikki san'atdir. Pedagog-xoreograf uchun nutq madaniyatini egallash – bu shaxsiy rivojlanish emas, balki kasbiy zarurat.

Bolalar san'at maktablarida sahna nutqini o'qitishning eng samarali usuli – o'yin orqali o'rganish metodidir. Tez aytishlar musobaqalari, rolli o'yinlar va she'r deklamatsiya bolalar uchun ham qiziqarli, ham samarali ta'lim shaklini tashkil etadi. O'yin shaklida tashkil etilgan nutq mashqlari an'anaviy usulga nisbatan 1,5–2 marta samaraliroq.

Zamonaviy san'at ta'limida sahna nutqi fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish muhim pedagogik tamoyil hisoblanadi. Musiqa darslari bilan

integratsiya (kuy bilan nutq ritmini birlashtirish), xoreografiya darslari bilan integratsiya (nutq va harakatni sinxronlashtirish) va adabiyot darslari bilan integratsiya (matn tahlili va obraz yaratish) samarali natijalar beradi [8].

Pedagogik amaliyotda quyidagi mashqlar tizimi sinovdan o'tkazilgan va yuqori samaradorlik ko'rsatgan:

– Nafas mashqi “Sham”: o'quvchi “sham alangasini o'chirmasdan” sekin nafasni chiqaradi, diafragma muskulini nazorat qiladi.

– Diksiya mashqlari: tez aytishlarni avval sekin, so'ng tez va aniq aytish.

– Intonatsiya mashqi “Bir jumla – 5 his”: bir jumlaning turli hissiyotlar (xursandlik, ajablanish, xafalik, g'azab, istehzo) bilan ifoda etish.

– Pauza mashqi: mashhur monologlarda mantiqiy va psixologik pauzalarni belgilash va ifoda etish.

– Ansambl mashqi “Dialog”: juftlikda faqat intonatsiya orqali hissiyotni ifoda etish.

Tovush – aktyorning eng qimmatli “musiqiy asbobi”. Pedagog o'quvchilarga tovush gigiyenasini o'rgatishi shart: sovuq ichimliklar va baqirishdan saqlanish, darsdan oldin ovozni “isitish” mashqlari, darsdan keyin ovozga dam berish [5]. Rezonatorlarni rivojlantirish, tovush diapazonini kengaytirish va tembrni boyitish – tovush treningining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Fikrimizni xulosalaydigan bo'lsak, birinchidan, sahna nutqi fani bolalar san'at maktablarida teatr aktyorligi va xoreografiya bo'limi o'quvchilari uchun zaruriy kompetensiyalarni shakllantiruvchi mustaqil pedagogik fan sifatida tanilishi lozim. Ikkinchidan, nafas texnikasi, diksiya, intonatsiya, pauza va tovush madaniyatini o'zida mujassam etgan kompleks yondashuv – sahna nutqini o'qitishda eng samarali metod hisoblanadi. Uchinchidan, sahna nutqi fanini musiqa, xoreografiya va adabiyot darslari bilan integratsiya qilish ta'lim sifatini sezilarli oshiradi va o'quvchilarning umumiy san'at madaniyatini rivojlantiradi. To'rtinchidan, bolalar uchun o'yin orqali o'rganish metodi – sahna nutqini o'qitishning eng samarali va motivatsion shakli hisoblanadi.

---

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Станиславский К. Актёрлик санъатида ўзингни тайёрлаш. – Москва: Искусство, 1985. – 479 с.
2. Станиславский К. Роль устида шилаш. – Москва: Искусство, 1957. – 548 с.
3. Rahimov T. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – 312 b.
4. Петрова А. Сценическая речь. – Москва: Искусство, 1981. – 292 с.
5. Козлянинова И., Чарели Э. Тайны нашего голоса. – Екатеринбург: Диамант, 1992. – 320 с.
6. Iskandarova O. O'zbek tili diksiyasini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2015. – 112 b.
7. Normatov A. Pedagogik muloqot madaniyati. – Toshkent: TDPU, 2020. – 88 b.
8. Karimova M. Bolalar san'at maktablarida integratsiyalashgan ta'lim. – Toshkent: O'zDSI, 2021. – 76 b.

**Zair Zufarov**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Axborot texnologiyalar" kafedراسi dotsenti,  
texnika fanlari nomzodi  
E-mail: [zudarovzair@gmail.com](mailto:zudarovzair@gmail.com)

## ILMIY MAQOLA YOZISH UCHUN ENG YAXSHI SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TAHLILI VA SHARHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola zamonaviy ilmiy tadqiqotlar jarayonida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining o'rnini, ayniqsa, ilmiy maqolalar yozish bosqichidagi samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada matn generatsiyasi, adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va plagiatni tekshirish yo'nalishlarida yetakchi bo'lgan SI vositalari (ChatGPT-4, Claude 3, Gemini Advanced, Perplexity AI, Elicit, Scite.ai, Grammarly va boshqalar) batafsil ko'rib chiqiladi. Har bir vositaning kuchli va zaif tomonlari, ilmiy etika me'yorlariga muvofiqligi hamda akademik maqoladagi qo'llanilish strategiyalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, ilmiy maqola yozish, LLM (Katta til modellari), akademik etika, adabiyotlar tahlili, avtomatlashtirilgan tadqiqot, ChatGPT, Elicit, Scite.ai, Plagiat.

## ANALYSIS OF LEADING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS FOR SCIENTIFIC WRITING

**Abstract.** This article analyzes the role of artificial intelligence (AI) technologies in modern scientific research, with particular attention to their effectiveness in the writing stage of academic articles. It provides a detailed overview of leading AI tools, including ChatGPT-4, Claude 3, Gemini Advanced, Perplexity AI, Elicit, Scite.ai, and Grammarly, which are widely used for text generation, literature analysis, data visualization, and plagiarism detection. The study evaluates the strengths and limitations of these tools, their compliance with academic ethical standards, and their practical application in scientific writing.

**Keywords:** *artificial intelligence, scientific writing, large language models, academic ethics, literature review, automated research, ChatGPT, Elicit, Scite.ai, plagiarism detection.*

Hozirgi vaqtda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari nafaqat sanoat va biznes, balki ilm-fan sohasida ham inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Ilmiy faoliyatning an'anaviy jarayoni – gipoteza shakllantirish, adabiyotlarni o'rganish, tajriba o'tkazish, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni maqola shaklida rasmiylashtirish – juda ko'p vaqt va intellektual resurslarni talab qiladi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, olimlar o'z vaqtining taxminan 50% ini maqola yozish va uni nashrga tayyorlashga sarflashadi. Bu jarayondagi byurokratik va texnik to'vsiqlarni bartaraf etishda Katta Til Modellariga (LLM – Large Language Models) asoslangan SI vositalari muhim rol o'ynamoqda.

**Maqola quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan [1, 2-b]:**

1. Ilmiy maqolaning har bir bosqichi (rejalashtirish, adabiyotlar sharhi, metodologiya, natijalar, muhokama) uchun mos keladigan SI vositalarini aniqlash.
2. Vositalarning aniqligi, hallyusinatsiya (to'qima faktlar keltirish) xavfi va manbalarga havola berish qobiliyatini baholash.
3. Akademik integritet va nashriyot siyosatiga rioya qilish masalalarini yoritish.

Hozirgi kunda ilmiy maqola yozish uchun mo'ljallangan SI vositalarini quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

**Universal Katta Til Modellarini (General-purpose LLMs)**

Bular har qanday mavzuda erkin muloqot qila oladigan, matn yozish, kodlash va tahlil qilish qobiliyatiga ega modellardir [3].

Vakillar: OpenAI ning ChatGPT (GPT-4o), Anthropic ning Claude 3 (Opus/Sonnet), Google ning Gemini Advanced.

Asosiy vazifasi: G'oyalarni shakllantirish, reja tuzish, qoralama matn yozish, murakkab tushunchalarni soddalashtirish, tarjima qilish.

## **Ilmiy adabiyotlarni qidirish va tahlil qilish vositalari (Research Assistants)**

Bu vositalar maxsus ilmiy bazalar (PubMed, IEEE Xplore, Scopus, Web of Science) bilan integratsiya qilingan bo'lib, faqat tekshirilgan manbalarga asoslanib javob beradi.

Vakillar: Elicit, Consensus, Scite.ai, Semantic Scholar, Perplexity AI (Academic mode).

Asosiy vazifasi: Mavzu bo'yicha dolzarb maqolalarni topish, ularning xulosalarini sintez qilish, metodologiyalarni taqqoslash, iqtiboslarni avtomatik shakllantirish.

**Yozish uslubi va tahrirlash vositalari (Writing & Editing Tools).** Ushbu vositalar tayyor matnni grammatik, stilistik va strukturaviy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan [5].

Vakillar: Grammarly Premium, Writefull, QuillBot, Trinko.

Asosiy vazifasi: Grammatik xatolarni tuzatish, akademik uslubga moslashtirish, passiv/aktiv zamonlarni muvozanatlash, sinonimlar tanlash.

### **Ma'lumotlarni vizualizatsiya va statistik tahlil vositalari**

Vakillar: Julius AI, DataRobot, Code Interpreter (ChatGPT ichida).

Asosiy vazifasi: Xom ma'lumotlarni yuklash, statistik testlarni bajarish, grafiklar va diagrammalarni avtomatik chizish. Keyingi bo'limlarda ushbu toifalardagi eng yaxshi vositalarga batafsil sharh beriladi.

**Universal katta til modellarining tahlili.** Universal modellar ilmiy maqola yozishning dastlabki va yakuniy bosqichlarida eng ko'p ishlatiladi. Ularning asosiy afzalligi – keng kontekst oynasi va kreativ yondashuv qobiliyatidir.

**ChatGPT** hozirda dunyodagi eng mashhur SI yordamchisidir. GPT-4 arxitekturasi ilmiy maqolada quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Kuchli tomonlari:

1. Kontekstni tushunish: Murakkab ilmiy tushunchalarni chuqur tahlil qilish va ularni turli auditoriyalar uchun moslashtirish qobiliyati yuqori.

2. Kod yozish: Python yoki R tillarida ma'lumotlarni tahlil qilish skriptlarini yozib berishi mumkin. "Code Interpreter" funksiyasi orqali fayllarni yuklab, ularni bevosita tahlil qiladi.

3. Multimodallik: Rasmlarni tahlil qilish (masalan, mikroskop tasvirlarini tavsiflash) va grafiklarni yaratish imkoniyati.

4. G'oyalar generatsiyasi: "Brainstorming" sessiyalari uchun bebaho vosita. Gipotezalarni shakllantirishda turli burchaklardan yondashishni taklif qiladi.

Zaif tomonlari:

5. Hallyusinatsiya: GPT-4 hamon mavjud bo'lmagan manbalarni, mualliflarni yoki faktlarni to'qib chiqarishi mumkin. Ilmiy maqolada bu qabul qilib bo'lmaydigan xatodir.

6. Manbalarga havola: U internetga ulangan bo'lsa-da, ba'zan eskirgan ma'lumotlarga tayanishi yoki havolalarni noto'g'ri formatlashi mumkin.

7. Xotira cheklovi: Juda uzun matnlarni (masalan, 100 sahifalik dissertatsiya) bir vaqtning o'zida to'liq tahlil qilishda qiynalishi mumkin (garchi kontekst oynasi kengaytirilgan bo'lsa-da).

Qo'llanilish strategiyasi: ChatGPT ni maqola rejasi, kirish qismi qoralamasi, muhokama bo'limi uchun g'oyalar va kod yozishda ishlatish tavsiya etiladi. Biroq, har bir fakt va iqtibos qo'lda tekshirilishi shart.

Claude 3 Opus (Anthropic)

Claude 3 modeli, ayniqsa "Opus" versiyasi, ilmiy maqolada ChatGPT ga jiddiy raqobatchi hisoblanadi.

Kuchli tomonlari:

1. Katta kontekst oynasi (200K token): Bu Claude ga butun kitoblarni yoki o'nlab ilmiy maqolalarni bir vaqtning o'zida yuklab, ularni tahlil qilish imkonini beradi. Bu adabiyotlar sharhini yozishda noyob afzallikdir.

2. Tabiiy va insoniy uslub: Claude ning maqola stili ko'proq insoniy tabiatga yaqin, kamroq "robotlashtirilgan" va takrorlanuvchan iboralardan foydalanadi. Bu matnni keyinchalik tahrirlashni osonlashtiradi.

3. Xavfsizlik va etika: Anthropic kompaniyasi modelni “zararli kontent” yaratmaslikka qattiq yo‘naltirgan, bu esa ilmiy etika me‘yorlariga mos kelishini ta‘minlaydi.

4. Mantiqiy xulosa: Murakkab mantiqiy masalalarda va argumentatsiya qurishda GPT-4 dan ba‘zan ustunroq natija ko‘rsatadi.

Zaif tomonlari:

5. Internetga real vaqt rejimida ulanish imkoniyati ChatGPT ga nisbatan cheklangan (brauzer kengaytmalari orqali amalga oshiriladi).

6. Tasvir yaratish imkoniyati yo‘q (faqat tahlil qilish mumkin).

Qo‘llanilish strategiyasi: Uzun hujjatlarni sintez qilish, adabiyotlar sharhini yozish va murakkab falsafiy-mantiqiy baxslarni shakllantirish uchun eng yaxshi tanlov.

**Gemini Advanced (Google).** Google ning eng so‘nggi Ultra 1.0 modeli asosida ishlaydigan Gemini.

Kuchli tomonlari:

1. Google Ekotizimi bilan integratsiya: Google Scholar, Google Docs va Drive bilan bevosita bog‘lanish imkoniyati. Maqolani yozish jarayonida manbalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri Scholar dan tortib olish qulayligi.

2. Tezkorlik va ko‘p modalilik: Matn, audio va videoni bir vaqtda qayta ishlashda yuqori tezlik.

3. Haqiqiy vaqt ma‘lumotlari: Google qidiruv tarmog‘i orqali eng so‘nggi ilmiy yangiliklarni topishda samarali.

Zaif tomonlari:

4. Ba‘zi holatlarda mantiqiy zanjirlarda xatolarga yo‘l qo‘yishi kuzatilgan.

5. Ilmiy terminologiyani ba‘zan haddan tashqari soddalashtirib yuborishi mumkin.

Taqqoslash xulosasi: Agar sizga katta hajmdagi matnlarni tahlil qilish kerak bo‘lsa – Claude 3. Agar kod yozish va multimodal tahlil kerak bo‘lsa – ChatGPT-4. Agar Google Scholar va Docs bilan ishlash qulayligi muhim bo‘lsa – Gemini.

Maxsus ilmiy yordamchilar: adabiyotlar va faktlar.

Ilmiy maqolaning eng muhim qismi – bu ishonchli manbalarga asoslangan adabiyotlar sharhi va faktologik aniqlikdir. Universal modellar bu yerda xato qilish xavfi yuqori bo'lgani uchun, maxsus ilmiy SI vositalaridan foydalanish zarur.

**Elicit** – bu tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan eng kuchli vositalardan biri bo'lib, u milliardlab ilmiy maqolalar bazasidan foydalanadi.

Funksionalligi: Foydalanuvchi tadqiqot savolini kiritadi (masalan, “Depressiyani davolashda kognitiv-xulq-atvor terapiyasining samaradorligi qanday?”). Elicit tegishli maqolalarni topadi va ularni jadval shaklida taqdim etadi: Muallif, Yil, Metodologiya, Ishtirokchilar soni, Asosiy xulosalar.

Afzalliklari:

1. Hallyusinatsiya minimalligi: Faqat mavjud va indekslangan maqolalarga asoslanadi. Har bir gap uchun havola beradi.

2. Sintez qobiliyati: Turli maqolalardagi qarama-qarshi fikrlarni ajratib ko'rsatadi.

3. Vaqt tejamligi: Yuzlab maqolalarni o'qib chiqish o'rniga, ularning asosiy xulosalarini bir ko'zda ko'rish imkonini beradi.

Cheklovlari: To'liq matnli maqolalarni ochish uchun ba'zan institutsional kirish (subscription) talab qilinishi mumkin. Kreativ yozish uchun emas, faqat tadqiqot uchun mo'ljallangan.

**Consensus “Ilmiy Google”** deb atalishga loyiq. U qidiruv natijalarini faqat peer-review (hakamlar ko'rig'idan o'tgan) maqolalardan oladi.

Funksionalligi: Savolga javob berishda “Ha”, “Yo'q” yoki “Noaniq” degan konsensus darajasini ko'rsatadi. Masalan, “Kreatin mushak o'sishiga yordam beradimi?” degan savolda maqolalarning necha foizi buni tasdiqlashini grafik ko'rinishda taqdim etadi.

Afzalliklari:

1. Ilmiy konsensusni aniqlash: Mavzu bo'yicha umumiy fikrni tezda shakllantirish.

2. Oddiy tilda tushuntirish: Murakkab ilmiy xulosalarni oddiy tilda bayon qilish.

3. To'g'ridan-to'g'ri iqtibos: Har bir da'vo uchun aniq DOI (Digital Object Identifier) havolasini taqdim etadi.

**Scite.ai** ning asosiy farqi – u iqtiboslarni nafaqat sanab o'tmaydi, balki ularning kontekstini tahlil qiladi.

Funksionalligi: Bir maqola ikkinchi maqolaga iqtibos keltirganda, bu iqtibos qanday ma'noda keltirilganligini aniqlaydi:

1. Tasdiqlash (Supporting): Natijalarni quvvatlaydi.

2. Rad etish (Contrasting): Natijalarga qarshi chiqadi yoki xatolarni ko'rsatadi.

3. Eslab o'tish (Mentioning): Shunchaki nomini tilga oladi.

Ahamiyati: Bu tadqiqotchiga ma'lum bir gipoteza qanchalik ishonchli ekanligini va unga qancha olimlar qarshi chiqqanligini aniq ko'rsatib beradi. Bu "Confirmation bias" (tasdiqlash xatoligi) ni oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

**Perplexity** – bu an'anaviy qidiruv tizimi va chatbotning gibrididir.

Funksionalligi: Akademik rejimda faqat ilmiy manbalardan foydalanib, har bir gap uchun footnotes (oyoq izohi) shaklida havolalar beradi.

Afzalliklari: Tezkor qidiruv, yangi maqolalarni topish va ularni qisqa sharhlash uchun ideal. Interfeysi juda qulay va natijalar vizual jihatdan boy.

Strategik tavsiya: Adabiyotlar sharhini yozishda avval Elicit yoki Consensus orqali asosiy manbalarni topib olish, keyin Scite.ai orqali ularning o'zaro bog'liqligini tekshirish va nihoyat, Perplexity yordamida qo'shimcha so'nggi ma'lumotlarni qo'shish eng samarali yondashuvdir.

**Yozish, tahrirlash va stilistik takomillashtirish.** Matn qoralamasi tayyorlangandan so'ng, uni akademik standartlarga moslashtirish, grammatik xatolardan tozalash va uslubini yaxshilash kerak. Bu bosqichda maxsus tahrirlash vositalari ishga tushadi.

**Writefull** – bu maxsus akademik maqola uchun yaratilgan SI vositasidir. U millionlab ilmiy maqolalar bazasida o'qitilgan.

Imkoniyatlari:

1. Paraphrasing: Ma'noni o'zgartirmasdan jumladagi so'zlarni almashtirish (plagiatdan qochish uchun).

2. Title Generator: Maqola mazmuniga mos keladigan jozibali sarlavhalarni taklif qilish.

3. Abstract Checker: Annotatsiyaning tuzilishi va kalit so'zlarini tahlil qilish.

4. MS Word va Overleaf integratsiyasi: Bevosita matn muharriri ichida ishlaydi.

Nega aynan Writefull? U umumiy tillardan farqli o'laroq, aynan "akademik ingliz tili" (Academic English) qoidalariga urg'u beradi. Masalan, "big" so'zi o'rniga "significant" yoki "substantial" so'zlarini taklif qiladi.

**Grammarly Premium.** Dunyodagi eng mashhur grammatika tekshirgichi bo'lsa-da, uning ilmiy maqoladagi o'rni o'ziga xosdir.

Imkoniyatlari: Murakkab grammatik qoidalarni, tinish belgilarini va uslubiy xatolarni aniqlash.

Akademik rejim: "Formal" tonni tanlash orqali matnni rasmiyroq qilish.

Cheklov: U ilmiy mazmuni tekshirmaydi, faqat forma va uslubga e'tibor beradi. Ba'zan ilmiy terminlarni noto'g'ri deb belgilashi mumkin, shuning uchun ehtiyotkorlik talab etiladi.

Zamonaviy ilmiy maqolalar ko'pincha katta hajmdagi ma'lumotlar to'plami (Big Data) bilan ishlaydi. SI bu jarayonni ham avtomatlashtirishda yordam beradi.

**Julius** – bu ma'lumotlar olimi sifatida ishlaydigan SI agentidir.

Jarayon: Foydalanuvchi Excel yoki CSV faylini yuklaydi va tabiiy tilda savol beradi ("Ushbu ma'lumotlardagi korrelyatsiyani top", "Vaqt o'tishi bilan o'zgarish grafigini chiz").

**Natija:** Julius Python kodini yozadi, uni ishga tushiradi va natijani grafik yoki statistika ko'rinishida qaytaradi. Kodni ham taqdim etadi, shuning uchun tadqiqotchi jarayonni takrorlay oladi.

**Ahamiyati:** Statistika dasturlashni (R, Python, SPSS) chuqur bilmaydigan tadqiqotchilar uchun inqilobiy vosita.

**ChatGPT Code Interpreter.** ChatGPT ning ushbu funksiyasi ham xuddi shunday ishlaydi. Faylni yuklab, "Menyudan olingan ma'lumotlar asosida regressiya tahlili qil va natijani jadval shaklida ber" deb buyruq berish mumkin. Bu eksplorativ ma'lumotlar tahlili (EDA) uchun juda tez va qulaydir.

**Akademik etika, plagiat va cheklovlar.** Sun'iy intellektdan foydalanish ilmiy hamjamiyatda jiddiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Quyidagi masalalar har bir tadqiqotchi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega [4].

**Mualliflik masalasi.** Hozirgi kunda deyarli barcha yirik nashriyotlar (Elsevier, Springer Nature, IEEE, ACM) quyidagi pozitsiyani egallagan: Sun'iy intellekt muallif bo'la olmaydi.

**Sababi:** Mualliflik javobgarlikni talab qiladi. SI xato qilganda javobgarlikni kim o'z zimmasiga oladi? Javob – faqat inson tadqiqotchisi.

**Talab:** Maqolada SI dan foydalanilgan bo'lsa, bu "Metodologiya" yoki "Minnatdorchilik" bo'limida ochiq e'lon qilinishi shart. Qaysi vosita, qanday maqsadda va qanday darajada ishlatilganligi ko'rsatilishi kerak.

LLM lar ehtimollik prinsipi asosida ishlaydi, haqiqat prinsipi asosida emas. Ular ishonchli ohangda yolg'on ma'lumot berishi mumkin [6].

**Xavf:** Mavjud bo'lmagan maqolaga iqtibos keltirish, noto'g'ri statistik raqamlarni keltirish.

**Yechim:** SI tomonidan keltirilgan har bir fakt, raqam va havola qo'lda (original manba orqali) tekshirilishi shart. "Ishon, lekin tekshir" (Trust but verify) prinsipi ilmiy maqolada oltin qoidadir.

**Plagiat va originallik.** SI generatsiya qilgan matn texnik jihatdan "plagiat" emas (chunki u tayyor matnни nusxalamaydi, yangi kombinatsiya yaratadi), lekin u

“original fikr” ham emas. Agar tadqiqotchi butun maqolani SI ga yozdirib, o‘z nomi bilan chop etsa, bu akademik firibgarlik (academic misconduct) hisoblanadi. Turnitin va boshqa plagiat tekshirish tizimlari endi SI generatsiya qilgan matnni aniqlash algoritmlarini ham qo‘shgan. Garchi ular 100% aniq bo‘lmasa-da, risk mavjud.

Ilmiy maqola yozish uchun “eng yaxshi” sun’iy intellekt deb ataladigan yagona vosita yo‘q. Eng samarali yondashuv – bu turli vositalarning kuchli tomonlarini birlashtirgan gibrid strategiyadir. ChatGPT-4 va Claude 3 kreativlik va tuzilma uchun, Elicit va Consensus ishonchli manbalar uchun, Writefull va Grammarly esa sifatli tahrir uchun eng yaxshi tanlovlardir.

Biroq, texnologiya qanchalik kuchli bo‘lmasin, ilmiy tadqiqotning yuragi – bu insoniy intellekt, tanqidiy fikrlash va etik mas’uliyatdir. Sun’iy intellekt olimning o‘rnini bosuvchi emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi qudratli “koprotsessor”dir. Undan foydalanishda shaffoflik, ehtiyotkorlik va doimiy tekshiruv tamoyillariga amal qilish orqaligina ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Kelajak ilmiy yutuqlari inson va mashina hamkorligining eng yuksak namunasiga aylanishi kutilmoqda.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Lund B., Wang T. (2023). *Chatting about ChatGPT: how may AI and GPT impact academia and libraries?* *Library Hi Tech News*. – №40(3). – P. 26–29. <https://doi.org/10.1108/LHTN-01-2023-0009>.

2. Stokel-Walker C. *Chatbots in science: What can they do for you?* *Nature*. – 2023. – №615(7951). – P. 188–191. <https://doi.org/10.1038/d41586-023-00766-0>

3. Boiko D., MacKnight R., Gomes C. *Emergent Autonomous Scientific Research Capabilities of Large Language Models*. *arXiv preprint arXiv:2304.05332*. – 2023.

4. Thorp H. *ChatGPT is fun, but not an author.* *Science.* – 2023. – №379(6630), 313. <https://doi.org/10.1126/science.adg7879>.
5. Ehsan M., et al. *The Role of AI in Academic Writing: A Comprehensive Review of Tools and Ethics.* *Journal of Academic Librarianship.* – 2024. – №50(2). – P. 112–125.
6. Wang Y., Liang Y. *Hallucination in Large Language Models for Scientific Writing: Detection and Mitigation Strategies.* *IEEE Transactions on Knowledge and Data Engineering,* 2024.

**Ziyodullo Isokov**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyati instituti  
“Kutubxona-axborot faoliyati” kafedrası  
dotsenti, tarix fanlari nomzodi  
E-mail: ziyod.isok@gmail.com*

**MIXXAT YOZUVLI LOY TAXTACHADAN – “BOOKLAB”GACHA:  
KITOBAT MADANIYATI EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY  
TRANSFORMATSIYALAR.**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada insoniyat sivilizatsiyasining eng buyuk ixtirosi – yozuv va kitobat madaniyatining paydo bo'lishidan to bugungi raqamli texnologiyalar davrigacha bo'lgan tarixiy yo'li tahlil qilinadi. Tadqiqotda mixxat yozuvlari, qog'ozning kashf etilishi va kutubxonalarning ijtimoiy institut sifatidagi roli o'rganiladi. Shuningdek, maqolada Yangi O'zbekistonda mutolaa madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan davlat siyosati va “BookLab” kabi innovatsion loyihalarning ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** mixxat yozuvi, piktografik yozuv, logografik yozuv, finikiya yozuvi, papirus, pergament, kutubxona, ekslibris, fixrist, xattot, Bayt-ul Hikma, litografiya, tipografiya, jadid, BookLab.*

**FROM CUNEIFORM CLAY TABLETS TO “BOOKLAB”: THE  
EVOLUTION OF BOOK CULTURE AND MODERN  
TRANSFORMATIONS**

***Abstract.** This article analyzes the historical trajectory of one of humanity's greatest inventions – writing and book culture—from its origins to the contemporary era of digital technologies. The study examines cuneiform script, the invention of paper, and the role of libraries as fundamental social institutions. Furthermore, the article provides a scientific perspective on state policies aimed at enhancing reading culture in New Uzbekistan and highlights the significance of innovative projects such as “BookLab”.*

**Keywords:** *cuneiform, pictographic writing, logographic writing, phoenician alphabet, papyrus, parchment, library, ex libris, fihrist (register), calligrapher, Bayt al-Hikma (House of Wisdom), lithography, typography, jadids, BookLab.*

Ma'lumki, bashariyat tarixi – bu axborotni saqlash va uzatish usullarining takomillashib borishi tarixi hamdir. Qadimda old Osiyoning ikki daryo oralig'idagi sivilizatsiya markazlari bo'lgan Shumer, Akkad, Bobil va Ossuriya davlatlarida nam loy taxtachalariga bitilgan ilk belgilaridan tortib, bugungi kunning yuqori texnologik “BookLab” markazlarigacha bo'lgan yo'l nafaqat texnik taraqqiyotni, balki insoniyat tafakkurining o'sish darajasini ham ko'rsatib beradi. Tarixchi olim Vere Gordon Childe ta'kidlaganidek yozuvning paydo bo'lishi tom ma'noda insoniyatni “tarixgacha bo'lgan davr”dan “tarixiy davr”ga olib o'tdi [1, 22-b]. Insoniyat tarixida yozuvning paydo bo'lishi tasodif emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat edi. Miloddan avvalgi IV ming yillikning oxirlarida Mesopotamiyada (Ikki daryo oralig'i) shahar-davlatlarning shakllanishi, murakkab xo'jalik tizimi va savdo aloqalari axborotni xotirada saqlash imkoniyatidan tashqariga chiqdi. Ilk yozuv shakli – piktografiya (tasviriy yozuv) bo'lib, bu yozuvning dastlabki shakllari mezeolit va neolit davrida paydo bo'lgan. Odamlar o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, xohish-istaklarini turli rasmlar, suratlar orqali bir-birlariga yetkazganlar, yozuvning bu turi juda katta hududda va uzoq muddat ishlatilgan. Piktografik yozuv vaqt o'tishi bilan o'rnini undan mukammalroq va murakkabroq bo'lgan logografik yozuv egallagan. Bu istiloh lotincha “logos” – so'z, mantiq va “grafo” – yozaman so'zlaridan shakllangan. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning o'rtalarida va birinchi ming yillikning boshlarida ilgarigi yozuvga nisbatan qulayroq va soddaroq bo'lgan yozuv shakllana boshlagan. Bu yozuvda so'zlar hamda ayrim sodda jumlar bo'g'inlarni bildiruvchi belgilar yordamida ifodalangan. Shuning uchun bu yozuv “bo'g'in yozuvi” deb ataladi. Yozuvning bu turkumiga kiruvchi mixxat deb atalgan yozuv nisbatan keng tarqalgan. Uni miloddan avvalgi to'rtinchi mingyillikning oxirida Mesopotamiyada yashagan

shumerlar o'ylab topganlar. Mixxat yozuvidagi elementlar asosan mix yoki pona shaklini eslatgani uchun mixxat deb nom olgan. Mixxat miloddan avvalgi birinchi mingyillikning oxirlarigacha bobiliylar, ossuriylar, xetlar, finikiylar tomonidan qo'llanib kelingan. Mixxat yozuvini ilk bor 1802-yilda nemis olimi Georg Fridrix Grotefend qisman, keyinchalik esa Genri Roulinson to'liq o'qishga muvaffaq bo'lgan. Bu kashfiyot insoniyatning 3000 yillik yo'qolgan tarixini qaytarib berdi. Tadqiqotchilar yozuv tarixini 4-bosqichga bo'ladilar oxirgi bosqich bu alifboli yozuvning paydo bo'lishi bo'lib u Finikiya yozuvidir. U 22 ta undosh va yarim undosh belgilardan iborat bo'lgan. Finikiya alifbosida misr ierogliflarida bo'lmagan tovush belgilari ham bo'lgan. Finikiya yozuvi insoniyat tarixida qayd etilgan dastlabki fonetik yozuv tizimlaridan biridir. U miloddan avvalgi X asr atrofida paydo bo'lgan va zamonaviy alifbo hamda boshqa yozuv tizimlarining ko'pchiligi uchun asos bo'lgan. U konsonantlik (undosh tovushlarga asoslangan) tamoyiliga ega bo'lgan, ya'ni so'zlarni yozish uchun faqat undosh tovushlar ishlatilgan. Unlilarning ma'nosi o'quvchining umumiy hayotiy tajribasiga asoslanib tushunishiga qoldirilgan. Matn o'ngdan chapga qarab yozilgan. Finikiya yozuvi ko'plab alifbo yozuvi tarmoqlariga asos solgan va bugungi kunda dunyodagi deyarli barcha alifbo yozuvlari (Yaponiyaning kana va ehtimoliy koreys yozuvidan tashqari) ildizi aynan Finikiya yozuviga borib taqaladi [2, 24–28-b].

Yozuvlarning paydo bo'lishi bilan bir davrda ularning yozish uchun turli materiallar ham kashf etila boshlandi. Dastlab Mesopotamiyada loy taxtachalar keyinroq Misrda Papirus (o'simlikdan), Pergamda (hozirgi Turkiya) esa Teri – pergament, Xitoyda bambuk tayoqchalari, orakul suyaklar ya'ni hayvon suyaklari yoki Toshbaqa qobiqlari kashf etildi. Pergament kitobni buklash va "kodeks" (sahifali kitob) shakliga keltirish imkonini berdi. Dastlabki yozuvlar aynan Loy taxtachalarga, Papirusga hamda Teriga, ya'ni pergamentlarga bitildi. Bu dunyoni o'zgartirgan kashfiyot qog'oz kashf etilgunga qadar davom etdi. Shu tarzda sekin astalik bilan katta bir tarixiy davrda to'plamlar, kodekslar va nihoyat biz bilgan kitob yaratildi. Kitob esa bu tarixning asosiy tashuvchisi, bilimlar

xazinasini va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy ko'priklarni saqlash uchun yaratilgan. Zero, Frensis Bekon ta'birini bilan aytganda "Kitoblar – vaqt to'liqlarida sayohat qiladigan va qimmatbaho yuklarini avloddan-avlodga ehtiyotkorlik bilan olib yuradigan fikrli kemalardir". Turli ko'rinishdagi kitoblarning yaratilishi esa qadimgi dunyoda ilk kutubxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Kutubxonalar qadimda turli hududlarda turlicha nomlangan bo'lsa-da, uning hozirgi ilmiy ist'emoldagi nomlanishi "Kutubxona" (biblioteka) so'zi yunoncha "biblios" – kitob va "teke" – ombor (kitob saqlanadigan joy) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, zamonaviy tilimizga o'z madaniyati bilan mashhur bo'lgan Qadimgi Yunonistondan kirib kelgan.

Qadimgi Misrda butun mamlakat bo'ylab turli turdagi ko'plab kutubxonalar joylashgan bo'lib ular saroy kutubxonalarini, ibodatxona kutubxonalarini, shuningdek, "Papyrus uylari" va "Hayot uylari" deb ataluvchi kutubxonalar mavjud bo'lgan. "Hayot uylari"dagi ruhoniylar mumiyolash (balzamlash), ibodatxonalar va saroylarni badiiy bezash ishlari bilan shug'ullanishgan. Miloddan avvalgi taxminan 1300-yilda Misrning qadimiy poytaxti – Fiva shahri yaqinida asos solingan Ramzes II ning yirik kitob ombori kirish qismida "Qalb dorixonasi" degan yozuv bo'lgan. Ushbu kutubxonada 20 mingga yaqin papyrus to'plamlari yig'ilgan edi [3, 41–50-b].

Kutubxonachilik tarixini esa qadimgi Ninaviya (hozirgi Iroq hududi) shahridagi Ossuriya podshohi Ashshurbanipal kutubxonasisiz (mil. avv. 668–627 yy.) tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu maskan bugungi zamonaviy kutubxonalarining eng qadimgi prototipidir. Ushbu kutubxonada 30 000 dan ortiq loy taxtachalar mavjud bo'lib, ular fan sohalari (astronomiya, tibbiyot, matematika, adabiyot, sehrgarlik) bo'yicha alohida xonalarga tizimlilik asosida joylashtirilgan. Bundan tashqari har bir taxtachaning orqasida "ekslibris" (egasining belgisi) va uning qaysi seriyaga tegishli ekanligi yozilgan bo'lib ilk bor ilmiy adabiyotlarni kataloglashtirish ham shu yerda qo'llanilgan. Shunisi e'tiborga molikki podsho Ashshurbanipal o'z kotiblarini Mesopotamiyaning barcha burchaklariga yuborib,

qadimgi matnlarning nusxasini ko'chirtirib kelgan. Bu bugungi kundagi "arxiv ishi"ning ilk ko'rinishidir. Ushbu kutubxonalarda kitoblar ikki tilda, ya'ni shumer va akkad tillarida yozilgan va ushbu tillarning ilk lug'atlari ham mavjud bo'lgan. Insoniyatning ilk badiiy asari hisoblangan "Gilgamish dostoni" ham aynan shu kutubxonada 12 ta loy taxtachada saqlangan. Bu asar orqali biz qadimgi insonlarning hayot, o'lim, do'stlik va toshqin haqidagi qarashlarini o'rganamiz. Bu kitobning shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar (loy, qog'oz yoki raqamli), uning ichidagi axborot va g'oya birlamchi ekanligining isbotidir.

Antik dunyoning eng mashhur kutubxonalaridan biri bu, albatta, Misrning Iskandariya shahridagi Iskandariya kutubxonasidir. Bu kutubxona miloddan avvalgi 323-yilda Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng Misr ustidan nazorat uning sobiq generali Ptolomey I qo'liga o'tadi. U Iskandariya shahrida yangi intellektual markaz yaratishga intildi. Natijada qadimgi dunyoning haqiqiy javohiri – Iskandariya kutubxonasi barpo etildi. Ushbu kutubxona javonlarida 500 000 dan ortiq papirus o'ramlari saqlangan bo'lib, ular tarix, huquqshunoslik, matematika va fan sohalariga oid matnlardan iborat edi. Antik dunyo ilm-fani va madaniyatining ko'plab atoqli namoyandalari Iskandariya kutubxonasining kitobxonlari bo'lishgan. Afsuski, miloddan avvalgi 48-yilda Yuliy Sezar Misr hukmdori Ptolemey XIII ga qarshi jang paytida Iskandariya bandargohiga o't qo'yadi va kutubxona butunlay yonib ketadi.

Miloddan avvalgi II asrda podshoh Evmen II tomonidan asos solingan qadimgi Pergam kutubxonasi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Kutubxona binosi shaharning markaziy maydonida joylashgan edi. Kitoblar to'rtta ulkan zalga joylashtirilgan bo'lib, bosh zalning markazida, marmar poydevor ustida inson bo'yidan bir yarim baravar baland bo'lgan Afina ma'budasining haykali qad ko'targan edi. Kitob omboridagi o'ramlar uchun mo'ljallangan tokchalar (nishalar) kedr yog'ochidan ishlangan edi, chunki bu daraxt qo'lyozmalarni hasharotlardan himoya qiladi deb hisoblangan. Kutubxona shtatida nusxa ko'chiruvchilar, tarjimonlar ishlagan va maxsus katalog mavjud bo'lgan. Pergam kutubxonasi faqat

fondining kattaligi bo'yicha Iskandariya kutubxonasidan keyin turardi – uning fondi 200 ming nusxadan iborat edi. Fondning eng katta qismini tibbiyotga oid risolalar tashkil qilgan, chunki Pergam o'sha davrda tibbiyot markazi hisoblangan.

Pergam kutubxonasida ko'plab javonlar bilan o'ralgan keng mutolaa zali bo'lgan. Tashqi devorlar va javonlar orasidagi bo'shliq havoning aylanishiga xizmat qilgan. Bu Anatoliyaning issiq iqlimida kutubxonani ortiqcha namlikdan saqlash maqsadida qilingan bo'lib, qo'lyozmalarni asrashning ilk texnologiyalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Bir safar Pergam kutubxonasi Aristotelning asarlarini sotib olish uchun ularning vazni qancha bo'lsa, aynan shuncha miqdorda oltin bergan. Raqobatdan qo'rqqan Misr hukmdorlari Pergamga papirus eksport qilishni taqiqlab qo'yadilar. Shunda pergamlilar yozuv uchun o'z materiallarini ixtiro qiladilar. Bu – pergament (pergam) edi. U ulochalar va qo'zilarning maxsus usulda urib yumshatilgan, qirilgan va silliqlangan terisidan tayyorlanardi.

Pergamentdan o'ramlar (svitoklar) yasab yopishtirilmasdi, balki varaqlar taxlanib, daftarlar holiga keltirilgan va kitob shaklida tikilgan. U papirusdan ancha qimmat edi, ammo bardoshliroq bo'lgan. Bundan tashqari, pergamentni hamma joyda ishlab chiqarish mumkin edi, papirus esa faqat Misrda yetishtirilardi. Shuning uchun o'rta asrlarga kelib, Misrdan papirus olib kelish to'xtagach, butun Yevropa pergamentga o'tdi.

Antik dunyoda er yuzining turli hududlarida o'nlab kutubxonalar barpo etilgan bo'lib bularga qadimgi Bobildagi "Nippur" kutubxonasi, Qadimgi Gretsiyaning Kots orolidagi "Kots" kutubxonasi, Qadimgi Misrning "Edfu" kutubxonasi, Iroqning qadimgi Sosoniylar imperiyasining Gondishapur shahridagi "Gandishapur" kutubxonasi, Suriyaning qadimgi Ebla shahridagi "Ebla" kutubxonasi hamda qadimgi Ugarit shahridagi "Ugarit" kutubxonasi, Qadimgi Falastindagi "Kesariy" kutubxonasi, G'arbiy Afrika hozirgi Mali davlati hududidagi "Timbuktu" kutubxonasi, Qadimgi Hindistonning Gandhar (hozirgi Pokiston hududi) dagi "Taksila" kutubxonasi hamda Baxira shahridagi "Nalanda"

(bu kutubxona o'z davrida "Dharmagandja" – ya'ni "Haqiqat xazinasi" nomini olgan) kutubxohasi, Qadimgi Xitoydagi "Xanlin" kutubxonalarini olishimiz mumkin. Ammo ushbu kutubxonalarining birortasi ham hozirgi kungacha etib kelmagan. Ushbu kutubxonalarda saqlangan ba'zi kitoblarga hozirgi kunda dunyoning turli muzeylarida saqlanmoqda.

Dunyo kitobat madaniyatidagi haqiqiy inqilob bu qog'oz kashfiyoti bilan bog'liq. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra qog'oz dunyoda birinchi bor Xitoyda kashf etilgan, qog'ozni eramizning I asrida yoki 105-yillarida Say Lun ixtiro qilgan. U milodiy II asrda yashagan Sharqiy Xan sulolasi imperatorlari saroyining amaldori bo'lgan. Milodiy 105-yilda u imperatorga daraxt po'stlog'idan yasalgan qog'ozni taqdim etgan. Xitoyda qog'oz ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo tut daraxti po'stlog'ining tolalari bo'lgan. Qog'oz tez orada ipak va bambuk plastinkalarni kundalik hayotdan siqib chiqardi. Qog'oz ishlab chiqarish Xitoyda ipak matosi texnologiyasi kabi qattiq sir saqlangan. Bir qator tarixchi olimlarning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, bu texnologiyani Markaziy Osiyoga milodiy 751-yilda Talas jangida qo'lga tushgan xitoylik hunarmandlar olib kirishgan. Bu jangda arab sarkardasi Ziyod ibn Solih qo'shinlari unga qo'shilgan so'g'd va turk qo'shinlari bilan birgalikda sarkarda Gao Syan-Chji boshchiligidagi xitoy qo'shinlari ustidan g'alaba qozongan. Jang natijasida Xitoy tomoni katta talafot ko'rgan, bir necha ming kishi halok bo'lgan va asir olingan. Ushbu asirlar orasida qog'oz ishlab chiqarish tajribasiga ega bo'lgan hunarmandlar ham bor edi. Shu tariqa Xitoy qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi Markaziy Osiyoga kirib keldi va dunyoga Samarqand qog'ozini nomi bilan mashhur bo'ldi. X asr oxiriga kelib, Samarqand qog'ozini islom davlatlarida papirus va pergamentni to'liq almashtirdi. Yaqin Sharqqa qog'ozning kiritilishi, xususan, Bag'dodda qog'oz fabrikalarining tashkil etilishiga olib keldi, bu erda texnikalar mahalliy materiallar va ehtiyojlarga mos ravishda takomillashtirildi. 12-asrga kelib qog'oz Yevropaga yetib bordi va madaniy inqilob qildi. Hayvon terisidan pergament tayyorlash juda qimmat va mashaqqatli jarayon ekanligini hisobga olsak, xitoyliklar tomonidan mutlaqo

boshqacha qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasining yaratilishi va aynan shu texnologiyaning keyinchalik tarqalishi ushbu Yevrosiyo mintaqasi uchun katta sivilizatsion ahamiyatga ega bo'lgan.

Qog'oz kashfiyoti kitobat madaniyatida qo'lyozma va toshbosma kitoblar davrini boshlab berdi. Islom olamida qo'lyozma kitoblarning turli xil xamsa, devon, bayoz, tazkira, majmua, kachkul, g'azaliyot, muxammasot, qasoid, ruboiyot, fardiyot, mufradot, muqattaot, muraqqa, munshaot, muntaxab, risola, qit'a, urjuza, muxtasar, qomus, fixrist, lug'at, farhang, tafsir, sharh, izoh kabi shakllari paydo bo'ldi [4, 201-209-b]. Qo'lyozma kitoblar bir necha kasb egalarining hamkorlikdagi mehnati natijasida yuzaga kelgan. Qo'lyozma qo'ldan to'la chiqqunga qadar bir necha kasb egasiga o'tgan. Dastlab qog'ozgar qog'ozni ma'lum bichimda, turli rangda tayyorlab bergan. Bir necha yozuv uslubini egallagan xattot (kotib) undan olib matnni ko'chirib chiqqan. Navbatdagi yumush bilan naqqosh, musavvir shug'ullangan. U kitob sahifalariga turli naqshlar, asar mazmunidan kelib chiqib miniatyuralar ishlagan, sahifalarni hoshiyalar bilan o'ragan. O'ta qimmatli qo'lyozmalar muzahhib qo'lga ham topshirilgan. U sahifalar, hoshiyalarni zarhal rang bilan bezagan. Bu ishlar bitgandan keyin sahhof (muqovasoz) kitobni jildlagan. Kitob muqovalari, odatda, teri, taxta, kartondan tayyorlanib, ularga o'yama naqshlar berilgan. Shu tariqa Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda kitobat ishi atrofida xattotlik, qog'ozgarlik, ohorchilik, muxrokashlik, murakkabchilik (siyohchilik), musavvirlik, naqqoshlik, lavvohlik, muzahhiblik, sahhoflik va jildsozlik singari rivojlangan hunarmandchilik turlari shakllandi. Qo'lyozma kitoblar yaratilishida Islom olamida miniatyura san'ati vujudga keldi va mislsiz taraqqiy etdi. Miniatyura san'atining rivojlanishida Kamoliddin Behzodning o'rni beqiyos bo'ldi.

Umuman olganda, bu davr Sharq renesansi davri edi. Bu davrda Markaziy Osiyo olimlari dunyo sivilizatsiyasiga mislsiz hissa qo'shdilar. Ilm-fanning turli sohalarida ko'plab ilmiy kashfiyotlar qilindi. Xuddi shu davrda Islom xalifalik poytaxti Bag'dodda xalifa Horun ar-Rashid tomohidan "Bayt-ul Hikma" ya'ni

“Donishmandlik uyi” tashkil qilindi. Bu erda rasadxona hamda dunyo xalqlarining turli tillaridagi qadimgi qo‘lyozmalar kolleksiyasiga ega bo‘lgan, yangi qo‘lyozmalar bilan uzluksiz to‘ldirib turilgan boy kutubxona faoliyat ko‘rsatdi. Bag‘dodda qog‘oz ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi eng ahamiyatli qo‘lyozma kitoblarni qayta ko‘chirish va ko‘paytirish ishini ancha takomillashtirish va jadallashtirish imkonini berdi. Bu bilan kutubxona qoshidagi maxsus xattotlar guruhi shug‘ullanardi. IX asr boshlarida xalifa al-Ma‘mun davrida “Donishmandlik uyi” da katta miqyosda ilmiy va tarjimonlik faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu donishmandlik uyi 1258-yilda mo‘g‘ullar bosqinida yo‘q qilingunga qadar faoliyat yuritadi. XI asrda xorazmshoh Abul-Abbos Ma‘mun II tomonidan Xorazm poytaxti Gurganjda “Dorul hikma va ma‘rifa” yoki Xorazm Ma‘mun akademiyasi tashkil etildi. Ma‘rifatparvar hukmdor Ma‘mun II tomonidan saroyda kutubxona tashkil etildi va qo‘hna sharqning turli shaharlaridan noyob qo‘lyozmalar keltirildi. XI asrning 1017-yiliga qadar ilmiy faoliyat yuritgan ushbu ilmiy maskanda o‘z davrining dolzarb ilmiy izlanishlari olib borilgan. Bu tarixiy davrda nafaqat xalifalik markazi bag‘dod shahrida balki Basra, Mosul, Nishopur, Isfaxon, Hirot, Balx shaharlari ham o‘z kutubxonalari bilan mashxur bo‘lgan [5, 14–17-b]. Tadqiqotchilarning qayd etishicha birgina Marv shahrida XII–XIII asrlarda 10 ta kutubxona mavjud bo‘lgan [6, 5–16-b]. Islom olami yana o‘zining “Vaqq kutubxonalari” bilan mashxur bo‘lgan. Ushbu kutubxonalari asosan madrasalar hamda jome masjidleri ixtiyorida bo‘lib ushbu kitoblardan xohlagan odam foydalanishi mumkin bo‘lgan [7, 50–55-b].

Tarixiy manbalar Buxoroda Somoniylar davrida (X asr), Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida (XVI–XVII asrlar), Buxoro amirligi davrida (XVIII–XIX asrlar), Samarqandda Amir Temur va uning nabirasi Ulug‘bek davrida, Hirotida Shohruh, Boysunqur, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida (XV–XVI asrlar), Marvda (XI–XII asrlar), Qo‘qonda (XVIII–XIX asrlar) qo‘lyozma kitoblarni ko‘paytirish va ulardan nusxa ko‘chirish bo‘yicha saroy kutubxonalari faoliyat ko‘rsatganidan dalolat beradi. XI–XII asrlarda Xorazmshohlar ham o‘z

kutubxonalariga ega bo'lib, bu an'ana Xiva xonligi davrida (XVI–XIX asrlar) ham davom ettirilgan [8, 60–65-b].

Shu o'rinda qayd etish kerakki, katolik cherkovining bir necha marotaba Sharqqa uyushtirgan salb yurishlaridan so'ng Yevropalikalar tomonidan ko'plab foydali bilimlar o'zlashtirildi. O'rta asrlarga kelib endilikda Yevropa taraqqiyot sari yuz burdi. Yevropada shu davrgacha hukm surib kelgan "Kitob -faqat cherkovda turishi kerak"- degan tushunchadan voz kechiladi. Yevropaning turli shaharlarida bugungi kungacha faoliyat yuritib kelayotgan mashhur kutubxonalarning tamal toshi o'sha davrda qo'yildi. Bularga misol qilib hozirgi kundagi mashhur "Vatikan kutubxonasi"ga asos bo'lgan "Papa kutubxonasi (Papal Library), Angliyaning Oksford universitetining asosiy kutubxonasi bo'lgan "Bodleian kutubxonasi" (Bodleian Library), Italiyadagi "Papyruslar villasi" (Villa of the Papyri) kutubxonasi, Parijdagi "Fransiya Milliy kutubxonasi", Pragadagi "Chexiya Milliy kutubxonasi", Venadagi "Avstriya Milliy kutubxonasi", Valetta shahridagi "Malta Milliy kutubxonasi" va boshqa kutubxonalarni ko'rsatish mumkin.

Ming yillar davomida kitob chop etish qo'lyozma kitoblar davridan toshbosma (litografiya) kitoblar davriga o'tila boshladi. Litografiya kashfiyotchilari dastlab Xitoyliklar bo'lsa-da keyinchalik bu yo'nalishda Yevropa ancha ilgari ketdi. 1436-yilda Germaniyada Iogann Gutenberg tomonidan kitob bosish qurilmasining yaratilishi esa tipografiya sohasidagi inqilob yasadi. Biroq bu usulda kitob chop etish sharq xususan islom mamlakatlarida bir oz qiyinroq kechdi. Ayniqsa, din va ilohiyot mavzularidagi kitoblarni toshbosma usulda chop etish umuman taqiqlangan edi. Ilk Yevropacha tipografiya (bosma matbaa) Istanbul shahrida 1494-yilda ochilgan bo'lib ular asosan Arman va Grek tipografiyasi edi. Bundan tashqari XVIII asrda Usmonli imperiyasi hududlarida katolik xristianlar, armanlar va greklar jamoalariga qarashli bo'lgan o'nlab bosmaxonalar mavjud edi. Ammo Usmonli imperiyasida sharq tillarida bosma kitoblarni nashr etish davlat tomonidan taqiqlangan edi. Faqat XIII asrning boshlariga kelib Usmonli sultoni Ahmad III ning 1727-yil 5-maydagi Turkiyada bosma kitob matbaachiligini joriy

etish to'g'risidagi farmonidan keyingina birinchi turk matbaachisi Ibrohim Mutafarrih o'sha yil dekabrda Istanbul shahrida dastlabki turk bosma matbaasini ochishga muvaffaq bo'lgan. Bu kabi mahalliy aristokratiya va musulmon din peshvolari tomonidan bosma arab imlosidagi matnni xushlamaslik fenomeni Turkistonda ham mavjud edi. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Turkiston kitob bozoriga ham xorijda chop etilgan toshbosma kitoblar sekin asta kirib kela boshlaydi. Ushbu kitoblarning asosiy qismini Istanbul, Dehli, Tehron va Qozon shaharlaridagi “Karimiy”, “Panjobiy”, “Haydariy”, “Muzaffariy”, “Muhammadiy”, “Hasaniy”, “Nasimiy”, “Islomiya”, “Intizomiy”, “Safdariy”, “Yusufiy”, “Mohtobiya”, “Hamidiya”, “Husomiy” va boshqa litografiyalari nashrlari tashkil etardi.

Turkistonda toshbosma usuli bilan Kitob chiqarish Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin tarqala boshlandi. Dastlab 1868-yilda Toshkentda Turkiston harbiy okrugi shtabining bosmaxonasi tashkil etilgan bo'lsa so'ngra Turkistonning boshqa shaharlarida ham xususiy litografiyalari tashkil etildi. Bulardan Otajon Abdalov (Xivada), Semyon Laxtin (Toshkentda), G'ulom Hasan Orifjonov (Toshkentda) litografiyalari mashhur edi. Shaxsiy bosmaxonalar o'rtasida G'ulom Xasan Orifjonovlarning tosh bosmaxonasi alohida ahamiyatga ega bo'lib u o'zbek tilida kitob chop qiladigan birinchi bosmaxona bo'lgan. O'sha davrlarda Namanganda jadid ma'rifatparvari Ishoqxon To'ra ham “Ishoqiya” nomi bilan bosmaxona tashkil etgan edi. XX asrning boshlariga kelib Turkistonda turli sohalarga oid kitoblarni nashr qilish ommalashdi. 1868-dan 1910-yillargacha Turkistonda nashr etilgan kitoblarning aksariyati rus tilida chop etilgan bo'lsa, 1912–1915-yillarga kelib rus tadbirkorlarining korxonalari asosan o'zbekcha kitoblar nashr eta boshladi. Ma'lumotlarga qaraganda o'sha davrda 1868–1917-yillarda Turkistonda 70 dan ortiq bosmaxonalar faoliyat yuritgan edi [9, 82-b].

Bu davrga kelib Turkistonda yangicha kutubxonalar tashkil etila boshlaydi. Dastlab mustamlakachi hukumat tomonidan 1870-yilda “Turkiston ommaviy

kutubxonasi” tashkil etiladi. Bu kutubxona ancha vaqt Turkiston general gubernatorining nazoratida bo‘lgan. O‘sha davrda Turkistonda milliy ko‘rinishdagi ommaviy kutubxonalari hamda kitob uylari ochila boshlaydi. Ushbu kutubxonalarning aksariyati ma’rifatparvar jadidlar tomonidan tashkil etiladi. Bunga misol qilib Abdulhamid Cho‘lponning Andijondagi “Turon kutubxonasi”, Mahmuxo‘ja Behbudiyning “Kutubxonai Behbudiya” kutubxonalarini ko‘rsatish mumkin. Ta’kidlash joizki, bu davrda Turkistonda bir qancha shaxsiy kutubxonalar, hamda turli ilmiy jamiyatlar kutubxonalari ham mavjud bo‘lgan [10, 10–42-b]. Ushbu kutubxonalarning faoliyati xususida o‘sha davr davriy matbuotlarida ham ko‘plab ma’lumotlar uchraydi [11, 296-b].

1917-yilda Rossiya imperiyasida oktyabr inqilobi yuz berdi. Hokimiyatga kelgan bolsheviklar ko‘p sohalarda turli islohotlarni amalga oshira boshladi. Bu o‘zgarishlar Turkiston o‘lkasini ham chetlab o‘tmadi, albatta. 1924-yilga kelib Turkistonda 616 ming kitob fondiga ega bo‘lgan 122 ta kutubxona qariyb 58 ta qiroatxona mavjud bo‘lgan. Ushbu kutubxonalarda o‘quvchilar soni ham yildan yilga oshib bordi. Endilikda ushbu kutubxonalarda “Yangicha turmush”, “Fan va din”, “Fan va turmush”, “Kitob haftaligi” kabi siyosiy-mafkuraviy va ilmiy mavzularga oid tadbirlar o‘tkazila boshlandi. Ammo o‘lkaning barcha hududlarida ham sharoit bir xil emas edi. Ko‘pchilik joylarda kutubxonalar fondi doimiy to‘ldirilib borilmas, kitoblarning aksariyati rus tilida bo‘lganligi bois ayniqsa qishloqda yashovchi mahalliy aholini kutubxonalarga jalb etish mushkul edi. 1928-yilda qariyb to‘rt million aholisi qishloqlarda yashovchi Turkiston o‘lkasida bor yo‘g‘i 44 ming kitob fondiga ega bo‘lgan 74 ta kutubxona xizmat ko‘rsatgan [12, 684–691-b]. 1937-yilga kelib Respublikamizda “Respublikada kutubxona ishi to‘g‘risida”gi qaror va ushbu qarorga muvofiq kutubxonachilik texnikumi ochiladi. Ushbu chora tadbirlar natijasi o‘laroq 1937-yilda Respublikamizda 895 ta kutubxona faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1941-yilga kelib ular soni 1748 taga etadi. Urush yillarida ham Respublikamizdagi 440 ta kutubxona o‘z faoliyatini to‘xtatmadi. Sobiq sovet hukumatining “Qayta qurish” siyosati ijtimoiy-iqtisodiy

sohalari kabi kutubxonachilik sohasi ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Bu davrga kelib Respublikamizdagi 100 ga yaqin kutubxonalar qisqartirilgan. Bu jarayon 2000-yilga qadar davom etib Respublikamizdagi kutubxonalar soni 15,4 foizga qisqargan [13, 194-b]. Mamlakatimizda ushbu sohadagi vaziyat 2017-yilga kelibgina tubdan o'zgardi. Yangi O'zbekistonda kitobxonlik shunchaki qiziqish emas, balki milliy strategiya darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-son qarori, hamda 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-sonli qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar doirasida mamlakatimizda bir qancha reja va dasturlar qabul qilindi. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan 2019-yil 19-martda "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish to'g'risida" videoselektor yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Muhim tashabbuslarning to'rtinchisi aynan aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha bo'lib, ushbu tashabbus doirasida respublikamizning barcha davlat va nodavlat tashkilotlarida kitobxonlik keng targ'ib qilina boshlandi. Ushbu tashabbus doirasida o'tkazilgan "Yosh kitobxon" tanloviga 3 millionga yaqin yoshlar qamrab olindi. Tanlov natijalariga ko'ra, g'oliblikni qo'lga kiritgan 12 nafar yosh kitobxonga Prezident sovg'alari topshirildi. Shuningdek, kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizda "Eng faol kitobxon", "Kitob mening do'stim", "Kitobxon yoshlar" kabi loyiha va tanlovlar o'tkazilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda 16 milliondan ziyod kitob jamg'armasiga ega bo'lgan 201 axborot-kutubxona markazi ishlab turibdi. Ushbu axborot – kutubxonalar a'zolari

soni esa 1 million 200 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Respublikamiz kutubxonalariga faqatgina 2020-yilning o'zida 150 mingdan ortiq kitoblar yetkazib berilgan. Mamlakatimizda o'tkazilgan "Ma'rifat karvoni" tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi. 2023-yilda "Yoshlar uchun – ming kitob" loyihasini amalga oshirish bo'yicha alohida qaror qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, kelgusi yillardan boshlab farzandlarimizga rag'bat beradigan eng mashhur ilmiy-ommabop kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilib, maktab va kutubxonalarga bepul tarqatish yo'lga qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda nashirlik ishining zamonaviy huquqiy asoslari yaratilgan. O'tgan davr mobaynida 10 dan ortiq qonunlar, 30 dan ziyod qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bugungi kunda Respublikamizda 1677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan bo'lib, ushbu nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ular 5 yil mobaynida turli soliqlardan ozod qilingan.

Mamlakatimiz so'nggi yillarda kutubxonachilik va mutolaa madaniyatini oshirishga bag'ishlangan qator xalqaro tadbirlarga mezbonlik qildi. Jumladan, 2024-yilning 16-17-may kunlari Samarqand shahrida kutubxonachilik faoliyatiga bag'ishlangan Xalqaro forum, Jizzaxda esa "Central Asia 2024: fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari" mavzusida an'anaviy XVII xalqaro konferensiyasi o'tkazildi. Mazkur tadbirlarda AQSH, Armaniston, Belarus, Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya va Tojikiston kabi 11 ta davlatdan kelgan 42 nafar xorijiy mutaxassis, 400 dan ortiq mahalliy ishtirokchi – axborot-kutubxona xodimlari, kutubxonachilar, shuningdek, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari qatnashdi. Ta'kidlash joizki, bugungi globallasuv va raqamli transformatsiya davrida kitobxonlik madaniyati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasida uchinchi Renessans poydevorini yaratish strategik maqsad qilib qo'yilgan bir vaqtda, o'tmish kitobat an'analarini o'rganish va ularni zamonaviy kutubxonachilik tizimiga integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi [14]. Bugungi kunga kelib barcha sohalarda bo'lgani kabi

kitobat madaniyati ham an'anaviylikdan innovatsiya tomon yuz burmoqda bu – BookLab platformasidir. Xo'sh nima uchun BookLab? Chunki zamonaviy kitobxon faqat matnni o'qib qo'ymaydi. U kitob ustida eksperiment qiladi: tahlil qiladi, muhokama qiladi, raqamli resurslardan (QR-kodlar, audio-kitoblar) foydalanadi. Bugungi O'zbekistonda ochilayotgan kutubxonalar – bu bilim laboratoriyalaridir. Bu yerda qadimiy mixxatdagi mantiq va bugungi sun'iy intellekt birlashadi. Bir so'z bilan bularni “smart kutubxonalar” – deb atash mumkin. Bugungi “BookLab” konsepsiyasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kutubxona endilikda faqatgina kitob saqlash ombori emas, balki ijodiy fikrlash, tahlil qilish va yangi g'oyalarni sinab ko'rish maydoni ya'ni “Ijtimoiy laboratoriya”ga aylanadi. Ushbu kutubxonalarda endilikda “QR-kodli javonlar” va “NFC, RFID texnologiya”lari keng qo'llanilmoqda. Bir so'z bilan aytganda insoniyatning loy taxtachalarga ilk bor mixxat uslubida belgi tushirganidan boshlab, bugungi kunning yuqori texnologik “BookLab” markazlarigacha bo'lgan masofasi – bu shunchaki vaqt o'tishi emas, balki “Intellektual yuksalish sivilizatsiyasi”dir. Biroq, ma'lumot tashiydigan vosita (loy, papirus, pergament, qog'oz yoki planshet) qanday shaklga kirmasin, insoniyatning bilimga bo'lgan ehtiyoji va kitobat madaniyati jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib qolaveradi. Chunki kitob materiali o'zgarishi mumkin, lekin uning mohiyati esa boqiydir. Zero, “Mixxatdan BookLabgacha bo'lgan yo'l – bu insoniyatning nurni (ilm) izlash yo'lidir”

Shu o'rinda qayd etish lozimki, bugungi kunda “NOP World” xalqaro reyting agentligi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko'rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o'tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaaga ajratadi. 2016-yilda haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yhatida Hindiston - 10,7, Tailand - 9,4, Xitoy - 8, Filippin - 7,6, Chexiya - 7,4, Rossiya - 7,1, Shvetsiya - 6,9, Fransiya - 6,9 va Vengriya - 6,8 soat bilan yuqori o'rinlarni egalladi. Qator agentliklarning jahonda kitobga bo'lgan talabni o'rganishi shuni ko'rsatdiki, so'nggi 30 yilda bir nomdagi kitob

mahsulotlarini chiqarish uch baravar, adadi bo'yicha 4 baravar ko'paydi. Bugungi kunda dunyoda har yili qariyb bir million nomda kitoblar chop etiladi. Masalan, AQShda kishi boshiga 10 ta, Rossiyada 9,5 ta, Fransiyada 5 ta, Xitoyda 3,5 ta kitob bosilmoqda [15]. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, ilm-fan va texnika qanchalik taraqqiy etmasin kitobat madaniyati taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lib qolaveradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mixxat yozuvli loy taxtachalarda boshlangan bilim safari bugun raqamli olam bilan uyg'unlashgan holda davom etmoqda. Bizning vazifamiz – ajdodlarimizdan meros qolgan kitobga bo'lgan ehtiromni saqlab qolgan holda, uni zamonaviy innovatsiyalar bilan boyitish va kelajak avlodga yetkazishdir. Zero, kitob bor joyda ma'rifat, ma'rifat bor joyda esa istiqbol bor. Yangi O'zbekistonda mutolaa madaniyatini davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi – millatning genofondini asrash va intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan eng uzoq muddatli va samarali investitsiyadir.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Childe V. *What Happened in History*. – London: Penguin Books, 1942. – 300 p.
2. *История письма: Эволюция письменности от Древнего Египта до наших дней*. Пер. с немецкого. – Москва: Изд-во Эксмо; СПб.: Terra Fantastica, 2002. – 24–28 с.
3. *История книги*. Под ред. А.Говорова, Г.Куприяновой. – Москва: Светотон, 2001. – 304 с.
4. Ahundjanov E. *Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2011. – 300 b.
5. Шамсуддинов К. *Сокровища научно-исторического наследия // Moziydan sado*. – 2014. – № 3 (63). – С. 14–17.

6. Язбердыев А. Средневековые библиотеки Мерва // Изв. АН Туркм ССР. СОН. – 1988. – № 5. – С. 5–16.
7. Шамсуддинов К. Рукописное наследие Узбекистана // Информационно-библиотечный журнал “INFOLIB”. – 2019. – №1. – С. 50-55.
8. Шамсуддинов К. Рукописное наследие Узбекистана // Информационно-библиотечный журнал “INFOLIB”. – 2019. – №2. – С. 60–65.
9. Чабров Г. Из истории полиграфии и издательства литературы на местных языках в дореволюционном Туркестане (1868–1917). – В кн.: История науки. Кн. 7. Ташкент, 1954, с. 82 / Труды САГУ. Новая серия. Вып.57.
10. Охунjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi (darslik) 2-qism. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 208 b.
11. Shodmonova S. Turkiston tarixi – matbuot ko'zgusida. – Toshkent: Yangi nashr, 2011. – 296 b.
12. Jo'rayev M., Nurillin R., Kamolov S. va boshqalar. K 2. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 720 b.
13. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. – Toshkent: Fan, 2004. – 194 b.
14. O'zbekiston Milliy kutubxonasi rasmiy sayti: [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz).
15. UNESCO Digital Library: <https://unesdoc.unesco.org>.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti  
E-mail: samigova1975@gmail.com

## SAN'AT TA'LIMIDA INTERAKTIV PLATFORMALAR ASOSIDA IJODIY NATIJALARNI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Maqolada san'at ta'limi jarayonida talabalar ijodiy natijalarini interaktiv platformalar asosida baholash metodikasini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan mezonli-indikatorli modelga tayanadi. Taklif etilgan baholash tizimi amaldagi 100 ballik reyting (JN – 30, ON – 20, YAN – 50) tizimiga moslashtirilgan. Pedagogik kuzatuv natijalari interaktiv baholash modeli talabalar faolligi, mustaqilligi va motivatsiyasining oshishiga xizmat qilishini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** san'at ta'limi, interaktiv platforma, baholash mezon, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, reyting tizimi, ijodiy natija.

## IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ASSESSING CREATIVE OUTCOMES IN ART EDUCATION BASED ON INTERACTIVE PLATFORMS

**Abstract.** The article discusses the issue of improving the methodology for assessing students' creative outcomes in the process of art education based on interactive platforms. The research is based on a criterion-indicator model developed within the framework of a competency-based approach. The proposed assessment system is adapted to the current 100-point rating system (JN – 30, ON – 20, YAN – 50). The results of pedagogical observations showed that the interactive assessment model contributes to increasing students' activity, independence, and motivation.

**Keywords:** art education, interactive platform, assessment criteria, competency-based approach, digital pedagogy, rating system, creative outcome.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida san'at yo'nalishlari talabalarining ijodiy faoliyatini baholash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. An'anaviy baholash usullari ko'pincha ijodiy natijaning barcha komponentlarini to'liq aks ettira olmaydi. Raqamli transformatsiya sharoitida interaktiv platformalar ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bir qatorda, baholash mexanizmlarini ham takomillashtirish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda san'at ta'limida axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Biroq ijodiy natijalarni baholash mezonlarini tizimlashtirish va ularni amaldagi reyting tizimiga moslashtirish masalasi yetarlicha ilmiy asoslanmagan.

Pedagogika fanida baholash nazariyasi turli ilmiy yondashuvlar asosida rivojlanib kelmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini kompleks baholashni nazarda tutadi. Raqamli pedagogika sharoitida esa baholash jarayonining shaffofligi va monitoring mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shunga qaramay, san'at ta'limida ijodiy natijalarni interaktiv platformalar orqali baholashning aniq mezonli modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

### **Raqamli pedagogikaning nazariy asoslari**

Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi tubdan yangilanmoqda. Zamonaviy pedagogika fanida "raqamli pedagogika" tushunchasi o'qitish jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, interaktiv muhit yaratish hamda baholash mexanizmlarini avtomatlashtirishni nazarda tutadi.

O'zbek olimlaridan R.Ishmuhammedov ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishini ta'kidlaydi. O.Tolipov va M.Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni loyihalash jarayonida natijaviylik va tizimlilik tamoyillariga alohida urg'u beradi.

Shuningdek, N.Saidahmedov ta'lim samaradorligini oshirishda interaktiv metodlarning motivatsion ahamiyatini asoslab bergan. Mazkur yondashuvlar san'at ta'limida ham dolzarb hisoblanadi.

Raqamli muhitda baholash jarayoni shaffoflik, monitoring va tezkor tahlil imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa an'anaviy baholash tizimidan tubdan farq qiladi.

### **Kompetensiyaviy yondashuv va baholash nazariyasi**

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv muhim metodologik tamoyil sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv talabalarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning amaliy faoliyati, ijodiy fikrlashi hamda muammolarni hal qilish qobiliyatini ham baholashni nazarda tutadi. Shu sababli san'at ta'limida baholash jarayoni ham an'anaviy bilimlarni tekshirish bilan cheklanib qolmasdan, ijodiy faoliyat natijalarini kompleks tahlil qilishni talab etadi.

O.Tolipov va M.Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarni loyihalash jarayonida natijaviylik, tizimlilik hamda uzluksizlik tamoyillarini muhim omil sifatida ko'rsatadi. Ularning fikricha, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun baholash mezonlari oldindan aniq belgilangan bo'lishi va o'quv faoliyatining barcha bosqichlarida qo'llanilishi zarur.

R.Ishmuhamedov ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonida faol o'qitish metodlarini qo'llash imkonini yaratadi hamda talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, N.Saidahmedov interaktiv metodlar o'quv jarayonida talabalar faolligini oshirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning tadqiqotlarida ta'lim jarayonida hamkorlikda o'qitish, muhokama va loyiha faoliyati kabi metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam berishi qayd etilgan.

San'at ta'limida kompetensiyaviy yondashuv ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki bu sohada talabaning ijodiy fikrlashi, estetik didi va amaliy ko'nikmalari asosiy o'rin tutadi. Shu sababli baholash jarayoni ham talabaning ijodiy mahsuloti,

texnologik bajarilishi, g'oyaning yangiligi va estetik yechimini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur.

### **San'at ta'limida ijodiy faoliyatni baholash muammolari**

San'at ta'limida baholash jarayoni boshqa ta'lim yo'nalishlariga nisbatan murakkabroq hisoblanadi. Buning asosiy sababi ijodiy faoliyat natijalarini aniq mezonlar asosida baholashning qiyinligidir. Ko'pincha baholash jarayoni subyektiv qarorlar asosida amalga oshiriladi, bu esa baholashning obyektivligi va shaffofligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

An'anaviy baholash tizimida talabaning ijodiy faoliyati ko'pincha yakuniy natija asosida baholanadi. Biroq zamonaviy pedagogik yondashuvlar baholash jarayonida faqat natijani emas, balki ijodiy jarayonning o'zini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Shu sababli baholash mezonlarini tizimlashtirish hamda ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi baholash jarayonini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Interaktiv platformalar yordamida talabalarning ijodiy ishlari elektron shaklda taqdim etilishi, muhokama qilinishi va bosqichma-bosqich baholanishi mumkin. Bu esa baholash jarayonining shaffofligini oshiradi hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi samarali muloqotni ta'minlaydi.

### **Tadqiqot metodlari**

Tadqiqot jarayonida pedagogik tahlil, modellashtirish, qiyosiy tahlil va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Ishlab chiqilgan model san'at yo'nalishi talabalarining amaliy mashg'ulotlarida sinov tariqasida qo'llanildi va baholash jarayonidagi o'zgarishlar kuzatildi.

### **Interaktiv baholash modeli**

Taklif etilayotgan model quyidagi komponentlardan iborat:

1. Baholash mezonlari.
2. Ko'rsatkichlar (indikatorlar).
3. Ball taqsimoti.

#### 4. Reyting tizimiga integratsiya.

##### **JN (30 ball) doirasida baholash mezonlari**

ON va YAN bosqichlarida nazariy bilim va kompleks loyiha himoyasi integratsiya qilinadi.

<b>Mezoni</b>	<b>Tavsifi</b>	<b>Ball</b>
G'oya va kreativlik	Loyihaning yangiligi	5
Texnologik bajarilish	Raqamli vositalardan foydalanish	5
Estetik yechim	Vizual mukammallik	5
Innovatsionlik	Zamonaviy elementlar	5
Tahliliy asoslash	Himoya jarayoni	5
Yakuniy mahsulot sifati	Amaliy natija	5
<b>Jami</b>		<b>30.</b>

##### **Pedagogik kuzatuv natijalari**

Interaktiv platformalar asosida tashkil etilgan baholash jarayonida talabalar faolligi va mustaqil ishlash darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Baholash mezonlarining ochiq e'lon qilinishi jarayonning shaffofligini ta'minladi. Talabalar topshiriqlarni bajarishda mas'uliyat bilan yondasha boshladi, muhokama jarayonlarida faol ishtirok etdi va o'z ijodiy ishlari ustida tahliliy fikrlash ko'nikmalari shakllandi.

##### **Interaktiv platformalarning pedagogik imkoniyatlari**

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangi pedagogik vositalarni joriy etish imkonini bermoqda. Xususan, interaktiv platformalar o'quv jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda baholash jarayonini tizimli ravishda amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Interaktiv platformalar yordamida talabalar o'z ijodiy ishlari, loyiha va amaliy topshiriqlarini elektron shaklda taqdim etishlari mumkin. Bu esa o'qituvchi tomonidan ularni bosqichma-bosqich tahlil qilish va baholash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, bunday platformalar talabalar o'rtasida fikr almashish, muhokama va hamkorlikda ishlash uchun ham qulay muhit yaratadi.

San'at ta'limi jarayonida interaktiv platformalardan foydalanish ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki bu sohada talabalarning ijodiy g'oyalari, estetik qarashlari va amaliy ko'nikmalari asosiy o'rin tutadi. Raqamli platformalar esa ushbu jarayonni vizual, interaktiv va ochiq muhitda tashkil etishga yordam beradi.

Shuningdek, interaktiv platformalar baholash jarayonining shaffofligini ta'minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Talabalarning ijodiy ishlari elektron portfoliolar shaklida saqlanadi va bu orqali o'quv jarayonining barcha bosqichlari monitoring qilinadi.

### **Talabalarning ijodiy natijalarini baholash modelining strukturaviy tahlili**

San'at ta'limida talabalarning ijodiy faoliyatini baholash uchun aniq mezonlarga asoslangan tizimli modelni ishlab chiqish zarur. Taklif etilayotgan model talabalarning ijodiy faoliyatini kompleks baholashga qaratilgan bo'lib, u bir nechta asosiy komponentlardan iborat.

Mazkur modelda baholash jarayoni quyidagi yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- talabaning ijodiy g'oyasi va uning yangiligi;
- amaliy bajarilish sifati;
- texnologik yondashuvdan foydalanish darajasi;
- estetik ifoda va badiiy yechim.

Baholash jarayonida interaktiv platformalar yordamida talabalarning amaliy ishlari elektron shaklda taqdim etiladi va o'qituvchi tomonidan belgilangan mezonlar asosida tahlil qilinadi. Bu esa baholash jarayonining obyektivligini oshiradi hamda talabalarning ijodiy rivojlanishini muntazam monitoring qilish imkonini beradi.

Shuningdek, baholash tizimi institutlarda qo'llanilayotgan kredit-modul tizimi bilan ham uyg'unlashadi. Mazkur tizimga ko'ra baholash quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi:

- joriy nazorat – 30 ball;
- oraliq nazorat – 20 ball;
- yakuniy nazorat – 50 ball.

Umumiy hisobda maksimal baho 100 ballni tashkil etadi. Ushbu baholash tizimi talabalarning o'quv jarayonidagi faolligi, ijodiy ishlari hamda yakuniy natijalarini kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

### **Pedagogik kuzatuv natijalarining tahlili**

Tadqiqot jarayonida san'at ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan pedagogik kuzatuv ishlari olib borildi. Kuzatuv jarayonida interaktiv platformalardan foydalanish talabalarning o'quv jarayonidagi faolligi va ijodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy topshiriqlarni elektron shaklda taqdim etish ularning o'z ishlariga nisbatan mas'uliyatini oshirdi. Shu bilan birga, platformalar orqali o'qituvchi tomonidan berilgan tavsiyalar va fikr-mulohazalar talabalarning ijodiy ishlarini yanada takomillashtirishga yordam berdi.

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv platformalardan foydalanish:

- talabalarning ijodiy faolligini oshiradi;
- mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi;
- baholash jarayonining shaffofligini ta'minlaydi.

Mazkur natijalar interaktiv platformalar san'at ta'limida talabalarning ijodiy natijalarini baholashda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv platformalardan foydalanish san'at ta'limi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning ijodiy faoliyatini tashkil etish, monitoring qilish va baholash imkoniyatlari kengayadi.

San'at ta'limida talabalarning ijodiy natijalarini baholash an'anaviy baholash tizimiga nisbatan murakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli baholash mezonlarini aniq belgilash hamda ularni zamonaviy raqamli platformalar bilan integratsiya qilish zarur.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan baholash modeli talabalarning ijodiy faoliyatini kompleks baholashga xizmat qiladi. Ushbu model talabaning ijodiy g'oyasi, amaliy bajarilish sifati, texnologik yondashuvi va estetik yechimini hisobga olgan holda baholash imkonini beradi.

Interaktiv platformalar yordamida tashkil etilgan baholash tizimi esa o'quv jarayonining shaffofligi, tizimliligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratiladi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Tolipov O'., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti.* – Toshkent: Fan, 2010. – 300 b.
2. Ishmuhamedov R. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 240 b.
3. Saidahmedov N. *Yangi pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
4. Muslimov N. *Kasbiy ta'lim pedagogikasi.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 256 b.
5. Xoliqov A. *Pedagogik mahorat asoslari.* – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 304 b.
6. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
7. Bates T. *Teaching in a Digital Age.* – Vancouver: BCcampus, 2015. – 524 p.

8. Anderson T. *Theory and Practice of Online Learning*. – Edmonton: AU Press, 2008. – 472 p.
9. Redecker C. *Digital Competence Framework for Educators*. – European Commission, 2017. – 95 p.
10. UNESCO. *Digital Learning and Educational Innovation*. – Paris, 2019. – 150 p.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Axborot texnologiyalari" kafedrasida dotsenti  
E-mail: mtillashayxova@gmail.com

## **SUN'IY INTELLEKT VA INSON OMILI: MASOFAVIY TA'LIMDA MUVOZANATLI YONDASHUV**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy ta'lim, ayniqsa masofaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada SI asosida ta'lim jarayonini individuallashtirish, adaptiv o'qitish tizimlarini yaratish, avtomatlashtirilgan baholash va teskari aloqani yo'lga qo'yish, shuningdek, chat-botlar va virtual yordamchilar orqali 24 soatlik o'quvchi qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy etish masalalari ko'rib chiqiladi. Knewton, DreamBox, Coursera, Udacity, EdX va Squirrel kabi platformalar misolida SI vositalarining ta'lim sifatini oshirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada axloqiylik, ma'lumotlarning maxfiyligi, o'qituvchilar va talabalarni SI vositalaridan foydalanishga tayyorlash muammolari hamda inson omilining o'rnini to'liq almashtirib bo'lmasligi masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim, adaptiv o'qitish, individuallashtirilgan ta'lim, avtomatlashtirilgan baholash, teskari aloqa, chat-bot, virtual yordamchi, ta'lim texnologiyalari, ta'lim sifati.

### **ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE HUMAN FACTOR: A BALANCED APPROACH IN DISTANCE EDUCATION**

**Abstract.** This article analyzes the role and significance of artificial intelligence (AI) technologies in modern education, particularly in distance learning systems. The study examines issues such as the individualization of the learning process based on AI, the creation of adaptive learning systems, automated assessment and feedback mechanisms, as well as the implementation of 24/7 student support systems through chatbots and virtual assistants. The effectiveness of AI tools in improving the quality of education is analyzed using

*platforms such as Knewton, DreamBox, Coursera, Udacity, EdX, and Squirrel as examples. The article also addresses ethical considerations, data privacy issues, challenges in preparing teachers and students to use AI tools, and the fact that the role of the human factor cannot be fully replaced.*

**Keywords:** *artificial intelligence, distance education, adaptive learning, personalized learning, automated assessment, feedback, chatbot, virtual assistant, educational technologies, education quality.*

Sun'iy intellekt (SI) zamonaviy ta'limda, ayniqsa masofaviy ta'limning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sharoitida, tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtirdi va butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalarini kampuslarni cheklash va yopish sharoitida masofaviy ta'lim shakllariga o'tishga majbur qildi. Bu o'tish an'anaviy elektron masofaviy ta'limda ko'plab muammolarni, jumladan, yetarli darajada shaxsiylashtirish yo'qligi, teskari aloqaning zarurligi va o'qituvchilarning yuqori ish yuklamasi kabi masalalarni yuzaga chiqardi. Shu bois, masofaviy ta'limni yanada moslashuvchan, qulay va samarali qila oladigan yangi texnologik yechimlarga ehtiyoj tug'ildi [5].

Sun'iy intellekt bu muammolarning ko'pini hal qila oladigan asosiy texnologiyalardan biridir. U nafaqat kundalik vazifalarni avtomatlashtirish, balki yanada shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va interaktiv ta'lim jarayonini o'z ichiga olgan yangi ta'lim usullari va yondashuvlarini yaratish imkoniyatiga egadir [9]. Misol uchun, sun'iy intellekt yordamida har bir o'quvchi uchun shaxsiylashtirilgan elektron dasturlar yaratish, real vaqt rejimida intellektual qayta aloqani ta'minlash va talabalarning muvaffaqiyatini bashorat qilish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularga o'quv jarayonining ijodiy va uslubiy tomonlariga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi. Bu esa ularni sinov testlarini tekshirish, darslarni

tashkillashtirish va talabalarning holatini tahlil qilish kabi kundalik vazifalardan ozod qiladi. Bularning barchasi sun'iy intellektni ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishning qudratli vositasiga aylantiradi.

Sun'iy intellekt (SI) intellektual ta'limni rivojlantirishda, shu jumladan ilgari imkonsiz yoki juda cheklangan bo'lgan ta'lim jarayonini tashkil etish uchun yangi yechimlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. SI texnologiyalari talabalarni o'qitish uchun ta'lim muassasalari va onlayn platformalarni yanada samaraliroq va moslashuvchanroq tarzda yaratish, individual yondashuvlarni ta'minlash, kundalik vazifalarni avtomatlashtirish hamda o'zgaruvchanlikni tahlil qilish va bashorat qilish uchun aqlli vositalardan foydalanish imkonini beradi [7].

Masofaviy ta'limda sun'iy intellektni rivojlantirishning asosiy jihatlaridan biri ta'lim jarayonini individuallashtirish hisoblanadi. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha barcha talabalar uchun ularning xususiyatlari, ma'lumotlarni qabul qilish tezligi va qiziqishlaridan qat'i nazar, yagona yondashuvdan foydalanadi. Men bu muammoni har bir o'quvchi haqidagi ma'lumotlarga asoslangan maqbul o'qitish usullaridan foydalangan holda hal qilaman [4].

SI texnologiyalari talabalarning platformadagi xatti-harakatlarini, ularning xususiyatlarini, afzalliklarini, o'qish uslubini va hatto ular eng samarali bo'lgan vaqt oraliqlarini tahlil qilishi mumkin. Ushbu tahlil tizimi asosida SI har bir o'quvchi uchun o'quv materiallarini va topshiriqlarni takomillashtirishi mumkin. Masalan, agar talaba ma'lum bir mavzuda past ko'rsatkich namoyish etsa, men ushbu materialni o'zlashtirish uchun qo'shimcha manbalarni, bilimlarni mustahkamlash uchun soddaroq vazifalarni yoki video va interaktiv topshiriqlar kabi ma'lumot berishning muqobil shakllarini taklif qilaman.

Ta'limni shaxsiylashtirish o'qitish jarayonini tezlashtirish imkonini ham beradi. Bilimdagi bo'shliqlardan unumli foydalaning. Bunday tizimga misol sifatida Knewton platformasini keltirish mumkin. U sun'iy intellektdan foydalanib, shaxsiylashtirilgan ilmiy yo'nalishlarni shakllantiradi. Tizim o'quvchining topshiriqlarni qay darajada bajarayotganini tahlil qiladi va shu asosda ilmiy

materiallarning tuzilishi va mazmunini, shuningdek, eng dolzarb vazifalar va tasvirlarni belgilaydi [1].

Masofaviy ta'limda sun'iy intellektning afzalliklaridan biri-topshiriqlarni tekshirish, test o'tkazish, teskari aloqa berish va o'lchovlarni tahlil qilish kabi odatiy va ko'p mehnat talab qiladigan vazifalarni avtomatlashtirish imkoniyatidir. An'anaviy ta'limda o'qituvchilar uy vazifalarini va testlarni tekshirishga ko'p vaqt sarflaydilar, bu ayniqsa katta guruhlarda o'qitish jarayonida dolzarb masala hisoblanadi. Sun'iy intellekt testlarni va hatto murakkab yozma ishlarni avtomatik ravishda tekshirib, bu jarayonni sezilarli darajada qisqartirishi mumkin.

Misol uchun, tabiiy tilni qayta ishlashga asoslangan tekshiruv tizimlari yozma topshiriqlarning mazmunini, tuzilishini va hatto fikrlarning mantiqiy izchilligini tahlil qila oladi. Mashinali o'qitish algoritmlari ish sifatini baholash va aniq baho berishga o'rgatilgan. Grammarly va Turnitin kabi tizimlar o'qituvchilarga yozma ishlarni xatolar va ko'chirmachilikka tekshirishda yordam beradi, bu esa vaqtni tejaydi va sifatni baholashni yaxshilaydi.

Avtomatlashtirish vazifalarni bajarish muddatlarini eslatish yoki samaradorlik testlari natijalarini jo'natish kabi tashkiliy masalalarga ham taalluqlidir. Chat-botlar va virtual yordamchilar talabalarga tashkiliy masalalarni hal qilishda ko'maklashishi va 24 soatlik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi mumkin, bu esa o'quv platformasi bilan muloqot jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Sun'iy intellekt o'qituvchilar va talabalarni qo'llab-quvvatlash vositalarini taqdim etishi mumkin. O'qituvchilar qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan talabalari va mutaxassislarining rivojlanishini kuzatish uchun sun'iy intellektning tahliliy vositalaridan foydalanishlari mumkin. Masalan, sun'iy intellekt tizimlari talabalarning platformadagi faolligini, munozaralardagi ishtirokini, test va uy vazifalari natijalarini tahlil qilishi mumkin. Bu esa o'qituvchilarga o'qishda qiynalyotgan talabalarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Talabalar uchun sun'iy intellekt o'z vaqtida va shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Tizimlar ularning ishlash qobiliyatini tahlil qilib, tuzatish choralarini taklif qilishi, shuningdek, natijalarga erishish bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin. Bu, ayniqsa, asinxron tarzda o'qiyotgan va o'qituvchi bilan doimiy aloqada bo'lmagan talabalar uchun foydalidir.

Sun'iy intellekt texnologiyalari masofaviy ta'lim usullarini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu yondashuvlarning ayrimlari allaqachon ta'lim muassasalari va onlayn platformalarda faol qo'llanilayotgani talabalarga va o'qituvchilarga yanada moslashuvchan va samarali ta'lim vositalarini taqdim etmoqda.

Adaptiv ta'lim – ta'limda sun'iy intellektni qo'llashning eng istiqbolli yondashuvlaridan biridir. Ushbu usulning mohiyati shundaki, sun'iy intellekt talabaning o'zlashtirish qobiliyati va o'quv faoliyati haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi, so'ngra o'quv materiallarini va topshiriqlarni uning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtiradi. An'anaviy o'qitish modellaridan farqli o'laroq, unda barcha ta'lim oluvchilar bir xil kursni bir xil tezlikda o'tadi. Moslashuvchan tizimlar esa har bir talabaga o'z bilim darajasi va materialni o'zlashtirish tezligidan kelib chiqqan holda o'z ta'lim yo'lida harakat qilish imkonini beradi [6].

DreamBox kabi platformalar o'quvchilar o'rtasidagi farqlarga asoslanib, individual topshiriqlarni taqdim etadi. Agar talaba ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishda qiynalsa, tizim materialni yaxshiroq tushunish uchun qo'shimcha tushuntirish va manbalarni taklif qiladi. Agar talaba topshiriqlarni tez bajara olsa, tizim uning qiziqishi va motivatsiyasini saqlab qolish uchun qiyinchilik darajasini oshiradi [2].

Moslashuvchan tizimlar talabalarning o'zlashtirish darajasini kuzatib borishi va o'qituvchilarga o'quv dasturlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin. Bu resurslardan samaraliroq foydalanish va qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan talabalarga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi. Masofaviy ta'limning asosiy muammolaridan biri talabalar bilimini baholashdir. An'anaviy

baholash usullari katta o'quvchilar guruhlari va asinxron o'qitish sharoitida samarasiz bo'lishi mumkin. Sun'iy intellektga asoslangan bilimlarni baholash tizimlari ushbu muammoni o'qituvchi ishtirokisiz avtomatlashtirilgan tekshirish usullaridan foydalangan holda hal qiladi.

Mashinali o'rganish va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlaridan foydalanib, talabalarning test va yozma topshiriqlarini ularning mazmuni, tuzilishi va mantiqiy izchilligini o'lchagan holda tahlil qilish mumkin. Bu tizimlar nafaqat javoblarning to'g'riligini tekshiradi, balki materialni tushunish darajasini ham tahlil qilib, qo'shimcha yordam bo'yicha tavsiyalar beradi.

Bunday tizimga misol sifatida Turnitin'ni keltirish mumkin. U yaqinda insholarning originalligi va sifati haqida yozma ishlarni e'lon qildi, bu esa o'qituvchilarga talabalarning ishlarini tezkor va aniq baholashda yordam beradi. Shunga o'xshash tizimlar avtomatik test o'tkazish uchun ham qo'llanilishi mumkin, bunda sun'iy intellekt javoblarni tahlil qiladi va kiritilgan ma'lumotlar asosida baholarni chiqaradi.

Sun'iy intellekt asosidagi chat-botlar va virtual yordamchilar masofaviy ta'limda hal qiluvchi rol o'ynaydi, ulap talabalarga real vaqt rejimida qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatadi. Bu tizimlar talabalar bilan savollarga javob berish, murakkab mavzularni tushuntirish, qo'shimcha manbalar taqdim etish va hatto vazifalarni bajarish uchun qisqa muddatlar belgilash orqali o'zaro aloqada bo'lishi mumkin. Bunga misol tariqasida o'quv kurslarida foydalanish uchun ishlab chiqilgan Jill Uotson nomli virtual yordamchini keltirish mumkin. Bu chat-bot talabalarga tez-tez so'raladigan savollarga javob olish, manbalar taqdim etish va hatto muhokamalar o'tkazishda yordam beradi, bu esa talabalar va o'quv platformasi o'rtasidagi o'zaro aloqani sezilarli darajada tezlashtiradi [12].

Chat-botlar talabalarga doimiy fikr-mulohaza va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash uchun ta'lim platformalari bilan birlashtirilishi mumkin. Bu ayniqsa o'qituvchi bilan shaxsan muloqot qilish doim ham imkoni bo'lmagan ommaviy masofaviy ta'lim sharoitida juda muhimdir.

Sun'iy intellekt talabalarining o'quv faoliyati to'g'risidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda faol qo'llanilmoqda. Davomat, munozaralarda ishtirok etish, uy vazifalari va testlarni bajarish kabi ma'lumotlar sun'iy intellekt tomonidan tahlil qilinib, talabalarining ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning muvaffaqiyatini bashorat qilish imkonini beradi. Masalan, Canvas platformasi talabalar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ularning o'zlashtirish darajasini bashorat qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi. Tizim "xavf guruhi"dagi talabalarni aniqlab, o'qituvchilarga qo'shimcha topshiriqlar yoki maslahatlar kabi ularni qo'llab-quvvatlash choralarini taklif qilishi mumkin. Bu muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularning yuzaga kelishining oldini olish imkonini beradi.

Sun'iy intellektning tahliliy tizimlari, shuningdek, o'qituvchilarga kurs bo'yicha tavsiyalar berib, o'quv materiallari yoki o'qitish usullaridagi kamchiliklarni ko'rsatib o'tishi mumkin. Bu esa yanada samarali ta'lim berishni ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt masofaviy ta'limni ta'minlovchi turli xil vosita va platformalarga joriy etilmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini ham talabalar, ham o'qituvchilar uchun yanada qulayroq va samaraliroq qilishga ko'maklashmoqda.

Coursera, Udacity va EdX kabi onlayn ta'lim platformalari ta'lim jarayonini individuallashtirish va takomillashtirish maqsadida sun'iy intellektni faol ravishda qo'llamoqda. Bu platformalar talabalarining o'zlashtirish darajasi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish hamda kurslar va topshiriqlar bo'yicha shaxsiy tavsiyalar ishlab chiqish uchun sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanadi [3].

Bunga misol tariqasida Udacity kompaniyasini keltirish mumkin. U talabalarining o'quv natijalari va karyera qiziqishlari asosida eng mos keladigan kurslarni taklif etish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt tadqiqotchilarga o'qituvchilarning rivojlanishini kuzatib borish va natijalar bo'yicha tavsiyalar berishda yordam beradi.

Sun'iy intellekt o'quv kurslari va materiallarini yaratish jarayonini avtomatlashtirish uchun ham qo'llanilmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar o'quvchilarni tahlil qilib, ularning bilim darajasi va qiziqishlariga moslashtirilgan o'quv rejalarini ishlab chiqishi mumkin.

Bunday tizimga misol sifatida Squirrel sun'iy intellektini keltirish mumkin. U talabalarning holati haqidagi ma'lumotlardan foydalanib, moslashuvchan kurslarni yaratish uchun sun'iy intellektni qo'llaydi. Tizim talabalar uchun qaysi mavzular eng qiyin ekanligini aniqlaydi va ularning bilimini yaxshilash maqsadida qo'shimcha materiallar hamda topshiriqlarni tavsiya etadi.

Masofaviy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish ta'lim jarayonini yaxshilash uchun keng istiqbollarni ochadi. So'nggi bir necha yil ichida sun'iy intellekt ta'lim tizimini o'zgartirishda, ayniqsa COVID-19 pandemiyasi kabi global o'zgarishlar tufayli onlayn ta'limga tez o'tish sharoitida o'zining samaradorligini isbotladi. Ushbu o'tish tibbiy ta'lim sifati, ilmiy resurslarning mavjudligi va o'qitish samaradorligi bilan bog'liq bir qator muammolarni aniqladi. Biroq, aynan sun'iy intellekt ushbu chaqiriqlarning aksariyatini to'xtatish uchun muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Ta'lim muhitida sun'iy intellektni qo'llash o'qitish va o'qitish usullarini sezilarli darajada o'zgartiradi [8]. Moslashuvchan ta'lim tizimlari har bir o'quvchiga o'z tezligida o'rganish, motivatsiyani oshirish va shaxsiy xatti-harakatlar orqali natijalarni yaxshilash imkonini beradi. Sinov testlari va yozma ishlar kabi muntazam vazifalarni avtomatlashtirish o'qituvchilarga yangi usullarni ishlab chiqish va o'quvchilar bilan chuqurroq muloqot qilish kabi ta'limning chuqurroq jihatlariga vaqtni tejash imkonini beradi.

Sun'iy intellektni rivojlantirishning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u butun dunyo bo'ylab ko'plab odamlar uchun ta'limni yanada qulayroq qiladi. Sun'iy intellekt integratsiyasiga ega onlayn platformalar turli darajadagi tayyorgarlik va ehtiyojlarga ega talabalar uchun kurslarni taqdim etadi, geografik yoki moliyaviy joylashuvidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish imkoniyatini

ta'minlaydi. Virtual yordamchilar va chat-botlar kabi tizimlar o'quv jarayonini yanada moslashuvchan qiladi, talabalarni har qanday vaqtda qo'llab-quvvatlaydi va ularga joriy vazifalarni hal qilishda yordam beradi, bu ayniqsa o'qishni ish yoki boshqa vazifalar bilan birga olib boradiganlar uchun muhimdir.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt ta'lim jarayonida ma'lumotlarning kuchaytirilgan tarqalishini ta'minlaydi. Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va talqin qilish imkoniyatiga ega, bu esa o'qituvchilar va ta'lim muassasalari ma'murlariga talabalarning yutuqlarini aniqroq baholash, muammolarni aniqlash va ularni aniqlash choralarini tuzatish imkonini beradi. Bunday yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki ilmiy dasturlar va umuman ta'lim muassasalarini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Biroq, afzalliklarga qaramay, masofaviy ta'limda sun'iy intellektni joriy etish qiyinchiliklar va muammolar bilan cheklanib qolmaydi. Asosiy masalalardan biri talabalarning axloqiyligi va ma'lumotlardan foydalanish xavfsizligidir [10]. Sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi, bu esa maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish borasidagi xavotirlarni cheklashi mumkin. Sun'iy intellektdan xavfsiz va axloqiy jihatdan foydalanishni ta'minlash uchun ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qat'iy choralar ko'rish va tegishli me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

Yana bir muammo-o'qituvchilar va talabalarni sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishga o'rgatish zarurati. Ko'pgina o'qituvchilar o'zlarining ta'lim jarayonlariga texnologiyalarni joriy etishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, ayniqsa ular egallagan texnik ko'nikmalarga ega bo'lmasalar. O'qituvchilar o'qitish sifatini oshirish uchun sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanishlari uchun o'quv dasturlarini yaratish va malakasini oshirish zarur. Shuningdek, talabalarni sun'iy intellekt bilan o'zaro aloqada bo'lishga o'rgatish muhim, shunda ular ushbu texnologiyalardan yanada samarali ta'lim olish uchun foydalana oladilar.

Nihoyat, shunga e'tibor berish kerakki, sun'iy intellekt o'qituvchining o'rnini bosmaydi, balki ularning ish samaradorligini baholash uchun yetakchi ishlab chiqaruvchiga aylanadi. Inson omili ta'lim jarayonining asosi hisoblanadi, chunki ta'lim nafaqat bilim berish, balki tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik funksiyalarini ham ta'minlaydi. O'qituvchilar talabalarni tarbiyalash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va ularning tajribasi, hamdardligi va talabalar bilan o'zaro munosabatga kirishish qobiliyatini algoritmlar bilan to'liq almashtirish mumkin emas [11].

Kelajakda sun'iy intellektni ta'lim sohasida yanada kengroq qo'llash mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalari ko'payadi, o'qitish, bilimlarni baholash va ta'lim jarayonlarini boshqarishda yangi yondashuvlardan foydalanadi. Masalan, hozirgi vaqtda nafaqat talabalarning xilma-xilligini tahlil qilish, balki motivatsiya, hissiy holat va ijtimoiy sharoitlar kabi turli omillar asosida ularning muvaffaqiyatlarini bashorat qilish mumkin bo'lgan tizimlar ishlab chiqilmoqda. Bunday tizimlar har bir ta'lim oluvchi rahbarligida ta'lim dasturlarini yanada aniqroq takomillashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt masofaviy ta'limni rivojlantirishda muhim qadamdir. U ta'lim jarayonini takomillashtirish, uni yanada shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va qulay qilish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, sun'iy intellektning barcha afzalliklarini to'liq amalga oshirish uchun ushbu xavfsizlik va o'qituvchilar va talabalarni o'qitish bilan bog'liq muammolarni hal qilish zarur. Ushbu jihatlarga bunday yondashuv va e'tibor bilan SI zamonaviy ta'limning yetakchi qismiga aylanishi, uni yanada sifatli va samarali qilishi mumkin.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

*1. Tillashayxova M. et al. Ta'limda sun'iy intellektning o'rnini // Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №1. – C. 99–109.*

2. Weisbard P. *Going MOOC: Massive open online courses // Feminist Collections.* – 2013. – T. 34. – №1-2. – С. 19–22.
3. Ismanova A., Gulamov S., Kobulova M. *Online Learning Evolution: Adaptive Systems Leading Education's Future.*
4. Roll I., Wylie R. *Evolution and Revolution in Artificial Intelligence in Education. International Journal of Artificial Intelligence in Education,* 2016. – №26(2). – P. 582–599. <https://doi.org/10.1007/s40593-016-0110-3>
5. Кузьмин Е., Тазова Е. *Искусственный интеллект в образовании: состояние, вызовы и перспективы развития. Высшее образование в России.* – 2021. – №30(6). – С. 9–20. <https://doi.org/10.31992/0869-3617-2021-30-6-9-20>
6. Осипов С., Новикова А., Дроздов А. *Адаптивные обучающие системы на основе искусственного интеллекта: опыт внедрения и методические требования. Информатика и образование.* – 2022. – №37(4). – С. 5–14. <https://doi.org/10.32517/0234-0445-2022-37-4-5-14>
7. Роберт И. *Теория и методика информатизации образования (2-е изд.).* Издательство «Бином», 2019.
8. Тихомиров В. *Цифровая трансформация педагогики: роль и границы применения искусственного интеллекта. Педагогика.* – 2020. – №(5). – С. 18–27.
9. Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education.* Pearson, 2016.
10. UNESCO. *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence.* United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2021. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000381137>
11. Selwyn N. *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education.* Polity Press, 2019.
12. Киселев Г. *Чат-боты и виртуальные ассистенты в дистанционном обучении: дидактический потенциал, ограничения и риски. Дистанционное и виртуальное обучение.* – 2023. – №(2). – С. 45–56.

**Muxtorali Axmedov**

Namangan davlat universiteti  
“An’anaviy xonandalik va cholg’u  
ijrochiligi” kafedrasida o’qituvchisi  
E-mail: [atribut\\_85@mail.ru](mailto:atribut_85@mail.ru)

## SAN’AT TO’GARAKLARI VOSITASIDA O’QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**Annotatsiya.** Maqolada o’quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, san’atga nisbatan umuminsoniy hodisa sifatidagi munosabatni shakllantirish, uning inson qalbiga ta’sir ko’rsatish tamoyilini anglash va bu boradagi bilimlarini tizimlashtirishda san’at to’garaklarining ta’siri va omillari yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** san’at, musiqa, to’garak, ta’lim va tarbiya, ijodiy tafakkur, madaniyat, ma’naviyat.

## FACTORS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE THINKING THROUGH ART CIRCLES

**Abstract.** The article highlights the role and factors of art circles in developing students’ creative thinking, forming an attitude toward art as a universal phenomenon, understanding its influence on the human soul, and systematizing students’ knowledge in this area.

**Keywords:** art, music, extracurricular activities, education and training, creative thinking, culture, spirituality.

Nafosat tarbiyasi o’quvchilarni voqeylikdagi, san’at va tabiatdagi kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, shuningdek, turmushidagi go’zallikni idrok qilish hamda to’g’ri tushunishga o’rgatish, ularning ijodiy didini o’stirish, go’zallikka muhabbat uyg’otish va hayotga go’zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. “Nozik didli bo’lish, go’zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, xullas o’z hayotini go’zallik qonunlari asosida ko’ra olish komil insonning eng zaruriy fazilatidir. Insonda go’zallikni tushunish

birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof-muhit ta'sirida shakllanib boradi. Shunga ko'ra, insonning ijodiy tafakkurini rivojlanish qonunlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog'langan.

Insoniyat tafakkur taraqqiyotining ma'naviy-madaniy mezonlar tizimida ijodiy tafakkur alohida ahamiyat kasb etib, ijodiy tafakkur ijtimoiy munosabatlarini hayotiy badiiy timsollarda aks ettirish orqali mavjud jamiyat kishilarining madaniy saviyasi darajasi hamda dunyoqarashini ifodalash bilan birga, inson shaxsini tarbiyalash kabi murakkab funksiyani ham bajarib kelgan" [7, 256-b].

Jamiyatning badiiy qarashlarini o'tmish, shuningdek, yangi davrda yaratilgan san'at qadriyatlarini, ularni o'zlashtirish tarzida ham qaralishi mumkin. Badiiy bilim va ko'nikmalar jamiyat umumadabiy faoliyatining muhim sohasi va ko'p jihatdan uning xarakterini belgilovchi ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida o'ziga xos funksiyalarni amalga oshiradi. Keng ijtimoiy ma'noda olib qaraluvchi san'atning mohiyatini jamiyatda badiiy dunyoqarashning rivojlanish va tarqalish jarayonlari tashkil etadi. Shunday ekan, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, san'atga nisbatan umuminsoniy hodisa sifatidagi munosabatni shakllantirish, uning inson qalbiga ta'sir ko'rsatish tamoyilini anglash va bu boradagi bilimlarini tizimlashtirish ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyada – "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi" [1], – deb ta'kidlaganlari bugungi kun yosh avlodni ijodkorlik, kuzatuvchanlik, musiqiy did, musiqiy madaniyat, tashabbuskorlikni shakllantirish, taassurot olamini boyitish, tafakkur ko'lamini kengaytirishda respublikada faoliyat olib borayotgan san'at to'garaklari ijodiy guruhlarini faoliyati bilan tanishtirish va ularga jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi. Barkamol inson tarbiyasida, ayniqsa, ijtimoiy hayotda, yoshlar tarbiyasida musiqaning o'rnini va ahamiyatini to'g'ri tahlil qilib, musiqaning ta'sirchanlik kuchiga baho berishda aniq, ravshan uslubiy rejalar asosida ish ko'rishni taqozo

qilmoqda [6, 4-b].

Shuningdek, musiqiy bilimlarni oshiruvchi, musiqa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan san'at to'garaklari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa – tovushlarda ochiladigan his-tuyg'ular majmui sifatida o'quvchilarning g'oyaviy-estetik qarashlariga ta'sir etish kuchiga ko'ra yetakchi o'rinni egallaydi.

Musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi [4, 3-b].

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun (Platon): "...musiqa – davlat haqidagi ta'limotning tarkibiy qismidir, davlatda insonni ulug'laydigan kuylar yangrashi lozim", – desa, Arastu: "Musiqa she'riyat nazariyasining bir bo'lagi, musiqa insonni jamiyatga yaqinlashtiradi, tinglab ruhan poklanadi, taniga shifo beradi" [2, 191-b], – degan edi. Shuningdek, Sharqning buyuk mutafakkiri Ibn Sino ham o'zining "Tib qonunlari" asarida bir necha o'rinda musiqiy asarlarni ruhiy kasalliklarga "Shifo dasturi" sifatida tavsiya etib o'tgandi [5, 42–43-b]. Musiqa bir paytda kishilarda go'zallikni his etish tuyg'ularining rivojlanishiga yordam beradi, barkamol shaxsni tarbiyalash uchun zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'limning vazifasi sifatida umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, hayot va inson sog'ligi, shaxsning erkin kamol topishini ta'minlash va insonni yaxshi axloq, yaqinlariga mehribonlik, xalq an'analari, tarixi va san'atiga hurmat ruhida tarbiyalash nazarda tutiladi. Bolalikda, yoshlikda olingan musiqiy ta'lim har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashda uning ijodiy qobiliyatini o'stiradi, aqliy va ma'naviy yetukligiga xizmat qiladi.

Didsizlik kishining voqyelikka bo'lgan ijobiy munosabatini buzib yuboradi. Natijada u nafosatga loqayd qaray boshlaydi. Nafosat tarbiyasi bugungi kunda shuning uchun ham muhimki, did, idrok-farosatlilik mehnat, ishlab chiqarish, kundalik amaliy faoliyatda har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan. Ba'zan hayotda past didli, ma'naviy qashshoq kishilarni ham uchratib qolamiz.

Bunday kishilar aqlan, axloqan va ruhan zaifligini yashirish uchun soxta xatti-harakatlar qiladilar, o'zlariga yarashmaydigan ishlar qiladilar, didsiz kiyinadilar, maza-matrasiz, shovqin-surondan iborat musiqa va ashulalarni tinglaydilar. Bundaylarni kuzatarkansiz, ularning mehnat gashtini surmagan, hayot tashvishlariga beparvo loqayd kimsalar ekanligiga guvoh bo'lasiz.

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashda musiqa va musiqiy tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir [3, 191-b]. Bugungi kunda musiqa to'garaklarini rivojlantirish orqali badiiy-estetik didni yuksaltirish masalalari bilan bog'liq nazariy fikrlarni o'quvchilarga o'rgatish, xulosalarni shakllantirish ham ularda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Musiqani idrok etish masalasi bevosita o'quvchilarning badiiy-estetik kompetentligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, musiqiy idrokning o'ziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

- birinchidan, badiiy ijodning tabiatiga hamda san'atning ijtimoiylik mohiyatiga ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi;

- ikkinchidan, badiiy-estetik idrok qonuniyatlarini tadqiq qilish san'at va badiiy ijod mazmuni va mohiyatini to'laqonli tarzda namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, ohang omili – musiqadagi mohiyatni va estetik mazmuni ochib beradi. Bu jarayon idrok vositasida amalga oshadi.

Umuman olganda, musiqa tarbiyaviy jarayonlarda ishtirok etar ekan, uning ma'naviy hodisa sifatidagi mohiyati va ahamiyati yanada bo'rttiribroq ko'zga tashlanishi, shuning uchun musiqaga ham estetik, ham axloqiy izlanishlar obyekt sifatida murojaat qilinishi, mana shu jihat o'z navbatida, axloq bilan nafasat, badiiylik bilan estetikaning o'zaro aloqadorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bois musiqa to'garaklarining tarbiyaviy vazifasidan oqilona foydalanish, o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, san'at to'garaklarda amalga oshiriladigan g'oyaviy-estetik tarbiya jarayoni muayyan texnologik tamoyillarga tayangandagina o'z samarasini beradi. Ushbu tamoyillar sirasiga milliy rivojlanishga yo'naltirilganlik, ta'lim va tarbiya birligi, hayotiylik, yaxlitlik, ong va xulq-atvor birligi, amaliylik,

ommaviylik, o'quvchilar tashabbusini rag'batlantirish, ijodiy hamkorlik, o'zaro hurmat, bir-birini rag'batlantirish, "ommaviy madaniyat" ta'siriga qarshi ma'rifiy kurash, uzviylik, g'oyaviy va badiiy tarbiya omillari ta'sirining muvofiqlashganligi kabilar kiradi. Ijodiy tafakkurni rivojlantirishning izchilligi, ketma-ketligi, sistemaliligi va uzluksizligi tamoyilini amalga oshirish to'g'arak rahbarlaridan tarbiya texnologiyasi sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni talab qiladi. Bunda o'quvchilarning mavjud badiiy-estetik bilim, ko'nikma va malakalariga, hayotiy tajribasi va qobiliyatlariga tayanish juda muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya. <https://xabar.uz>
2. Лосев А. *Античная музыкальная эстетика*. – Москва: Музгиз, 1960. – 624 с.
3. Irzayev B. *O'zbek musiqa madaniyati tarixi sahifalaridan [Matn]*. – Toshkent: Akadernashr, 2017. – 160 b.
4. Xo'jayeva M. *Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi*. 2-nashri. *O'quv qo'llanma*. – Toshkent: Musiqa, 2008. – 111 b.
5. Oripov X. *Musiqa sehri // Teatr*. – 2013. – № 5. – B. 42–43.
6. Mannopov S. *O'zbek xalq musiqa madaniyati (o'quv qo'llanma)*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 150 b.
7. Ergashev O. *Talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy zarurati va pedagogik asoslari // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari // Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук // Actual Problems of Humanities and Sotsial Sciences*. – Tashkent. – 2023. – №3. – S. 255–260.